


JYUL VERN

**O'N BESH
YOSHLI
KAPITAN**



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2003

T a h r i r h a y' a t i:

Bobur ALIMOV (*rahbar*), Ahror AHMEDOV (*rahbar o'rinbosari*), Alisher IBODINOV, Nizom KOMILOV, Tohir MALIK, Erkin MALIKOV (*hay'at kotibi*), Qodir MIRMUHAMEDOV, Anvar OBIDJON, Xudoyberdi TO'XTABOYEV, Ibodulla SHOYMARDONOV, Barnobek EShPO'LATOV.


T a r j i m o n:

Malik Rahmon

R a s s o m l a r:

Aleksandr Petrov, Mixail Samoylov

**BIRINCHI
QISM**



V—17

Vern, Jyul.

O'n besh yoshli kapitan. Roman. / «Jahon sarguzasht adabiyoti» turkumi. Malik Rahmon tarjimasi // Tahrir hay'ati: Bobur Alimov va boshq./ — T.: «Sharq», 2003. 416 bet.

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2003

B i r i n c h i b o b

«PILIGRIM» KEMASI

1873-yilning ikkinchi fevralida «Piligrim» nomli shxuna-brig dengizda Grinvichdan hisoblaganda 43°57' janubiy kenglikdagi va 165°19' g'arbiy uzunlikdagi nuqtada edi. Bosim kuchi to'rt yuz tonna keladigan bu kema janubiy dengizlarda kit ovlash uchun San-Fransisko shahrida safarga tayyorlangan edi.

«Piligrim» kaliforniyalik badavlat kemalar xo'jayini Jems Ueldonga qarashli edi; kemaga ko'p yillardan beri kapitan Gul qo'mondonlik qilib kelar edi.

Jems Ueldon Bering bo'g'ozidan ham naridagi shimoliy dengizlarga va janubiy dengizlardagi Tasmaniya oroli bilan Gorn burniga har yili kemalar karvonini yuborib turar edi. Kichkinagina «Piligrim» kemalar karvonining eng yaxshi kemasi hisoblanar edi. U juda yaxshi yurar edi. Yaxshigina uskunalanganidan oz sonli komanda bilan Janubiy Muz okeanidagi bepoyon muz chegaralarigacha bora olar edi.

Kapitan Gul yoz oylarida shimoliy dengizlarga qaraganda janubiy dengizlarda ancha beri kelib qoladigan suzuvchi muzlar orasidan kemani bemalol haydab boraverar edi. Yaxshi Umid burni bilan Yangi Zelandiya yonida bunday muzlarni ko'plab uchratish mumkin, lekin aslida bu muzlar iliq suvda yuvilib ko'chib ketgan kichkina muz tog'lari bo'lib, ularning ko'pchiligi Atlantika yoki Tinch okean suvlarida tezda erib ketadi.

Janubiy flotiliyaning eng yaxshi dengizchi hamda eng usta garpunchisi kapitan Gul qo'l ostidagi «Piligrim» kemasida beshta tajribali matros bilan bitta shogird matros bor edi. Kit oviga bu kamlik qilar edi, chunki kit ovlashda qayiqlarda yurib ish qilish hamda ovlangan kitlarni saranjomlab olish uchun ko'p kishi kerak bo'lar edi. Ammo barcha boshqa kema xo'jayinlari singari Jems Ueldon ham kemani boshqarish bilangina band bo'ladigan kishilarni San-Fransiskodan tanlab olish qulayroq deb hisoblardi. Yangi Zelandiyada yerlik xalq o'rtasida hamda har xil millatdan bo'lgan qochoqlar orasida bir mavsumlik ishga yollanishga tayyor bo'lgan usta garpunchilar ham, chaqqon matroslar ham juda ko'p edi. Ish mavsumi tugagandan keim hisob-kitob qilib, ularga javob berib yuborardilar, ular sohilda yanagi yilda kit ovlash uchun keladigan kemalarni poylab yotar edilar. Bu hol kema xo'jayinlariga komandaga to'lanadigan maoshdan ancha-muncha pulni tejab, baliq ovlash kasbining daromadini oshirishga imkon berar edi.

Jems Ueldon ham «Piligrim»ni safarga chiqarayotganda xuddi ana shunday qildi.

Bu kema janubiy qutb doirasi yonida kit ovlashni endigina tugatgan edi, lekin uning tryumida kit mo'ylovini joylashtirish uchun hali bo'sh joylari ko'p va baliq moyi soladigan bo'sh bochkalari ham anchagina edi. O'sha vaqtlardayoq kit ovlash kasbi anchagina qiyinlashib qolgan edi, odamlar ularni behisob ko'p qirayotganligidan, kitlar kamdan-kam uchrar edi. Asl kitlar tugab bormoqda edi, shuning uchun ham ovchilar ola kitlarni¹ ovlay boshlagandilar, bu ov esa juda xatarli edi.

«Piligrim»ning bu yil omadi yurishmadi. Yanvar oyining boshlarida, ya'ni Avstraliya tomon-

¹ Asl kit — sanoat uchun qimmatli xom ashyo sanalgan baliq moyi bilan baliq mo'ylovi beradi. Kit mo'ylovi — muguz plastinkasidan har xil buyumlar yasaladi. Ola kitlar faqat baliq moyigina beradi, ularning mo'ylovi kalta bo'ladi.

laridagi yozning¹ eng qizg'in paytida, ovchilik mavsumi tamomlanishidan ancha burun, kapitan Gul ov qilinadigan joyni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Kemaga yollangan matroslar ishlashdan bosh tortdilar, shuning uchun kapitan Gul ularga javob bermay iloji yo'q edi.

«Piligrim» shimoli-g'arb tomonga safar qilib, 15-yanvar kuni Yangi Zelandiya shimoliy orolining sharqiy qirg'og'idagi Oklend portiga yetib keldi. Bu yerga kelgach, kapitan kit ovlash mavsumi uchun yollangan matroslarni ishdan bo'shatib yubordi.

«Piligrim»ning doimiy komandasi juda xafa edi; chunki kemada kam deganda ikki yuz bochka baliq moyi yetishmas edi. Ovchilikning natijasi hech qachon bunchalik yomon bo'lmagan edi.

Hammadan ham kapitan Gul qattiq xafa edi. Bu hol uning mashhur kit ovchisi degan shuhratiga isnod keltirar, shuning uchun u ovning muvaffaqiyatsiz chiqishiga sabab bo'lgan dangasa tekinxorlarni so'kkani-so'kkan edi.

U Oklendda yangi matroslar yollamoqchi bo'lib behuda urindi, chunki hamma matroslarni boshqa kit ovlovchi kemalar ishga olib qo'ygan edi. Shunday qilib, «Piligrim» kemasini ov o'ljalari bilan to'lg'azish kerak degan fikrdan voz kechishga to'g'ri keldi. Kapitan Gul, Oklenddan jo'nab ketaman, deb turgan paytda, yo'lovchilar kelib qolib, undan o'zlarini kemaga olishni iltimos qildilar. Kapitan «yo'q» deyolmadi.

Shu vaqtda «Piligrim» kemasi xo'jayinining xotini missis Ueldon, uning yaqinda besh yoshga to'lgan o'g'li Jek va xotining Benedikt degan tog'asi Oklendda edilar. Ular bu yerga, ba'zan savdo-sotiq ishlari yuzasidan Yangi Zelandiyaga qatnab turuvchi Jems Ueldon bilan birga kelishgan va yana

¹ Janubiy yarim sharda yoz oylari Shimoliy yarim sharning qish oylarida o'tadi.

birga San-Fransiskoga qaytib ketmoqchi bo'lishgan edi. Biroq endi jo'nab ketamiz deb turganlarida, ularning o'g'ilchasi Jek betob bo'lib qoldi. Jems Ueldonning esa Amerikada juda qistalang ishlari bor edi, shuning uchun u xotini, kasal o'g'li va Benediktini Oklendda qoldirib, o'zi jo'nab ketgan edi.

Oradan uch oy vaqt o'tdi, bu judolik bechora missis Ueldonga juda og'ir tuyuldi. Kichkina Jek sog'aygach, missis Ueldon safar hozirligini ko'ra boshladi. Xuddi o'sha mahalda «Piligrim» Oklend portiga kelib qoldi.

U zamonlarda hali Oklend bilan Kaliforniya o'rtasida to'g'ri yo'l yo'q edi. Missis Ueldon avval Avstraliyaga borishi, unda «Oltin asr» shirkatining okeanlar orqali yo'lovchilar tashiydigan paroxodiga tushib, Melburndan Panama bo'yniga kelishi va undan Kaliforniyaga boradigan amerika paroxodini kutib turishi kerak edi.

Yosh bola bilan safar qiluvchi ayollarga bunday yo'l juda sermashaqqat edi, chunki bir necha joyda paroxoddan paroxodga o'tish, paroxodlarni kutish kerak bo'lardi. Shuning uchun missis Ueldon «Piligrim» kemasining kelganini bilgani hamon o'zi bilan birga Jek, tog'asi Benedikt va Jekning enagasi — negr kampir — Nanni San-Fransiskoga olib ketishini kapitan Guldan iltimos qildi. Negr kampir Nan missis Ueldonning o'zini ham boqib katta qilgan edi.

Yelkanli kemada uch yarim ming le keladigan yo'lni bosish hazil gap emas! Ammo kapitan Gulning kemasi doimo tappa-taxt, beshikast bo'lib, safar uchun ob-havo ham bop edi.

Kapitan Gul rozi bo'ldi. U o'z kayutasini darrov yo'lovchi xonimga bo'shatib berdi. Kapitan Gul, qirq-ellik kunga cho'ziladigan safar vaqtida missis Ueldon kit ovlovchi kemaadagi jamiki imkoniyatlardan foydalansin, deb o'yladi.

Shunday qilib, «Piligrim»da safar qilish missis Ueldon uchun ancha qulay edi. Ammo kemaadagi

yuklarni bo'shatish uchun to'g'ri yo'ldan bir oz chetroqda bo'lgan Chili sohilidagi Valparaisoda to'xtab o'tishi kerak edi. Biroq Valparaisodan to San-Fransiskoga qadar yo'l-yo'lakay esgan shamol bilan Amerika sohili bo'ylab bemalol ketilaverardi.

Eri bilan uzoq safarlarda yurib, qiyinchiliklarga ko'nikib qolgan dovyurak missis Ueldon dengizdan sira qo'rqmas edi. U o'ttiz yoshlarga kirgan bo'lib, salomatligi ham juda joyida edi. U kapitan Gulning ajoyib dengizchiligini, «Pilgrim» esa ishonchli kema ekanligini yaxshi bilar edi. Shuning uchun qulay payt kelganda foydalanib qolish kerak edi. Shu sababdan missis Ueldon bu kichkinagina kema-da safar qilishga qaror berdi. Turgan gapki, tog'asi Benedikt ham u bilan birga jo'nashi kerak edi.

Tog'asi ellik yoshlarga borgan edi. Shuncha yoshga borganligiga qaramasdan, uning o'zini uydan yolg'iz chiqarib bo'lmas edi. Novcha, paxmoq sochli, tilla ko'zoynak taqqan oriqqina Benedikt tog'a baayni asl olimga o'xshar edi. Umrining oxirigacha bolatabiat bo'lib yashash bu yuvosh kishining peshanasiga yozib qo'yilgan bo'lsa kerak.

Uydagilargina emas, begona odamlar ham bu kishini «Benedikt tog'a» deyishardi; yuvoshligi uchun hamma uni o'ziga yaqin ko'rar edi. Benedikt tog'a o'zining haddan tashqari uzun qo'l va oyoqlarini qo'yarga joy topolmasdi; bunaqangi ep-siz va shalpaygan odamni qidirib topish qiyin ish edi, ayniqsa, u turmushda uchraydigan eng oddiy masalalarni yechish to'g'ri kelganda ojiz qolar edi.

Uni tevaragidagi kishilar uchun oshiqcha bir yuk deb ham aytib bo'lmaydi, ammo o'zining allaqanday beo'xshovligidan o'zi ham xijolatda, boshqalar ham xijolatda edi. Shunday bo'lsa ham o'zi kamtar, yuvosh, har narsaga moyil, issiq va sovuqqa chidamli odam edi, agar unga ovqat berish esdan chiqib qolguday bo'lsa, kun bo'yi hech narsa yemasdan ham, ichmasdan ham o'tiraverardi.

Benedikt tog'ani inson zotidan ko'ra, ko'proq o'simlik zotiga o'xshatsa bo'lardi. U xuddi bargsiz va mevasiz daraxtga, yo'lovchini soyasidan bahramand qila olmaydigan, uni rizqlantira olmaydigan daraxtga o'xshar edi.

Biroq ko'ngli juda yumshoq odam edi. Shunday zaif tomonlari borligiga qaramasdan, ehtimolki, o'sha zaif tomonlari uchun ham, ishqilib, hamma uni yaxshi ko'rar edi. Missis Ueldon unga xuddi o'z o'g'lidek, kichkina Jekning akasidek qarar edi.

Ammo, shuni ham aytish kerakki, Benedikt tog'a bekorchilikni yoqtiradigan odam emas edi, aksincha, u juda mehnatkash odam edi. Uning birdan-bir ishq i tushgan narsasi tabiatshunoslik bo'lib, o'zining butun umrini shunga bag'ishlagan edi.

«Tabiatshunoslik» degan so'z keng ma'noni bildiradi. Ma'lumki, bu so'zning ma'nosi ko'p: u zoologiya, botanika, mineralogiya va geologiya fanlarini o'z ichiga oladi. Ammo Benedikt tog'a botanika olimi ham emas, mineralogiya olimi ham emas, geologiya olimi ham emas edi.

U avvalo tahlil, keyin sintez qilib har qanday hayvonni tiklashga qodir bo'lgan keng bilimli, hayvonot olimi — yangi dunyoning Kyuvyesimidi?¹ Butun hayvonlar olamini Kyuvye to'rt tipga bo'lgan; chunonchi: umurtqalilar, yumshoq tanlilar, bo'g'inlilar va shu'lalilar, — Benedikt tog'a o'zining umrini ana shu tiplarni o'rganishga bag'ishladimikin? — Yo bu sodda dil va serharakat olim o'sha to'rtta tiplarga qarashli turkumlar, kenja turkumlar, oilalar, kenja oilalar, urug' va turlarni o'rgandimikin?

Yo'q!

Benedikt tog'a balki umurtqalilarni, ya'ni sut

¹ *Jorj Kyuvye* (1769—1832) — mashhur fransuz tabiatshunosi. Hayvonlarni qazib, tekshirib shuhrat qozongan; Kyuvye butun hayvonlar olamini to'rtta yirik bo'lakka bo'lib, ularning har biriga «tip» deb nom bergan.

emizuvchilar, parrandalar, sudraluvchilar yoki boshqalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lgandir?

Aslo!

Ehtimol, u, yumshoq tanlilarni tekshirayotgandir? Balki u bosh-oyoqlilar bilan qurtlarning sirini ochayotgandir?

Unday ham emas!

Demak, u yarim kechagacha kerosin chiroq yoqib o'tirib, meduzalar, poliplar, igna tanlilar, shu'lalilarning oddiy va boshqa turlarini tekshirish bilan ovora ekan-da?

To'g'risini aytish kerak, Benedikt tog'aning diqqatini tortayotgan narsa shu'lalilar emas edi.

Endi butun hayvonot olami ichida faqatgina bo'g'inlilar qoldi, demak, Benedikt tog'aning butun diqqatini ana shu bo'g'inlilar tortgan. Ammo buni ham aniqlash kerak bo'ladi.

Bo'g'inlilar olti turkumga bo'linadi: hasharotlar, ko'p oyoqlilar, o'rgimchaksimonlar, qisqichbaqasimonlar, mo'rt oyoqli va halqali chuvalchanglar. To'g'risini aytganda, Benedikt tog'a yer chuvalchangini zulukdan, uy o'rgimchagini soxta chayondan, dengiz qisqichbaqasini oddiy qisqichbaqadan yoki kivsyakni mingoyoqdan ajrata olmas edi.

Bo'lmasa Benedikt tog'a kim bo'ldi?

Eng oddiy entomolog¹ edi!

Bunga esa, entomologiya — tabiiyot fanining bir qismi, barcha bo'g'inlilar to'g'risidagi qismi, deb e'tiroz qilishlari mumkin. Umuman olganda, bu to'g'ri. Ammo, odatda «entomologiya» degan so'zning ma'nosi torroq. Bu so'z faqatgina hasharotlar, ya'ni «gavdalari bosh, ko'krak va qorindan iborat bo'lib, bir juft mo'ylovi, ko'kragida uch juft oyog'i va aksari ikki juft qanoti bor bo'lgan bo'g'in oyoqli umurtqasizlar» to'g'risidagi fanni bildiradi.

¹ Entomolog — hasharotlar to'g'risidagi fan olimi.

Shunday qilib, butun umrini hasharotlarni tekshirish ishiga bag'ishlagan Benedikt tog'a entomolog edi.

Ammo, shunga qarab, Benedikt tog'aning qiladigan ishi yo'q edi, deb o'ylamanglar. Bu bo'limning o'zi o'n turkumga bo'linadi:

1-turkum — to'g'ri qanotlilar (masalan: suvaraklar, chigirtkalar, chirildoqlar va hokazo).

2-turkum — to'r qanotlilar (chumolilar, so'zanaklar).

3-turkum — parda qanotlilar (asalarilar, arilar, chumolilar).

4-turkum — (kapalaklar toifasi).

5-turkum — qandalalar (saratonlar, o'simlik bitlari, kanalar).

6-turkum — qo'ng'izlar (tillaqo'ng'izlar, sas-siqqo'ng'izlar).

7-turkum — ikki qanotlilar (chivinlar, iskaptoparlar, pashshalar).

8-turkum — yelpig'ichsimonlar (stilops yoki mo'ylovlilar).

9-turkum — tekinox'rlar (bitlar).

10-turkum — tuban hasharotlar (tangasimonlar).

Ammo bulardan bir qo'ng'izlarning o'zigina eng kamida o'ttiz ming xil, ikki qanotlilar esa oltmish ming xil bo'ladi¹, shuning uchun Benedikt tog'aning ishi boshidan oshib yotardi, desa bo'ladi.

U butun umrini, jamiki vaqtini faqat entomologiya faniga bag'ishlagandi: kunduz kunlarinigina emas, hatto kechalarini ham entomologiyaga berardi, hatto tushida ham faqatgina o'sha hasharotlarni ko'rib chiqar edi. Pidjagining yeng qaytarmalariga, yoqasiga, etaklariga va shlyapasi-ga sanchib qo'yilgan to'g'nag'ichlarning hisobi

¹ Muallif tomonidan keltirilgan «turkumlar» soni, ya'ni hasharot xillarining soni unchalik ko'p emas. Hozir bir millionga yaqin har xil hasharotlar borligi ma'lum, shu jumladan, ikki yuz mingdan ortiq har xil qo'ng'izlar bor.

yo'q. Benedikt tog'a shahar atrofidagi dalalarga qilgan safaridan qaytib kelganida, uning shlyapasi har xil hasharotlar bilan to'lib-toshib ketgan bo'lar edi. Bu hasharotlar qalpog'ining tashqari tomoniga ham, ichkari tomoniga ham to'g'nag'ich bilan san-chilib qo'yilar edi.

Bu devona olimning qiyofasini yana ham to'la-to'kis tasvirlab berish uchun shuni ham aytish kerakki, uning mister va missis Ueldonlar bilan Yangi Zelandiyaga borishidan muddaosi yangi hasharotlar topib, entomologiya faniga yangilik qo'shish ishtiyoqini bir oz qanoatlantirish edi. Yangi Zelandiyada u juda siyrak uchraydigan yangi-yangi hasharotlar topdi. Shuning uchun ham Benedikt tog'a, bu qimmatli narsalarni o'z uyidagi hasharotlar kolleksiyasiga eltib, xillab qo'shib qo'yish uchun San-Fransiskoga qaytishga juda os-hiqar edi.

Missis Ueldon o'g'ilchasi bilan «Pilgrim»da uyiga qaytayotgan ekan, muqarrar, Benedikt tog'a ham ular bilan birga ketishi kerak edi.

Missis Ueldon biror xavf-xatar yuz berib qol-gudek bo'lsa, Benedikt tog'aning yordam qilishiga umid bog'lamas edi, shu bilan birga hozir missis Ueldon yilning shu faslida tinch bo'ladigan dengiz-da va ishonchli kapitanning qo'l ostidagi kemada bemalol sayohat qilishi mumkin edi.

«Pilgrim» kemasi Oklendda uch kun turdi. Shu kunlar ichida missis Ueldon yo'l hozirliklarini batamom ko'rib bo'ldi. U juda shoshilar va kema-ning kutdirib qo'ymaslikka harakat qilar edi. Missis Ueldon shu yerlik xizmatkoriga javob berib yuborib, 22-yanvar kuni Jek, Benedikt tog'a va keksa negr kampir Nan bilan hammalari «Pilgrim»ga chiqishdi.

Benedikt tog'a o'zining qadrdon jonivorlarini qayish bilan bo'yniga osib yuradigan tunuka qutichasiga avaylab joylashtirdi. Aytmoqchi, uning hasharotlar kolleksiyasi orasida ko'zlari kallasi-

ning ustida bo'lgan bir dona qattiq qanotli yirtqich qo'ng'iz ham bor edi. O'sha vaqtga qadar, bunday qo'ng'izlar toifasi faqan Yangi Kaledoniyadagina bo'ladi, deb o'ylar edilar. Benedikt tog'aga Yangi Zelandiyaning yerlik aholisi maorilar tomonidan «katipo» deb nom berilgan va bir chaqishda odamni o'ldiradigan zaharli o'rgimchaklardan bittasini olib ketishni taklif qilishgan edi. Ammo bu o'rgimchak hasharot bo'lmagani va o'rgimchaksimonlar toifasiga mansub bo'lgani uchun bizning olimimiz unga sirayam qiziqsinmadi. Shu sababdan Benedikt tog'a uni olishni o'ziga ep ko'rmadi. U o'z kollek-siyasining eng qimmatli hasharoti deb, haligi Yangi Zelandiya yirtqich qo'ng'izini hisoblar edi.

Benedikt tog'a pulni ayamasdan o'zining hasharotlar kolleksiyasini straxovaniya qildirib ham qo'ydi. Uning uchun bu hasharotlar kollek-siyasi «Pilgrim» tryumidagi jamiki kit moyi bilan mo'ylovidan ham qimmatliroq edi.

Missis Ueldon bilan uning hamrohlari kemaga chiqib olganlaridan keyin kapitan Gul ularning oldiga kelib, bunday dedi:

— Missis Ueldon, «Pilgrim» kemasida okean orqali safar qilishning butun mas'uliyatini, albat-ta, o'z gardaningizga olarsiz deyman?

— Shuni ham so'rab o'tiribsiz-a, kapitan Gul.

— Ha, shunday deyishga majburman, chunki men mister Ueldondan bu to'g'rida hech qanday ko'rsatma olganim yo'q. — Bu — birinchidan. Ikkinchi tomondan, shuning uchun aytayotirman-ki, albatta, xavfsizlik jihatidan shxuna-brig yo'lov-chilar tashish uchun maxsus ishlangan paketbot ke-malari bilan tenglasha olmaydi.

— O'zingiz qanday o'ylasiz, mister Gul, bordi-yu, erim shu yerda bo'lganida, u men va o'g'limiz bilan «Pilgrim»da mana shu xilda safarga chiqish-ga jur'at qila olarmidi?

— Ha, hech shak-shubhasiz! — deb javob qay-tardi kapitan. — Men o'zim ham hech bir o'ylab-

netib turmasdan butun oilamni «Piligrim»ga olgan bo'lardim. Garchi bu yilgi mavsumda ovimizning mazasi bo'lmagan bo'lsa ham, ammo «Piligrim» ajoyib kema. Ko'p yillardan beri o'zining ishonchli kemasiga qo'mondonlik qilib kelgan har qanday dengizchi singari, o'z kemamga mening ham ishonchim zo'r. Sizda bu savolni berishdan maqsadim shu ediki, missis Ueldon, birinchidan, ko'nglim tinch bo'lsin dedim, so'ngra, sizning tabiatigizga yarasha sharoit tug'dirish imkoniyati bo'lmagani uchun meni avf etishingizni yana bir karra iltimos qilmoqchi edim.

— Agar butun gap faqat o'sha sharoitlarga bog'liq bo'ladigan bo'lsa, kapitan Gul, men uchun buning hech qanday ahamiyati yo'q. Men unaqa, joy tor, ovqatning mazasi yo'q deb, hadeb kapitan-ga xarxasha qilaveradigan injiq yo'lovchilardan emasman.

Missis Ueldon qo'lidan ushlab turgan kichkina o'g'ilchasi Jekka bir ko'z tashlab oldi-da, gapini shunday tamomladi:

— Demak, oq yo'l tilayman, kapitan!

Kapitan Gul o'sha zahotiy oq langarni ko'tarishga buyruq berdi. Birpasdan keyin «Piligrim» kemasi yelkanlarini ko'tarib Oklend portidan chiqqida, Amerika sohiliga qarab yo'l oldi.

Ammo uch kun yo'l bosgandan keyin sharq tomondan qattiq shamol esib qoldi, shu sababdan shamolga qarshi suzish uchun kemani boshqa tomonga burishga to'g'ri keldi. Shuning uchun 2-fevral kuni kirganda «Piligrim» kemasi o'z kapitanining mo'ljalidan chiqib ketdi va janubiy kenglikka borib qoldi. Chetdan qaraganda, kapitan o'z kemasini to'g'ri yo'l bilan Yangi Dunyoning g'arbiy sohiliga qarab emas, Gorn burnidan aylanib o'tishni mo'ljallab haydab ketayotgan ekan, deb o'ylash mumkin edi.

Havo yaxshi edi, to'g'ri yo'ldan bir oz chetga chiqib ketilganligini e'tiborga olmaganda, safar juda yaxshi davom etmoqda edi. Missis Ueldon kapitan Gulning kemaning quyruq tomonidagi shi-namgina kayutasiga joylashib oldi. Kemada eng yaxshi kayuta shu edi. Joy tor bo'lsa-da, Jek bilan Nan kampir ham o'sha yerga joylashishdi. Benedikt tog'aga yondagi kichkinagina bir hujrani berishdi. Kapitan Gul esa o'zining yordamchisi uchun tayyorlangan kema burnidagi kayutaga o'tdi. Pulni tejash maqsadida «Piligrim» komandasining soni to'ldirilmagan, kapitan esa yordamchisiz ish ko'rar edi.

Kema komandasidagi beshta mohir va tajribakor matros juda inoq va hamjihat yashar edilar. Bu kishilar mana shu bilan to'rtinchi ov mavsumida birga edilar. Matroslarning hammasi ham Kaliforniya shtatidan bo'lib, bir-birlari bilan ko'pdan beri tanish edilar.

Kemada faqat bir kishi amerikalik emas edi. «Piligrim»da kok (oshpaz) vazifasini o'tovchi Negoro degan kishi Portugaliyada tug'ilgan bo'lsa-da, lekin u ham inglizchani yaxshi bilar edi. Kema Oklendda turgan mahalda avvalgi oshpaz qochib ketganidan keyin, Negoro o'zini kemaga oshpaz qilib olishlarini iltimos qildi. Ko'rinishda qovog'i-soliq va kamgap bo'lgan bu odam o'zini boshqalardan bir chetda olib yursa ham, lekin o'z ishini yaxshi bilar edi. Uni ishga olgan kapitan Gul yanglishmaganga o'xshaydi: chunki «Piligrim»da xizmat qilgan davrida Negoro dakki eshitadigan hech qanday ish qilmadi.

Ammo shunga qaramay, kapitan Gul yangi oshpazning o'tmishi haqida biror ma'lumot olishga ulgurolmaganiga juda achinar edi. Portugaliyalik-

ning tashqi qiyofasi va ayniqsa uning ko'zlarini joydiratib qarashlari kapitanga unchalik yoqmas edi. Kit ovlaydigan mittigina tor kemada har bir kishi hisobda turishi lozim, shuning uchun ham biror notanish kishini kemaga olishdan ilgari uning o'tmish hayotini tekshirib bilish zarur.

Negoro qirq yoshlarga borgan edi. Qotma, juda chaqqon, qora soch va qoracha yuzli bu kishining bo'yi baland bo'lmasa-da, juda baquvvat odamday ko'rinar edi. Uning ma'lumoti qanday ekan? Ba'zi-ba'zida og'zidan chiqib ketadigan so'zlariga qaraganda, ma'lumoti ham bo'lsa kerak. Negoro o'zining o'tmishi va oilasi to'g'risida hech qachon og'iz ochmasdi. Uning «Pilgrim»ga xizmatga kirganga qadar qayerda yashaganini va nima ish qilganini hech kim bilmasdi. Uning kelgusida maqsadi nimaligi haqida ham hech kim hech narsa bilmas edi. «Pilgrim»dagilar uning Valparaisoda sohilga tushib qolish niyatida ekanligini bilardilar, xolos.

Negoro dengizchi bo'lmagan bo'lsa kerak. Buning ustiga kemadagi matroslar, aksari umrini dengizda suzib o'tkazgan boshqa koklarga qaraganda, dengiz ishlarini kam tushunayotganini bilib oldilar. Biroq u dengiz kasali bilan og'rimasdi, bu esa kema oshpazi uchun juda katta fazilat edi.

Negoro hadeganda kema sahniga chiqavermasdi. U kun bo'yi ko'pgina joyini plita egallab yotgan torgina kambuzda band edi. Qorong'i tushishi bilan u plitadagi o'tni o'chirib, kemaning burnidagi o'z hujrasiga kirib yotar edi. U yerda birpasda dang qotib uxlab qolar edi.

«Pilgrim»da beshta eski matrosdan tashqari, yana shu yili ishga olingan yoshgina bir matros ham bor edi.

Bu yosh matrosning ota-onasi kim ekanligi no-ma'lum edi, chunki uni chaqaloqlik vaqtida birovlarining eshigi oldidan topib olishgan va keyin tarbiyaxonada boqib o'stirilgandi.



U yigitchaning oti Dik Send bo'lib, Nyu-York shtatida yoki Nyu-York shahrining o'zida tug'ilgan bo'lsa kerak.

Bu bolani topib olib tarbiyaxonaga topshiruvchi rahmdil kishining oti Richard bo'lgani sababidan, buni qisqartirib, unga Dik nomini berishgan. Uning familiyasini Send¹ deb qo'yishgan, chunki uning topilgan joyi Gudzon daryosining Nyu-York portiga kelib quyiladigan joyi Qum tili — Sendi-Guk deb yuritilar edi.

Dik Send o'rta bo'yli, baquvvat, qora soch bir yigit bo'lib, ko'm-ko'k ko'zlari uning hadsiz irodali bir kimsa ekanligidan darak berardi. Dengizchining og'ir ishi uni kelgusidagi turmush qiyinchiliklariga bardoshli bo'lishga o'rgatdi. Uning oqilona chehrasida g'ayrat nafasi urib turar edi. Uning qiyofasi dovyurak odamninggina emas, hatto qahramon bir odamning qiyofasiga o'xshar edi.

U o'n besh yoshidayoq biron ishni niyat qilishga va qilgan niyatini oxirigacha yetkazishga qodir bir kimsa edi. Dik aksari tengqurlariga o'xshab hadeb gapiraverishni va har xil qiliqlar qilishni yoqtirmasdi. Boshqa bolalar hali o'z kelajagi haqida o'ylashga qodir ham bo'lmagan bir yoshda, Dik o'z qismati haqida o'ylar va kelgusida albatta «odam bo'laman» deb ahd qilgan edi.

Dik bu maqsadiga erishdi ham: uning tengqurlari hali bola bo'lgan paytda, u katta kishi bo'lib qolgan edi. Dik singari chaqqon, serharakat va baquvvat odamlarni ikkita o'ng qo'l va ikkita chap oyoq bilan tug'ilgan deyish mumkin; bunday kishilar nimaiki ish qilmasinlar — uddasidan chiqadilar, kim bilan birga yurmasinlar — baravar qadam tashlab keta oladilar.

Dik tarbiyaxonada o'sgan deb yuqorida aytib o'tilgandi. U to'rt yoshidayoq o'qishga o'rgandi. Sakkiz yoshida u janubiy mamlakatlarga qatnaydi-

gan kemaga yunga bo'lib kirdi: u yoshligidayoq dengizga ishqiboz edi.

Kemada u dengizchilik hunarini o'rgana boshladi. Kemadagi ofitserlar bu tirishqoq bolaga yaxshi muomala qildilar va uning mashg'ulotiga astoydil yordam berdilar.

Mehnat qilish hayotning qonuni ekanligini, faqat peshana teri to'kib non topish mumkinligini yoshligidanoq tushungan odamgina qahramonlik ko'rsatishga qodir bo'ladi; chunki unda buning uchun har bir kun va har bir soatda iroda va kuch topiladi.

Dik xizmat qilgan kemaga qo'mondonlik qiluvchi kapitan Gul bu qobiliyatli shogirdga e'tibor bera boshladi. Jasur kapitan bu dadil bolani yoqtirib qoldi. San-Fransiskoga qaytganda, uning to'g'risida kemalar xo'jayiniga gapirib berdi. Jems Ueldon bolaning kelajagiga qiziqib, uni boshlang'ich maktabga o'qishga berdi va o'qishni bitirib olishiga yordam qildi.

Dik havas bilan o'qidi, u ayniqsa geografiya bilan sayohatlar tarixiga juda ko'ngil qo'ydi; maktabda oliy matematika bilan navigatsiya¹ nazariyasini o'qitmaganliklariga juda-juda achinar edi. Maktabni tamomlagandan keyin Dik Ueldonning kit ovlovchi kemasiga matros bo'lib kirdi. Dik uzoq sayohat qilish kabi, kit ovlashdek kattakon kasb ham asl dengizchi tayyorlash uchun ko'p foydali bir ish ekanligini tushunardi. Har qanday tasodifiy voqealarga uchraydigan dengizchilik hunarini o'rganayotgan yosh o'smir uchun kit ovlovchi kemada xizmat qilish eng yaxshi tajriba edi. Shu bilan birga, bu «Pilgrim» kemasiga o'zining homiysi kapitan Gul qo'mondonlik qilar edi. Shunday qilib, yosh matros uchun eng yaxshi sharoitlar mavjud edi.

¹ Navigatsiya — kema haydash to'g'risida bahs etadigan fanning bir bo'limi.

¹ Send — inglizcha: qum.

Dik, unga ko'p yaxshiliklar qilgan Ueldonlar oilasini samimiy yaxshi ko'rganligi haqida gapirib o'tirishning hojati bormikin? Missis Ueldon o'g'ilchasi bilan «Piligrim»da sayohat qilmoqchi bo'lgani to'g'risidagi xabarni eshitgandan keyin suyunganidan Dikning og'zi qulog'iga yetdi. Keyingi yillar ichida u missis Ueldonna o'z onasiday, Jekni esa ukasiday yaxshi ko'rar edi.

Missis Ueldon ham Dikka bemalol ishonaverish mumkinligini juda yaxshi bilar edi. U kichkina Jekni unga jondili bilan ishonib topshirib qo'yardi. Jek ham «akasi» yaxshi ko'rishini bilib, Dikning pinjiga kirgani kirgan edi.

Havo ochiq paytda, hamma yelkanlarni yozib ochiq dengizda suzayotganda, matroslarning bo'sh vaqti ko'p bo'lardi. Dik o'zining hamma bo'sh vaqtlarini doim kichkina Jek bilan birga o'tkazardi. Dik bolaga har xil ermaklar topib berar va dengizchilik ishidagi turli qiziq narsalarni ko'rsatar edi.

Missis Ueldon Jekning baland machta ustuniga o'rmalab chiqayotganini va yelkanlar orasidagi arqonlardan kemaga o'qday otilib tushayotganini hech qo'rqmasdan tomosha qilib turar edi. Besh yashar Jekning kuchsiz qo'llari tolib qolguday bo'lsa, unga yordam berish uchun Dik Send doim uning yonida tayyor turardi. Endigina og'ir kasaldan tuzalgan bolaga ochiq havoda o'ynash foydali edi. Dengiz shabadasida o'ynash va har kuni gimnastika qilish natijasida bola ilgarigi holiga keldi va oqargan yuzlariga qizillik yugurdi.

Yangi Zelandiyadan Amerikaga qilingan safar ana shunday sharoitda o'tmoqda edi. Agar sharq tomondan shamol esmaganida, «Piligrim» kemasi komandasi bilan yo'lovchilarning norozi bo'lishi uchun bo'lak hech qanday sabab yo'q desa bo'lardi.

Ammo shamolning ro'paradan esishi kapitan Gulga sira yoqmasdi. U kemani hadeb oldinga haydab bora olmasdi. Bundan tashqari kapitan Gul yo'lda tinch Kozerog tropigiga tushib qolib kema-

ning uzoq vaqt to'xtalib qolishi mumkinligidan xavotirlanar edi; ekvatoridan esayotgan shamol oqimi kemani g'arb tomonga surib ketishi mumkinligi to'g'risida gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

Safarning cho'zilib ketganiga o'zining aybdor emasligini bilsa ham, kapitan Gul, ayniqsa, missis Ueldon to'g'risida tashvish tortar edi. Mabodo hozir «Piligrim» yonidan Amerikaga ketayotgan biron okean paroxodi o'tib qolguday bo'lsa, kapitan Gul missis Ueldonna o'sha paroxodga o'tishga albatta ko'ndirgan bo'lar edi. Ammo, baxtga qarshi, «Piligrim» shunday joyda ediki, Amerikaga boradigan paroxodlarning bu joydan o'tishiga hech qanday umid yo'q edi. Chunki u vaqtlarda Avstraliya bilan Yangi Dunyo o'rtasida kemalar hozirgidek ko'p qatnamas edi.

Kapitan Gul havoning o'zgarishini kutishga majbur bo'ldi. Ammo bu dengiz sayohatini hech narsa ham o'zgartira olmaydiganday tuyular edi.

Biroq 2-fevral kuni, kema shu hikoyaning boshida aytib o'tilgan joyga kelganda, kutilmagan bir voqea yuz berdi.

O'sha kuni havo ochiq, quyosh nur sochmoqda edi. Ertalab soat to'qqizlarda Dik Send bilan Jek bizan-machtaning reyasi ustiga chiqib oldilar: bu yerdan ular kemanding palubasini va mavj urayotgan dengiz to'lqinlarini tomosha qilib o'tirar edilar. Ularning orqa tomonidagi grot-machtaga yonboshlatibroq tortilgan pastki yelkan-grot ufqning ancha joyini berkitib turar edi. Ularning oldidagi bushpirtga tortilgan yelkanlar — kliver bilan staksel xuddi qanotday yoyilib turardi. Oyoqlari tagida dumaloq bo'lib ochilib turgan fok yelkani, tepasida esa fok-marsel yelkani shamoldan yoyilib yotar edi. Kema shamolga mumkin qadar ko'proq qaratilar edi.

Dik Send hamma joyiga baravar yuk ortilgan «Piligrim» shtirbortga bir oz qiyshaysa ham, nima uchun ag'anamasligini Jekka tushuntirib o'tirgan edi, Jek to'satdan uning so'zini bo'lib:

— Huv anavi nima?.. — deb so‘rab qoldi.
— Nima, biron narsa ko‘rdingmi, Jek? — deb so‘radi-da, Dik Send sakrab o‘rnidan turdi.

— Ha, ha! Huv ana! — dedi Jek, qo‘lini yelkanlar orasidan dengiz bo‘shlig‘iga uzatib.

Dik Send, Jek ko‘rsatgan tomonga qayrilib qara-di-da:

— Kemaning chap tarafida, oldinda, shamol esayotgan tomonda bir kema ko‘rinyapti! — deb qichqirdi.

Uch inchi bob

FALOKATGA UCHRAGAN KEMA

Dik Sendning hayqirig‘i hammani vahimaga solib qo‘ydi. Ishdan bo‘sh bo‘lgan matroslar palubaga otilib chiqishdi. Kapitan Gul ham hujrasidan chiqdi. Missis Ueldon, Nan va hattoki kemaning shtirbortidagi panjaraga suyanib turgan Benedikt tog‘a ham — hamma dengizda ko‘rinayotgan narsaga astoydil tikilib qaray boshladilar. Faqat Negorogina kambuz joylashgan kichkina hujradan chiqmadi. Tuyqusdan uchragan bu kemaga ular orasida faqat Negorogina qiziqsinmadi.

Bola ko‘rib qolgan narsa «Piligrim»dan uch milcha narida, dengiz to‘lqinlari orasida chayqalib turar edi.

Matroslardan biri:

— Bu nima bo‘ldi ekan? — deb so‘rab qoldi.

— Menimcha, sol bo‘lsa kerak! — dedi boshqasi.

— Ehtimol, ichida odamlar ham bordir?.. Bechoralar halokatga uchrashgan bo‘lsa-ya?.. — dedi missis Ueldon.

— Yaqinroq borsak bilamiz, — dedi kapitan Gul. — Menimcha, bu narsa sol emas, balki ag‘darilgan kema bo‘lsa kerak...

— Yo‘q!.. Bu kattakon dengiz hayvoni! — dedi Benedikt tog‘a.

— Sen nima deb o‘ylaysan, Dik? — deb so‘radi yigitchadan missis Ueldon.

— Men ham kapitan Gulning fikriga qo‘shilaman, bu yon tomonga qiyshaygan kema bo‘lsa kerak, missis Ueldon. Men hatto kemaning mis kili oftobda yarqirab turganini ham ko‘rayotganday bo‘lyapman.

— Ha... ha... endi men ham ko‘ryapman, — dedi kapitan va rul boshqaruvchiga burilib:

— Shamolga qarshi yur, Bolton, to‘ppa-to‘g‘ri o‘sha narsaga qarab haydayver! — deb komanda berdi.

— Xo‘p bo‘ladi, kapitan! — dedi rul boshqaruvchi.

— Men o‘z fikrimda qolaman, — dedi Benedikt tog‘a. — Bizning oldimizdagi narsa, hech shakshubhasiz, dengiz hayvoni.

— U holda u mis kit ekan-da, — dedi kapitan Gul, — oftobda yarqirashini qaranglar-a.

— Kit bo‘lganda ham, Benedikt tog‘a, har holda o‘lik kit ekan, — dedi missis Ueldon, — chunki sira qimirlamasdan jim yotipti.

— Nima qipti, jiyan, — deb e‘tiroz bildirdi bizing qaysar olimimiz, — dengiz ustida uxlab yotgan kitni uchratgan kemalar ozmunchami, axir!

— Bu juda to‘g‘ri, — dedi kapitan Gul, — lekin har holda bizning oldimizdagi narsa uxlab qolgan kit emas, kema.

— Ko‘ramiz-da, — dedi tog‘a.

O‘rni kelganda shuni aytib o‘tish kerakki, Benedikt tog‘a kitlarga hech bir qiziqmas edi, u butun shimoliy hamda janubiy muz dengizlaridagi kitlardan bironta nodir hasharotini afzal ko‘rar edi.

— O‘ngroqqa, Bolton, o‘ngroqqa! — deb qichqirdi kapitan Gul rul boshqaruvchiga. — Unga bir kabeltovdan yaqinroq borma. Bizlar-ku unga hech bir zarar yetkazmaymiz-a, ammo u «Piligrim»ni mayib qilsa, ish chatoq bo‘ladi. O‘ngroqqa yuraver!

Shundan keyin «Piligrim» bir oz o'ngdan yura boshladi.

«Piligrim» falokatga uchragan kemadan bir milcha berida edi. Matroslar yonboshlab qolgan kemaga hadeb tikilishgani tikilishgan edi. Ehtimol, uning omborlarida qimmatli narsalar bordir? Ehtimol, ularni «Piligrim»ga ortib olish mumkin bo'lar? Ma'lumki, g'arq bo'layotgan kemadagi yukni qutqazib olganlik uchun o'sha yukning uchdan bir qismi baravarida mukofot beriladi. Basharti, ombordagi narsalar suv tagida qolib buzilmagan bo'lsa, «Piligrim»dagilar butun bir mavsumlik daromadni bir kunda qoplab olishlari mumkin.

Chorak soatdan keyin «Piligrim» dengiz ustida qalqib turgan narsadan yarim mil berida edi.

Endi hech qanday shak-shubha qolmadi: bu narsa yon tomonga qiyshayib qolgan kema ekan. Uning palubasi qariyb tik turib qolgandi. Takelajdan hech bir asar qolmabdi. Kemaning tanasida katta bir teshik ko'rinib turibdi. To'sin hamda ustiga qoqilgan tunukalar o'sha teshik ichiga qayrilib kirib ketibdi.

— Bu kema qandaydir boshqa bir kema bilan urishib ketgan ekan! — deb xitob qildi Dik Send.

— To'g'ri, hech shubhasiz shunday bo'lgan, — deb tasdiqladi uning fikrini kapitan Gul. — Hammadan ham uning o'sha zahotiyoq cho'kib ketmaganiga hayronman. Buni mo'jiza desa bo'ladi!

— Bu bilan urishib ketgan kema undagi hamma odamlarni olib ketgan bo'lsa kerak, — dedi missis Ueldon.

— Ha, shunday bo'lsa kerak, missis Ueldon, — deb javob qaytardi kapitan Gul. — Ammo falokatdan keyin undagi odamlar o'z qayiqlariga tushib jon saqlagan bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas. Afsuski, dengiz hayotida, kemalar urishib ketgan vaqtda, aybdor taraf falokatga uchragan tarafga yordam berish o'rniga, bemalol o'z yo'liga qarab ketavergan hollar ko'p bo'lgan.

— Yo'g'-ey, kapitan! Bu juda insongarchilik doirasidan chiqib ketish bo'ladi-kul!

— Afsuski, shunady hollar juda ko'p bo'ladi, missis Ueldon. Bu kemada bitta ham qayiq qolmaganiga qaraganda, undagi odamlar o'sha qayiqlarga tushib jo'nab qolgan desa bo'ladi. Ehtimol, u bechoralarni duch kelgan biron kema olib ketgan chiqar. Qayiqda bu yerdan quruqlikka yetib olish amri mahol, chunki dengizdagi orollar o'rtasidagi masofa ham, Amerika qit'asi ham juda uzoqda.

— Bu falokatning sirini, qachon bo'lsa-da, bilib bo'larmikan? — deb so'radi missis Ueldon. — Siz nima deb o'ylaysiz, kapitan Gul, u kemada bironta odam qolganmikan?

— Bo'lmasa kerak deyman, missis Ueldon, — deb javob qaytardi kapitan. — Agar odam bo'lsa edi, allaqachon bizni ko'rib biron ishora qilardi. Har holda, biz hozir buni tekshirib ko'ramiz... chaproqqa bur, Bolton, chaproqqa! — deb qichqirdi rul boshqaruvchiga qo'li bilan yo'l ko'rsatib. «Piligrim» halokatga uchragan kemadan atigi uch kabeltov berida edi. Unda odamzod yo'qligiga endi hech qanday shak-shubha qolmagandi.

Birdan Dik Send qo'li bilan ishora qilib, hammadan jim bo'lishni iltimos qildi.

— Eshitinglar! Eshitinglar! — deb xitob qildi u.

Hamma bir narsani sezganday sergak bo'lib quloq soldi.

— Vovillagan ovoz eshitilayotibdi shekilli.

Rostdan ham, haligi qiyshaygan kema tomondan itning vovillagan ovozi eshitar edi. Demak, unda tirik qolgan it bor ekan. Lyuklar berk bo'lganidan chiqolmayotgan bo'lsa kerak. Har holda o'zi ko'rinmas edi.

— Itni qutqazib olish kerak, kapitan! — dedi missis Ueldon.

— Ha... ha... — deb xitob, qildi kichkina Jek, — itni qutqazinglar! Men o'zim boqaman uni... U biz-

ga o'rganib qoladi... Oyi, borib unga bir bo'lak qant obkelay-chi!

— Shoshmagin hali, o'g'lim, — dedi missis Ueldon jilmayib. — Bechora jonivor ochidan o'la-yozgandir, qantingdan ko'ra sho'rva ichir.

— Unday bo'lsa, mening sho'rvamni unga bera qol, — dedi Jek. — Men sho'rva ichmasam ham bo'laveradi!

Itning vovillashi esa borgan sari yaqinroqdan eshitila boshladi. Endi kemalar bir-biridan faqat uch yuz fut masofa narida turar edi. Birdaniga kema ustidan kattakon bir itning kallasi ko'rindi. Jonivor qattiq vovillar edi.

— Govik! — deb chaqirdi kapitan botsmanni. — Kemani to'xtatib, suvga qayiq tushiringlar.

— Shoshma, kuchukcha! Shoshma! — deb qich-qirardi Jek, it esa unga javoban hadeb vovillar edi.

Matroslar birpasda yelkanlarni tushirdilar, «Piligrim» halokatga uchragan kemadan yarim kabeltov berida to'xtadi.

Suvga tushirilgan qayiq chayqala boshladi. Kapitan Gul, Dik Send va ikkita matros sakrab qayiqqa chiqib olishdi.

It tinimsiz vovillar edi. Lekin u yaqinlashib kelayotgan qayiqqa qarab emas, balki boshqa narsaga vovillaganday ko'rinar edi; u tez-tez bort oldidan g'oyib bo'lib qolardi. Ehtimol, u, falokatga uchragan kemada qolgan yo'lovchilarni yoki matroslarni chaqirayotgandir?

«Nahotki, unda tirik qolgan odamlar bo'lsa?» deb so'radi o'z-o'zidan missis Ueldon.

Qayiq marraga yaqinlashib qoldi.

To'satdan it yana qattiq vovillay boshladi. Ammo u qutqazishga kelayotganlarni tezroq yetib kelishga chaqirib emas, balki boshqa bir narsaga qattiq achchiqlanib vovillar edi.

— Nima balo bo'ldi bu itga? — deb so'radi kapitan Gul kemanding suvga cho'kkan joyida to'xtash uchun uni aylanib o'tayotgan paytda.

Itning jon-jahdi bilan vovillay boshlagani Negoroning kambuzdan chiqib kema burniga o'tgan paytga to'g'ri kelganini na kapitan Gul, na «Piligrim»da qolgan boshqa kishilar sezdilar.

Nahotki, it kema oshpazini tanigan bo'lsa? Bu — hech aql bovar qilmaydigan hodisa edi.

Har holda, Negoro qattiq vovillayotgan itga bir qaradi-yu, hech ham ajablanmadi, faqat bir lahza xo'mrayib qo'ydi-da, burilib kambuzga kirib ketdi.

Qayiq kemani aylanib o'tdi. Kemaga «Valdek» deb yozilgan ekan.

Kemanding qaysi portga qarashli ekanligi to'g'risida hech qanday belgi yo'q edi. Ammo kemanding shakliga va tuzilishidagi ba'zi bir belgilarga qarab, kapitan Gul uning amerika kemasi ekanligini aniqladi. Dengizchilar buni tezda ajrata olar edilar. Kemanding nomi ham bu taxminni tasdiqlar edi. Besh yuz tonna yuk ko'taradigan bu katta kemanding faqatgina korpusi omon qolgan edi.

«Valdek»ning burun tomonida katta teshik ochilib qolgan — bu teshik kemalar urishib ketganining oqibati edi. Kema qiyshayganligi sababidan teshik suv ustidan besh-olti fut baland chiqib qolgan va shuning uchun «Valdek» cho'kmay qolgan edi.

Kema sahnida odam asari yo'q edi.

It bortdan nari ketdi, qiyshayib qolgan palubadan borib, markaziy lyukka boshini suqib, qattiq vovillay boshladi.

— Kemada itdan bo'lak ham jon egasi borgan o'xshaydi, — dedi Dik Send.

— Men ham shunday deb o'ylayman, — dedi kapitan Gul.

Qayiq kemanding yarmi suvga cho'kkan tomonidan suzib borar edi. Kemaga kelib urilgan birinchi katta to'lqinoq «Valdek»ni cho'ktirib yuborishi turgan gap edi.

Kemanding palubasi shipirib qo'yilgandek topoza edi. Unda pyartnersdan ikki futcha yuqoridan

sinib tushgan grotmachta bilan bizan-machtaning siniqlarigina ko'rinib turardi, xolos. Machtalar kemalar urishib ketgan vaqtda yelkan va arqonlari bilan birga dengizga qulab tushgan bo'lsa kerak. Ammo dengizda ko'z ilg'aydigan joyda hech qanday singan parchalar ko'rinmas edi. Demak, «Valdek»ning halokatga uchraganiga ancha kun bo'lgan ekan.

— Kemalar urishib ketganidan keyin odamlar tirik qolganda ham, — dedi kapitan Gul, — ular tashnalik va ochlikdan halok bo'lgan bo'lsalar kerak, chunki kambuzni suv bosib ketipti. Demak, «Valdek»da faqatgina o'liklar yotgan bo'lsa kerak.

— Yo'q! — deb xitob qildi Dik Send. — Yo'q! Bo'lmasam it bunday vovillamasdi. Unda bironta tirik odam bo'lishi kerak.

Dik Send itni chaqirdi. Aqlli jonivor shu onda-yoq dengizga tushdi va darmonsiz panjalari bilan qayiqqa qarab zo'rg'a suzib kela boshladi. Itni qayiqqa tortib olganlaridan keyin, u Dik Send uzatgan suxariga emas, o'zini chelakdagi suvga urdi.

— Bechora jonivor chanqab o'layozgan ekan-da! — deb xitob qildi Dik Send.

Qayiqni qulay joyda to'xtatmoq uchun ular botgan kemadan bir necha fut beriga burildilar. Buni fahmlab qolgan it, o'zini qutqazgan bu odamlar kemaga chiqmasdan jo'nab ketishayotibdi, deb o'ylagan bo'lsa kerak. Dikning etagini tishlab tortib, yana qattiqroq vovillay boshladi.

Itning bu qiliqlari va hurishidan hamma narsa o'z-o'zidan ma'lum bo'ldi.

Qayiq kema yoniga kelib to'xtadi. Matroslar uni kemaga bog'lashdi. Kapitan Gul bilan Dik Send kema palubasiga chiqdilar. Ular emaklab yurib, ikkita siniq machta orasidagi markaziy lyukka zo'rg'a yetib olishdi. It ham ularning ketidan ergashib yurar edi. Keyin ular tryumga tushdilar.

Yarmigacha suv bosgan tryumda hech qanday mol-mato yo'q edi. Kemaning ballasti qum ekan:

hozir qum kemaning bakkortiga yig'ilib qolipti va o'zining og'irligi bilan kemani bir tomonga qiyshaytirib yuboripti. Qimmatli narsa bordir degan umidlar puchga chiqdi. Unda qutqazib olinadigan hech narsa yo'q ekan.

— Bu yerda hech kim yo'q, — dedi kapitan Gul.

— Ha, hech kim yo'qqa o'xshaydi, — deb uning gapiga qo'shildi yosh matros, omborning yanada ichkarirog'iga kirarkan.

Ammo palubada qolgan it, bu yoqqa qaranglar, deganday qilib yana vovillay boshladi.

— Bu yerda hech narsa yo'q, yur, yuqoriga chiqaylik! — dedi kapitan Gul.

Ular yana palubaga chiqishdi.

It, mening ketimdan yuringlar, deganday qilib, kemaning quyruq tomoniga, yutga qarab surila boshladi.

Odamlar ham uning ketidan ergashdilar.

Kubrikda besh kishi yotardi, bu besh kishi emas, beshta murda bo'lsa kerak.

Ochiq turgan eshikdan kirayotgan kunduzgi yorug'likda kapitan Gul ularning hammasi negr ekanini ko'rdi.

Hammasining tepasidan bir-bir aylanib chiqqan Dik Sendga u bechoralar hali nafas olayotganday tuyuldi.

— Ularni «Piligrim»ga olib ketamiz, — dedi kapitan Gul.

Qayiqda qolgan matroslarni yordamga chaqirishdi. Ular falokatga uchraganlarni kubrikdan olib chiqdilar.

Bu oson ish emas edi. Lekin bir amallab beshovini ham qayiqqa olib chiqishdi. Ularning hech biri ham hushiga kelmadi. Ammo kapitan Gul, bir necha tomchi dori bilan bir necha qultum suv ichirilsa, ularga jon kirib qolar, deb umid qilar edi.

«Piligrim» atigi yarim kabeltov masofa narida turganidan, qayiq birpasda kemaga yetib keldi.

«VALDEK»DAN QUTQAZILGANLAR

Gorden yordami bilan bu sho'rliklarni «Piligrim»ning palubasiga olib chiqishdi. Itni ham esdan chiqazishmadi.

— Voy, sho'rliklar-ey! — deb xitob qildi beshta harakatsiz jasadni ko'rgan missis Ueldon.

— Ular tirik ekan, missis Ueldon! Hali tirik ular, qutqazamiz ularni! — dedi Dik.

— Nima bo'пти ularga? — deb so'radi Benedikt tog'a.

— Birpas turinglar, hushiga kelishsin, keyin hammasini o'zlari gapirib berishadi, — deb javob qaytardi kapitan Gul. — Avval ularga suv ichirish kerak, ozroq rom¹ ham.

Shundan keyin u kambuz tomonga qarab ovozi-ning boricha:

— Negoro! — deb chaqirdi.

Bu nomni eshitgan it orqasini bukchaytirdi, yunglari hurpaydi va qattiq irillab qo'ydi.

Oshpazdan darak yo'q edi.

— Negoro! — deb yana qattiqroq chaqirdi kapitan Gul.

It yana g'azab bilan irillab qo'ydi.

Negoro kambuzdan chiqib keldi.

U bir qadam ham bosganicha yo'q ediki, it uning bo'g'ziga yopishdi.

Portugaliyalik ehtiyotdan qo'lga temir kosov ushlab chiqqan ekan — o'sha bilan itga hamla qilib qoldi. Ikkita matros itni zo'rg'a ushlab qolishdi.

— Siz bu itni tanirmidingiz? — deb so'radi kapitan Gul oshpazdan.

— Menmi? — deb qaytarib so'radi Negoro. — Sira ko'rgan emasman...

— Ajab, — deb shivirlab qo'ydi Dik Send.

Markaziy Afrikada qul savdosi hali ham mavjud. Bu qit'aning qirg'oqlari bo'ylab ingliz va fransuz harbiy kemalari qatnab turishiga qaramasdan, quldorlarning kemalari Angola va Mozambikdan qul negrlarni burungidek chetga olib ketadilar. Taraqqiy topgan mamlakatlarda «qora tovar»ga, ya'ni negrlarga hali ham xaridorlar ko'p.

Bu ishlar kapitan Gulga ma'lum edi¹.

Hozir «Piligrim» turgan joy qul savdogarlari-ning odatda yuradigan yo'llaridan bir chekkada bo'lsa ham, kapitan Gul, «Valdek» kemasi bu sho'rlik negrlarni Tinch okeandagi uzoq mustamlaka orollariga sotish uchun olib ketayotgan ekan, deb taxmin qildi.

Qutqazilgan negrlarni «Piligrim»da juda yaxshi parvarish qila boshladilar. Missis Ueldon Nan bilan Dikning yordamida u bechoralarga qoshiqdan muzdek toza suv ichirdi, chunki ular ko'pdan beri suv tatimagan edilar.

Pirovardida suv bilan bir necha yutim sho'rva ularni hushiga keltirdi.

Ulardan eng qarisi — ko'rinishda oltmish yoshlarga borib qolgani — inglizcha gapira olar ekan.

— «Valdek»ka nima bo'ldi? — deb so'radi dastavval kapitan Gul undan.

— Bundan o'n kun ilgari, qorong'i kechada, hamma uxlab yotgan mahalda, qandaydir no-ma'lum bir kema bizning ustimizga bostirib kelib qoldi, — deb javob berdi kekxa negr.

— «Valdek» komandasi nima bo'ldi?

¹ Yevropa davlatlari qul savdosini taqiqlab qo'ydi. Bundan maqsadlari o'sha davrda yerlik xalqlarni o'z yurtlarida ko'proq eks-pluatatsiya qilish hamda bu bilan mustamlaka mamlakatlarning tabiiy boyliklarini qayta ishlashdan keladigan foydasini ko'paytirish edi.

¹ Rom — bir xil ichimlik.



— Bilmadim. Biz palubaga chiqqanimizda, u yerda hech kim yo'q edi.

— «Valdek»dagi odamlar urishib ketgan kemaga chiqib olishgandir, siz nima deb o'ylaysiz?

— Shunday bo'lsa kerak deyman...

— O'sha kema urishib ketgandan keyin falokatga uchraganlarni qutqazish uchun to'xtamadimi?


— Yo'q.

— Balki u cho'kib ketgandir?

— Yo'g'-e, — deb bosh chayqadi kekxa negr, — biz uning jo'nab ketayotganini ko'rdik.

«Valdek»dan qutqazilganlarning hammasi ham shu fikrni tasdiqladi. Shunisi qiziqki, o'z ayblari bilan kemalarni og'ir halokatga uchratgan kapitanlar, halokat joyida nobud bo'layotgan odamlarga yordam berishni xayoliga ham keltirmasdan, tezroq qochib ketish payiga tushadilar.

Ko'chada ketayotgan o'tkinchini bostirib olib, o'z ehtiyotsizligi orqasida qurbon bo'lgan kishi to'g'risida g'am yeyishni boshqalarning gardaniga yuklab qochib qolgan aravakash qattiq jazoga



tortiladi. Ammo ko'chada mayib bo'lgan kishiga o'tkinchilar darrov yordam beradilar. Xo'sh, ochiq dengizda halok bo'layotgan odamlarni o'z holiga tashlab qochganlar to'g'risida nima desa bo'ladi? Bunday odamlar inson sha'niga isnod keltiradilar!

Kapitan Gul bunga o'xshash ko'pgina hodisalarni gapirib berishi mumkin edi. Afsuski, u bunday dahshatli hodisalar juda ko'p uchraydi, deb missis Ueldonga yana bir karra eslatib qo'ydi.

Shundan keyin u qutqazib olingan kekxa negrdan yana surishtira boshladi.

— «Valdek» qayerdan kelayotgan edi?

— Melburndan.

— Demak, sizlar qul emas ekansiz-da?

— Yo'q, taqsir, — deb tezda javob qaytardi negr qomatini rostlab. — Biz Pensilvaniya fuqarolarimiz.

— Do'stlarim, — dedi kapitan, — shuni bilib qo'yinglarki, «Pilgrim» kemasida sizlarning ozodligingizga hech kim daxl qilolmaydi!

Darhaqiqat, qutqarilgan beshta negr Pensilvaniya shtatining fuqarosi edi. Ulardan eng qarisi yoshligida, olti yoshga to'lar-to'lmas qul qilib sotib yuborilgan edi. Afrikadan uni Qo'shma Shtatlarga olib kelishgandi. Bu yerda u quldorlik huquqi bekor qilingandan keyin ozod bo'ldi. Uning yosh hamrohlari ozod fuqaro bo'lib tug'ilgandilar va hech bir oq tanli odam ularni «meniki» deb aytishga haqi yo'q edi. Hatto ular negrlarning urushdan¹ ilgarigi tilini ham bilmas edilar (bu tilda fe'llar turlanmasdan, infinitiv shaklida ishlatilar edi). Bu negrlar ozod grajdan sifatida Amerikadan ketgan va ozod grajdan sifatida o'z vataniga qaytib kelmoqda edilar.

Keksa negr kapitan Gulga o'z hamrohlari bilan Janubiy Avstraliyadagi Melburn shahriga yaqin joyda bo'lgan bir inglizning plantatsiyasiga ishga kirishganini, u yerda uch yil ishlab bir oz pul orttirgandan keyin o'z vatanlariga qaytib kelayotganlarini hikoya qilib berdi.

Ular «Valdek»da ketish uchun boshqa yo'lovchilar qatori pul to'lab, 5-yanvar kuni Melburndan yo'lga chiqishgan ekan. O'n yetti kun o'tgandan keyin, qorong'i kechada «Valdek» allaqanday bir katta kema bilan urishib ketibdi. Negrlar kayutalarida uxlab yotishgan ekan, kemaning qattiq silkinishidan uyg'onib ketib, darrov palubaga chopib chiqishibdi.

Machtalar dengizga qulab tushibdi, «Valdek» bir yoqqa qiyshayib qolibdi, lekin cho'kib ketmabdi, chunki ichiga unchalik ko'p suv kirmabdi.

Palubada «Valdek»ning kapitani bilan komandasi ko'rinmabdi: kema qattiq silkingan paytda

¹ Bu yerda gap Shimoliy Amerikada 1861—1865-yillarda Shimoliy Shtatlar bilan Janubiy Shtatlar o'rtasida bo'lgan grajdanlar urushi to'g'risida boradi. Bu urushda yengib chiqqan shimolliklar quldorlikni bekor qildilar, chunki Shimoliy Shtatlarda kapitalistik sanoatning rivoji arzon ishchi kuchlariga muhtoj edi. Qulchilikning bitirilishi haqidagi qonunning negrlar uchun bo'lgan ijobiy natijalarini kitobning muallifi juda bo'rttirib ko'rsatadi. Garchi negrlar qonunda grajdanlik huquqlariga ega bo'lgan bo'lsalar-da, ammo haqiqatda bu huquqlardan ular naf ko'rmasdilar (*Tarj.*)

ular yo dengizga tushib ketishgan, yo bo'lmasa «Valdek» bilan urishib ketganidan keyin javobgar bo'lishidan qo'rqib, qochib ketayotgan haligi kema-ga chiqib olishgan.

Quruqlikdan eng kami bir ming ikki yuz mil narida halokatga uchragan kemada besh kishi qolishibdi.

Keksa negrning oti Tom edi. Hamrohlari uni o'zlariga rahbar deb bilganlar, chunki Tom ular orasida eng keksasigina emas, balki g'ayratli va ko'pni ko'rgan eng tajribali kishi bo'lgan. Qolganlari yigirmadan to o'ttiz yoshgacha bo'lgan yosh yigitlar edi. Ularning ismlari Bat, Ostin, Akteon va Gerkules edi. Bat degani keksa Tomning o'g'li ekan.

Ularning to'rttalasi ham baquvvat, bo'ydor va azamat yigitlar edi. Markaziy Afrikadagi qullar bozoridan ularni juda qimmatga olgan bo'lar edilar.

Shunday qilib, halokatdan keyin Tom bilan uning hamrohlari kemada yolg'iz qolishibdi. Ular «Valdek»ning buzilgan joylarini ham tuzata olmas, kemani ham tashlab ketolmas edilar, chunki kemalar to'qnashib ketgan paytda har ikkala qayiq ham parcha-parcha bo'lib ketgan. Ularni bexosdan duch kelgan begona kemagina qutqazishi mumkin edi.

Boshqarib bo'lmay qolgan «Valdek», dengizda xuddi cho'p singari shamol haydagan tomonga qarab ketavergan. Shuning uchun ham «Pilgrim» halokatga uchragan bu kemani kemalarning Melburndan Qo'shma Shtatlarga qatnaydigan yo'lidan janubroqda uchratgan edi.

Falokatdan keyin, «Pilgrim» kelganga qadar o'tgan o'n kun ichida negrlar kemaning bufetida tasodifan saqlanib qolgan oziq-ovqatni yeb kun kechirishgan. Palubadagi suvlik bochkalar kemalar to'qnashib ketgan mahalda sinib ketgan, spirtli ichimliklar esa kambuzda — suv ichida qolgan ekan.

Tom va uning hamrohlari to'qqizinchi kuni qattiq tashnalikdan ko'ngillari ozib, hushidan ketib

qolgan. Xuddi ana o'sha paytda «Piligrim» yordamga yetib kelib qolgan.

Bularning hammasini Tom bir og'iz so'z bilan kapitan Gulga gapirib berdi. Keksa negrning gaplariga ishonmasikka hech qanday asos yo'q edi. Ko'z ko'rgan hodisalar ham, Tomning hamrohlari ham, hammasi bu aytilganlarni batamom tasdiqlar edi.

Halokatga uchragan kemadan qutqazilgan ol-tinchi tirik jon egasi bo'lgan itning ham odamlarga o'xshash tili bo'lganida, u ham shu narsalarni tasdiqlagan bo'lar edi.

Bu it Negoroni ko'rishi bilan qattiq hayajonga tushar edi. Bu jonivorning oshpazni yomon ko'rishi qandaydir qiziq bir hol edi.

Dingo nomli bu it, Yangi Gollandiya¹ zotidan bo'lgan katta qo'riqchi it edi. Ammo «Valdek»ning kapitani uni Avstraliyadan olmagan ekan. Kapitan uni bundan ikki yil burun Afrikaning g'arbiy qirg'og'ida, Kongo daryosi dengizga quyiladigan joyida ochdan o'lay deb yotgan bir holda topib olganligini kekse Tom eshitgan ekan. Kapitan itni yaxshi ko'rib qolib, uni o'zi bilan birga olib ketgan. Ammo Dingo yangi xo'jayinni yoqtirmabdi. It majburan o'zini ajratib olingan eski xo'jayinini qo'msaganday yurar edi.

Bo'yin bog'ichidagi tunukaga yozilgan ikkita «S» va «V» harfi itning o'tmishiga bog'liq bo'lgan birdan-bir belgi edi.

Dingo bahaybat, kuchli bir it edi. Ikki oyoqlab tik turganda uning bo'yi odam bo'yi bilan baravar kelar edi. Uning yungi quyuq, tim sariq, dum uzun ham qalin edi. Dingoning juda kuchli va abjir nasldoshlari sira qo'rqmasdan qoplonga ham, chipor yo'lbarsga ham hamla qiladilar, ayiq bilan yakkama-yakka olishishdan ham tap tortmaydilar.

¹ Yangi Gollandiya — Avstraliyaning gollandlar bergan nomi.

Dingo jahli chiqqanda juda xavfli it bo'lib qolardi. Shuning uchun ham uni ko'rishi bilan oq Negoroning kapalagi uchib ketgandi.

Dingo qo'lga yaxshi o'rganmagan bo'lsa ham, lekin unchalik yovvoyi ham emas edi. Lekin u xomush edi. Dingo negrlarni yoqtirmas ekan — buni kekse Tom «Valdek»dalik mahalida fahmlagan ekan. It, negrlarga yomonlik ham qilmas, lekin ularga yaqin ham yurmas ekan. Ehtimol, u Afrika qirg'oqlarida adashib yurganida yerlik xalqlar unga yomon muomala qilishgandir?

Har holda, Tom va uning hamrohlari yaxshi odamlar bo'lsa ham, lekin it ularning oldiga bormasdi... Halokatga uchragan kemada birga o'tkazilgan o'n kun ichida ham, Dingo ularga yaqin yo'lamagan ekan. Shu o'n kun ichida uning nima yeb kun ko'rgani noma'lum, ammo odamlar singari u ham tashnalikdan juda azob chekkan.

B e s h i n c h i b o b

«S» BILAN «V»

Shamol bo'lmay turishi va bo'lganda ham ro'paradan esishi kapitan Gulni ancha xafa qilar edi. Yangi Zelandiyadan Valparaisoga bir yoki ikki hafta kechikib borish hech gap emasdi, ammo bu ortiqcha yo'l yo'lovchilarni toliqtirib qo'yishi mumkin edi.

Shamol yo'qligi va ro'paradan esgan shamoldan okeanning bu joyida «Piligrim»ning to'xtalib qolishi natijasida kapitan Gul g'arq bo'layotgan kemadagi oltita jon egasini qutqazib qoldi.

Endi o'sha boshlangan insonparvarlik ishini davom qildirib, uch yil mehnat qilib orttirgan pullaridan falokat mahalida mahrum bo'lgan negrlarni o'z vatanlariga olib borib qo'yish kerak edi. Baliq moyini Valparaisoda topshirgandan keyin, «Piligrim» Janubiy va Shimoliy Amerika qirg'oq-

lari bo'ylab San-Fransiskoga jo'nab ketishi kerak edi. Missis Ueldon Tom bilan uning hamrohlari Kaliforniyadan Pensilvaniyaga yetib olishlari uchun yo'l xarajati topib berishga va'da berdi.

Shundan keyin negrlarning ko'ngli taskin topdi. Ular missis Ueldon bilan kapitan Guldan qilgan yaxshiliklari uchun juda minnatdor edilar. Bu bechora negrlar, qachon bo'lmasin yaxshilikka yaxshilik qaytaramiz, deb chin qalbdan umid qilar edilar. Missis Ueldon sira shikoyat qilmas va hamma qiyinchiliklarga chidab borar edi.

O'sha kuni, ya'ni 2-fevral kuni kechqurun «Valdek» ko'zdan butunlay g'oyib bo'ldi.

Kapitan Gul avval Tom bilan uning hamrohlari ni mumkin qadar yaxshiroq joylashtirmoqchi bo'ldi. Kubrik tor bo'lganidan unga yana besh kishi sig'mas edi, shuning uchun kapitan negrlarga kemanding bakiga — burun tomondagi ochiq joyga karavot qo'yib joylashtirmoqchi bo'ldi. Og'ir sharoitlarda ishlab o'rgangan bu odamlar ko'pam injiqlik qilib o'tirmadilar. Bundan tashqari, havo yaxshi va kun issiq bo'lib turganidan, ochiq havoda yotish yana ham yaxshiroq edi.

«Valdek» kemasi bilan uchrashib qolganlik orqasida bir oz izdan chiqqan kemadagi hayot yana avvalgi holiga keldi.

Tom, Ostin, Bat, Akteon va Gerkules har qanday ishni qilishdan xursand edilar. Ammo shamol doim bir tomondan esib turganda yelkanlar ko'tarilib qo'yilgan bo'lsa, kemada qiladigan ish qolmasdi. Mabodo kemani shamolning esishiga qarab boshqa tomonga burishga to'g'ri kelib qolsa, kekxa negr bilan uning sheriklari darrov matroslarga yordam berar edilar. Ammo shuni ham aytish kerakki, agar pahlavon Gerkules biron arqonni torta boshlasa, boshqa matroslar qo'l qovushtirib bemalol tomosha qilib tursalar ham bo'laverar edi. Bo'yi olti futdan ham oshiq keladigan bu pahlavon negrning bir o'zi bitta chig'irning o'rnini bosar edi.

Kichkina Jek azamat negrning ishlashini hayron bo'lib tomosha qilar edi. Pahlavon uni qo'g'irchoq singari osmonga irg'itgan mahalda ham, u Gerkulesdan sira qo'rqmas edi, faqat xursand bo'lganidan qiyqirar edi.

— Yana balandroq, Gerkules! — deb chinqirardi u.

— Xo'p bo'ladi, Jek, — der edi Gerkules.

— Og'irmasmanmi?

— Og'irligingiz zig'irchalik ham sezilmayapti.

— Unday bo'lsa yanayam balandroqqa irg'it!

Ba'zan Gerkules keng kaftida Jekni tikka turg'izib, qo'lini to'g'riga uzatib, xuddi sirkdagi artistlar singari uni palubada ko'tarib yurar edi. Jek esa hammaga yuqoridan turib qarar va o'zini pahlavonday his qilib, suyungani suyungan edi. U hatto «og'irligini solishga» harakat qilar, lekin Gerkules uning chiranganini sezmasdi ham.

Shunday qilib, endi kichkina Jekning do'sti ikkita bo'ldi, bular Dik Send bilan Gerkules edi.

Tezda Dingo ham uning uchinchi do'sti bo'lib qoldi.

Yuqorida aytilgandek, Dingo odamlarga ko'p ham aralashmaydigan it edi. Ehtimol, u «Valdek» kemasidagi odamlar yoqmaganligidan shunday bo'lib qolgandir. Ammo «Pilgrim» kemasida itning fe'li tez o'zgardi. Jek unga yoqib qolgan bo'lsa kerak, it u bilan jon deb o'ynardi, Jek esa suyunganidan o'zini qayerga qo'yishini bilmasdi.

Dingo ayniqsa bolalar yaxshi ko'radigan it edi. Jek uni hech qachon qiynamasdi. Itni ot singari minib chopishga o'rgatsa, yomonmi, axir? Hamma bolalar ham har qanaqa yog'och otdan ko'ra buni ma'qul ko'rishsa kerak.

Jek hadeb Dingga minib chopgani chopgan edi. It ham yosh do'stining bu ishiga indamasdan rozi bo'lardi, chunki oriqqina Jekning og'irligini u pisand qilmas edi.

Ammo buning evaziga kambuzdagi qand hazilakam kamaymadi!

Dingoni tez orada hamma yaxshi ko'rib qoldi. Faqat Negorogina undan qochgani qochgan edi. Dingo ham, nima uchundir, boshdanoq uni yomon ko'rib qolgan edi.

Biroq Jek Dingo bilan ovora bo'lib qolgan bo'lsa ham, o'zining eski do'sti Dik Sendni ilgarigidek yaxshi ko'rar edi. Dik bo'sh vaqtlarini ilgarigicha o'zining kichik do'sti bilan o'tkazar edi. Ularning do'stligiga missis Ueldon ham, albatta, juda xursand edi.

Kunlardan bir kuni — 6-fevralda missis Ueldon Dik Send haqida kapitan Gul bilan gaplashib qoldi. Kapitan Gul yosh matrosni juda maqtadi.

— Sizga rostini aytsam, — dedi kapitan missis Ueldonga, — bu boladan ajoyib kapitan chiqadi. Unda dengizga qandaydir tug'ma havas bor. Hamma narsani juda tez bilib olishi va qisqa vaqt ichida ko'p ishlarni uqib olishi meni hayron qoldiradi.

— Shuni qo'shimcha qilib aytishim kerakki, — dedi missis Ueldon, — u juda halol va yaxshi bola, o'zi yosh bo'lsa ham jiddiy va tirishqoq. Men uni ko'p yillardan beri bilaman, hozirgacha xafa qiladigan hech bir ayb ish qilgani yo'q.

— Nimasini aytasiz! — deb qo'shilishdi kapitan Gul unga, — Dik juda ajoyib bola! Shuning uchun ham hamma uni yaxshi ko'radi.

— San-Fransiskoga borganimizdan keyin, — deb davom qildi missis Ueldon, — erim uni kapitan qilib yetishtirish uchun dengiz o'quv yurtiga beradi.

— Juda ham soz qiladi, — dedi kapitan Gul. — Men ishonamanki, vaqti kelib Dik Send yaxshi dengizchi bo'lib yetishadi.

— Bechora bolaning yoshligi juda og'ir o'tgan, boshidan ko'p mashaqqatlarni kechirgan...

— Bu saboqlar behuda ketmabdi-ku. Dik faqat ko'p mehnat qilibgina odam bo'lish mumkinligini tushungan.

— U hozir ham to'g'ri yo'ldan ketayotipti.

— Mana, siz unga bir qarang, missis Ueldon, — deb davom qildi kapitan Gul. — U hozir shturval oldida turib navbatchilik qilyapti, bushpritning uchidan hech ko'zini uzmaydi. Uning butun diqqati va fikri yodi kemani boshqarishda, shuning uchun ham kema hech yoqqa chalg'imasdan yo'ldan to'ppa-to'g'ri ketyapti. O'smiri tushmagur halitdanoq usta rul boshqaruvchilar singari ish ko'ryapti. Bu, dengizchi uchun yaxshi xislat. Billsangiz, missis Ueldon, dengizchilik hunariga bolalikdanoq o'rgana boshlash kerak. Bu hunarga yoshlikdan o'rganmagan kishi hech qachon yaxshi kapitan bo'la olmaydi. Xususan, savdo flotida. Bolalikda hamma narsadan saboq olasan, o'z-o'zidan to'g'ri harakatlar qilishga o'rganasan, natijada juda tez ish qiladigan bo'lasan.

— Ammo, harbiy flotda ham juda yaxshi dengizchilar bor-ku, — dedi missis Ueldon.

— Albatta. Lekin, bilishimcha, yaxshi dengizchilarning hammasi ham dengizda yoshligidan boshlab xizmat qila boshlagan. Nelson'ni va shu singarilarni xotirga olinsa bas.

Shu onda kayutadan Benedikt tog'a chiqib keldi. Odatdagicha u parishonxotirlik bilan kema palubasida dovdirab, kema devoridagi yoriq-teshiklarni diqqat bilan qarab yurar edi.

— Qalay, yaxshimisiz, Benedikt tog'a? — deb so'radi missis Ueldon undan.

— Rahmat, jiyanim Ueldon... Yomon emas... Zorlanadigan o'rni yo'q... Lekin tezroq uyga yetib olsam deymen.

— Skameyka tagidan nima qidirapsiz, janob Benedikt? — deb so'radi kapitan Gul.

— Hasharot qidirapman, taqsirim! — dedi Benedikt tog'a jahl bilan. — Hasharotdan bo'lak nima qidirardim?

¹ Nelson — ingliz admirali (1758—1805).

— Hasharot? Bo'lmasam bir oz sabr qilasiz, chunki dengizda hasharot topib, kolleksiyangizga qo'shishga ko'zim yetmaydi.

— Nega topmayin? Kemada hasharot bo'lmaydimi, axir?

— Yo'q, Benedikt tog'a, — deb uning so'zini bo'ldi missis Ueldon. — Kapitan Guldan xafa bo'lsangiz ham bo'ladi, chunki u o'z kemasini shunday ozoda tutadiki, barcha urinishlaringiz, shubhasiz, behuda ketadi.

Kapitan Gul kulib yubordi.

— Missis Ueldon hazillashyaptilar, — dedi kapitan. — Lekin kayutalardan hasharot qidirmoqchi bo'lsangiz, menimcha, chindan ham vaqtingiz bekor ketadi.

— O'zim ham bilaman! — deb afsuslangandek yelkasini qisdi Benedikt tog'a. — Men kayutalarni allaqachon xo'b titkilab chiqdim...

— Agar qiziqsangiz, tryumda suvaraklar topilib qolsa ajab emas, — dedi kapitan Gul, yana gapini davom ettirib.

— Albatta qiziqaman! Suvaraklar hamma narsani yeyveradigan hasharotlar bo'lib, ular...

— Hamma joyni iflos qiladilar... — deb qo'shimcha qildi kapitan Gul.

— Ular kemada podsho bo'lib olishibdi! — deb uning so'zini tuzatdi Benedikt tog'a maqtanganday bo'lib.

— Suvaraklar podsholigi ekan-a!

— Ana xolos, taqsim, entomolog emasligingiz ko'rinib turibdi!

— Zinhor.

— Menga qarang, Benedikt tog'a, — dedi kulimsirab missis Ueldon, — ishqilib, fanga foyda bo'lsin deb bizlarni suvaraklarga yem qilib qo'ymang tag'in?

— Yo'g'-e, men sizlardan hech narsa talab qilayotganim yo'q, jiyanim Ueldon! Men kolleksiyamni boyitadigan bironta nodir hasharot topilib qolmasmikan, degan umiddaman.

— Demak, siz Yangi Zelandiyada topgan hasharotlaringizdan rozi emas ekansiz-da?

— Yo'q, jiyanim Ueldon, juda ham roziman. Men u yerda bir dona yovvoyi qo'ng'iz topdim. Mendan ilgari olimlar bunday qo'ng'izni faqat Yangi Kaledoniyadagina bo'ladi, der edilar.

Shu topda Jek bilan o'ynayotgan Dingo Benedikt tog'a oldiga chopib keldi.

— Qoch, ket! — deb haydadi itni tog'a tushmagur.

— Iye, janob Benedikt! — deb xitob qildi kapitan Gul. — Bu qanaqasi, suvaraklarni yaxshi ko'rasiz-u, itni yomon ko'rasizmi?

— Yana tag'in shunaqangi yaxshi itni-ya?! — dedi kichkina Jek, ikki qo'li bilan Dingoning boshidan quchoqlab.

— Ha, shunday... — deb g'uldiradi Benedikt tog'a. — Chunki bu yaramas jonivor mening umidimni puchga chiqardi.

— Qanday qilib, Benedikt tog'a! — dedi missis Ueldon. — Nahotki, siz Dingoni ham ikki qanotlilar yoxud parda qanotlilar qatoriga kirgizmoqchi bo'ldingiz?

— Yo'q, — deb jiddiy javob qaytardi olimimiz. — Dingo Avstraliya naslidan bo'lsa ham, G'arbiy Afrika qirg'og'idan topib olingan-ku!

— To'g'ri aytasiz, — deb uning gapiga qo'shildi missis Ueldon. — Tom buni «Valdek» kemasida eshitgan ekan.

— Shuning uchun... men... bu jonivorning ustida faqat G'arbiy Afrikada bo'ladigan bironta hasharot topilib qolmasmikan, deb umid qilgan edim.

— Yo xudo! — deb nido qildi missis Ueldon.

— Ehtimol, undan bironta noma'lum turdan bo'lgan burga-murga topilib qolsa deb...

— Hoy, Dingo, eshitayotibsanni? — dedi kapitan Gul. — Eshitayotibsanni? Sen o'z vazifangni bajarmabsan.

— Uning yungini tarashim behuda ketdi, — de-

di entomolog alamidan. — Unda birorta ham burga topilmadi-yal

— Aminmanki, agar burga topganingizda o'ldirardingiz-qo'yardingiz-da? — dedi kapitan.

— Shuni bilib qo'yingki, taqsir, — deb quruqqi-na qilib javob qaytardi Benedikt tog'a, — janob Jon Franklin¹ hasharotlarni hattoki burgadan ham yomonroq chaqadigan amerika chivinlarini ham hech qachon o'ldirmas edi. Janob Jon Franklin dengizchi bo'lganda ham tengi yo'q dengizchi bo'lgani-ni bilsangiz kerak deyman?

— To'g'ri aytasiz! — deb bosh egib javob qaytardi kapitan Gul.

— Bir kuni uni iskabtopar qattiq chaqib olibdi. Ammo Franklin unga qarab bir puflabdi-da: «Marhamat qilib, jo'nab qoling. Har ikkimiz uchun ham olam keng!» — debdi.

— Ha-ha! — dedi kapitan Gul ma'nodor qilib.

— Shunday, taqsir!

— Janob Benedikt, bu so'zlarni Franklindan ancha ilgari boshqa bir kishi aytganligini bilmaysizmi?

— Boshqa bir kishi?!

— Ha. Uning oti Tobi tog'a² edi.

— U kishi entomologmidi? — deb shoshib so'radi Benedikt tog'a.

— Hech-da. Sternning Tobi tog'asi entomolog bo'lmasa ham, lekin yonida g'o'ng'illayotgan pashshaga sensirab: «Qoch-ey, qurib ketkur! Seni o'ldirib nima qilaman? Olam keng, bir-birimizga xalal bermasdan bemalol yashayverishimiz mumkin», — deb aytgan ekan.

— Balli, Tobi tog'aga! — deb xitob qildi Benedikt tog'a. — U o'lganmi?

¹ Jon Franklin — ingliz dengizchisi va qutb o'lkalarini tekshiruvchi (1786—1847).

² Tobi tog'a — ingliz yozuvchisi Lorens Stern (1713—1768)ning «Trestam Shendining hayoti va o'ylari» degan romanidagi qahramonlardan biri.

— Shunday bo'lsa kerak, — deb bosiqlik bilan javob qaytardi kapitan Gul, — chunki uning o'zi aslida dunyoda bo'lgan emas.

Hammalari Benedikt tog'aga qarab qotib-qotib kulishdi.

Uzoq cho'zilgan sayohat mahalida bunday do'stona suhbatlar kishilarga ancha yengillik berar edi. Hech so'zsiz, Benedikt tog'a borida suhbat doim hasharotlar ustida bo'lar edi.

Dengiz doim tinch edi. Yengil esgan shamol yelkanlarni sal-pal qimirlatib tursa ham, lekin «Pilgrim» sharq tomonga sira siljimas edi. Kapitan Gul kemanding o'ng tomonidan shamol esadigan joylarga yetib borishini sabrsizlik bilan kutar edi.

Shuni ham aytish kerakki, Benedikt tog'a Dik Sendga entomologiya fanining sirlarini o'rgatmoqchi bo'lgan esa-da, lekin Dik bundan ustalik bilan qochib yurdi. Shundan keyin olimimiz negrlarga leksiya o'qiy boshladi. Natijada Tom, Bat, Ostin va Akteonlar Benedikt tog'adan qochadigan bo'lib qoldilar; tog'a kema sahnida paydo bo'lishi bilan ular hujraga qochib kirib ketar edilar. Muhtaram entomologning gaplariga quloq soladigan birgina Gerkules edi, Gerkules tekinxo'rlarni parda qanotlilardan ajrata biladigan qobil shogird chiqib qoldi.

Endi azamat negr har xil qo'ng'izlar, chunonchi: terixo'rlar, vizillovchilar, poqpoqlar, shoxlilar, filchalar, go'ng' qo'ng'izlar, xonqizlari, po'stloqxo'rlar, tillaqo'ng'izlar, may qo'ng'izlari orasida o'ralishib qolgan edi. Benedikt tog'a Gerkules hasharotlarni axtarayotganida, o'zining nimjon qo'ng'izlarining uning iskanjaday barmoqlari orasida ko'rib kapalagi uchardi. Biroq, azamat shogird olimning darsini juda diqqat bilan eshitayotgani sababli o'z boyligini undan qizg'anmaslikka qaror qildi.

Benedikt tog'a Gerkulesga dars bersa, missis Ueldon kichkina Jekni o'qish-yozishga o'rgata boshladi. Dik Send esa unga hisob o'rgatar edi.

Dars qiziq o'yinga o'xshasa, besh yashar bola saboqni tez o'rganadi. Missis Ueldon Jekni o'qish-yozishga alifbe bilan emas, balki katta qilib qizil harflar yozilgan yog'och kubiklar vositasi bilan o'rgatardi. Ba'zan missis Ueldon harflardan biror so'z yasardi va keyin uni aralashtirib yuborib, o'sha so'zni yasashni Jekka buyurur edi.

Bolaga bu o'yin juda yoqib qoldi. U har kuni kayutada yoki palubada o'z kubiklarini uzoq o'ynab o'tirar, goh so'zlar yasar, goh hamma harflarni yana aralash-quralash qilib yuborar edi.

Uning bu o'yini kutilmagan ajoyib bir voqea-ga sabab bo'ldi, bu voqeani birma-bir aytib bersa arziydi.

Bu voqea 9-fevral kuni yuz berdi.

Jek palubada o'z kubiklaridan qandaydir bir so'zni terib o'tirar edi. Jek bu harflarni aralash-quralash qilib yuborganidan keyin, Tom bu so'zni boshqatdan terishi kerak edi. Jek qanday so'z tuzganini ko'rmaslik uchun, o'yinning qoidasiga muvofiq, Tom kafti bilan ko'zlarini berkitdi.

Kubiklar ichida bosh va kichik harflardan tashqari raqamlar ham bor edi. Shunday qilib, bu o'yin o'qishga o'rgatishdan tashqari, hisobga ham o'rgatuvchi dars bo'lar edi.

Jek kubiklarni bir qator qilib tizib, keyin jiddiy bir tusda kerakli harflarni tanlab olar edi. Jek bu qiyin ishga berilib ketganidan yonida aylanib yurgan Dingoni ham ko'rmas edi.

Birdaniga it bitta harfga tikilganicha, turgan yerida qotib qoldi. U o'ng panjasini ko'tarib, dumi-ni likillata boshladi. Keyin haligi o'zi tikilib qolgan kubikni tishlab olib bir necha qadam nariroqqa olib borib qo'ydi.

Bu kubikda «S» bosh harfi yozilgan edi.

— Dingo, ber bu yoqqa! — deb baqirdi Jek. U, it uni yutib yuboradi deb qo'rqqan edi.

Dingo qaytib keldi-da, yana bir kubikni olib, haligi kubikning yoniga olib borib qo'ydi.

Keyingi kubikda «V» bosh harfi yozilgan edi.

Jek qichqirib yubordi.

Palubada aylanib yurgan missis Ueldon, kapitan Gul va Dik Send uning ovozi eshitib, yugurib kelishdi.

Jek ularga itning qilayotgan g'alati ishini gapirib berdi.

Dingo harf tanir ekan! Dingo o'qishni bilar ekan! Jek buni o'z ko'zi bilan ko'ribdi-ya!

Dik Send kubiklarni Jekka olib kelib bermoqchi bo'lgan edi, Dingo unga qarab irillay boshladi!

Shunga qaramay Dik kubiklarni yerdan olib, kubiklar qutisiga keltirib tashladi. Dingo chopib quti yoniga keldi-da, haligi ikkita harfni tanlab olib, bir chekkaga olib borib qo'ydi. It o'sha ikki kubik ustiga panjalarini qo'yib olib, endi kelib ko'ringlar-chi, deganday qilib, odamlarga ko'zini olaytirib qarab turdi. Boshqa harflar bilan uning sira ishi yo'q edi.

— Ajab! — deb xitob qildi missis Ueldon.

— Rostdanam, juda qiziq-a, — dedi kapitan Gul, kubiklarga tikilib.

— S, V, — deb o'qidi missis Ueldon.

— S, V, — deb takrorladi kapitan Gul. — Xuddi Dingoning bo'yinbog'idagi harflarning o'zgina-si-ya!

Shundan keyin u birdaniga keksa negr tomoniga burilib:

— Tom, siz bu it «Valdek» kemasi kapitanining qo'liga yaqindagina tushgan, deb aytgan edingiz shekilli, a? — deb so'radi.

— Ha, Dingoning «Valdek»ka olinganiga ikki yilcha bo'ldi.

— «Valdek»ning kapitani bu itni Afrikaning g'arbiy qirg'og'idan topib olganmidi?

— Ha, Kongo daryosining dengizga kelib quyiladigan joyidan topib olgan ekan. Bu to'g'rida «Valdek»ning kapitani ko'p gapirardi.

— Dingoning ilgarigi egasi kim ekanini va it-

ning qanday qilib Afrikaga borib qolganini hech kim bilmasmidi?

— Hech kim bilmasdi, kapitan. Itlarning holi tashlandiq bolalardan ham ko'ra battar bo'ladi, chunki ularning hech qanday hujjatlari bo'lmaydi, o'zlari ham bu to'g'rida hech narsa gapirib bera olmaydilar.

Kapitan Gul chuqur o'yg'a toldi.

— Bu ikki harfdan biron narsa fahmlayapsizmi deyman, kapitan? — deb so'radi missis Ueldon.

— Shunday, missis Ueldon. Ular menda bir fikr tug'diryapti... Ehtimol, bu shunday tasodifan to'g'ri kelayotgandir.

— Nima?

— Ehtimol, bu ikki harfda biror ma'no bordir; ehtimol, bu harflar bir dovyurak sayyohning taqdirini, sirini ochib beradigan kalitdir.

— Gapingizga tushunmayapman.

— Hozir aytib beraman sizga, missis Ueldon. 1871-yilda, ya'ni bundan ikki yil oldin, bir sayyoh fransuz geografiya jamiyatining topshirig'i bilan Afrikani g'arbdan sharqqa kesib chiqmoqchi bo'lib jo'nab ketgan edi. Bu sayyoh safarini Kongo daryosining xuddi ana shu dengizga kelib quyiladigan joyidan boshlashni mo'ljallagan edi. Keyin u Rovuma daryosi oqimidan borib, Delgado burniga chiqishni ko'zda tutardi. Bu sayyohning nomi Samyuel Vernon edi.

— Samyuel Vernon?! — deb takrorladi missis Ueldon.

— Shundoq, missis Ueldon. Qarangki, bu ism bilan familiya xuddi Dingo harflar ichidan tanlab olgan va uning bo'yinbog'idagi harflar bilan boshlanadi.

— Rostdan ham shunday-a, — dedi missis Ueldon. — Xo'sh, keyin bu sayyohga nima bo'lgan?

— U safarga jo'nadi, — deb javob berdi kapitan Gul, — shundan keyin dom-daraksiz bo'lib ketdi.

— Hech qanday xabar ham yo'qmi? — deb so'radi Dik Send.

— Yo'q, — dedi kapitan.

— Bundan qanday xulosaga kelsa bo'ladi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Men, Samyuel Vernon Afrikaning sharq tarafiga yetolmagandir, deb o'ylayman. U yo yo'lda halok bo'lgan, yo bo'lmasa yerlik xalq qo'liga asir tushgan.

— Demak, bu it...

— Bu it Samyuel Vernonniki bo'lgan bo'lsa kerak. Dingoning tolei egasidan balandroq bo'lib, u Kongo daryosining etagiga qaytib kelgan va u yerda uni «Valdek»ning kapitani topib olgan.

— Ayting-chi, kapitan, fransuz sayyohining iti borligini o'zingiz bilasizmi yoki faqat taxmin qilyapsizmi?

— Yo'q, missis Ueldon, bu faqatgina mening taxminim, — deb javob qaytardi kapitan Gul. — Ammo shunisi qiziqki, Dingo boshqa harflar orasidan o'z egasi ismining bosh harflarini, ya'ni «S» bilan «V» harflarini ajratib olishni biladi. Lotin alifbesidagi yigirma olti harf orasidan bu ikki harfni tanlab olishga Dingo qachon va qanday qilib o'rganganligini men sizga aytib bera olmayman. Biroq Dingo bu harflarni biladi, ana qarang, hozir ham u «mana, o'qib ko'ringlar», deganday oyog'i bilan kubikni surayotir!

Rostdan ham Dingo xuddi shunday qilayotgan edi.

— Bunday qiyin sayohatga Samyuel Vernon yakka o'zi chiqqanmikin-a? — deb so'radi Dik Send.

— Bilmayman. Yerlik xalqlardan o'ziga odam yollagan bo'lishi ehtimol, — deb javob qaytardi kapitan Gul.

Shu paytda palubaga Negoro chiqib qoldi. Uning chiqqanini va «S» bilan «V» harfi yozilgan kubiklarni qo'riqlayotgan itga g'alati qilib qarab qo'rganini boshda hech kim fahmlamadi. Biroq Dingo kema oshpazini ko'rgan zamon tishlarini irjaytib, qattiq irillay boshladi.

Shunda Negoro darrov o'z kayutasiga kirib ketdi. Lekin uning Dingoga xo'mrayib qarashi itga bir yomonlik qilishini bildirib turar edi.

— Bu yerda qandaydir bir sir borga o'xshaydi, — dedi kapitan Gul shivirlab, chunki uning o'tkir ko'zlaridan hech narsa qochib qutulmas edi.

— Itning harflarni ajrata bilishi g'alati emasmi? — dedi Dik Send.

— Yo'q, yo'q! — deb gapga aralashdi kichkina Jek. — Oyim menga: bitta it bor edi, o'qishniyam, yozishniyam bilar edi, derdi. U it maktabdagi o'qituvchi singari hatto domino o'ynashniyam bilar ekan.

— Azizim, — deb kulimsiradi missis Ueldon, — men senga aytgan it Munito degan it edi, u sen o'ylagandek aqli emasdi. Agar menga aytgan odamlar to'g'ri gapirgan bo'lsa, Munito harflarni bir-biridan ajrata olmas ekan. Ammo uning eshitish qobiliyati juda zo'r bo'lgan. Itning egasi, bir abjir amerikalik Munitoning bu xislatini bilib qolib, uni o'rgatavergandan keyin ajoyib natijalarga erishgan.

— Qanday qilib bunga erishgan ekan, missis Ueldon? — deb so'radi Dik. Jek singari u ham missis Ueldonning hikoyasiga qiziqib qolgan edi.

— Mana bunday qilib, do'stim. Munito tomoshabinlar oldida «ishlaydigan» mahalida egasi xuddi mana shu singari harflar yozilgan kubiklarni stol ustiga tizib qo'yar ekan. It o'sha stol ustida tomoshabinlar aytadigan so'zni tizib berishga tayyor bo'lib turar ekan. Biroq shart shuki, tomoshabinlar aytadigan so'zni Munitoning egasi ham bilishi kerak ekan.

— Demak, egasi bo'lmaganda... — deb gap boshlab edi Dik.

— ...It hech narsa qilolmasdi, — deb davom qildirdi missis Ueldon. — Sababi bunday. Boya aytganimdek, kubiklar stol ustiga tizib qo'yilgan, Munito esa o'sha stol ustida u yoq-bu yoqqa yurib turar ekan. It aytilgan so'zdagi harf yonidan o'tib ketayotganida, egasining cho'ntagidagi tish tozalaydi-

gan cho'tkaning sekin chilt etgan ovozini eshitar ekan. Bu ovozni itdan boshqa hech kim eshitmas ekan. Munito esa o'sha ovozni eshitish bilan oldidagi harfni darrov olib, bir tartibda qilib tizar ekan.

— Butun sir shunda ekanmi? — deb so'radi Dik Send.

— Ha, ko'rib turibsanki, siri oddiygina ekan, — deb javob qaytardi missis Ueldon. — Aytgandek, sirkdagi ko'p nayrangbozliklar ham shunga o'xshash oddiy bo'ladi. Egasi yo'qligida Munito ham «qobiliyatini» yo'qotib qo'yar ekan. Shuning uchun Dingo egasi Samyuel Vernon yo'g'ida ham, — agar itning egasi rostdan ham o'sha kishi bo'lgan bo'lsa, bu ikki harfni tanib olishi meni juda-juda hayron qoldiryapti.

— Rostdan ham juda ajoyib it-a, — dedi kapitan Gul, — aytgandek, bunda it tomoshabinlar aytayotgan so'zni yasamaydi, u faqat doim o'sha ikki harfni olyapti. Nihoyat, gadoylarga ulashib berish uchun to'plangan sarqit ovqatlarni yeyishga ibodatxona eshigida qo'ng'iroq chalayotgan it yoki kunora chig'ir aylantiradigan va o'z navbati kelmasdan chig'ir aylantirishdan bosh tortgan it, ehtimol, u itlar bizning Dingomizdan farosatliroq bo'lsa bordir. Ammo gap unda emas. Bor gap shundaki, Dingo harflar ichidan doim «S» va «V» harflarini tanlab olayotir. U boshqa harflarni tanimasa kerak. Bundan faqat shunday xulosaga kelish mumkinki, itning xuddi shu ikki harfni eslab qolishiga bir sabab bo'lgan.

— Oh, kapitan Gul, — deb xo'rsinib qo'ydi Dik Send, — koshki edi, Dingo tilga kirsal! Unda bu harflarni nima sababdan tanib olganini va nima sababdan oshpazimizga tishlarini irjaytirganini birma-bir aytib berardi-ya!

— Tish bo'lganda ham tag'in qanday tishlar deng! — deb kulib yubordi kapitan Gul, o'sha paytda esnab, dahshatli tishlarini ochib turgan Dingoni ko'rsatib.

DENGIZDA KIT

Missis Ueldon, kapitan Gul va Dik Sendlar Dingoning g'alati qiliqlari haqida ko'p marta suhbatlashar edilar. Garchi Negoro o'zini avvalgicha tuppa-tuzuk tutib ish qilayotgan bo'lsa ham, lekin yosh matros ich-ichidan unga ishonmas edi.

Matroslar ham Dingoni eng aqlli it, u o'qishnigina emas, balki yozishni ham ba'zi bir matroslardan ko'ra tuzukroq biladi, deb hisoblardilar. Basharti, uning jim yurishiga biron narsa sabab bo'lmaganda edi, Dingo odamdek gapiraverardi, derdilar.

— Mana ko'rarsizlar, — derdi rul boshqaruvchi Bolton, — bir kuni bu it mening oldimga kelib: «Xo'sh, Bolton, bugun shamol qay tomondan esayotir, shimoli-g'arbdanmi yoki shimoli-sharqdanmi?» deb so'rab qoladi va shunda men javob berishga majbur bo'laman.

— Gapiradigan jonivorlar ozmi, — dedi boshqa bir matros, — mana, masalan, zag'izg'onni, to'tiqushni oling!.. It ham gapirsa bo'ladi. Tumshuq bilan gapirishdan ko'ra, og'iz bilan gapirish osonroq bo'lsa kerak.

— Bu to'g'ri, — dedi botsman Govik — ammo, har holda, gapiradigan it hech bo'lgan emas.

«Piligrim»ning matroslari gapiradigan itlar borligini bilganlarida juda hayron qolgan bo'lar edilar. Daniyalik bir olimning yigirmatacha so'zni aniq qilib aytadigan iti bo'lgan. Ammo bu xilda so'z aytish boshqa-yu, chinakam gapirish boshqa. Ikki o'rtadagi farq juda katta. Daniyalik olimning itining tovush pardalari aniq so'zlay oladigan qilib tuzilgan ekan. Biroq bu it ham, zag'izg'on yoki to'tiqush singari, o'zi aytgan so'zlarning ma'nosi-ga yaxshi tushunolmagan. So'z aytish, gapiruvchi barcha jonivorlar uchun ham sayrash yoki baqirishdek bir narsa hisoblanadi, xolos.

Har qalay, nima bo'lganda ham, Dingo «Piligrim» kemasida hammaning diqqat markazida bo'lib qoldi. Ammo shuni aytish kerakki, u bu bilan sira maqtanmas edi. Kapitan Gul bu tajribani bir necha marta takrorlab ko'rди: u yog'och kubiklarni itning oldiga tizib qo'yardi, Dingo har safar hech adashmasdan va ikkilanmasdan o'sha «S» bilan «V» harfini tanlab olaverdi.

O'sha paytda Dingo boshqa harflarga sira ham parvo qilmas edi.

Kapitan Gul bu tajribani bir necha marta Benedikt tog'a oldida qilib ko'rди. Biroq olim faqat hasharotlargagina qiziqqanidan, Dingoning qiliqlariga sira e'tibor qilmadi.

— Bunday ishlarga, — dedi u bir mahal, — faqat itlargina layoqatli bo'lar ekan deb o'ylash noto'g'ri bo'ladi. Boshqa ziyrak jonivorlar ham oz emas. Ammo ular ham, itlar singari, o'z tuyg'ulariga bo'ysunadilar. Misol uchun, cho'kayotgan kemadan qochib ketuvchi kalamushlarni eslanglar. Qunduzlarni eslanglar — ular, ariqlarda suv ko'payganda suv doim bir balandlikda tursin uchun, g'ov quradilar. Ajoyib xotirlash kuchi bo'lgan eshaklarni eslanglar. Nihoyat, o'z egasining o'limiga qayg'urib o'lgan otlarni eslanglar. Yaxshi o'rgatilgan qushlar butun bir jumlani qaytarib aytib beradilar; qancha mehmon borligini aniq sanab beradigan to'tiqushlar borki, astronomiya observatoriyasi hisobchisining ham bu qushga havasi kelsa bo'ladi. Qumursqalar o'z shaharlarini shunday mohirlik bilan quradilarki, katta shahar quruvchilarimiz ulardan o'rgansa bo'ladi. Ba'zi bir juda kichkina hasharotlarning ham aqlli ish qilishlariga men ham behad qoyilman. Bir ruhoni y kishining to'tiqushi bo'lgan, butun duolarni egasiga hech tutilmasdan o'qib berar ekan. Aytishlaricha, bu xizmati uchun to'tiqush bir yilda yuz tilla olar ekan. Fizika qonunlaridan bexabar bo'lgan suv o'rgimchaklari havo minoralari yasay-

dilar, burgalar yaxshi otlar singari yuk tortadilar, saf-saf bo'lib tizilishib soldatlardan ham yaxshiroq mashq qiladilar, Nyu-Yorkdagi harbiy maktabni bitirgan to'pchilardan ham ustaroq to'p otadilar. Yo'q, Dingoni maqtashingiz o'rinsiz. Agar u alifbeni bilar ekan, bu uning xizmati emas: ehtimol, u hozirgacha olimlarga noma'lum bo'lgan «savodli itlar» jinsidandir.

Ammo hasadchi entomologning bu xildagi so'zlari kemadagilar o'rtasida Dingoning obro'sini sira tushirmadi, kemadagilar xuddi ilgarigiday, uni itlar jinsining karomatlisi der edilar.

Faqatgina Negoro itning qiliqlariga ajablanmas edi. Ehtimol, u itni juda ham aqlli deb hisoblalgandir. Ammo Dingo Negoroni hamon ko'rgani ko'zi yo'q edi. Buning uchun Negoro albatta itning adabini berib qo'yardi-yu, lekin bunga ikki narsa to'sqinlik qiladi: birinchidan, Dingo unga bo'sh kelmaydigan it bo'lsa, ikkinchidan, butun kemadagilar Dingoni yaxshi ko'rardi.

Endi Negoro Dingodan ilgarigidan ham ko'proq qochar edi. Kubiklar voqeasidan keyin Negoro bilan it o'rtasidagi dushmanlik yanada kuchayganini Dik Send fahmlab qoldi. Bu esa hech bir tushunib bo'lmas hodisa edi.

10-fevralgacha dengizda kishini toliqtiradigan jimlik hukm surdi, shu vaqt ichida «Piligrim» joyidan qimirlamadi. Ammo shu 10-fevral kuni shimoli-sharqdan esayotgan shamol ancha bosilib qoldi; kapitan Gul esa shamolning yo'li tezda o'zgarishini kuta boshladi. U shamolning shimoli-g'arbdan esishini istar edi, bu esa kemadagi hamma yelkanlarni ko'tarish uchun imkon berardi. «Piligrim»ning Oklend portidan chiqqaniga atigi o'n to'qqiz kun bo'lgandi. Unchalik kechikilgani yo'q va agarda shamol o'ngdan esa qolsa, yaxshi uskunalangan kema kechikilgan vaqtni birpasda bosib o'ta oladi. Ammo hali hozircha bunaqa shamol turgani yo'q. Uni bir necha kun kutib turishga to'g'ri keldi.

Okean ilgarigiday bo'm-bo'sh. Janubiy qutb dengizlarida kit ovlash uchun chiqqan kemalar hali yurtlariga qaytganlaricha yo'q. Shuning uchun boshqa bir mushkul sabablar bilan ov joyidan ertaroq qaytib kelayotgan «Piligrim» Kozerog tropigida ketayotgan kemalar bilan uchrashuvga umid qilmasa ham bo'lardi.

Amerika bilan Avstraliya o'rtasida qatnovchi paketbotlar esa, ma'lumki, okeanning past kengliklaridan o'tadilar.

Biroq dengiz ana shunday bo'm-bo'sh vaqtida uni, ayniqsa, yaxshi kuzatish kerak. Yuzaki qarang kishiga dengiz usti bir xilda bo'lib ko'rinsa ham, lekin asl dengizchi undan juda ko'p qiziq narsalarni payqaydi.

Dengiz manzarasining andakkina o'zgarishi ham dengizni sevuvchi odamni darrov hayron qoldiradi. Ana, bir tutam dengiz o'ti oqib kelyapti; uzun dengiz o'simligi suv ustida iz qoldirib kelyapti: ana, bir parcha taxta suzib kelyapti, bu taxtaning boshidan nima voqealar kechmadi ekan! Cheksiz dengiz xayolni olib qochadi.

Goh bug'lanib osmonga ko'tarilib ketayotgan, goh yomg'ir bo'lib dengizga yog'ayotgan suv tomchisidagi har bir zarracha, ehtimol, katta-katta falokatlarining guvohi bo'lgandir. Dengiz sirlarini ocha olgan aql egalariga ballil

Suv ustidagi ham, suv ostida ham, hamma joyda hayot qaynaydi! «Piligrim» kemasidagi yo'lovchilar qish yaqinlashib kelayotgani uchun qutb tomondan uchib kelayotgan to'da-to'da qushlarning maydachuyda baliqlarni ovlayotganini tomosha qilar edilar. Dik Send o'zining merganligini ko'rsatdi. Miltiq bilan ham, to'pponchasi bilan ham mo'ljalga yaxshi uradigan Dik uchib ketayotgan qushlardan bir nechasini otib tushirdi.

Dengiz ustida bir gala oppoq bo'ronqushlar parvoz qilib yurardi. Balanddan kattakon dengiz kaptarlari ajoyib parvoz qilib o'tdilar. Ular suv-

da o'zlariga oziq ko'rgan hamono dengiz ustiga uchib tushadilar, goh u tomonlariga, goh bu tomonlariga chiroyli qilib buriladilar. Dengiz kap-tari baliqni tutib olgandan keyin to'lqinlar usti-da bir oz uchib boradi-da, keyin tikkasiga os-monga ko'tariladi.

Ana shu doim o'zgarib turuvchi manzaralarni kuzatish juda qiziq. Tabiatga beparvo qarovchi kishigagina dengiz harakatsizday tuyulishi mum-kin.

10-fevral kunduz kuni missis Ueldon «Pilig-rim»ning sahnida tomosha qilib yurganida dengiz suvining birdaniga qizg'ish bo'lib qolganini ko'rdi. Suvga qon aralashganday edi. Ko'z ilg'agan hamma joylar ana shunday qip-qizil edi.

Dik Send kichkina Jek bilan palubada o'ynab yurgan edi.

Missis Ueldon unga:

— Bu yoqqa qara, Dik, dengizning rangi juda g'alati bo'lib ketibdi. Bu rang qayerdan keldiykin? Yoki suvga biror dengiz o'ti shunaqa rang beryap-timi? — dedi.

— Yo'q, missis Ueldon, — deb javob qaytardi Dik, — sizga bu rangni qisqichbaqaga o'xshash, lekin juda ham mayda bo'lgan milliard-milliard dengiz hasharotlari beradi. Bu hasharotlarni yirik dengiz hayvonlari yeydi, baliqchilar esa bu qisqich-baqalarni «kit sho'rva» deb ataydilar.

— Qisqichbaqa emish! — dedi missis Ueldon. — Ular shunday maydaki, ularni dangal dengiz hasharoti desa ham bo'laveradi! Benedikt tog'a ularni jon deb o'z hasharotlariga qo'shib qo'ysa kerak.

Shundan keyin missis Ueldon:

— Benedikt tog'a! Bu yoqqa keling! — deb chaqirdi.

Benedikt tog'a bilan kapitan Gul kayutadan ba-ravar chiqib kelishdi.

— Benedikt tog'a, dengizga bir qarang! Undagi

qizil dog'larni ko'ryapsizmi? — deb so'radi undan missis Ueldon.

— Ha, ha! — deb xitob qildi kapitan Gul. — Kit sho'rva-kul Ana endi, Benedikt tog'a, qisqich-baqachalarni bemalol tekshiraverasiz!

— Bo'lmagan gap! — dedi entomolog.

— Nega bo'lmagan gap bo'lsin?! — dedi kapitan baqirib. — Bunday beparvo qarashga haqingiz yo'q. Agar yanglishmasam, bu qisqichbaqalar jumlasiga kiradi va uning uchun...

— Bo'lmagan gap! — dedi yana Benedikt tog'a bosh chayqab.

— Har holda, entomologning bunday beparvo bo'lishi...

— Esingizdan chiqmasinki, kapitan Gul, — deb uning so'zini bo'ldi Benedikt tog'a, — men hasharotshunosman, axir.

— Demak, bu qisqichbaqachalar sizni qiziqitmas ekan-da, janob Benedikt? Agar kitning qorni sizda bo'lganda edi, bunday taomdan mazza qilardingiz-al Bilsangiz, missis Ueldon, biz kit ovchilari, dengizda bunday qisqichbaqalar bor joyga duch kelib qolgani-mizda ovga tayyorgarlik ko'raveramiz, chunki bun-day joyda kit bo'lishi turgan gap...

— Bunday kichkina qisqichbaqalarni yegan bi-lan kitning qorni to'yarmidi? — deb so'radi Jek.

— Buning nimasiga ajablanayotirsan, o'g'il-cham? — deb javob qaytardi kapitan Gul. — Yormadan va eng mayda zarrali undan mazali ovqat tayyorlanadi-ku. Kit bunday qisqichbaqacha to'dasini topsa, demak, unga ovqat tayyor. Og'zini ochsa bas — qorni to'yaveradi. Kit, qisqichba-qachalarni ming-minglab yutadi-da, keyin og'zini yopib oladi. Shunda tanglayidagi «kit mo'ylovi», ya'ni muguz taxtachalarining og'zi to'lib ketadi va xuddi suzgichga o'xshab qoladi. O'sha taxtachalar orasiga eng mayda va silliq badan dengiz jonivor-lari qisilib qoladi. Ana o'shalarni kit, sho'rvani yutib yuborganingiz singari, bemalol yuta beradi.

— Bilasanmi, Jek, — deb qo'shimcha qildi Dik, — janob kit, qisqichbaqachalarning po'cho-g'ini tozalab ovora bo'lib ham o'tirmaydi!

— Kattakon kit o'z sho'rvasini ajdarhoday yutib yotgan mahalda, — deb davom qildi kapitan Gul, — kema unga bemalol yaqinlasha beradi. Kit ovchilari bundan foydalanib...

Xuddi shu paytda, kapitan Gulning aytganlarini ma'qullagandek, navbatchi matros:

— Dengizda kit ko'riyapti, kemadan chapdal! — deb qichqirdi. Kapitan Gul sakrab o'rnidan turdi.

— Kit! — dedi-da, ovchilarga xos g'ayrat bilan kema burniga qarab chopib ketdi.

Missis Ueldon, Jek, Dik Send va Benedikt tog'a — hammalari kapitanning ketidan yugu-rishdi.

Shimoldan o'ng tomondagi to'rt milcha joyda dengiz usti xuddi qaynab turganday ko'rinar edi. Tajribali kit ovchisi yanglishmabdi: azamat dengiz hayvoni to'da-to'da qisqichbaqachalar orasidan suzib kelar edi. Masofa hali uzoq bo'lganidan bu kitning qanaqaligini aniqlab bo'lmas edi.

Ehtimol, u aksari shimoliy dengizlarda bo'ladi-gan asl kitlardandir? Asl kitning orqasida qanoti bo'lmaydi. Uning og'zi yalpoq va xuddi kesib qo'yilgan singari bo'ladi, og'zidagi muguz tax-tachalari, ya'ni kit mo'ylovi uzun va juda ko'p bo'ladi. Asl kitning odatdagi uzunligi o'n ikki metrdan o'n olti metrgacha bo'ladi, ammo ba'zi bir-larining uzunligi yigirma metr va hatto undan ham uzunroq bo'ladi. Terisi ostida qalinligi yarim metr keladigan yog'i bo'ladi. Bunday kitning har biri o'ttiz tonnadan yog' berishi mumkin.

Ehtimol, bu ola yoki bukri kitdir? Bukri kitning qanotlari ko'pincha uch-to'rt metr bo'ladi. Bukri kit boshqa kitlarga qaraganda eng yo'g'oni, eng qo'poli va shu bilan birga eng sho'xidir; u, hadeb suv ustiga sakrab chiqaveradi.

Ammo bu katta ola kit bo'lishi ham ehtimol. Ola

kitlar ham katta bo'ladi. Ularning og'irligi bir yuz yigirma tonnagacha keladi.

Navbatchi matros ko'rgan kit qaysi turdan ekanini hali aniqlab bo'lmas edi.

Kapitan Gul hamda «Piligrim»dagi hamma kishilar kitni diqqat bilan kuzatib turdilar.

To'qayzordagi qirg'ovulni ko'rgan ovchi qanday sabrsizlik qilsa, dengiz ustida suzib yurgan kitni ko'rgan kit ovchisi ham xuddi shunday sabrsizlik ko'rsatadi. Mayda jonivor ovchilariga qaraganda, yirik jonivor ovchilari serzavq bo'ladi deyishadi. Hayvon qanchalik yirik bo'lsa, ovchining zavqi ham shunchalik kuchli bo'larmish, shunday ekan, fil yoki kit ovchilarining zavqi qanday bo'larkin?

«Piligrim»dagilar yana: kema o'z yurtiga kam yuk bilan qaytayotir, shuning uchun matroslar kam ish haqi oladi, deb ham o'ylar edilar.

Kapitan Gul dengizga tikilgani tikilgan edi. Kit hali uzoqda, arang ko'rinar, ammo burun teshiklaridan otilib chiqayotgan suvga qarab, un-ing qaysi turdagi kit ekanini aniqlash mumkin edi.

— Bu asl kit emas! — deb xitob qildi kapitan Gul. — Asl kit suvni balandroqqa otadi. Bu bukri kit ham emas! Bukri kit suv otib chiqazganida yiroqdan baravariga to'p otilganga o'xshab guvul-lagan ovoz eshitilib turadi. Shunda bukri kit ekan-ligi aniq ma'lum bo'ladi. Bu kitning ovozi butunlay boshqacha. Sen nima deysan, Dik? — deb so'radi Dik Senddan kapitan Gul.

— Menimcha, kapitan, bu ola kit bo'lsa kerak, — deb javob qaytardi Dik Send. — Osmonga zabt bilan suv otishini qarang-a. Agar yanglishmasam, ola kit xuddi shunday qiladi shekilli?

— To'g'ri aytding, Dik! — dedi kapitan. — Aslo shubhalanmasa ham bo'ladi: qizil suvda ola kit su-zib yuribdi.

— Qanday chiroyli-ya! — dedi kichkina Jek.

— Shundoq, o'g'ilcham! Shunday kattakon

jonivor bo'la turib, ketidan ovchilar tushganidan bexabar, hech tap tortmasdan bemalol qornini to'yg'azib yuripti.

— Menimcha, bu juda katta ola kit bo'lsa kerak, — deb qo'ydi Dik Send.

— Shubhasiz! — dedi ko'zlari yonib kapitan Gul, — uning uzunligi kamida yigirma ikki-yigirma uch metr keladi.

— Oho! — dedi botsman. — Shunaqangisidan oltita bo'lsa, «Piligrim» to'lardi.

— Ha... — dedi xo'rsinib kapitan Gul.

U, kitni yaxshiroq ko'rmoq uchun bushprit ustiga chiqib oldi.

— Agar biz bu kitni qo'lga tushirsak, — deb davom qildi botsman, — bo'sh bochkalarning yarmini yog' bilan to'ldirar edik...

— Ha... rostdan ham shunday bo'lardi! — deb shivirlab qo'ydi kapitan Gul.

— Bu to'g'riku-ya, — dedi Dik Send, — ammo bunday katta ola kitga hujum qilish ham xatarli ish-dal!

— To'g'ri, oson ish emas... Bu ola kitning dumi juda kuchli bo'ladi, unga ehtiyotlik bilan yaqinlashish kerak. Dumi bilan bir ursa bormi, eng mahkam qayiq ham dabdala bo'lib ketadi. Ammo, o'zi qiziqsa arziydigan o'lja.

— Yaxshi ola kit — chakana o'lja emas! — dedi matroslardan biri.

— Harakat qilganingga arziydi! — dedi ikkinchi bir matros.

— U bilan gaplashmay o'tib ketilsa, kishiga alam qiladi! — deb qo'ydi uchinchi bir matros.

Kemadagi hamma matroslar ham kit ovlashga intilar edi. Bu kitning tanasidagi yuz bochka yog'dengiz ustida suzib yurar edi. Bochkalarni to'g'rilansa bas, yog' o'z-o'zidan unga oqib tushayotgan-day bo'lib ko'rinar edi.

Matroslar bazan-machtaning reyalari ustiga chiqib olib, kitning har bir harakatini astoydil kuzatib turdilar.

Kapitan Gul jim bo'lib qoldi. U nimalarnidir o'ylar, tirnog'ini chaynar edi.

Bu ola kit «Piligrim» hamda undagi odamlarni kattakon magnit singari o'ziga tortar edi.

— Oyi! Hoy, oyi! — deb qichqirdi to'satdan kichkina Jek. — Men kitning qanaqaligini tomosha qilmoqchiman!

— Xo'p, chirog'im, kitni yaqinroqdan tomosha qilmoqchimisani? Qani, seni ham bir tomosha qildiraylik-chi. Shunday emasmi, yigitlar? — deb matroslarga qaradi kapitan Gul bunga e'tiroz bildirishga ojizlik qilib. — Biroq odamlarimiz kam-roq-da... Ha, mayli bir ilojini qilarmiz, axir...

— Ilojini qilamiz, qilamiz ilojini! — deb bir og'izdan qichqirishdi matroslar.

— Kitga birinchi marta garpun otayotganim yo'q-ku, — deb gapida davom qildi kapitan Gul, — qani ko'ramiz, garpun otish esimdan chiqib qolmadimikin.

— Ura, ura, ura! — deb qichqirishdi hammalari.

Y e t t i n c h i b o b

OVGA HOZIRLIK

Rostdan ham, dengizdagi qizil dog'lar orasida suzib yurgan kit juda katta bo'lib, «Piligrim» ke-masidagi odamlarni hayajonga solganicha ham bor edi.

Uni qo'lga tushirib, u bilan kemani to'ldirish juda soz ish bo'lar edi. Kit ovchilari bunday ov oldida indamay tura olarmidilar?

Missis Ueldon kapitan Guldani, kit ovlash xatarli ish emasmi, deb so'radi.

— Yo'q, missis Ueldon, — deb javob qaytardi kapitan Gul. — Hech qanday xavf-xatar yo'q. Kitni atigi bitta qayiq bilan ko'p marta ov qilganman va doim maqsadimga yetardim. Takror aytaman: biz-

ga, demak, sizga ham buning hech qanday xavf-xatarli joyi yo'q.

Missis Ueldon xotirjam bo'lib, boshqa surishtirib o'tirmadi.

Kapitan Gul ola kitni ovlash uchun zarur bo'lgan hamma tayyorgarliklarni ko'rishga buyruq berdi. U, bu ovni juda qiyin deb hisoblardi, shuning uchun hamma ehtiyot choralarni ko'rdi.

Kapitan Gul ola kitga qarshi odatdagicha uchta qayiq o'rniga faqat bir qayiq yuborishga qodir edi. Ma'lumki, Yangi Zelandiyada matroslar bilan garpunchilar ishga olinar va ular ovchilik mavsumi vaqtida «Piligrim»dagilarga yordam berar edilar. Hozir bunday yordamchilar bo'lmaganidan «Piligrim» kit oviga faqatgina besh matrosdan iborat besh kishilik bittagina qayiq yuborishi mumkin edi. Tom bilan uning sheriklari, yordam qilamiz, deb tayyor turgan bo'lsalar ham, kapitan Gul bunga rozi bo'lmadi, chunki kit ovi vaqtida qayiqni eplash uchun juda usta dengizchi bo'lish kerak. Qayiqning rulini jindakkina bo'lsa ham noto'g'ri burilsa yoki hujum paytida qayiqning eshkagini salgina bevaqt siltansa ham hamma halok bo'lib ketishi mumkin.

Bundan tashqari, kapitan Gul hech bo'lmaganda bitta tajribali dengizchini kemada qoldirishi shart edi: chunki har qanaqa voqea yuz berishi mumkin.

Kit ovlash qayig'i uchun baquvvat kishilar kerak bo'lganidan, kapitan Gul kemani noiloj Dik Sendga topshirib ketishi lozim bo'ldi.

— Dik, — dedi kapitan Gul, — ovdan qaytib kelgunimcha mening o'rinbosarim bo'lib qolasan. Dengizda uzoq bo'lmasak kerak.

— Xo'p bo'ladi, kapitan! — deb javob qaytardi Dik Send.

Dik Send ovga qatnashishni juda istardi, ammo qayiqda tajribakor kit ovchisi bo'lgani yaxshiroq ekanligini va «Piligrim»da kapitan Gul o'rnida faqat o'zigina qolishi mumkinligini juda yaxshi

tushunar edi. Shuning uchun noiloj xo'p deyishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, «Piligrim»ning butun komandasi ovga jo'nab ketmoqda edi. To'rtta matros qayiqni haydash uchun eshkak tortishga o'tirishadi. Botsman Govik esa rulning xizmatini o'taydigan quyrug'idagi eshkak yoniga o'tirishi kerak edi. Qayiqdagi rul qayiqni darrov u yoq-bu yoqqa burishga imkon bermaydi. Basharti, ov vaqtida eshkaklar sinib qolsa, usta kishining qo'lga tushgan quyruqdagi bitta eshkak ham qayiqni darg'azab bo'lgan kitdan olib qocha oladi.

Kapitan Gul garpunni o'zi otadigan bo'ldi, bu uning birinchi marta garpun otishi emas edi. U garpun otishi, bir uchi garpunga bog'langan arqonning chuvalib chiqishini kuzatishi va, nihoyat, yarador bo'lgan kit dengiz ustiga qalqib chiqqan paytda unga nayza sanchishi lozim edi.

Ba'zan kit ovchilari zambarak ham ishlatadilar. Kemaga yoki qayiq burniga maxsus zambarak o'rnatiladi. Bu zambarakdan yorilib parchalanuvchi snaryad yoki arqon bog'langan garpun otiladi. Ammo «Piligrim» kemasida bunday zambarak yo'q edi. O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, dengizchilar bunday yangilikni ko'pam yaxshi ko'ravermaydilar, chunki bu asbob qimmatbaho bo'lib, juda zo'r e'tibor berishni talab etadi. Undan ko'ra, ular oddiy garpun bilan nayzalarni afzalroq ko'radilar. Kapitan Gul ham «Piligrim»dan sakkiz kilometr narida suzayotgan ola kitni ana shunday oddiy qurollar bilan ovlamoqchi edi.

Havo ham ov qilish uchun bop edi. Dengiz tinch, demak, qayiqni eplash oson bo'ladi. Shamol ham yo'q hisob, demak, ov mahalida shamol «Piligrim»ni uzoqqa surib ketadi, deb xavotir olmasa ham bo'ladi.

Qayiq suvga tushirildi, to'rttala matros ham joy-joyiga o'tirishdi.

Botsman Govik ularga ikkita garpun bilan bir nechta temir uchli nayza uzatdi. Bulardan tashqari, har bir o'rami olti yuz futli besh o'ram silliq va mahkam sim ham uzatdi. Uning bir o'rami sob bo'lsa, matroslar uning uchiga ikkinchi o'ramni ulaydilar, ikkinchisi sob bo'lsa, uchinchisini ulaydilar va hokazo. Biroq ba'zan uch ming futli sim ham kamlik qilib qoladi.

Kit ovlash asboblari bo'lgan garpun, nayza va simlar qayiq burniga yaxshilab taxlab qo'yildi. Govik arqonga osilib qayiqqa tushdi-da, o'z o'rnini egalladi. Endi u faqat ovga jo'nash to'g'risida buyruq bo'lishini kutar edi. Qayiqda esa faqat bir bo'sh o'rin qoldi — uni kapitan Gul egallashi kerak edi.

Ovga jo'nashdan oldin kemani hech qayoqqa ketmaydigan qilib to'xtatdilar, ya'ni yelkanlar shunday qilib qo'yildiki, biri kemani oldinga sudrasa, ikkinchisi orqaga tortadi. Ikki kuch bir-biriga baravar kelganidan, «Piligrim» joyidan qimirlay olmaydi.

Kapitan Gul qayiqqa o'tirishdan oldin yelkanlarga so'nggi marta nazar tashladi. Yelkanlar ustunlarga yaxshi biriktirilgan, arqonlar esa qattiq tortilgan edi. Ehtimol, Dik Send kemada yolg'iz o'zi ko'p vaqt ishlab turishiga to'g'ri keladi. Kapitan uni yelkanlarni qaytadan qurishdan qutqazmoqchi edi.

Hamma ish joyida ekanini ko'rgandan keyin kapitan Dikni o'z oldiga chaqirib olib:

— Dik, o'zingni yolg'iz qoldiryapman. Juda hushyor bo'lasan! Basharti, «Piligrim»ga chor-nochor bizlarga qarab borishga to'g'ri kelib qolsa, Tom bilan uning sheriklari senga yordam berishadi. Sen nima qilish kerakligini ularga yaxshilab tushuntirib bersang, ular bu ishning uddasidan chiqadilar.

— Kapitan Gul, biz Dikka jon deb qarashamiz, — dedi kekxa Tom.

— Buyursalar bo'lgani! — deb xitob qildi Bat. — Biram ishlaylikki, asti so'ramang!

— Biron arqonni tortish kerak emasmi? — deb so'radi pahlavon Gerkules, yengini shimarib.

— Hozircha yo'q! — deb javob berdi kulimsirab Dik.

— Men tayyorman! — dedi pahlavon.

— Bugun havo yaxshi, — deb gapida davom qildi kapitan Gul, — shamol ham turmaydiganga o'xshaydi... Ha, aytganday, Dik, dengizga hech vaqt qayiq tushira ko'rmagin, kemadan ham hech qayoqqa jilmagin!

— Xo'p bo'ladi, kapitan!

— Bordi-yu, kitni quvlab uzoqqa ketib qolguday bo'lsak, «Piligrim» bizning ketimizdan kelsin, deb nayza uchiga bayroq ko'tarib signal beraman.

— Xotirjam bo'ling, kapitan. Men sizning qayig'ingizni ko'zdan qochirmaslikka harakat qilaman, — deb javob qaytardi Dik Send.

— Barakalla, chirog'im, — dedi kapitan Gul. — Aqlli bo'l, botir bo'l, endi sen kapitan yordamchisisan. Ehtiyot bo'l, darajangni yerga urma. Hali hech bir kishi sening yoshingda bu darajaga erishgan emas.

Dik javob qaytarmadi. U jilmayar va qizarar edi. Kapitan Gul bu jilmayish va qizarishning ma'nosini ham tushundi.

— «Qanday azamat bola-ya! — deb o'ylaydi u. — Kamtarlik va botirlik — Dikning butun tabiatini ko'rsatib beruvchi ikki so'z mana shul!»

Ov uzoqqa cho'zilmasligi va hech qanday xavf-xatar yo'qligiga qaramasdan, kapitan qulning o'git-nasihatlarini uning kemani tashlab ketgisi kel-maganini ko'rsatib turar edi.

Dengiz tinch bo'lgani uchun kit ovi oson bo'lishi kutilardi. Ovchilik ehtirosi va bo'sh bochkalarni kit yog'i bilan to'ldirish istagi kapitanni ovga undardi. Bundan u ham, komandasi ham voz kecholmadilar. Buning ustiga, ov uchun hamma narsa taxt edi, hammasidan ham shu sabab ustun keldi.

Nihoyat, u qayiqqa tushadigan arqon narvon tomoniga qarab shaxdam qadam tashlab ketdi.

— Ovingiz muvaffaqiyatli bo'lsin! — deb xayrlashdi missis Ueldon.

— Yaxshi qolinglar!

— Kapitan Gul, zinhor u bechora maxluqni qattiq urmanglar! — deb qichqirdi kichkina Jek.

— Xo'p, chirog'im! — deb javob qaytardi kapitan Gul.

— Uni sekingina ushlab olinglar!..

— Xo'p, xo'p... Qo'lqop kiyib olaman!

— Ba'zan bunday kitlarning sirtida ajoyib hasharotlar ham topilib qoladi, — dedi Benedikt tog'a.

— Xo'p, janob Benedikt, — deb kulib javob qaytardi kapitan Gul, — ola kit «Piligrim»ga olib kelinganidan keyin siz ham bemalol «ovingizni» qilaverasiz!

Yana Tomga burilib qarab, dedi:

— Kitni olib kelganimizdan keyin uni saranjomlashga siz ham sheriklaringiz bilan yordam berasiz, deb umid qilamiz, Tom...

— Bosh ustiga, janob kapitan!

— Rahmat! — dedi kapitan Gul, — Dik, bu azamat yigitlar biz ov qilayotganimizda bo'sh bochkalarni palubaga yumalatib chiqishda yordamlashadilar. Qaytib kelganimizdan keyin, ishlarni qizitib yuboramiz.

— Xo'p bo'ladi, kapitan! Hammasini bajaramiz.

Kapitan Gul kema bortidan oshib, arqon narvon-dan qayiq burniga tushdi.

Missis Ueldon, Jek, Benedikt tog'a, Tom va sheriklari kapitan Gulga so'nggi muvaffaqiyat tilashdi.

Dingo ham, ikki orqa panjasiga tiranib va kemanding bortidan kallasini cho'zib xayrlashgan bo'ldi.

Keyin kemadagilar xatarli ovni yaxshiroq tomosha qilish uchun «Piligrim»ning burun tomoniga yig'ilishdi.

Qayiq joyidan qo'zg'aldi va baravar eshayotgan

to'rtta eshkak yordami bilan «Piligrim»dan uzoqlashib ketdi.

— Dik, men senga ishonib ketyapman! — deb so'nggi marta qichqirdi kapitan Gul Dik Sendga.

— Xo'p bo'ladi, kapitan!

— Bir ko'zing — kemada, bir ko'zing — qayiqda bo'lsin. Buni esingdan chiqazmagin!

Engil qayiqcha kemadan ancha uzoqlashib ketdi. Kapitan Gul qayiqning burnida turar edi. U yana nimadir deb gapirdi, lekin endi ovozi eshitilmasdi. Kapitanning imo-ishorasidangina Dik Send uning hamon aytgan gaplarini takrorlayotganini tushundi.

Hamon bortdan nari ketmay turgan Dingo shu on birdan ingillay boshladi. Missis Ueldon irimchi xotin bo'lmasa ham kapalagi uchib ketdi.

— Jim bo'l, Dingo! — dedi u. — Uyat bo'ladi-ya! Ovg'a jo'nayotgan do'stlarni shunaqayam kuzatadimi? Qani, kuchukcha, qattiqroq bir vovilla-chi!

Dingo jim bo'ldi. U bortdan tushib missis Ueldonning oldiga keldi-da, uning qo'lini yalay boshladi.

— Dingo dumini likillatmayotir, — deb shivirladi Tom. — Yaxshi alomat emas bu!.. Yomon alomat!

Birdaniga Dingo, bukchayib olib, qattiq vovillay boshladi. Missis Ueldon qayrilib qaradi. Negoro o'z hujrasidan chiqqan ekan. Uni ham ov qiziqtirgan bo'lsa kerak.

Dingo kema oshpaziga tashlandi. It jahlidan titrar edi. Bu hodisaga sira tushunib bo'lmas edi.

Negoro palubada yotgan vimbovkani qo'liga olib, o'zini himoya qilishga tayyor turdi.

It uning bo'g'ziga tashlanmoqchi bo'lib turar edi.

— Dingo, qayt! — deb qichqirdi Dik Send.

O'smir o'zining kuzatish joyini bir on tashlab, kemanding ayvoniga chopdi. Missis Ueldon ham itni tinchitishga harakat qildi. Dingo noiloj bo'ysundi. Uzib-uzib ulib, sekin yurib Dikning oldiga keldi.

Negoro indamadi. Ammo afti oppoq oqarib ketgan edi. U qo'lidagi vimbovkani palubaga tashladida, kayutasiga kirib ketdi.

— Gerkules! Bu kishini kuzatib yurishni sizga topshiraman, — dedi Dik Send.

— Bosh ustiga, — deb soddagina javob qaytardi pahlavon, kattakon mushtlarini qisib.

Missis Ueldon bilan Dik Send g'izillab ketayotgan qayiqni yana kuzata boshladilar.

Endi qayiq bepoyon dengizda kichkina qora bir nuqtaday ko'rina boshladi.

S a k k i z i n c h i b o b

OLA KIT

Tajribakor kit ovchisi kapitan Gul qulay bir hodisa bo'lib, omadi yurishib ketishiga suyanib ish qilmas edi. Ola kit ovlash oson ish emas, har holda ehtiyot bo'lish zarar qilmaydi. Shuning uchun ham kapitan Gul hamma ehtiyot choralarini ko'rgan edi.

Dastlab u kit ovchilarning yaqinlashib kelayotganini sezmasligi uchun, rul boshqaruvchiga shamolga qarshi tomondan kitga yaqinlashishni buyurdi.

Kit qizil dog'lar orasida suzib yurar edi. Govik qayiqni ana o'sha qizil dog'larning chetidan olib o'tadigan bo'ldi. Shunday qilib, ovchilar, shamolga qarshi tomonga o'tib olishlari kerak edi.

Botsman tajribali eski dengizchi bo'lib, juda vazmin va bosiq bir odam edi. Kapitan Gul rulga uni qo'yar ekan, u ishonchli kishi, unga ishonsa bo'ladi, eng og'ir payt kelganda ham dovdirab qolmasdan, kerakli ishni tez va aniq qilib bajara oladi, deb o'yladi.

— Hushyor bo'l, Govik! — dedi kapitan Gul. — Kitga to'satdan hujum qilib ko'ramiz. Bilintirmasdan borib, garpun tashlab bo'ladigan yergacha yaqinlashaver.

— Xo'p bo'ladi, kapitan! — deb javob qaytardi botsman. Agar qizil dog' bo'ylab bora bersak, shamol doim biz tomonga uradi. — Juda soz! — dedi kapitan.

Keyin kapitan matroslarga qarab:

— Ovoz chiqazmasdan eshinglar, yigitlar! — deb qo'ydi.

Eshkaklar suvga asta-sekin botaverdi.

Botsman epchillik bilan bochqarib borayotgan qayiq qizil dog'larning chetiga yetib keldi. Qayiqning o'ng tomoni tiniq ko'lmak suv ichida turgan bo'lsa, qayiqning chap tomonidan qonga o'xshash qip-qizil suv oqar edi.

— Bir yoqda vino, bir yoqda suv, — dedi matroslardan bittasi.

— Ha, — dedi kapitan Gul, — ammo bu suv chanqoqni bosmaydi, vino esa — mast qilmaydi! Xo'sh, endi, yigitlar, jim bo'linglar! Eshkakka zo'r beringlar!

Qayiq xuddi moy ustidan sirg'anib ketayotganday, hech bir ovoz chiqarmasdan suzib ketdi. Kit joyidan qimirlamas va yaqinlashib kelayotgan qayiqni go'yo ko'rmas edi.

Qayiq borgan sari «Piligrim»dan uzoqlashar va har onda uning qorasi tobora kichraya borar edi.

Dengiz ustidagi narsalardan uzoqlasha borgan sari qayiq yoki kema hajmi tobora tez kichraya boradi. Go'yo durbinning teskari tomonidan qaragandagi singari bu hodisa juda g'alati ko'rinadi. Buning sababi shu bo'lsa kerakki, bepoyon dengiz ustida uzoqda qolib ketayotgan narsani boshqa biror narsaga taqqoslash uchun imkoniyat bo'lmaydi.

Bu safar ham xuddi shunday bo'ldi. «Piligrim» har qaragan sari kichraygandek tuyular va qayiqdagilarga bu kema haqiqatdagidan ancha nariroqda turganday ko'rinar edi.

Kapitan Gul va uning sheriklari kemadan ajrab, yarim soat yurganlaridan keyin qayiq kitni aylanib o'tdi. Endi kit shamol esadigan tomonda,

«Pilgrim» bilan qayiq o'rtasida qoldi. Ola kitga yaqinlashadigan payt keldi. Unga yaqinlashganda hech qanday ovoz chiqazmaslik shart edi. Kit ovchilari gohida kitning yonginasiga borib, garpunni juda yaqin yerdan tashlashga muyassar bo'ladilar.

— Sekinroq, yigitlar, — deb ohistagina buyurdi kapitan Gul eshkakchilarga.

— Kit biron narsani sezganga o'xshaydi, — dedi Govik. — Ilgarigidan ko'ra sekinroq nafas olayotir.

— Jim! Jim! — deb takrorladi kapitan Gul.

Besh minutdan keyin ovchilar kitdan atigi bir kabeltov masofada hozir bo'ldilar.

Botsman Govik tik turib, qayiqni kitning chap yoniga to'g'riladi, biroq uning xavfli dumidan nariroq bo'lishga harakat qilar edi.

Qayiq burnida turgan kapitan Gul, mahkamroq turish uchun oyoqlarini kerib, garpunni qo'liga oldi.

Bir uchi garpunning to'mtoq tomoniga mahkam bog'langan arqonning bir o'rami kapitan yonida edi. Kit dengiz tagiga cho'kib ketgan mahalda, bir-biriga tez-tez ulash uchun qolgan to'rt o'ram arqon ham tappa-taxt tayyor edi.

— Tayyor bo'li! — dedi shivirlab kapitan Gul.

— Xo'p! — deb javob berdi Govik, quyruq eshkagini qattiq ushlab.

— Yaqinlash!

Botsman itoat qildi va qayiq ola kitga yaqinlashdi. Atigi o'n futcha masofa qoldi, xolos.

Kit qimirlamas, uxlaganday ko'rinar edi. Uxlab yotgan kit ovchilar qo'liga tez tushadi. Goh vaqt uni bir urish bilan tamomlasa bo'ladi.

«Ajab! — deb o'yladi kapitan Gul. — Bu badbaxt uxlab yotgan bo'lsa... Yo'q, bunda boshqa bir gap borga o'xshaydi!»

Botsman Govik ham xuddi shunday fikrga keldi. Govik kitni boshqa tomondan ham ko'rmoqchi bo'lib bo'ynini rosa cho'zdi-yu, lekin ko'ra olmadi.

Ammo hozir o'ylab turadigan mahal emas, harakat qilish kerak edi.

Kapitan Gul garpunning o'rtasidan ushlab, yaxshiroq mo'ljalga olish uchun uni boshi ustida bir necha marta siltadida, birdan qomatini to'g'rilab, uni bor kuchi bilan ola kitga otdi.

— Orqaga, orqagal — deb hayqirdi u o'sha topdayoq.

Shu ondayoq matroslar eshkak eshishga turtundilar va yarador kit dumi bilan urmaslik uchun, qayiqni orqaga haydadilar.

Shu paytda botsman kitning jim yotish sirini bilib qoldi.

— Bu ona kit ekan, bolasi ham bor! — deb xitob qildi Govik.

— Shuning uchun ham u qimirlamay yotgan ekan!

Yarador jonivor tipirchilay boshladi. Endi dengizchilar uning bolasini ham ko'rdilar. Garpun tushgan paytda kit bolasini emizayotgan ekan.

Bolali kitni ovlash xatarli ish ekanini kapitan Gul yaxshi bilar edi, chunki bolali kit o'zini ham, bo'yi olti metr keladigan bolachasini ham joni boricha qattiq turib himoya qilishi turgan gap.

Biroq kapitan Gulning gumonsirashiga qaramasdan, ola kit boshda qayiqqa birdan hujum qilmadi, shu sababdan ham yovuz hayvondan qochib qutulish uchun arqonni qirqib tashlashga ham to'g'ri kelmadi.

Aksari bo'ladiganday, kit dastlab dengiz tagiga cho'kib ketdi, keyin qattiq bir irg'ib dengiz ustiga chiqdi-da, juda tezlik bilan suzib ketdi. Uning ketidan bolasi g'izillab qoldi.

Kapitan Gul bilan botsman Govik kit dengizga cho'kmasdan oldin uni yaqindan ko'rib chamaladilar. Bu ola kit juda kattakon bo'lib, uzunligi yigirma besh metrcha kelar edi. Uning sarg'imir jigar rang terisida qora jigar rang dog'lari ko'p edi.

Ishning boshi o'ng keldi, bunday g'animatni

qo'ldan boy berish alam qilardi. Shuning uchun kitning payiga tushdilar. Eshkaklari ko'tarilgan qayiq to'lqinlar orasidan o'qday uchib borardi. Yarador kit hadeb o'zini u yoq-bu yoqqa tashlayotganiga qaramasdan, Govik qayiqni uning ketidan haydadi.

Kapitan Gul kitdan ko'z uzmasdi:

— Hushyor bo'l, Govik! Ehtiyot bo'li! — derdi.

Ammo botsman busiz ham juda hushyor edi.

Qayiq kitdan sekinroq suzar edi. Shuning uchun arqon o'rami shunday tez aylanar ediki, kapitan Gul qayiq qirrasiga tegib ishqalanayotgan arqonning qizib yonib ketishidan xavotirda edi. Shuning uchun u arqon o'rami ustiga suv sepib qo'ydi.

Ola kit hamon boyagi tezlik bilan qochgani qochgan edi. Kapitan Gul ikkinchi o'ramni uladi, biroq u ham tezda sob bo'ldi. Besh minutdan keyin uchinchi o'ramni ulashga to'g'ri keldi, u ham tezda suvda g'oyib bo'ldi.

Ola kit suv ostiga kirib ketdi, lekin u boyagiday tezlik bilan oldinga siljiy berdi. Demak, garpun nozikroq yeriga tegib, uni qattiq yarador qilmapti. Suvga kirib ketgan arqonga qaraganda, kit dengiz ustiga chiqishi bir yoqda tursin, borgan sari chuqurroq tushib ketmoqda edi.

— La'nati kit! — deb xitob qildi kapitan Gul. — Bu qurg'ur besh o'ram arqonning hammasini tortib ketmoqchimi deyman!

— Bizni «Piligrim»dan uzoqqa sudrab ketganini ham aytmaysizmi hali, — deb qo'shimcha qildi botsman Govik.

— Har holda, kit nafas olish uchun suv betiga chiqadi-ku, — dedi kapitan Gul. — Kit baliq emas, odam singari u ham nafas olmasdan yashay olmaydi.

— Tezroq suzish uchun nafas olmay suzayotir, — dedi matroslardan biri.

Haqiqatan ham, arqon ilgarigiday tezlik bilan tortilmoqda edi. Uchinchi o'ramga to'rtinchisi ham ulandi.

Matroslar tutilgan kitdan o'zlariga tegishli daromadni miyalarida hisoblab ham qo'ygan edilar, endi hafsalalari pir bo'ldi.

— Voy la'nati-ey, — deb g'o'ldiradi kapitan Gul. — Bunaqasini umrimda sira ko'rgan emasman.

Nihoyat, beshinchi o'ram ham ishga solindi. Uning yarmi sob bo'lay degan paytda arqon biridaniga bo'shashib qoldi.

— Ural — deb xitob qildi kapitan Gul. — Arqon salqidimi, demak, kit charchagan bo'ladi!

Shu onda qayiq «Piligrim»dan besh mil narida edi.

Kapitan Gul nayza uchiga bayroq ilib ko'tarib, yaqinlashish uchun kemaga signal berdi.

Birpasdan keyin u «Piligrim»da yelkanlar ko'tarilganini ko'rdi: bu ishni Dik Send, Tom va uning sheriklari bilan birpasda yaxshilab bajardi.

Biroq shamolning tayini yo'q edi. Bir qattiq esardi-da, yana to'xtab qolardi. Bunday sharoitda «Piligrim»ning qayiqqa yetib olishi amrimahol edi.


Xuddi kapitan Gul aytganidek, nafas olish uchun ola kit dengiz ustiga chiqdi. Garpun uning biqiniga sanchilganicha turar edi. Yarador jonivor suv ustida bir necha minut qimirlamasdan yotib, o'zining hali suv ostidan chiqmagan bolasini kutdi.

Kapitan Gul qayiqni haydashga buyurdi, tezda ular yana kitga yaqin borib qoldilar.

Kapitanning buyrug'i bilan ikkita matros, eshkaklarini qo'yib, yarador kitni o'ldirish uchun qo'llariga nayza oldilar.

Govik shaylanib turdi. Juda xatarli payt edi, chunki kit tipirchilab qolsa bormi, qayiqni darrov chetroqqa olib ketish uchun tayyor turish kerak edi.

— Hozir bo'li! — deb hayqirdi kapitan Gul — Yaxshilab mo'ljallanglar, yigitlar, ko'zlab uringlar! Govik, tayyormisan?



— Men-ku, tayyorman-a, kapitan, — deb javob qaytardi botsman, — lekin men xavotirdaman — o'lguday chopgan la'nati kit hozir xuddi toshday qimirlamay yotipti-ya!

— Menga ham shubhali ko'rinyapti bu.

— Ehtiyot bo'lish kerak!

— Ha, lekin ovni tashlab ketarmidik! Qani, oldinga!

Kapitan Gul qizishib ketdi.

Qayiq boyagicha qimirlamasdan yotgan kitga yana yaqinlashdi. Uning bolasidan hali ham darak yo'q edi.

Kit birdaniga dumini o'ynatdi-da, suzib o'zini o'ttiz futcha oldinga tashladi.

— Nima balo, yana qochib ketmoqchimi? Uning ketidan to'xtovsiz quvib yuraverish kerakmi?

— Hozir bo'li! — deb hayqirdi kapitan Gul. — Kit hozir bor kuchini yig'ib bizga tashlanmoqchi bo'lib turibdi. Orqaga bur, Govik! Qayir!

Rostdan ham kit boshini qayiq tomonga burdi.



So'ngra dumini suvga qattiq shapillatib urdi-da, odamlarga tashlandi.

Botsman hujum tomonini to'g'ri mo'ljallab, qayiqni bir chetga oldi. Kit qayiq yonidan g'izillaganicha o'tib ketdi, lekin qayiqqa urilmadi. Kapitan Gul bilan ikki matros bundan foydalanib, kitga nayza otdilar.

Kit bir necha o'n fut narida yana to'xtadi, osmonga ikki marta qon aralash suv otib chiqardi-da, burilib qayiqqa yana hujumga otildi.

Bu qo'rqinchli hayvonni ko'rganda dovdirab qolmaslik uchun kishi juda dovyurak bo'lishi kerak edi. Ammo Govik qayiqni yana chetga olib chiqib, kitning zarbidan qutqazib qoldi.

Ola kit qayiq yonidan o'tib ketgan mahalda uni yana uch joyidan qattiq yarador qilishdi. Kit o'zining haybatli dumini qattiq siltagan edi, dengiz ustiga kuchli to'lqin yoyildi, qayiqning to'ntarilib ketishiga sal qoldi. To'lqin qayiqdan oshib o'tgan paytda qayiqning yarmigacha suv to'lib qoldi.

— Chelaklarni olinglar! Chelaklarni! — deb gichqirdi kapitan Gul.

Matroslar eshkaklarni qo'yib, shoshib-pishib qayiqdagi suvni to'kishga kirishdilar. Shu paytda kapitan Gul endi keraksiz bo'lib qolgan arqonni kesib tashladi, chunki jarohati og'rganidan jinni bo'layozgan maxluq qochish bir yoqda tursin, odamlardan qasos olmoqchi bo'lib qolgan edi.

Ola kit uchinchi marta qayiq tomon o'girildi. Biroq suv to'lib og'irlashib qolgan qayiq epcilligini yo'qotipti: u hozir orqaga ham qocholmas, hujumdan ham o'zini chetga ololmas edi.

Matroslar qancha harakat qilib eshsalar ham, endi kit dum qanotini bir necha bor siltash bilan qayiqqa darrov yetib olardi.

Hujumni to'xtatib turib, jon saqlash to'g'risida o'ylash kerak edi. Kapitan Gul buni juda yaxshi tushunar edi.

Kit uchinchi marta hujum qilganida, Govik qayiqni qattiq zarbadan qutqarolgan bo'lsa ham, lekin uning zarbidan butunlay qutulolmadi. Kitning sirt qanoti qayiqqa kelib tegdi. Bu zarbaning dastidan Govik yiqildi.

Xuddi o'sha zarba orqasida nayza urishlar ham bekor ketdi, mo'ljalga tegmadi.

— Govik! Govik! — deb hayqirdi kapitan Gul, yiqilishidan o'zini zo'rg'a tutib.

— Shu yerdaman, kapitan! — deb javob qaytaradi botsman, o'rnidan turar ekan, o'z joyiga kela turib.

Bu choq qayiq quyrug'idagi o'rtasidan sinib ketgan eshkakka ko'zi tushdi. U buni jimgina kapitan Gulga ko'rsatdi.

— Boshqasini oll

— Xo'p bo'ladi!

Shu paytda qayiqqa yaqin joydagi suv biqirlab qaynay boshladi. Dengizning ustiga qalqib, kit bolasi chiqdi.

Ola kit uni ko'rib qolib, otilib uning yoniga kela boshladi.

Shu paytdan boshlab kit har ikkovi uchun jang qilishi aniq edi. Kurash yana keskinlashadigan bo'ldi.

Kapitan Gul «Piligrim» tomoniga bir nazar tashladi, changak uchiga bog'langan bayroqni qattiq qimirlata boshladi.

Ammo Dik Send kapitanning birinchi ishorasini ko'rishi bilanoq qo'lidan kelganicha harakat qilgan edi.

«Piligrim»ning yelkanlari ko'tarilgan va shamol uni haydamoqda edi. Afsuski, kemaning tezroq yurishga iloji yo'q edi. Dik Send yana nima chora ko'rsin? Negrlar bilan yana bir qayiqqa o'tirib, kapitanga yordamga borsinmi? Biroq qayiq bilan ular oldiga yetib borish uchun kamida bir soat vaqt kerak bo'lardi. Buning ustiga, kemada biror voqea bo'lib qolmasin deb, kapitan o'zi ham Dikka kemani tashlab ketmaslikni buyurgan edi.

Har holda ehtiyot uchun deb, Dik kemaning quyruq tomonidagi qayiqni suvga tushirishga buyurdi. Kerak bo'lib qolsa kapitan va uning sheriklari foydalansinlar, deb qayiqni kemaga taqab olib kelmoqda edi.

Shu paytda kit o'z gavdasi bilan bolasini to'sib, yana shiddat bilan ovchilarga tashlandi.

— Hozir bo'l, Govik! — deb so'nggi marta hayqirdi kapitan Gul.

Ammo rul boshqaruvchining holi xarob edi, chunki dastak o'rnida foydalanish mumkin bo'lgan uzun quyruq eshkagi o'rniga, uning qo'lida oddiy kalta eshkak ishlar edi.

U qayiqni burmoqchi edi, lekin uddasidan chiqolmadi.

Matroslar o'zlarining halok bo'lishlariga ko'zlari yetib qoldi. Hammalari o'rinlaridan turib, hayqirib baqira boshladilar. Ehtimol, bu hayqiriqni «Piligrim»dagilar eshitgandir...

Kit dumi bilan qayiqni bir urgan edi, u koptok singari osmonga uchib ketdi. Uch bo'lakka bo'linib ketgan qayiq, kit dumi bilan urib hosil qilgan girdobga qulab tushdi.

Bechora matroslar yarador bo'lishlariga qaramasdan, suvga cho'kib ketmaslikka harakat qildilar. «Pilgrim»dagilarga, siniq qayiq parchasiga yopishib olmoqchi bo'lgan Govikka kapitan Gulning qanday yordam qilayotgani ko'rinib turar edi.

Ammo kit jon achchig'ida suvni dumi bilan chayqaltirgani chayqaltirgan edi.

Bir necha minut davomida suv to'liqini o'ynab turganidan hech narsani ko'rib bo'lmadi. Dik Send bilan negrlar o'zlarini qayiqqa urdilar, lekin ular halokat joyiga yetib kelganlarida unda bitta ham tirik odamni topolmadilar. Qon aralash qizil suv ustida qayiq parchalarigina suzib yurar edi¹.

T o ' q q i z i n c h i b o b

KAPITAN SEND

Bu og'ir falokatni ko'rgan «Pilgrim» yo'lovchilari juda qattiq qayg'urdilar. Kapitan Gul bilan besh matrosning halok bo'lishi ularni butunlay dovdiratib qo'ydi.

Shunday yomon falokat bo'layotganini ko'rib turib, halok bo'layotgan o'rtoqlarga hech qanday yordam berolmay tursalar-al.. Dik va uning hamrohlari yaradorlarni suvdan tortib chiqarib olishga ham ulgurolmay qoldilar.

«Pilgrim» halokat joyiga yetib kelganida kapitan Gul bilan besh matrosni qutqazib olish uchun imkoniyat qolmagan edi.

¹ Jyul Vern tasvirlagan kit ovlash usuli hozir eskirib qolgan. Hozirgi zamonda kitni maxsus kemalar boshchiligida ovlanadi. Bu kemani suzuvchi zavod deyilsa ham bo'ladi. Unda kitni birato'la ishlab, mahsuloti olinadi. Bu kema komandasida bir necha yuz kishi ishlaydi. Kit ovlaydigan kemani bir necha kichik kemachalar kuzatib boradi. Ularning har birida garpun otuvchi zambarak bo'ladi. (Tarj.)

Missis Ueldon, Dik, Benedikt tog'a va besh negr boshlarini egib, ko'z yoshlarini duv oqizib, bo'm-bo'sh dengizga tikilib qarab turar edilar.

Cheksiz, ulkan Tinch okeanning qoq o'rta bir joyida qolgan, quruq yerdan minglarcha mil narida turgan, kapitan hamda matroslaridan ajralgan bu kema endi dengiz oqimi bilan shamol uchun kichkina bir o'yinchoq bo'lib qolgandi.

Qayoqdan ham bu la'nati shum ola kit «Pilgrim» kemasiga uchrab qoldi? Doim ehtiyotkor va tadbirli bo'lgan kapitan Gulni bu ov balosiga qaysi bir shum xayol yo'lladi ekan?

Kit ovida qayiqdagi hamma odamlarning halok bo'lib ketish hodisasi tarixda barmoq bilan sanarli darajada kam uchraydi.

Har holda, kapitan Gul bilan uning sheriklarining halok bo'lishi dahshatli bir falokat edi! «Pilgrim» komandasidan birontasi ham tirik qolmadi. Yo'g'-e, bittasi qolibdi. Bu ham bo'lsa Dik Send... Biroq Dik o'n besh yoshli bir o'smir edi, uni hali bola desa bo'lardi. Ana shu bola ham kapitan, ham botsman, ham boshqa matrosning o'rnini bosishi lozim edi!..

Kemada yana beshta sof ko'ngil azamat negrlar bo'lsa ham, lekin ular dengizchilik hunaridan butunlay bexabar edilar.

Dik Send anchagina xayol surib palubada turib qoldi. U qo'llarini chalishtirib, o'z otasiday yaxshi ko'rgan kapitan Gulni yutib yuborgan suvga qarab turar edi.

So'ngra u ufqqa nazar tashladi. U biron yordam olish yoki hech bo'lmasa, missis Ueldonni joylashtirish umidida, bironta kema ko'rinmasmikin, deb qarar edi.

U «Pilgrim»ni tashlab ketmoqchi emas edi. Aslo! Avvalo, u kemani yaqin yerdagi birorta portga olib borish chorasini ko'radi. Boshqa kemaga o'tirishsa, missis Ueldon bilan uning bolasi be-xavotir bo'lishar, shunda bu ikki kishining hayoti uchun Dik tashvish tortmasdi.

Okean bo'm-bo'sh edi. Ola kit ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin, «Piligrim» atrofida suv bilan havodan bo'lak hech narsa qolmagan edi.

«Piligrim»ning savdo kemalari yuradigan odatdagi yo'ldan uzoqda ekanligini va kit ovlovchi kemalar hammasi yilning bu faslida uzoq janubiy dengizlarda ovchilik bilan band ekanligini Dik Send juda yaxshi bilar. Xavf-xatarning kuchliligidan ko'z yummaslik, o'zini aldamaslik kerak edi.

«Nima qilish kerak?» — deb o'yladi u.

Shu mahal kema oshpazi palubaga chiqdi.

Negoro bu falokatli ovning borishini juda diqqat qilib kuzatgan edi, lekin og'iz ochib hech bir gapirmas va hech qanday harakat qilmas edi. Bu dahshatli baxtsizlik unga qanday ta'sir qilganini hech kim aytib berolmas edi.

Hozir u kemandi quyruq'iga, Dik Send turgan joyga sekin yurib bordi-da, o'smirdan uch qadam berida to'xtadi.

— Men bilan gaplashmoqchimisiz? — deb so'radi Dik Send.

— Yo'q, — deb sovuqqina javob qaytardi oshpaz. — Men kapitan Gul bilan yoki hech bo'lmasa botsman Govik bilan gaplashmoqchi edim.

— Ularning halok bo'lganini bilasiz-ku, axir! — deb xitob qildi Dik.

— Endi kemaga kim kapitan bo'ladi? — deb hayosizlarcha so'radi Negoro.

— Men, — dedi yosh matros dadillik bilan.

— Siz-a?! — deb yelkasini qisdi Negoro. — O'n besh yoshli kapitan?!

— Ha, o'n besh yoshli kapitan! — deb javob qaytardi Dik va oshpaz tomonga bir qadam tashladi.

Oshpaz orqasiga tislandi.

— «Piligrim»ning kapitani bor, — dedi missis Ueldon. — Bu Dik Send bo'ladi! Yangi kapitan har kimni o'z joyiga qo'ya oladi. Buni har kim bilib qo'yishi kerak.

Negoro ta'zim qildi va zaharxanda aralash bir

nima deb ming'illadi-da, kambuziga qarab jo'nadi. Uning nimalar deganini hech kim tushunolmadi.

Ana shunda Dik ma'lum bir qarorga keldi!

O'sha mahalda shamol ham kuchaya boshlagan va kema «kit sho'rva»sining qizil dog'li joylaridan o'tib ketgan edi.

Dik Send avvalo yelkanlarga bir qaradi-da, keyin palubaga ko'z tashladi. Bu o'smir zimmasiga olgan vazifasi qanchalik og'ir va mas'uliyatli bo'lishiga qaramasdan, undan bo'yin tovlashga o'zini haqli emas deb bilar edi. Hamma yo'ldoshlari endi unga tikilib, undan umidvor edilar. U ham ularning ko'z qarashlaridan ishonchli odamlar ekanligini fahmlab, soddagina qilib, menga ham ishonaversalaring bo'ladi, deb qo'ydi.

Har holda Dik o'z kuchiga ortiqcha baho bermas edi. U Tom va uning sheriklari yordami bilan, zarur bo'lishiga qarab, yelkanlarni tushirishko'tarishga qodir edi. Ammo u kemandi turgan joyini aniqlamoq uchun bilimi kamroq ekanini tushunar edi.

Yana to'rt-besh yil o'tsa, Dik Send qiyin bo'lsa ham, lekin qiziqarli dengizchilik hunarini astoydil egallab olgan bo'lardi. U kapitan Gul har kuni ishlatadigan, kemandi okeanda turgan kengligini aniqlab beradigan sekstant nomli asbobni ishlatishni ham o'rgangan bo'lar edi. Grinovich meridianining vaqtini ko'rsatuvchi xronometr degan asbob kapitan Gulga uzunlik nuqtasini ko'rsatib berar edi. Quyosh uning yaxshi maslahatchisi edi. Oy bilan yulduzlar unga: «Kemangiz falon joyda turibdi!» deb aytib berar edilar. Eng aniq va sira xato qilmaydigan soat bo'lgan osmon bilan undagi soat millari bo'lmish yulduzlar, uning har kuni qancha yo'l yurganini aytib berar edi. Astronomiya kuza-tishlari kapitan Gulga «Piligrim»ning turgan joyini bir milgacha aniqlik bilan aytib berar va, demak, qay tomonga yurish kerakligini ham ko'rsatar edi.

Dik Send esa kompas va lag yordami bilan ke-

maning turgan joyini faqat taxminangina aniqlay olar edi.

Ammo Dik bundan cho'chimasdi.

Bu dovyurak bolaning ko'nglida nimalar bo'layotganini missis Ueldon fahmladi.

— Barakalla, Dik! — dedi jiddiy ovoz bilan u. — Kapitan Gul halok bo'ldi. Matroslar ham u bilan birga halok bo'lishdi. Kemaning hayot-mamoti sening qo'lingda. Men, Dik, sen kemani ham, ham-mamizni ham qutqazasan, deb ishonaman!

— Shundoq, missis Ueldon, — deb javob qaytardi Dik, — qo'limdan kelganicha harakat qilaman...

— Tom bilan uning sheriklari yaxshi odamlar. Sen ularga bemaol ishonaversang bo'ladi.

— Bilaman. Men ularni dengiz ishlariga o'rgataman-da, keyin hammamiz birga kemani idora qilamiz. Havo yaxshi bo'lib turganda bu qiyin ish emas. Basharti, havo aynib qolsa... nima qipti, hech gap emas, missis Ueldon, yomon havoda ham ishning uddasidan chiqamiz, sizni ham, kichkina Jekni ham, boshqalarni ham qutqazamiz! Buni qilish qo'limdan keladi!

— Bilasanmi, hozir «Pilgrim» qayerda turibdi ekan? — deb so'radi missis Ueldon.

— Ha, buni bilish qiyin emas, — dedi Dik. — Xaritaga qaralsa, bas, kapitan Gul kecha qayerdaligimizni xaritaga belgilab qo'ygan edi.

— Kemani qay tomonga olib borish kerakligini ham bilasanmi?

— Bilarman, deb o'ylayman. Men avvalo Amerika sohilidagi o'zimiz to'xtaydigan joyni mo'ljallayman, keyin kemani shunga qarab haydayman.

— Sen, Dik, bu falokat boshda mo'ljallangan yo'limizni o'zgartirishini va albatta o'zgartirishi kerakligini bilasanmi? Endi «Pilgrim»ning Valparaisoga borishining hojati bo'lmasa kerak. Bizning eng zarur orzumiz shuki, sen kemani Amerikaning eng yaqin portiga olib borishing kerak!

— Xo'p bo'ladi, missis Ueldon, — deb javob qaytardi Dik. — Xotirjam bo'ling. Amerika qit'asi janub tomonga qarab shunchalik uzoqqa cho'ziladi-ki, biz albatta unga duch kelamiz.

— Amerika qit'asi qaysi tomonda? — deb so'radi missis Ueldon.

— Hov ana... u yoqda! — Dik sharq tomonni ko'rsatdi.

— Gap bunday, Dik, kema Valparaisoga boradimi yoki Amerikaning boshqa biror portiga boradimi — men uchun baribir. Bizning birdan-bir maqsadimiz quruqlikka yetib olishdir!

— Yetib olamiz ham, missis Ueldon! — deb dadil javob berdi Dik. — Men sizni xavf-xatarsiz yerga olib borib qo'yishga va'da beraman. Quruqlikka yaqinlashganimizda o'z portlari orasida suzayotgan biror kemaga uchrab qolishimiz ham ehtimoldir. Ana ko'ring, missis Ueldon, shimoli-g'arbiy shamol esayotipti. Agar shamol shunday esib tursa, hash-pash deguncha quruqlikka yetib olamiz. Hamma yelkanlarni ko'tarib, o'qday uchamiz!

Yosh matros o'z kemasini juda yaxshi bilgan va uni har qanday sharoitda ham o'zi istagancha yur-giza oladigan juda tajribakor dengizchiday gapirar edi.

Dik yelkanlarni ko'tarib, shturval oldiga kelganda missis Ueldon dastavval «Pilgrim»ning turgan joyini aniqlash zarurligini uning esiga soldi.

Haqiqatan ham, dastlabki vazifa ana shu edi. Dik kapitan Gulning kayutasiga qarab ketdi va unga kemaning kecha turgan joyi belgilab qo'yilgan xaritani ko'rdi. Endi u missis Ueldonning oldiga kelib, «Pilgrim» 43°35' janubiy kenglikda va 144°13' g'arbiy uzunlikda turgan ekan, deb xabar berdi. Shundan beri o'tgan bir kun ichida kema joyidan hech qo'zg'almagan desa bo'lardi.

Missis Ueldon engashib xaritani ko'ra boshladi. U quruq yerni ko'rsatuvchi jigar rang dog'larga juda ko'p tikildi. Bu dog'lar Tinch okeanni Atlantika

okeanidan ajratib turuvchi kattakon Janubiy Amerika qit'asi edi. Janubiy Amerika qit'asi bilan birga bepoyon okeanni ham sig'dirgan xaritaga qaraganda quruq yer juda yaqin ko'rinar va unga yetib olish juda osonday edi. Xaritaning masshtabiga odatlanmagan har bir kimsaga doim ana shunday bo'lib ko'rinadi.

Qog'ozdagi yerni ko'rgan missis Ueldon, yer rostdan ham shunday yaqin bo'lsa kerak, deb o'ylardi.

Holbuki, agar «Piligrim» to'g'ri masshtabi bilan o'sha xaritaga tushirilgan bo'lganida edi, u mikroskop bilan ko'rinadigan eng kichkina infuzoriyadan ham kichikroq bo'lar edi. Ana shunda bu matematik nuqta bepoyon keng okeanda ko'zdan yo'qolgan «Piligrim» singari, o'sha qog'ozda ko'zga ham ko'rinmasdan yo'qolib ketgan bo'lar edi.

Dik esa missis Ueldondan ko'ra boshqacha fikrda edi. U yerning kema turgan joydan necha yuz millab uzoqda eknaligini bilardi. Ammo, shunga qaramasdan, uning shashti sira bo'shashmadi. Odamlarni qutqazib qolish mas'uliyati Dikni ulg'aygan kishi qilib qo'ygan edi.

Harakat qiladigan payt keldi. Shimoli-g'arbdan esgan shamol soat sayin kuchayar va bundan foydalanish kerak edi. Juda balandlikdan uchayotgan parsimon oq bulutlar shamolning tez orada to'xtamasligini bildirar edi.

Dik Send Tom bilan uning sheriklarini o'z oldiga chaqirdi.

— Do'stlar, — deb so'z boshladi u, — «Piligrim»da sizdan bo'lak matroslar yo'q. Siz yordam bermasangiz, bir o'zim hech nima qilolmayman. Albatta, sizlar dengizchi emassizlar, ammo qo'llaringiz kuchli. Siz kuchingizni ayamasangiz, «Piligrim»ni bemalol idora qila olamiz. Hammamizning jon qutqazishimiz ana shunga bog'liq.

— Kapitan Dik, — deb javob qaytardi Tom, — biz hammamiz ham, o'zim ham jon deb sizning matroslaringiz bo'lamiz. Jon deb sizga yordamlashamiz. Besh kishining qo'lidan nimaiki ish kelsa, sizning rahbarligingiz ostida ishlay beramiz!

— Yashang, Tom ota! — deb xitob qildi missis Ueldon.

— Biroq juda ehtiyot bo'lishimiz kerak, — dedi Dik Send. — Men tavakkaliga ish qilmayman, yelkanlarning ham hammasini ko'tarmayman. Bir oz kechiksak kechikarmizki, lekin bexavotir bo'lamiz. Sharoit shuni talab qilayotir. Hozir men har biringizga o'z vazifangizni tushuntirib va ko'rsatib beraman. Mening o'zim kuchim boricha shturval oldida turaman. Goho bir-ikki soat uxlab olaman. Men ozgina bo'lsa ham uxlagan vaqtimda bittalaring mening o'rnimda turishlaring lozim. Bunga sizni o'rgatsam deyman, Tom, nima deysiz? Kemani kompasga qarab boshqarib borish unchalik qiyin ish emas. Agar xohishingiz bo'lsa, kemani kerakli tomonga haydashni tez o'rganib olasiz.

— Men bu ishga tayyorman, kapitan Dik, — deb javob qaytardi kekso negr.

— Juda soz, — dedi Dik. — Bugun kechgacha men bilan shturval yonida turasiz, ana shunda basharti men charchab qolsam, men bir oz dam olguncha kemani boshqarishga bugunoq kirishasiz.

— Men-chi? — deb so'radi kichkina Jek. — Men Dikka hech qanaqa yordam bera olmaymanmi?

— Albatta yordam bera olasan, o'g'ilcham! — deb javob berdi missis Ueldon, o'g'lini bag'riga bosib. — Seni ham kemani boshqarishga o'rgatishadi. Ishonamanki, sen rul oldida turganingda, shamol ham o'ngdan esadi.

— Xo'p, oyijon, xo'p! — deb xitob qildi bola chapak chalib. — Men bu ishni qoyil qilaman!

— Shundoq. Qari dengizchilar: yosh dengizchi kemandi ishini o'ngidan keltiradi, shamol o'ngdan esadi, deyishadi, — dedi Dik jilmayib.

Keyin Tomga va boshqa negrlarga qarab, qo'shimcha qildi:

— Qani, endi ishni boshlaymiz, do'stlar! Hozir grotni ko'tarish kerak. Nima qilishni o'zim aytib turaman. Aytganlarimni esa aniq qilib bajarishlaring kerak.

— Buyuravering, kapitan Send, — dedi Tom, — biz tayyormiz!

O' n i n c h i b o b

KEYINGI TO'RT KUN

Shunday qilib, Dik Send «Pilgrim» kemasining kapitani bo'lib qoldi. U vaqtni o'tkazmasdan, yelkanlarni ko'tarishga qaror berdi.

Yo'lovchilarda, Valparaisoga yoki Janubiy Amerika qit'asining boshqa biror portiga tezroq yetib olish kerak, degan birgina maqsad bor edi. Dik Send «Pilgrim»ning qay tomonga yurishini hamda uning yurish tezligini kuzatib bormoqchi edi. Shu bilan birga u kemaning o'rtacha tezligini hisoblab, yurilgan yo'lni har kuni xaritada belgilab qo'yimoqchi edi. Buning uchun kompas bilan lag bo'lsa kifoya edi.

Xuddi shunaqangi asbob kemada bor edi. Bu asbobning strelkasi kemaning ma'lum bir vaqt ichida qanday tezlik bilan yurayotganini ko'rsatardi. Lag esa kemada katta foyda keltiradi, shu bilan birga, bu asbob juda oddiy bo'lgani sababdan uni ishlatishga «Pilgrim»dagi tajribasiz yangi matroslarni o'rgatish ham qiyin bo'lmaydi.

Ammo xato qilib qo'yishga olib boradigan yagona manba bor edi, u ham bo'lsa, okean oqimi edi.

Kompas bilan lag oqim kuchini hisobga olmaydi. Kemaning ochiq dengizda qayerda turganligini faqat astronomik kuzatish yo'li bilan aniq bilish mumkin. Afsuski, yosh kapitan as-

tronomiya usuli bilan kuzatib, joyni aniqlash yo'lini hali bilmas edi.

Boshda Dik Send «Pilgrim»ni Yangi Zelandiya sohillariga qaytarish fikri tug'ildi. Bu yo'l yaqinroq edi ham. Agar doim teskaridan esib turgan shamol o'zgarib, orqadan esib qolmaganda edi, ehtimol, yosh kapitan xuddi shunday qilgan bo'lar edi. Shu sababdan Amerika tomonga yo'l olish ma'qulroq bo'ldi.

Endi shamol o'z yo'nalishini deyarli 180° o'zgartirib yubordi, ya'ni shimoli-g'arb tomonidan esdi hamda borgan sari kuchayganday edi. O'ng'ay shamoldan foydalanib mumkin qadar ko'proq yo'l yurib qolish kerak edi.

Dik Send kemani eng katta tezlik — bakshtagga qo'yimoqchi bo'ldi.

Shxuna-briglardagi fok-machtada to'rtta to'g'ri yelkan bo'ladi: machtaning eng pastida, fok-machtaning stenga qismida — marsel, bramstengada, — bramsel va bom-bram-stengada — bom-bramsel yelkanlari.

Grot-machtada yelkanlar kamroq bo'ladi: machtaning pastki bo'g'inidagi og'ma grot, uning ustida esa — topsel yelkanlari.

Bu ikki machta orasida shtangalarda (bu shtangalar grot machtani mahkamroq ushlash uchun old tomondan tirab qo'yiladi) ham uchta og'ma staksel yelkanlarni ko'tarsa bo'ladi.

Nihoyat, bushpritda — kema burnidagi qiyshiq machtada ham uchta kliver: tashqi, ichki va bomkliver yelkanlari ko'tariladi.

Kliver, staksel, og'ma grot va topsel yelkanlarini reya ustiga chiqmay, palubaning o'zida turib ham osongina ochish yoki yig'ib olish mumkin. Biroq fok-machtadagi yelkanlarni ochish uchun ancha tajribali bo'lish kerak. Bu machtadagi yelkanlar bilan ish ko'rish uchun vantlardan ko'tarilib stenga, bram-stenga yoki bom-bram-stenga ustiga chiqish kerak bo'ladi. Machtaga faqat yelkanlarni

ochish uchungina chiqilmaydi, yelkanlarning shamol kelib uriladigan qismini bir oz toraytirish zarur bo'lganda ham chiqiladi, bu operatsiyani dengizchilar — «rifga olish» deb ataydilar. Shuning uchun matroslar, yuqoridagi to'sinlarga bog'langan arqon narvonlardan o'rmalab yuqoriga chiqqa boshlashlari va bir qo'l bilan arqonni ushlab turib, ikkinchi qo'l bilan ish qila olishlari lozim. Ayniqsa, o'rganmagan kishilar uchun bu juda xavfli ish, chunki matros yuqoriroqqa chiqqan sari to'liqda chayqalib turgan kemanding tebranishi ko'proq seziladi, bundan tashqari, yelkanga kelib birdan urilgan shamol matrosni dengizga uloqtirib tashlashi mumkin.

Xayriyatki, shamol qattiq bo'lmay, dengizdagi to'liq uncha ham kuchli emas edi.

Dik Send kapitan Gulning ishorasiga muvofiq, «Piligrim»ni falokat joyiga haydayotganidagi og'ma grot, kliver, fok va marsel yelkanlari ko'tarilgan edi. Endi kema tezligini bakshtagga yetkazish uchun bramsel, bom-bramsel, topsel va staksel yelkanlari ko'tarilsa kifoya edi.

— Do'stlar, — dedi yosh kapitan yordamchilariga, — mening buyruqlarimni aniq bajarsangizlar, ishimiz yurishib ketadi.

Dik Send shturval yoniga kelib, buyruq bera boshladi:

— Tom, arqonlarni bo'shating!

— Yechib tashlaymi? — deb so'radi Tom, qo'lga arqon ushlaganicha nima qilishini bilmasdan.

— Yo'q! Bir oz bo'shatsangiz bas!

— Ha, tushundim!

— Endi siz, Bat... siz ham xuddi shunday qiling! Ana shunday, ha, yaxshi! Endi torting! Torting deyapman sizga, Bat!

— Mana shundaymi?

— Ha, ha! Juda soz! Gerkules, navbat sizga! Qani, bir zo'r bering-chi, bu yerda kuch kerak!

Ammo Gerkulesga «zo'r bering!» deyish ehtiyotsizlik edi: pahlavonimiz arqonni zabt bilan bir tortgan edi, arqon uzilib ketishiga sal qoldi.

— Bunchalik qattiq tortmang-da, — deb qichqirdi Dik Send jilmayib. — Bunday qilsangiz machtani tagi bilan sug'urib olasiz-ku.

— Men salgina tortuvdim-ku, — deb o'zini oqladi Gerkules.

— «Salginasi shu bo'lsa...» Bo'lmasa shunday qiling, Gerkules, siz arqonni tortmangu, faqat tortganday bo'ling. Shunda tuzuk bo'ladi. Diqqat, do'stlar! Yana bo'shatinglar arqonni... Salgina!.. Bo'ldi... Endi bog'langlar! Balli! Soz bo'ldi!

Kemadagi hamma yelkanlar shamolga qarab asta burildi. Shundan keyin yelkanlarga shamol kelib urildi, kema oldinga jilib ketdi. So'ngra Dik kliver shkotini bo'shatishni buyurdi.

— Juda bopladilaring, do'stlarim! — deb maqtab qo'ydi matroslarni Dik Send. — Endi grot-machtaga o'tamiz. Lekin, Gerkules, hazir bo'ling, hech narsani uzmang.

— Xo'p bo'ladi, — deb qisqa javob bera qoldi pahlavon.

Bu ishni matroslar osonroq bajardilar. Og'ma grot shamolga bopta qilib qo'yildi. Unga ham darrov shamol ura boshladi, shundan keyin kemanding tezligi yana ancha ortdi.

Keyin og'ma grotning tepasidagi topselni ko'tarishdi. Bu yelkan tayyor ochiq edi, shuning uchun arqonni bo'shatib, uni qaytadan bog'lash bilan ish tugadi. Ammo Gerkules bilan uning do'sti Akteon va ularga yordamlashaman deb shkotga yopishgan kichkina Jek shunday zo'r berib yuborishdiki, arqon uzilib ketib, uchalasi ham dumalab tushdi. Xayriyatki, hech kim zararlanmadi. Bolasi tushmagurning sevinchi ichiga sig'mas edi.

— Zarari yo'q, zarari yo'q! — deb qichqirdi yosh kapitan. — Arqonni ulanglar-da yana tortinglar, lekin unaqa qattiq tortmanglar!

Nihoyat, yelkanlar joy-joyiga o'rnatildi. Dik Sendga shturval yonidan ketish uchun hojat ham bo'lmadi. «Piligrim» sharq tomonga qarab bormoqda edi. Endi kemaning to'g'ri yo'ldan chetga chiqmasligini kuzatib borishgina qolgandi, xolos. Buni qilish oson edi, chunki shamol mo'tadil bo'lib, kema «tentiramas» edi.

— Juda soz, og'aynilar. Tezda sizlar tajribali matros bo'lasizlar, — dedi Dik Send.

— Kuchimiz boricha harakat qilamiz, kapitan Send, — deb javob qaytardi hamma uchun kekxa Tom.

Missis Ueldon ham o'z navbatida g'ayratli matroslarni maqtab qo'ydi. Kichkina Jekni ham maqtashdi, chunki u ham qo'lidan kelgancha yordamlashdi.

— Menimcha, arqonni sen uzding shekilli-da, Jek, — dedi kulib Gerkules. — Sen juda ham kuchli ekxan-sa-ku! Sen bo'lmaganingda biz nima qilardik-a!

Bola xursand bo'lganidan loladay qizarib ketib, do'stining qo'lini mahkam qisib qo'ydi.

Ammo «Piligrim»da hali ko'tarilmagan yelkanlar ham bor edi; bular bramsel, bom-bramsel va staksel yelkanlari edi. Holbuki ular ham ko'tarilganda, «Piligrim» yana ham tez yurib ketgan bo'lar edi.

Dik Send bu yelkanlarni ham ko'tarishga qaror berdi.

Staksellarni ko'p ham qiynalmasdan palubaning o'zidan ko'tarish mumkin bo'lgan bo'lsa ham, lekin oldingi machta-dagi to'g'ri yelkanlarni ko'tarish uchun yuqoridagi reyalarga chiqish zarur edi. Dik Send bu ishni o'zining tajribasiz matros-lariga topshirishni xavfliroq deb bilib, bunga o'zi kirishdi.

U shturvalni Tomga topshirdi va kemani qanday boshqarish kerakligini unga tushuntirdi. Keyin Gerkules, Bat, Akteon va Ostinlarni bom-bramsel bilan bramsel oldiga qo'yib, o'zi machta ustiga chiqib ketdi.

Chaqqon va abjir o'smir bram-reyaning pertlari-dan birpasda yuqoriga chiqib ketdi va bramsel yelkani bog'lab qo'yilgan arqon-shtoklarni yechib yubordi.

Shundan keyin u, bom-bram-reyga o'tib, undagi yelkanni ham ochib yubordi. Bu ishlarni bitirgandan so'ng Dik Send shtirbortdagi fordu-nlar-dan biridan sirg'anib to'ppa-to'g'ri palubaga tushdi.

Shunda uning ko'rsatmasi bilan yangi matros-lar yelkanlarni yoyib ochib yubordilar, arqon-lar-ni mahkam bog'lab qo'yidilar.

Keyin fok-machta bilan grot-machta o'rtasidagi staksellarni ko'tarishdi, shu bilan yelkanlarni ochish ishi tugadi.

Gerkules bundan so'ng arqonni bor kuchi bilan tortmadi va shuning uchun bu safar hech narsani uzib ham yubormadi.

«Piligrim»ning endi hamma yelkanlari ko'tarilgandi.

Dik yana qo'shimcha yelkanlar — misellarni ham qo'ymoqchi bo'lgan bo'lsa-da, lekin bunday sharoitda ularni qo'yish juda qiyin bo'lishi ustiga, dovul bo'lib qolgan taqdirda tezgina yig'ishtirib olish undan ham battar qiyin edi. Shuning uchun yosh kapitan o'sha ko'tarilgan yelkanlarga qanoat-lanib qo'ya qoldi.

Tomga shturval oldidan ketishga ruxsat berdi-da, Dik Send yana o'z joyini egalladi.

Shamol kuchaymoqda edi. «Piligrim» o'ng tomonga bir oz qiyshayib, dengiz ustidan ildam suzib borardi. Uning suvda bir tekis iz qoldirib ketishi kemaning suvda suzish xususiyati yaxshi ekanini bildirar edi.

— Mana endi biz to'g'ri yo'lga tushib oldik, missis Ueldon. Ishqilib, shamol orqadan esib tursa bas! — dedi Dik Send.

Missis Ueldon o'smirning qo'lini qisib qo'ydi. Keyingi damlarda kechirilgan zo'r tashvishdan

missis Ueldon birdan bo'shashib ketdi va kayutasi-ga kirib, o'zini karavotga tashladi.

Kemaning yangi komandasi palubada qoldi. Bu negr-matroslar kemaning burnida navbatchilik qildilar. Ular Dik Send buyurgan hamono har qanday ishni bajarishga doim tayyor holda turar edilar. Ammo shamolning kuchi va yo'nalishi o'zgar-mas ekan, matroslarga ham qiladigan ish yo'q edi.

Aytgandek, bizning Benedikt tog'amiz shu paytda nima qilayotgan ekan?

Benedikt tog'a juda band edi. U «Piligrim» kemasidan zo'rg'a topib olgan bir hasharotni lupa yordami bilan tekshirmoqda edi. Bu esa eng oddiy to'g'ri qanotli bir hasharot edi; uning boshi goh ko'rinar, goh oldin chiqib turgna ko'kragi ichiga kirib ketar edi; mo'ylovlari uzun va ko'p tarmoqli ekan, terisimon oldingi qanoti esa ustki qanotga aylanibdi. Bu hasharot nasldor amerika suvaragi edi.

Benedikt tog'a bu nodir jonivorni oshxonadan topib oldi. Negoro uni ezib tashlamoqchi bo'lib bir oyog'ini endi ko'targan paytida Benedikt tog'a uni ko'rib qolib, qahr-g'azab bilnan portugaliyalikka hamla qilib qoldi. Shuni ham aytib o'taylikki, Benedikt tog'aning do'qlari kema oshpaziga hech qanday ta'sir qilmadi.

Baxtsiz kapitan va uning sheriklari ola kit ovi-ga jo'nab ketganlaridan keyin nima voqealar bo'lganini Benedikt tog'a bilganmikan? Albatta, bilar edi, chunki u «Piligrim» pachaqlangan qayiq-ning siniqlari suvda suzib yurgan halokat joyiga yetib kelganida, palubada dengizga qarab turar edi. Demak, qayiqdagilarning halok bo'lganini ko'rib turgandi.

Benedikt bu falokat uchun qayg'urmadi, deb ham bo'lmaydi, chunki unda biz Benedikt tog'ani tosh ko'ngilli kishiga chiqarib qo'ygan bo'lamiz. Uning bechora ovchilarga achingani ham shak-shubhasizdir. U jiyani yomon ahvolga tushib qol-

gani uchun ham qayg'urdi. Benedikt tog'a hatto missis Ueldonning oldiga kelib, go'yo: «Asti qo'rq-mang! Yoningizda men borman-ku! Men borimda sizga hech narsa bo'lmaydi!» degandek qilib uning qo'llarini qisib qo'ydi.

Shundan keyin o'z hujrasiga qaytdi. Ehtimol, u bu qayg'uli voqeaning oqibati nima bo'larkin, deb yaxshilab o'ylab ko'rmoqchi va biror qat'iy harakat rejasini tuzmoqchi bo'lgandir.

Ammo hujrasiga qaytayotganida, haligi su-varakka duch kelib qolib, o'sha bilan ovora bo'lib qoldi. Olamda «Piligrim» degan kema borligini, unga kapitan Gul qo'mondonlik qilganini va u bechora kapitan o'zining hamma matroslari bilan halok bo'lganini Benedikt tog'a birpasda esidan chiqarib qo'ydi. Go'yo olamda sira ham topilmaydigan tillaqo'ng'iz uchrab qolganday, u bu jirkanch hasharotni o'rganishga vujudi bilan berilib ketdi.

Olti kishini nobud qilgan og'ir falokat yo'lovchilarga hali ham ta'sir qilib turganligiga qaramas-dan, kemada hayot o'z iziga tushdi.

Ana shu birinchi kuni Dik Send, har qanday kuiltimagan voqealarga tayyor holda turish uchun, kemani mukammal ravishda tartibga solaman, deb o'lib bo'ldi. Negr matroslar yosh kapitanning har bir ishorasiga bo'ysundilar. Kechga borib «Piligrim»ning hamma joyida namunali tartib o'rnatildi. Kelgusida ham ishlar yaxshi bo'ladi deb umid bog'lash mumkin edi.

Negoro endi o'n besh yoshli kapitanning obro'siga daxl qilmaydigan bo'ldi. U Dik Sendni hech so'zsiz o'zining boshlig'i deb tan oldi. Neg'oro ilgarigi singari ko'p vaqtni torgina kambuzda o'tkazar va palubaga kamdan-kam chiqar edi.

Dik Send, Negoro salgina bo'lsa ham intizomni buzsa, safarning oxirigacha uni qamoqda tutishga qat'iy qaror qilib qo'ydi. Gerkuls esa yosh kapitan-ning birinchi ishorasi bilanoq Negoroni yoqasidan g'ippa bo'g'ib, turmaga olib borib qamashga tayyor

turar edi. Pahlvon bu ishni hash-pash deguncha bajarib qo'ygan bo'ladi. Kampir Nan, yaxshi oshpaz bo'lganidan, Negoroning ishini bemalol qilaverardi.

Negoro o'zining juda ham topilmaydigan odam emasligini fahmlagan bo'lsa kerak, shu sababdan o'ziga shubha bilan qarayotganliklarini sezib ehtiyot bo'lib o'ziga gap tekkizmaslikka harakat etdi.

Shamol borgan sari kuchayar, lekin doim bir tomondan esar edi, shuning uchun kechga qadar ham yelkanlar almashtirilmadi. «Pilgrim»ning asbob-uskunalari hammasi yaxshi va mahkam bo'lganligi orqasida, shamol qattiqroq mahalda ham ko'p yelkan bilan suzaverar edi.

Kechasi bo'lishi bilan aksari kemalar odatda yelkanlarni bir oz kamaytiradilar. Ko'pincha eng yuqoridagi yelkanlar tushiriladi. Ana shunday qilinganda to'satdan turgan dovulni ham kema pisand qilmaydi. Ammo Dik Send bunday ehtiyot chorasini qilmadi, chunki havoning buzilishidan hech qanday darak yo'q edi. Shu bilan birga u, kema okeanning bo'm-bo'sh qismidan tezroq o'tib ketsin, deb, yurish tezligini kamaytirishni istamas edi. Bundan tashqari, yosh kapitan birinchi kechada o'zi navbatchilik qilib, hamma narsani o'zi kuzatib turmoqchi bo'lgan edi.

Yuqorida aytilganicha, «Pilgrim» yurgan yo'lni taxminiy o'lchash uchun Dik Send faqat kompas bilan lagdan foydalanishi mumkin edi.

Yosh kapitan har bir yarim soatda lagni dengizga tushirishni buyurdi va natijasini o'zi yozib bordi.

«Pilgrim»da ikkita kompas bor edi. Bittasi shturval yonida, rul boshqaruvchining ko'z oldida turar edi. Uning xaritachasi kechasi ham, kunduzi ham doim kemandi ketayotgan tomonini ko'rsatib turar edi. Qorong'i tushishi bilan uning ikki chekkasiga ikkita chiroq yoqib qo'yilardi. Ikkinchi kompas kapitan Gulning kayutasidagi devorga osib qo'yilgan edi. Kapitan hujradan chiqmasdanoq bu kompasga qarab, rul boshqaruvchi kemani to'g'ri

yo'ldan haydab ketayotiptimi, yoki tajribasizligi, yoxud yohtiyotsizligi orqasida kemani tentiratib boshqaryaptimi — shuni kuzatib turar edi.

Uzoq safarga chiqqanda hamma kemalarda ham odatda ikkita kompas, kam deganda ikkita xronometr bo'ladi. Bu asboblarning to'g'ri ishlayotganini tekshirish uchun vaqt-vaqti bilan ularning ishlashi bir-birinikiga solishtirib turiladi.

Dik Send matroslarga o'zi uchun juda ham kerakli bo'lgan bu kompaslarni ayniqsa ehtiyot qilishni tayinlab qo'ydi.

Ammo 12-fevraldan 13-fevralga o'tar kechasi Dik Send shturvalda navbatchilikda turgan mahalda kapitan kayutasidagi kompas bilan ko'ngilsiz bir hol yuz berdi. Kompas osib qo'yilgan mis ilgak sinib ketib, kompas tushib ketdi. Bu voqeani ular faqat ertasiga ertalab ko'rishdi.

Ilgak qanday qilib sinib ketdi ekan?

Bu falokatning qanday bo'lganini hech kim aytib berolmadi. «Ilgak zanglab qolgan ekan, kema chayqalgan mahalda sinib ketibdi-da», deb gumon qilishga to'g'ri keldi. Kechasi ancha kuchli to'lqin bo'lgan edi. Nima bo'lsa ham kompasning bittasi pachoq-pachoq bo'ldi va uni tuzatishning iloji ham yo'q edi.

Dik Send juda xafa bo'ldi. Endi u o'zining yagona kompasiga qarab ish ko'rishi kerak bo'lardi. Kompasning sinishiga hech kim aybdor emasdi, biroq buning oqibati juda yomon bo'lishi ehtimol edi.

Endi Dik Send qolgan kompasni ko'z qorachig'iday asrashga majbur edi.

Agar shu voqeani nazarga olmaganda, shu mahalgacha «Pilgrim»da hamma ishlar joyida edi.

Dik Send vaqtni shunday taqsimladiki, shturvalda u doim kechasi navbatchilik qiladigan bo'ldi. Kunduzi u, besh-olti soat uxlab olar, shu qisqa dam olish vaqtida kuch-quvvat to'plardi. U dam olgan vaqtda shturvalda Tom bilan uning o'g'li Bat turar

edilar. Dikning yaxshi rahbarligi natijasida ular kemani boshqarish ishini ancha-muncha tushunib olgandilar.

Dik xotirjam edi, shuning uchun ham missis Ueldon safarning yaxshi tugalishiga ko'zi yeta boshladi.

Missis Ueldon Dik bilan ko'p suhbat qilardi. Bu yigitcha dadil va aqli ayolning maslahatlarini juda yaxshi qadrlar edi. Dik har kuni «Pilgrim»ning o'tgan kunlar ichida qancha yo'l yurganini unga xaritadan ko'rsatib berar edi. Dik o'z hisoblarini kemanding yo'nalish tomoni bilan uning o'rtacha tezligiga asoslanib chiqarar edi.

— Mana ko'ring, missis Ueldon, — derdi u yosh ayolga, — agar shamol shunday o'ng kelib tursa, biz tezda Amerika qirg'og'iga yetib olamiz. Menimcha, biz chiqadigan qirg'oq Valparaisodan uzoqda bo'lmasa kerak deyman.

Missis Ueldon «Pilgrim»ning to'g'ri yo'ldan ketayotganiga hamda shimoli-g'arb tomondan esgan yo'lovchi shamol kemani maqsadiga olib bori-shiga aslo shubha qilmas edi. Ammo bu maqsadga yetish payti unga juda uzoqday ko'rindi. Kema quruqlikka chiqqaniga qadar hali yo'lda qanday xavf-xatarlar bo'lishi mumkin, havoda ham, dengizda ham ko'pgina xatarli o'zgarishlar bo'lishi turgan gap.

Shu yoshdagi boshqa bolalar singari beg'am bo'lgan Jek, kun bo'yi palubada o'ynar, u yoqdan-bu yoqqa chopar va Dingo bilan o'ynashar edi. U Dikning avvalgidan ko'ra kamroq e'tibor berib qolganini fahmladi, ammo missis Ueldon unga Dikni ishdan qo'ymaslikka o'rgatdi va gapga kiradigan bu bola «kapitan Send»ga ko'pam osilavermadi.

«Pilgrim» kemasida hayot ana shunday o'tar edi. Negrlar matroslik hunariga asta-sekin o'rgana boshladilar... Keksa Tom botsmanlik vazifasini bajardi. Yosh kapitan dam olgan vaqtlarda navbatchilikka Tom boshchilik qildi: Bat bilan Ostin ham u

bilan birga nasbatchilik qilardilar; Akteon bilan Gerkules Dik Send boshchiligida ikkinchi vaxtada ishlardilar. Shunday qilib, bittasi shturval oldida tursa, qolgan ikki kishi kema tumshug'ida navbatchilik qilardilar.

Kema okeanning bo'm-bo'sh qismida bo'lganidan boshqa kema bilan to'qnashishdan sira qo'rqmasa ham bo'lardi. Ammo Dik Send navbatchilardan juda hushyor bo'lishni talab qildi. Qorong'i tushish bilan u ishora chiroqlarini yoqishga buyurar edi; o'ng tomonga ko'k chiroq va chap tomonga qizil chiroq yoqtirar edi.

Dik Send kechani kechaga ulab shturval yonida vaqt o'tkazar edi. Ba'zan u juda qattiq holdan ketib qolar, lekin shunda ham shturvalni qo'ldan chiqarib yubormasdan mahkam ushlardi.

Bu qattiq charchaganlik natijasi bo'lib, lekin buni hech kimga bildirmas edi.

Shunday bo'lsa ham 13-fevraldan 14-fevralga o'tar kechasi Dik bir necha soat dam olishga majbur bo'ldi. Shturvalda navbatchi bo'lib kekxa Tom qoldi.

Osmonning hamma yog'ini qora bulut qopladi. Kecha shunaqangi qorong'i ediki, palubadan turib yuqoridagi yelkanlarni ko'rib bo'lmas edi. Gerkules bilan Akteon kemanding burun tomonida navbatchilik qilar edilar.

Kema quyrug'idagi kompas qo'yilgan shkafchada shturval g'ildiragining ma'dan qismlariga xira yorug' tushib turar edi. Ishora chirog'i juda balandga qo'yilganidan kemanding sahni qop qorong'i edi.

Kechasi soat uchlarda, uzoq navbatchilikda turganidan charchab qolgan Tom turgan joyida mudrab ketdi. U palubadan yugurib kelayotgan qandaydir soyani ko'rmay qoldi.

Bu Negro edi.

Kema oshpazi astagina pisib kompas yoniga keldi-da, o'zi bilan olib kelgan qandaydir og'ir bir narsani shkafchaning tagiga tiqib qo'ydi.

U shkafdagi chiroqning shu'lasini tushib turgan xaritachaga birpas qarab turdi-da, keyin yana ohistagina g'oyib bo'ldi.

Tom ham va boshqa navbatchi matroslar ham buni ko'rmay qoldilar.

Basharti, Dik Send ertalab Tom o'rniga kelganidan keyin Negoro tomonidan shkafcha tagiga qo'yilgan narsani ko'rib qolganida edi, darrov uni olib tashlagan bo'lardi, chunki Negoro kompas tagiga bir bo'lak temir qistirib qo'ygan edi. Bu temir kompasning strelkasini o'ziga tortar edi.

Magnit qutbini, ya'ni shimol tomonni ko'rsatish o'rniga strelka to'rt rumb miqdorida bir yoqqa surildi va endi shimoli-sharq tomonni ko'rsata boshladi.

Tom tezda ko'zini ochdi. U kompasga bir qarang edi, ko'rsa, «Piligrim» yo'lidan adashibdi. Boshqacha o'ylashning hojati ham yo'q edi.

Tom kemani to'ppa-to'g'ri sharq tomonga burib yuborish uchun shturval g'ildiragini aylantirdi. Endi kemandagi burni janubi-sharqqa burildi, chunki kompasning strelkasi surilgan edi, buni esa navbatchi haydovchi bilmagan edi.

Shunday qilib, «Piligrim» to'g'ri yo'ldan 45° chetga burildi va avvalgi tezligi bilan oldinga qarab yuraverdi.

O' n b i r i n c h i b o b

BO'RON

Keyingi hafta ichida, ya'ni 14-fevraldan 21-fevralgacha kemada biror muhim voqea yuz bermadi. Shimoli-sharqiy shamol kuchayaverdi. «Piligrim» o'rta hisob bilan har kuni bir yuz sakson mildan yo'l bosib, g'izillaganicha oldinga qarab bormoqda edi.

Dik Sendning fikricha, kema ikki yarim shar o'rtasiga qatnovchi yo'lovchi paroxodlar yuradigan joylarga yetib qolgan bo'lishi kerak edi.

Ana shunaqa paroxodlardan birini uchratsak, kerak, deb o'ylardi yigitcha. U shunday paroxod uchrab qolsa, kemadagi yo'lovchilarni yo o'sha paroxodga ko'chirishga qat'iy qaror berdi, yoki uning kapitanidan yordam so'rab, «Piligrim»ga bir necha matros, agar iloji bo'lsa, bitta ofitser ham olmoqchi edi. U hech tinmay uzoqqa tikilardi, ammo birorta ham kema ko'rinmaydi. Dengiz ilgarigiday bo'm-bo'sh edi.

Bu hol Dik Sendni hayron qoldirdi. Uch marta qutb sayohatiga qatnashgan bu yosh matros o'z mo'ljalida hozir «Piligrim» ketayotgan bu joylardan bir necha marta o'tgan bo'lishi kerak edi. O'sha vaqtlarda u Gorn burnidan Amerika qit'asining eng oxirgi nuqtasi bo'lgan ekvatorga yoki buning teskarisiga yurayotgan amerika yoki ingliz kemalarini doim uchratib turar edi.

Ammo Dik Send hozir «Piligrim» turgan joy u mo'ljallagan yerdan anchagina janubda ekanligini sira bilmasdi va gumonsirashga o'rin ham yo'q edi. Buning sababi ikkita edi.

Avvalo, dengiz oqimi sabab bo'ldi. Dik Send dengiz oqimining tezligini unchalik yaxshi bilmasdi. Holbuki, bu yerlarda dengiz oqimi juda kuchli bo'lib, kemani sezdirmasdan to'g'ri yo'lidan chetga chiqarib yuborar edi.

So'ngra, Negoroning jinoyatchi qo'li bilan buzilgan kompas yo'lni noto'g'ri ko'rsatar edi. Ehtiyot uchun saqlanadigan kompas sinib qolganidan Dik Send bu kompasni tekshirib ko'rolmas edi.

Shunday qilib, Dik Send kemani to'ppa-to'g'ri sharq tomonga olib ketyapman deb o'ylasa-da, ammo haqiqatda kema janubi-sharq tomonga qarab ketayotgan edi!

Kompas doim uning ko'z o'ngida turdi. Har yarim soatda lag asbobini dengizga tushirib turilardi. Yosh kapitan shu ikki asbob yordami bilan kemandagi yurgan yo'lini taxminan hisoblab chiqarolardilar hamda kemani to'g'ri yo'ldan olib borardi.

Biroq bunday juda ham taxminiy bo'lgan hisobga qanoatlansa bo'larmidi? Albatta, yo'q!

Dik Send boshiga og'ir ishlar tushishini ba'zan oldinoq sezuvchi missis Ueldonnini har qanday yo'llar bilan ovutishga harakat qildi.

— Bir hafta oldin yo bir hafta keyin, — deb takrorlardir u missis Ueldonga, — ishqilib, biz Amerika qirg'og'iga yetib olamiz. Qayerdan chiqishimizning unchalik ahamiyati yo'q... Eng muhimi shuki, biz albatta qirg'oqqa chiqib olamiz!

— Mening bunga hech qanday shubham yo'q, Dik!

— Albatta, missis Ueldon, agar kemada siz bo'lmay, men faqat matroslar uchungina javobgar bo'lganimda, har holda ish boshqacharoq bo'lardi, ammo...

— Ammo biz nima bo'lib kemaga tushmaganimizda va falokatga uchragan negrlar bo'lmaganida edi, sen chirog'im, Negero bilan yuzma-yuz yolg'iz o'zing qolgan bo'lar eding... Bilaman, sen unga ishonmaysan. U mahalda nima qilarding?

— Dastlab, — deb qat'iy javob berdi o'smir, — meni Negoroni o'zimga zarar yetkazolmaydigan qilib qo'yardim...

— Kemani bir o'zing eplay olarmiding?

— Ha, bir o'zim eplardim!

O'smirning qat'iy va dadil gaplaridan missis Ueldon xotirjam bo'ldi.

Shunday bo'lsa ham u o'zining kichkina o'g'liga ko'zi tushgan choqlarda, tashvishlanmasdan iloji yo'q edi. Mard sayohatchi ayol o'zining tashvishini hech kimga sezdirmaslikka urinar, ammo hech bir sababsiz nimadir ichini timdalar edi.

Yosh kapitan kema yurgizish qoidalarini unchalik yaxshi bilmasa-da, va astronomiya yo'li bilan hisoblay olmasa-da, ammo unda havoni bilishda dengizchilarga xos sezgirlik bor edi. Birinchidan, havo hamda dengizdagi o'zgarishlarga ikkinchidan, barometrdagi simobning pasayib ketishiga qarab, u kutilmagan har qanday falokatlarning oldini olishga harakat qilardi.

Ob-havoni juda yaxshi biluvchi kapitan Gul Dikka barometrdan foydalanish yo'lini o'rgatgan edi. Biz bu ajoyib asbobdan qanday foydalanish kerakligini qisqacha aytib o'tamiz¹.

«1. Uzoq vaqt havo yaxshi kelib barometr tez va to'xtovsiz tusha boshlasa, bu yomg'ir bo'lishining alomatidir. Ammo havo juda uzoq vaqtgacha yaxshi bo'lib tursa, barometr tushgandan keyin ikki-uch kun o'tgachgina havo o'zgarishi mumkin. Bunday hollarda barometr tusha boshlagan vaqtdan boshlab to havo ayniguncha qanchalik ko'p vaqt o'tgan bo'lsa, yomg'ir ham shunchalik uzoq yog'ib turadi.

2. Aksincha, agar yomg'ir yoqqan davrda barometr asta-sekin, lekin to'xtovsiz ko'tarilaversa, havo yaxshilanadi deb dadil aytish mumkin. Endi barometr ko'tarila boshlagan vaqtdan boshlab dastlabki oftobli kungacha vaqt qanchalik ko'proq o'tgan bo'lsa, yaxshi havo shunchalik uzoq vaqt davom etadi.

3. Ikki holda ham barometrning tushishi yoki ko'tarilishi bilanoq o'zgargan havo uzoqqa cho'zilmaydi.

4. Agar barometr ikki-uch va undan ko'proq kun davomida asta-sekin va to'xtovsiz ko'tarilaversa, hatto shu kunlarda tinimsiz yomg'ir quyib turgan bo'lsa ham, ob-havo yaxshi kelishini bildiradi². Agar barometr yomg'irli kunlarda ko'tarilaverib, havo yaxshi kelishi bilan yana pastga tusha boshlasa, yaxshi ob-havo uzoqqa cho'zilmaydi³.

5. Ko'klamda va kuzda barometrning birdaniga pasayib ketishi shamol bo'lishini bildiradi. Yozning juda issiq vaqtida barometrning birdaniga pasayib ketishi momaqaldiroq bo'lishini bildiradi. Qishda, ayniqsa, uzoq vaqt sovuq bo'lib turganidan keyin

¹ Yorepierrening «Rasmi lug'at»idan olindi (*Muallif izohi*).

² Aksincha, havo yaxshi mahalda barometr xuddi shunday to'xtovsiz pasayaversa, yomg'ir bo'lishini bildiradi.

³ Xuddi shuningdek, barometr havo pasayib, yomg'irli kunlar kelishi bilan yana ko'tarila boshlasa, yomon havo ko'pga cho'zilmasligini bildiradi.

barometrning birdaniga pasayib ketishi shamolning boshqa tomondan esishini, qor erishini va yomg'ir yog'ishini bildiradi. Aksincha, sovuq mahalda barometrning ko'tarilib ketishi qor yog'ishini bildiradi.

6. Basharti, barometr goh pasayib, goh ko'tarilib, tez-tez tebranib tursa, uzoq vaqt yomg'ir yoki havo uzoq vaqt yaxshi bo'lib turar, deb o'ylash xato bo'ladi. Barometrning to'xtovsiz va asta-sekin ko'tarilishi yoki pasayishigina havo uzoq vaqtgacha bir xilda turishini ko'rsatadi.

7. Kuzning oxirida uzoq davom qilgan shamolli va yomg'irli havodan keyin barometr ko'tarila boshlasa Shimoldan shamol kelishini hamda sovuq boshlanishini bildiradi».

Dik Send barometrning hamma xususiyatlarini yaxshi bilib olgan edi. Har bir dengizchi uchun qimmatli hamroh bo'lgan bu asbobning to'g'ri gapirishini Dik o'zi ham ko'p martabalar sinab ko'rgan edi. Endi havoning o'zgarishini o'z vaqtida bilib turish uchun, u barometrni har kuni ko'zdan kechirib turar edi.

20-fevral kuni Dik Send barometrdagi o'zgarishni fahmlab qoldi. Bir necha marta kuzatgandan keyin barometrning asta-sekin, lekin to'xtovsiz pastga tushayotganini ko'rdi. Bu esa yomg'ir bo'lishini bildirar edi. Ammo barometr hadeb tushaversa hamki, yomg'irdan asar yo'q edi. Shunda Dik Send yomon havo ko'pga cho'zilar ekan, degan xulosaga keldi.

Ammo yilning bu faslida yomg'irgina emas, qattiq shamol ham turib qolishi mumkin edi. Rostdan ham, bir kundan keyin shamol juda kuchayib ketdi, havo oqimining kuchi bir soatda oltmish kilometr tezlikka yetdi¹.

¹ Soatiga 60 km, ya'ni sekundiga 17 metr tezlikda esadigan shamol bo'ron darajasiga yetardi (bu bo'ronning kuchi sakkiz ballga teng bo'ladi).

Shamol «Piligrim»ning yelkanlarini yulib ketmasligi va machtalarni sindirib yubormasligi uchun yosh kapitan ba'zi bir ehtiyot choralarni ham ko'rib qo'ydi.

U bom-brasel, topsel va tashqi kliver yelkanlarini yig'ib qo'yishni buyurdi. Ammo bugina kamlik qiladiganga o'xshardi. Ko'p o'tmay u yana bramselni ham tushirib qo'yishni va marselni kichraytirishni buyurdi.

Tajribasiz matroslar bilan bu keyingi ishni bajarish oson ish emas edi. Ammo qiyinchilik deb ishni to'xtatish mumkin emas edi, chindan ham hech kim ishni to'xtatmadi.

Dik Send Bat bilan Ostinni boshlab yuqoriga chiqdi va anchagina uringanidan keyin undagi yelkanni tushirdi. Agarda barometrning pasayishi xavf tug'dirmaganida edi, Dik machtalarda ikkala reyani ham o'z joyida qoldirgan bo'lar edi. Biroq shamol bo'ronga aylanadigan bo'lganida yelkanlarni kamaytirishgina emas, balki machtalarni yengillashtirish ham zarur edi, chunki machtaning yuki qancha yengil bo'lsa, kema to'lqinlar orasida chayqalgan paytda shuncha barqaror bo'ladi. Shuning uchun Dik ikkala reyani ham palubaga tushirdi.

Ikki soatga cho'zilgan bu ish tamomlanganidan keyin Dik Send bilan uning yordamchilari marsel yelkanini kichraytira boshladilar. Hozirgi vaqtda aksari kemalarda marsel ikkita bo'lsa, «Piligrim»da bitta edi. «Piligrim»ning matroslari burungi zamonlardagi singari reyalar ustida yugurib yurishga, yelkanning shamolda hilpillayotgan uchini ushlab tortishga va keyin linlar bilan mahkam bog'lab qo'yishga majbur edilar. Bu ish juda qiyin, uzoqqa cho'ziladigan hamda ancha xatarli ish edi. Shunday bo'lsa ham, axiri yelkan kichraytirildi va shundan keyin kema ravon yura boshladi. Dik Send, Bat va Ostin palubaga tushganlarida «Piligrim» quruqlikda bo'ron deb ataladigan, lekin dengizchilar tili bi-

lan aytganda, juda qattiq shamolda suzish uchun tappa-taxt qilib qo'yilgan edi.

Keyingi uch kun ichida, ya'ni 20, 21 va 22-fevral kunlarida shamolning kuchi ham, oqimi ham sira o'zgarmadi. Barometr borgan sari pastga tushar edi; 22-fevral kuni esa barometr yigirma sakkizu o'n yetti dyuymni¹ ko'rsatib turar edi.

Barometrning yaqin kunlar ichida ko'tarila boshlashiga hech ham umid yo'q edi. Osmonning qovog'i soliq, shamol ham qattiq guvillardi. Dengiz usti doim tuman edi. Butun osmonni quyuk qora bulutlar qoplab olganidan kunning qayoqdan chiqib, qayoqqa botayotganini ham bilib bo'lmas edi.

Dik Send qattiq tashvishga tushib qoldi. U kemani idora qiladigan joydan, ya'ni kapitan ko'priksidan hech qayoqqa jilmasdi, dam ham olmas edi. Shunga qaramasdan o'zini xotirjam ko'rsatar edi.

23-fevral kuni ertalab shamol go'yo pasaya boshlaganday bo'ldi. Ammo Dik Send havoning tuzalishiga ishonmadi. Haqiqatan ham u o'ylagancha bo'ldi: tush paytidan keyin shamol juda zo'rayib ketib, dengizda qattiq to'lqin ko'tarila boshladi.

O'zining kambuzidan kamdan-kamgina chiqadigan Negoro tushdan keyin soat to'rtlarda kema sahniga chiqdi. Dingo kemandagi biror burchagida uxlab yotgan bo'lsa kerak — bu safar oshpazni tinch qo'ydi.

Har vaqtdagiday kamgap bo'lgan Negoro palubada yarim soatcha dengizga astoydil tikilib qarab turdi.

Okeanda uzun-uzun to'lqinlar mavj urar edi. Ular ketma-ket o'tib turar, lekin hali bir-birlari bilan to'qnashmas edi. To'lqinlar odatda bunday kuchli shamolda bo'ladigandan ham balandroq edi.

¹ Ingliz va amerika barometrlarining shkalasi dyuymlar va chiziq-larga bo'lingan. 28,7 dyuym 728 millimetrga baravardir (*Muallif izohi.*)

Demak, yaqin joyda, g'arb tomonda qattiq bo'ron turgan va tez orada kemaga yetib kelishi turgan gap edi.

Negoro «Piligrim» atrofida ko'piklanib, to'lqinlanib yotgan suvga nazar tashladi-da, keyin sovuq ko'zlari bilan osmonga qaradi.

Osmonning ko'rinishi juda qo'rqinchli edi.

Yuqoridagi bulutlar pastdagilariga qaraganda juda tez harakat etardi. Juda balandda tez esayotgan shamol, tez orada dengiz ustiga tushib, «qattiq shamol» deganimizni qattiq bo'ronga aylantirib yuborishi mumkin edi...

Negoro, yo dengiz ishlaridan hech narsa tushunmasdi, yoki hech narsadan qo'rqmaydigan dov-yurak bir odam edi. Uning yuzida hech qanday bezovtalik alomati ko'rinmas edi. Tashvishlanish u yoqda tursin, hatto labini qiyshaytirib ichi qoralik bilan jilmayar edi. Havoning bunday yomon kelishidan xafa bo'lish o'rniga hatto xursand, deb o'ylash mumkin edi.

U bushprit ustiga minib oldi-da, ehtiyotkorlik bilan lomutlager tomonga surildi. U ufqda biron narsani ko'rishga harakat qilganday tuyular edi. Keyin astagina palubaga tushdi va bir og'iz so'z aytmasdan o'z kayutasiga kirib ketdi.

Har tomondan turli xatarli hodisalar kutilayotgan bo'lsa-da, biroq «Piligrim»ga shamol doim orqadan urib turar, shunisi jonga ora kirar edi. Hatto bu shamol bo'ronga aylangan taqdirda ham «Piligrim»ning Amerika qirg'og'iga yana ham tezroq yetib borishini kemadagilarning hammasi tushunar edi. «Piligrim»day mustahkam kemaga bo'ron pisand emas, noma'lum sohildan chiqib qolish chindan ham xavfliroq edi.

Bu fikr Dik Sendni juda qattiq tashvishga solib qo'ydi. Basharti, kema kimsasiz bir qirg'oqqa chiqib qolsa, unda lotsman topilmasa, nima bo'ladi? Bordi-yu, havo buzuq paytda, qirg'oqning noma'lum bir joyidan kemaga joy qidirish kerak bo'lib qolsa-chi?

Unda nima bo'ladi? Albatta, bunday masalalar ustida hozir bosh qotirib o'tiradigan payt emasdi, biroq qachon bo'lmasin bunday hol yuz beradi, shunda darrov biron chora ko'rish kerak bo'lib qoladi.

Nima qipti, kezi kelganda Dik Send bunday chorani ko'radi!

Keyingi o'n uch kun ichida, ya'ni 24-fevraldan 9-martgacha havo hech o'zgarmadi desa bo'ladi. Osmonda avvalgicha qora bulutlar suzib yurar edi. Ba'zan shamol to'xtardi, lekin birpasdan so'ng yana ilgarigicha qattiq esa boshlardi. Barometr ikki-uch marta yuqoriga ko'tarila boshlagan esa-da, lekin bir necha chiziqqa ko'tarilgan zamon yana pastga tushar edi. Havoning bosimi keskin o'zgarib turganligi sababidan, yaqin kunlar ichida havoning yaxshilanishiga umid qilib bo'lmas edi.

Bir necha marta qattiq momaqaldiroq bo'lib o'tdi. Bu hodisa Dik Sendni qattiq tashvishga solib qo'ydi. Kemadan ikki yuz metrgacha narida suvni bir necha marta yashin urdi. Tez-tez jala quyib turar, «Pilgrim»ni esa doim qalin tuman o'rab yotar edi. Ba'zan, kema burnidagi «kuzatib boruvchi» tumanda anchagacha hech narsani ko'ra olmas, kema esa tavakkal qilib suzib borar edi.

To'liqlar kemani o'lguday chayqatsa ham, lekin to'liqlar orasida o'zini yaxshi tutib borar edi. Baxtga yarasha, missis Ueldon dengiz kasaliga muhtalo emas edi. Biroq kichkina Jek bu kasaldan qattiq qiynaldi va shu sababdan missis Ueldon uning oldidan bir qadam ham nari jilmadi.

Butun vaqtini suvaraklar bilan o'tkazuvchi Benedikt tog'a amerika suvaraklari singari kemande tebranishini pisand qilmasdi. Bu olim, xuddi o'zining San-Fransiskodagi uyida o'tirgan singari, kun bo'yi hasharotlarni tekshirib o'tiradi.

Yaxshiyamki, Tom va boshqa negrlar dengiz kasaliga muhtalo emas edilar: ular kemada yosh kapitan ko'rsatgan hamma ishlarni ilgaricha ba-

jarib turar edilar. Dik Send o'zi esa kemande to'liqlarda tebranishiga ko'pdan ko'nikib qolgan edi.

Yelkanlari kam bo'lishiga qaramasdan, «Pilgrim» oldinga qarab ildam suzib borar edi. Dik Send, ko'p o'tmay yelkanlarni yana kamaytirishga to'g'ri keladi, deb oldinoq mo'ljallab qo'ydi. Ammo u bevosita xavf bo'lmaganidan, buni qilishga shoshilmadi.

Dikning mo'ljalicha, quruqlikka yaqinlashib qolishgan edi. Shuning uchun u navbatchilarga hushyor bo'lib turishni buyurdi. Ammo yosh kapitan tajribasiz matroslarning yerni uzoqdan ko'rib tanishlariga ishonmas edi. Tuman orasidan yerni ko'ra olish uchun o'tkir ko'zli bo'lishgina kifoya qilmasdi. Shuning uchun Dik Send machtaga o'zi chiqib, ufqqa anchagacha tikilib qaradi.

Ammo Amerika qirg'og'i hamon ko'rinmas edi.

Yosh kapitan bunga hayron bo'ldi, u o'zining bu hayratini missis Ueldondan yashira olmasdi.

9-mart kuni Dik kemande burnida turib, goh dengizga, goh osmonga, goh «Pilgrim»ning qattiq shamoldan egilayotgan machtalariga qarab qo'yar edi.

— Hech narsa ko'rinmayaptimi, Dik? — deb so'radi missis Ueldon o'smir durbindan ko'zini olgach.

— Hech narsa, missis Ueldon, hech balo ko'rinmayapti... Shamol esa yordam beryapti, u yana ham kuchayganga o'xshaydi, chunki tumanni tarqatib yubordi...

— Sen, ilgarigicha, Amerika qirg'og'i yaqin deb o'ylaysanmi?

— Albatta, missis Ueldon. Ammo shu mahalgacha ko'rinmayotganiga hayronman.

— Demak, sen, kema hamma vaqt to'g'ri yo'ldan bordi, deb o'ylaysan-a!

— Ha, albatta! Shamol shimoli-g'arb tomondan esa boshlagandan beri kema doim bir tomonga qarab yurdi, — dedi Dik Send. — Agar esingizda bo'lsa, kapitan Gul va matroslar halok bo'lgan

kuni o'sha shamol boshlangan edi. Uchinchi fevraldan to bugungi kunga qadar, ya'ni 9-martgacha yigirma yetti kun o'tdi!

— Biz o'sha mahalda qit'adan qancha masofada edik? — deb so'radi missis Ueldon.

— Taxminan to'rt ming besh yuz mil narida edik, missis Ueldon. Bu aniq. Ko'p deganda ortiq-kami bilan yigirma milcha farq qilishi mumkin.

— Kema-chi, qanday tezlik bilan yurdi?

— Shamol kuchaygan kundan boshlab, o'rtacha hisob bilan biz har kuni bir yuz sakson mildan yo'l yurdik. Shuning uchun ham yerning shu mahalgacha ko'rinmaganiga hayronman. Ammo undan ham qizig'i shundaki, keyingi kunlarda biz bironta ham kemaga duch kelmadik, holbuki, bu yerlarda kemalar serqatnov edi.

— Kemaning yurish tezligini hisoblashda adashmadingmikan? — deb so'radi missis Ueldon.

— Yo'q, missis Ueldon. Bu to'g'rida xotirjamman, hech bir xato bo'lishi mumkin emas. Lagni har yarim soatda dengizga tashlab turdik. Natijasini doim o'z qo'lim bilan yozib bordim. Istasangiz, hozir lagni yana dengizga tashlashni buyuray. Shunda siz har soatda o'n mildan yo'l yurayotganimizni ko'rasiz, ya'ni bir kecha-kunduzda ikki yuz mildan ham ko'proq yo'l yurgan bo'lamiz!

Dik Send Tomni chaqirib olib, lagni dengizga tashlashni buyurdi. Keksa negr hozir bu ishni juda mohirlik bilan bajarar edi. U dastlab lagning yaxshi bog'langanini tekshirib ko'rib, keyin dengizga tashladi. Asbob yigirma besh yard ham sudralmasdan turib, arqon osilib qoldi.

— Oh, kapitan! — deb yubordi Tom.

— Nima bo'ldi, Tom?

— Arqon uzilib ketdi!

— Arqon uzildi? — deb qichqirib yubordi Dik, — demak, lagdan ajraldik degin!

Keksa negr javob qaytarish o'rniga qo'lida uzilib qolgan arqonni ko'rsatdi.

Bunga Tom aybdor emas edi. Lag, mahkam bog'langan edi-yu, lekin arqon qoq o'rtasidan uzilgandi. Holbuki, bu arqon eng yaxshi kanopdan eshilgan edi. Bu arqon biror joyga qattiq ishqalanganagina uzilishi mumkin edi. Dik arqonning uzilgan joyini ko'rsa, rostdan ham shunday bo'lgan ekan. Lekin arqon nimaga tegib ishqalangan ekan?

O'smirimiz bunga javob topishga ojiz edi.

Nima bo'lsa hamki, lagdan butunlay ajraldilar. Endi Dik Send kemaning tezligini aniqlay olmaydi. Uning birdan-bir foydalanadigan asbobi kompas bo'lib qolgandi, xolos.

Ammo bu kompasning noto'g'ri ishlayotganidan Dikning xabari yo'q edi!..

Missis Ueldon Dikning bu hodisadan qattiq tashvish tortayotganini ko'rib, ortiq hech narsani surishtirmadi. U qattiq xafa bo'lganicha o'z kayutasiga kirib ketdi.

Har holda lag bo'lmasa ham, kemaning tezligi kamaymayotganini fahmlash qiyin emas edi.

Ertasiga, 10-mart kuni barometr yigirma sakkiz o'ndan ikki dyuymni¹ ko'rsatdi. Bu esa qattiq bo'ron turishini, ya'ni har soatda yuz kilometr-dan ham oshiq esadigan juda qattiq shamol bo'lishini bildirar edi.

Demak, ish chatoq bo'lmasligi uchun, yelkanlarni darrov kamaytirish kerak edi.

Dik Send faqat bom-kliver bilan kichraytirilgan og'ma grotni qoldirib marsel bilan fokni tushirishga qaror berdi.

U Tom bilan uning sheriklarini palubaga chaqirdi, chunki bu og'ir ishni bajarish uchun hamma baravar ishlashi kerak. Afsuski, yelkanlarni tushirish uchun ancha vaqt kerak edi, bo'ron esa har minutda borgan sari kuchaya bordi.

Dik Send, Ostin, Akteon va Batlar reyalar ustiga chiqishdi. Tom shturval oldida qoldi. Gerkules

¹ 716 millimetr.

esa, zarur bo'lganda arqonni ushlab turish uchun kema sahnida qoldi.

Ancha ovoragarchilikdan keyin komanda, niho-yat, marsel bilan fokni tushirdi. Shamolning shid-datdian machtalar shu qadar qattiq silkinar ediki, botir matroslar har on dengizga qulab tushib ketishlari mumkin edi. Yuz marta o'limdan qolib, ularo og'ma grot riflarni zo'rg'a yechib oldilar. Undan keyin ichkarigi kliverni ham tushirishdi. Endi kemada faqatgina kichraytirilgan og'ma grot bilan bom-kliver qolgandi, xolos.

Yelkanlari oz qolganiga qaramasdan «Pilgrim» to'lqinlar orasida o'qday uchib borar edi.

12-mart kuni havo yana battar buzildi. Shu ku-ni Dik Send barometrga qaragan edi, qo'rqqanidan turgan joyida qotib qoldi, chunki barometr yigirma yetti butunu o'ndan to'qqiz dyuymga¹ tushib ket-gan edi.

Bu esa juda ham qattiq dovul bo'lishini bildirar edi. Endi «Pilgrim»ga qolgan yelkanlar ham oshiq-chalik qilib qolgan edi.

Dik Send shamol parcha-parcha qilib tashla-masin deb og'ma grotni yig'ib olishni buyurdi.

Ammo bu buyruqni kechikib berdi. Shu paytda birdaniga kemaga qattiq shamol kelib urib, yelkan-ni yulib olib ketdi. Ostin shu mahal bram-reyada turgan ekan, shamol uni bramstenga shunday qat-tiq urdiki, bechora hushidan ketishga sal qoldi. Hamma yog'i qon holda u zo'rg'a palubaga tushdi.

Dik Send qattiq tashvish ichida qoldi, chunki uning hisobiga ko'ra, daqiqa sayin qirg'oq ko'rinib qolishi kerak edi va shunday tezlik bilan uchib bo-rayotgan kema qirg'oq yaqinidagi suv osti tosh-lar — riflarga borib urilishi mumkin edi, u shun-dan xavotirda edi.

U kemandi burniga borib, uzoqlarga qaray boshladi. Ammo qanchalik zo'r berib tikilmasin, quruq yerdan hech bir darak yo'q edi.

¹ 709 millimetr.

Dik shturval oldiga keldi. Oradan bir minut o'tar-o'tmas, Negoro chiqdi. U qo'lini beixtiyor ko'tarib ufqdagi qandaydir bir nuqtaga uzatdi. Uning bunday qilishidan, tuman orasidan baland biror qirg'oqni ko'rgan ekan, deb o'ylash mumkin edi...

Ichi qora portugaliyalik yana zaharli qilib kulimsirab qo'ydi. So'ng hech nima demasdan kam-buzga kirib ketdi.

O' n i k k i n c h i b o b

UFQDA OROL

Bugun «qattiq shamol» kuchli bo'ronga aylanib ketdi. Endi shamol janubi-g'arb tomondan soatiga yuz kilometrdan ortiq tezlik bilan g'uvillab kelar edi.

Bu haqiqiy bo'ron edi, portlarda langar tashlab turgan kemalarni qirg'oqqa otib tashlaydigan, uy-larning tomlarini ko'tarib ketadigan, fabrikalar-ning trubalarini qulatib yuboradigan bo'ron edi.

Bunday qattiq shamol 1825-yil 23-iyulda Gvadelupda yaxshi mahkamlangan ikki yuz qirq millimetrli zambaraklarni uloqtirib tashlaganini eslasak, to'lqinlar pista po'choqdek o'ynayotgan kichkina bir kemachaning holi nima kechishini ko'z oldingizga keltirish qiyin emas.

Ammo kema bu xilda qattiq shamol va qattiq to'lqin mahalida o'ynoqlab yurar ekan, uning falokatdan qutulishi qaytaga osonroq bo'ladi. Kema qattiq shamolga qarshi turish o'rniga, qaytaga shamolga yon beradi, shamol qayoqqa haydasa, o'sha yoqqa ketaveradi. Ishqilib, kema mahkam ish-langan bo'lsa, bas.

«Pilgrim» ham xuddi shunday qildi.

Og'ma grotni shamol uchirib ketganidan keyin bir necha minut o'tar-o'tmas, shamol bom-kliverni parcha-parcha qilib tashladi. Dik Send kemani



boshqarish osonroq bo'lsin deb staksel yelkanini ham ko'tara olmadi, vaholanki shu kichkinagina yelkan ham kemani boshqarishni ancha yengillashtirgan bo'lardi.

«Piligrim»dagi hamma yelkanlar olib qo'yilganligiga qaramasdan kemaning korpusiga, machtalari va takelajiga shamol qattiq urib turganligi sababli kema juda tezlik bilan ketmoqda edi. Kema suzish bir yoqda tursin, ba'zan hatto suvga tegmasdan uchib borayotganday ko'rinar edi.

Kema zo'r to'lqinlar orasida cho'p singari o'ynoqlab yurardi.

Bundan tashqari, to'lqinlar kemani orqadan urib ag'darib yuborishi mumkin edi, chunki tog'day-tog'day to'lqinlar kemadan tezroq yurib, oldinga o'tib ketar edi. Agar kema orqadan urgan to'lqinning ustiga tezda chiqib olmas ekan, o'sha to'lqinning tagida qolib g'arq bo'lib ketishi turgan gap edi. Bo'rondan qochuvchi kemalar uchun eng xavfli payt ham shu bo'ladi.

Xo'sh, bunday xatarga qarshi qanday chora ko'rish kerak edi?

«Piligrim»ni tezroq haydash mumkin emas, chunki hamma yelkanlari olib qo'yilgan. Endi birdan-bir chora rul yordami bilan kemaning tumshug'ini to'lqinga qarshi to'g'rilab yurish edi. Biroq kema ko'pincha rulga bo'ysunmay qo'ymoqda edi.

Dik Send shturval yonidan ketmadi. Kemaga kelib urilayotgan o'ynoqi to'lqinlar dengizga uloqtirib yubormasin deb, u o'zini arqon bilan shturval oldiga bog'lab qo'ydi. O'zlarini kemaga bog'lab qo'yan Tom bilan Bat ham, o'z kapitanlariga yordam berishga tayoyr turar edilar. Gerkules bilan Akteon bitengga mahkam yopishib olib, kemaning burnida navbatchilik qilar edilar.

Missis Ueldon, kichkina Jek, keksa Nan va Benedikt tog'a Dik Sendning buyrug'iga itoat qilib, o'zlarining kayutalaridan tashqariga chiqmadilar. Missis Ueldon jon deb kema sahnida qolardi-yu, lekin Dik, o'rinsiz halok bo'lish ehtimoli borligini vaj qilib, bunga hech yo'l qo'ymadi.

Hamma lyuklar mahkam qilib berkitilgan edi. Dik, agar zo'r to'lqin kema ustidan o'tib ketsa ham lyuklar suv o'tkazmaydi, deb umid qilar edi. Basharti lyuklar suvning bosimiga chiday olmasdan ochilib ketsa, kemaning ichi suvga to'lib, cho'kib ketishi turgan gap edi. Xayriyatki, «Piligrim»ga yuk to'g'ri ortilgan ekan, qattiq to'lqin bo'lishiga qaramasdan, yuklar joyidan hech qimirlamadi.

Dik deyarli ko'z yummasdi. Missis Ueldon uning charchab betob bo'lib qolishidan xavotir olar edi, u Dikning bir oz bo'lsa ham mizg'ib olishini talab qildi...

13-martdan 14-martga o'tar kechasi, Dik dam olib yotgan mahalda shunday bir voqea ro'y berdi.

Tom bilan Bat shturval oldida navbatchilik qilar edilar. Kemaning bu tomoniga kamdan-kam keladigan Negoro to'satdan ularning oldida paydo bo'lib qoldi va hatto ularni gapga solmoqchi ham bo'ldi.

Ammo kekxa negr ham, uning o'g'li ham Negoronnig gaplariga quloq solmadilar.

Birdaniga kema bir tomonga ancha qiyshayib ketdi. Negoro yiqilib tushdi, agar Kompas shkakchasi — naktouzga yopishib olmaganida, dengizda qulab ketishi ham ehtimol edi.

Tom kompasdan xavotirlanib qattiq baqirib yubordi.

Uyqu aralash bu tovushni eshitgan Dik Send o'qday chopib palubaga chiqdi-da, shturval tomonga yugurdi.

Ammo Negoro o'rnidan turib olgan, qo'liga Kompas shkakchasining tagidan sug'urib olgan temir bor edi. U Dik kelmasdan burun bu temir-ni dengizga uloqtirib yubordi. Demak, Negoro endi Kompas sterlkasining yana to'g'ri ishlashini istab qolipti-da? Endigi, kemani oldinga qarab surib ketayotgan janubi-g'arbiy shamol uning yashirin maqsadiga to'g'ri kelayotgan bo'lsa kerak.

— Nima voqea bo'ldi? — deb so'radi Dik.

— Mana bu la'nati oshpaz Kompas ustiga yiqilib ketdi, — deb javob berdi Tom.

Dikning es-hushi uchib, naktouzga tomon otildi. Lekin naktouz ham, chiroq yoritib turgan Kompas ham boyagicha butun ekan.

Yosh kapitan yengil nafas oldi. Agar keyingi Kompas ham sinib qolganida ahvol juda ham chatoq bo'lar edi.

Dik Send naktouzning tagidagi temir olib tashlanganidan keyin Kompasning strekasi avvalgi holiga kelib, yana magnit qutbini to'g'ri ko'rsata boshlaganidan bexabar edi.

Kompasning ustiga yiqilib ketgani uchun Negoroni ayblab bo'lmasdi ham (chunki bu tasodifiy bo'lishi mumkin edi), ammo Dik Send uning qoq yarim kechada kema quyrug'ida nima qilib yurganini surishtirishga haqli edi.

— Nima qilib yuribsiz bu yerda? — deb so'radi Dik.

— Nima istasam shuni, — deb javob qaytardi Negoro.

— Nima dedingiz? — dedi jahl bilan Dik.

— Men, — deb bamaylixotir javob qaytardi Negoro, — kema quyrug'ida yurilmasin degan qoida yo'q deyapman.

— Bunaqa qoida yo'q bo'lsa-da, lekin shu soatdan boshlab men bu qoidani kirgizaman, — dedi Dik Send. — Men sizga kemanding quyrug'ida yurishni man qilaman!

— Shunaqa deng! — deb xitob qildi Negoro.

Odatda o'zini yaxshi tutadigan bu odam Dik ustiga otimoqchi bo'lgandek bir harakat qildi.

Yosh kapitan cho'ntagidan to'pponcha chiqarib, oshpazga o'qtaldi.

— Negoro, — dedi u, — shuni bilingki, mening yonimda doim to'pponcha yuradi. Intizomni buzar ekansiz, qoq miyangizdan otib tashlayman!

Shu onda Negoro qandaydir bir kuch zarbidan yiqilay dedi, chunki Gerkules o'zining og'ir qo'lini uning yelkasiga qo'ygan edi.

— Kapitan Send, — dedi pahlavon, — ruxsat eting, men bu iflosni dengizga uloqtirib yuboray? Baliqlar bir maza qilishsin. Ular buning iflosligidan jirkanib o'tirmaydilar.

— Yo'q, Gerkules, hali vaqti kelgani yo'q, — dedi Dik Send.

Pahlavon qo'lini uning yelkasidan olganidan keyin Negoro qaddini rostlab oldi-da, Gerkulesning yonidan o'tib ketayotib:

— Shoshmay tur hali, la'nati negr, buning uchun boplab ta'ziringni beraman! — deb to'ng'illadi.

Dik Sendga shamol boshqa tomondan esa boshlaganday ko'rindi, chunki Kompasga qarasa, strekasi birdan to'rt rumbga surilib ketibdi. Shamolning bunday keskin o'zgarishi dengizga hech bir ta'sir qilmaganiga yigitcha juda hayron qoldi.

Kema avvalgi yo'lidan ketayotgan bo'lsa ham, lekin endi shamol kemanding quyrug'iga emas, balki

yonidan chap tomonga urmoqda edi. Kemaning bunday ketishi xavfli bo'lganidan Dik Send kemaning yo'lini to'rt rumbga o'zgartirishga majbur bo'ldi.

Yosh kapitan hamon tashvishda edi. U, Negoroning bugungi tasodifiy yiqilishi bilan birinchi kompasning sinishi o'rtasida biron bog'lanish yo'qmikin, deb o'z-o'ziga savol berdi. Kema quyrug'ida oshpaz nima qilib yuribdi? Ehtimol, u ikkinchi kompasning ham ishdan chiqishini istagandir? Buning nima hojati bor ekan unga? Dik bu jumboqni yechishga ojiz edi. Boshqalar qatorida Negoro ham Amerika qirg'og'iga tezroq yetib olishni istasa kerak, axir.

Dik Send bu voqeani missis Ueldonga aytib berganidan keyin u ham Negoroga ishonmay qoldi, ammo uning kema asboblari qasddan buzayotganiga gumonsirashi uchun hech qanday sabab topa olmas edi.

Dik Negoroni doim nazorat qilib turishga qaror berdi. U bu bilan ham qanoatlanmasdan Dingoni kema quyrug'iga ko'chirdi, chunki oshpazning itidan o'zini olib qochishini Dik juda yaxshi bilar edi. Ammo yosh kapitanning man qilganini bilgan Negoro endi kema quyrug'iga sira bormasdi, chunki u yerda hech qanday qiladigan ishi ham yo'q edi.

Hafta bo'yi bo'ron to'xtovsiz bir zaylda davom etdi. 14-martdan to 26-martgacha to'xtovsiz shamol bo'lib turdi. Barometr pasaygani pasaygan edi. Albatta bunday havoda yelkanlarni qo'yish hech bir aqlga sig'maydigan ish edi.

«Pilgrim» bir kecha-kunduzda uch yuz kilometr tezlikda shimoli-sharq tomonga qarab suzib borar, ammo quruqlik hamon ko'rinmas edi. Holbuki, yer, ya'ni Amerika qit'asi Tinch okean bilan Atlantika okeani o'rtasida bir yuz yigirma gradusgacha cho'zilib yotar edi.

— Yo men aqldan ozdimmikin, yo bo'lmasa hisobdan adashdimmikin, shuning natijasida

«Pilgrim» ancha kunlardan beri noto'g'ri yo'ldan yurayotganmikan? — deb savol berdi o'z-o'ziga Dik Send. Yo'q, uning bunday xato qilishi mumkin emas. Quyosh garchi bulutlar orasida yursa ham, lekin doim kemaning burun tomonidan chiqib, quyruq tomonida botadi. Xo'sh, unday bo'lsa yer qayoqda qoldi? Kema allaqachon yerga yetib kelgan bo'lishi kerak edi. Amerika qayoqda qoldi? U, shu yerda, yaqin joyda bo'lishi kerak edi axir, — o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketmagandir-ku. Mayli, Janubiy Amerika bo'lmasin, Shimoliy Amerika bo'lsin, — bunday xatoni qilib qo'yish ehtimol, — axir «Pilgrim» ikkisining biri yonidan o'tib keta olmaydi-ku? Modomiki, qirg'oq ko'rinmas ekan, kemaning ahvoli endi nima kechadi? Yoinki kompas buzildimikin? Shunday bo'lishi ham ehtimol, chunki ikkinchi kompas singanidan keyin, Dik uning to'g'riligini tekshirib ko'rolmadi. Bu fikr to'g'riroqqa o'xshadi. Yer ko'rinmagan sari, Dik Send bu fikrning to'g'riligiga ishonardi.

Dik shturvalda navbatchilik qilishdan bo'shagan vaqtida doim xaritani o'rganish bilan mashg'ul bo'lardi, lekin qancha urinmasin bu masalani hal qilolmadi.

26-mart kuni ertalab soat sakkizlarda juda muhim voqea yuz berdi.

Navbatchilik qiluvchi Gerkules birdan:

— Yer! Yer! — deb hayqirib qoldi.

Dik Send kema burniga otildi. Gerkules dengizchi emas edi. Shu sababdan ko'zi aldamadimikan-a?

— Qani yer? — deb baqirdi Dik Send.

— Hu, anavi yoqda! — deb ko'rsatdi bir qora nuqtani Gerkules, shimoli-sharq tomonga qo'lini uzatib.

Shamol bilan dengizning guvillab turganidan uning ovozi zo'rg'a eshitildi.

— O'z ko'zingiz bilan ko'rdingizmi? — deb qayta so'radi o'smir.

— Ha! — deb boshini qimirlatdi Gerkules.

U yana shimoli-sharq tomonga qo'lini uzatib ko'rsatdi. Dik o'sha tomonga qancha tikilib qarasa ham... lekin hech narsani ko'rolmadi.

Xuddi o'sha paytda Gerkulesning hayqirig'ini eshitgan missis Ueldon Dik Sendga bergan va'dasi-ni buzib palubaga chiqib keldi.

— Missis Ueldon! — deb xitob qildi Dik.

Yosh ayol o'zini oqlab o'tirmasdan, negr ko'rsatgan tomonga hadeb tikilar edi.

Gerkulesning qo'li noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsa kerak, Dik bilan missis Ueldon hech narsani ko'rolmadilar.

Shu choq Dik ham, to'satdan qo'lini cho'zib:

— Ha! Ha! Yer! — deb qichqirib yubordi.

U bulutlar orasida tog' cho'qqisiga o'xshash narsani ko'rib qoldi. Uning «dengizchi ko'zlari» sira adashmasdi: bu haqiqatan yer edi.

— Axiri ko'rindi-ya! Axiri! — deb qayta-qayta aytardi u, suyunganidan nima qilishini bilmay.

Missis Ueldon kemanding chekkasini ushlaganicha ko'zini uzmasdan yerga tikilar edi, u ham yerni ko'rgandi.

Qirg'oq, shamolga qarshi tomonda kemanding sal chaprog'ida, o'n milcha narida ko'rinar edi. Bulutlarning orasi ochilib, ko'm-ko'k osmon ko'rindi. Endi baland tog' cho'qqisi aniq ko'rinib turar edi. Bu, hech shaksiz, Amerika qit'asidagi birorta burun bo'lsa kerak.

Yelkanlari bo'lmagani sababli «Piligrim» qayrilib bu burunga tomon borolmasdi. Ammo u albatta yerga yetib borishi kerak edi. Bu bir necha soatlik gap edi. Hozir soat ertalab sakkiz. Bir oz toqat qilinsa, «Piligrim» tushgacha qirg'oqqa yetib olishi mumkin.

Dik Sendning ishorasi bilan, Gerkules missis Ueldonni kayutasiga eltib qo'ydi, chunki to'liq urib turgan palubadan missis Ueldonning o'zi yolg'iz yura olmas edi.

Yosh kapitan kema burnida yana bir oz turganidan keyin, Tom navbatchilik qilayotgan shturval tomonga yurdi.

Shunchalik zoriqib kutilgan va shunchalik orzu qilingan yerni Dik oxiri ko'rishga muyassar bo'ldi-ya! Nima uchun endi u xursand bo'lish o'rniga qo'rquptikin? Shuning uchunki, yer shamolga qarshi tomonda bo'lganidan, bunday tez ketishida kema albatta borib yerga uriladi va buning oqibatlari xunuk bo'lishi mumkin...

Oradan ikki soat o'tgandan keyin haligi tog' cho'qqisi kemandig bir yoniga o'tib qoldi...

Shu paytda Negora yana palubaga chiqdi. U yerni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, boshqalar bilmagan ishni o'zi bilganday qilib boshini silkib qo'ydi-da, darrov kambuzga kirib ketdi.

Kambuzga kirayotganida allanima deb g'uldiradi, lekin buni hech kim eshitmadi.

Yana ikki soat o'tgandan keyin tog' orqada qolib ketdi, lekin qit'a hali ham ko'rinmas edi.

Shu orada havo ham ochilib ketdi. Endi, And tog'lari egallab yotgan baland qirg'oqli Amerika qit'asi atigi yigirma mil joyda yaqqol ko'rinib turishi kerak edi.

Dik Send qo'liga durbin olib, butun sharq tomonni asta-sekin ko'zdan kechirdi.

Yer ko'rinmas edi.

Tush paytidan keyin ikki soatcha o'tgach, ertalab ko'ringan burun tuman orasida g'oyib bo'ldi.

Durbin bilan qaraganda ham oldinda hech qanday qirg'oq ko'rinmas edi.

Shunda Dik qattiq baqirib yubordi.

U zinapoyadan chopib tushdi-da, missis Ueldon kichkina Jek, Nan kampir va Benedikt tog'alarning kayutasiga yugurdi.

— Bu orol ekan! Orol ekan! — deb qichqirib yubordi u.

— Orol deysanmi, Dik? — deb so'radi missis Ueldon. — Xo'sh qanaqa orol?

— Hozir xaritadan ko'ramiz! — dedi-da, Dik chopqillab borib, kayutasidan xaritani olib keldi.

— Mana, missis Ueldon, mana! — deb ko'rsatdi u xaritani yoyib. — Biz ko'rgan yer Tinch okeanning odam bolasi oyoq bosmaydigan joyidagi faqat mana shu nuqta bo'lishi kerak. Bu Pasxi oroli bo'ladi. Bu joylarda boshqa orol yo'q.

— Demak, shu yerni bosib o'tdikmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Ha, endi u orqada qoldi...

Missis Ueldon xaritadagi zo'rg'a ko'zga chalinadigan kichkinagina bir nuqta bo'lgan Pasxi oroliga tikilib qarab turar edi.

— Bu orol Amerika qirg'og'idan qancha keladi?

— O'ttiz besh gradus uzoqlikda.

— Necha mil bo'ladi?

— Ikki ming milcha.

— Unday bo'lsa, «Piligrim» joyidan qimirlamagan ekan-da! Bu nimasi axir, biz quruqlikdan hali ham shunchalik uzoqda bo'lsak-a?

— Missiz Ueldon... — deb gap boshladi Dik Send. Esimni yig'ib olay deganday u peshanasini ushladi — Bilmadim... Buning qanday bo'lganini sira tushunolmadim. Yo'q... hayronman... Yoki kompasimiz buzuqmikin?.. Ammo bu yer faqat Pasxi oroli bo'lishi mumkin, chunki shamol bizni doim shimoli-sharqqa qarab haydab keldi... To'g'ri, bu Pasxi oroli, Endi biz xursand bo'lishimiz kerak, chunki okeanning qayerida ekanimizni axiri bilib oldik. Biz qirg'oqdan ikki mil beridamiz-a!.. Endi men bo'ron bizni qayoqqa haydab ketganini yaxshi bilib oldim! Bo'ron to'xtasin-chi, keyin biz sog'salommat Amerika qirg'og'iga yetib olamiz!

Yosh kapitanning dadilligi boshqalarga ham ta'sir qildi. Hatto missis Ueldon ham suyunib ketdi. Bechora sayohatchilarga go'yo hamma balo-qazolar birdan o'tib ketganday, «Piligrim» xavfsiz port yaqinida bo'lib, portga kirish uchun dengiz suvining ko'tarilishini poylab turganday ko'rindi.

Pasxi orolining haqiqiy nomi Vaygu, Vayaxu yoki Rapanun bo'lib, u 1722-yilda ochilgan edi. Bu orol 27^o janubiy kenglik bilan 112^o sharqiy uzunlikda turar edi. Demak, kema o'z yo'lidan o'n besh gradus chetga chiqib ketganligi aniqlandi. Dik Send bunga kemani shimoli-sharqqa haydagan bo'ron sababchi bo'ldi deb hisobladi.

Shunday qilib, «Piligrim» quruqlikdan hali ham ikki ming mil narida edi. Agar shamol kemani shunaqa qattiq surib boraversa, kema bu masofani o'n kunda bosishi mumkin. Nahot, o'sha vaqtgacha havo ochilib ketmasa? Nahotki, quruq yer ko'ringanda ham «Piligrim»ning yelkanlarini ko'tarib bo'lmasa?

Dik Send necha kunlardan beri hech tinmayotgan bo'ron axiri tinib qolar, deb o'ylar edi. Pasxi orolining paydo bo'lishini yigitcha yaxshi alomat deb hisoblar ejdi, chunki endi u «Piligrim» okeanning qaysi nuqtasida turganini aniq bilib oldi. Shundan keyin uning o'ziga ishonchi yana ortdi va sayohatning yaxshi tugashiga umid qila boshladi.

Mustahkam ishlangan va yaxshi uskunalangan «Piligrim» bo'rondan ko'p zarar ko'rmadi. U faqat og'ma grot bilan bomkliver yelkanlaridan ajraldi, xolos. Ammo uning o'rnini to'ldirish oson edi. Kema nihoyatda pishiq ishlanganidan ichkariga bir tomchi ham suv kira olmadi. Kemaga kirgan suvni to'kadigan nasoslar tuzuk edi. Bu jihatdan «Piligrim»ga hech qanday xavf-xatar yo'q edi.

Ammo bo'ron quturgani quturgan, uni hech narsa to'xtata olmaydiganga o'xshar edi. Yosh kapitan bo'ron bilan kurashish uchun kemasini tayyor holga keltirdi, ammo shamolni to'xtatish, to'lqinlarni bosish va havoni ochib yuborish — uning qo'lidan keladigan ish emas edi...

Dikning umidlari amalga oshay deb qoldi.

Ertasiga, ya'ni 27-mart kuniyoq barometr bir necha chiziqqa bo'lsa ham, har qalay yuqoriga ko'tarila boshladi. Havoning bosimi ozgina ko'tarilgan bo'lsa ham, lekin bir xilda turadiganday edi, bo'ron, har holda, bosila boshladi. Dengizda ilgari-gicha to'lqinlar o'ynasa-da, lekin shamol asta-sekin bosilaverdi va g'arb tomon yo'l oldi.

Dik yelkanlarni ko'tarish hali ertaroq ekanini bilar edi. Shamol eng kichkina yelkanni ham yirtib tashlashi turgan gap edi. Yosh kapitan yigirma to'rt soatdan kechikmasdan hech bo'lmaganda stak-sellardan birini ko'tarish mumkin bo'lar, deb mo'ljalladi.

Rostdan ham, kechasi shamol ancha pasaydi, ke-maning chayqalishi ham ancha bosildi. Vaholanki, kecha to'lqin kemani pachoq-pachoq qilib yuborgu-day qilib chayqatgandi.

Ertalab yo'lovchilar palubaga chiqa boshladilar. Endi ular to'lqin urib birdaniga dengizga tushib ketishdan qo'rqmas edilar.

Bo'ron vaqtida o'z kayutasiga kirib berkinib ol-gan missis Ueldon palubaga eng oldin chiqib, Dikning yoniga keldi.

Yosh kapitan dovyuraklik bilan barcha og'irchiliklarga chidadi. Ammo u zo'r berib ish-lash natijasida ancha ozib qoldi, ko'zlari cho'kdi, rangi oqarib ketdi. Ehtimol, uning yoshida uyqu-siz o'tkazilgan tunlar juda og'ir bo'lgandir. Ehtimol, bu azob-uqubatlar uchun keyinchalik jafo chekishga to'g'ri kelar, ammo hozircha chekinish payti emas edi. Missis Ueldon kelib, uni boyagiday tetik va bardam bir holda ko'r-di. Uning mardona tabiati hamma narsaga chidash berdi. Buning ustiga mard yigitda o'z ishiga qat-

tiq ishonch tug'ilgan, bu ishonch uning kuchiga kuch qo'shar edi.

— Jon ukam, qadrdon kapitanim! — deb qo'lini uzatdi unga missis Ueldon.

— Ana xolos, missis Ueldon, — deb jilmayib javob berdi Dik. — Men sizdan palubaga chiqmang, deb iltimos qilib edim-ku.

— Ha, men va'damni buzdim, chunki bo'ron bosilayotganday bo'ldi.

— Rostdan ham havo yaxshilanmoqda, missis Ueldon, — dedi o'smir. — To'g'ri aytyapsiz. Kechadan beri barometr ko'tarilmoqda. Shamol ham tinmoqda. Menimcha, qiyinchiliklar tez orada o'tib ketadi.

— Qani edi, shunday bo'la qolsa! Lekin, chi-rrog'im, o'zing ham toza azob tortding-a! Sen ba-hodirlarcha ish...

— Men o'z vazifamni bajardim, xolos, missis Ueldon.

— Endi dam olishing kerak.

— Dam olish deysizmi? — deb e'tiroz bildirdi Dik. — Nima qilaman dam olib, missis Ueldon? Ahvolim juda yaxshi, oxirigacha chidayman. Siz meni «Pilgrim»ning kapitani qilib tayinlagan ekansiz, kemamdagi yo'lovchilarning hammasini xavfsiz yerga olib chiqmaguncha vazifamni ado qi-la beraman!

— Dik, sening yaxshiliklaringni men ham, erim ham, hech qachon esimizdan chiqarmaymiz! — dedi missis Ueldon.

— Qo'ysangiz-chi bunday gaplarni... missis Ueldon! — dedi Dik.

— Sen, ukam, o'zingni kattalarday tutib mar-dona ish qilding. Sen ishning ko'zini biladigan iste'dodli kema komandirisan. O'qishingni tamom qilishing bilan Jems Ueldonga qarashli kemalardan birining kapitani bo'lasan!

— Men... Men... — der ekan Dikning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

— Dik, sen mening o'g'lim bo'lasan! — deb davom qildirdi missis Ueldon gapini. — Sen meni hamda ukang Jekni o'limdan qutqazuvchisan! Azizim Dik, kel, bir o'pay!

Yosh ayol o'z hayajonini bosolmay qoldi. O'smirni bag'riga bosar ekan, ko'ngli buzilib ketib ko'zlaridan yosh oqa boshladi. O'sha mahalda Dikni hayajonga solayotgan tuyg'ular to'g'risida gapirib o'tirmasa ham bo'ladi!

Shu suhbatdan keyin Dik yanada dadillashdi. U kemani xavfsiz portga olib borib, yo'lovchilarni qutqazib olishiga hech bir shubha qilmas edi. Uning uchun shamol tinib, yelkanlarni ko'tarishga imkon tug'ilsa bas edi!

29-mart kuni shamol yana ham susayib qoldi. Dik grot va fok yelkanlarini ko'tarishga qaror berdi.

— Do'stlar, — dedi u o'sha erta tongda kema sahniga chiqib, — menga yordamlashmasalaring bo'lmaydi.

— Bosh ustiga, kapitan Send, — deb javob qaytardi kekxa Tom hammalari uchun.

— Xizimatingizga tayyormiz, — dedi Gerkules. — Bo'ron vaqtida bekor yotaverib, zanglab qolay dedim.

— Og'zing juda katta-ku, yelkanga puflay bermaysanmi, — dedi kichkina Jek. — Puflayman desang, shamoldan sira ham qolishmaysan.

— Barakalla, Jek, boplading! — deb kuldi Dik Send, — Shamol to'xtagan zamon Gerkulesdan yelkanga puflashni iltimos qilamiz.

— Buyursangiz bas, kapitan Send, — deb javob berdi Gerkules og'zini pufakday qilib.

— Dastlab, do'stlarim, — dedi Dik, — shamol yirtib tashlagan grot o'rniga boshqasini qo'yishimiz kerak. Bu ish oson bo'lmasa ham, lekin uni qilmasak bo'lmaydi.

— Qilamiz! — dedi Akteon.

— Men ham yordamlashaymi? — deb so'radi

kichkina Jek, u doim mehnat qilishga tayyor edi.

— Ha, albatta, Jek, — dedi Dik Send. — Sen do'stimiz Bat bilan shturvalda turib, unga yordamlashasan.

Rul boshqaruvchiga yordamchi bo'lish vazifasini Jek jon deb qabul qildi.

— Endi ishga kirishaylik! — dedi Dik Send. — Lekin eslaringda bo'lsinki, do'stlarim, xavfli joyda behuda urinmanglar!

Matroslar yosh kapitanning rahbarligida bel bog'lab ishga tushdilar. O'ralgan yelkanni machta ustiga olib chiqib, undagi yog'ochga bog'lash kerak edi. Dik Sendning to'g'ri rahbarlik qilishi hamda matroslarnig unga itoat qilib jonbozlik bilan ishlashlari natijasida bir soat ichida yelkan ikki arqondan o'tkazilib osib qo'yildi.

Qattiq shamol urib turishiga qaramasdan, bo'rondan oldin tushirilgan yelkanlarni ham birpasda ko'tardilar. Ertalab soat o'nda «Pilgrim» fok, og'ma grot va bitta kliverni ko'tarib g'izillaganicha ketmoqda edi.

Dik Send ehtiyot uchun boshqa yelkanlarni ko'tartirmadi. O'sha ko'tarilgan yelkanlar ham kemaning har kuni ikki yuz mildin ortiq yo'l bosishiga yordam berardi. Bu esa Amerika qirg'og'iga o'n kun deganda bemalol yetib olish uchun kifoya qilar edi.

«Pilgrim»ning shamol hamda to'lqinlardan qutulib olganiga Dik juda xursand edi. Endi kema tez sur'at bilan to'g'ri yo'ldan ketmoqda edi.

Yosh kapitan shturval oldiga keldi-da, rul boshqaruvchining yordamchisi Jekka tashakkur bildirib, o'z vazifasini ado etishga o'tdi.

Kema endi to'lqinda o'yinchoq emas edi. To'ppa-to'g'ri yo'ldan borardi. Dikning naqadar xursand bo'lganini dengizchilik ishidan xabardor bo'lgan kishi yaxshi tushunadi.

Ertasiga osmondagi bulutlar tez suzib ketayotgan bo'lsa ham, lekin oralari katta bo'lib ochilib

qolganidan dengiz ustiga yarqirab oftob nuri tushib turardi. Goh-goh «Piligrim» ham oftob nuri ostida suzib borardi. Hamma yoqqa jon kirgizuvchi bu yorug' nur bir baxt edi! Goh bulutlar bu nurni to'sardi, lekin shamol ularni sharq tomonga haydagandan keyin, yana hamma yoqni oftob nuri yarqiratar edi. Shunday qilib, havo yaxshilana-verdi.

Kemadagi kayutalarni shamollatish uchun hamma lyuklar ochib qo'yildi. Sho'r va sof okean havosi tryumni, kubrikni, kayut-kompaniyani to'ldirdi. Ho'l yelkanlarni quritish uchun rostrga yoyib qo'ydilar. Palubada hamma yoqni tozalash-shipirish boshlanib ketdi. Dik Send o'z kemasining portga iflos va yig'ishtirilmagan bir holda kirib borishiga aslo yo'l qo'ya olmasdi. Kemani tartibga solish uchun har kuni bir necha soat ishlansa bas edi, bunda matroslar ham toliqib qolishmasdi.

Dik Send kemandagi tez yurishini uning dengiz ustida qoldirgan iziga qarabgina aniqlay olar edi. Bu usul bilan yaxshi aniqlab bo'lmasa ham, har holda olti kundan kechikmasdan yer ko'rinib qolishiga Dik Send qattiq ishongan edi. U missis Ueldonni bunga ham ishontira oldi. Dik unga o'z mo'ljalicha, «Piligrim»ning turgan joyini xaritadan ko'rsatib berdi.

— Juda soz, Dik. Endi menga ayt-chi, Amerika qirg'og'ining qay bir joyidan chiqarikinmiz? — dedi missis Ueldon.

— Mana bu joylaridan, — deb Dik xaritadan Peru hamda Chili qirg'oqlarini ko'rsatdi. — Bundan aniqroq qilib aytolmayman. Qarang, mana bu Pasxi oroli. Keyingi kunlarda shamol doim bir tomondan esayotir, demak, biz sharq tomondagi mana bu yerlarni ko'rishimiz lozim. Bu qirg'oqda portlar ko'p, ammo quruqlikka yetganimizdan keyin «Piligrim»ning qay bir portga yaqin bo'lishi ni hozircha aytolmayman.

— Unisi zarur ham emas. Dik... Ishqilib, birorta portga yetib olsak bas!

— Albatta, missis Ueldon. Qayerga borib yetsak ham, siz San-Fransiskoga bemalol yetib olasiz. — Tinch okeanda «qatnov shirkati» bu sohilda ishlaydi. Bu shirkatning paroxodlari katta portlarning hammasida to'xtaydi. U yerdan esa Kaliforniyaga yetib olish hech gap emas.

— Sen hali «Piligrim»ni San-Fransiskoga olib borasanmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Nega olib bormayin! Ammo siz bironta yo'lovchi paroxodga o'tirib olganingizdan keyingina olib boraman, missis Ueldon. Agar biz kapitan bilan matroslar topolsak, baliq moyini tushirish uchun Valparaisoga jo'naymiz, hech shaksiz, kapitan Gul ham xuddi shunday qilgan bo'lardi. Undan keyin San-Fransiskoga yo'l olamiz. Biroq siz uchun bu yo'l ortiqchalik qiladi. Siz bilan ajralishim og'ir bo'lsa ham...

— Xo'p, Dik, — deb uning so'zini bo'ldi missis Ueldon. — Bu to'g'rida keyin yana gaplashamiz. Sen shuni ayt-chi, ilgari notanish portga yaqinlashishga qo'rqar eding shekilli?..

— Men bundan hozir ham qo'rqaman, — deb bo'yniga oldi o'smir, — lekin men qirg'oqqa yaqin yerda birorta kemani uchratamiz deb o'ylayman. Rostini aytsam, shu mahalgacha birorta kema uchratmaganimizga juda hayron qolaman... Hech bo'lmaganda birorta qayiq uchraganda ham yaxshi bo'lar edi! U mahalda «Piligrim»ning qayerdaligini aniq bilib olardikda, hech qo'rqmasdan qirg'oqda to'xtayverardik.

— Bu yerlarda kemalarni portlarga boshlab boruvchi lotsmanlar yo'q ekanmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Bo'lsa kerak, — dedi Dik Send. — Lekin ular qirg'oq bo'yida suzib yuradilar. Shuning uchun biz mumkin qadar qirg'oqqa yaqin borishimiz kerak bo'ladi.

— Agar lotsman topolmasak, unda nima bo'ladi? — deb so'radi missis Ueldon.

Missis Ueldon yosh kapitanning har xil tasodifiy hodisalarga tayyormi, yo'qligini bilish uchun undan surishtiraverardi.

— U holda, missis Ueldon... ishqilib, havo yaxshi bo'lsa, shamol qattiq bo'lmasa, kemani qirg'oq bo'ylab olib ketaveraman, to'xtash uchun xavfsiz bir joy topilguncha sohil bo'ylab ketavera-man. Basharti, shamol yana kuchaya boshlasa...

— Unda nima bo'ladi?

— Bordi-yu, shamol «Piligrim»ni olib borib yerga ursa...

— Unda-chi... — deb so'radi missis Ueldon.

— Unda men kemani qirg'oqqa chiqarib tashlashga majbur bo'laman, — deb xafa bo'lib javob qaytardi o'smir. — Ammo hech iloji qolmaganda shunday qilamiz. Menimcha, bu qadar og'ir ahvolda qolmasak kerak. Siz xotirjam bo'ling, missis Ueldon: havo yaxshilanyapti shekilli. Nahot qirg'oq yonida biror kema yoki lotsman katerini uchrata olmasak? Ishqilib, «Piligrim» to'ppa-to'g'ri qirg'oqqa qarab boryapti, tezda yerni ko'rsak kerak, deb umid qilamiz-da.

Kemani qirg'oqqa chiqarib tashlash-a! Bu ish hatto eng mard dengizchilarni ham qattiq hayajonga solib qo'yadi. Shuning uchun ham Dik Send tuzukroq choralarga umid bog'laganidan, kemani qirg'oqqa chiqarib tashlash kabi og'ir chora ustida bosh qotirib o'tirishni ham istamas edi.

Keyingi kunlarda havo tez-tez o'zgaraverdi, shu sababdan yosh kapitan juda qattiq xavotirlandi. Endi shamol susaymasdi, barometrning pasayib ketishi yana bo'ron bo'lishidan darak berar edi.

Dik Send yelkanlarni tushirib, yana bo'rondan qochishga to'g'ri keladi, deb qo'rqa boshladi. Ammo yosh kapitan uchun hech bo'lmaganda bitta yelkanni qoldirish zarur edi, shuning uchun u hozircha yelkanlarni tushirmaslikka qaror berdi.

Dik machtalarni mahkamlash uchun fordunlarni tarang qilib bog'lashga buyurdi. Bu juda zarur

bo'lgan ehtiyoj chorasi ed. Basharti, kema o'z rangoutidan ajrab qolsa bormi, «Piligrim»ning holi juda ham mushkul bo'lardi.

Keyingi kunlarda barometr ikki marta tez yuqoriga chiqdi, bu esa shamolning keskin suratda o'zgarib ketish xavfini tug'dirar edi. Shamol ro'paradan essa nima qilish kerak? Shamol qayoqdan essa, kemani o'sha yoqqa burib, manevr qilib yurish kerakmi? Agar shunday qilishga to'g'ri kelsa, kemaning yana ochiq okeanga uloqtirib tashlanishi ehtimol!

Xayriyatki, uning bu tashvishlari o'rinsiz bo'lib chiqdi. Bir necha kun davomida shamol, ko'p ham o'zgarmasdan goh shimoldan sharqqa va sharqdan janubga ko'chib, oxiri g'arbdan esa boshladi. Shamol juda qattiq bo'lib, kema rangoutini qimir-latib o'ynar edi.

5-aprel kuni edi. «Piligrim»ning Yangi Zelandiyadan chiqqaniga ikki oydan ham oshib ketdi. Boshda shamol bo'lmasligidan yoki shamol ro'paradan esishidan kema yigirma kun yaxshi yurolmadi. Keyin shamol orqadan urib berdi, shunda «Piligrim» tezlik bilan quruqlikka yaqinlasha boshladi. Ayniqsa, bo'ron vaqtida kema juda tez yurdi; Dik Send, kema sutkasiga eng kamida ikki yuz mil-dan yo'l bosdi, deb o'ylardi. Shunday ekan, nima uchun kema shu vaqtgacha qirg'oqqa yetib ololmadi? Bunga sira tushunib bo'lmasdi.

Matroslardan biri bom-bram-reyga chiqib olib, yer qachon ko'rinarkin, deb hadeb okeanni kuzatardi. Goh machta ustiga Dik Sendning o'zi chiqardi. U bulutlar orasida biror tog' cho'qqisi ko'rinib qolmasmikan deb, durbindan anchagacha atrofni kuzatardi, chunki And tog'larining baland cho'qqilarini har qancha uzoqdan qaraganda ham bulutlar orasidan qidirish kerak edi.

Tom va uning sheriklari uzoqdagi shakli g'alati bulutni tog' deb o'ylab, ko'p martalab adashdilar. Goh vaqt ular tog'ning o'zini ko'rdik, deb gaplari-

da qattiq turib olar edilar va haligi tog' deganlari bulutlar orasida g'oyib bo'lgandan keyingina o'z xatolarini bo'yinga olar edilar.

Ammo 6-aprel kuni shubhaga o'rin qolmadi.

Ertalab soat sakkizda Dik Send endigina rey ustiga chiqib olgan edi. Oftobning birinchi nurlari tumanni tarqatib turganidan uzoq joylar ko'zga yaqqol chalinar edi.

Ko'pdan beri zoriqib kutilgan so'zlar Dik Sendning og'zidan o'qday otilib chiqdi:

— Yer! Ro'paramizdan yer ko'rinyapti! — deb hayqirib yubordi u.

Buni eshitgan yo'lovchilarning hammasi: boshqa bolalar singari bunday ishlarga qiziqqan kichkina Jek ham, endi hamma ko'rgan azob-uqubatlarim tugaydi, deb umid qilgan missis Ueldon ham, amerika tuprog'iga qadam qo'yishni to'rt ko'z bilan kutgan Tom bilan uning sheriklari ham, o'z kolleksiyasini yangi hasharotlar bilan to'ldirish xayolida yurgan Benediekt tog'a ham palubaga yugurib chiqdilar.

Yolg'iz Negorogina chiqmadi.

Endi yer hammaga ko'rinib turar edi: ba'zi o'tkir ko'zlilar yerni aniq ko'rar, qay birlariga esa, yerni sog'inib qolganliklaridan, yer yo'q joyda ham ko'zlariga yer ko'rinar edi.

Dik tajribali dengizchi bo'lganidan, bunday mahalda adashmas edi. Rostdan ham oradan bir soat o'tar-o'tmas hamma bu safar umidlari puchga chiqmaganiga ishonishdi.

Sharq tomondagi sohil uzoqdan ko'ringani uchun bo'lsa kerak, tekis bo'lib ko'rinar edi. Osmonni pastak bulutlar to'sib olganligidan dengiz qirg'og'iga yaqin turgan And tog'larini ko'rib bo'lmasdi.

«Piligrim» yerga qarab borar, yer esa borgan sari kengayar va yaqinlashar edi.

Ikki soatdan keyin kema yerdan atigi uch mil narida edi. Qirg'oqning shimoli-sharqiy chekkasida

anchagina baland burun ko'rinib turar, uning yonida kema to'xtash uchun ochiq bir joy ham bor edi. Sharq tomonda past qirg'oq til singari dengiz ichiga kirib turar edi.

Qirg'oqda o'simliklar bilan qoplangan pastroq adirlar ko'rindi. Yerning tabiatiga qaraganda, bu adirlar baland And tog'larining etagi bo'lishi kerak edi.

Qirg'oqda na port, na odam turadigan uy-joylar va na kema uchun xavfsiz bo'lgan daryo manbai bor edi.

Orqa tomondan esayotgan shamol «Piligrim»ni to'ppa-to'g'ri qirg'oqqa surib borar edi. Ko'tarilgan yelkanlarning kamligi va shamolning qattiqligi sababidan Dik Send kema ni ochiq dengizda to'xtata olmas edi.

Kemaning yo'lida qator-qator suv osti toshlari — riflari ko'rindi. Toshlar ustida dengiz ko'piklanib, sharaqlab qaynamoqda. Qirg'oqqa qattiq to'lqin urib turardi. Dik durbindan qarab, katta-katta to'lqinlarning qirg'oqqa kelib urilayotganini ko'rди.

Yosh kapitan kema burnida bir oz turib, qirg'oqqa tikilib qaradi. Keyin u bir og'iz so'z aytmasdan, kema quyrug'iga borib shturval oldiga turib oldi.

Shamol borgan sari kuchaymoqda edi. Kemaning qirg'oqqa yetib borishiga atigi bir mil masofa qolgandi.

Birpasdan keyin Dik Send kichkina bir ko'rfazni ko'rib o'qoldi-da, kema ni o'sha tomonga burdi. Ammo ko'rfazga kiradigan joyni suv osti toshlari to'sib turar edi. Shu sababdan ular orasidan o'tib ketish qiyin edi. Toshlarining dengiz ustiga chiqib turishi suv osti toshlari yotgan joylarda dengizning sayoz ekanligini ko'rsatar edi. O'sha paytda palubada u yoqdan- bu yoqqa chopib yurgan Dingo kema burniga yugurib bordi-da, qirg'oqqa qarab cho'zib-cho'zib uvlay boshladi. Go'yo it bu qirg'oqni taniganday va bu qirg'oq uning boshidan kechgan qandaydir og'ir tashvishlarni esiga solganday ko'rinar edi.

Itning vovillaganini eshitgan Negoro kayutasi-dan chiqib keldi va itdan nariroqqa qochish o'rniga, kemanding bortiga suyanib oldi.

Ammo Dingo oshpazga sira e'tibor qilmay, g'in-ishib vovillay berdi.

Negoro xatarli suv osti toshlarini pisand qilmas-dan qarab turaverdi. Bir chekkada uni kuzatib tur-gan missis Ueldonga esa Negoroning chehrasi bir on o'zgarganday bo'lib ko'rindi.

«Piligrim»ni shamol haydab olib kelgan bu qirg'oq, ehtimol, Negoroga tanishdir?

Dik Send shu vaqt shturvalni kekxa Tomga top-shirdi-da, ko'rfazga kiradigan joyni yana bir marta ko'zdan kechirish uchun kemanding burniga qarab jo'nadi. Bir necha minutdan keyin u ovozi jiddiy qilib dedi:

— Missis Ueldon, «Piligrim» uchun xavfsiz joy topishga hech qanday umid qolmadi. Yarim soatdan keyin «Piligrim» suv osti toshlariga uriladi... Kemani qirg'oqqa chiqarib tashlashga to'g'ri kela-di. «Piligrim»ni portga olib kelishga imkon bo'lma-di. Sizlarni qutqazish uchun men kemani nobud qilishim kerak. Boshqa iloj yo'q...

— Hamma choralarni qilib ko'rdingmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Hammasini qilib ko'rdim! — deb cho'rt kesdi o'smir.

Shundan keyin Dik bu xatarli manevrga tayyor-garlik ko'rishga kirishdi.

Dastavval u missis Ueldon, Jek, Benedikt tog'a va Nan kampirni qutqaruvchi pufak boylashga maj-bur qildi. Negr matroslar bilan Dikning o'zi yaxshi suzuvchilardan edi, lekin ular ham suvga cho'kmaslik uchun ehtiyot chorasini ko'rdilar.

Missis Ueldonga yordam etishni Gerkulesga topshirishdi. Yosh kapitan Jekning g'amini o'zi yemoqchi bo'ldi. Hech narsani parvoyiga keltir-magan Benedikt tog'a hasharotlar to'ldirilgan qutichasini bo'yniga osib juda xotirjamlik bilan

palubaga chiqib ketdi. Dik uni Bat bilan Akteonga topshirdi. Negoroning beparvo qiyofasi hech kimdan yordam istamaganligini ko'rsatib tu-rar edi.

Har ehtimolga qarshi Dik Send o'n bochkacha baliq moyini kema palubasiga olib chiqishni buyurdi.

«Piligrim» suv osti toshlari girdob bo'lib qayna-yotgan joydan o'tib ketayotgan paytda suvga baliq moyi to'kilsa, to'lqinlar birpasgina bosilib qolardi. Ana shu paytda kema bu xavfli joydan tinch o'tib olishi ehtimol edi. Dik yo'lovchilarni qutqazish uchun kerak bo'lgan hamma choralarni ko'rdi.

Tayyorgarlik ishlarini bitirgandan keyin Dik rul oldiga kelib shturvalni o'z qo'liga oldi.

«Piligrim» endi qirg'oqdan atigi ikki kabeltov masofada, ya'ni suv osti toshlari oldiga kelib qol-gan edi. Kemannig o'ng bortiga oppoq ko'pikli to'lqinlar urila boshladi. Yosh kapitan kemanding har onda suv osti toshiga urilib ketishini kutar edi.

O'sha paytda Dik suvning rangiga qarab, suv osti toshlari orasidan o'tadigan yo'l borligini fahm-lab qoldi. Kemani mumkin qadar qirg'oqqa yaqin-roq bir joyga olib chiqish uchun hech qo'rqmasdan bu yerga kirish kerak edi.

Yosh kapitan hech ikkilanmay, shturvalni qattiq burib yubordi va kema suv osti toshlari orasida egri-bugri yo'ldan suzib ketdi.

Bu yer to'lqinlarning ayniqsa quturgan joyi ekan. To'lqinlar o'ynab kemanding ustiga ham chiqa boshladi.

Negr matroslar kema burnidagi moy bochkalari yonida kapitanning buyrug'ini poylab turar edilar.

— Moyni to'k! Chaqqonroq bo'! — deb qichqirdi Dik.

Moy to'kilishi bilan, go'yo sehrli bir ish bo'lgan-day dengiz jimjit bo'lib qoldi, bir minutdan keyin esa yana to'lqinlar qutura boshladi.

Ammo suv osti toshlari orasidan o'tib, qirg'oqqa

yaqin kelib olish uchun o'sha bir minut ham kifoya qildi.

Zo'r to'lqindan baland ko'tarilgan kema qars etib toshga urildi. Hamma machtalar dengizga qulab tushdi.

Urilgan paytda «Piligrim» yorilib ketib, kema ichiga darrov suv ura boshladi. Biroq yerga juda yaqin qolgan edi. Suv ostidan chiqib yotgan toshlar ustidan yurib borib ham qirg'oqqa chiqib olish mumkin edi.

Falokatdan o'n minut o'tgandan keyin, «Piligrim»dagi hamma yo'lovchilar tik qirg'oqqa chiqib to'planishdilar.

O' n t o' r t i n c h i b o b

NIMA QILISH KERAK?

Yetmish to'rt kunga cho'zilgan safardan, osoyishta dengiz, teskari esgan shamol va bo'ron bilan qattiq kurashlardan keyin, «Piligrim» endi qirg'oqqa yetay degan paytda suv osti toshlariga urilib pachoqlanib ketsa-ya!

Missis Ueldon va uning hamrohlari quruqlikka chiqib olgandan keyin o'zlarini juda baxtli deb hisobladilar. Ular Janubiy Amerikaning biror joyiga kelib qolgan bo'lsalar ham ko'p mashaqqat chekmasdan o'z vatanlariga bemalol yetib borishlari mumkin bo'ladi.

«Piligrim» esa pachoq-pachoq bo'lib ketdi. To'lqin bir necha soat ichida uning siniqlarini har qayoqqa surib ketadi. Undagi yukni qutqazib olish to'g'risida o'ylamasa ham bo'ladi.

Dik Send kemani qutqaza olmagan bo'lsa ham, lekin hamma yo'lovchilarni sog'salomat qutqazib qoldi; shu bilan faxrlansa arzirdi.

«Piligrim» halok bo'lgan yer Janubiy Amerika qirg'og'ining qaysi joyida ekan? Dik Send o'yla-

ganidek, Peru qirg'og'idamikin? Shunday bo'lishi ham ehtimol, chunki kema Pasxi orolidan o'tib ketgandan keyin okeanning ekvator oqimi bilan shamol uni shimoli-sharqqa qarab haydadi. Shuning uchun kemaning qirg'uch gradus janubiy kenglikdan o'n besh gradusga kelib qolishi ham ajab ish emas.

Eng zaruri: mumkin qadar tezroq «Piligrim»ning qayerda falokatga uchraganini aniqlash edi. Peru sohilida portlar, shaharlar va qishloqlar juda ko'p. Shuning uchun, agar Dikning fikri to'g'ri bo'lsa, yo'lovchilar ko'p ham qiynalmasdan birorta aholi turadigan joyga yetib olishlari mumkin.

Falokat joyidagi unchalik baland bo'lmagan tik qirg'oqda jon egasi yo'qqa o'xshaydi. Torgina qumloq joyda qop-qora qoya toshlar yotar edi. Qoyaning ba'zi joylari yorilib ketgan. Ba'zi yoriq joylardan o'rmalab tog'ning tepasiga chiqsa bo'lardi.

Yarim kilometr shimolda qoyalar orasidan soy yorib o'tgan. Soy ustida ko'pdan-ko'p rizoforlar osilib turar edi.

Qirg'oq yonidan boshlangan ko'm-ko'k qalin o'rmon juda uzoqlarda ko'rinayotgan havo rang toqqacha cho'zilib ketgan. Mabodo Benedikt tog'a botanik bo'lganda edi, bundagi xilma-xil daraxtlarni ko'rib hayron qolgan bo'lar edi. Bu yerda bir necha ming yillar umr ko'radigan baland baobab daraxtlari, dengiz qarag'aylari, hind xurmosi, murch daraxti va Yangi Dunyoning shimol tomonida uchraydigan yuzlab boshqa xil o'simliklar bor edi.

Qirg'oq ustida baqiroq qushlar va aksari qoramtir ko'ktusli hamda bo'z kallali qaldirg'ochlar galasi uchib yurardi. Goh joylarda sergo'sht, kichik kallali, parsiz oyoqli kakliklar ham ko'rinib qolar edi.

Missis Ueldon bilan Dik Send qushlarning odamlardan unchalik qo'rqmaganini sezib qoldilar. Ular odamlarning yaqin kelishidan sira hayiqmas edilar. Nahotki, ular odam zotini sira ko'rmagan

bo'lsalar va odamdan qochish degan narsani bilmasalar-a? Nahot hech qanday miltiq ovozi bu qirg'oqning tinchligini sira buzmagani bo'lsa?

Suvdan chiqib turgan toshlar ustida bir necha katta saqoqushlar cho'nqayib o'tirar edi. Ular tumshuqlari ostidagi xaltalariga mayda baliqlarni to'ldirib o'tirar edilar.

Dengiz tomondan uchib kelgan baliqchi qushlar «Piligrim» siniqlari ustida aylanib uchib yurar edilar.

Qushlar qirg'oqning bu joyidagi birdan-bir jon egalari bo'lsalar kerak. Albatta, bu yerlarda Benedikt tog'ani qiziqtiradigan ko'pgina hasharotlar ham bor edi.

Ammo na qushlarga va na hasharotlarga qarab bu yerning qayer ekanini bilib bo'lmas edi. Bu yerning nomini o'sha yerda yashovchi biror kishigina aytib berishi mumkin edi. Ammo bu yerda hech qanday aholi yo'q edi. Bironta ham odamzod ko'rinmasdi.

Na qo'rg'on, na uylar va na bironta chayla ko'rinsaydi. Na shimol tomondagi soy orqasida, na janub tomonda va na qit'aning ichkarisiga kirib ketgan qalin o'rmon orasida, xullas, hech qayerda tutun chiqqan joy ko'rinmas edi. Ilgari bu qirg'oqqa odamzod kelganini ko'rsatadigan hech qanday nishona ham yo'q edi.

Dik Send bunga juda hayron qoldi.

— Biz qayerdamiz? Qayerga kelib qoldik? Nahot buni aytib beradigan birorta odam topilmasa-ya?

Rostdan ham bundaqa kishi yo'q edi, yaqin joyda birorta yerlik odam bo'lganda, Dingo bundan darrov darak berar edi. It esa boshini egib olib va dumini sudrab qumloqda u yoqdan-bu yoqqa yurgani yurgan edi. U hadeb g'alati qilib uvillardi. Uning qiligi juda ajoyib edi, ammo na odam va na hayvon borligidan xabar bermas edi.

— Dik, Dingoga bir qarasang-chi! — dedi missis Uelddon.

— Qiziq-a! Biron iz qidirayotganga o'xshayditya, — dedi Dik.

— Rostdan ham qiziq, — deb shivirladi missis Uelddon.

Keyin birdan esiga olib:

— Negoro nima qilyaptiykin? — deb so'radi.

— U ham Dingo singari qirg'oqni kezib yuribdi, — dedi Dik Send. — Aytgandek, bu yerda ixtiyor o'zida, nima qilsa qilaveradi. Endi men unga buyruq bera olmayman. «Piligrim» falokatga uchragandan keyin uning vazifasi sob bo'ldi.

Negoro ilgarilari bu yerlarni bilib, keyin esidan chiqarib yuborgan odam singari qumloq tilni, soyni va qirg'oqdagi qoyalarni sinchiklab tekshirib yurar edi. Yo bu yerlarda bo'lganmikin? U bunday savolga javob berishdan bosh tortishi ham ehtimol edi. Ammo, bu odam suymas portugalialikka parvo qilmasa ham bo'ladi. Dik Send Negoroning soy tomonga ketayotganini kuzatib turdi, lekin Negoro qoyalar orasiga kirib ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin, o'smirnig u bilan ishi bo'lmadi.

Falokatga uchragan odamlar endi nima qilish kerakligi to'g'risida o'ylashlari lozim edi. Bir oz dam olish hamda ovqatlanish uchun dastlab biror pana joy topish kerak edi. Ana shundan keyingina nima qilish to'g'risida kengashsa bo'lardi.

Ovqat masalasi oson hal bo'ldi. Bu yerda qushlar va mevalar juda serob edi. Falokatga yo'liqqanlar, bundan tashqari, kemanding omborlarida qolgan oziq-ovqatlarni ham yeyishlari mumkin edi. Dengiz toshqini qaytgandan keyin to'lqinlar bir necha bochka suxari, bir necha quti konserva va qoq go'sht solingan yashiklarni qirg'oqqa chiqarib tashlagandi. Dengiz suvi hali ularni buzib ulgurmagani edi. Odam yashaydigan biror joyga yetib olguncha shu bir to'da odamga oziq-ovqat bemalol yetarli edi. Oziq-ovqatlarni to'lqin chiqmaydigan balandroq bir joyga taxlab qo'ydilar.

Totli suvdan ham kamchilik yo'q edi. Dik Send soydan suv olib kelishini Gerkulesdan iltimos qildi. Azamat negr bir bochka to'la suvni yelkasiga qo'yib olib keldi. Dengiz toshqini mahalida to'lqinlar soyga urib kirsam ham, lekin uning suvi chuchuk bo'lib, ichishga yarar edi.

Olov to'g'risida g'am yemasa ham bo'ladi: gulxan yoqish kerak bo'lsa, tevarakda shox-shabba to'lib yotar edi. Kashanda Tomning suv kirmaydigan tunuka qutichaga solingan qovig'i bor ekan. U qirg'oqdan topib olgan chaqmoq toshi bilan istagan mahalida qoviqni olib chaqmoq chaqishi mumkin edi.

Endi safarga jo'nashdan oldin bir oz dam olish hamda tunash uchun birorta pana joy topish qolgandi, xolos.

Kichkina Jek «musofirxona» topib berdi. U qoya tagida o'ynab yurganida, ittifoqo, toshlari yo'nilgan keng bir g'orga ko'zi tushib qoldi. Bu dengiz to'lqinlari qattiq urilishidan hosil bo'lgan g'orlardan biri edi.

Buni ko'rib suyungan bola darrov onasini chaqirib keldi.

— Yasha Jek! — dedi missis Ueldon. — Agar bir Robinzon singari bu yerda uzoq yashab qolganimizda edi, bu g'orga sening nomingni qo'yar edik.

G'or ko'p ham katta emas edi: uzunligi ham, eni ham o'n-o'n to'rt fut kelardi, ammo Jekning ko'ziga u juda katta bo'lib ko'rinipti. Falokatga uchraganlar unga bemalol joylasha olardilar. Missis Ueldon bilan Nan kampir g'orning ichi qup-quruq ekanini ko'rib juda xursand bo'lishdi. Oyning birinchi choragi ekan, demak, dengiz toshqini qattiq bo'ladi deb qo'rqqansa ham bo'lardi¹.

Shunday qilib, dam olish uchun kerakli bo'lgan hamma narsa tayyor edi.

¹ Dengiz suvining juda ko'p ko'tarilishi odatda oy yarim bo'lgan paytlarda yuz beradi.

O'n minutdan keyin «Pilgrim»dagi yo'lovchilar suv o'simligi poxoli solingan g'orda yonboshlab yotishardi. Hatto Negoro ham ularga qo'shilib nonushta qilgani keldi. Ehtimol, u ichidan egribugri soy o'tgan qalin o'rmonda yolg'iz o'zi yurishga yuragi dov bermagan bo'lsa kerak.

Kunduzi soat bir edi. Ular suxari hamda qoq go'sht bilan nonushta qildilar. Choy o'rniga Batning halok bo'lgan kemadan, oziq-ovqatlar orasidan topib olib kelgan bir shisha romidan bir necha qultumdan va yangi olib kelingan suvdan ichdilar.

Negoro hamma bilan baravar nonushta qilsada, lekin kelgusi ishlar to'g'risida qilinayotgan suhbatga sira aralashmasdan o'tirardi. Ammo u hamrohlarning gapini diqqat bilan tinglab o'tirardi, aftidan, bundan o'ziga zarur bo'lgan xulosani chiqazardi.

O'z tegishini yeb olgan Dingo g'or og'zida qorovul bo'lib yotdi. Bunday azamat qorovul borida bemalol dam olaverish mumkin edi. Qumloq qirg'oqqa qanday maxluq kelmasin, vafodor it darrov darak berishga tayyor edi.

Missis Ueldon mudrayotgan Jekni o'z tizzasiga yotqizib gap boshladi:

— Ukam Dik, — dedi u, — shu qiyin kunlarda qilgan jonbozliklaring uchun hammamiz sendan minnatdormiz. Ammo seni o'z vazifangdan hali hozircha ozod qilolmaymiz. Dengizda qanday kapitani bo'lgan bo'lsang, quruqlikda ham bizlarga shunday boshchilik qilishing kerak. Biz hammamiz senga ishonamiz. Endi nima qilishimiz kerakligini ayt.

Missis Ueldon, Nan, kekxa Tom va boshqa negrlar — hammalari Dik Senddan ko'zlarini uzmasdan, unga qarab turardilar. Hatto Negoro ham unga tikilib turgan edi. Portugaliyalik, Dik Send bu gaplarga nima der ekan, deb qiziqsinib turgan bo'lsa kerak.

Dik Send birpas o'ylanib olgandan keyin dedi:

— Dastavval, missis Ueldon, biz qayerdaligimizni bilib olishimiz kerak. Men: kemamiz Peru qirg'og'ida falokatga uchragan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Shamol bilan dengiz oqimi kemani xuddi mana shu kengliklarga qarab olib ketib qolgan bo'lishi kerak edi. Ehtimol, biz Peruning birorta kam aholili, ya'ni pampaslar bilan yondosh bo'lgan janubiy viloyatlaridan biridadirmiz. Menimcha, xuddi shunday bo'lsa kerak, chunki qirg'oqda hech odam zoti yo'q. Agar mening taxminim to'g'ri bo'lsa, odamlar yashaydigan joyga yetib olishimiz uchun ancha-muncha yo'l yurishimiz kerak bo'ladi.

— Xo'sh, unday bo'lsa, endi nima qilmoqchisan? — deb so'radi missis Ueldon.

— Menimcha, qayerdaligimizni aniq bilmasdan turib, g'orni tashlab ketmasligimiz kerak. Ertaga, dam olgandan keyin, ikkitamiz atrofni tekshirib, aniqlab kelgani razvedkaga jo'nasin. Ular bu yerdan uncha uzoqqa ketib qolmasliklari kerak va yerlik aholini qidirib topib, biz uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olgandan keyin qaytib kelishlari lozim. O'n-o'n ikki mil atrofdagi joylarda ham odam topilmasligi mumkin emas.

— Nahotki ajralishsak? — dedi missis Ueldon.

— Shunday qilmasak sira bo'lmaydi, — dedi o'smir. — Bordi-yu, hech narsani bilolmasak, agar atrofda haqiqatan ham odamzod asari bo'lmasa, nachora.. U mahalda boshqa biror chorasini topamiz!

— Razvedkaga kimlar boradi? — deb so'radi missis Ueldon birpas o'ylab turgach.

— Buni hozir hal qilamiz, — dedi Dik Send. — Har holda siz, missis Ueldon, janob Benedikt, Jek hamda Nan g'orni tashlab ketmasliklaring kerak. Bat, Gerkules, Akteon hamda Ostin sizlar bilan qolishi mumkin. Tom bilan ikkimiz razvedkaga ketamiz. Ehtimol, Negoro ham bu yerda qolishni is-

tar, — deb qo'shib qo'ydi Dik, kema oshpaziga qarab.

— Ehtimol, — deb mujmal javob qaytardi Negoro.

— Biz Dingoni birga olib ketamiz. U bizga yaxshi ish berishi mumkin, — dedi Dik.

O'z ismini eshitgan Dingo rozilik bildirganday, bir vovillab qo'ydi.

Missis Ueldon chuqur o'yga toldi. Ozgina vaqtga bo'lsa ham ajralib ketish uni tashvishga solar edi.

«Pilgrim»ning falokatga uchragani to'g'risidagi xabar yaqin o'rtada yashovchi yerlik xalqlarning qulog'iga yetgan bo'lsa, ular halok bo'lgan kemandagilardan biror narsa o'lja olish maqsadida har onda ularga hujum qilib qolishlari mumkin. Shuning uchun to'dani ajratishdan nima foyda?

Missis Ueldonning bu fikrini yaxshilab mulohaza qilib ko'rish kerak edi.

Ammo Dik Sendda bunga qarshi keskin dalillar tayyor edi.

— Bu yerlarda yashovchi yerlik hindularni yovvoyi afrikaliklar yoki polineziyaliklar bilan tenglashtirish to'g'ri emas, — dedi Dik, — ular bosg'inchilik qiladilar deyishga ham hech qanday asos yo'q.

Holbuki, qayerda turganliklarini va eng yaqin qishloq qay tomonda ekanligini va uning uzoq-yaqinligini bilmasdan turib yo'lga chiqish behuda sarsongarchilik bo'lar edi.

O'tib bo'lmaydigan qalin o'rmon orqali to'da bo'lib tavakkaliga yo'lga chiqqandan ko'ra, ajralib razvedkaga borib kelish, garchi bu ko'ngilsiz bo'lsa-da, yaxshiroq edi.

— Undan keyin, — deb so'zini tamomladi Dik, — men uzoq ajralishib ketishni xayolimga ham keltirayotganim yo'q. Basharti, Tom bilan ikkovimiz ikki kun ichida biror qishloqni yoki biror yerlik odamni uchrata olmasak, g'orga qaytib kelamiz. Ammo bunday qilasmiz! Men ishonamanki, mam-

lakatning ichkarisiga tomon yigirma mil yo'l yurmasdanoq bu yerning qayer ekanini bilib olsak kerak. Men hisobda adashgan bo'lsam ham ehtimol, chunki men astronomiya hisobi qilganim yo'q. Basharti «Piligrim» men mo'ljallagandan butunlay boshqa qirg'oqqa kelib urilgan bo'lsa, unda nima bo'ladi?..

— Ha... bu gaping to'g'ri, ukam, — deb javob qaytardi missis Ueldon xafaroq bo'lib.

— Mening taklifimga siz nima deysiz, janob Benedikt? — deb so'radi Dik Send.

— Menmi? — deb qayta so'radi Benedikt tog'a.

— Ha, siz bu to'g'rida nima deb o'ylaysiz?

— Bu haqda menda hech qanday fikr yo'q, — deb javob berdi Benedikt tog'a, — menga nima desangiz, shunga xo'p deyaveraman, nimani buyursangiz, bajaraveraman. Agar siz bu yerda bir-ikki kun qolaylik desangiz, men uchun qayta yaxshi, chunki men bundan foydalanib, entomologiya nuqtai nazaridan qirg'oqdagi hasharotlarni tekshirardim.

— Mayli, Dik, bilganingni qilaver. Tom bilan birga razvedkaga boraver, biz esa bu yerda sizlarni kutib turamiz, — dedi missis Ueldon.

— Masala hal! Men esa bu yerning hasharotlari bilan tanishgali jo'nay, — dedi Benedikt tog'a soddagina qilib.

— Shunisi borki, janob Benedikt, tag'in uzoqqa ketib qolmang, sizdan iltimos shu, — dedi Dik Send.

— Xotirjam bo'l, uka.

— Ishqilib, chivinlarni bezovta qilib biz tomonga yubormasangiz bo'lgani! — deb qo'shib qo'ydi Tom.

Birpasdan keyin entomolog qadrdon tunuka qutichasini bo'yniga osib, «ovga» jo'nab ketdi.

Negoro ham xuddi shu vaqtda g'ordan chiqib ketdi. Bu odam hamma vaqt faqat o'z g'amini yer edi. Benedikt tog'a toshlardan o'rmalab

chiqib o'rmon tomon jo'nar ekan, Negro asta-asta yurib soy bo'yiga tushdi, keyin soyni yoqalab yuqoriga qarab ketdi.

Missis Ueldon uxlab qolgan o'g'ilchasini Nan kampirning tizzasiga yotqizib qo'yib, o'zi qumloqqa chiqdi. Dik Send bilan negrlar uning ketidan chiqishdi.

Dengizda toshqin yo'qligidan foydalanib, pachoqlangan kema oldiga borish kerak edi, chunki unda sayohatchilar uchun kerak bo'ladigan ancha narsalar qolib ketgan edi.

«Piligrim» o'zini borib urgan tosh endi ochilib qolgandi. Kema esa o'zining bo'laklari orasida yonboshlab yotar edi. Kema urilib ketgan suv osti toshlari dengiz toshqinidan keyin barala ko'rinib qolgandi. Bu holdan Dik Send juda hayron qoldi, chunki u Amerikaning Tinch okean qirg'og'ida bunday qattiq toshqinlar bo'lmasligini bilar edi. Dik bunga keyingi kunlarda bo'lgan qattiq shamol sababchidir, deb o'yladi.

Missis Ueldon bilan uning hamrohlari majog'i chiqib yotgan kemani ko'rib juda xafa bo'ldilar. «Piligrim»da ular ko'p kunlarini o'tkazgan, ko'p mashaqqatlar tortgan edilar axir! Hamma ustun va yelkanlaridan ajralib, o'lik hayvondek ag'anab yotgan kemani ko'rgach, yuraklari tuz sepgandek achidi.

Har holda, dengizda butunlay xarob bo'lib ketgunicha kemaga bir borish zarur edi.

Dik Send bilan besh negr xash-pash deguncha palubaga chiqib olishdi, Tom, Gerkules, Bat va Ostinlar esa kemanding chekkasida osilib qolgan arqonlarga tirmashib, oshxonada qolgan oziq-ovqat hamda ichimliklarni tashib olish bilan band bo'ldilar. Dik katta omborga kirib ketdi. Yaxshiyamki, garchi falokatdan keyin suv ostida qolgan bo'lsa ham kemanding quyruq tomoniga suv kirmagan ekan.

Dik Send bu yerdan to'rtta yaxshi karabin mil-

tiq va yuztacha o'q topib oldi. Mabodo yerlik hindilar hujum qilib qoladigan bo'lsa, ularga qarshi turish uchun endi sayohatchilar qo'lida yaxshi qurol bor edi.

Dik Send cho'ntak fonarini olishni ham esidan chiqazmadi. Afsuski, kema burnidagi kayutada qolgan geografiya xaritalari suv ichida qolib, yaroqsiz bo'lib qolgan edi.

Dik Send kit to'shlarini ajratish uchun ishlatiladigan oltita katta pichoq ham oldi. Pichoqlar hamrohlari uchun qo'shimcha qurol edi. Shu bilan birga u Jeknig kichkina o'yinchoq multiqchasini ham olib oldi.

Kemadagi qolgan jihozlarning bir qismi falokat vaqtida yo nobud bo'lgan, yo suvda ishdan chiqqan edi. Yaqin oradagi odam turadigan joyga bir necha kunda yetib borish mumkin bo'lgandan keyin ortiqcha yuk ko'tarib yurishning hojati ham yo'q edi. Shunday qilib, oziq-ovqat bilan qurol-aslaha sayoxatchilar uchun yetarli edi.

Dik Send endi ketay deb turganida, missis Ueldonning, kemadagi pullarni olib olish kerak, degan maslahati esiga tushib qoldi. Dik atigi besh yuz dollar pul topdi, xolos, holbuki, missis Ueldonning o'ziga qarashli puli ham bundan ko'ra ancha ko'proq edi.

Bu yerga Dik Senddan oldin faqat Negoro kelishi ehtimol edi. Missis Ueldon bilan kapitan Gulning yig'ib yurgan pullarini Negorogina olishi ehtimol edi. Bu o'g'irlikda bo'lak hech kimdan gumonsirash mumkin emasdi. Shunday bo'lsa ham, Dik Send boshda ikkilanib turdi. Bu kishi to'g'risida Dik nima bilardi? Shunigina bilardiki, Negoro odamlarga aralashmay yolg'iz yurishni yaxshi ko'rardi va boshqalarning boshiga tushgan kulfatdan miyig'ida kulib qo'yardi, xolos. Ammo buning uchun uni jinoyatchi deb bo'larmidi? Dik nima deyishini ham bilmas edi. Xo'p, bo'lmasa o'g'irlikda kimdan gumonsirash mumkin edi. Negrlardan biri-

danmi? Ammo ular juda halol odamlar edi va shu bilan birga ular, qirg'oqqa chiqqandan keyin missis Ueldon bilan Jekning yonidan hech qayoqqa jilmagan edilar. Negoro esa qirg'oqda anchagina o'rallishib yurdi. Yo'q, Negorodan bo'lak hech kim o'g'irlagan emas, o'g'ri xuddi o'shaning o'zi!

Dik Send qaytib kelishi bilanoq Negoroni so'roq qilishga va zarur bo'lsa, hatto uni tintishga ham qaror berdi. Dik bu masalani bir yoqlik qilishga as-toydil kirishmoqchi bo'ldi!

Kun botay deb qolgandi. Birpasdan keyin quyosh ufq orqasiga yashirindi. Oz-moz qosh qoraygan payt bo'lib turdi-da, keyin birdaniga qo'orong'i tushdi. Bu narsa Dik Sendning, Kozerok tropigi bilan ekvator orasidagi bir yerda falokatga uchragan, degan taxminini tasdiqlar edi.

— Kechasi bo'ron bo'ladi! — dedi keksa Tom, osmonda uymalashgan qora bulutlarni ko'rsatib.

— Ha, shunday bo'lishi ehtimol, hazilakam shamol bo'lmaydiganga o'xshaydi, — deb Dik ham uning gapiga qo'shildi. — Bo'lsa bo'laversin, bizning nima ishimiz bor! Kemamiz halokatga uchragan bo'lsa, endi shamol bizlarga nima zarar yetkazardi.

Shunday qarorga kelishdiki kechasi qorong'i bo'lganidan negrlar g'or og'zida navbatma-navbat qorovullik qildilar. Buning ustiga Dingoning ziyrakligi ham sayohatchilar uchun bir dalda edi.

Missis Ueldon, Dik va negrlar g'orga qaytib kelishdi. Benedikt tog'a haligacha kelmagan ekan.

Pahlavon Gerkules bor kuchi bilan bir hay-haylab chaqirgan edi, entomolog tik qoyadan shoshib-pishib tushayotganida boshini toshga urib olishiga sal qoldi.

Benedikt tog'aga juda alam qilgan edi. U kuni bo'yi sargardon bo'lib yurib, kolleksiyasiga qo'sha oladigan birorta ham yangi hasharot topolmadi. Mingoyoq va boshqa shu singari ko'poyoqlilardan boshqa hech gap yo'q ekan! Ma'lumki, Benedikt tog'aga ko'poyoqlilarning sira keragi yo'q edi!

— Esizgina, — deb achindi u, — besh ming milcha yo'l yurib, qattiq bo'ronlarga, falokatga uchrab, qanchadan-qancha azob uqubatlar chekib, hasharot muzeyini bezaydigan bitta ham oltioyoqli amerika hasharoti topilmasa-ya? Bir miri hayon, uch miri ziyon degan gapning o'zginasi bo'ldi-ya!

Shundan keyin Benedikt tog'a bu la'nati qirg'oqda bir minut ham turmaganim bo'lsin, dedi va hammaning darrov yo'lga chiqishini talab qildi.

Missis Ueldon bu soqolli go'dakni zo'rg'a ovutdi. Missis Ueldon bugun bo'lmasa ertaga topilib qolar o'sha oltioyoq, deb uni umidvor qilar va tinchitar edi. Keyin kun chiqqanga qadar mizg'ib olish uchun hammalari g'orga kirib ketishdi.

Tom qarasa, Negoro hali ham kelmabdi.

— Qayoqqa yo'qoldi ekan! — deb so'radi missis Ueldon.

— Bizning nima ishimiz bor, — dedi Bat.

— Menimcha, bu kishi doim ko'z o'ngimizda bo'lgani qayta yaxshiroq, — dedi missis Ueldon.

— Rost aytasiz, missis Ueldon, — dedi Dik Send unga, — lekin o'z ixtiyori bilan bizdan ajrab ketgan bo'lsa, uni qaytib kelishga majbur qilib bo'lar-midi? Kim biladi deysiz, bizdan qochib ketishiga, ehtimol, biror sabab bordir?

Dik missis Ueldonni bir chekkaga chaqirib, unga pul to'g'risida o'z shubhasini aytdi. Missis Ueldon Dikning gaplariga sira ajablanmadi, chunki missis Ueldonning o'zi ham Negorodan gumon qilar edi.

— Basharti, Negoro qaytib kelsa, — dedi missis Ueldon, — demak, u o'g'irlagan pullarni biror joyga yashirib qo'ygan bo'ladi. Menimcha, biz uni jinoyat ustida qo'lga tushira olmaganimiz uchun, yaxshisi, shubhamizni bildirmasdan, o'zimizni bilmaganga solib yuraverishimiz kerak.

Missis Ueldonning gapi to'g'ri edi, shuning uchun Dik ham bunga qo'shildi.

Shu payt Gerkules Negoroni bir necha marta

hay-haylab chaqirdi, lekin Negorodan dom-darak bo'lmadi. Ehtimol, u uzoqlab ketib qolib, Gerkulesning ovozi eshitmagandir yoki qaytib kelishni xohlamagandir.

Negrlar portugaliyalikning ketib qolganiga sira ham achinmas edilar. Ammo, missis Ueldon aytganidek, Negoroning yiroqda yurganidan ko'ra, yaqinda turgani xavfsizroq edi.

Shunisi qiziqki, qanday qilib Negoro bunday notanish joylarda yolg'iz o'zi yurishga qo'rqmadiykin?

Adashib qolmaydimikan? Balki u qorong'ida g'orning qayerdaligini topolmay yurgandir?

Missis Ueldon bilan Dik Send nima deyishlarini ham bilmasdilar. Nima bo'lsa ham, Negoroni deb shuncha odamning shirin uyqudan qolishlari to'g'ri kelmasdi.

Qumloqda chopib yurgan Dingo birdaniga qattiq vovillay boshladi.

— Dingo nimaga vovillayapti ekan? — deb so'radi missis Ueldon.

— Hozir bilib kelaman, Negoro qaytib kelayotgandir, — dedi Dik Send.

Shu ondayoq Dik, Gerkules, Ostin va Bat g'or-dan tashqariga chiqishdi. Lekin qirg'oqda hech kim yo'q edi. Dingo ham boshqa vovillamadi.

Dik Send bilan unig hamrohlari g'orga qaytib kirishdi. Negrlar navbatchilikni o'zaro taqsim qilishdi, shundan keyingina yo'lovchilar uyquga ketishdi.

Faqat missis Ueldonning ko'ziga uyqu kelmasdi. Zoriqib kutilgan yer nechukdir umidlarni puchga chiqardi, yo'lovchilar uchun xavfsiz sharoit tug'dirmadi va osoyishtalik keltirmadi.

O' n b e s h i n c h i b o b

GERRIS

Ertasiga, 7-aprel kuni, tong mahalida navbatchilik qilayotgan Ostin Dingoning vovillay-vovillay soy tomonga tolpinganini ko'rib qoldi. Missis Ueldon, Dik Send va negrlar o'sha zahotiyog g'ordan yugurib tashqariga chiqishdi.

— Dingo odam yoki biror maxluq borligini sezgan bo'lsa kerak, — dedi Dik Send.

— Har holda, u Negoro bo'lmasa kerak, — dedi kekxa Tom, chunki Dingo uni juda irillab qopadi.

— Bo'lmasam, Negoro qayerda qoldi ekan? — deb so'radi missis Ueldon Dikka ko'z qirini tashlab. Bunday qarashning ma'nosini Dikning o'zigina tushunardi. — Basharti bu Negoro bo'lmasa, boshqa kim bo'lishi mumkin?

— Hozir bilamiz, missis Ueldon, — dedi Dik. Keyin Bat, Ostin va Gerkulesga qarab: do'stlar, miltiq va pichoqlaringizni olib, mening ketimdan yuringlar, — dedi.

Dik Senddan ko'rib, har bir negr kamariga pichoq qistirdi va qo'liga miltiq oldi. Keyin to'rttalasi miltiqlarini o'qlab, tez-tez yurib, soy bo'yiga qarab ketishdi.

Missis Ueldon, Tom va Akteonlar g'or og'izda qolishdi. Bu yerda kichkina Jek uxlar, unga Nan kampir qarab turardi.

Quyosh endi chiqib kelmoqda. Quyosh hali baland qirg'oq orqasida bo'lganidan, qumloq qirg'oq soya edi. Ammo g'arb tomondan ufqqacha dastlabki oftob nuri tushgan dengiz jilvalanib turardi.

Dik Send bilan uning hamrohlari qirg'oq bo'yidan tez yurib borib, suv boshiga yaqinlashaverdilar.

Dingo ularni o'sha yerda kutib turar edi. It turgan joyidan sira qimirlamasdan hadeb vovillagani vovillagan edi. Demak, u hech shak-shub-

hasiz, biror odamni ko'rgan yo odam borligini sezgan.

Kekxa Tomning aytgani to'g'ri chiqdi: Dingo o'zining qadimgi dushmani Negoroga emas, boshqa kishiga vovillayotgan ekan.

Qandaydir bir odam soy bo'yidagi qoyatoshdan pastga qarab tushib kelmoqda edi. U qumloqqa tushgandan keyin, qopong'ich itdan qo'rqqan bo'lsa kerak. Dingoni ovuta-ovuta asta oldinga yurib kelaverdi.

— Bu odam Negoro emas, — dedi Gerkules.

— Yerliklardan bo'lsa kerak, — dedi Dik Send. — Uning kelishi yaxshi bo'ldi, bekorga uzoq joylarga razvedkaga borishdan qutulamiz. Qayerdaligimizni endi bilib olamiz!

To'rttovlari ham miltiqlarini yelkalariga osib, notanish odamga ro'para boraverdilar.

Notanish odam ularni ko'rib juda hayron qoldi. U odam qirg'oqning bu joyida odamlarni uchrataman deb o'ylamagan bo'lsa kerak. U hali «Piligrim»ning majaqlanib yotganini ko'rmagan bo'lsa kerak, yo'qsa, falokatga uchragan kemanding odamlariga uchrashi unga ajib tuyulmasdi.

Kechasi esa to'lqinlar kemanding korpusini pacha-pacha qilib tashlabdi: endi suv betida uning ayrim bo'laklari suzib yurar edi.

Ro'parasidan kelayotgan odamlarning qurollangan ekanliklarini ko'rgach, notanish odam to'xtab qoldi va hatto bir qadam orqaga tisarildi. Uning miltig'i orqasiga osilgan edi; u miltig'ini bir qo'liga oldi-da, yelkasiga osib qo'ydi.

Ammo Dik salom berganday qilib, unga qo'lini siltadi. Notanish kishi bularning beozor odam ekanligini angladi shekilli, bir oz ikkilanib turgandan keyin ularning oldiga keldi.

Dik Send uni ko'zdan kechira boshldai.

Ko'rinishidan qirg yoshlarga borgan bu norg'ul odamning soch-soqoli oqara boshlagan, ko'zlari o'tkir va ziyrak, yuzlari oftobdan qorayib ketgan

edi. O'rmon va dalalarda doim ochiq havoda ko'chmanchilik qilib yuruvchi odamlarning afti oftobda ana shunday qoraygan bo'ladi. Notanish kishining boshida kattakon shlyapa, ustida kalta charm to'n bilan shim, qo'njlari tizzasigacha keladigan uzun etiklarining poshnasiga har qadam bosganda jingillab turadigan katta-katta shporlar taqib olgan edi.

Dik Send bu odam Janubiy Amerikaning qalin o'tli keng dalalarida yashovchi yerliklardan emasligini darhol fahmlab qoldi. Bu odam uzoq yarim yovvoyi mustamlaka o'lkalarda ko'p uchraydigan g'alati avantyuristlardan bo'lishi mumkin edi, xolos. O'zini tutishi va sariq soqolini ko'rib, Dik uni ingliz-sakson millatidan bo'lsa kerak, deb taxmin qildi. Har holda u yerlik hindlardan ham, ispanlardan ham emas edi.

Dik Sendning mo'ljali to'g'ri chiqdi desa bo'ladi, chunki Dik Sendning inglizcha salomiga notanish odam sof inglizcha talaffuz bilan:

— Xush kelibsiz, yigitcha! — deb javob qaytardi.

U yaqinroqqa kelib, Dik Sendning qo'lini qattiq qisib ko'rishdi.

Notanish odam negrlarga boshini egib salom berib qo'ya qoldi.

— Siz inglizmisiz? — deb so'radi u Dikdan.

— Amerikalikman, — deb javob qaytardi Dik.

— Janubdanmisiz?

— Yo'q, shimoldan.

Notanish odam bu javobdan xursand bo'lganday edi. U yana amerikaliklarga xos qiliq bilan Dikning qo'lini qisib qo'ydi.

— Mumkinmi sizdan so'rasam, do'stim, qanday qilib bu qirg'oqqa kelib qoldingizlar?

Dik Send uning savoliga javob qaytarishga ulgurmasdanoq notanish odam boshidan shlyapasini olib, qumloqdan asta yurib kelib uning ro'parasida to'xtagan missis Ueldonga egilib ta'zim qildi.

Uning savoliga missis Ueldon o'zi javob qaytardi.

— Taqsir, — dedi u, — bizlar falokatga uchradik. Kuni kecha kemamiz qirg'oq yonidagi suv osti toshlariga urilib parchalanib ketdi.

Notanish kishining chehrasida achinish alomati paydo bo'ldi. U dengiz tomonga o'girilib, falokat izlarini ko'rmoqchi bo'lib ko'z yugurtirdi.

— Kemamizdan asar ham qolmadi. Bugun kechasi to'liqlar uni pacha-pacha qilib tashlabdi, — dedi Dik Send.

— Dastlab bizlar qayerdaligimizni bilmogchimiz, — deb qo'shib qo'ydi missis Ueldon.

— Janubiy Amerika qirg'og'idasizlar, — deb javob berdi notanish kishi. Missis Ueldonning savolidan u taajjublanganday edi. — Nahotki qayerdaliklaringizni bilmasangizlar?

— Shundoq, taqsir, — deb javob qaytardi Dik Send. — Biz shubhada edik, chunki bo'ron kemani yo'ldan adashtirishi ehtimol edi va turgan joyimizni aniqlashim mumkin bo'lmadi. Lekin men sizdan, bizning turgan joyimizni aniq aytib berishingizni so'rayman. Peru qirg'og'ida bo'lsak kerak, shundaymi?

— Yo'q, do'stim, yo'q! Bir oz janubroqdasizlar. Sizlar Boliviya qirg'og'ida falokatga uchrabsizlar¹. Aniqroq qilib aytganda, Boliviyaning janubida, Chili chegarasiga yaqin joyda turibsizlar.

— Bu qanday ko'rfaz? — deb so'radi Dik Send, shimol tomonga imo qilib.

— Buning nomini men bilmayman, — deb javob berdi notanish odam. — Men bu mamlakatning markaziy viloyatlarini yaxshi bilaman, chunki men u yerlarda ko'p yurganman, ammo bu qirg'oqqa birinchi marta kelishim edi.

Dik Send notanish odamdan eshitgan xabarlar ustida xayol surib ketdi. U ko'pdan ajablanmadi. Dengiz oqimining kuchini bilmagani sababdan,

¹ Boliviya 1879—1884-yillarda Chili bilan bo'lgan urushda Tinch okean qirg'oqlarini boy berib qo'ydi. O'sha vaqtdan buyon Boliviyaning dengizga chiqadigan yo'li yo'q.

hisobda adashish turgan gap edi. Ammo uning xatosi o'zi o'ylaganicha unchalik katta emas ekan. Dikning mo'ljalicha, «Pilgrim» janubiy kenglikning yigirma yettinchi bilan o'ttizinchi graduslar orasidagi biror joyda halokatga uchragan bo'lishi kerak edi. Haqiqatda esa yigirma beshinchi gradusdan ekan.

Dik Pasxi oroli yonida oxirgi aniq hisobni qilib olganidan keyin kema uzoq yo'l yurdi, shuning uchun ham hisobda bunchalik oz xato bo'lishi ajablanarlik emas.

Notanish odamning gapi to'g'riligiga ishonmaslikka Dikda hech qanday asos yo'q edi. «Pilgrim»ning Quyi Boliviya falokatga uchraganini bilgandan keyin Dik, bu qirg'oqning sahro ekanligiga ajablanmay qo'ydi.

— Taqsir, — dedi u notanish kishiga, — demak, sizning gapingizga qaraganda, biz Lima¹ shahridan ancha uzoqda ekanmiz-da?

— Shundoq, Lima juda uzoqda... Lima hu anavi yoqda! — deb shimol tomonni ko'rsatdi kishi qo'li bilan.

Negoroning zim-g'oyib bo'lganidan ehtiyot bo'lishga majbur bo'layotgan missis Ueldon bu odamni juda diqqat bilan kuzatar edi. Ammo missis Ueldon bu odamning qiliqlarida ham, javoblarida ham hech qanday shubha ko'rmadi.

— Taqsir, — dedi u, — agar savolim noo'rinroq bo'lsa kechirasiz. Siz boliviyalik bo'lmasangiz kerak-a?

— Men ham siz kabi amerikalik bo'laman, missis...

Notanish kishi uning nomi aytilishini kutib, jim bo'lib qoldi.

— Missis Ueldon, — dedi Dik.

— Mening nomim Gerris, — dedi notanish kishi. — Men Janubiy Karolinada tug'ilganman.

¹ Lima — Peru poytaxti.

Vatanimni tashlab ketib, Boliviya sahrolarida yashayotganimga yigirma yilcha bo'lib qoldi. Vatandoshlarimni ko'rganimga juda xursandman.

— Siz, mister Gerris, Boliviyaning shu qismida doim turasizmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Yo'q, missis Ueldon, men janubda, Chili chegarasiga yaqin yerda turaman. Lekin hozir shimoli-sharq tomonga, Atakamaga ketayotirman.

— Demak, biz Atakama sahrosiga yaqin joyda ekanmizda? — deb so'radi Dik Send.

— Xuddi shundoq, do'stim. Bu sahro hov anavi ko'rinayotgan tog'larning naryog'idan boshlanadi.

— Atakama sahrosi-ya! — deb takrorladi Dik Send.

— Shundoq, do'stim, — dedi Gerris. — Atakama sahrosi Janubiy Amerikaning eng ajoyib va eng kam tekshirilgan qismi bo'lsa kerak. Bu yer mamlakatning boshqa yerlariga qaraganda butunlay boshqacha...

— Sahroda yolg'iz o'zingiz yurishga qo'rqmay-sizmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Oho, men undan necha martabalar o'tib yurganman! — deb javob qaytardi Gerris. — Bu yerdan ikki yuz mil narida akamga qarashli katta bir ferma — San-Feliche nomli gatsiyenda bor. Men savdo ishlarim bilan akamnikiga tez-tez borib turaman. Agar men bilan birga bormoqchi bo'lsalaring — marhamat, u yerda sizlarni juda yaxshi kutib olishadi. U yerdan Atakama shahriga yetib olish ham oson bo'ladi: akam sizlarga jon deb ot-arava ham beradi.

Gerris bu taklifi bilan o'zini go'yo chin qalbdan yaxshilik tilovchi qilib ko'rsatar edi. U javob kutmasdan, missis Ueldonga qarab yana gapira boshladi:

— Bu negrlar sizning qullaringizmi? — deb Tom bilan uning sheriklarini ko'rsatdi.

— Hozir Qo'shma Shtatlarda hech qanday qullar

yo'q, — deb shartta javob qaytardi missis Ueldon. — Shimoliy shtatlarda quldorlik allaqachonq bitirilgan va janubiy shtatlar ham shimoliy shtatlardan ibrat oldilar.

— Ha, to'g'ri, — dedi Gerris, — 1862-yilgi urush bu muhim masalani hal qildi, buni men esimdanda chiqarib qo'yibman-da. Buning uchun janoblardan kechirim so'rayman, — deb piching qilib qo'ydi u. — Quldorlik huquqi bekor qilingandan keyin janubiy shtatlardagi amerikaliklar negrlar bilan ana shunday qo'pol muomala qilar edilar. — Ammo men bu jentlmenlarning sizda xizmat qilayotganlarini ko'rib, o'ylabmanki...

— Ular menda xizmat qilgan emaslar va xizmat qilayotganlari ham yo'q, taqsir, — deb uning gapini bo'ldi missis Ueldon.

— Biz jon deb xizmat qilishga tayyormiz, missis Ueldon, — debi keksa Tom. — Ammo mister Gerrisga ma'lum bo'lsinki, biz hech kimning quli emasmiz! To'g'risini aytsam, men ilgari haqiqatan ham qul bo'lganman. Olti yoshligimda meni Afrikada quldorlar ushlab olib, Amerikaga sotib yuborishgan. Biroq o'g'lim Bat men ozod bo'lganimdan keyin tug'ilgan, boshqa sheriklarim ham ozod kishilarning bolalari.

— Buning uchun sizlarni tabriklayman, — dedi Gerris, lekin uning ovozi missis Ueldonga masxara qilganday tuyuldi. — Jumladan, ozod Boliviya mamlakatida ham qullar yo'q. Demak, sizlar Yangi Angliya shtatlarida¹ yurganingiz singari, bu yerlarda ham bemalol sayohat qilib yuraverishlaring mumkin.

Shu payt g'ordan Jek bilan birga Nan chiqib keldi. Kichkina Jek ko'zlarini uqalardi.

U onasini ko'rish bilan uning oldiga chopib keldi.

¹ Yangi Angliya — AQShning shimoli-sharqidagi sanoat shtati shunday deb aytiladi.

Missis Ueldon o'g'lini bag'riga bosib, asta o'pdi.

— Qanday ajoyib yigitcha-a! — dedi Gerris, Jekka yaqin kelib.

— Bu mening o'g'lim, — dedi missis Ueldon.

— O', missis Ueldon! Bu mushkul safar vaqtida ikki yoqlama azob tortgan ekansiz-da! O'zingiz uchun ham, o'g'lingiz uchun ham!

— Endi bular hammasi o'tib ketdi, mister Gerris. Hammamizdek Jek ham sog'-salomat.

— Bu ajoyib o'g'ilchangizni bir o'psam maylimi? — deb so'radi Gerris.

— Marhamat, taqsir.

Ammo mister Gerris kichkina Jekka unchalik yoqmagan bo'lsa kerak, u onasining pinjiga yana qattiqroq yopishdi.

— Ana xolos! — dedi Gerris. — Meni yoqtirmayapsan shekilli. Yo mendan qo'rqupsanmi-a?

— Kechiring uni, taqsir, Jek juda tortinchoq bola, — deb shoshib izoh berdi missis Ueldon.

— Xo'p, yaxshi, keyinchalik sen bilan yaxshi oshna bo'lib olamiz, — deb qo'ydi Gerris. — Gatsiyendaga borsak, senga bitta chiroyli poni topib beraman, o'shanda sen bilan inoqlashib ketamiz.

Ammo «chiroyli poni» ham Jekka ta'sir qilmadi — u boyagicha onasining pinjiga tiqilib, yuzini yashiraverdi.

Missis Ueldon gapni boshqa yoqqa burishga shoshildi, chunki u Jekning hurkaklik qilishi yaxshilik qilmoqchi bo'lgan kishini xafa qilmasa, deb qo'rqar edi.

Dik Send Gerrisning taklifi ustida o'ylab qoldi. Ikki yuz mil yo'l yurish missis Ueldon bilan Jekni juda toliqtirib qo'yishi mumkin, chunki hech qanday ot-ulov yo'q edi.

Dik bu masala to'g'risidagi shubhasini Gerrisga bildirdi-da, bunga javoban nima deyishini qiziqib, kutib turdi.

— Darhaqiqat, bu juda uzoq safar, — dedi

Gerris. — Lekin qirg'oqdan yuz qadamcha narida, o'rmon ichida mening otim bor. Men uni jon deb missis Ueldonga beraman. Erkaklar piyoda ketaveradi, ammo shuni aytib qo'yayki, piyoda yurish ham uncha qiyin emas, kishi uncha charchamaydi ham. Aytmoqchi, ikki yuz mil deganimda, hozir o'zim yurib kelgan aylanma yo'l — soy bo'yidan yurishni nazarda tutib aytyapman. Agar biz o'rmon ichidan to'ppa-to'g'ri kesib o'tsak, yo'limiz eng kamida sakson mil qisqaradi. Har kuni o'n mildan yo'l yursak, hash-pash deguncha gatsiyendaga yetib olamiz.

Missis Ueldon Gerrisga tashakkur bildirdi.

— Agar minnatdorlik bildirishni istasalar, mening chin ko'ngildan qilgan taklifimni qabul qilasizlar, — deb javob qaytardi Gerris. — Rostini aytsam, bu o'rmondan sira yurganim yo'q, ammo qiynalmasdan yo'l topaman albatta, chunki men o'rmonlarda yurib o'rganib qolganman. Lekin oziq-ovqat masalasi sal chatoqroq. Men San-Felichega yetib olgunimcha faqat o'zimga yetadigan qilib oziq-ovqat olganman, xolos.

— Mister Gerris, — dedi missis Ueldon, — bizda oziq-ovqat bemalol, marhamat qiling, jon deb baham ko'raveramiz.

— Unday bo'lsa juda soz, missis Ueldon! — deb xitob qildi Gerris. — Demak, hamma narsa joyida, endi yo'lga chiqaversak ham bo'lar ekan.

Gerris otini olib kelish uchun o'rmonga bormoqchi bo'lib turganida, Dik Send unga yana savol berib to'xtatdi.

Dikning qirg'oqni tashlab ketgisi kelmas va yuzlarcha mil keladigan hamda odam bolasi oyoq bosmagan qalin o'rmonzor ichiga kirib ketishni unchalik istamas edi. Dik Send haqiqiy dengizchi bo'lganidan, dengiz bo'yidan sira ketgisi kelmasdi.

— Mister Gerris, — dedi u, — Atakama sahrosi orqali bir yuz yigirma mil yurishga hayron bo'lib turibman. Undan ko'ra qirg'oq bo'ylab borsak

bo'lmaydimi? Shimol tomonigami, yo janub tomonigami — menga baribir, ishqilib, dengiz bo'yidagi eng yaqin shaharga yetib olsak bo'lgani.

Gerris andak xafa bo'lib, qovog'ini solintirdi.

— Do'stim, — dedi u, — bu qirg'oqni unchalik yaxshi bilmasam ham, menimcha, dengiz qirg'og'idagi eng yaqin shahar ham bu yerdan uch yuz yoki to'rt yuz mil keladi...

— Shimol tomonida shunday, — dedi Dik, uning gapini bo'lib, — lekin janub tomonda-chi?..

— Janub tomonda, — deb e'tiroz bildirdi Gerris, — Chilining o'zigacha borish kerak. Demak, yo'l baribir qisqarmaydi. Bundan tashqari, men sizning o'rningizda bo'lganimda, Argentina respublikasiga qarashli sahrolarga yaqinlashmaslikka harakat qilardim. Afsuski, u yoqqa boradigan bo'lsalaring men sizlarni boshlab borolmayman...

— Chilidan Peruga qatnaydigan kemalar bu qirg'oqqa yaqin joydan o'tishmaydimi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Yo'q, — deb javob berdi Gerris. — Ular ochiq dengizdan yurishadi. Ehtimol, sizlar bu kemalardan bittasini ham uchratmagan bo'lsalaring kerak?

— To'g'ri aytasiz, — dedi missis Ueldon. — Xo'sh, Dik, mister Gerrisga yana boshqa savoling yo'qmi?

— Bittagina savolim bor, missis Ueldon, — deb javob berdi o'smir. Uning hech rozi bo'lgisi kelmas edi. — Men mister Gerrisdan, San-Fransiskoga jo'nashimiz uchun biz qaysi bir portga borishimiz kerakligini bilmoqchi edim.

— Rostini aytsam, do'stim, men bu savolga javob berishga ojizlik qilaman, — dedi Gerris. — Faqat shuni bilamanki, San-Feliche qo'rg'onidan sizlarni Atakama shahariga jo'natish yo'lini topamiz. U yerdan esa...

— Mister Gerris, — deb uning so'zini bo'ldi missis Ueldon, — taklifim Dikka yoqmayapti, deb o'ylamang!

— Yo'q, missis Ueldon, yo'q! — deb xitob qildi Dik Send. — Men mister Gerrisning taklifini jon deb qabul qilaman. Birdan-bir achinadigan yerim shuki, «Piligrim» yo bir necha gradus shimolroqqa, yo janubroqqa kelib halokatga uchramabdi-da. U mahalda biz portga yaqinroq bo'lardik, vatanimizga qaytish ham osonroq bo'lardi va mister Gerrisni ham ovora qilmasdik.

— Hech ovorgarchiligi yo'q, men juda xursandman, — dedi Gerris. — Men, bu yerda vatandoshlarni uchratish qiyin deb aytib edim. Shuning uchun bunday arziyas xizmatni o'tashga jon-dildan tayyorman.

— Biz sizning taklifingizni qabul qilamiz, mister Gerris, — dedi missis Ueldon. — Ammo men sizni otingizdan mahrum etishni istamayman. Men piyoda ham ketaveraman...

— Men sizdan ham yaxshiroq yuraman, — dedi Gerris ta'zim qilib. — Men cho'l-biyobonlarda yurib o'rganganman, shuning uchun safarimiz hech qayerda ham men tufayli to'xtalib qolmaydi. Yo'q, missis Ueldon, otga kichkina Jek bilan siz minib olasiz. Biz yo'lda akamning xizmatkorlaridan birortasini uchratsak kerak. Ular otliq bo'lsa, jon deb otlarini bizga beradi.

Dik Send Gerrisning taklifiga qarshilik qilaversa, missis Ueldonni xafa qilib qo'yishini ko'rdi.

— Mister Gerris, — dedi u, — qachon yo'lga chiqamiz?

— Shu bugunoq, do'stim! — deb javob qaytardi Gerris. — May oyining birinchi kunlaridan boshlab bu yerda yog'ingarchilik boshlanadi. Shuning uchun o'shangacha San-Feliche qo'rg'oniga yetib olishimiz kerak. O'rmon ichidan o'tadigan yo'l — eng yaqin va hatto eng xavfsiz yo'l. Ko'chmanchi hindu qabilalari o'rmonga kamdan-kam kiradilar: ular qirg'oq bo'yida bosqinchilik qilishni yaxshi ko'radilar.

— Tom, sizlar ham, do'stlarim, — dedi Dik,

negr'larga qarab, — hammamiz darrov safarga tayyorgarlik ko'rishimiz kerak. Oziq-ovqatdan eng yengillarini olib, qoplarga solamiz. Hamma yukni o'rtada taqsim qilamiz.

— Mister Dik, — dedi Gerkules, — agar istasangiz, hamma yukni bir o'zim ko'tarib olaman.

— Yo'q, do'stim Gerkules, — deb javob qaytardi Dik Send, — yaxshisi, hammamiz bo'lishib olamiz.

— Gerkules, siz pahlavon odamga o'xshaysiz, — dedi mister Gerris, go'yo Gerkules sotishga qo'yilgan molday uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirib chiqib, — Afrikadagi qullar bozorida siznig bozoringiz chaqqon bo'lardi-da.

— O'zinga yarasha bo'lardi, — dedi kulimsirab Gerkules. — Ammo xaridorlar meni ushlash uchun rosa ovora bo'lishardi-da.

Shundan keyin yo'lga chiqish uchun hamma hozirlik ishiga kirishdi. Tayyorgarlik uzoqqa cho'zilmadi, chunki dengiz qirg'og'idan San-Feliche gatsiyendasiga borish uchun eng ko'p deganda o'n kun yurilardi, xolos.

— Mister Gerris, siznikida mehmon bo'lishimizdan oldin, siz ham bizning mehmonimiz bo'lsangiz, — dedi missis Ueldon. — Biz bilan birga nonushta qilish malol kelmasa kerak deb o'ylayman.

— Jonim bilan, missis Ueldon, jonim bilan, — deb muloyimlik bilan javob qaytardi Gerris.

— Nonushta birpasda tayyor bo'ladi.

— Juda soz, missis Ueldon. Ungacha men otimni olib kela qolay. U allaqachon ovqatini yeb bo'lgandir.

— Birga borsak nima deysiz, mister Gerris? — deb so'radi Dik Send.

— Bemalol, do'stim, — deb javob berdi Gerris, — birga boraylik, men sizga daryoning dengizga kelib quyiladigan joyini ko'rsataman.

Ikkovlari ketishdi.

Shu vaqtda missis Ueldon hasharotshunos olimni topib kelgani Gerkulesni yubordi. Benedikt tog'a atrofda nimalar bo'layotganiga sira parvo qilmas edi. U o'rmon yoqasida hasharot qidirib yurar, lekin hech narsa topolmasdi.

Gerkules uni zo'rlab olib keldi. Missis Ueldon Benedikt tog'aga, mamlakat ichkarisiga jo'nashga qaror qilindi va o'n kuncha o'rmon ichidan piyoda yurib borishga to'g'ri keladi, deb xabar berdi.

Benedikt tog'a, men hoziroq jo'nashga tayyorman, dedi. U butun Janubuiy Amerikani boshdan-oyoq piyoda yurib chiqishga rozi edi, ishqilib, yo'lda unga hasharotlar terib yurishga yo'l qo'yishsa bo'lgani.

Keyin missis Ueldon Nan kampir bilan birga nonushtaga mazalik bir ovqat tayyorladi. Albatta, uzoq safarga jo'nashdan oldin yaxshilab ovqatlanib olish aslo zarar qilmasdi.

Shu vaqt ichida Gerris bilan Dik qirg'oq bo'ylab daryochaning etak tomoniga kelishdi va daryo oqimi bo'ylab yurib bir necha yuz qadam yuqoriga chiqishdi. U yerda daraxtga boylab qo'yilgan otni ko'rishdi. Ot egasini ko'rish bilan kishnab yubordi.

Bu juda ajoyib bir ot edi, lekin qaysi zotdanligini Dik bilmadi. Ammo tajribali kishi uning ingichka bo'ynini, kichkina boshini, uzun sag'rinini va nishab yelkalarini ko'rish bilananoq, zotli arab oti ekanligini darrov bilardi.

— Buning qanday baquvvat jonivor ekanini ko'rib turibsiz, do'stim, — dedi Gerris. — Unga bemalol ishonaversa bo'ladi.

Gerris otini daraxtdan yechib oldi-da, tizginidan ushlaganicha, Dikdan oldinda yurib, g'orga jo'nadi. Dik uning ketidan yurib, o'rmon va daryo bo'ylariga diqqat bilan qarab bordi. Ammo u shubhalanadigan hech narsa ko'rmadi.

G'orga yaqinlashay deganida birdaniga Gerrisga savol berib qoldi:



— Mister Gerris, bugun kechasi siz Negoro degan portugaliyalik bir odamni uchratmadingizmi?

— Negoro deysizmi? — deb qayta so'radi Gerris, go'yo hech narsaga tushunmagan odam singari, — kim ekan u Negoro?

— U «Pilgrim» kemasining oshpazi edi, — deb javob qaytardi Dik Send. — Allaqayoqqadir g'oyib bo'lib qoldi.

— Dengizga cho'kib ketmadimikin? — deb so'radi Gerris.

— Yo'q, yo'q, — dedi Dik. — Kecha kechqurun biz bilan birga edi, kechasi yo'q bo'lib qolibdi. U daryonnig yuqori tomoniga chiqib ketgan bo'lmasin yana. Siz ham o'sha yoqdan kelayotganingiz uchun sizdan so'ragan edim.

— Hech kimni uchratganim yo'q. — dedi Gerris. — Agar oshpazingiz o'rmonning ich-ichiga kirib ketgan bo'lsa, adashib qolishi ehtimol... Ehtimol, yo'lda unga yetib ham olarmiz.

— Ehtimol, ehtimol... — deb g'uldirab qo'ydi Dik.

Dik Send bilan Gerris g'orga qaytib kelishganda nonushta tayyor bo'lgan edi. Gerris ovqatga och bo'riday tashlandi.

— Demak, yo'lda ochdan o'lmas ekanmiz, — dedi u. — Aytganday, menga do'stim aytgan haligi portugaliyalik bechoraning holi nima kecharkin?

— Eh-he! — deb uning gapini bo'ldi missis Ueldon. — Dik Send sizga Negoroning g'oyib bo'lganini aytdimi?

— Ha, missis Ueldon, — deb javob qaytardi Dik. — Men mister Gerris uni uchratmadilarmikin deb bilmoqchi edim.

— Yo'q, uchratmadim, — yedi Gerris. — Kelinglar, endi bu qochoq haqidagi gapni bir yoqqa qo'yib, o'z ishlarimiz to'g'risida gaplashaylik. Siz qachon istasangiz, missis Ueldon, shunda yo'lga chiqaveramiz.

Ovqatdan keyin har kim o'ziga ajratilgan yukni oldi. Missis Ueldon Gerkulesning yordami bilan otga mindi. Jek o'zining o'yinchoq miltig'ini orqasiga osib va bunday ajoyib otni bergan kishiga tashakkur bildirishni ham esidan chiqarib qo'yib, onasining oldiga o'tirib oldi.

U onasiga, «bu misterning otini» o'zim haydayman, deb darrov tizginni qo'lga oldi.

Onasi, mayli, degandan keyin, Jek o'zini otryadning boshlig'i, deb his etdi.

O' n o l t i n c h i b o b

YO'LDA

Kichkina to'da daryo yoqalab uch yuz qadamcha yurishi bilan odam bolasi oyoq bosmagan qalin o'rmon ichiga kirib ketdi. Ular bu o'rmon ichidagi egri-bugri so'qmoqlaridan o'n kun yo'l yurishlari kerak edi.

Dik Sendning qo'rqishiga hech qanday o'rin bo'lmasa ham qalin o'rmon ichida yuragi shuvillab orqasiga tortib ketdi.

Aksincha, allaqanday xatarlardan beshbattar qo'rqishi lozim bo'lgan missis Ueldon, — chunki u ayol kishi va ayni vaqtda ona edi, — juda xotirjam edi. U pampaslarda yashovchi yerlik qabilalar ham, yirtqich hayvonlar ham qo'rqinchli emasligini juda yaxshi bilardi, uning xotirjam bo'lishiga birinchi sabab ham ana shu edi. Ikkinchidan, Gerris ishonchli yo'l boshlovchi bo'lganidan, u o'rmonda adashib qolishdan ham qo'rqmas edi.

Kichkina to'daning boshida Dik Send bilan Gerris borar edi: Dik Send karabin bilan, Gerris esa stvoli uzun miltiq bilan qurollangan edilar.

Ular ketidan karabin va pichoq bilan qurollangan Bat bilan Ostin borar edilar.

Ularning orqasidan otga minib missis Ueldon bilan kichkina Jek borar edi.

Ular ketidan Tom bilan Nan kampir borar edi.

To'daning eng ketida karabin ushlagan Akteon bilan beliga bolta qistirgan Gerkules borar edi.

Ular safarning oxirigacha mumkin qadar shu tartibda borishlari kerak edi.

Dingo to'daning u boshidan bu boshiga izg'ib chopib yurar edi. Itning doim qandaydir iz qidirganini Dik Send fahmlab qoldi. «Piligrim» falokatga uchrab, odamlar quruqlikka chiqqandan beri Dingo g'alati bir ahvolga tushib qolgandi, doim besaranjom edi. Ko'p vaqtlari u nimadandir zorlanib qattiq vovillab qo'yardi.

Itning bunday g'alati ahvolga tushib qolganini hamma bilsa-da, lekin buning sababini hech kim aytib berolmasdi.

Dingo singari Benedikt tog'a ham odamlar qatori bir zaylda yurolmasdi. Buning uchun uni boylab qo'yish kerak bo'lar edi. U bir yonida tunuka qutisi, ko'kragida lupasi, qo'lida to'ri bilan to'g'riqanotlilar, to'rqanotlilar va boshqa «qanotlilarni» toparmikanman, deb o'rmonning ich-ichiga kirib ketar va o'tlar ustida emaklab yurar edi.

Safar boshida undan xavotir olgan missis Ueldon uni aytib kelish uchun odam yuborgani yuborgan edi. Ammo bu olimni sira gapga ko'ndirib bo'lmas edi.

— Benedikt tog'a, — dedi oxiri toqati toq bo'lgan missis Ueldon, — toza tinkamni quritdiniz-ku. So'nggi marta aytaman: bizdan ajralib hech qayoqqa ketmang!

— Kechirasiz, jiyanim, — deb qarshilik ko'rsatdi indamas hasharotshunos, — basharti, biror hasharotga ko'zim tushib qolsa-chi...

— Bordi-yu, hasharotga ko'zingiz tushib qolsa, hasharotni bezovta qilmang, yo'qsa, men hasharot qutingizni tortib olib qo'yaman! — deb do'q qildi missis Ueldon unga.

— Hasharot qutimni nega olib qo'yarkan-siz-a? — deb xitob qildi Benedikt tog'a, go'yo mis-

sis Ueldon uning ko'zlarini o'yib olishga tayyor turgandek.

— Shundoq! To'ringizni ham olib qo'yaman! — dedi missis Ueldon.

— To'rimniyam-a, jiyan? Ko'zoynagimniyam olib qo'ymoqchidirsiz balki? Yo'q! Haddingiz sig'maydi! Bekor gap!

— Ha, ko'zoynagingizni olib qo'yaman! Yaxshiyamki, o'zingiz aytdingiz, mening esimda ham yo'q edi. Sizni bir oz tartibga o'rgatish uchun ko'zoynagingizni olib qo'yib, sizni ko'r qilib qo'ymasam, bo'lmaydiganga o'xshaydi.

Bu uch yoqlama do'qdan keyin qaysar Benedikt tog'a atigi bir soatcha jim yurdi. Birpasdan keyin yana u yoqdan-bu yoqqa chopa boshladi. Uning hatto ko'zoynaksiz, to'risiz va qutisiz ham hasharotlar ketidan qolmasligi ma'lum bo'lib qolgach, qo'l siltab, o'z holiga qo'yib berildi.

Gerkules, Benedikt tog'aga ko'z-quloq bo'lib turaman, deb va'da berdi. Missis Ueldon Benedikt tog'a nodir hasharotlari bilan qanday muomala qilayotgan bo'lsa, u bilan ham xuddi shunday muomala qilishni azamat negrga topshirdi. Boshqacha aytganda, agar kerak bo'lib qolsa, Gerkules uni ushlab olib o'z joyiga olib kelishi lozim edi.

O'sha buyruqdan keyin Benedikt tog'a bilan hech kimning ishi bo'lmay qo'ydi.

Yuqorida aytilganidek, kichkina to'da yaxshi qurollangan va har qanday tasodifga qarshi turishga tayyor edi. Ammo Gerrisning aytishicha, ko'chmanchi hindu qabilalaridan tashqari, bu o'rmonda boshqa hech qanday dushman uchramasligi kerak edi. Har holda, har qanday dushmani yaqin yo'latmaslik uchun ko'rilgan choralar yetarli edi.

Qalin o'rmon ichidagi so'qmoq yo'llar yirtqich hayvonlarning iziga o'xshardi va ulardan yurib borish ham qiyin edi.

Gerrisning, to'da har kuni o'n ikki soat yo'l yur-

sa, o'rta hisob bilan besh-olti mil yo'l bosishi mumkin, degan mo'ljali to'g'ri chiqdi.

Havo juda yaxshi edi. Oftob bulutsiz osmonning qoq tepasiga ko'tarilgan. Oftob nurlari yerga tik tushardi... Yalang joylarda oftobning issig'iga toqat qilib bo'lmasdi, qalin o'rmon ichida issiq uncha bilinmasdi. Gerris o'z hamrohlarining diqqatini bunga jalb qildi.

O'rmondagi daraxtlarning aksari turini missis Ueldon va boshqa sayohatchilar bilmas edilar.

Bunda bauginiya, ya'ni «po'lat daraxtlar» Hindistondagi kino daraxtiga o'xshash molompi daraxti o'sardi; uning yengil va pishiq yog'ochidan eshkak yasaladi. Daraxtlarning tanasidan xushbo'y yelim shirasi oqib yotardi. Goh joylarda «sariq bo'yoq» o'simligi ham ko'rinib qolardi. Bu o'simlikda bo'yoq moddasi juda ko'p bo'ladi. Bunda diametri o'n ikki fut keladigan bakaut daraxtlari ham bor, lekin oddiy g'vayak daraxtlariga qaraganda, bakaut daraxtining qimmatini pastroq bo'ladi.

Dik Send Gerrisdan bu daraxtlarning nomini surishtira boshladi.

— Janubiy Amerikada hech bo'lgan emasmissiz? — deb savol berdi Gerris javob qaytarish o'rniga.

— Hech qachon bo'lgan emasman, — dedi Dik Send. — Dunyoni ko'p aylandim, ammo bu joylarda sira bo'lgan emasman. To'g'risini aytsam, Boliviyaning yaxshi biladigan odamlar bilan ham uchrashganim yo'q.

— Kolumbiya, Chili yoki Patagoniyada ham bo'lganingiz yo'qmi? — deb so'rayverdi Gerris.

— Hech ham bo'lganim yo'q...

— Missis Ueldon ham qit'aning bu o'lkalarida bo'lgani yo'qmi? — deb surishtiraverdi Gerris. — Amerikalik ayollar shunday sayohatchi bo'ladilarki...

— Yo'q, mister Gerris, — deb javob qaytardi missis Ueldon. — Mening erim ish bilan faqat Yangi Zelandiyagagina qatnab yuradi, shuning

uchun men ham boshqa mamlakatlarda bo'la olmadim. Bizning ichimizda Boliviyaning hech kim ko'rgani yo'q.

— Qaytaga yaxshi, missis Ueldon, hamrohlaringiz bilan ajoyib joylarni tomosha qilasiz. Bu yerning tabiati Peru, Braziliya hamda Argentinaning tabiatidan katta farq qiladi. Boliviyaning hayvonoti bilan o'simliklari tabiatshunoslarni tang qoldiradi. Shunday ajoyib bir joyda halokat yuz bergani uchun juda xursand bo'lishingiz kerak!

Sayohatchilardan hech kim bu yerni bilmagani uchun Gerris o'rmondagi o'simliklarning ajoyib xillarini ko'rsatib borardi.

Benedikt tog'a esa faqat entomolog bo'lganiga pushaymon qilar edi. Attang, botanika olimi bo'lganida qanday yaxshi bo'lardi-ya! Bu o'rmondan qanchadan-qancha yangi o'simliklarni kashf qilgan bo'lardi! Bunda o'simliklar shunchalik ko'p ediki, asti qo'ying. Olimlar esa, Yangi Dunyoning tropik o'rmonlarida bunday o'simliklar bo'lishini xayollariga ham keltirmas edilar! Botanika olimi bo'lganida Benedikt tog'aning shuhrati butun olamga ketar edi. Afsuski, Benedikt tog'a, o'simliklar dunyosini yaxshi ko'rmas va uni hech bilmasdi ham. Bu hali bir yoqda tursin, Benedikt tog'a gullarni hatto yomon ko'rar edi, chunki ba'zi bir gullar, uning aytishicha, hasharotlarni qirib tashlarmish!

Borgan sari botqoqlik joylar ko'p uchrayverdi. Oyoq ostida shovillab suv oqib yotadi. Bu suvlar bir-biriga qo'shilaverib, sayohatchilarimizga tanish bo'lgan boyagi daryo tarmoqlariga borib quyilardi. Bu daryoning ba'zi tarmoqlari shunchalik sersuv va keng ediki, narigi qirg'oqqa o'tish uchun qulay joy qidirishga to'g'ri keldi.

Daryonig pastqam va botqoq lablarini qamish va qo'g'alar bosib ketgan. Bu o'simliklar Gerrisning aytishicha, papirus deb atalar ekan.

Botqoqliklardan o'tgandan keyin, sayohatchilar yana katta-katta daraxtlar ichiga kirdilar. Torgina so'qmoq o'rmon ichida ilon iziday bo'lib ketgan edi.

Gerris, missis Ueldon bilan Dikka ajoyib eben daraxtini ko'rsatdi. Undan odatdagilardan ko'ra yaxshi va pishiq qora yog'och chiqar ekan. To'da dengiz qirg'og'idan anchagina olislab ketgan bo'lsa ham, o'rmonda ko'pgina mango daraxtlari uchrab turdi. Bu daraxtlarnig ildizidan to shoxigacha — butun tanasini temiratki o'simligi chirmab olgandi. Mango daraxti quyuq soya tashlaydi va juda ham shirin meva qiladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Gerrisning aytishicha, yerlik xalqlar uni parvarish qilib o'stirishga yuraklari betlay olmas ekan, chunki yerliklar orasida: «Kimda-kim mango daraxti o'stirsa, o'sha kishi o'ladi» degan irim bor ekan.

Ular, tush paytida birpas dam olgandan keyin, daryo yoqalab ketgan baland tog'ning etagidagi adirlarga chiqa boshladilar.

Bu yerlarda o'rmon siyraklasha boshlagan va daraxtlarning soyasi ham unchalik quyuq emas edi. Ammo yo'l baribir yaxshilanmadi, chunki qalin o'sgan baland o'tlar yo'lni to'sib turar edi. Bu yer Sharqiy Hindistondagi odam kirmas qalin changal-zorning xuddi o'zginasi edi. O'simliklar daryoning dengizga quyiladigan joyidagi kabi unchalik qalin bo'lmasa ham, lekin yangi va eski dunyoning mo'tadil o'lkalaridan ko'ra qalinroq edi. Har yer-har yerda indigonoska o'simliklari ko'rinar edi. Gerrisning aytishicha, bu o'simlik juda beor bo'lib, agar dehqon yeriga sal qaramay qo'ysa, yerni darrov shu o't bosib ketar ekan. Yevropada tikanakka qanday beparvo bo'lishsa, bu o'simlikka ham bu yerda shunday qarashar ekan.

Ammo o'rmonda kauchuk daraxtlari hech ham yo'q edi. Holbuki, *Ficus prinoidea*, *Citrus* elastica, *Cecropia peltata*, *Collinsia utilis*, *Cameraria latifolia*, *siphonia elastica* va ayniqsa, o'simliklari Janubiy Amerika o'rmonlarida odatda ko'p uchrab

turguvchi edi. Sayohatchilar birorta ham kauchuk daraxti ko'rinmaganiga juda hayron edilar.

Dik Send o'z do'sti Jekka kauchuk daraxtini ko'rsataman deb allaqachon va'da bergan edi. Bola juda xafa bo'lgan edi, chunki u koptok, rezinka o'yinchoqlar, gapiradigan rezinka masxarabozlar — hammasi ham shu kauchuk daraxtida o'zidan-o'zi o'saverar ekan, deb o'ylar edi.

Jek o'z dodini onasiga aytib shikoyat qildi.

— Sabr qil, jonginam, — dedi Gerris unga. — Bizning qo'rg'onimiz atrofida bundaqangi daraxtlar to'lib yotibdi.

— Ular asl rezinkadan qilinganmi? — deb so'radi kichkina Jek.

— Rezinkaning o'zginasidan! Hozircha mana bu nokdan bir yeb ko'r-chi.

Gerris shu so'zlarni aytar ekan, daraxtdan xuddi shaftoliga o'xshagan bir necha dona meva uzib oldi.

— Bu mevalar zaharli emasmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Yo'q, missis Ueldon, mana o'zim ham yeb ko'rsataman. Bu mango daraxtining mevasi bo'ladi, — dedi Gerris, haligi mevani oq tishlari bilan tishlab yeya boshlab.

Jek ham ko'p o'ylanib turmasdan mevani yedi. Bu mavsumda boshqa mevalar hali pishganicha yo'q edi, shuning uchun «nok» muddaodagidek ish bo'ldi.

— Juda shirin ekan, juda, — dedi bola, og'zi to'la «nok» yeb turib.

— Agar yaxshi bola bo'lsam, Dik menga, rezinka daraxtini ko'rsataman, deb edi. Rezinka daraxtini ko'raman!

— O'g'lim, birpas sabr qil! — deb bolani ovutmoqchi bo'ldi missis Ueldon. — Mister Gerris senga va'da qildilar-ku...

— Undan boshqa, — deb xiqillab yig'ladi Jek. — Dik menga va'da qilib ediki...

— Dik senga tag'in nima va'da qilib edi? — deb so'radi Gerris jilmayib.

— Pashsha qushni ko'rsataman deb va'da qilib edi!

— Pashsha qushni ham ko'rasan, do'stim! Lekin hozir emas, keyinroq ko'rasan, — deb javob qildi Gerris.

Jekning juda chiroyli zig'irdek bo'lgan pashsha qushini ko'rsatinglar, deb turib olishi ham to'g'ri edi, chunki ular sayohat qilayotgan mamlakatda bu qushchalar juda ko'p edi. Hindlar bu qushchalarni juda siylab «oftob nuri», «gullar shohi», «osmon guli», «kunduz kuni yarqiraydigan guldasta» der edilar...

Bu ajoyib qushchalar bir yuz ellik xil bo'lar ekan. Yerlik hindlar ularning har bir xiliga yarasha she'riy nomlar qo'yishgan ekan.

Biroq, hamma sayohatchilar: Boliviya o'rmonlarida pashsha qush juda ko'p, deb aytgan bo'lsalar ham, lekin kichkina Jek Gerrisning quruq va'dasi bilan qanoatlanib qo'ya qoldi, Gerrisning aytishicha, hali ular dengizdan olislanib ketganlari yo'q, pashsha qushlar esa, dengiz havosini yoqtirmas ekan. Gerris Jekka: — Bu qushchalar odamdan sira qo'rqmaydi, San-Feliche qo'rg'onida ular qanotlarini qoqib «ter-ter» deb uchgani uchgan, — dedi.

— Eh, qachon yetamiz u yerga! — deb hovliqardi kichkina Jek.

San-Feliche qo'rg'oniga tezroq yetib borish uchun yo'lda ozroq to'xtash kerak edi. Shuning uchun missis Ueldon bilan sheriklari yo'lda kamroq to'xtashga qaror berdilar.

O'rmonning ko'rinishi o'zgara boshladi. O'rmon ichida yalang joylar uchray boshladi. Qalin o'sgan o'tlar ichidan pushti va ko'k rangli toshlar (granit bo'lmasin yana?) ko'rinardi. Qay bir adirlarda sasaparel o'simligi uchrar edi. Bular orasidan o'tish juda qiyin edi. Undan ko'ra qalin o'rmon ichidagi

tor so'qmoqlardan yurish sayohatchilarga yaxshiroqday tuyular edi.

Kun botguncha ular taxminan sakkiz mil yo'l yurishdi. Birinchi kun yo'l yurishdan sayohatchilar unchalik charchamadilar va hech qanaqa voqea ham yuz bermadi. Albatta, bu faqat birinchi kungina edi, shuning uchun kelgusida qiyinchiliklar bo'lishi turgan gap edi. Hammaning roziligi bilan dam olgani to'xtashga qaror qilindi. Bir kecha tunab ketish uchun ataylab lager qurib o'tirishning hojati yo'q edi. Shuning uchun ular qoq yerda yotishaverdilar. Yerlik qabilalar yoki yirtqich hayvonlarnig hujum etish ehtimoli yo'q bo'lganidan, har ikki soatda bittadan qorovul almashinib tursa, bemalol bo'laverar edi.

Sayohatchilar tunagani eng katta mango daraxti tagiga joylashishdi. Bu daraxtning har yoqqa tarqalgan shoxlari va qalin barglari go'yo qo'lda qilingan katta gobirga o'xshardi.

Sayohatchilar bu daraxt tagiga joylashib ham ulgurmasdan, daraxt tepasida allaqanday qiy-chuv boshlandi.

Qarasalar, bu daraxt tepasida eng mahmadana, eng to'polonchi va eng yovvoyi to'tiqushlar uyasi bor ekan. Ammo shuni aytish kerakki, Yevropa hayvonot bog'larida saqlanadigan to'tiqushlarga qarab, to'tiqushlar shunaqa bo'lar ekan, deyish unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

To'tiqushlar shunaqangi to'polon ko'tarishdiki, Dik Send ularni miltiq otib haydamoqchi ham bo'ldi. Ammo Gerris, o'rmonda borligimizni bildirish yaxshi emas, degan bahona bilan uni to'xtatdi.

— Shovqin-suron qancha kam bo'lsa, yo'l ham shuncha xatarsiz bo'ladi, — dedi Gerris.

Kechki ovqat ham tayyor bo'ldi — buning uchun gulxan yoqishning ham hojati bo'lmadi. Ovqat — konserva bilan suxaridan iborat edi. Sayohatchilar yaqin joydagi buloqdan mazali suv ichdilar. Meva

bo'lsa shu yerning o'zida — mango daraxti shoxlarida osilib yotar edi, to'tiqushlarning hayqirig'iga qaramasdan, uzib olinaverdi.

Sayohatchilar ovqat yeb bo'lguncha qorong'i ham tushib qoldi. Soyalar asta-sekin yerdan daraxt tepasiga ko'tarildi. Osmon yorug'ligida barglar anchagacha ko'rinib turdi. Onda-sonda yulduzlar charaqlay boshladi. Ular barglar orasidan mo'ralab turuvchi gulga o'xshar edi. Qorong'i tushishi bilan shamol ham to'xtadi, tinch havoda barglar sira qimirlamas edi. Hatto to'tiqushlar ham jimib qoldi. Tabiat uyquga kirgan va butun tirik mavjudotni ham uxlashga chaqirar edi.

Tunashga hozirlik ko'rish ham juda oson bo'ldi.

— Kechasiga gulxan yoib qo'ysakmikin? — deb so'radi Dik Send Gerrisdan.

— Hojati yo'q, — dedi Gerris. — Hozir kechalari issiq, bu azamat daraxt esa biz uchun panoh. Demak, bizga sovuq ham tegmaydi, shudring ham tushmaydi. Men yana boyagi gapimni takrorlayman, do'stim: bilintirmasdan, asta ketaverishimiz kerak. Miltiq otishning ham, gulxan yoqishning ham keragi yo'q.

— Men bilaman, — deb gapga aralashdi missis Ueldon, — siz aytgan ko'chmanchi qabila-larni nazarga olmaganida, mister Gerris, amerikalik hindulardan qo'rqmasak ham bo'laveradi... Biroq, o'rmonda to'rt oyoqli ko'chmanchilar ham bor... Ularni gulxan yoqib haydash yaxshi emasmi?

— Missis Ueldon, bu yerdagi to'rt oyoqlilar uchun gulxan yoqib o'tirish arzimaydi. Odamlar ularga ro'para kelishdan qo'rqmaydi, balki ular odamga ro'para kelishdan qo'rqadi.

— Biz o'rmondamiz, — dedi kichkina Jek, — o'rmonda esa yirtqich hayvonlar ko'p bo'ladi.

— Har xil o'rmonlar bo'ladi, yirtqich hayvonlar ham har xil bo'ladi, og'ayni, — deb javob qaytardi Gerris, kulib. — O'zingni kattakon bog'da yurganday his qilaver. Bilsang, yerlik hin-

dular o'z mamlakatini «dunyo jannati» deb atashlari bejiz emas.

— Bu yerda ilon yo'qmi? — deb so'radi Jek.

— Yo'q, o'g'lim, — deb javob qaytardi missis Ueldon. — Bu yerda hech qanday ilon bo'lmaydi. Bemalol uxlayver.

— Arslonlar-chi? — deb so'radi Jek.

— Hech qanaqa arslon yo'q, chirog'im, — deb javob qaytardi Gerris.

— Yo'lbarslar-chi?

— Onangdan so'ra-chi, Janubiy Amerikada yo'lbars borligini eshitganmikan?

— Hech eshitganim yo'q, — dedi missis Ueldon.

Bu gaplarni ittifoqo eshitib qolgan Benedikt tog'a:

— Yangi dunyoda arslonlar ham bo'lmaydi, yo'lbarslar ham, deganlari to'g'ri. Ammo ular o'rniga qoplonlar bor.

— Ular ham yomonmi? — deb so'radi Jek.

— Bel — dedi Gerris. — Yerliklar ular bilan yakkama-yakka olishaveradilar. Biz ko'pmiz, qurol-larimiz ham yomon emas. Gerkulesning bir o'zi ikki qo'li bilan ikkita qoplonni bo'g'ib tashlaydi.

— Hoy, Gerkules, tag'in uxlab qolma! Agar meni qoplon tishlayman desa...

— Men uning o'zini tishlab olaman! — deb javob berdi Gerkules, katta tishlarini irjaytirib.

— Siz qorovullik qilasiz, Gerkules, — dedi Dik Send, — sizdan keyin men qorovullik qilaman.

— Yo'q, kapitan Send, — deb qo'ymadi Akteon. — Gerkules, Bat, Ostin hamda men qorovullikni qilaveramiz. Siz bu kechasi dam olishingiz kerak.

— Rahmat, Akteon, — dedi Dik Send, — lekin, bugun men...

— Bugun hech nima qilmaysan, bu azamat yigitlarning gapiga quloq sol! — dedi missis Ueldon.

— Men ham qorovul bo'laman, — deb bidirladi kichkina Jek, ko'zlari yumilib ketayotganiga qaramasdan.

— Xo'p, mayli, — dedi unga onasi bola bilan aytishib o'tirishni istamasdan.

— Agar bu o'rmonda arslonlar bilan yo'lbarslar bo'lmasa, bo'rilar bordir axir? — deb bijirladi bolasi tushmagur.

— Bo'ru, lekin asl bo'ri emas, chiyabo'rilar, ularni o'rmon iti deyishadi, — deb javob qaytardi Gerris.

— Chiyabo'rilar ham qopadimi? — deb so'radi Jek.

— Sening Dingo iting chiyabo'rini bir yamlab yutib yuboradi!

— Chiyabo'rilar ham bo'ri ekan-da, — dedi Jek qattiq esnab olib, — bo'lmasam, nega ularni bo'ri deyishadi?..

Shu gaplarni aytdi-yu, bolasi tushmagur, daraxt tagida o'tirgan Nan kampirning qo'lida uxlab qoldi. Missis Ueldon uxlab qolgan o'g'lini cho'lpillatib bir o'pdi-da, uning yoniga yotib, charchagan ko'zlarini yumgancha uyquga ketdi.

Shundan bir necha minut keyin Gerkules Benedikt tog'ani sudrab, odamlar yotgan joyga olib keldi. Benedikt tog'a yaltiroq tillaqo'ng'iz tutgani o'rmonga jo'nab qolmoqchi bo'lgan edi, bo'lmadi. Orqasidagi ikki joyidan ko'kish yorug'lik sochadigan bu hasharotlar Janubiy Amerikada juda ko'p uchraydi. Ularni yerliklar bezak uchun sochiga taqadi. Benedikt tog'a shunaqa qo'ng'izlardan anchasini tutmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin Gerkules bunga sira yo'l qo'ymadi. U olimni o'z holiga qo'ymasdan, sudrab joyiga olib kelib qo'ydi. Gerkules juda intizomli yigit edi, u biron buyruq olsa, uni yeriga yetkazmagunicha qo'masdi, buyruqni harbiychasiga aniq bajarardi. Shunday qilib, Gerkules bir qancha tillaqo'ng'izlarni hasharot-shunos olimning qutisiga tushishdan saqlab qoldi.

Qorovullik qilayotgan Gerkulesdan boshqa sayohatchilar tez orada qattiq uyquga ketdilar.

Tropik mamlakatlardagi o'rmonlarda tunab qolgan sayohatchi hamda ovchilarni sahar paytidagi g'alati bir shovqin-suron uyqudan uyg'otib yuboradi. Bu shovqin-suron ichida kukulagan, qirqiragan, qag'illagan, vovillagan, chiyillagan, qaqillab kulgani ovozlari eshitilardi.

Maymunlar tong otishini shu xilda kutib olishar ekan. Tropik o'rmonlarida kichkina «mirikina», yalpoq burunli sapaju, kul rang yungli «mono» degan maymunlarni uchratish mumkin. Yerlik xalqlar ularning terisidan miltiq g'ilofi qilishadi. Bu o'rmonlarda to'rt oyoqli jonivorlardan ham ko'p xillari uchraydi.

Maymunlarning eng g'alatisi baqiroq maymunlar bo'ladi. Baqiroq maymunlarning kallasi cho'ziq, peshanasi cho'kkan, tumshug'i esa uzun bo'ladi. Ularning uzun quyruq'i yurishiga yordam beradi.

Kun chiqa boshlashi bilan baqiroq maymunlarning boshlig'i cho'zib-cho'zib ashulasini aytadi. Keyin boshqalari unga jo'r bo'lishadi. Ertalabki ashula ovozi necha kilometr joylardan eshitiladi.

Ammo qandaydir noma'lum bir sabab bilan bugun baqiroq maymunlar ham, boshqa maymunlar ham odatdagicha ertalabki ashulalarini aytishmadi.

Maymunlarning bunday qilg'i yerliklarni juda xafa qilishi mumkin edi. Xafa bo'lishlari ularning ashulalarini yaxshi ko'rganlaridan emas, aksincha, maymunlarni ovlashga juda ishqivoz bo'lganlaridan edi, chunki maymunlarning go'shtini va ayniqsa, surlangan go'shtini yerliklar juda yaxshi ko'radilar.

Dik Send bilan uning hamrohlari baqiroq maymunlarning qilg'ini bilmas edilar. Bilganlarida,

maymunlarning nima uchun jim bo'lib qolishiga diqqat qilgan bo'lardilar. Sayohatchilar birin-ketin uyg'onisha boshladilar. Kechasi tinch o'tdi va ular yaxshi dam olishdi.

Eng oldin kichkina Jek uyg'ondi. U Gerkulesni ko'rishi bilanoq, kechasi bo'ri yemadingmi, deb so'radi. Kechasi hech qanday bo'ri kelmagan ekan, shuning uchun Gerkules unga, mening qornim juda ochiqib qoldi, dedi.

Sayohatchilarning qorni ochib qolgan edi, Nan kampir nonushta tayyorlay boshladi.

Kechqurun nima yeyishgan bo'lsa nonushtaga ham o'shaning o'zi edi. Ammo ertalabki salqin havvo hammaning ishtahasini ochib yuborgandi, shuning uchun hech kim ovqat tanlab o'tirmadi. Kunduzi uzoq yo'l yurish kerakligini bilib, har kim qornini to'yg'azib olishga harakat qilar edi. Umrida birinchi marta bo'lsa kerak, hatto Benedikt tog'a ham ovqat yeyish odamga foydali ekanligini sezib, nonushtani paqqos tushirdi. Ammo u hammaga eshittirib, «men bu mamlakatga qo'limni cho'ntagimga solib, o'ynab yurish uchun kelganim yo'q» dedi. «Agar Gerkules mening qo'ng'iz va boshqa hasharotlar ovlashimga hadeb xalaqit beraveradigan bo'lsa, keyin mendan xafa bo'lib yurmasin», dedi u.

Uning do'qi Gerkulesga unchalik ta'sir qilmadi desa bo'ladi. Shundy bo'lsa ham missis Ueldon Gerkulesni bir chekkaga chaqirib, «keksa go'dak bilganini qilaversin, lekin uni nazardan qochirmasang bo'lgani» deb aytib qo'ydi.

— Benedikt tog'ani ishdan qoldirish kerak emas, — dedi missis Ueldon, — chunki har kimning o'ziga yarasha hunari bo'ladi.

Ertalab soat yettida ular kechagi tartib bilan sharq tomonga qarab yo'lga chiqdilar.

Yo'l o'rmon ichidan o'tar edi. Odam qadami yetmagan bu yerlarni iqlimning issiqligi va suvning ko'pligi juda serunum qilgandi. Yassi tog'lar tropik doiralar yaqinida cho'zilib yotardi. Bu yer-

larda yoz oylarida oftob nuri tik tushadi. Yerning ustki qavati juda isib ketsa ham, lekin pastki qavati namligicha qolaveradi. Shuning uchun ham bu yerlarda qalin o'rmonlar o'sar edi.

Dik Send juda hayron bo'ldi: Gerrisning aytishiga qaraganda, otryad hozir pampaslardan o'tib bormoqda edi, holbuki, kvishna qabilasidagi yerliklarning tilida «pampa» so'zi «tekislik» degan ma'noni bildiradi.

Dik o'z xotiriga unchalik ishonmasdi, lekin pampaslar yog'ingarchilik davrida qushqo'nmas bilan qoplanadigan, o'rmonsiz va suvsiz keng tekislik — qir ekanini yaxshi bilar edi. Issiq vaqtlar kelganda bu qushqo'nmas chakalak singari baland o'sib ketib, o'tib bo'lmas qalin to'qayzorga aylanadi. Pampasda mayda daraxtlar ham, yantoqlar ham o'sadi.

Dikning hozirgi ko'rganlari aslo pampaslarga o'xshamas edi. O'tib bo'lmas qalin o'rmon hamma tomonda ufqqacha yoyilib yotar edi. Yo'q, Dik pampaslar bunday deb sira ham o'ylamagan edi! Gerrisning, Atakama tog'i juda ajoyib bir joy, deb aytgani ehtimol to'g'ridir. Bu joylar to'g'risida Dik nimalarni bilardi? Uning bilishicha, Atakama — Janubiy Amerikaning dengiz qirg'og'idan to And tizma tog'larigacha cho'zilib yotgan keng cho'l-biyobon edi.

Shu kuni Dik pampaslarning bunday g'alati ko'rinishidan juda hayron bo'layotganini Gerrisga bildirdi. Ammo Gerris unga hamma narsani tushuntirib berib, shubhadan chiqardi. U Dikka bu o'lka to'g'risida juda ko'p ma'lumotlarni gapirib berib, Boliviya mamlakatini yaxshi bilishini ko'rsatdi.

— To'g'ri aytasiz, do'stim, — dedi u Dik Sendga, — siz o'qigan kitoblarda qanday deyilgan bo'lsa, haqiqiy pampaslar ham xuddi o'shandaqa bo'ladi. Pampaslar — unumsiz cho'l bo'lganidan, undan yurish juda qiyin. Pampaslar xuddi Shimoliy Amerika sahrolariga o'xshaydi, farqi shuki, sahro-

da botqoqliklar ko'proq uchraydi. Ha, Rio-Kolorado, Orinoko va Venesuela pampaslari xuddi shunday cho'ldan iborat. Ammo biz hozir shunday joyda turibmizki, uning ko'rinishiga men ham hayron qolayotirman. Atakama yassi tog'ini birinchi marta to'g'ri kesib o'tishim, odatda men uni aylanib o'tar edim. Ilgarilari bu yerlarda bo'lmagan bo'lsam ham, lekin Atakama pampaslarga sira o'xshamas ekan, deb eshitgan edim. Pampaslarga kirish uchun tizma tog'lardan oshib o'tish kerak, chunki pampas qit'aning Atlantika okeanigacha borgan sharqiy qismida turadi.

— Biz And tog'laridan ham oshib o'tamizmi? — deb hovliqib so'radi Dik Send.

— Yo'q, do'stim, yo'q, — deb jilmaydi Gerris. — Men «oshib o'tish kerak» dedim, «oshib o'tamiz» deganim yo'q. Xotirjam bo'ling, biz bu yassi tog'lardan nariga o'tmaymiz, bu tog'larning eng baland cho'qqisi bir yarim ming futdan oshmaydi. Bizning shu ahvolimiz bilan And tog'laridan oshib o'tishga urinishimizning o'zi ham aqlga sig'maydigan ish bo'lar edi. Men bunga sira yo'l qo'ymasdim.

— Daryo bo'ylab borganimizda yaxshiroq bo'laridida, — dedi Dik Send.

— Ha, ming marta yaxshiroq bo'lar edi, — deb ma'qulladi Gerris, — lekin San-Feliche gatsiyendasi And tog'larining bu yog'ida. Demak, u yoqdan yurganda ham, bu yoqdan yurganda ham, yo'limizni to'sadigan hech qanday katta to'siqlar uchramaydi.

— Siz bu o'rmonlarda birinchi yurishingiz ekan, adashib ketishdan qo'rqmaysizmi? — deb so'radi Dik Send.

— Hecham qo'rqmayman, — deb javob qaytardi Gerris. — Albatta, bu o'rmon xuddi qirg'og'i yo'q dengizga o'xshaydi. Ammo men o'rmonlarda ko'p yurganman va shuning uchun yo'ldan adashmayman. Buning uchun men qaybir daraxtlardagi shoxlarning qay tomondaligiga, undagi barglarning qay tomonga qarab o'sishiga, yerdagi tuproqqa, yerning baland-pastligiga va boshqa ming xil alo-

matlarga qarab amal qilaman. Bularni siz bilmaysiz ham. Xavotir bo'lmang, men sizlarni to'ppa-to'g'ri kerakli yerga oborib qo'yaman.

Gerris juda ishbilarmon kishiday gapirar edi.

Otryad boshida Dik Send bilan Gerris shunday masalalarni muzokara qilib borardilar va ularning gapiga hech kim aralashmasdi ham. Dikda Gerris qoniqtira olmagan ba'zi bir shubhali masalalar qolgan bo'lsa ham, Dik ularni ichida saqlashni lozim ko'rdi.

8, 9, 10, 11 va 12-aprel kunlarida hech qanday hodisa bo'lmadi. Otryad o'n ikki soatda o'rtacha hisob bilan sakkiz-o'n mildan ortiq yo'l yurolmas edi. Qolgan vaqt yo'lda to'xtash, ovqatlanish va kechasi dam olish uchun ketar edi. Sayohatchilar bir oz horigan bo'lsalar ham, lekin umuman olganda, hammalari sog'salomat edilar.

Kichkina Jek hadeb o'rmonda yuraverishdan zerika boshladi. Kattalar o'z va'dasining ustidan chiqmadilar. «Rezinka daraxt», pashsha qushlarning bittasini ham ko'rolmadi. Dunyoda eng chiroyli to'ti qushlar shu o'rmonda bo'lishi kerak edi. Vatani shu yer bo'lgan havo rang dumli, och-sariq araraunalar qayoqqa ketdi ekan? Uzun dumli, kamalak rangli arakanglar qayoqda ekan? Aksari tropik zonalarda bo'ladigan yashil to'ti qushlar qayerda qoldi ekan? Agar yerlik hindularning gapi rost bo'lsa, hozir ham allaqachonlar tuxumi qurib ketgan qabilalarning tilida gapirayotgan qaqildoq qushlar qayoqqa ketdiykin?

Jekka to'ti qushlardan qizil dumli, kul rang jako degan to'ti qushni ko'rsatishdi, xolos. O'rmonda bunaqa to'ti qushlardan ko'p edi. Ammo Jek jakoni ilgari ham ko'p ko'rgan. Bu to'ti qush butun dunyoga tarqalgan. Bu qushlar ikkala qit'ada ham bema'ni vaqillashlari bilan odamlarning qulog'ini bitirgan edilar. Yassi tilli to'ti qushlar orasida jako inson tilini eng yaxshi o'rganadigan bo'ladi.

Shuni ham aytish kerakki, Jek bilan birga

Benedikt tog'a ham ko'p zorlanar edi. Hozir uning o'rmonda izg'ib yurishiga hech kim to'sqinlik qilmasa ham, lekin u kolleksiyasiga qo'shishga arziy-digan birorta ham hasharot topolmadi. Hatto bu yerlarda juda ko'p bo'ladigan yaltiroq qo'ng'izlar ham sira ko'rinmas edi: go'yo olimga qarshi til birlashtirganday ulardan hech biri yaqin-o'rtada ko'rinmas edi. Go'yo tabiat bechora olimni masxara qilayotganday ko'rinardi, shuning uchun ham Benedikt tog'aning doim kayfi buzuk edi.

Otryad yana to'rt kun shimoli-sharq tomonga qarab yurdi. Sayohatchilar 16-aprel kuniga kelib dengiz qirg'og'idan kamida yuz mil yiroqlab ketishdi. Agar Gerris yo'ldan adashmagan bo'lsa, San-Feliche qo'rg'oni shu bugun tunalgan joydan atigi yigirma mil kellar-kelmas yerda bo'lishi kerak edi. Demak, eng uzog'i bilan qirq sakkiz soatdan keyin sayohatchilar mehmondo'st gatsiendada bo'lishlari kerak!

Otryad Atakama yassi tog'larining u chekkasidan bu chekkasigacha bosib o'tgan bo'lsa ham, lekin otryad shuncha uzoq yo'l davomida birorta ham yerlik xalq va ko'chmanchi qabila uchratmadi.

Dik Send, «Pilgrim»ning falokati bundan bo'lak bir joyga to'g'ri kelmabdi-da, deb afsuslanar edi. Basharti, falokat ikki-uch gradus janubroqda yoki shimolroqda bo'lganida edi, missis Ueldon va uning hamrohlari allaqachon biron qo'rg'on, qishloq yoki shaharga yetib olgan bo'lar edilar.

Ammo agar bu o'lkada odamzod asari bo'lmasa ham, lekin keyingi kunlarda otryadga har xil hayvonlar uchray boshladi. Kechqurunlari yiroqdan qandaydir yirtqich hayvonlarning cho'zib-cho'zib uvlagan ovozlari eshitilar edi, Gerris, bu uvillayotgan hayvon kichkina maymuncha, deb tushuntirar edi.

16-aprel kuni tush mahalida otryad dam olayotganida birdan qattiq hushtak ovozi eshilib qoldi.

Bu hushtak ovozi missis Ueldonga juda g'alati tuyuldi.

— Bu nima? — deb joyidan sakrab turdi u.

— Ilon! — deb qichqirib yubordi Dik.

O'smir darrov qo'lga miltiq olib, missis Ueldonni pana qildi.

Rostdan ham, birorta sudraluvchi maxluq sayohatchilar dam olayotgan joydagi o'tlar orasiga kirib kelishi ehtimol edi. Ehtimolki, uzunligi olti metrcha keladigan kattakon bo'g'ma ilon bo'lishi ham mumkin edi.

Biroq Gerris missis Ueldonni tinchitib qo'ydi. U Dikka hamda unga yordamga tayyor turgan negrlarga o'tiringlar, dedi.

Gerris, bu bo'g'ma ilon emas, bo'g'ma ilonlar hushtak chalmaydi, dedi.

— Xavotir olmanglar va bekordan-bekor beozor maxluqni cho'chitmanglar, — deb qo'shib qo'ydi u.

— Bo'lmasa, bu qanaqa maxluq ekan? — deb so'radi Dik, bu o'lka to'g'risida Gerrisdan yana ko'proq ma'lumot olishga tirishib.

— Kiyik, do'stim, kiyik, — deb javob qaytardi Gerris.

— Qani, kiyikni menga ko'rsatinglar-chi! — dedi kichkina Jek.

— Uni ko'rish oson emas, chirog'im, — dedi Gerris, — ular darrov qochib ketadi.

— Ehtimolki, men u hushtakboz kiyiklarga yaqin yo'lay olsam? — dedi Dik Send.

— Uch-to'rt qadam tashlaguningizcha, — dedi Gerris bosh chayqab, — ular butun galasi bilan tumtaraqay bo'lib qochib ketadi. Maslahatimga kiring, bekorga ovora bo'lmang.

Shunga qaramasdan Dikning o'z bilganicha ish ko'rishiga ma'lum sabablar bor edi. U miltig'ini qo'lga olib, o't orasiga kirib ketdi. Shu ondayoq bir necha kichkina va o'tkir shoxli, chiroyli kiyik tumtaraqay bo'lib qochib ketdi. Ularning och malla yunglari qorong'i o'rmon ichida olovday yarqirab ketdi.

— Ana aytmovidimmi sizga! — dedi Gerris, Dik qaytib kelib joyiga o'tirganidan keyin.

Kiyiklar shunday tezlik bilan ko'zdan yo'qoldi-ki, hatto Dik ularni yaxshi payqab olishga ham ulgur olmadi. Shu kuni kechqurun otryadga yana qandaydir bir to'da kiyik uchradi. Bu safar Dik uzoqdan bo'lsa ham, ularni bemalol tomosha qildi. Bu hayvonlar to'g'risida Gerris bilan sayohatchilar o'rtasida g'alati bir bahs bo'lib o'tdi. Soat to'rtlar-da kichkina otryad bir oz dam olish uchun o'rmon ichidagi maydonchaga to'xtagan edi, birdaniga bir necha yuz qadam naridagi qalin o'rmon ichidan bir gala allaqanday yirik hayvonlar chiqib qoldi. Ular odamlarni ko'rishi bilanoq qochib qolishdi.

Gerrisning qayta-qayta ogohlantirishiga qaramasdan, Dik Send miltig'ini yelkasiga tirab turib otib yubordi. Ammo o'q uzilgan paytda Gerris miltiqning stvolini qo'li bilan itarib yubordi. Dik juda yaxshi mergan bo'lsa ham, bu safar nishonga tegizolmadi.

— Otmng, otmang! — deb bidirladi Gerris.

— Bular jirafalar ekan-ku! — deb xitob qildi Dik Send, Gerrisning so'zlarini qulog'iga olmasdan.

— Jirafalar! — deb qichqirib yubordi kichkina Jek. — Qani, menga ko'rsatinglar-chi jirafalarni!

— Jirafalar deyapsanmi? — deb qayta so'radi missis Ueldon. — Yanglishyapsan, azizim Dik, Janubiy Amerikada jirafalar bo'lmaydi.

— Albatta, bu o'lkada jirafalar bo'lishi aslo mumkin emas, — dedi Gerris xafa bo'lgansimon.

— Bo'lmasa qanaqa hayvonlar ekan?

— Nima ekanini ham bilolmadim, — deb javob qaytardi Gerris, — ehtimol, yanglish ko'rgandirsiz, og'aynim? Balki bular tuyaqushlardir?

— Tuyaqushlar deysizmi? — deb yuborishdi baravariga missis Ueldon bilan Dik.

Ular hayron bo'lib bir-birlariga qarashdi.

— Ha, oddiy tuyaqushlarning o'zginasi, — deb gapida turib oldi Gerris.

— Tuyaqushlar — parranda-ku, — dedi Dik, — ularning oyog'i ikkitadan bo'ladi...

— Albatta, — dedi Gerris, — o'qday otilib qochib ketgan o'sha jonivorlar menga xuddi ikki oyoqliday tuyuldi.

— Ikki oyoqli deysizmi? — deb qayta so'radi Dik.

— Menga to'rt oyoqliday tuyuldi, — dedi missis Ueldon.

— Mengayam shunday tuyuldi, — dedi kekxa Tom.

— Bizlargayam to'rt oyoqliday ko'rindi, — deyishdi Bat, Akteon va Ostinlar.

— To'rt oyoqli tuyaqushlar-a! — deb xaxolab kulib yubordi Gerris. — Tabiatning nayrangiga qoyilman-ey!

— Shuning uchun ham tuyaqush emas, jirafa deb o'yladik, — dedi Dik Send.

— Yo'q, do'stim, aslo bunday emas! — dedi qat'iy qilib Gerris. — Siz ularni yaxshi ko'rmabsiz. Buni bilish ham qiyin, chunki tuyaqushlar juda tez chopadi. Bunday hollarda tajribali ovchilar ham adashadilar.

Gerrisning aytganlari haqiqatga yaqin kelar edi. Uzoqdan qaraganda katta tuyaqushni kichikroq jirafaga o'xshatish mumkin. Ikkovining ham bo'yni uzun, boshi kichkina. Tuyaqush keyingi oyoqlari olib tashlangan jirafaga o'xshaydi. Tez chopib ketayotganida ularni ajratish qiyin. Missis Ueldon bilan uning hamrohlari yanglishgan bo'lsalar kerak, chunki Janubiy Amerikada jirafalar bo'lmaydi.

— Agar yanglishmasam, Amerikada tuyaqushlar ham bo'lmaydi-ku, — dedi Dik.

— Yanglishasiz, chirog'im, — deb qarshi turdi Gerris, — Janubiy Amerikada nandu degan tuyaqush bo'ladi. Biz ko'rgan tuyaqush xuddi o'shaning o'zi.

Gerris to'g'ri aytdi.

Nandu degan tuyaqush Janubiy Amerika te-

kisliklarida doim uchraydi. Bu kattakon qushning bo'yi ikki metrcha keladi va tumshug'i to'g'ri bo'ladi. Nanduning pari yumshoq va qanotlari och havo rang bo'ladi. Oyoqlari uch barmoqli va barmoqlari tagida ularni bir-biriga birlashtiradigan kalta pardachasi bo'ladi. Yosh nanduning go'shti juda mazali.

Nanduni yaxshi bilgan Gerris bu aniq ma'lumotlarni Dikka gapirib berdi, shuni ham aytish kerakki, u aytgan gaplar juda to'g'ri edi. Missis Ueldon bilan uning hamrohlari, biz yanglishgan ekanmiz, deb tan olishga majbur bo'ldilar.

— Ehtimol, tuyaqushlarni yana uchratsak, — deb davom qildi gapida Gerris. — Endi ko'rganlaringizda, yanglishmaslik va qushni to'rt oyoqli hayvon demaslik uchun yaxshilab ko'rib olinglar. Eng muhimi, do'stim, qanday hayvonni uchratmang, juda zarur bo'lmaganda sira otmang, mening shu maslahatimni esingizdan chiqarmang. Oziq-ovqat uchun deb, ov qilishning bizga hojati yo'q, shuning uchun ham takror aytamanki, miltiq otib o'zimizning o'rmondaligimizni hammaga ovoza qilishning hech foydasi yo'q.

Dik Send hech qanday javob qaytarmadi. U, chuqur xayolga botdi va yana shubhalana boshladi...

Ertasiga, ya'ni 17-aprel kuni otryad erta bilan yo'lga tushdi. Gerris, yigirma to'rt soatlardan keyin San-Feliche qo'rg'onida bo'lamiz, deb ishontirdi.

— Unda, missis Ueldon, — dedi u, — sizni yaxshi kutib olishadi. Bir necha kun dam olsangiz, o'zingizga kelib qolasiz. Ehtimol, San-Fransiskoda ko'rganingiz hashamatlarni bu yerda ko'rmassiz. Lekin har holda bu o'lkaning qorong'i bir burchagidagi qo'rg'onda ham hashamatlar yo'q emas. Bu yerdagi yer egalari unaqangi yovvoyi emaslar.

— Mister Gerris, — deb javob qaytardi missis Ueldon, — bizga qilgan yaxshiliklaringiz uchun sizdan juda minnatdormiz. Afsuski, minnatdorchilikdan tashqari sizga yaxshilik qaytarishga

imkoniyatimiz yo'q. Ammo ishoningki, biz sizga chin qalbdan tashakkur bildiramiz. Ha, mo'ljallangan joyimizga yetib olsak ham bo'lardi!..

— Siz juda charchagan bo'lsangiz kerak-a, missis Ueldon?

— Meni-ku qo'yavering-a! — deb javob qaytardi missis Ueldon. — O'g'lim kundan-kunga darmondan ketayotir. Har kuni bir mahalda bezgak xuruj qilyapti.

— Bu yassi tog'ning havosi yaxshi bo'lsa ham, — dedi Gerris, — lekin eshitishimcha, mart va aprel oylarida odamlar bu yerda ba'zan bezgak bo'lib turar ekan.

— Yaxshiyamki, — dedi Dik Send, — kasalini bergan tabiat shu joyning o'zidayoq dorisini ham berib qo'yibdi-ya...

— Bu nima deganingiz, do'stim? — deb so'radi Gerris.

— Bu yerda xin daraxti o'smaydimi? — deb javob qaytardi Dik.

— Ha, ha, — dedi Gerris, — to'g'ri aytasiz. Xin daraxtining makoni shu yer. Bu daraxt po'stlog'ining isitmani pasaytiradigan qimmatli xislati bor.

— Rostini aytsam, shu vaqtga qadar bitta ham xin daraxtini uchratmaganimizga juda hayronman, — dedi Dik Send.

— Masala shundaki, do'stim, — dedi Gerris, — xin daraxtini bilib olish oson emas. Bu daraxtning bo'yi juda baland bo'lib, barglari juda katta, uning hidli, pushti rang gullari bo'ladi. Bu daraxtlar bir joyda to'planib o'smaydi, balki boshqa daraxtlar orasida yakkam-dukkam holda o'sadi. Xin po'stlog'ini terib yuruvchi yerliklar bu daraxtni uning doim ko'kmak barglaridan taniydilar.¹

¹ Ilgari vaqtlarda tabiblar xin daraxti po'stlog'ini mayda poroshok qilib iste'mol qilar edilar. Buni «iezuit poroshogi» deb yuritir edilar, chunki 1649-yilda Rim iyezuitlari o'zlarining Amerikadagi missionerlaridan ko'p miqdorda xin daraxti po'stlog'i olgan edilar (*Muallif izohi*).

— Mabodo, shunday daraxtni ko'rsangiz, mister Gerris, menga ko'rsating-a, — deb iltimos qildi missis Ueldon.

— Albatta, missis Ueldon, lekin San-Feliche qo'rg'oniga borganimizda oltingugurt bilan achitilgan xinga serob bo'lasiz; oddiy xin daraxti po'st-log'idan ko'ra bu dori bezgakni tez qoldiradi.

Sayohatning oxirgi kunida hech qanday o'zgarishlar bo'lmadi. Odatdagicha otryad kechqurun tunash uchun to'xtadi. Shu mahalgacha havo ochiq va quruqchilik bo'lib keldi, ammo bugun yomg'ir yog'adiganga o'xshab qoldi.

Kunduzi isigan yerdan bug' ko'tarilib, o'rmonni qalin tuman to'sdi.

Bunga ajablanmasa ham bo'lardi, chunki yomg'ir yog'adigan davr yaqinlashib qolgan edi. Kichkina otryadning baxtiga sayohatchilar qo'rg'onga yetay deb qolgan edilar. Bir necha soat sabr qilish qoldi, xolos.

Gerrisning taxminiy mo'ljalicha, San-Feliche qo'rg'oniga otryadning yetib borishi uchun atigi olti mil qolibdi, shunga qaramasdan, kechalik uchun ilgarigicha hamma ehtiyot choralari ko'rildi: Tom bilan uning sheriklari kechasi navbatma-navbat qorovul bo'lishlari lozim edi. Albatta shunday bo'lishi kerak edi. Dik Send qattiq turib oldi. Dik ilgarigidan ham ko'ra, hozir juda hushyor bo'lish kerakligini istar edi. Uning miyasida qandaydir dahshatli bir gumon bor edi, ammo u hali aniq bo'lgani yo'q edi. Shuning uchun Dik buni hech kimga aytgisi kelmas edi.

O'rmon ichidagi kattakon bir daraxt tagiga tunash joyi qilishdi. Uzoq yo'l yurib charchab kelgan sayohatchilar endigina uyquga tolgan edilarki, qattiq tovushdan birdaniga uyg'onib ketdilar.

— Kim baqiryapti? — deb so'radi Dik Send, hammadan oldin o'rnidan irg'ib turib.

— Men... Men qichqiruvdim! — dedi Benedikt tog'a.

— Xo'sh, nima bo'ldi?

— Meni bir nima chaqib oldi...

— Ilon emasmi? — deb so'radi missis Ueldon, qo'rqib ketib.

— Yo'q, ilon emas, qandaydir bir hasharot, — deb javob qaytardi Benedikt tog'a. — Shoshmanglar, mana, tutib oldim!

— Mijig'lab tashlang-da, uxlashga xalaqit bermang! — dedi Gerris achchig'i kelib.

— Hasharotni mijig'lab tashlarmishman-a! — deb hayqirib yubordi Benedikt tog'a. — Gapning chiroylliligini qarang! Yo'q, men uni tekshirib ko'rishim kerak!

— Bironta chivindir-da, — dedi Gerris, yelkasi-ni qisib.

— Yo'q, — dedi Benedikt tog'a, — pashsha, juda g'alati pashsha.

Dik Send cho'ntak fonarini yoqib, Benedikt tog'aning oldiga keldi.

— A! — deb qichqirib yubordi Benedikt tog'a. — Shuncha azob chekib yurishlarim behuda ketmadi! Yashasin! Juda katta kashfiyot qildim-a!

Olim xursand bo'lganidan, terisiga sig'masdi. U o'zi tutib olgan pashshasiga suqlanib qarar edi. Pashshani o'pib olishga ham tayyorday edi.

— Nima ekan u? — deb so'radi missis Ueldon.

— Bu ikki qanotli hasharot ekan, lekin juda ham ajoyibi ekan!..

Benedikt tog'a qo'lidagi uzun xartumchali, qor-nida sariq yo'l-yo'li bor katta bir pashshani ham-maga ko'rsatar edi.

— Bu zaharli pashsha emasmi? — deb so'radi missis Ueldon.

— Yo'q, jiyan, odam uchun ziyonli emas. Ammo hayvonlar uchun, masalan, kiyik, qo'toslar va hat-to fillar uchun ham juda xatarli dushmandir! Voy jonim, jonginam, pashshacham-ey!..

— Bizga ham aytsangiz-chi, qanaqa pashsha bu axir? — deb so'radi Dik Send.

— Bu, pashsha, — dedi entomolog, — qo'limdagi bu pashshajon — setse¹ bo'ladi. Bu pashsha faqat bir qit'adagina bor!

Hech bir olim shu paytgacha Amerikada setse pashshasini topgan emasdi.

Dik Send, shu vaqtga qadar la'nati setse pashshasi qaysi qit'adan topilar edi, deb Benedikt tog'adan so'ramoqchi edi, lekin botinib so'ray olmadi.

Bu voqeadan keyin sayohatchilar yana uyquga ketishdi, ammo Dik Send, qattiq charchaganiga qaramasdan, ertalabgacha ko'z yummasdi.

O' n s a k k i z i n c h i b o b

DAHSHATLI SO'Z

Qo'rg'onga yetib olish payti keldi! Missis Ueldon charchaganlikdan holdan toya boshladi. Sayohatni davom ettirishga darmoni ham qolmadi. Uning kichkina o'g'liga qarash ham juda ayanchli edi. Bezgak tutgan mahallarda Jekning yuzlari olovday yonar, keyin esa oppoq oqarib ketar edi. Onasi juda tashvishga tushib qolgan va uni parvarish qilishni hatto Nan kampirga ham ishonmas edi. Missis Ueldon hozir o'g'lini qo'ldan hech qo'ymas edi.

Ha, boradigan joyga allaqachon yetib olgan bo'lishlari kerak edi! Agar Gerrisning gapiga ishonilsa, shu bugun, ya'ni 18-aprel kuni kechqurungacha kichkina otryad San-Feliche qo'rg'onining darvozasidan kirib borishi kerak edi.

Tropik o'rmonlarda o'n ikki kun to'xtovsiz sargardon bo'lib yurish, o'n ikki kechani ochiq

¹ Setse pashshasi, hozirgi ma'lumotlarga qaraganda, odamlar uchun ham xavfli ekan: bu pashsha odamlar uchun xatarli bo'lgan uyqu kasalini qo'zg'aydigan triponozom parazitini yuqtiradi. Chorva uchun ham ofatdir. Sharqiy va Janubiy Afrikaning ko'p joylarida setse pashshasi hozir ham chorva uchun ofat hisoblanadi.

havoda yotib o'tkazish — hatto missis Ueldon singari g'ayratli ayolning ham toqatini toq qilishi turgan gap edi. Buning ustiga kichkina Jekning betoblighi, tortilgan azob-uqubatlari, dori-darmonning yo'qligi... Uning o'rnida har qanaqa boshqa ona bo'lganda ham, qattiq tashvish tortmay iloji yo'q edi.

Dik Send, Tom va uning sheriklari charchashni ko'p ham bilintirmadilar. Oziq-ovqat tugay deb qolgan bo'lsa ham, ammo otryad shu mahalgacha hech narsaga muhtoj bo'lmadi. Shuning uchun erkaklarning salomatligi juda yaxshi edi.

Gerrisga kelganda esa, go'yo bu odam, odam bo'lasiz yura olmaydigan qalin o'rmonlarda uzoq sayohat qilib yurish uchun yaratilganday va sira charchash nimaligini bilmaydiganday ko'rinar edi.

Ammo qo'rg'onga yaqinlashgan sari, Dik Gerrisning ilgarigiday xursand emas, balki xafaligi oshayotganini fahmlab qoldi. Holbuki, aksincha, u xursand bo'lishi kerak edi. Har holda, o'smir ana shunday deb o'yladi. Dikning kun sayin Gerrisga ishonchi kamayaverdi. Dik faqat bir narsaga tushunmas edi: Gerris nima maqsadda ularni aldar ekan? O'smir bu savolga javob topolmay hayron edi. Shuning uchun u, Gerrisning astoydil payidan bo'lishga qaror berdi.

Aftidan, Gerris ham Dik nima uchundir undan shubhalanayotganini fahmlab qolgan edi. Ehtimol, Gerrisning tumtayib olganiga va tashvishlanib yurishiga «yosh do'stining» ana shu gumonsirashi ham bir sabab bo'lgandir.

18-aprel kuni kun chiqishi bilanoq otryad yo'lga chiqdi. O'rmon siyraklasha boshladi. O'tib va yurib bo'lmas qalin o'rmon o'rniga o'rtalarida keng yalanglik joylar bo'lgan daraxtzorlar uchray boshladi. Ehtimol, Gerris aytgan haqiqiy pampas, ya'ni cho'l yaqinlashib qolgandir?

Safarning dastlabki soatlarida Dikni yanada tashvishga soladigan hodisalar bo'ldi. Biroq, boshqa ikki hodisa uni hayratda qoldirdi. Bu hodi-

salarning unchalik ahamiyati bo'lmasa ham, lekin sayohatchilarning qanday sharoitda ekanligini hisobga olganda, eng arzimagan hodisani ham nazarga olmasdan iloj yo'q edi.

Dik Send Dingoning qilig'iga e'tibor qildi. Yo'lga chiqqandan beri it tumshug'ini past qilib yugurar, o'tlarni va chakalaklarni hidlar edi. Keyin boshini yerga qilib jimib qolar yoki nimagadir boshini osmonga qilib uvillar edi. Ammo bugun Dingo ayniqsa qattiq vovillar va hatto ba'zan jon halpida irillar edi. Dingo, Negoro o'z kayutasidan «Piligrim» kemasining palubasiga chiqqan mahalda qanday vovillagan bo'lsa, hozir xuddi shunday vovillar edi.

Shuning uchun Dik Sendda bir shubha tug'ildi. Keksa Tomning gapidan keyin bu shubha rostga aylanib ketay dedi.

— Dik, juda g'alati-a! Dingo endi avvalgiday o'tlarni hidlamay qo'ydi, uni qarang, u hozir burnini shamolga tutib turibdi, yunglari hurpaygan, o'zi juda besaranjom bo'layotir. Hozir u, xuddi...

— Negoroning hidini sezganday bo'layotir, shunday emasmi? — deb Tomning gapini davom qildirdi Dik.

O'smir kekxa negrning qo'lini ushlab, unga sekin gapiring, deb imo qildi.

— Ha, xuddi Negoroning o'zi. Manimcha, u bizning orqamizdan kelayotgan bo'lsa kerak.

— Men o'zim ham shunday deb o'ylayman, Tom. Hozir u bizga yaqin joyda turgan bo'lsa kerak.

— Nimaga shunday qilar ekan? — deb so'radi Tom.

— Ehtimol, Negoro yo'lni bilmas, — deb javob qaytardi Dik Send, — u mahalda o'z-o'zidan ma'lum, bizning ketimizdan ergashib yurgan bo'lsa kerak. Yoki u...

— Yoki... — dedi kapalagi uchgan Tom Dikka tikilib.

— Yoki aksincha, yo'lni juda yaxshi biladi va shuning uchun.

— Bu yerlarni Negoro qayoqdan bilsin, u bu o'lkalarda hech qachon bo'lgan emas-ku!

— Hech qachon bo'lgan emas deysizmi?.. — deb shivirladi Dik. — Qaydam. Har holda bir narsa juda aniq: Dingoning yomon ko'rgan kishisi yaqin bir joyda bo'lsa kerak, shuning uchun bezovta bo'layotir.

U gapini to'xtatib, itni chaqirdi.

Dingo istar-istamas uning yoniga keldi.

— O'sha, Dingo! Negoro, Negoro! O'sha! O'sha!

It qahr bilan vovillay boshladi. Kema oshpazining nomi unga ilgarigiday yomon ta'sir qilgandi va u go'yo Negoro shu oradagi daraxt panasiga yashirinib olganday, oldinga yugurib ketdi.

Gerris buni uzoqdan ko'rib turar edi. U Dikning yoniga keldi-da:

— Siz Dingoga nima dedingiz? — deb so'radi qovog'ini solib.

— Hech nima, — deb javob qaytardi kekxa Tom. — Biz Dingodan, «kemada birga kelgan bitta yo'ldoshimiz yo'qolib qolgan edi, o'shandan darak yo'qmi» deb so'radik.

— Ha, portugaliyalik kema oshpazi to'g'risida gapirayotgan bo'lsangiz kerak-da! — dedi Gerris.

— Ha, — dedi Tom. — Dingoning qiliqlariga qaraganda, u yaqin o'rtada bo'lsa kerak.

— U qanday qilib bu yerga kelib qoldi ekan? Siz, u kishi Boliviya da hech qachon bo'lgan emas, deb aytgan edingiz shekilli? — deb so'radi Gerris.

— Agar buni bizdan yashirmagan bo'lsa, — deb javob qaytardi Tom.

— Nima uchun yashirsin? — dedi Gerris. — Chakalakzorni axtarib ko'rish kerak. Bechora yordamga muhtoj bo'lsa-chi? Biror falokatga uchrab qolgan bo'lsa-chi?..

— Hech hojati yo'q, — dedi Dik Send. — Negoro shu yergacha yolg'iz o'zi kela olgan ekan, bizning yordamimizsiz ham bu yerdan chiqib keta oladi!

— Ixtiyor o'zingizda, — dedi Gerris.

— Jim bo'l, Dingo! — deb qichqirdi Dik Send, yoqimsiz suhbatni to'xtatish uchun.

Dik payqagan ikkinchi hodisa Gerrisning otiga bog'liq edi.

Otning qiliqlariga qaraganda yaqin o'rtadan «otxona hidi» kelmas edi. Ot pishqirib nafas olmas, oldinga yurishga shoshilmas, sira kishnemas, qisqasi, uzoq safardan keyin otlarda bo'ladigan to'zimsizlik va dam olish joyiga yaqinlashganlikni sezish alomatlari bu otda aslo yo'q edi. Gerrisning ko'p martalab bu qo'rg'onda bo'lgan oti, qo'rg'on hali yuzlarcha kilometr narida turgani singari imilab yurar edi.

«Qiziq, otning qiliqlariga qaraganda, sayohatimizning poyoni yo'q ekan-da», deb o'yladi Dik.

Ertalab Gerris, qo'rg'onga olti milcha qoldi, degan edi; tushdan keyin soat beshgacha o'sha olti mildan to'rttasi bosib o'tildi. Ammo ot hali ham otxonaga yaqinlashganini sezmas va shu bilan birga, tevarak-atrofda San-Feliche singari katta qo'rg'on borligidan hech asar yo'q edi.

Hatto kasal bolasini boqish bilan band bo'lgan missis Ueldonga ham bu joylar boyagiday kimsasiz va yovvoyi ko'rinar edi. Aqalli birorta ham yerlik xalq uchramasa va shunday yaqindagi qo'rg'ondan bironta xizmatkor ko'rinmasa-ya! Gerris adashmadimikan? Missis Ueldon buni o'ylamaslikka harakat qildi, chunki safar yana cho'zilib ketadigan bo'lsa, Jekning nobud bo'lishi ehtimol edi...

Gerris xuddi avvaldagicha otryadning oldida borar edi. Ammo u o'ziga ham, o'zi yurayotgan yo'lga ham ko'pda ishonmagan kishi singari, o'rmonning qorong'i burchaklariga ko'z tashlar, goh o'ng tomonga, goh chap tomonga qarar edi.

Missis Ueldon bu manzarani ko'rmaslik uchun ko'zlarini yumib olar edi. Kengligi bir milcha keldigan tekislikdan keyin yana o'rmon ko'rindi: ammo bu o'rmon g'arbdagi o'rmonlarga nisbatan unchalik qalin emas edi. Shunday qilib,

kichkina otryad yana baland daraxtlar soyasi ostiga kirdi.

Kech soat oltida sayohatchilar bir chakalakzorga yetib keldilar. Bu chakalakzordan yaqinda qandaydir yirik hayvonlar galasi o'tib ketgan bo'lsa kerak, chunki chakalaklar sinib, egilib ketgan edi.

Dik Send diqqat bilan tevarak-atrofga qaray boshladi.

Daraxtlarning odam bo'yidan ancha balanddagi shoxlari sinib qolgan edi. O'tlar ezilib va ba'zi zax joylarda katta-katta izlar ko'zga tashlanar edi; qoplon izi bunchalik katta bo'lmasligi kerak. Bo'lmasa nimaning izi bu?

Chakalakzorni shunday yorib o'tish va zax yerni shunday o'yib tashlash faqat fillarning qo'lidan keldi. Biroq Janubiy Amerikada fil bo'lmaydi. Demak, bu izlar fillarniki deb o'ylash ham xato bo'lar edi.

Dik Send bu ajoyib sirli izlar to'g'risidagi o'z fikrini hech kimga aytmadi... Hatto u Gerrisdan ham surishtirib o'tirmadi. Axir, jirafani tuyaqush qilib ko'rsatishga uringan odamdan nimaniyam kutib bo'ladi? Gerris bunda ham biror bo'lmag'ur uydirma gapni topardi va bundan otryadning ahvoli baribir o'zgarmasdi.

Har holda, Dik Gerris to'g'risida aniq bir fikrga keldi. U Gerrisning xoin ekanligiga endi tamom ishongan edi. Dik uning niqobini yirtib sharmandasini chiqarish uchun qulay fursatni poylardi. Hamma narsa bunday fursat tez kelishini ko'rsatib turar edi.

Ammo Gerrisda qanday yashirin maqsad bo'lishi mumkin? Unga ishongan odamlarni nimalar qilmoqchi ekan?

Dik Send, o'z hamrohlarining hayot-mamoti uchun o'zini hamisha mas'ul deb hisoblar edi. «Piligrim» kemasi falokatga uchrab, ushbu qirg'oqqa chiqarib tashlagan odamlarni qutqazish uning gardaniga, ayniqsa, hozir katta mas'uliyat yuklagan edi. Bechora hamrohlarini — yosh onani,

uning o'g'lini, negrlarni va Benedikt tog'ani faqat ugina qutqaza olar edi. Biroq, o'zi ko'rib, bilib turgan xavf-xatarlarga qarshi turishga qodir bo'lma-gan bu o'smir nima chora ham topa olar edi?

Falokatli haqiqat soat sayin ochilib ravshan bo'lib bormoqda edi. «Piligrim» kemasining o'n besh yoshli kapitani bu xatarli daqiqalarda boshliq va rahbarlik vazifasini yana o'z ustiga olishi kerak bo'lib qoldi. Ammo Dik Jekning bechora onasini be-mahal tashvishga solgusi kelmas edi, chunki chora ko'rish payti kelganda ham unga hamma gapni tushuntirib berishga ulgurar edi. Hatto u, otryad-ning yo'lini to'sib turgan kichkina daryodagi bir nechta kattakon hayvonlarni ko'rib qolganidan keyin ham hech nima demadi.

«Gippopotomlar! Gippopotamlar!», deb qichqirib yuborgisi keldi uning.

Ammo u og'iz ham ochmadi. Dik otryaddan yuz qadam oldinda borar edi. Kalta oyoqli, kattakon kallali, og'zi keng, besh qarich keladigan oziq tish-larini irjaytirib turgan yo'g'on-yo'g'on gavdali bu hayvonlarni undan boshqa hech kim ko'rmadi.

— Amekrikada suv oti bo'larmishmi-a?!

Otryad kechgacha oldinga qarab yo'l bosdi. Eng chidamli kishilar ham charchay boshladi. Manzilga yetib olish, tunash uchun to'xtash ke-rak edi!

Doim Jek bilan ovora bo'lgan missis Ueldon charchaganini ham unutib qo'ygan bo'lsa kerak. Lekin madori batamom qurigan edi. Boshqa sayo-hatchilarning ham ahvoli yaxshi emas edi. Yolg'iz Dikgina charchoqqa so'z bermas edi. O'z oldida turgan mas'uliyatli burchi unga dalda va matonat berar edi.

Kechqurun soat oltilarga yaqin kekxa Tom o't orasidan bir narsa topib oldi. Bu egri damli g'alati bir pichoq edi. Uning kvadrat shaklidagi fil suyagi-dan qilingan sopiga qo'polroq bo'lsa ham naqsh solingan edi.

Tom pichoqni yerdan olib, Dik Sendga eltib ber-

di. U pichoqni diqqat bilan ko'zdan kechirib, Gerrisga uzatdi.

— Yaqin o'rtada yerliklar bo'lsa kerak, — dedi Dik.

— To'g'ri, — deb javob qaytardi Gerris. — Ammo...

— Ammo? — deb Gerrisga tikildi Dik Send.

— Biz shu topgacha qo'rg'onga yetib kelishimiz kerak edi-yu, — dedi dudmal qilib Gerris, — ammo men bu yerlarni bilolmayapman.

— Adashibsiz-da, — deb so'radi Dik darrov.

— Adashganim yo'q. Qo'rg'on uch mildan uzoq bo'lmasligi kerak. Yo'lni qisqartiraman deb, to'g'ri o'rmon orqali yurib edim... yanglishgan bo'lsam kerak...

— Ehtimol, — dedi Dik Send.

— Men oldin bir o'zim borib yo'l ko'rib kelsam deyman, — dedi Gerris.

— Yo'q, mister Gerris, — dedi shartta Dik, — ajralmasligimiz kerak!

— Ixtiyoringiz, — deb javob qaytardi Gerris. — Ammo shuni bilib qo'yingki, kechasi men yo'lni tanimayman-da.

— Zarari yo'q! — dedi Dik. — Yo'lda tunaymiz, missis Ueldon yana bir kecha ochiq havoda yotish-ga rozi bo'lsalar kerak. Ertaga kun chiqishi bilan yana yo'lga chiqamiz. Keyingi uch milni bir soatda bosishimiz mumkin.

— Mayli, — dedi Gerris.

Shu paytda Dingo qattiq vovillay boshladi.

— Qo'y, Dinyo, bas qil! — deb qichqirdi Dik. — Bu yerda hech kim yo'qligini bilasan-ku, cho'lda turibmiz, axir!

Shunday qilib, oxirgi marta o'rmonda tunab qo-lishga qaror berildi. Missis Ueldon hamrohlari joy tayyorlaguncha bir og'iz ham so'z aytmadi. Bezgak xurujidan keyin uxlab qolgan Jek, onasining qo'li-da yotar edi. Tunash uchun joy qidirishdi.

Dik tunash uchun kattakon bir daraxt tagini tanladi. Unga ergashib yurgan kekxa Tom birdani-ga to'xtab:

— Qarang! Qarang! — deb baqirib yubordi.

— Nima ekan, Tom? — deb ohistagina so‘radi Dik, har ehtimolga tayyor bo‘lib.

— Ana, ana... — deb bidirladi Tom, — daraxt tagida... qon izi... yerda kesilgan qo‘llar yotibdi...

Dik Send Tom aytgan daraxt tagiga chopib bordi-da keyin qaytib kelib:

— Damingizni chiqarmang, Tom! Hech kimga aytmang!.. — dedi.

Yerda odam qo‘llari yotardi. Qo‘llar yonida uzilgan zanjir parchalari bilan singan qoliplar yotar edi.

Xayriyatki, bu dahshatli manzarani missis Ueldon ko‘rmay qoldi.

Gerris bir chetda turar edi. Agar shu topda birov uning aftiga qaragan bo‘lsa edi, Gerrisning qiyofasida o‘taketgan shafqatsizlik ifodasini ko‘rib hayratda qolar edi.

Dingo o‘lik qoldiqlari yotgan joyga kelib, qattiq vovillay berdi...

Dik uni zo‘rg‘a haydab yubordi.

Keksa Tom esa oyoqlari yerga botib ketganday, turgan joyida qotib qoldi. U yerda yotgan qolip va zanjirlardan ko‘zini uza olmasdan, bir nimalar deb bidirlar edi.

— Men ko‘rgan edim... ko‘rgan edim... bolalik chog‘imda... zanjirlarni ko‘ruvdim... qoliplarni...

Bolalik chog‘idagi ko‘rganlari endi uning esiga kelmoqda edi. U eslamochi edi... U gapirib yubormochi edi.

— Jim, Tom! — dedi Dik Send. — Missis Ueldon hurmati, hammamizning hurmatimiz uchun, indamang...

Keyin Dik uni tezda boshqa tomonga ergashtirib ketdi.

Shundan keyin tunash joyni boshqa yerga ko‘chirishdi.

Nan kampir ovqat keltirdi, lekin hech kim ovqatga qaramadi, chunki qattiq charchaganlikdan ishtaha bo‘g‘ilib qolgandi. Hamma ham kelgusida qandaydir tashvish, falokat yuz berishini sezganday, besaranjom edi.

Tezda kech kirib atrofni qorong‘ilik bosdi. Osmonni qora bulutlar qoplagan edi. G‘arbda, yiroqda, daraxtlar orasidan goho chaqmoq chaqqani ko‘rinib turar edi.

Shamol tindi. Daraxt barglari esa sira qimir-lamay qo‘ydi. Kunduzgi shovqin-suron o‘rnini jimlik egalladi. Havoga elektr moddasi to‘lganidan tovush eshitilmayapti, deb o‘ylash mumkin edi.

Dik Send, Ostin va Batlar birga qorovullik qildilar. Ular birorta ham shitirlagan ovozni eshitmasdan qolmaslik uchun kecha jimjitligiga diqqat bilan quloq solar va atrofga tikilar edilar. Ammo o‘rmonning tinchlik va zulmatini hech narsa buzmas edi.

Tom qorovullikdan bo‘sh bo‘lsa ham, uxlamas edi. U boshini egib, qimir etmay o‘tmishini eslab turardi. Keksa negr qattiq bir zarbadan keyin o‘zini o‘nglab ololmaydiganga o‘xshar edi.

Missis Ueldon uxlayotgan bolasini tebratar va faqat uni o‘ylar edi.

Yolg‘iz Benedikt tog‘agina tinchgina uxlab yotar edi, chunki u kelgusida nimalar bo‘lishidan xavotirda emasdi.

Soat o‘n birlar chamasi birdaniga, uzoqdan al-laqanday hayvonning cho‘zib-cho‘zib qattiq bo‘kirgani va uning ketidan juda o‘tkir uvlagan ovoz eshitilib qoldi.

Tom irg‘ib o‘rnidan turdi-da, bu yerdan bir mil-dan ortiq naridagi qalin o‘rmon tomonga qo‘lini cho‘zdi.

Dik Send Tomning qo‘lini darhol ushlab olgan bo‘lsa-da, lekin uning:

— Arslon! Arslon! — deb baqirishini to‘xtatish-ga ulgurolmadi.

Keksa negr arslonni bo‘kirishidan tanidi, chunki u yoshligida bu ovozni ko‘p eshitar edi.

— Arslon! — dedi u yana.

Dik Sendning toqati toq bo‘ldi. U qo‘liga pichoq olib, Gerris yotgan joyga otildi.

Ammo Gerris yo'q edi. Oti ham o'zi bilan birga g'oyib bo'libdi.

Haqiqat yashin tezligida Dik Sendning miyasiga kelib urdi...

Otryad o'ylagan joyda emas, boshqa joyda edi!

«Pilgrim» Janubiy Amerika qirg'og'ida emas, boshqa joyda falokatga uchragan ekan!

Okeanda yonidan «Pilgrim» o'tib ketgan orol Pasxi oroli emas, boshqa orol ekan!

Kompas yanglish ko'rsatibdi, demak, buzilgan ekan!

Qattiq bo'ron chalg'itgan kema to'g'ri yo'ldan adashib, butunlay boshqa tomonga ketib qolibdi...

«Pilgrim» Gorn burnidan aylanib o'tib, Tinch okeandan Atlantika okeaniga o'tibdi!

«Pilgrim»ning tezligini hisoblashda xato qilinibdi: bo'ron uning tezligini ikki baravar oshirib yuborgan ekan.

Sayohatchilarning bu sohilda na kauchuk daraxti va na xin daraxti uchratmasliklariga sabab shu ekan! Bu daraxtlar Janubiy Amerikada o'sadi, ammo hozir sayohatchilar turgan o'lka, Atakama cho'li ham emas, Boliviya pampaslari ham emas ekan!

Shubha yo'qki, Dik tuyaqushlarni emas, jirafalarni ko'rgan ekan! Chakalakzorni ezib-bosib ketgan hayvonlar — fillar ekan! Dik daryo ichida gippopotamlarni ko'rgan. Benedikt tog'a tutgan pashsha, yuk tashuvchi hayvonlarni butun karvoni bilan qirib tashlaydigan juda xatarli setse degan pashsha edi.

Qorong'i kechada bo'kirgan ham arslon edi!

Qoliplar, zanjirlar va taxliti ajoyib pichoq — bu lar qul savdogarlarining qurol-aslahalari edi. Yerdan yotgan qo'llar qora badan qullarning qo'li edi.

Portugaliyalik Negero bilan amerikalik Gerris sherik bo'lib chiqdi!

Nihoyat, Dikning shubhalari haqiqatga aylandi va:

— Afrika! Markaziy Afrika! Qul savdogarlari va qullar mamlakati Afrika! — degan dahshatli so'zlar uning og'zidan o'qday otilib chiqdi.

IKKINCHI QISM



B i r i n c h i b o b

QUL SAVDOSI

Qul savdosi! Bu soʻzning dahshatli maʼnosini hamma tushunadi. Insoniyat tilida bu soʻzga sira oʻrin boʻlmasligi kerak¹.

Okeanning naryogʻida mustamlakalari boʻlgan Yevropa davlatlari uzoq zamonlardan beri odamlarni sharmandalarcha oldi-sotdi qilib, koʻp foyda koʻrib kelar edilar. Qul savdosi man qilingandan keyin koʻp yillar oʻtib ketgan boʻlsa ham, lekin koʻp joylarda va ayniqsa Markaziy Afrikada shu kunga qadar¹ qul savdosi davom etib kelmoqda.

Oʻzini madaniy mamlakat deb hisoblagan baʼzi bir davlatlar XIX asrning oʻrtalarida ham qul savdosini man etish toʻgʻrisidagi aktga imzo qoʻyishdan bosh tortib kelar edilar.

Koʻp kishilar, tirik odamlarni olti-sotdi qilish, yaʼni qul savdosi allaqachon yoʻq boʻlib ketgan deb oʻylaydilar. Boʻlmagan gap! Butun bir qitʼani huvillatib, odamsiz qoldirish xavfini tugʻdiruvchi odam ovlash kasbi bizning zamonamizda qanday avj olayotganini biz kitobxonlarimizga shu kitobning ikkinchi qismida hikoya qilib beramiz. Baʼzi bir mustamlakalarga tekin ishchi kuchlari yetkazib berish uchun qanday vahshiyona bosqinchiliklar qilinayotganini, butun-butun qishloqlar talon-toroj qilinib oʻt ichida qolayotganini, bunday bosqinchiliklar paytida qanchadan-qancha qonlar toʻkilayotganini va bundan kimlar foyda

koʻrayotganini kitobxonlar shu kitobdan oʻqib bilishlari mumkin.

Negrlarni qul qilib sotish XV asrdan boshlangan. Buning boshlanishi quyidagicha boʻlgan. Ispaniyadan quvilgan mavrlar¹ Gibraltar boʻgʻozi-ning narigi tomoniga oʻtib, Afrika sohilida oʻrnashib qolganlar. Oʻsha mahalda bu sohil portugaliyaliklarga qarashli boʻlib, ular mavrlarni qattiq taʼqib qilganlar. Taʼqibchilar ularning bir qismini asir olib, Portugaliyaga olib ketganlar. Asirlarni qul qilishgan. Bu esa, bizning eramiz boshlangandan, yaʼni miloddan keyin Afrikadan Gʻarbiy Yevropaga olib kelingan birinchi qullar edi.

Ammo asir mavrlar aksari boy oilalardan edi. Ularning qarindosh-urugʻlari asirlikdan qutqazib olish uchun portugaliyaliklarga koʻpdan-koʻp oltin taklif qilar edilar. Biroq, portugaliyaliklar oltinni nima qilsin? Ular chet ellardan keltirilgan oltinlarni ham qayerga qoʻyishlarini bilmas edilar. Ularga yangidan qoʻshilayotgan mustamlakalarida ishlash uchun ishchi kuchlari kerak edi, qisqacha qilib aytganda, portugaliyaliklarga oltin emas, qullar kerak edi.

Boy mavrlar asir tushgan qarindosh-urugʻlarini oltin toʻlab ham qutqazib olish mumkin emasligini bilib, ularni Afrikadan juda osonlik bilan keltiradigan negrlarga ayirbosh qilishni taklif etdilar. Bu taklif portugaliyaliklar uchun foydali boʻlganidan ular buni qabul qildilar. Ana shunday qilib, Yevropada qul savdosi boshlanib ketgan.

XVI asr oxirlarida bu sharmanda qul savdosi juda avj olib ketdi. Hatto oʻsha zamondagi oʻqimishli kishilar ham bu ishga shunchaki oddiy bir narsa deb qarar edilar. Hamma davlatlar Yangi Dunyodagi, yaʼni Amerikadagi oʻz mustamlakalarini

¹ Jyul Vern «Oʻn besh yoshli kapitan» romanini 1878-yilda yozgan.

¹ Ispan arablari.

tezroq kengaytirish uchun eng yaxshi tadbir deb bilib, qul savdosini himoya qilar edilar.

Tropik iqlimga o'rganmagan yevropaliklar minglab-minglab qirilayotgan joylarda qora badan qullar bemalol yashab, ishlay berar edilar. Shuning uchun maxsus yasalgan kemalar qul negrlarni Amerikadagi mustamlakalarga doim tashib turar edi. Xalqaro qullar savdosi juda avj olib ketganidan Afrika qirg'oqlarida tez orada savdo agentlari paydo bo'la boshladi. Bu «tovar» o'z makonida juda arzon bo'lib, savdogarlar undan katta foyda qilar edilar.

Ko'p olijanob kishilar odamlarni oldi-sotdi qilishga qarshi qattiq norozilik bildirar edilar. Ular insonparvarlarcha ish tutib, qul savdosini man etishni Yevropa hukumatlaridan talab qilar edilar.

1751-yili kvakerlar¹, abolitsionistlar² harakatga boshchilik qilib, qullikni yo'qotish yo'lida kurashdilar. Bu harakat Shimoliy Amerikada boshlandi va Shimoliy Amerikaning janubiy qismini shimoliy qismidan ajratib olish to'g'risida xuddi o'sha joyda yuz yildan keyin urush boshlanib ketdi. Bunga negrlarni ozod qilish masalasi asosiy sabablardan biri bo'lgan edi.

To'rtta shimoliy shtat, ya'ni Virginiya, Konnektikut, Massachusets va Pensilvaniya shtatlari quldorlikni bekor qilib, o'zlaridagi qora badan qullarni ozod qilib yubordilar.

¹ *Kvakerlar* — XVII asrda Angliyada paydo bo'lgan xristian diniy mazhabi bo'lib, keyinchalik Shimoliy Amerikaga ham yoyilgan. Kvakerlar qul egaligiga qarshi nazarda bo'lib, qul egaligini xristian diniga zid deb bilar edilar. Ammo janubiy shtatlardagi plantatorlar va ruhoniylar xristian diniy kitoblarining boshqa joylarini pesh qilib, qul egaligini himoya qilib chiqardilar.

² *Abolitsionistlar* — abolitsionizm tarafdorlari — Amerika Qo'shma Shtatlarining shimoliy shtatlarida XVIII asr oxiri-XIX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy harakat. Abolitsionistlar janubiy shtatlarda negrlarni qul qilib sotishni bekor qilishni talab qilib chiqqanlar, chunki shimoliy shtatlar ishchi kuchlariga hamda ichki bozorlarni kengaytirishga muhtoj edi. Bu narsalar janubiy shtatlardagi plantatorlar, ya'ni qul egalarning manfaatlariga zid edi. Shimoliy va janubiy shtatlar o'rtasida bo'lgan grajdanlar urushi, garchi qulchilikni qonuniy yo'l bilan bekor qilishga olib kelgan.

Kvakerlar harakati Yangi Dunyoning bir necha shimoliy shtatlari bilangina chegaralanib qolmadi. Atlantika okeanining narigi tomonida ham, ayniqsa Fransiya bilan Angliyada quldorlik tarafdorlariga qarshi harakatlar avj olib ketdi.

1807-yili Angliya o'z mustamlakalarida qul oldi-sotdisini man qildi. 1814-yili Fransiya ham xuddi shunday qildi. Bu ikkala qudratli davlat o'zaro shartnoma tuzdilar. Bu shartnomani yuz kunlik davr¹ ichida Napoleon ham tasdiqladi.

Ammo bu shartnoma bajarilmadi. Qul savdogarlarining «qora badan mol» ortgan kemalari okeanlarda tinmay qatnayverdi va yuklarini mustamlaka portlariga olib borib bo'shatgani bo'shatgan edi.

Bu ofatni yo'qotish uchun boshqa qat'iy choralar ko'rish kerak bo'lib qoldi. 1820-yili Qo'shma Shtatlar va 1824-yili Angliya qul savdosini dengiz qaroqchiligiga baravar qilib, dengizdagi qaroqchilarga qarshi qanday chora ko'rilsa, qul savdogarlariga ham xuddi shunday chora ko'riladi, deb e'lon qildilar. Bu jinoyat ustida qo'lga tushgan qul savdogarlari o'sha zahoti qatl etiladi, degan gap edi. Tez orada Fransiya ham bu shartnomaga qo'shildi. Ammo Shimoliy Amerikaning janubiy shtatlari, Ispaniya va Portugaliyaning mustamlakalari qul savdosini man etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishdan bosh tortdilar. Bu mamlakatlarda, kemalarni «tekshirish huquqi» xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ish bo'lishiga qaramasdan, qora badan qullar savdosini davom qildiraverib, juda katta foyda olaverdilar. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu «tekshirish huquqi» shubhali kemalarning hujjatlarini tekshirish bilan qanoatlarni, xolos.

¹ *Yuz kun* — Napoleon I ning Fransiya ikkinchi marta (1815-yil 1-martdan 22-iyulgacha) hukmronlik davri; bu davr Napoleon qo'shinlari Vaterloo ostonalarida tor-mor qilinganidan keyin hukmronlikdan voz kechishi bilan tugagan.

Bu yangi qonun bir yoqlama qonun edi, ya'ni yangi qul sotib olish man etilgan bo'lsa ham, ammo bu qonun eski qullarga ozodlik bergani yo'q edi.

Nihoyat, 1833-yil 14-mayda Britaniya mustamlakalaridagi hamma negrlarni qullikdan ozod qilish to'g'risidagi qonun chiqarildi. Shunday qilib, 1838-yilning avgust oyida olti yuz yetmish ming qora badan qullar ozodlikka erishdi.

Oradan o'n yil o'tgandan keyin, 1848-yili Fransiya respublikasi o'z mustamlakalaridagi ikki yuz oltmish ming negr qullarni ozod qildi.

1862-yili Amerika Qo'shma Shtatlarining prezidenti Linkoln mamlakatning hamma joyida negrlarni ozod qilish to'g'risida farmon chiqazdi. Shunday qilib, shimoliy shtatlar bilan janubiy shtatlar o'rtasidagi urush tamom bo'lgandan keyin Shimoliy Amerikadagi hamma qullar ozodlikka chiqdi.

Hozir qul savdosi Ispaniya bilan Portugaliya mustamlakalarida hamda Sharqda turklar bilan arablar orasida davom etib kelmoqda.

Braziliya o'zidagi eski qullarni ozod qilmasa-da, ammo yangi qullar olishni to'xtatdi va qul negrlarning bolalari Braziliyada erkin kishi bo'lib dunyoga kela boshladilar.

Biroq Afrika qit'asining ichkarisida qonli urushlar tinmaydi. Yerlik xalq boshchilari odamlarni hamon ovlaydilar. Ana shunday o'zaro urushlar natijasida butun bir qabilalar qullikka tushadilar.

Qul karvonlari ikki tomonga qarab yo'l oladilar. Birinchi yo'l g'arb tomonga, Portugaliyaning Angola degan mustamlakasiga, ikkinchi yo'l sharq tomonga, Mozambikka boradi. Bu joylarga karvon qilib jo'natiluvchi bechora qullarning ozgina qismigina manzilga eson-omon yetib oladi. Ulardan tirik qolganlarini bu yerdan qisman, Kuba oroliga, qisman Madagaskar oroliga, qisman arab yoki turk-

larning Osiyodagi o'lkalariga — Makkaga va Maskatga yuboradilar.

Poyloqchi kemalar bu qul savdosiga to'sqinlik qilolmaydi, chunki dengiz qirg'og'i haddan tashqari uzun bo'lganidan uni nazorat qilib turish juda qiyin.

Shunday savol tug'iladi: bu qabih savdoning hajmi shu qadar kattamikin-a?

Ha, shunday katta ekan! Taxminiy hisobga qaraganda, har yili eng kamida sakson ming qul sohilga yetib kelar ekan, bu esa qit'aning ichkarisida o'lgudek kaltaklab olib qolingani yerliklarning o'ndan bir qismigina tashkil qilargan ekan.

Bu qabih qirg'inlar bo'lib o'tadigan joylarda tep-tekis yalanglik bilan tutuni buruqsab chiqayotgan xaroba qishloqlargina qoladi. Unda odam jasadlarini daryolar oqizib ketadi va ular yashagan joylarga yirtqich hayvonlar makon quradilar.

Bu qonli bosqinchilar izini tekshirgan Livingston bir necha oylar ilgari o'zi bo'lgan viloyatlarni taniyolmay qolgan. Odam ovi juda avj olgan Markaziy Afrikaning o'rmonli yassi tog'lariga borib yuruvchi boshqa sayohatchilar (Grant, Spik, Berton, Kameron, Stenlilar) ham Livingstonning aytganlarini tasdiqlaydilar.

Afrikaning Katta ko'llar atrofidagi bir zamonlari gullab-yashnagan viloyatlari ham xuddi shunday xarobalarga aylantirilib, undan yerlik xalqlarni «qora badan mol» sifatida Zanzibar bozoriga haydab kelib sotilar edi. Bundan tashqari, Kuka, Fetssan, janubdagi Nyassa ko'li bilan Zambezi daryosining qirg'oqlarida, g'arbdagi Stenli kesib o'tgan Zair daryosining yuqorisidagi rayoniga ham olib borib sotilar edi.

Nahotki, Afrikadagi qul savdosi undagi qora badan xalqlarning hammasi qirilib bitgandan keyin to'xtalsa-ya? Nahot, Avstraliyadagi yerlik xalqlarning boshiga tushgan kulfat Afria negrlarining ham boshiga tushsa?!

O'n to'qqizinchi asrning to'rtinchi uchi o'tgan bo'lsa-da, qul savdosi kamayishi o'rniga, aksincha, avj olmoqda.

Yevropa davlatlarining Afrikadagi ko'p vakillari odam savdosiga sharmandalarcha yon bosmoqdalarki, bu haqda bir-ikki og'iz so'z aytmasdan o'tib bo'lmaydi. Afsuski, bu hodisa haqiqatan ham avj olgandir. Atlantika va Hind okeanlaridagi poyloqchi kemalar Afrika qirg'oqlari bo'ylab to'xtovsiz qatnab tursa ham, lekin Afrikaning ichkarisida, yevropalik amaldorlarning ko'z o'ngida odam savdosi keng avj olmoqda. Qo'lga tushirilgan asirlar karvoni birin-ketin bu yerga kelib turadi. Bu joylarda, tayinlangan ma'lum vaqtlarda yerliklarga qarshi qirg'inlar bo'lib turadi. Bu qirg'inlar mahalida har o'n negrdan bittasini qul qilib olish uchun to'qqiztasi o'ldirib tashlanadi.

Hozirgi kunda ham Afrikada ahvol xuddi shunaqa.

Dik Sendning:

— Afrika! Markaziy Afrika! Qul savdogarlari va qullar mamlakati Afrika! — deb dahshat-la baqirganining sababi ham ana shu edi.

Dik Send yanglishmagandi.

Bu joy, darhaqiqat, uning o'ziga va hamma hamrohlariga cheksiz xavf-xatarlar tug'diradigan ana shu Afrika edi.

Lekin ularni g'alati bir hodisa qit'aning qaysi qirg'og'iga chiqarib tashladi ekan? Albatta, g'arbiy qirg'og'iga, bu esa ularning ahvolini og'irlashtirardi. «Pilgrim» Angola qirg'og'ida, ya'ni Markaziy Afrikaning ichkarigi o'lkalaridan chiqqan qul savdogarlari karvonlari o'tadigan joyda falokatga uchragan bo'lsa kerak.

Haqiqatan ham bu joy Angola qirg'og'i edi. Afrikaning bu qismini bir necha yildan keyin

janubdan Kameron va shimoldan Stenli ko'p azob-uqubatlar bilan kesib o'tdilar. O'sha vaqtlarda Benguela, Kongo va Angola o'lkalarini o'z ichiga olgan bepoyon o'lkaning qirg'oq bo'ylarigina, ya'ni janubda Kunenedan shimolda to Zair daryosigacha cho'zilgan qirg'og'igina tekshirilgan edi. Bu qirg'oqdagi aholi yashaydigan ikkita eng katta joyda dengiz portlari bor. Bulardan biri — Benguela va ikkinchisi — Portugaliyaga qarashli koloniyaning poytaxti bo'lgan San-Paolo de Loanda portidir.

Qit'aning ekvator qismi ichkarisidagi o'lkalar u vaqtlarda butunlay tekshirilmagan edi, desa bo'ladi. Ko'p sayyohlar bu yerlarga borishdan qo'rqqar edi. Zax va issiq yerlar, bezgak kasalliklari avj olgan joylar, undagi yovvoyi yerlik xalqlar (ulardan ba'zilari hali ham odamxo'r), qabilalar o'rtasidagi tinimsiz qonli urushlar, Markaziy Afrikaning eng xatarli o'lkalaridan biri bo'lgan Angola mamlakati ana shunday yer edi. U yerdagi qul savdogarlari o'zlarining sharmanda sirlarini bilib olmoqchi bo'lib yurgan har qanday begona odamni yomon ko'rar edilar. Shuning uchun Angolaga bormoqchi bo'lgan sayyohlar bu jihatdan ham mushkullikka uchrar edilar.

1816-yili Tyukkey degan sayohatchi Kongo daryosining yuqorisiga qarab borib, Iellada shalolasidan o'tdi. Ammo u ikki yuz mildan nariga borolmadi. Bu kichkina ekspeditsiya mamlakatni yaxshilab tekshirib chiqa olmadi, biroq sayohat qatnashchilarning ko'pchiligi halok bo'lib ketdi.

Shundan o'ttiz yetti yil o'tgach, doktor Livingston Yaxshi Umid burnidan to Zambezi daryosining yuqorigi oqimigacha bordi. Bu yerdan u, 1853-yil noyabr oyida shu mahalgacha odam bolasi yura olmagan yo'ldan dadil safarga chiqib, Afrikani janubdan shimoli-g'arb tomonga kesib o'tdi, Kongo daryosining irmoqlaridan biri bo'lgan Kuango daryosidan kechdi va 1854-yil 31-mayda San-Paolo de Loandaga yetib keldi. Livingston

¹ Yaqindagina ko'p milliondan iborat bo'lgan Avstraliya yerlik xalqlardan hozirgi kunda tirik qolgani ellik mingdan oshmaydi.

Portugaliya mustamlakasining noma'lum uzoq joylaridan birinchi marta yurib yo'l ochuvchi kishi bo'ldi.

Shundan o'n sakkiz yil o'tgandan keyin ikki dovyurak sayyoh Afrikani sharqdan g'arbga kesib o'tdi. Ular ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan mashaqqatlarni boshdan kechirib, biri Angolaning janubiy qirg'og'iga, ikkinchisi — shimoliy qirg'og'iga kelib chiqdi.

Bu sayyohlardan biri, ingliz flotining leytenanti Verney Kameron edi. 1872-yili, Lingvistonni qidirish uchun Katta ko'llar atrofiga yuborilgan amerikalik Stenli va uning hamrohlari falokatga uchrabdi, degan gaplar tarqaldi. Leytenant Kameron Stenlini men qidirib topaman, deb o'rtaga chiqdi. Uning bu taklifi qabul etildi. Kameron Zanzibardan safarga jo'nadi.

Doktor Dilon, leytenant Sesil Merfi va Livingstonning jiyani Robert Moffa u bilan birga bordilar.

Kameron Ugogodan o'tganda, u motam marosimiga duch keldi. Sodiqlik xizmatkorlari Livingstonning jasadini sharqiy qirg'oqqa olib kelishayotgan ekan.

Kameron sayohatni g'arbga tomon davom ettiraverdi. Uning maqsadi qit'ani bir okeandan ikkinchi okeangacha kesib o'tish edi. Kameron Uniansilib, Ugunda orqali yurib, Kakuelegacha yetib bordi. O'sha yerda Livingstonning kundalik xotira daftarini topib oldi.

Kameron Tanganayka ko'lidan kechib, so'ng Bambare tog'laridan oshib o'tdi va Lualabu daryosidan kechdi. Keyin u yaqindagina bo'lib o'tgan o'zaro urushlar orqasida xaroba bo'lib ketgan va qul savdogarlarining bosqinchiligi natijasida huvillab qolgan Kilembu, Urua viloyatlaridan va Lomane, Uludu, Lovale daryolarining yuqori oqimidan o'tdi. U Dik Send bilan uning hamrohlarini Gerris olib borib adashtirib qo'ygan va odam bolasi

oyoq bosmagan Kuanza o'rmonlaridan ham o'tdi. G'ayratli leytenant pirovardida Atlantika okeani to'lqinlarini ham ko'rdi. Zanzibardan boshlanib, Benzuela viloyatidagi Sen-Felippe qo'rg'onigacha cho'zilgan bu sayohat uch yilu to'rt oy davom etdi. Bu sayohat mahallada Kameroning doktor Dildon va Robert Moffa degan ikki hamrohi halok bo'ladi.

Ingliz Kamerondan keyin amerikalik Genri Stenli tez orada shu tomonlarda sayohat qiladi. ma'lumki, «Nyu-York Gerald» nomli amerika gazetasining muxbiri bo'lgan bu mard sayohatchi Livingstonni qidirib safarga chiqqan edi. Stenli uni 1871-yil 30-oktabrda Ujiji degan joyda, Tanganayka ko'lining qirg'og'idan topdi. Stenli birinchi sayohati vaqtida Lualaba daryosi bilan yuzakigina tanishgan edi, endi shu daryoning qirg'oqlarini to'la-to'kis tekshirib chiqmoqchi bo'ldi. 1874-yili Stenli qit'aning sharqiy qirg'og'idagi Bagamo degan joydan safarga chiqqan paytda, Kameron Markaziy Afrikaning changalzorlari orasida sayohat qilib yurar edi. Stenli oradan bir yilu, to'qqiz oy o'tgandan keyin, ya'ni 1876-yil 24-avgustda aholisi chechak kasalidan yoppasiga qirilib ketgan Ujiji degan joydan o'tib ketdi. Shundan keyin u yetmish to'rt kun yurib, o'zidan burun Livingston bilan Kameron ko'rib o'tgan katta qullar bozori bo'lgan Nyangvega yetib keldi.

Nyangveda Stenli Zanzibar sultonining odamlari Marunga va Maniema viloyatlarida qanday qirg'in qilayotganini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Stenli bu yerdan Lualaba daryosining qirg'oqlarini tekshirib, uning etak tomonigacha bormoqchi bo'ldi. Uning ekspeditsiyasida Nyangveda yollangan bir yuz qirg'ta hammol bilan o'n to'qqizta qayiq bor edi. Stenlining otryadi safarning dastlabki kunidanoq Ougusu degan joydagi odamxo'r vahshiylik bilan olishish lozim bo'lib qoldi. Daryoning o'tib bo'lmaydigan joylaridan qayiqlarni sudrab o'tishga to'g'ri keldi. Ekvator doirasida Lualaba daryosi

shimolu shimoli-sharq tomonga qayrilgan joyda, elik to'rtta qayiqqa tushib olgan bir necha yuz yerliklar Stenlining kichkina otryadiga hujum qilib qoldilar. Ammo Stenli ularni tumtaraqay qilib yubordi.

Keyin Stenli ikki gradus shimoliy kenglikka chiqib, Lualaba daryosi — Zair yoki Kongo daryosining xuddi o'zginasi ekanligini va bu daryo bo'ylab borilaversa, okean qirg'og'iga yetish mumkinligini aniqladi. Stenli xuddi o'sha yo'ldan yuradigan bo'ldi. U yo'lda har kuni deyarli daryo bo'yidagi qabilalarning ham hujumini daf qilib borar edi. 1877-yil 3-iyunda Massas shalolalaridan o'tayotgan mahalida uning hamrohlaridan biri halok bo'ldi. 18-iyun kuni Stenlining qaylig'ini suv oqizib ketib, to'ppa-to'g'ri Mbelo shalolasiga oborib urdi. Stenlining o'zi zo'rg'a o'limdan qutulib qoldi.

Nihoyat, 6-avgust kuni Genri Stenli okean qirg'og'idan to'rt kunlik yo'ldagi Ni-Sanda qishlog'iga yetib bordi. Ikki kundan keyin u Bansa-Mbuks degan joyga yetib keldi. Bu yerda uning ekspeditsiyasi uchun yuborilgan oziq-ovqatlar bor edi. Dengiz bo'yidagi Boma degan shaharchada Stenli bir oz dam olishga qaror berdi. Afrika qit'asi orqali sayohat qilishdagi qattiq qiyinchilik va azob-uqubatlar bu yosh yigitni (u hali o'ttiz beshga ham kirmagan edi) qaritib qo'ydi. Bu sayohat Stenlining ikki yilu to'qqiz oy vaqtini oldi. Lekin buning evaziga Lualaba daryosi to etak tomonigacha tekshirib chiqildi. Mana shunda Afrikaning shimolidagi azamat Nil daryosi va sharqidagi Zambezi daryosi bilan birga, Afrikaning g'arb tomonida — suvining ko'pligi va havzasining kattaligi jihatidan dunyoda ikkinchi o'rinda turadigan, uzunligi to'rt ming ikki yuz kilometr keladigan katta daryo bor ekanligi aniqlandi. Oqimning har xil joyida har xil nom olgan bu daryo (Lualaba, Zair, Kongo) Katta Ko'llar rayonini Atlantika okeani bilan qo'shadi.

Stenli bilan Kamerun ekspeditsiyasi Angolaning

shimoliy va janubiy chegaralari bo'ylab o'tgan edi. «Pilgrim» kemasi halokatga uchragan paytlarda, ya'ni 1873-yili o'lkaning o'zi butunlay tekshirilmagan edi desa bo'ladi. Angola — Afrika qit'asining g'arbidagi kattakon qullar bozori bo'lib, Vixe, Kassango va Kazonde¹ degan joylar qul bozorining markazi edi.

Dik Send bilan uning hamrohlarini, zaifgina yosh bir ayolni, uning bezgakdan azob chekayotgan kichkina o'g'lini va qul savdogarlari bir ko'rishda ko'zining paxtasi chiqadigan beshta pahlavon negrdan iborat otryadni Gerris okeandan yuzlarcha mil uzoqdagi dahshatli bir joyga boshlab kelgan edi...

Dik na yerlik aholisi, na yirtqich hayvonlari va na iqlimi uning hamrohlariga hech qanday xavf-xatar solmaydigan Janubiy Amerikani xayoliga keltirar edi. U And tog'lari bilan dengiz qirg'og'i o'rtasidagi orombaxsh yerlarni, undagi behisob qishloqlarni, sayohatchilarni yaxshi kutib oladigan mehmondo'st joylarni xotirasiga olar edi. Agar yovuz qo'l yo'ldan chalg'itmaganda bo'ron «Pilgrim»ni Boliviya yoki Peruning xavf-xatarsiz qirg'oqlariga chiqarib tashlagan bo'lardi, deb afsus qilar edi Dik.

Ammo bu yer Afrika edi, dahshatli Angola, qit'aning eng qorong'i burchagi edi! Portugaliyaning mustamlakasidagi hukumat vakillari bu yerlarga kelib ham yurmas edi. Bu yerlarga portugalialik hukumat vakillari kelmas ham edilar, u

¹ XIX asrning yetmishinchi yillarida Portugaliya hukmdorlari qullarni «ozod qilishga» majbur bo'lganlaridan keyin, Angolada negrlarni qul qilish boshqa shakl oldi. Har bir voyaga yetgan negr qonunga muvofiq bir necha yil majburiy ravishda portugalialiklarga ishlab berishi lozim bo'lgan. Angliyaning hukmdorligi ostidagi Janubiy Afrika ittifoqi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, Portugaliyaning mustamlakalari bo'lgan Angola va Mozambikdan har yili ishchi «tanlash usuli» bilan o'n minglab negrlar keltirilib turilgan. Ularni ish joyiga qurolli soqchilar qorovulligida yetkazilardi. Qul savdosining bu shakli o'sha davr reaksiyalarining Portugaliya hukumatining eng muhim daromad manbalaridan biri hisoblangan.

yerda nozirlarning qamchisi ostida qullar karvoni turna qator tizilib harakat qilar edi.

Xiyonatchi Negoro dastidan bu yerlarga kelib qolgan Dik bu mamlakat haqida nimalarni bilardi? U ko'p narsani bilmas edi. U Afrikaga XVI va XVII asrlarda borgan missioner'larning yozganlarini, San-Paolo de Loandadan Zair daryosini yoqalab yuruvchi portugaliyalik savdogarlarning xotiralarini o'qigan edi. Bundan tashqari, doktor Livingstonning 1853-yilgi sayohati to'g'risidagi hisobotini o'qigan edi. Ammo har qanaqa yurakli kishini ham dahshatga solish uchun ana shu ma'lumotlarning o'zi kifoya edi.

Haqiqatan ham, ahvol nihoyatda og'ir edi.

I k k i n c h i b o b

GERRIS BILAN NEGORO

Dik Send rahbarligidagi otryad tunagan joydan uch mil narida o'rmon ichida ikki kishi uchrashdi. Shu yerda uchrashish haqida ular oldindan kelishib qo'ygan edilar.

Bular Gerris bilan Negoro edilar.

Yangi Zelandiyadan kelayotgan portugaliyalik bilan qul savdosi ishlari yuzasidan G'arbiy Afrikaning bu viloyatlariga doim qatnab turuvchi amerikalikning Angola qirg'og'ida qanday qilib uchrashganliklarini o'quvchilar keyinroq bilib oladilar.

Gerris bilan Negoro papiruszor ichidan tez oqayotgan soy bo'yidagi katta anjir daraxti ildizlari ustiga o'tirishdi. Endi bu ikki muttaham

¹ *Missionerlar* — hukmron din g'oyalarini mustamlaka mamlakatlarda targ'ib qiluvchilar. Yerlik xalqlarni xristian diniga kirgizish niqobi ostida missionerlar kapitalist davlatlarining yangi yerlarni qo'lga kirgizish ishlarini tayyorlashda o'tkir razvedkachilik rolini o'ynadilar.

uchrashib, keyingi kunlarda bo'lgan voqealarni birbirlariga gapirib bermoqda edilar.

— Shunday qilib, Gerris, — dedi Negoro, — «kapitan» Send otryadini Angolaning ichkarisiga ergashtirib olib borolmading-da! O'n besh yoshli bu bolani yo'ldoshlari «kapitan Send» deb yurgizadilar-ku, a?

— Unday demasang-chi, do'stim, — deb javob qaytardi Gerris, — ularni dengiz bo'yidan yuz mil ichkariga aldab olib borishimni aytmaysanmi! Keyingi kunlarda «yosh do'stim» Dik Send mendan ko'zini uzmaydigan bo'lib qoldi. Uning shubhasi bora-bora ishonchga aylandi. O'lay agar.

— Yana yuz mil ichkariroqqa olib borganingda bo'lar edi, — deb uning so'zini bo'ldi Negoro, — o'shanda bu odamlar albatta qo'limizga tushar edi. Ammo ularni hozir ham qo'ldan chiqarmaslikka harakat qilamizku-ya.

Gerris yelkasini qisib qo'ydi.

— Qayoqqa ham ketardi ular? — dedi u. — Bilsang, Negoro, men o'zim qochib qoldim! «Yosh do'stim»ning qornimdan otib tashlamoqchi bo'lib qolganini necha bor qarashidan payqadim. Senga aytsam, qurol-aslaha do'konida qadog'iga o'n ikki donadan sanab beriladigan olxo'ri mag'izini me'dam yaxshi hazm qila olmaydi.

— Shunday, — dedi Negoro. — U bola bilan mening ham hisob-kitobim yo'q emas.

— Ana endi orangizni ochiq qilsangiz ham bo'lad. Hatto protsenti bilan to'latish mumkin! Ular bilan yo'lga chiqqan kunlarimda Angolani Atakama sahrosi deb alday berdim, chunki bir vaqt Atakamaga borgan edim-da. Biroq keyinchalik kichkina Jekka «rezinka daraxtlar» bilan pashsha qushlar, onasiga xin daraxti, beo'xshov tog'aga esa tilla qo'ng'izlar kerak bo'lib qoldi. Rostini aytsam, hamma hiyla-nayranglarimni ishlatib bo'ldim! Bir mahal ular ko'rgan jirafalarni tuyaqushlar deb ishontirdimu, o'shandan keyin nima hiyla qilishni



bilmay qoldim. Buning ustiga «yosh do'stim» ham, ayniqsa, fillarning izini ko'rganimizdan keyin, gapimga sira ishonmaydigan bo'lib qoldi. Uni ham qo'yginu qayoqqa qarama, gippopotamlar chiqib kelyapti! Bilsang, Negro, yaxshi kishilar Benguella katorga turmasiga tushgandek, Amerikada gippopotamlar bilan fillar bo'lishi aqlga sig'maydigan ish-da, axir. Undan keyin bironta qochib ketayotgan kekxa asir qul tashlab ketgan bo'lsa kerak, daraxt tagidan zanjir bilan qoliplar topilib qoldi. Bundan tashqari, yaqin orada arslon bo'kirib yubordi. Mushuk miyovlayapti desam bo'lmasdi-da, axir! Ha deyaver! Shunday qilib, otga minib qochishdan bo'lak ilojim qolmadi.

— Tushunarli, — dedi Negro. — Har holda ular hech bo'lmaganda yana yuz mil ichkariroqqa borganda soz bo'lardi-da.

— Do'stim, qo'limdan kelgan hamma chorani ko'rdim, — deb e'tiroz qildi Gerris. — Bizdan nariroqdan yurib kelganing yaxshi bo'ldi. Ular sening ergashib kelayotganingni sezib qolishdi shekilli. Ularning Dingo degan iti bor ekan. Seni yomon ko'rsa kerak. Nima qilib eding sen u itga?

— Hozircha hech nima, — dedi Negro, — lekin yaqin o'rtada u itga bitta o'q hadya qilsam kerak.

— Agar yaqinrog'iga borib qolsang, Dik Send ham senga o'q uzishi turgan gap. Shuni ham aytib qo'yyayki, «yosh do'stim» juda yaxshi mergan. Umuman aytganda, azamat yigit ekan!

— Naqadar azamat bo'lsa ham, Gerris, adabsizligi uchun jazosini tortishi kerak, — deb javob qaytardi Negro.

Negoroning aftida shafqatsizlik aks etardi.

Birpas jim turgandan keyin Gerris yana gap boshladi.

— Aytmoqchi, Negro, — dedi u, — kema halokatga uchragan joy yaqinida sen bilan men tasodifiy uchrashib qolgan mahalimizda, mendan o'z hamrohlarini mumkin qadar mamlakatning

ichkarirog'iga ergashtirib borishni iltimos qildingu, lekin boshqa gap gapirmading. Ammo keyingi ikki yil ichida o'zingning nima ishlar qilganing haqida hech nima demading. Bizlarning to's-to'polon hayotimizda ikki yil ozmuncha vaqt emas, axir. Keksa Alvetsning topshirig'i bilan Kassangodan qullar karvonini boshlab ketganingdan beridom-daraging bo'lmadi. Rostini aytsam, inglizlarning poyloqchi kemasi qo'lga tushib, natijada dorga osilgan bo'lsang kerak, deb o'ylab yurardim...

— Rostdan ham shunaqa hodisa bo'lay deb edi, Gerris.

— Zarari yo'q. Dorga osilishdan baribir qutulolmaysanku-ya.

— Rahmat-e!

— Nimayam qilarding, — deb javob qaytardi Gerris, ishbilarmon kishilarday xotirjamlik bilan. — Tavakkal-da. Afrika sohilida qullar bilan savdo qiluvchi har bir kimsa o'z uyida o'lmaydi. Demak, sen qo'lga tushibsanda?

— Shundoq.

— Qo'lga tushirganlar inglizlarmidi?

— Yo'q, portugaliyaliklar edi.

— Yukni bo'shatgandan keyinmi yoki bo'shatmasdan oldinmi?

— Bo'shatgandan keyin, — deb javob qaytardi Negoro bir oz ikkilanib turgandan keyin. — Portugaliyaliklar qul savdosidan ancha boyib olganlaridan keyin, endi qul savdosiga qarshi bo'lib qoliptilar! Kimdir meni chaqibdi. Meni poylab yurishgan ekan... Ushlab olishdi.

— Sud qilishdimi?..

— San-Paolo de Loandaga umrbod katorgaga hukm qilishdi.

— Tavba-ey! — deb xitob qildi Gerris. — Katorgaga degin-a! Sen bilan men kabi ochiq havoga o'rgangan odamlarga sira to'g'ri kelmaydigan joy u! Undan ko'ra dorga osishgani yaxshiroq edi.

— Dorga osilgan kishi qochib keta olmaydi, surgundan bo'lsa...

— Qochdingmi?

— Ha, qochdim, Gerris. Katorgaga olib kelishganiga o'n besh kun bo'ldi deganda, Yangi Zelandiyaning Oklend portiga jo'nayotgan ingliz kemasining tryumiga kirib yashirinib oldim. Suv bochkasi bilan konserva yashiklari orasida bekinib ketdim, safar tugaganga qadar bemalol yeb-ichib yotdim. Qorong'i tryum ichida judayam qiynalдим, kema dengizda mahalida palubaga chiqishni xayolimga keltirib ham bo'lmas edi, chunki tryumdan boshimni chiqarishim bilan meni yana o'z joyimga tiqib qo'yishlari turgan gap edi. U mahalda azob yeb va buning ustiga qamalib yotgan bo'lar edim. Bundan tashqari, Oklendga kelish bilan meni ingliz hukumatiga topshirishardi, ingliz hukumati esa menga darrov kishan solib, yana San-Paolo de Loandaga yuborardi yoki dorga osardi. Ana shularni o'ylab, yashirin sayohat etishga qaror berdim.

— Yana bilet ham olmasdan! — deb kuldi Gerris. — Sherik, uyalmaysan ham-a? Qochib borganing ustiga yana ovqatni ham tekin qilibsan!

— Ha, — deb uh tortib qo'ydi Negoro, — o'ttiz kun tiqilinch qorong'i tryumda yashirinib...

— O'tgan ish o'tdi endi, Negoro! Shunday qilib, Yangi Zelandiyaga, maoriylar mamlakatiga yetib olding? Xo'sh, o'sha yoqda qolmabsan. Bu yoqqa qanday qilib qaytib kelding? Yana tryumdami?

— Yo'q, Gerris. O'zing bilasan: u yoqqa borganimdan keyin, yana Angolaga qaytib, qul savdosiga kirishsam, degan xayol kelib qoldi boshimga.

— Ha, shundoq, — dedi Gerris, — biz o'z kasbimizni yaxshi ko'ramiz... odatlanib qolganmiz.

— O'n sakkiz oydan beri...

Negoro birdan gapini to'xtatdi. U Gerrisga jim bo'lishni imo qilib, o'zi atrofga quloq sola boshladi.

— Gerris, — dedi u shivirlab, — papiruszor ichidan shitirlagan ovoz eshitib qoldim!

— Ko'raylik-chi, nima bor ekan u yerda, — deb shivirladi Gerris, miltig'ini otib yuborishga tayyor holda ushlab.

Ular o'rinlaridan turib, papiruslar orasini juda diqqat bilan qarab chiqdilar.

— Hech narsa yo'q, senga shunday tuyulgan bo'lsa kerak, — dedi Gerris. — Yomg'irdan keyin soyda suv ko'payib, ilgarigidan ko'ra qattiqroq shovillayapti. O'tgan ikki yil ichida, og'ayni, o'rmonning shovqinini esingdan chiqarib qo'yibsan. Zarari yo'q, yana tezda o'rganib ketasan. Qani, hikoyangni davom ettiraver. Keyin ish to'g'risida gaplashib olarmiz.

Ular yana anjir daraxti tagiga o'tirishdi va Negoro boshidan o'tganlarini yana aytib bera boshladi:

— O'n sakkiz oy Oklendda turdim. Men hech kimga bildirmasdan tryumdan chiqib, kemadan qirg'oqqa tushib oldim. Ammo cho'ntagimda bir miri ham yo'q edi. Ochdan o'lmaslik uchun to'g'ri kelgan ishni qilaverdim...

— Demak, sen halol mehnat qilibsan-da.

— Topding, Gerris.

— Bechora-ey!

— Shu vaqt ichida bu la'nati joydan tezroq qutulish payidan bo'ldim. Lekin anchagacha paytini topa olmadim. Axiri bir kuni Oklend portiga «Piligrim» kemasida kelib qoldi.

— Angola bo'yida halokatga uchragan kemami?

— Xuddi o'shaning o'zi. Missis Ueldon o'z o'g'li va tog'asi Benedikt bilan o'sha kemaga yo'lovchi bo'lib tushib qolishdi. Men ham kemada o'zimga bop ish topdim, chunki men bir vaqtlari dengizchi edim: qul tashiydigan kemada kapitanning ikkinchi yordamchisi bo'lib ishlagandim. Men «Piligrim» kapitaniga ish so'rab borgan edim, lekin unga matroslar kerak emas ekan. Ammo baxtinga kemandan oshpazi yaqindagina qochib ketgan ekan. Ovqat pishirishni bilmagan dengizchi — dengizchi emas.

Shunda men o'zimni pazanda oshpaz deb taqdim etdim. Yaxshiroq oshpaz topilmagani uchun kapitan Gul meni oshpaz qilib oldi. Oradan bir necha kun o'tgandan keyin «Piligrim» Yangi Zelandiyadan jo'nab ketdi...

— Biroq, — deb uning gapini bo'ldi Gerris, — «yosh do'stim»ning aytishiga qaraganda, «Piligrim» Afrika qirg'oqlariga bormoqchi emas ekan. Qanday qilib kema bu yoqqa kelib qoldi?

— Dik Send bunga hozir ham tushunolmagan bo'lsa kerak, — deb javob qaytardi Negoro, — ehtimol, keyin ham sira tushunmas. Ammo, Gerris, voqeaning qanday bo'lganini senga yaxshilab tushuntirib beraman. Agar istasang, mening hikoyamni «yosh do'stingga» gapirib berishing ham mumkin.

— Bo'lmasam-chi! — deb xoxolab kuldi Gerris. — Gapiraver, og'ayni, gapiraver!

— «Piligrim» Valparaisoga ketmoqda edi, — deb gap boshladi Negoro. — Kemaga ishga yollangan mahalda men Chiligagina boraman deb o'ylagan edim. Chili Yangi Zelandiya bilan Angolaning yo'li ustida desa bo'ladi, demak, men Afrikaning g'arbiy qirg'og'iga bir necha ming kilometr yaqinlashib qolgan bo'lar edim. Ammo yo'lda ahvol o'zgardi. Oklenddan yo'lga chiqilganiga uch hafta bo'ldi deganda, kapitan Gul bilan uning hamma matroslari kit ovi mahalida halok bo'ldilar. O'sha kuni «Piligrim» kemasida atigi ikki dengizchi — biri yosh matros Dik Send va ikkinchisi oshpaz Negoro qoldi.

— Sen kema kapitani bo'lib qoldingmi? — deb so'radi Gerris.

— Boshda shunday bo'lar deb o'ylab edim. Keyin qarasam, menga ishonmadilar. Shunday bo'lgach, baribir kemaga xo'jayin bo'lib bo'lmas edi. Shuning uchun boshqa tomonlarini o'ylab, o'z o'rnimda, ya'ni «Piligrim» oshpazi bo'lib qolaverdim.

— Demak, kema Afrika qirg'og'iga tasodifiy kelib qolgan ekan-da?

— Yo‘q, Gerris, — dedi Negoro, — sen bilan mening «Piligrim» halokatga uchragan joyda uchrashib qolishimizgina tasodifiy bo‘ldi. Kemani yo‘ldan chalg‘itish, uning Angola qirg‘og‘iga kelib qolishi — mening qilgan ishim! Sening «yosh do‘sting» dengizchilik ishida hali yoshlik qilar ekan: u, ochiq dengizda kemandir turgan joyini lag va kompas bilangina aniqlay olar ekan. Shunday qilib, kunlardan bir kun lag dengizga tushib cho‘kib ketdi. Ikkinchi bir kuni kechasi qarabsanki, kompasning tagiga temir parchasi qistirib qo‘ygan edim, kompasning strelkasi boshqa tomonga surilib ketdi. Qattiq bo‘ronda qolgan «Piligrim» boshqa tomonga qarab ketdi... Safarning nima uchun bunchalik cho‘zilib ketishiga Dik Send sira tushuna olmadi. Ammo uning o‘rnida eng tajribali dengizchi bo‘lganda ham gangib qolgan bo‘lardi. Bolasi tushkur bizning Gorn burnidan aylanib o‘tayotganimizni xayoliga ham keltirmadi. Ammo men, Gerris, tuman orasidan Gorn burnini ko‘rib qoldim. Shundan keyin darrov temir parchani olib tashladim va kompas strelkasini ilgarigi joyiga keltirib qo‘ydim. Qattiq bo‘ron kemani shimoli-sharq tomonga, to‘ppa-to‘g‘ri Angola qirg‘og‘iga haydab keldi.

— Buni qara-ya, — dedi Gerris, — seni uchratish va yo‘ldoshlaringni boshlab kelish uchun ataylab kelgandek xuddi o‘sha paytda men ham bir ish bilan o‘sha qirg‘oqqa borib qolibman-a. Ular biz Amerikadamiz deb qattiq ishongan edilar, shuning uchun men Angolani bemalol Quyi Boliviya deb tushuntirdim... Haqiqatda ular bir-biriga o‘xshaydi.

— Tristand, Akunya orolini Dik Send Pasxi oroli degani singari, ular Angolani rostdan ham Boliviya deb ishonishdi.

— Uning o‘rnida bo‘lgan har bir boshqa kishi ham baribir shunday deb o‘ylagan bo‘lardi, Negoro.

— Shundoq, Gerris. Albatta, men Dik Sendning xatosidan foydalandim. Shuning uchun ham missis

Ueldon bilan uning hamrohlari hozir Markaziy Afrikaning dengiz qirg‘og‘idan yuz mil ichkaridagi ochiq joyda tunamoqdalar.

— Lekin hozir ular qayerdaliklarini bilishadi-ku!

— Bilgan bilan endi nima foydasi bor? — dedi Negoro.

— Sen ularni nima qilmoqchisan? — deb so‘radi Gerris.

— Bilganimni qilaman-da, — dedi Negoro. — Keksa xo‘jayinimiz Alvetsning ahvoli qalay, shundan gapir. Cholni ko‘rmaganimga ikki yildan ham oshdi.

— Ha, qari shaytonning ishi joyida! Seni ko‘rsa juda xursand bo‘ladi-da, — deb javob qaytardi Gerris.

— Hali ham Vixeda turadimi? — deb so‘radi Negoro.

— Yo‘q, og‘ayni, «idora»sini Kazondega ko‘chirganiga bir yil bo‘ldi.

— Ishlari joyida degin?

— Joyida bo‘lganda qandoq! — dedi xitob qildi Gerris. — Garchi qul savdosi, ayniqsa bu sohilda keyingi vaqtlarda ancha qiyinlashib qolgan bo‘lsa ham, uning ishlari chakki emas. Bir tomondan, Portugaliya hukumati, ikkinchi tomondan, ingliz poyloqchi kemalari qullarni chet mamlakatlarga olib chiqish ishiga har xil yo‘llar bilan to‘sqinlik qilmoqdalar. Bir joydagina, ya‘ni Angolaning janubidagi Mossamedes atrofidagina kemaga qul ortish sal tinchroq, shuning uchun baraklar hammasi qullar bilan liq to‘la. Biz ularni Ispaniya mustamlakalariga jo‘natish uchun kemalar kelishini kutib turibmiz. Yuklarni Benguella va San-Paolo de Loanda orqali jo‘natish haqida gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi, bu haqdagi gaplarga gubernator bilan chinovniklar quloq solishni ham istamaydilar. Keksa Alvets Afrikaning ichki o‘lkalariga kirib joylashsam deb o‘ylab turibdi. U Tanganayka ko‘li yoniga karvon jo‘natmoqchi bo‘lib turibdi. U yerda gazlamaga fil suyagi bilan qul ayirboshlash foydali

ekan. Hozircha, Madagaskarni qullar bilan ta'min qilayotgan yuqori Misr va Mozambik bilan savdo yaxshi ketayotir. Lekin, men, tezda qul savdogarlariga qiladigan ish qolmaydi, deb qo'rqyapman. Inglizlar Afrikaning ichkarisiga kundan-kun mahkamroq joylashib olmoqdalar. Padariga qusur, Livingston Katta ko'llar o'lkasini tekshirib bo'lib, Angolaga jo'namoqchi bo'lib turganmish. Kameran degan qandaydir bir leytenant sharqdan g'arbga butun qit'ani kesib o'tmoqchimish. Amerikalik Stenli ham shunday qilmoqchimish deb eshitdim. Bunaqangi «sayyohlar» bizning ishimizga katta zarar yetkazishi mumkin, Negoro. Agar biz o'z manfaatlarimizga yaxshi tushunsak, chaqirilmagan bu mehmonlarning bittasi ham Yevropaga qaytib keta olmasdi ham, Markaziy Afrikada ko'rganlarini u yoqqa borib vaqillab yurmasdi ham.

Agar Gerris bilan Negoroning bu suhbatini biron kishi eshitib o'tirgan bo'lsa edi, qishloq xo'jalik ishlariga tashqaridan to'sqinlik qilinayotgani to'g'risida ikkita sof dil yer egasi gaplashayotgan ekan-da, deb o'ylardi. Ularning gaplari toy-toy paxta yoki qoplab kofe jo'natish haqida emas, balki «tirik mol» jo'natish haqida borayotgani kimning ham esiga keldi. Bu «savdogarlar» haq bilan nohaqni ajratmasdilar. Ularda vijdon ham, insof ham yo'q edi. Hech qanday axloqiy mezonni bilmasdilar, basharti, bir vaqtlari axloqli bo'lgan bo'lsalar ham, dahshatli qul oldi-sotdisiga aralashib yurib, allaqachon uni ham unutib qo'ygandilar.

Qul savdogari Alvetsning sobiq agenti Negoroning ikki yil ichida sira o'zgarmaganiga Gerris juda qoyil qoldi. Negoro ilgarigidek hozir ham har qanday jinoyat qilishga tayyor edi. Gerris halokatga uchragan «Piligrim» kemasining odamlari haqida Negoro qanday niyatda ekanligini bilmasdi. Shuning uchun u Negorodan:

— Endi ayt-chi, ilgarigi hamrohlarini nima qilmoqchisan? — deb so'radi.

Negoro bu haqda oldindan o'ylab qo'ygan bo'lsa kerak, sira o'ylab-netib turmasdan javob qaytardi:

— Ba'zilarini qul qilib sotaman, ba'zilarini...

Negoro gapini tamomlamasa-da, ammo qo'rqinchli chehrasidan maqsadi nima ekanligi aniq ko'rinib turar edi.

— Kimlarni sotmoqchisan? — deb so'radi Gerris.

— Missis Ueldonga ergashib yurgan negrlarni, — deb javob qaytardi Negoro. — Keksa Tomni ko'pga pullab bo'lmasa kerak, lekin qolgan to'rttasi azamat yigitlar. Ularga Kazonde bozorida katta pul berishadi.

— Juda soz, Negoro! — dedi Gerris. — Bu to'rttala baquvvat negrlar ishlashga o'rganib qolgan. Ular Afrikaning ichkarisidan ushlab keltirilgan hayvonsimon negrlarga sira o'xshamaydi. Albatta, ularni qimmatga sotsa bo'ladi. Amerikada tug'ilgan negr — Angola bozorlarida juda nodir mol-da. Undan keyin, menga aytishni unutibsan shekilli: «Piligrim»da naqd puldan yo'qmidi?

— Og'izga olishga arzimaydi! Bir necha yuz dollarni cho'ntakka urdim, xolos. Baxtinga hali boshqa joydan ham umidim bor...

— Qanday umidlar, og'ayni? — deb so'radi Gerris qiziqsinib.

— Bor-da, — deb cho'rt kesdi Negoro.

U tilini tiyolmagani uchun o'zidan norozidek ko'rinardi.

— Demak, bu qimmatli molni qo'lga kiritish kerak ekanda? — dedi Gerris.

— Bu shunchalik qiyin ishmi? — deb so'radi Negoro.

— Hech qiyinchiligi yo'q, og'ayni. Bu yerdan o'n mil naridagi daryo bo'yida qullar karvoni turibdi. Bu karvonni Ibn Homis degan arab boshlab borayotir. U karvonni Kazondega olib borish uchun mening qaytishimnigina kutib turibdi. Karvonni

qo'riqlab borayotgan yerlik soldatlarning soni anchagina bor, ular Dik Send bilan uning hamrohlarini asir qilib olish uchun bemalol yetadi. Basharti «yosh do'stim» Kuanza daryosiga qarab yurmoqchi bo'lsa...

— U yoqqa yurmasa-chi? — deb uning gapini bo'ldi Negoro.

— O'sha yoqqa yuradi! — deb javob qaytardi Gerris. — U juda aqli bola, lekin u tomonda qanday xavf borligini u aslo bilmaydi. Dik Send kelgan yo'li bilan qirg'oqqa qaytishni xayoliga ham keltirmasa kerak. Uning o'rmonda adashib qolishiga aqli yetadi. Shuning uchun Dik okeanga borib quyiladigan biror daryoga yetib olib, solda daryo oqimi bilan ketishga harakat qilishi mumkin. U o'z otryadini qutqarish uchun bundan boshqacha yo'l tutmaydi. Men u bolani yaxshi bilaman, u xuddi shunday qiladi.

— Ha... balki, — dedi Negoro birpas o'ylab turib.

— Sen «balki» demasdan, «albatta» desang ham bo'laveradi! — deb xitob qildi Gerris. — Men bunga «yosh do'stim»ning o'zi Kuanza bo'yida uchrashamiz, deb va'da bergandek astoydil ishonaman.

— Demak, biz darrov yo'lga tushishimiz kerak ekan-da, — dedi Negoro. — Dik Sendni men ham bilaman. U bir soatniyam behudaga o'tkazmaydi, shuning uchun biz undan ilgariroq harakat qilishimiz kerak.

— Mayli, yo'lga chiqish bo'lsa chiqaylik!

Gerris bilan Negoro endi ketmoqchi bo'lib turganlarida, papiruszordan yana boyagi shitirlagan ovoz eshitildi.

Negoro turgan joyida qotib qoldi.

Birdan qattiq vovullagan ovoz eshitildi va papiruszordan katta bir it chopib chiqdi. Uning yunglari hurpaygan va og'zi katta ochilgan edi. U o'zini odamlar ustiga tashlamoqchi bo'lib turar edi.

— Dingo! — deb qichqirib yubordi Gerris.

— Endi mendan omon qutulolmaydi u, — dedi Negoro.

It Negoroga o'zini tashlashi bilanoq Negoro Gerrisning qo'lidagi miltiqni tortib olib, itga qarab o'q uzdi.

Dingo vangillaganicha ariq bo'yidagi chakalakzor ichiga kirib ketdi. Negoro shoshib suv bo'yiga tushdi.

It ketgan yo'ldagi papiruslarga qon tegib, suv bo'yidagi toshlarga qon oqib qolibdi.

— Axiri bu pes itdan qasdimni oldim-a! — dedi Negoro.

Gerris bu manzarani indamay tomosha qilardi.

— Ko'rib turibman, Negoro. Bu it ko'pdan senga tishini qayrab yurar ekan, — dedi Gerris.

— Shunday edi, Gerris. Endi menga osilmasa kerak.

— Nima uchun seni bunchalik yomon ko'radi?

— Eskidan adovatimiz bor, — deb dudmal javob qildi Negoro.

— Eski adovat deyapsanmi? — deb qayta so'radi Gerris.

Negoro javob qaytarmadi. Negoro mendan o'tmishdagi qandaydir bir sirini yashiryapti deb o'yladi-da, Gerris uni qistab o'tirmadi.

Bir necha minutdan keyin ular suv oqimi yoqalab, Kuanza daryosi tomon jo'nab ketdilar.

Uch inchi bob

QIRG'OQDAN YuZ MIL UZOQDA

— «Afrika!.. Markaziy Afrika!..» Bu dahshatli so'zlar Dik Sendning xayolidan sira o'chmas edi.

Keyingi haftalar ichida bo'lib o'tgan hodisalarni birma-bir yodiga keltirib, Dik Send qanday qilib

«Pilgrim» bu xatarli qirg'oqqa kelib qoldi? Qanday qilib u Gorn burnidan o'tib, bir okeandan ikkinchisiga kelib qoldi? — degan savollarga javob topishga urinar edi. «Pilgrim» tez yurib mo'ljallagandan ikki baravar ortiq yo'l bosipti. Shuning uchun yer uzoq vaqtgacha ko'rinmapti. Buni Dik endi fahmlagan edi.

«Afrika!.. Afrika!..» deb takrorladi Dik Send.

U dengiz safarida yuz bergan hamma voqealarni birma-bir xayolidan kechirdi. Dik zapas kompasning qanday qilib singanini, arqon uzilib, lag dengizga tushib, cho'kib ketganini esladi. Shu paytda birdan esiga: kompas qasddan buzilgan ekan!.. degan fikr keldi.

«Kemada bittagina kompas qolgandi, — deb o'yladi u. — Uning to'g'ri-noto'g'ri ishlashini solishtirib ko'rish uchun boshqa kompas yo'q edi. Bir mahal kechasi keksa Tomning hayqirgan ovoizidan uyg'onib ketdim. Palubaga chiqsam, kema quyrug'ida Negoro bor ekan... U toyib ketib, kompas qo'yilgan shkafcha ustiga yiqilpti... O'shanda kompasni buzib qo'ymadimikan?»

Dik Sendning ko'nglida go'yo yorug' nur balqiy boshladi. U asta-sekin sirli hodisalarni yecha boshladi. Dik Negoroning yurish-turishlari naqadar shubhali bo'lganini endi tushuna boshlagan edi. Bir qancha falokatli «tasodifiy hodisalar» bo'lishiga Negorogina aybdor edi. Bu «tasodifiy hodisalar» boshda «Pilgrim»ni falokatga uchratgan bo'lsa, endi barcha yo'lovchilar falokat oldida turibdilar.

Bu ablah Negoroning o'zi kim? Uning aytishicha, hech qachon dengizchi bo'lmaganmish, shu gap to'g'rimikan? Amerikaga boradigan kemani Afrikaga chalg'itib olib kelish uchun juda tajribali dengizchi bo'lish kerak.

Har holda, ilgari bir qancha masalalar yechilmay qolgan bo'lsa ham, lekin hozir hamma narsa ayon bo'ldi. O'smir, hozir ular Markaziy Afrikada, ehtimol, uning eng xatarli joyi bo'lgan

Angolada, dengiz bo'yidan yuz mil narida turganlarini aniq bilardi. Gerrisning aldamchi xiyonatkor ekanligiga Dik hech shak-shubhasiz ishonadi. Demak, amerikalik Gerris bilan portugaliyalik Negoro ko'pdan beri tanish ekanlar; ular ittifoqo shu sohilda uchrashib qolibdilar, shundan keyin ular ikkovi bir bo'lib, «Pilgrim»dagi yo'lovchilarga qarshi yomon niyatda til biriktiriptilar...

Bir narsagagina tushunib bo'lmadi: bu ablahlar nimalar qilishmoqchi ekan? Negoro, qul qilib sotish uchun Tom bilan uning sheriklarini qo'lga tushirmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak, deb o'ylash mumkin. U eski alamlari uchun Dik Senddan o'ch olmoqchi bo'lsa kerak, bu ham o'z-o'zidan ma'lum narsa. Ammo missis Ueldon-chi, kichkina Jek-chi? Bu bechora ona bilan mushtday bola ablah portugaliyalikka nima yomonlik qilishdi ekan?

Agar Dik Send Gerris bilan Negoroning nimalar to'g'risida gaplashganini eshitganida edi, gapning nimada ekanini tushungan, missis Ueldon, negrlar va uning o'zi qanday xavf-xatarlar oldida turganini bilib olgan bo'lardi.

Ahvol juda og'ir bo'lsa-da, mard o'smir tetik edi. U dengizda kapitan bo'lganidek, quruqlikda ham kapitan bo'lib qoldi. Missis Ueldon, kichkina Jek va o'zini unga ishonib topshirgan barcha kishilarning hayot-mamoti uning qo'lida edi. U o'ziga yuklangan vazifani bajarishga bel bog'lagan edi. U, bu vazifalarni albatta bajaradi!

Ikki-uch soat davomida Dik Send kelgusida bo'ladigan yaxshi-yomon ishlarni xayolida taroziga solib ko'rdi, lekin, afsuski, yomon tomon pallani bosib ketaverdi! So'ngra u, xotirjam, mustahkam va bardosh bilan o'rnidan turdi.

Daraxt uchlariga oftobning dastlabki nurlari tushgandi. Hamma uyquda edi. Dik Send bilan keksa Tomgina uyg'oq edilar.

Yosh kapitan cholning oldiga keldi.

— Tom, — dedi u sekin, — siz arslonning

bo'kirishini eshitdingiz, qul savdogarlarining qolip-kishanlarini ko'rdingiz... Demak, Markaziy Afrikada ekanligimizni bilasiz-a?

— Ha, kapitan, bilaman...

— Endi gap bunday, Tom: na missis Ueldonga va na sheriklaringizga bu to'g'rida indamang! Bizdan bo'lak hech kim buni bilmasligi kerak. Biz hech kimni qo'rqitmasligimiz shart.

— Ha... to'g'ri aytyapsiz, Dik... — deb javob qaytardi, kekxa Tom.

— Tom, biz juda ham ehtiyot bo'lishimiz kerak, — deb so'zida davom qildi Dik. — Biz dushman mamlakatdamiz. Dahshatli mamlakat, dushmanlar ham, ashaddiy dushmanlar... Hamrohlarimizga, — Gerris bizga xiyonat qildi, deymiz, ehtiyot bo'lishlari uchun shuning o'zi kifoya qiladi. Ular, yerlik ko'chmanchi qabilalar bizga hujum qilmoqchi ekan, deb o'ylasinlar.

— Bilasizmi, Dik, o'rtoqlaringa bemalol ishonaversangiz bo'ladi.

— Bilaman. Yana shuni ham bilamanki, Tom, sizning aqlingizga va turmushdagi tajribalaringizga ham to'la suyanaman. Ishqilib, menga yordam berishdan bo'yin tovlamassiz deb o'ylayman?

— Har qachon yordam berishga tayyorman, kapitan!

Dik Send Tomga o'z niyatini gapirib berdi. Xayriyatki, Gerrisning xiyonati uning niyati amalga oshmasdanoq ochilib qoldi, shu sababdan Dik Send va uning hamrohlari uchun hozircha hech qanday xavf-xatar yo'q edi. Qochoq qullar tashlab ketgan qolip-kishanlarning topilib qolishi va so'ngra arslonning bo'kirishi Gerrisning yomon niyatda ekanligini oldindanoq bildirib qo'ydi. Gerris sharmanda bo'lganini fahmlab qolib, otryadni uning sheriklari poylab turgan joyga boshlab bormasdanoq qochib qoldi. Dingoning qiliqlari, keyingi kunlarda Negoro o'zining sobiq hamrohlari ketidan qolmasdan kelayotganini bildirar edi.

Negoro Gerris bilan uchrasha olgan va hozir ikkovi kelgusida nima ish qilish kerakligi haqida maslahatlashayotgan bo'lsa kerak. Dik bir necha soat ichida hali hujum bo'lishini kutmasdi, shu sababli fursatdan foydalanishga qaror berdi.

Ularning birdan-bir niyati — mumkin qadar tezroq yana dengiz qirg'og'iga qaytish edi. Undan keyin Dik, qirg'oq bo'ylab shimol yoki janub tomonga yurib, dengiz bo'yidagi biror shahar yoki qishloqqa yetib olmoqchi edi. U yerda ular o'z vatanlariga qaytish imkoniyati bo'lganga qadar bemalol turishlari mumkin bo'lar edi.

Ammo dengiz qirg'og'iga qaysi yo'l bilan borsa bo'lar ekan? Kelingan yo'ldanmi? Dik Send bu yo'lni ma'qul ko'rmadi. Gerrisning: o'smir to'g'riroq bir yo'lni tanlaydi, degan gapi to'g'ri edi.

Haqiqatan ham, kelgan yo'ldan o'rmon orqali qaytish yaxshi emasdi, chunki bu yo'lni Negoro-ning sheriklari ham bilar, shu sababdan orqadan tushib qolishlari mumkin edi. Birdan-bir chora, izni yo'qotish uchun suvdan yurish edi. Bundan tashqari, xayriyat, shu mahalgacha yirtqich hayvonlar sayyohlarga zarar yetkazmadilar; solga chiqib olinsa, vahshiylardan ham ancha tinch bo'linadi. Ikkinchidan, daryoda vahshiylarning hujumi ham qo'rqinchli emas, chunki mahkam ishlangan sol ustidagi yaxshi qurollangan Dik Send bilan uning sheriklari yerliklarning hujumini bemalol daf qilishlari mumkin. Uchinchidan, solda safar etish missis Ueldon bilan uning kichkina o'g'li uchun ham juda qulay edi, chunki ular yo'l yuraverib juda holdan ketib qolgan edilar. Missis Ueldon yurolmaydigan bo'lib qolgan taqdirda uning uchun novdalardan zambil to'qib olish mumkin, zambil ko'taruvchilar ham topilardi, albatta. Biroq bunda besh negrdan ikkitasi zambil ko'tarish bilan band bo'lib qolardi, Dik Send esa birdan hujum bo'lib qolsa, hamma sheriklari bilan bunga tayyor turishni afzal ko'rardi.

Bundan tashqari, solda daryo oqimi bilan suzish dengizchi Dikning o'z hunari edi.

Yaqin orada sol bilan suzib borarlik biror daryo borligini bilib olish masalasi qolgandi. Dik Send quyidagi sabablarga asosan bunday daryo bor bo'lishi kerak, deb o'ylar edi. Bu yerlarni g'arb tomondan dengiz to'sib turardi. Shimol bilan sharq tomondan tog'lar o'rab olgandi. Shunday qilib, «Pilgrim» halokatga uchragan joy yaqinida Atlantika okeaniga quyiladigan daryoning irmoqlari o'tishi yoki tog'larga yetmay, janub tomonga tik burilib ketgan bo'lishi kerak. Shunday ekan, demak, daryoning o'zi yoki uning irmoqlaridan biri bizning otryadimiz turgan joyga yaqin bo'lishi kerak.

Buning shunday bo'lishiga Dik Send batamom ishonar edi. Safarning oxirida atrofdagi yerlarning tabiati o'zgara boshlagan edi. Yo'l pastlikka qarab tushmoqda, yer esa zaxlasha borar edi. Ko'p joylarda o'tlar orasidan ilon izi bo'lib soylar oqib yotardi. Demak, bu yerlarda yer osti suvi yuza ekan. Safarning so'nggi kunida otryad shunday bir soy bo'ylab ancha yurgan edi. Bu soyni yana qidirib topish qiyin emasdi. Albatta, bu tor soyga sol tushirish mumkin emas edi. Agar otryad o'sha soy yoqalab boraversa, soy borib quyiladigan daryoga chiqib olishi mumkin edi.

Keksa Tom bilan maslahatlashib olganidan keyin, Dik ana shunday oddiy rejani amalga oshiradigan bo'ldi.

Kun yorishishi bilan sayyohlar ketma-ket uyg'onishdi. Missis Ueldon uxlab yotgan kichkina Jekni Nan kampirga berdi. Bezgagi bosilgan paytlarda bolaning afti oppoq oqarib ketar va unga qaragan kishining yuragi achir edi.

Missis Ueldon Dik Sendning oldiga keldi.

— Dik, — dedi u tevarak-atrofga nazar tashlab, — Gerris qani, ko'rinmayaptimi?

Dik otryadning qaerda turganligini o'z ham-

rohlariga bildirmoqchi emas edi. Ammo, amerikalik Gerrisning xiyonatini yashirishni muvofiq ko'rmadi. Shuning uchun o'ylab-netib turmasdan:

— Gerris bu yerda yo'q, — deb javob berdi.

— U oldinga jo'nab ketdimi? — deb so'radi Missis Ueldon.

— U qochib ketibdi, missis Ueldon, — dedi Dik Send. — Gerris xiyonatchi ekan. Ular Negoro bilan til biriktirib, bizni ikkovi shu yerlarga aldab olib kelishibdi.

— Bundan maqsadi nima ekan? — deb so'radi missis Ueldon.

— Bilmadim, ammo shuni yaxshi bilamanki, biz tezda dengiz bo'yiga qaytishimiz kerak, — dedi Dik Send.

— O'sha odam... xiyonatchi ekan-da, — deb shivirladi missis Ueldon. — Xuddi sezganday edim-a! Sen, Dik, u Negoro bilan til biriktirgan deb o'ylaysanmi?

— Shunday deb o'ylayman, missis Ueldon. Negoro doim bizning ketimizdan qolmay ergashib yurdi. Bu ikki muttaham bir-biri bilan topishib olib, keyin...

— Ular mening qo'limga tushmaguncha, bir-biridan ajralib ketmas degan umiddaman, — deb gapga qo'shildi Gerkules ham. — Men ularning kallasini bir-biriga shunday urishtirayki! — dedi yana Gerkules pahlavon kattakon mushtlarini qulochkash qilib.

— Jekni nima qilamiz-a? — deb birdan qichqirib yubordi missis Ueldon. — Men San-Feliche qo'rg'oniga yetib qoldik deb xayol qilib yuribman-a! Bolaga yaxshilab qaramasa bo'lmaydi!

— Dengiz bo'yiga yetib olsak Jek ham tuzalib ketar, u yerlarning havosi yaxshi, — dedi keksa Tom.

— Dik, — dedi yana missis Ueldon, — Gerrisning bizga xiyonat qilganini yaxshi bilasanmi?

— Ha, missis Ueldon, — deb gapni cho‘rt kesdi Dik, bu haqda gapni cho‘zib o‘tirishni istamasdan.

Keyin kekxa Tomga qarab:

— Shu kechasi Tom bilan men uni fosh qildik. Basharti, qochmaganida o‘ldirgan bo‘lardim!

— Demak, gatsienda...

— Bu yerda hech qanaqa gatsienda ham yo‘q, manzil ham, qishloq ham! — deb javob qaytardi Dik Send. — Missis Ueldon, yana takror aytamanki, tezda dengiz qirg‘og‘iga qaytishimiz kerak.

— Kelgan yo‘limizdanmi, Dik?

— Yo‘q, missis Ueldon. Biz sol yasab, daryo oqi-mi bilan jo‘naymiz. Daryo o‘zi bizni dengizga olib chiqadi. Bu xavfsiz va charchamaydigan yo‘l. Biz yana bir necha mil yayov yo‘l yursak, ishonaman-ki...

— Men hali bardamman, Dik! — deb xitob qildi missis Ueldon, o‘zini tetik tutishga harakat qilib. — Men yura olaman. O‘g‘limniyam o‘zim ko‘tarib ketaveraman...

— Bizlar-chi, missis Ueldon? Biz ikkovingizni ham ko‘tarib ketaveramiz! — dedi Bat.

— Ha, shundoq, — deb uning gapiga qo‘shilish-di Ostin. — Ikkita xodaning o‘rtasiga yog‘och qo‘yib bog‘lab, orasiga novda to‘shaymiz...

— Rahmat sizlarga, do‘stlarim, — deb javob qaytardi missis Ueldon, — ammo men piyoda yurishni yaxshi ko‘raman... Ketaveraman! Qani, yo‘lga!

— Yo‘lga! — deb takrorladi Dik Send.

— Jekni menga beringlar, — dedi Gerkules. — Yukini bo‘lmasa, tezda charchab qolaman.

Pahlavon uxlab yotgan bolani asta qo‘liga oluv-di, bola uyqusidan uyg‘onmadi ham.

Qurollar otishga tayyor holda edi. Qolgan oziq-ovqatlarni bir toy qilib bog‘lashdi. Akteon uni be-malol yelkasiga ko‘tarib oldi; shunday qilib, boshqalarning qo‘li bo‘sh edi.

Benedikt tog‘aning charchashni bilmaydigan

po‘latdan ishlanganday uzun oyoqlari hammadan oldin yurib ketishga tayyor edi. U hatto Gerrisning g‘oyib bo‘lib qolganini ham bilmagan bo‘lsa kerak. Bunday deyish beandishalik bo‘lar edi. Lekin Benedikt tog‘aning Gerris bilan hech qanday ishi yo‘q edi. Hozir esa o‘zi o‘zi bilan ju-da ovora bo‘lib qolgandi, chunki u entomologlar uchun eng yomon bo‘lgan baxtsizlikka uchragan-di. Benedikt tog‘a ko‘zoynagi bilan lupasini yo‘qotib qo‘ygandi!

Bat bu nodir narsalarni otryad tunagan joydagi o‘t orasidan topib olgan bo‘lsa-da, lekin Dik Sendning maslahatiga ko‘ra, buni Benedikt tog‘aga aytmagan edi. Dik endi bu kekxa go‘dak yo‘lda tar-tibga itoat qilsa kerak deb o‘ylagandi, chunki becho-ra tog‘a ko‘zoynaksiz hech narsani ko‘rmas edi. Benedikt tog‘ani Akteon bilan yonma-yon qo‘yib un-dan bir qadam bo‘lsa ham orqada qolmaslikni talab qilishdi. Esankirab qolgan Benedikt tog‘a qarshilik ham ko‘rsatmadi va bo‘ynidan ip bog‘laganday, o‘z yo‘ldoshi ketidan mo‘mingina bo‘lib ketaverdi.

Kichkina otryad ellik qadamcha ham yurmay, kekxa Tom birdan to‘xtadi.

— Dingo qani? — deb so‘radi u.

— Aytganday, Dingo qayerda qoldi ekan? — deya so‘radi Gerkules ham va itni qattiq chaqirdi. Bir, ikki, uch chaqirdi...

Hech qanday javob bo‘lmadi.

Itning yo‘qolganiga Dik Send ham hayron bo‘ldi, chunki Dingo xavf-xatar yaqinlashganidan otryadni doim xabardor qilib turardi.

— Dingo Gerrisga ergashib ketib qolmadimi-kan-a? — deb so‘radi Tom.

— Gerrisga ergashib? Yo‘g‘-e... Lekin it Negoroning izidan tushishi ehtimol, chunki u Negoroning ketimizdan qolmay kelayotganini doim sezardi, — dedi Dik Send.

— U la‘nati oshpaz itni ko‘rishi bilan uni o‘ldiradi! — dedi Gerkules.

— Be, Dingo undan oldinroq o'zini bo'g'ib o'ldiradi, — dedi Bat.

— Shundayku-ya, — dedi Dik Send, — lekin itga qarab o'tirishimiz bo'lmaydi. Mabodo Dingo tirik bo'lsa, o'zi bizni topib keladi. Aqlli it, u. Qani, yuringlar, og'aynilar!

Kun juda issiq edi. Ertalabdan osmonni bulut qoplagandi. Chaqmoq va momaqaldiraq yaqinlashib qolmoqda edi. Kechgacha yomg'ir boshlanadiganga o'xshardi. Sayyohlarning toleiga o'rmon ichi anchagina salqin edi.

O'rmondagi daraxtlar birmuncha siyraklashdi. Onda-sonda chakalaklar orasida qalin o't bosgan yalang joylar ko'rina boshladi. Bu yalanglikdagi ko'm-ko'k o'tlar orasida alvon-alvon o'simliklar gullab yotar, ularning ustida son-sanoqsiz hasharotlar uchib yurar edi.

O'rmon endi ilgarigiday o'tib bo'lmas qalin bo'lmasa ham, ammo undagi rang-baranglik kishini hayratda qoldirar edi. Bu yerda juda foydali yaxshi moy beradigan xurmo daraxtlari, yo'lni to'sib turadigan ikki-uch metr balandlikdagi g'o'zalar o'sib yotar edi. Ba'zi bir daraxtlarning po'stlog'idagi qurt yegan teshiklaridan xushbo'y shiralar oqib yotar edi. Hamma yoqda yovvoyi limon daraxtlari, anor va turli-tuman xurmo daraxtlari, baobab, akatsiya daraxtlari va «qo'l tegsa o'lar» gullari o'sib yotar edi. Havoni xushbo'y islar tutib ketgan, lekin qay bir o'simlikning isi ekanini bilib bo'lmas edi.

Yog'ingarchilik kamdan-kam bo'ladigan mavsum bo'lishiga qaramasdan, hamma daraxt va butalar ko'm-ko'k edi.

Bu yerlar bezgak kasali avj olgan joy edi. Livingston, bezgakdan qutulish uchun uni yuqtirgan joydan ketish kerak, degan gapni aytgan edi. Dik Send mashhur sayohatchining bu tajribasidan xabardor edi. Jekning odatda tutadigan bezgagi tutmadi. U Gerkulesning qo'lida tinch uxlayotgan mahalda Dik bu tajribani missis Ueldonga gapirib berdi.

Otryad asta-sekin oldinga yuraverdi. Goh joylarda yangi bosilgan odam yoki hayvon izlari bor edi. Chakalakzor orasidagi egri-bugri so'qmoqlardan yurish osonroq edi. Ammo yo'lovchilar aksari o'zlari urinib yo'l ochib borardilar. Shunday vaqtlarda juda imillab yurishga to'g'ri kelganidan Dikning toqati toq bo'lardi. Arqonga o'xshagan lian o'simligi daraxt oralariga to'rday chirmashib olgandi. Ba'zi butalarning shoxlari Damashq pichog'i singari egilib o'sgan edi. Uzunligi o'n besh va yigirma metr keladigan arqonsimon lian o'simliklari yerda yoyilib yotardi. Uni bosib olgan yo'lovchi dodlab yubormay qolmasdi, chunki uning mixdan ham uchli tikanlari oyoqqa kirib ketardi. Bat, Ostin va Akteonlar chakalakzor ichidan bolta bilan yo'l ochib borardilar. Butun o'rmonni bosib ketgan lian o'simliklari yerdan to daraxt uchigacha — hamma yoqni chirmab olgan edi.

Angolaning bu qismida yashovchi qush va hayvonlar ham o'simliklari singari, juda xilma-xil edi. Qushlar o'rmon ustida to'da-to'da bo'lib uchib yurardi. Albatta, o'rmondan qochib-pisib o'tmoqchi bo'lgan sayyohlar ularni otishni xayollariga keltirmasdilar ham. Xayriyatki, Afrikaning juda xatarli bo'lgan yirtqich hayvonlari otryad yaqinida ko'rinmasdi.

Yana jirafalar paydo bo'ldi-yu, odamlarni ko'rib qolib, bu chopqir hayvonlar yana tezda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ular bu o'rmonda kam bo'ladi. Bir necha marta xuddi yuk ortilgan arava singari gulduros solib chang-to'zon ko'tarib, uzoqdan yovvoyi qo'toslar podasi chopib o'tadi.

Dik Send biror kattaroq daryoga chiqib olish umidida otryadni soy bo'yidan boshlab borar edi.

Tushga qadar otryad hech qanday falokatga yo'liqmasdan uch mil yo'l bosdi. Gerris bilan Negorodan nom-nishon yo'q edi. Dingo ham ko'rinmadi.

Otryad bir oz dam olib, ovqatlangani bambuk-

zorda to'xtadi. Gap-so'zsiz ovqatlandilar. Missis Ueldon o'g'lini o'z qo'liga oldi. U Jekdan ko'zini uzmas va tomog'idan ovqat ham o'tmas edi.

— Ovqat yeb olsangiz-chi, missis Ueldon, — dedi Dik Send unga. — Holdan ketsangiz nima bo'ladidi? Ovqatlanish kerak! Tezda yana yo'lga tushamiz, daryoga yetib olganimizdan keyin hech mashaqqat-siz, dengizga qarab suzib ketaveramiz.

Dik gapirganida missis Ueldon uning ko'zlariga tik qarar edi. Dikning ko'z qarashlarida mardlik va dovyuraklik aks etib turardi. Missis Ueldon unga, beshta sof dil va jonkuyar negrlarga qarab, hali umidsizlikka tushmaslik kerak deb o'ylardi. Nima uchun umidsizlikka tushish kerak. U hali, Amerikaning mehmondo'st yerlaridamiz, deb o'ylab yurar edi. Missis Ueldon Gerrisning xiyonatidan qo'rqmasdi, chunki buning oqibatlarini yomon bo'lishini xayoliga ham keltirmas edi.

Dik Send yosh xotin nimalarni o'ylayotganini fahmlab qolib, missis Ueldonning ko'z qarashlariga chidashga va ko'zini chetga olmaslikka harakat qilardi.

T o' r t i n c h i b o b

ANGOLANING MASHAQQATLI YO'LLARIDA

Shu payt kichkina Jek uyg'onib, onasining bo'ynidan quchoqlab oldi. Uning ko'zlari tetik va bezgagi tutmagan edi.

— Tuzuk bo'ldingmi endi, azizim? — deb so'radi missis Ueldon, bolasini bag'riga bosib.

— Ha, oyijonim. Chanqadim, — dedi kichkina Jek. Onasi bolaga sovuq suv ichirdi.

— Dik akam qayoqdalar? — deb so'radi u bir-ikki qultum suv ichganidan keyin.

— Men shu yerdaman, — dedi Dik Send uning qo'lidan ushlab.

— Mening Gerkules do'stim qayerda?

— Gerkules ham shu yerda, — deb javob berdi pahlavon Jekka kulib qarab.

— Ot qayoqda? — deb yana so'radi bola.

— Otmi, ot yo'q Jek! Qochib ketdi! Endi men ot bo'laman senga. Menga minib olishni xohlamaysanmi?

— Xohlamayman, — dedi Jek. — Seni qanaqa qilib yurgizaman? Yuganing yo'q-ku?

— Hech gap emas, yuganni og'zimga solib olaman, — dedi Gerkules og'zini katta ochib, — sen yuganni istaganingcha tortaverasan.

— Yo'q, men sekin tortaman.

— Qo'rqmay tortaver! Og'zim mahkam.

— Gerrisning qo'rg'oni qayoqda? — deb so'radi kichkina Jek.

— Tezda yetib boramiz, Jek, — deb javob qildi missis Ueldon, — tezda, tezda...

Bu gaplarni bas qilish uchun:

— Xo'p, endi, yo'lga chiqishga ruxsat etsangiz? — deb so'radi Dik Send.

— Mayli, Dik, — deb javob qildi missis Ueldon.

Ozgina to'xtab olgandan keyin, otryad ilgari tartibda yana yo'lga tushdi. Soy yoqasidan chetlashib ketmaslik uchun o'rmonning qalin joylaridan yurishga to'g'ri keldi. Bir vaqtlari bu yerda so'qmoq bo'lgan ekanu, endi o't va lian o'simligi bosib ketibdi. Qalin o'rmon ichidan bir mil yo'l bosish uchun uch soat vaqt ketdi. Negrlar hech charchamasdan daraxtlarni kesib yo'l ochib borardilar. Gerkules ham Jekni Nan kampirga berib, bu ishga kirishib ketdi. Kirishganda ham tag'in qanday kirishdi deng! U pishqirib nafas olar va boltani qulochkashlab solardi, natijada kaftdek tekis yo'l hosil bo'lardi.

Xayriyat, tezda otryad bu og'ir ishdan qutuldi. O'rmon ichidan boshda bir uchi soyga borib taqaladigan, keyin soy bo'ylab ketadigan keng yo'l chiqib qoldi. Bu yo'l fillar o'tgan yo'l ekan. Necha

yuzlab fillar bu yerdan suv ichishga o'tib yurgan bo'lsa kerak. Yumshoq yerga bu kattakon hayvonlarning chuqur-chuqur izlari tushib qolibdi. Biroq tezda ma'lum bo'ldiki, bu yo'ldan boshqa hayvonlar ham yurar ekan. Bu yo'ldan odamlar ham ko'p yurgan edi. Bu odamlarni kushxonaga oborayotgan mol singari tayoq bilan haydab borishgan bo'lsa kerak. Ko'p joylarda yirtqich hayvonlar tozalab yeb tashlagan odam suyaklari uyilib yotardi. Ularga solingan kishanlar ham suyaklariga o'ralashib yotardi.

Markaziy Afrikada odam suyaklari bilan to'lgan uzundan-uzoq yo'llar ko'p. Qullar karvoni ba'zan necha yuzlab kilometr yo'l yuradi, yirtqich nazoratchilarning qamchisi ostida sho'rlik qullar azob chekib, holdan toyib va kasal bo'lib, minglab o'lib ketadilar. Karvonda oziq-ovqat yetishmay boshlaganda, nazoratchilar qanchadan-qancha odamlarni o'ldirib yuboradilar. Agar qullarga oziq-ovqat yetishmasa, ularni miltiqdan otib, pichoq urib, qilich bilan chopib o'ldiradilar... Bunday qirg'inlar tez-tez bo'lib turadi.

Sayyohlarimiz ketayotgan yo'l, qullar karvoni yuradigan yo'llardan biri edi. Dik Send bilan uning hamrohlari har qadamda deyarli uyum-uyum suyaklarga duch kelar edilar. Odamlar yaqinlashishi bilan katta-katta o'limtikxo'r qushlar hurkib uchib ketardilar. Ular osmonga chiqib, yo'l ustida lapanglab uchardi.

Missis Ueldon atrofga qarab borsa-da, lekin ko'zlari hech narsani ko'rmagandek edi. Dik Send missis Ueldon tag'in surishtirib qolmasin deb, damini chiqarmasdan borar edi, chunki u dengiz bo'yiga yetib olganga qadar, xiyonatchi Gerris ularni Markaziy Afrikaga aldab ergashtirib ketganini hamrohlariga bildirmaslikka tirishardi. Xayriyatki, missis Ueldon atrofda bo'layotgan hodisalarni fahmlamas edi. U o'g'lini yana qo'liga olib, o'sha bilan ovora bo'lib qoldi. Nan kampir

uning yonida borardi. Nan kampir ham, missis Ueldon ham Dikdan hech narsa so'ramas edilar. Uning o'zi ham shunday savollar berishlaridan qo'rqib borar edi.

Keksa Tom boshini quyi egib borardi. Nima uchun yo'l to'la odam suyaklari yotganini Tom juda yaxshi tushunar edi.

Tomning sheriklari tevarak-atrofga ajablanib qarab borar edilar. Ularga xuddi yer qimirlashdan keyin mozordagi go'rlar ochilib qolganday ko'rinar-di. Ammo ular Dikdan hech nimani surishtirmadilar.

Endi soy anchagina kengayib va chuqurlashib qoldi. Lekin oqishi sekinlashdi. Yaqin o'rtada ariqning o'zida suzib ketish mumkin bo'lib qolsa kerak yoki bu soy ularni Atlantika okeaniga quyiladigan biror kattaroq daryoga olib chiqishi mumkin degan umid tug'ildi.

Dik hech qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, soy yoqalab yuraverishga qaror berdi. Shuning uchun u soydan boshqa tomonga burilib ketgan so'qmoqni hech ikkilanmay tashlab ketaverdi.

Otryad yana qalin chakalakzor ichidan yurib bordi. Lian o'simligi chirmashib olgan chakalakzorlar ichidan yurib borish uchun har qadamda boltalarni ishga solishga to'g'ri kelardi. Ammo bu o'rmon dengiz sohilidagi qalin o'rmonga o'xshamasdi: bu yerda daraxt siyrak edi. Goh-gohda bambuklargina baland o'tlar orasidan qad ko'tarib turardi.

Bu yerda sayyohlar ketayotgani daraxt shoxlarining qimirlashidan bilinar, ba'zida ular orasidan Gerkulesning boshi ko'rinib qolardi.

Soat uchlar bo'lay deganda ular o'rmon ichidan chiqishdi. Tevarak-atrof manzarasi butunlay o'zgardi. Oldinda yog'ingarchilik vaqtida daryo suvlari toshib ketadigan tekis yer ko'rinardi. Botqoq to'qayzorni qalin mox o'simligi bosib ketgandi. Goh joylarda ko'm-ko'k mox o'simligi ustida chiroyli qirqquloq o'simligi ko'zga chalinardi.

Xuddi shu paytda bunday tekisliklar haqida Livingston kitobida aytilgan gaplar Dik Sendning esiga tushib qoldi. Mard sayyoh Livingston bu yomon soyliklarga ko'p marta duch kelgan ekan. Botib qolmaslik uchun har qadamni ehtiyot bo'lib bosish kerak ekan.

— Hushyor bo'linglar, do'stlarim! — dedi Dik otryad boshida turib. — Qadam bosishdan oldin yerni oyoqlaringiz bilan paypaslab ko'ringlar!

— Juda qiziq-a! — dedi Tom. — Yer yomg'ir yoqqanday nam, biroq keyingi kunlarda yomg'ir yog'magandi-ku.

— Momaqaldiroq bo'lmoqchi, — deb javob qaytardi Bat.

— Demak, yana ham shoshilishimiz kerak, — dedi Dik Send. — Yomg'irdan oldin soylikdan o'tib olishimiz kerak. Gerkules, Jekni qo'lingizga oling! Bat bilan Ostin, missis Ueldonga yordamlashinglar! Siz, janob Benedikt... Kechirasiz... nima qilyapsiz, janob Benedikt?

— Men botib ketyapman, — deb jo'ngina javob qildi Benedikt tog'a.

Rostdan ham u xuddi narvondan tushib ketayotgan singari, botqoqqa tez botib ketmoqda edi. Akteon unga qo'lini uzatdi, hamma yog'i loy bo'lgan Benedikt tog'a yuqoriga chiqib oldi. U juda xursand edi. Negaki, uning hasharotlar soladigan qutisi zararlanmagan edi. Dik Akteonga bu omadi yurishgan olimga qarashib borishni buyurdi.

Benedikt tog'a tushib ketgan «o'ra» yaxshi emas ekan: uni tortib chiqarganlaridan keyin chuqurdagi suv ko'piklanib, undan nafasni bo'g'adigan gaz chiqa boshladi. Livingston ham bir necha marta ko'krigigacha botqoqlikka botib ketgan edi. Uning aytishicha, g'alvir singari ilmatshik bu qora tuproqqa har qadam qo'yish bilan otilib suv chiqib ketar ekan. Bundy botqoqlar piyoda yuruvchilar uchun juda xatarli bo'ladi.

Dik Send bilan uning hamrohlari shunday bot-

qoqlikdan yarim milcha yo'l yurdilar. Bir joyda missis Ueldon tizzasigacha botib ketdi. Shundan keyin Gerkules, Bat va Akteonlar bambukdan zambil yasab, missis Ueldonni o'sha zambilga tushib olishga ko'ndirdilar. Missis Ueldon o'g'ilchasini ham qo'liga olib oldi. Otryad bu xatarli joydan mumkin qadar tezroq o'tib ketishga tirishar edi.

Yurish juda qiyin edi. Akteon doim Benedikt tog'aga qarashib bordi. Nan kampirni kekxa Tom yetaklab oldi, u bo'lmaganida kampir botib ketishi turgan gap edi. Qolgan negrlar zambilni ko'tarib borar edilar. Dik Send otryadning oldida yo'l ko'rsatib bordi. Yo'l topish qiyin ish edi. Undan ko'ra qalin o't bosgan chekka-chekka yerlardan yurib borish yaxshiroq bo'lsa-da, unda ham aksari yer yumshoqligidan oyoq bosgan kishi tizzasigacha botib ketadi.

Axiri, soat besh deganda sayyohlar botqoqlikdan o'tib, quruq yerga chiqib oldilar, lekin bu yerda ham yerning ustki qavatigina quruq bo'lib tagi botqoqlik edi. Bu tekislik yaqin o'rtadagi daryolarning sathidan pastroqda bo'lganidan yumshoq yerga daryo suvlari sizib o'tgan bo'lsa kerak.

Kun juda issiq va dim edi. Agar oftobni quyuq qora bulutlar to'sib turmaganda, issiqqa sira toqat qilib bo'lmardi. Uzoqda chaqmoq chaqqani ko'rinar va momaqaldiroqning gulduros ovozi eshitilar edi. Har minutda osmonda to'polon boshlanib ketishi ehtimol edi.

Qattiq sel, eng katta daraxtlarni ham qulatadigan kuchli bo'ron, to'xtovsiz chaqib turgan yashin — Afrikadagi momaqaldiroqlarning dahshatli manzarasi ana shunday. Dik Send buni bilar va shuning uchun juda tashvishda edi. Otryadning ochiq havoda tunashi mumkin emasdi, chunki bu pastlik yerni sel bosib ketishi ehtimol edi. Seldan qutulish uchun Dik oldinda birorta ham tepalikni ko'rmasdi.

Hamma yog'i ochiq dala bo'lgan va hech qanday

daraxt yoki chakalak bo'lmagan bu chuqurlikda qanday pana joy topilsin, axir?

Shimol tomonda bir talay pastak tepaliklar ko'rinar edi. Bu tepaliklar xuddi gumbazlarga o'xshardi. O'sha tomonda, osmonning ochiq joyi to'g'risida bir necha daraxtning qorasi aniq ko'rindi.

Dik Send bu tepaliklarda pana joy bor-yo'qligini bilmasa ham, lekin bunda suv toshqinidan xavf yo'qligini bilardi.

— Olg'a, do'stlar, olg'a! — deb takrorlardi o'smir, — yana uch milcha yo'l yursak bu xatarli joydan qutulamiz!

— Olg'a, ildamroq! — deb qichqirdi Gerkules.

Bu oq ko'ngil odam o'zining hamma sheriklarini yelkasiga ko'tarib, botqoqlikdan olib chiqishga ham tayyor edi.

Dik Sendning so'zlari yo'lovchilarga dalda berdi, charchaganliklariga qaramasdan ular chaqqon yura boshladilar.

Otryad manzilga yetib borishiga ikki mil qolganda, momaqaldiraq gumburlay boshladi. Yaxshiki chaqmoq chaqqandan keyin darrov yomg'ir yog'a qolmadi. Kun hali botib ketmagan bo'lsa ham hamma yoq qop-qorong'i bo'lib qolgan. Qora bulutlar borgan sari pasaya boshladi, ular xuddi yerga qulab tushay deb turganday ko'rinardi. Osmonning har joyidan to'xtovsiz chaqmoq chaqib, tevarak-atrofni birdan yoritib yuborardi.

Otryadni har sekundda yashin urishi mumkin edi. Hech bir daraxt asari bo'lmagan tep-tekis yerda ularni elektr quvvati o'ziga tortishi ehtimol edi.

Momaqaldiraq ovozig'a uyg'onib ketgan kichkina Jek yuzini Gerkulesning qo'yniga suqdi. Bechora bola momaqaldiraqdan qo'rqardi, lekin onasini xafa qilmaslik uchun qo'rqanini bildirmaslikka harakat qilardi. Gerkules esa katta-katta qadam tashlab, bolani yupatish payida edi.

— Qo'rqma, Jek, — deb takrorlardi u. — Agar momaqaldiraq yaqinlashib qolsa, men uni bir

qo'lim bilan ikki bo'lib tashlayman. Men momaqaldiraqdan ham kuchliman-a!

Bola himoyachisining kuchliligidan ko'ngli to'q bo'lib, xotirjam bo'lardi.

Yomg'ir yog'ay-yog'ay deb turipti. Bir boshlasa, pastak qora bulutlardan chelaklab quyganday quyib yuborishi turgan gap edi. Agar sel boshlanguncha hech qanday pana joy topilmasa, missis Ueldon bilan kichkina Jekning holi nima kechar ekan?

Dik Send kekxa Tomning oldiga keldi.

— Nima qilamiz? — deb so'radi u.

— Oldinga qarab boraverish kerak, — deb javob qaytardi Tom. — Agar yomg'ir yog'ib bersa, bu yerlar botqoqlikka aylanib ketadi. Bu yerda qolishimiz aslo yaramaydi.

— To'g'ri, Tom, to'g'ri... Qanday bo'lmasin, birorta pana joy topish kerak. Zora birorta kulba uchrab qolsa!

Dik Send birdaniga jim bo'lib qoldi.

Bir chaqmoq chaqqandi, butun atrof yop-yorug' bo'lib ketdi.

— Hu ana, u tomonda, chorak milcha narida ko'ringan nima ekan? — dedi u.

— Men ham o'sha yoqda allanimani ko'rib qoldim, — dedi Tom.

— Birorta lagermi deyman?

— To'g'ri, lagerga o'xshaydi... Lekin yerliklar lageri bo'lsa kerak.

Yana bir chaqmoq chaqqanda lager yaxshi ko'rindi. Tekis dalada balandligi o'n ikki futdan o'n to'rt futgacha keladigan yuztacha chodir qator tizilib turibdi. Ammo unda hech kim ko'rinmas edi. Odamlari qayoqda ekan? Mabodo lagerdagi odamlar yomg'irdan qochib chodir ichiga kirishgan bo'lsa, otryad hech qanday yomg'ir va bo'ronga qaramasdan, bu yerdan tezgina nariroq qochib ketishi kerak. Bordi-yu, lagerdagi odamlar ketib qolgan bo'lsa, bu yer ularga yaxshi boshpana bo'ladi.

«Borib bilib kelay-chi!» deb o'yladi Dik Send.

U keksa Tomga qarab:

— Hech qayoqqa qimirlamanglar! Men borib bilib kelaman, — dedi.

— Siz bilan birortamiz birga boraylik-da, Dik, — deb iltimos qildi Tom.

— Yo‘q, Tom, yolg‘iz o‘zim boraveraman. Men yashirib lagerning yaqiniga borib ko‘raman. Meni kutib turinglar!

Dik Send bilan Tom boshchiligida kelayotgan otryad to‘xtab qoldi. Dik chaqmoq to‘xtagach, qorong‘i mahalda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Yerga yirik-yirik yomg‘ir tomchilari tusha boshladi.

— Dik qayerga ketdi? — deb so‘radi missis Ueldon keksa Tomning yoniga kelib.

— Biz bir lagerni ko‘rib qoldik, missis Ueldon, — deb javob qaytardi Tom. — Ehtimol, bironta qishloq bo‘lsa. Hammamizni o‘sha yoqqa boshlab borishdan oldin kapitanimiz razvedka qilib kelgani ketdi.

Missis Ueldon bu javobdan qanoatlendi.

Bir necha minutdan keyin Dik Send qaytib keldi.

— Ketimdan yuraveringlar! — dedi u suyunib.

— Lagerda hech kim yo‘qmi? — deb so‘radi Tom.

— Bu lager emas, qishloq ham emas, — dedi Dik Send, — qumursqalar shahri ekan.

— Qumursqalar shahri deysizmi? — dedi Benedikt tog‘a jonlanib.

— Shunday, janob Benedikt, lekin inlarining balandligi o‘n ikki futdan kam emas. Ular-ning uyiga kirib yomg‘irdan saqlanishimiz mumkin.

— Unday bo‘lsa, bu uylar tropik mamlakatlarda bo‘ladigan qirsumolilar imorati ekan-da. Bu aqlli jonvorlar shunday ko‘rkam imoratlar qura oladilarki, bir xil arxitektorialarimiz bundan ibrat olsalar bo‘ladi.

— Qirsumolimi yoki shunga o‘xshagan boshqa hashartolarmi, Benedikt tog‘a, joyni egallash uchun baribir ularni chiqarishga to‘g‘ri keladi.

— Borib ko‘ring-chi, ular bizni yeb qo‘yadi.

— Olg‘a yuringlar! — deb buyruq berdi Dik Send.

— Hoy, shoshmanglar-chi! — deb do‘q qildi Benedikt tog‘a. — Menimcha, bunday katta imoratlar Afrikadagina bo‘lishi kerak edi.

— Olg‘a! — dedi jahl bilan Dik Send.

Dik Send missis Ueldon yana entomolog olimning gapiga e‘tibor qilib qolmasin deb qo‘rqar edi.

Otryad Dik Send ketidan jadal yurib ketdi. Shu topda qattiq shamol turdi. Yerga shatir-shutur qilib yomg‘ir tomchilari tusha boshladi. Kuchli bo‘ron ko‘tarildi.

Yo‘lovchilar yaqinidagi «qirsumolixonaga» yetib keldilar. Qirsumolilarni yo haydab chiqarish kerak, yo ular bilan bir «uyda» yotish kerak edi.

Qizg‘ish sozdan ishlangan bu gumbazning pastida kichik bir teshikcha bor ekan. Gerkules bu teshikni pichoq bilan birpasda o‘zi sig‘adigan qilib kengaytirdi.

Bu imoratda yashashi lozim bo‘lgan yuz minglab qirsumolilarning birortasi ham ko‘rinmaganiga Benedikt tog‘a juda hayron bo‘ldi, nahot shu shaharning aholisi qochib ketgan bo‘lsa?

Gerkules teshikni ochib bo‘lganidan keyin Dik Send bilan uning hamrohlari ketma-ket ichkariga kirishdi. Xuddi shu paytda yomg‘ir sharillatib quyib yubordi, xonaga hammadan keyin Gerkules kirdi.

Gumbaz ichiga kirib olgandan keyin tashqaridagi dahshatli bo‘ron bilan sayyohatchilarning ishi bo‘lmadi. Har qanday chodir yoki yerliklarning kulbasidan ko‘ra yaxshiroq bo‘lgan pana joyning topilishi o‘zi bir baxt bo‘ldi.

Zig‘irdek hasharotlarning bunchalik ustalik bilan katta imorat qurishlariga hayron qolgan leytenant Kameron qadimgi misrliklarning ehromlari-

ga qaraganda, qirsumolilarning binolari qaytaga ajoyibroq, deb aytgan edi.

— Qirchumolilar bilan baravar bo'lmoq uchun, odamlar Everest¹ tog'iday imorat solishlari kerak! — degan edi u.

B e s h i n c h i b o b

QIRCHUMOLILAR HAM ULARNING IMORATLARI HAQIDA LEKSIYA

Bunday pana joy topilishi sayyohlar uchun katta baxt bo'ldi. Bir necha minutdan so'ng hamma yoqni issiq tomonlarda bo'ladigan qattiq bo'ron tutib ketdi.

Tomchilab yog'ish o'rniga, yomg'ir chelaklab quya boshladi. Gohida yog'ayotgan yomg'ir suvlari shaloladek yerga oqib tushar edi. Xuddi osmonda katta bir ko'l to'ntarilib qolib, hamma suvi yerga tushib ketayotganday edi. Bunday qattiq sel ko'z ochib yumguncha tekis yerlarda ko'llar hosil qilardi, ariqlarni esa daryolarga aylantirardi. Daryolar toshib, hamma yerni suv bosib ketardi. Boshqa mo'tadil joylardagiga nisbatan Afrikada bunday yashin aralash qattiq yog'adigan yomg'irlar bir necha kunga cho'ziladi.

Xayriyatki, qirchumolilar uyasining qalin gumbazlari sel va yomg'irni o'tkazmas edi. Buning ustiga daryo-daryo suv oqib turganda ham ichiga bir tomchi chakka o'tmaydi.

Qirchumolilarning uyasiga kirib olgandan keyin sayyohlar dastavval uyaning ichki tuzilishini ko'zdan kechira boshladilar. Fonus yorug'ida ko'rsalar, bu imorat konus shaklida bo'lib, uning balandligi o'n ikki fut, tagining diametri o'n bir fut va devorining qalinligi bir futga yetar ekan.

¹ Everest — Himolay (Tibet) tog'larining dunyoda eng baland cho'qqisi. Balandligi 8880 metr.

Uyaning devorlari bab-baravar keng kataklarga hamda qavatlariga bo'lingan edi.

Zig'irdek hasharotlarning bunday ajoyib imoratlari solishiga odam ishonmas edi, ammo bu narsa hech shak-shubhasiz haqiqatdir: Afrikaning ichki o'lkalarida qirchumoli shaharchalari juda ko'p uchraydi. Smitmen degan gollandiyalik bir sayyoh qirsumolilarning tomi ustiga o'zim bilan to'rtta sherigim joylashib oldik, deb yozadi. Livingston Lunde degan joyda qizil soz tuproqdan ishlangan o'n besh va hatto yigirma fut balandlikdagi qirchumoli uyalarini ko'rgan. Leytenant Kameron bu imoratlarni bir necha marta uzoqdan ko'rgan va ularni harbiy lager ekan deb o'ylagan. U Nyangveda yigirma fut emas, balki qirq va ellik fut balandlikdagi katta qirchumoli uyalarini ko'rgan. Bunday katta imoratlarning uchi butxonalar ustidagi gumbazlar singari juda uchli bo'lar ekan.

— Bunday ajoyib imoratlarni qanday qirchumolilar qurar ekan?

Qirchumoli uyasining nimadan qurilganini tekshirib ko'rganidan keyin, hech o'ylab-netib turmasdan:

— Bu urishqoq qirchumolilarning ishi, — deb javob qaytardi Benedikt tog'a.

Uyaning o'rtasidagi bo'sh yerda hamma sayyohlar uchun joy yetishmadi. Ammo devorlaridagi kataklarga jussasi kichikroq kishilar bemalol sig'ishi mumkin edi. Uning ichi xuddi ko'p tokchali kattakon shkafga yoki seryashik komodga o'xshardi. Yashiklarning ichi minglab mayda kataklarga bo'lingan bo'lib, ular paroxod kayutasidagi karavotlar singari qavatma-qavat edi. Yuqoridagi «qavatga» missis Ueldon, kichkina Jek, Nan kampir va Benedikt tog'a joylashib olishdi. Pastki «qavatga» Ostin, Bat va Akteon joylashishdi. Dik Send, Tom va Gerkuleslar yerda qolishdi.

— Og'aynilar, — dedi Dik ikki negrga qarab, — uyaga suv oqib kirayotir. Polga bir qavat tuproq



solmasak bo'lmaydi. Lekin ehtiyot bo'linglar, ishqilib, eshikni berkitib qo'ymanglar, havo kirmay qolsa, bo'g'ilib o'lamiz!

— Bu yerda bir kechagina tunaymiz-ku, — dedi kekxa Tom unga.

— Nima qipti? Qulay fursatdan foydalanib, yaxshilab dam olmaymizmi? O'n kundan beri yopiq joyda birinchi marta yotishimiz.

— Ha, shundoq, o'n kundan beri ochiq havoda yotib yuribmiz, — dedi uning gapiga Tom.

— Bundan tashqari, — deb davom qildirdi gapini Dik Send, — bu yerda bir-ikki kun turib qolsak ham ehtimol, chunki qirchumoli uyi yaxshi pana joy bo'ladiganga o'xshaydi. Men fursatdan foydalanib, qidirayotgan daryomizning uzoq-yaqinligini aniqlab kelaman. Sol yasagunimizcha bu yerda ko'proq turib qolsak ham ehtimol, chunki bu yerda yomon havodan tinchmiz. Qani, ishni boshlanglar, tuprog'ni solaylik, uyimiz quruq bo'lsin!

Dik Sendning buyrug'i darhol bajarildi. Gerkules qo'lga bolta oldi-da, pastki qavatlarini buzib, tuprog'ini polga yoyib tashladi. Shunday



qilib, pol o'ttiz santimetr baland ko'tarildi. Dik Send, kirib-chiqib yuriladigan teshikdan havo kirib tursin uchun uni ochiq qoldirish payidan bo'ldi.

Qirchumolilar ketib qolganidan sayyohlar juda xursand bo'ldilar. Shuni aytish kerakki, gumbaz ichida ozgina qirchumoli bo'lganda ham unda odamlarning yashashi mumkin bo'lmasdi.

Uya egalari qachon ketib qoldi ekan?

Qirchumolilarning o'z uyalarini tashlab ketganlari Benedikt tog'ani juda hayron qoldirdi, shuning uchun u buning sababini tekshirishga kirishdi. U yerga tushib, qo'lga fonus oldi-da, gumbazning yoriq va teshiklarini qaray boshladi. Tog'asi tushmagur, qirchumolilarning oziq-ovqati turadigan «omborni» topib oldi.

Bu ombor pastki qavatda ekan. Benedikt tog'a bu yerdan hali unchalik qotmagan daraxt yelimi topib oldi. Demak, qirchumolilar bu yelimni omborga yaqindagina olib kelishgan ekan.

— Yo'q, yo'q! — deb xitob qildi olim, go'yo biron bilan bahslashayotganday, — qirchumolilar bu yerdan yaqin o'rtadagina ketib qolishgan!

— Kim yo‘q deyapti sizga, janob Benedikt? — dedi Dik Send. — Qirchumolilar bultur ketgan bo‘lsa ham, shu bugun ketgan bo‘lsa ham — bizga baribir — ishqilib joyini bizga tashlab ketibdi-ku.

— Yo‘q, — deb qarshi turdi Benedikt tog‘a. — Qirchumolilarning nima uchun ketib qolganini bilish juda zarur. — Ehtimol, ular kuni kecha yoki bugun ertalab shu yerda yashagan bo‘lsalar, chunki yelim qotib ham ulgurmad...

— Bizning nima ishimiz bor u bilan, janob Benedikt? — dedi Dik Send.

— Ular bir ishni sezib qochib ketgan bo‘lsalar kerak. Buni qaranglar, uyada bitta ham hasharot qolmabdi-ya! Hatto ular hamma tuxumchalarni ham olib ketib qolishibdi. Ana shuning uchun aytamanki, sezgir hasharotlar birorta xatarni sezganlari uchun bu yerdan qochib ketishibdi.

— Ehtimol, ular bizning kelishimizni bilib, uyalarini, tashlab ketishgandir? — dedi kulib Gerkules.

— Bo‘lmagan gap! — deb jerkib gapirdi Benedikt tog‘a, negrning gaplari jig‘iga tekkanidan. — Siz o‘zingizni bu mard hasharotlardan kuchliroqman deb o‘ylaysizmi? Mabodo ular sizning jasadingizni ko‘rib qolsa bormi, bir necha mingi birpasda suyaklaringizgacha tozalab qo‘yardi.

— Obbo, o‘likni kemirish qiyin ishmi! — dedi Gerkules bo‘sh kelmaslikka tirishib. — Tirik Gerkulesni yeyolmas deyman! Yuz mingtasini ham ezib tashlarman!..

— Ikki yuz mingtasini, besh yuz mingtasini va bir milliontasini qirib tashlarsizu, — dedi shartta Benedikt tog‘a, — lekin bir milliardini qirish qo‘lingizdan kelmas! Bir milliard qirchumoli sizni xoh tirik, xoh o‘lik bo‘ling — baribir — so‘nggi suyagingizgacha yeb qo‘yadi!

Boshda bu gaplar bekorchiday ko‘rinsa-da, ammo Dik Send o‘yga cho‘mdi. Benedikt tog‘aning

gaplari unga juda qattiq ta’sir qildi. Dik, hasharotlarning kun kechirishini yaxshi biluvchi olimning gaplari to‘g‘ri ekanligiga ishonar edi. Agar qirchumolilar biror hodisa bo‘lishini sezib shaharchalarini tashlab ketgan bo‘lsalar, demak, bu uyda yashash xavfli bo‘lishi kerak.

Ammo tashqarida qattiq sel-bo‘ron bo‘layotgani sababli bu boshpanani tashlab chiqishni xayolga ham keltirib bo‘lmasdi. Shuning uchun Dik Send bu to‘g‘rida bosh qotirib o‘tirmasdan:

— Siz, janob Benedikt, qirchumolilar omborlarida oziq-ovqatlarini qoldirib ketishibdi, debmidingiz? — deb so‘radi u. — Ovqat to‘g‘risida gapirilgandan keyin ovqat yeyish esimga tushdi. Qani, qorinni bir to‘yg‘azib olaylik-chi. Ertaga yomg‘ir tingandan keyin nima qilish to‘g‘risida maslahatlashib olarmiz.

Nan kampir kechki ovqat hozirladi. Sayyohlar juda charchagan bo‘lsalar ham, lekin ishtahalari joyida edi. Hali ikki kunga yetadi deb mo‘ljallagan konservalar xo‘b yeyildi. Yomg‘irda sal-pal uvilgan qoq nonlarni hamma kasir-kusur qilib kavshar edilar. Gerkulesning kattakon tishlari qoq nonni xuddi tuyganday mayda-mayda qilib yuborar edi.

Biroq missis Ueldonning ovqatga tobi yo‘qroq edi. Dik qistab qo‘ymaganidan keyin bir burda qoq non yedi, xolos. Dik mard yosh ayolning keyingi kunlarda bunchalik diqqat bo‘lganini ko‘rgan emasdi. Vaholanki, kichkina Jek ancha tuzalib qolgandi. Bezgak tutmay qo‘ygan, o‘zi tinch uxlar edi. Dik Send missis Ueldonning nimaga diqqatligini bila olmas edi.

Benedikt tog‘aning ishtahasini gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi. Hasharotshunos odam ovqatning son-sifatiga qaramay, tushirgani tushirgan edi! Lekin u kechki ovqat mahalida qirchumolilar haqida sayyohlarga leksiya qilishga qulay fursat topilganidan xursand edi. Koshki bu tashlandiq uyda birorta hasharot topilib qolganda edi!..

— Bu ajoyib hasharotlar, — deb gap boshladi olim sheriklarining quloq solish-solmasligiga qaramasdan, — to‘rqanotlilar qatoriga kiradi. Bu turkumga besh oila kiradi, chunonchi: chayon pashshalar, arslon chumolilar, tillako‘zlar, bahoriylar va qirchumolilar. Biz egallagan uyning egalari ana shu qirchumoli hasharotlar bo‘lishiga hech qanday shubha yo‘q. Ularning uyini band qilishimiz chakki bo‘lgan emasmikin!

Shundan keyin Dik Send Benedikt tog‘aning leksiyasini astoydil tinglay boshladi.

Yoki Benedikt tog‘a qirchumolilar shahri topilganidan keyin sayohatchilarning Afrikadaliklarini bilib oldimikan-al Olim boshqa qit‘aga kelib qolishiga qanday tasodifiy hodisa sabab bo‘lganidan bexabar bo‘lsa ham, lekin Afrikaga kelib qolganliklarini bilishi ehtimol edi. Shuning uchun ham Dik, uning leksiyasini juda tashvish ichida tinglar edi.

Benedikt tog‘a esa gap kelib qolganidan foydalanib, astoydil ishga kirishdi.

— Qirchumolilarning, — deb davom qildi u gapini, — mo‘ylovlari kalta bo‘ladi, unda sakkiztadan to o‘ttiz bittagacha har xil a‘zolari bo‘ladi, og‘izlari esa kemiruvchan. Qirchumolilarni aksari «oq chumolilar» deb ataydilar, lekin bu to‘g‘ri emas, chunki ularning chumolilar bilan hech qanday qarindoshligi yo‘q. Ular chumolilar singari juda ahil bo‘lib yashaydilar va tirikchilik odatlari ham chumolilarnikiga o‘xshaydi, ana shuning uchun ularni «oq chumolilar» deb ataydilar. Bu uylarda yashovchi qirchumolilarning aksarisi — qanotsiz qisir ishchi hasharotlardir. Ayniqsa, kallasi katta va jag‘lari kuchli ishchi qirchumolilarni «soldat» deb ataydilar. Ularning bir juft erkagi bilan urg‘ochisi bo‘ladi. Yoshligida ularning qanoti bo‘ladi va uchib yura oladi, lekin «to‘y» kuni uchib yurgandan keyin, qanotlari tushib ketadi. Ko‘p vaqt «podsho bilan malika» deb yuritiladigan bu juft ko‘payish bilangina shug‘ullanadi.

— Bu gumbazni qanday qirchumolilar quribdi? — deb olimning so‘zini bo‘ldi Gerkules.

— Fanda «urishqoq qirchumolilar», deb ataladigan hasharotlar qurgan, albatta, — deb javob qaytardi Benedikt tog‘a go‘yo qadim zamondagi urishqoq qahramon qabilalar haqida gapirganday qilib.

— Urishqoq qirchumolilar aksari qayerda yashaydi? — deb so‘radi Gerkules.

— Afrikada, — deb javob qaytardi Benedikt tog‘a. — Markaziy Afrikada va qisman uning janubiy o‘lkalarida. Afrika o‘z hasharotlari bilan mashhur. Keyingi vaqtlarda chumolilar haqida Livingston yozgan kitobni o‘qish kifoya. Bu kitobni Stenli topib keltirgan. Mendan ko‘ra omadi yurishgan bu sayyoh, qora chumolilar bilan qizil chumolilar o‘rtasida bo‘lgan misli ko‘rilmagan ajoyib jangni tomosha qila olgan. Jangda yerliklar «sirafu» deb ataydigan qora chumolilar zo‘r chiqqan. Yengilgan chumolilar mardona qarshilik ko‘rsatgandan keyin jang maydonini tashlab ketishga majbur bo‘lganlar. Ammo ular hamma tuxumchalarini olib, juda tartib bilan chekinganlar. Livingston, na odamlar va na hayvonlar hech qachon bunchalik jangovarlik xislati ko‘rsatgan emaslar, deb yozadi. «Sirafu» chumolilarining qattiq chaqishidan hatto arslonlar bilan fillar ham qo‘rqadi. Chumolilar armiyasining yo‘lini hech narsa to‘solmaydi: ular daraxtlardan ham oson oshib o‘taveradilar, bir-birlariga yopishib ko‘prik hosil qilib, daryolardan ham o‘taveradilar. Ularning askari ko‘pligini ayting! Dyushayyu degan afrikalik bir sayyoh qora chumolilar kolonnasining o‘tishini o‘n ikki soat tomosha qilibdi. Sayyohlarning bundan behisob ko‘p chumoli ko‘rganlari hecham ajib bir ish emas. Chunki hasharotlar juda serurug‘ bo‘ladi, masalan, urishqoq qirchumolilarning urg‘ochisi har kuni oltimish mingta tuxum qo‘ya oladi. Yerliklar shu hasharotlarni yeydilar. Do‘stlarim, pishgan qirchumolilardan ham mazali taom bo‘lmasa kerak!

— O'zingiz yeb ko'rganmisiz, janob Benedikt? — deb so'radi Gerkules.

— Hali yeganimcha yo'q, endi yemoqchiman!

— Qayerda?

— Shu yerda!

— Biz Afrikada emasmiz-ku? — dedi kekxa Tom shoshilib.

— Yo'q... Yo'q... — deb javob qaytardi Benedikt tog'a. — Ammo shu mahalgacha olimlar urishqoq qirchumolilarni va ularning shaharlarini faqat Afrika sohillaridagina uchrtar edilar. Oh, bu sayyohlar! Bu sayyoh deganlari hech nimani ko'rishmas ekan-da! Mayli, biz uchun qaytaga yaxshi. Men Amerikada setse pashshasini ham topdim. Bunda urishqoq chumolilarni dastlab topganim uchun shuhratim yanada oshadi. Hammani hayratda qoldiradigan maqola yozish uchun qanday yaxshi yangilik-a! Maqola yozish nima — turli-tuman jadvallar bilan har xil rangli rasmlar solingan qalin-qalin kitoblar yozish desang-chi! Butun Yevropa olimlari tong qolajak.

Demak, Benedikt tog'a dahshatli voqeadan hali bexabar ekan. Dik Send bilan kekxa Tomdan boshqa sayyohlar hammasi ham hali biz Amerikadamiz, deb o'ylar edilar.

Boshqa bir muhimroq voqealar yuz bergandagina ularda katta shubha tug'ilishi mumkin edi.

Benedikt tog'a o'z leksiyasini tugatgan mahalda kech soat to'qqizlar bo'lgan edi. Sheriklarining ko'pisi uning hasharotlar haqidagi hikoyasini eshitib o'tirib, uxlab qolganlarini fahmladimikan? Fahmlamagan bo'lsa kerak. Ammo Benedikt tog'aga bunday tinglovchilarning unchalik hojati ham yo'q edi. U o'zi uchungina gapirardi. Gerkules uxlashda hammadan keyin qoldi. Biroq u ham, qattiq charchaganligidan axiri ko'zlarini yumishga majbur bo'ldi.

Ehtimol, Benedikt tog'a hali anchagacha gap so-taverardi-yu, lekin uni ham uyqu bosa boshladi va

axiri u ham o'zining «yuqorigi tokchasi»ga chiqib oldi.

Qirchumoli uyasining ichi jimjit bo'lib qoldi. Tashqarida esa momaqaldiroq gulduragani guldiragan, chaqmoq chaqqani chaqqan edi. Yomg'irning to'xtashidan hech darak yo'q edi.

Fonus o'chirildi va gumbazning ichi qop-qorong'i bo'lib qoldi.

Hamma qattiq uyquga tolqanday ko'rinar edi. Ammo Dik Send qattiq charchaganligiga qaramay, ko'ziga uyqu kelmadi. Uning miyasi tinimsiz ishlar edi. Dik o'z hamrohlarini qanday qilib qutqazish kerakligi to'g'risida o'ylardi. Ularning azob-uqubatlari «Pilgrim»ning halokati bilangina tamom bo'lmadi. Agar ular yerliklarning qo'liga tushib qolsalar, og'irroq qiynoqlarga tushishlari ehtimol edi.

Kichkina otryadning dengiz qirg'og'iga bori-shidagi xavflardan eng yomoni bo'lgan bu dahshatli xatardan qanday qutqazsa bo'lar ekan? Biror yomon niyatlari bo'lmaganda, Gerris bilan Negro sayyohlarni Angolaning qorong'i burchagiga er-gashtirib kelmagan bo'lardilar. Ammo ablah portu-galiyalik nima qilmoqchi ekan-a? Kimdan o'ch ol-moqchi ekan? Dik, Negro faqat meni ko'rarga ko'zi yo'q, deb o'ylardi. U «Pilgrim»da kelayotgan mahalda yuz bergan hamma hodisalarni yana bir-ma-bir xotirlay boshladi. Halokatga uchragan «Valdek» kemasiga uchraganlarini, kit ovini, kapitan Gul bilan hamma matroslarning halok bo'lgani-ni — hammasini yodiga keltirdi... Dik Send o'n besh yoshida kapitan bo'lganini, Negro bilan oli-shib qolganini, uni o'ziga bo'ysundirganini, uni kishanlab tashlayman deb qo'rqitganini, otib tash-layman deb do'q qilganini esladi.

Attang, o'sha mahalda nimaga shunday qilmadi ekan? O'sha vaqtda Negoroni dengizga uloqtirib tashlaganida, ehtimol, bunday dahshatli falokatlar bo'lmasmidi!..

Dik Send shularni o'ylar edi.

U «Pilgrim»ning halokatini esladi. Tinch Boliviya o'lkasi o'rniga dahshatli bezgak kasalliklari, yirtqich hayvonlari va undan ham beshbattar vahshiy odamlari bo'lgan xatarli Angola o'lkasidan kelib chiqqanini bir-bir xotirladi. Otryad dengizga yetib olgunicha bular bilan yo'lda to'qnash kelishdan qutulib bo'larmikan? Dik dengiz qirg'og'iga solda suzib borish niyatiga erisha olarmikan? Solda suzib borish quruqlikdan yurib borishdan ko'ra yengilroq va xavfsizroq bo'larmikan?

Dik shubhalanmaslikka urindi. U Jek ham, missis Ueldon ham bu yovvoyi o'lkada uzoq yo'l yurishga toqat qilolmasliklarini yaxshi bilar edi.

«Ahvolimizning chatoqligini, — deb xayol surdi u, — missis Ueldon va boshqa yo'lovchilar bilmasligi qanday yaxshi-ya! Negoroning kemani Afrikaga burib yuborganini va uning sherigi Gerris esa bizni Angola o'lkasining ichkarisiga aldab olib kelganini Tom bilan men bilaman, xolos!»

Allakimning nafasi Dik Sendning peshanasiga kelib tegdi. Qandaydir nozik qo'l uning yelkasi-dan ushladi. Kimdir titroq ovoz bilan uning qulog'iga:

— Men hammasidan xabardorman, bechora Dik! — deb shivirladi.

O l t i n c h i b o b

G'AVVOSLIK QO'NG'IROG'I

Sira ham kutilmagan bu gap Dik Sendni esankiratib qo'ydi, u og'zini ham ocholmay qoldi. Ammo missis Ueldon undan hech qanday javob bo'lishini kutmas edi ham. U o'z joyiga, Jek yoniga qaytib keldi. Dik uni to'xtatib qolishga botinolmadi.

Demak, missis Ueldon hammasidan xabardor ekan-da...

Keyingi kunlardagi hodisalar uning shubhasini tarqatib yuborgan bo'lsa kerak va Benedikt tog'aning «Afrika» deb aytgan birgina so'zi uning butun shubhalarini ishonchga aylantirgan.

«Missis Ueldon hammasidan xabardor ekan! — dedi Dik o'z-o'ziga. — Mayli, qaytaga yaxshi. Agar u sir boy bermay yurgan bo'lsa, men qayg'urib o'tirmasam ham bo'ladi!»

Endi Dik sabrsizlik bilan tong otishini kuta boshladi. Tong otishi bilan u qirsumolilarning shahari atrofini razvedka qilib kelishga jo'naydi va o'zlarini Atlantika okeaniga olib borib qo'yadigan daryoni qidirib topadi. Bunday daryo yaqin o'rtadan oqib o'tishiga Dikning ishonchi zo'r edi.

Endi eng muhimi yerliklarga duch kelmaslikka tirishish edi, chunki Gerris bilan Negoro allaqachon ularning izidan yerliklarni yuborgan bo'lsalar kerak.

Tong otishiga hali uzoq. Gumbaz ichiga tashqaridan hech qanday yorug'lik kirmasdi. Tashqaridan arang eshitilib turgan momaqaldir ovozlar yomg'irning hali ham tinmaganidan darak berardi. Dik to'xtovsiz sel quyayotganini eshitib yotardi. Ammo katta-katta yomg'ir tomchilari yerga emas, suvga kelib tushardi. Shuning uchun Dik, butun atrofni suv bosgan ekan, degan xulosaga keldi.

Kechasi soat o'n birlar edi. Dik Sendni qattiq uyqu bosa boshladi. Lekin shu paytda uning miyasiga bir fikr keldi: polga yoyib tashlangan tuproq namiqib qolib, gumbazga kiradigan teshikni berkitib qo'yishi va havo kirmay qolishi ehtimol edi. Agar sof havo kirmay qolsa, tor uy ichidagi o'nta odam dimiqib qolar edi.

Dik Send polni tekshirdi. Tuproq solib o'ttiz santimetrcha ko'tarilgan supa usti hali quruq ekan. Gumbaz ichiga havo bemalol kirib turibdi, shu bilan birga to'xtovsiz chaqnayotgan chaqmoq shu'lasi ham ichkariga tushib turardi. Yomg'ir sharillab

yog'ib turishiga qaramasdan momaqaldiroq ovozlari sira tinmas edi.

Hamma narsa joyida edi. Qochib ketgan qirchumolilar uyasiga kirib olgan odamlarga hech qanday xavf-xatar yo'qday edi. Dik Send bir oz dam olmoqchi bo'ldi va ehtiyotdan tashqariga chiqadigan teshik yoniga yotdi. Kutilmagan biror voqea bo'lib qolsa, u hammani darhol turg'izishi mumkin edi. Bu joyda uni dastlabki tushgan tong nurlari uyg'otadi va o'sha zamoni u atrofni tekshirib kelishga jo'naydi.

Dik miltig'ini yoniga qo'yib, devorga boshini suyadi-da, shu ondayoq qattiq uyquga ketdi.

U badaniga qandaydir muzdek bir narsa tegib uyg'onib ketdi. Ko'zini ochib qarasa, gumbazni suv bosib ketayotgan ekan. Suv shunchalik tez ko'tarilar ediki, u birpasda Tom bilan Gerkules yotgan pastki qavatga chiqdi.

Dik ularni uyg'otib, gumbaz ichini yoritdi.

Suv besh fut balandlikka ko'tarilgandan keyin to'xtadi.

— Nima bo'ldi, Dik? — deb so'radi missis Ueldon uyqusidan uyg'onib.

— Hech nima bo'lgani yo'q, — deb javob qildi o'smir. — Gumbazning pastki qavatini suv bosdi. Qattiq seldan daryo toshib ketgan bo'lsa kerak.

— Juda soz! — deb xitob qildi Gerkules. — Demak, daryo yaqin.

— Ha, — dedi Dik Send, — ana shu daryo bilan dengiz qirg'og'iga yetib olamiz. Xotirjam bo'ling, missis Ueldon, suv endi ko'tarilmaydi, sizning tokchangiz quruq qoladi.

Missis Ueldon javob qaytarmadi. Benedikt tog'a esa, xuddi shu uyning egalari bo'lgan qirsumolilar singari, o'likday qotib uxlab yotar edi.

Beshta negr fonus shu'lasi tushib turgan suvga tikilib Dik Sendning buyrug'ini kutib turar edilar.

Dik Send suv tegmasligi uchun miltiqlar bilan

qolgan oziq-ovqatni yuqorigi qavatga joylab qo'yishni buyurdi.

Endi Dik Send gumbaz ichidagi suvning ko'tarilishini poylab, jim turardi.

— Suv haligi kirib-chiqib yuriladigan teshikdan kiribdimi? — deb so'radi Tom.

— Ha, — deb javob qaytardi Dik Send, — endi tashqaridan havo kirolmay qoladi.

— Bo'lmasa suvdan yuqoriroqdan boshqa teshik ochaylik, — deb taklif qildi kekxa Tom.

— Ochmasak... deyman, Tom, agar bu yerda suv faqat besh futgina ko'tarilgan bo'lsa, tashqarida undan ham balandroq bo'lishi ehtimol... Tashqarida suv yetti fut, sakkiz fut, ehtimolki, undan ham balandroqqa ko'tarilgan bo'lishi mumkin.

— Rostdan-a, Dik?

— Ha, gumbaz ichiga kirgan suv undagi havoni siqib qo'yan va endi ana shu siqilib qolgan havo suvning ko'tarilishiga yo'l qo'ymay turibdi. Basharti biz yuqoriroqdan teshik ochsak, siqilib qolgan havo tashqariga chiqib ketadi, ichkaridagi havo bosimi pasayadi, ichkaridagi suv bilan tashqaridagi suvning balandligi baravarlashib qoladi. Basharti tashqaridagi suv bu yerdagidan ham balandroq bo'lsa, u vaqtda havo yana siqilib qolgan qadar ichkaridagi suv yuqoriga ko'tarilaveradi. Bu gumbaz ichida biz xuddi suv ostida qo'ng'iroqsimon konus ichida ishlovchi ishchilarga o'xshaymiz.

— Endi nima qilamiz? — deb so'radi Tom.

— Avval yaxshilab o'ylashib ko'rib, keyin ishga kirishamiz. Ehtiyotsizlik bilan ish qilsak, hammamiz halok bo'lishimiz ham ehtimol, — deb javob qildi Dik Send.

Bu fikr juda ma'qul edi. Dikning suv bosgan gumbazni suv osti qo'ng'irog'iga o'xshatishi ham to'g'ri edi. Lekin maxsus nasoslar qo'ng'iroqsimon konus ichidagi havoni doim yangilab turadi. Suv ostida ishlovchilar bahuzur nafas olib ishlayveradi-

lar, havo bosimi zo'rligi natijasida bir oz nafas siqilishidan bo'lak hech qanday qiyinchilikka uchramaydilar. Gumbaz ichida esa, uning uchdan bir qismini suv bosganligi sababdan, nafas olishga havo yetishmaydi. Buning uchun tashqaridan havo kiradigan qilib devorni teshish kerak. Ammo devorni teshish xatarli edi, chunki Dikning yuqorida aytgan gapi to'g'ri chiqib qolsa, ahvol beshbattar chatoqlashishi mumkin edi.

Hozircha gumbaz ichidagi suv sathi o'zgarmay turibdi. Quyidagi ikki sabab bo'lganidagina suv ko'tarilishi mumkin edi: birinchidan, devorni teshganda tashqaridagi suv sathi ichkaridagidan ko'ra balandroq bo'lsa; ikkinchidan, daryoning toshqini yanada oshib ketsa. Har ikki holda ham gumbaz ichida havo oz qoladi. Nafas olishdan chiqqan uglekislota havoni yana qattiq siqib qo'yadi.

Dikning xayoliga, toshqin gumbazni ko'tarib ketishi mumkin, degan fikr keldi. Ammo birpas o'ylab turgandan keyin bu fikridan qaytdi, chunki qirchumolilarning imorati juda mustahkam qilib ishlangan edi.

Demak, eng yomoni — yomg'irning to'xtamasdan yog'averishi va natijada toshqin kuchayib ketishidan saqlanish edi. Basharti, toshqin o'ttiz futga, ya'ni gumbazdan ham o'n sakkiz fut balandga ko'tarilsa, gumbaz ichidagi havoning siqishi bir atmosfera bosimiga baravar bo'ladi.

Dikning fikricha esa toshqin kuchayishi kerak edi. Suv toshqini qattiq sel quyishidagina bo'lmasa kerak. Ehtimol, yaqin o'rtadagi biror daryo toshib ketib, pasttekisliklarni suv bosib ketgan bo'lsa kerak. U holda gumbaz butunlay suv tagida qolib ketgan bo'ladi. Unda gumbazning tepasidan ham teshib tashqariga chiqib bo'lmay qoladi.

Dik Send, sabr etish kerakmi yoki harakat qilib ko'rish kerakmi, deb hayajon-la savol berdi o'z-o'ziga.

Kechasi soat uch edi. Sayyohlar joylaridan

qimirlamasdan va gapirishmasdan, tashqaridan eshitilayotgan momaqaldir ovoziga quloq solib turardilar. To'xtovsiz gulduros va guvillash ovozlarning eshitilib turishi to's-to'polon hali ham davom qilayotganini bildirar edi.

Keksa Tom gumbaz ichidagi suvning tobora ko'tarilayotganini aytdi.

— Buni men ham fahmladim, — dedi Dik Send. — Demak, tashqarida ham suv ko'paymoqda. Bo'lmasa gumbaz ichidagi suv ko'tarilmadi.

— Hayriyatki, suv bilinar-bilinmas darajada ko'tarilmoqda, — dedi Tom.

— Lekin qachon to'xtashi noma'lum-da, — deb javob qildi Dik.

— Kapitan Dik, — dedi Bat, — agar xo'p desangiz, men gumbazdan tashqariga chiqib ko'raman. Men bir suvga sho'ng'ib, teshikdan tashqari chiqaman...

— Yaxshisi o'zim shunday qilib ko'ra qolay, — deb javob qaytardi Dik.

— Yo'q, yo'q! — deb ko'nmadi kekse Tom. — O'g'linga qo'yib beravering, o'zi qilib ko'rsin: agar u qaytib kelmasa... siz yana boshqa bir iloj toparsiz... — dedi chol va yana: — esingizdan chiqarmangki, siz missis Ueldon bilan kichkina Jekka kerak bo'lasiz! — deb shivirladi u...

— Xo'p, — dedi Dik. — Boshlang, Bat! Agar gumbaz suv ostida qolgan bo'lsa, qaytib kiraman deb ovora bo'lmang. Biz ham o'sha siz chiqqan yo'l bilan chiqib ketishga harakat qilamiz. Boltani olivoling, agar gumbazning tepasi suvdan chiqib turgan bo'lsa, bolta bilan urib taqilating. Sizning ishorangizni eshitgandan keyin, biz ham ichkaridan shipni teshaveramiz. Tushundingizmi?

— Tushundim, — dedi Bat.

— Xo'p, boshlay ber, o'g'lim, — dedi kekse Tom o'g'lining qo'lini qisib.

Bat o'pkasini to'ldirib havo oldi-da, suvga sho'ng'idi...

Gumbazdagi suvning chuqurligi besh futdan oshiq edi. Batning ishi qiyin edi: suv tagidagi gumbaz teshigini topishi, undan tashqariga chiqishi va keyin yuqori ko'tarilishi kerak edi. Buning hammasini bir necha sekund ichida qilishi kerak edi.

Oradan yarim minut o'tdi. Dik, endi u yuqoriga chiqib qolgandir, deyishi bilanoq, suvda Batning kallasi ko'rindi.

— Xo'sh, nima gap? — deb so'radi Dik Send.

— Teshikka loy tiqilib qolibdi, — dedi Bat, chuqur nafas olib.

— Teshik berkilibdi! — deb takrorladi Tom.

— Ha, — dedi Bat, — devorni suv nuratib yuborgan bo'lsa kerak. Qo'lim bilan hamma yoqni paypaslab ko'rdim, lekin teshikni topolmadim.

Dik Send boshini chayqab qo'ydi. Suv ostida qolib ketgan bu gumbaz ichidagi odamlar ichkariga havo kirmaydigan holda qamalib qolgan bo'lsa-ya.

— Agar eski teshik topilmasa, yangisini teshish kerak, — dedi Gerkules.

— Shoshmang! — deb xitob qildi Dik, boltasi bilan sho'ng'ishga tayyor turgan Gerkulesni to'xtatib.

Dik Send chuqur xayolga botdi va birpas jim turganidan keyin yana gap boshladi:

— Yo'q, boshqa ilojini qilamiz. Butun gap shundaki, suv gumbazning tepasiga chiqqanmi-yo'qmi, shuni bilish kerak. Shipni parmalab teshsak, bilamiz-qo'yamiz. Agar gumbazning tepasiyam suv ostida qolgan bo'lsa, ichkaridagi havo tashqariga otilib chiqib ketadi, gumbaz ichiga suv to'lib, hammamiz halok bo'lamiz. Ishqilib, ehtiyot bo'lish kerak...

— Lekin o'ylab o'tiraverish ham yaramaydi, — dedi kekxa Tom.

Haqiqatan ham gumbaz ichidagi suv asta-sekin ko'tarila boshlab, chuqurligi olti futga yetdi.

Missis Ueldon, Jek, Benedikt tog'a va Nan kampir gumbazning yuqorigi qavatiga — suv chiqmagan joyiga chiqib olishdi; lekin qolganlar hammasi beligacha suv ichida qolishdi.

Dik aytgan chorani tezroq qilib ko'rish kerak edi. O'smir dastavval suvdan bir fut yuqoriroqdan, ya'ni yerdan yetti fut balandlikdagi joydan teshik ochib ko'rmoqchi bo'ldi. Agar teshikdan havo kirsas, gumbaz suvdan chiqib turgan bo'ladi. Aksincha, teshik tashqaridagi suvdan pastroqdan ochilib qolsa, demak, unda gumbazdagi suv ko'tarila boshlaydi. U vaqtda bu teshikni tezda berkitib, yana bir fut balandroqdan teshib ko'riladi. Basharti shipdan teshgandan keyin ham havo kiravermasa, demak, tashqaridagi suv o'n besh futdan ham baland va qirchumolilarning butun shahri suv ostida qolib ketgan bo'ladi. Bu taqdirda Dik Send bilan uning sheriklari eng dahshatli azob bilan sekin-asta bo'g'ilib o'ladilar.

Dik Send buni tushunsa ham, o'zini xotirjam tutdi. U o'zi qiladigan ishlarining oqibati nima bo'lishini oldindanoq hisobga olib qo'ygan edi. Ammo endi indamay o'tiraverish ham xavfli edi: gumbaz ichidagi havoning buzuqligidan sayyohlar dimiya boshladilar.

Dik devorni teshmoq uchun uni vintsimon bo'lgan miltiq shompolini oldi. Tezda buralgan shompol loydan qilingan devorni bemalol teshaverdi. Teshikning diametri shompol diametridan bir necha millimetr kattaroq bo'lsa ham, havo undan o'ziga bahuzur yo'l topib kira olardi.

Gerkules fonusni ko'tarib, Dikka yorug' qilib turdi. Akteonda yana bir necha dona sham bor edi, shuning uchun bemalol chiroq yoqilsa bo'laveradi.

Bir minutdan keyin shompol devorni teshib o'tdi. Shu ondayoq biqir-biqir qilib suv qaynagan-day ovoz eshitildi. Gumbaz ichidagi havo otilib tashqariga chiqa boshladi va pastdagi suv darrov yuqori ko'tarila boshladi.

Demak, shompol tashqaridagi suv ostidan teshib chiqibdi ekan...

— Boshqatdan teshishga to'g'ri keladi! — dedi-da Dik Send, teshikni darrov loy bilan suvab qo'ydi.

Suv ko'tarilishi to'xtagan bo'lsa-da, lekin balandligi sakkiz futcha bo'lib qoldi. Demak, gumbaz ichida xuddi o'sha hajmdagi havo kamaydi. Nafas olish qiyinlasha boshladi, chunki havoda kislorod tugay deb qoldi. Fonusning olovi ham qizarib qoldi, so'ng xiralandi.

Dik Send avvalgisidan bir fut yuqoriroqdan boshqa teshik ocha boshladi. Agar bu gal ham natija o'shanday bo'lsa, gumbaz ichidagi suv yanada yuqoriroqqa ko'tariladi. Lekin tavakkal qilishga to'g'ri keladi!

Dik Send devorni teshayotgan vaqtda Benedikt tog'aning ovozi eshitilib qoldi:

— Hali ish mundog' deng! Endi masala ang-lashildi!

Gerkules fonus yorug'ini Benedikt tog'aga bur-di. Olimning yuzlari shodlik nuri bilan to'la edi.

— Bu aqlli hasharotlarning nima uchun o'z makonlarini tashlab ketganlari endi ma'lum bo'l-di! — dedi Benedikt tog'a. — Ular toshqin bo'lishi-ni sezgan ekanlar! Mana buni sezgirlik dey-dilar, sezgirlik, do'stlarim! Qirchumolilar bizlardan ham aqlli chiqdi! Qoyilman-ey!

Benedikt tog'a hozirgi bo'layotgan ishlar to'g'risida fikrini aytgandan keyin, jimjit bo'lib qoldi.

Shu payt Dik Send devorni teshib bo'lib, shompolni tortib oldi. Yana o'sha biqirlagan ovoz eshi-tildi... Gumbaz ichidagi suv yana ko'tarila boshla-di... Bu teshik ham suv ostidan ochilgan edi!

Ahvol juda mushkul bo'lib qoldi. Missis Ueldon o'g'ilchasini qo'lga oldi, chunki unga ham suv yaqinlashib qolgan edi. Tor joyda ham-ma bo'g'ila boshladi, hammaning qulog'i shovul-

lab, yuragi gupillab ura boshladi, fonus esa o'chay deb qoldi.

— Nahot butun gumbaz suv ostida qolgan bo'lsa! — deb shivirladi Dik Send.

Buni aniq bilish uchun gumbazning eng tepasi-dan uchinchi marta teshib ko'rish kerak edi. Basharti buning natijasi ham avvalgilarday bo'lsa, sayyohlarga bo'g'ilib o'lishdan boshqa chora qol-mas. Qolgan havo tashqariga chiqib ketib, gum-bazning ichi suvga to'lishi turgan gap edi.

— Missis Ueldon, — dedi Dik Send, — qanday ahvoldaligimizdan xabaringiz bor. Agar sustlik qil-sak, havo yetishmay qoladi. Bordi-yu, keyingi harakatimiz ham behuda ketsa, gumbazning ichiga suv to'lib ketadi. Gumbazning tepasi suvdan chiqib turgan taqdirdagina o'limdan qutulishimiz mumkin. Men tavakkal qilib teshamiz deyman... Rozimisiz?

— Roziman, Dik, — deb soddagina qilib javob berdi missis Ueldon.

Shu paytda kislorod yetishmasligidan fonus o'chib qoldi. Sayyohlar qop-qorong'i gumbaz ichida qoldilar.

Gerkules pastki qavatga tushib edi, boshidan bo'lak joyi suv ichiga botdi. Dik uning yelkasiga chiqib olib, shompol bilan gumbazning eng tepasini tesha boshladi. Gumbazning shipi qalin va qattiq edi. Shompol uni zo'rg'a teshib kirar edi. Dik juda shoshilib ishlar va nafasi bo'g'ziga tiqilganday hov-liqardi, chunki bir necha daqiqadan keyin kichkina teshikdan yo sof havo va u bilan hayot kirar, yo suv va u bilan o'lim otilib kirardi.

Birdan g'alati hushtak ovozi eshitilib qoldi. Gumbaz ichida siqilib qolgan havo tashqariga otilib chiqdi... biroq teshikdan yorug'lik ko'rindi. Gumbaz ichidagi suv yana yigirma dyum ko'tarildi-da, o'sha balandlikda to'xtab qoldi, chunki tashqaridagi suv bilan ichkaridagi suvning sathi baravarlashib qolgan bo'lsa kerak.

Demak, gumbazning uchi suvdan chiqib turgan ekan. Endi sayyohlar o'limdan qutuldilar!

Gumbaz ichida «ura» degan sadolar yangradi. Ayniqsa, Gerkulesning ovozi quloqni yoray dedi.

O'sha topdayoq pichog'u boltalar ishga solindi. Gumbaz tepasidagi teshik tez-tez kengaya boshladi. Ochiq joydan ichkariga sof havo bilan endigina chiqib kelayotgan quyoshning dastlabki nurlari kirdi.

Eng oldin tashqariga Dik Send boshini chiqardi. U beixtiyor ravishda qichqirib yubordi. O'sha zamonni sayyohlar Afrikada ko'p eshitgan kamon o'qning chiyillagan tovushi eshitildi.

Dik Send pastga tushdi. Ammo u qirchumolilar shaharchasidan bir necha yuz metr narida yerliklar lageri borligini ko'rib qoldi.

Gumbaz atrofidagi toshqin suvda allaqanday qayiqlar suzib yurar edi. Qayiqlarda yerliklarning jangchilari o'tirardilar. Dik gumbazdan boshini chiqazgan paytda ular unga qarab o'q uzdilar.

Dik bo'lgan voqeani bir-ikki og'iz so'z bilan o'rtoqlariga tushuntirib berdi. Keyin Dik Send, Gerkules, Akteon va Batlar miltiqlarini qo'lga olib, teshikdan bosh chiqarib, qayiq'larga qarata qarsillatib ota boshladilar.

Yerliklardan bir nechtasini otib o'ldirdilar. Yerliklar ularga qarshi tartibsiz o'q yog'dirdilar va vahshiylarcha baqira boshladilar. Ammo har tomondan o'rab olgan yuzlarcha jangchilarga qarshi bir necha sayyoh nima ham qila olardi?

Yerliklar gumbazni bosib olishdi. Missis Ueldon bilan uning o'g'lini va Benedikt tog'ani ushlab olib, bir qayiqqa itqitib tashlashdi. Ular o'rtoqlari bilan xayrlashishga ham ulgura olmadilar. Dik Send ularning qayig'i yerliklar lageri tomon suzib ketayotganini ko'rib turdi.

Dikning o'zini, Nan kampir bilan kekxa Tomni va qolgan boshqa negrlarni ikkinchi bir qayiqqa solib, boshqa tomonga olib ketishdi.

Bu qayiq ichida yigirmatacha jangchi bor edi,

uning ketidan beshta katta qayiq borar edi. Bunday sharoitda qarshilik ko'rsatishdan hech qanday foyda yo'q bo'lsa ham, Dik Send bilan uning o'rtoqlari qarshilik qilib ko'rishdi va bir necha kishini yarador ham qilishdi. Basharti, jangchilar, boshliqlaridan ularni albatta tiriklay tutib olib kelasizlar, degan buyruq olmaganlarida, ularni o'ldirib yuborar edilar.

Bir necha minutdan keyin qirg'oqqa yetib kelishdi. Qayiq endi qirg'oqqa yetib kelib to'xtay degan paytda Gerkules o'zini ushlab turgan jangchilarni bir yoqqa itarib yuborib, sakrab qirg'oqqa tushdi. Yerliklardan ikkitasi uning ketidan quvdi, ammo Gerkules pahlavon birisining miltig'ini tortib olib, qo'ndog'i bilan qulochkashlab turib bir solgan edi, ikkala jangchi ham boshlari pachaqlanib, yerga cho'zilib qoldi.

Bir minutdan keyin Gerkules yomg'irday yog'dirilgan o'qlarga chap berib, o'rmon ichiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Dik Send bilan uning sheriklarini yerliklar qirg'oqqa olib chiqib qullar singari kishanlab tashladilar...

Y e t t i n c h i b o b

KUANZA DARYOSI BO'YIDAGI LAGER

Qirchumolilar shahri turgan pasttekislikni suv bosgandan keyin tevarak-atrof manzarasi butunlay o'zgarib ketdi. Bu g'alati ko'l ichida bir necha qirchumoli gumbazlarining uchli tepaliklarigina ko'rinib turar edi.

Qattiq sel natijasida Kuanza daryosining hamma shoxobchalari toshib ketib, kechasi kuchli toshqin bo'libdi.

Angolaning eng katta daryolaridan biri bo'lgan Kuanza daryosi «Pilgrim» halokatga uchragan

joydan taxminan yuz mil narida Atlantika okeaniga quyiladi.

Dik Sendning shimol tomonda kema qatnaydigan katta daryo bo'lishi kerak deb, qilgan taxmini to'g'ri edi. O'z otryadini boshlab kelgan yo'lidagi soy to'ppa-to'g'ri Kuanzaga borib quyilar edi. Agar yerliklar to'satdan hujum qilib qolmaganda, Dik Send qirchumolilar shaharchasidan bir milcha naridan bu daryoni topar edi. U mahalda otryad birpasda sol yasab, daryoda suzib yo'lga tushardi-da, daryoning etagidagi Portugaliya bekatlariga bemalol yetib olgan bo'lardi. U yerlarga tez-tez paroxodlar ham kelib turadi va shunda sayyohlar xavf-xatardan qutulgan bo'lar edilar.

Biroq, taqdirlari bo'lgancha bo'ldi.

Dik ko'rgan yerliklar lageri sal bo'lmasa sayyohlarning mazoriga aylanay degan qirchumoli gumbazi yaqinidagi bir adirga joylashgan edi. Adirning cho'qqisida kattakon bir anjir daraxti o'sib yotardi. Uning har tomonga tarvaqaylagan shoxlari tagiga bemalol besh yuz kishi sig'ar edi. Afrikadagi bunday katta daraxtlarni o'z ko'zi bilan ko'rmagan kishi ularning qanday katta ekanligini ko'z oldiga keltirolmaydi.

Anjir daraxti soyasiga katta bir qullar karvoni kelib joylashgandi, Gerrisning Negoroga aytgan karvoni shu edi. Alvets degan qulfurushning agentti bu qullarni markaziy qullar bozori bo'lgan Kazondaga haydab olib kelmoqda edi. U yerdan bu bechoralarni g'arbiy qirg'oqdagi baraklarga yoki Katta ko'llar o'lkasidagi Nyangvega yuborar edilar. Nyangveda yangi karvonlar tuzilib, ular shimolga, ya'ni Misrga yoki sharqqa — Zanzibarga yuborilardi.

Lagerda Dik Sendning yo'ldoshlariga boshqa qullarga o'xshash muomala qilindi. Nan kampir, Tom, uning o'g'li Bat, Ostin va Akteonlarni juft-juft qilib, har bir juftga uzunligi olti fut keladigan alohida ayri yog'och kiygizdilar. Bo'yinni mahkam

qisib turadigan ayrining ikki uchiga temir band kiygizib mahkamladilar. Bo'yinlari qattiq siqilgan qullar hech qayoqqa qaray olmasdan, ketma-ket yurishga majbur edilar. Bu yog'ochdan tashqari bechoralarning juft-juft qilib oyoqlariga kishan solib, uni qullarning bellariga bog'lab qo'yar edilar. Qullar bo'sh qolgan ikki qo'li bilan og'ir yuk ko'tarardi, ikki oyog'i bilan yurardi, lekin hech qayoqqa qocholmaydi... Ana shunday holda ular jazirma oftobda, xavildor deb ataladigan johil nazoratchining qamchisi ostida yuzlab mil yo'l yurishlari kerak edi.

Hozirgina bo'lib o'tgan jangda charchagan Dik va uning sheriklari ortiq qarshilik ko'rsatmadilar. Nega Gerkules bilan qochib ketishmadi ekan? Ammo qochib ketgan pahlavonni bu yovuz mamlakatda nimalar kutadi? Bu dahshatli mamlakatda uni ochlik, yirtqich hayvonlar va yovvoyi yerliklar kutadi, xolos. Ehtimol, tez orada u ham sheriklari bilan qullikka tushmaganiga koyinsa ajab emas.

Karvon xo'jayinlaridan ularning hech qanday rahm-shafqat kutishlari mumkin emas edi. Arablar bilan portugaliyaliklardan iborat bo'lgan karvon xo'jayinlari o'zaro allaqanday tushunib bo'lmaydigan tilda gapirishar, qullar bilan esa urish-so'kish va baqirish yo'li bilan «gapirishar» edilar.

Dik Send oq badan bo'lgani uchun quldorlar unga qullar singari muomala qilishga botinolmadilar. Shuning uchun uni qurolsizlantirsalar-da, kishan kiygizmadilar. Buning o'rniga uning yoniga maxsus bir nazoratchini tayinlab qo'yishdi, bu odam Dikdan sira ko'z uzmas edi.

Dik Send Negoro yoki Gerris ko'rinib qolmasmikan, deb u yoq-bu yoqni qaradi, lekin ular ko'rinmadi. Shunday bo'lsam ham Dik yerliklarning ortyadga hujum etishlarida bu ifloslarning ishtiroki borligiga hech bir shubhalanmas edi.

Dikning miyasiga missis Ueldon, Jek va Benedikt tog'ani xuddi o'sha Gerris bilan Negoroning

buyrug'i bilan boshqa qullardan ajratib qo'yishgan bo'lsa kerak, degan fikr keldi. Ularning lagerda yo'qligini bilganidan keyin, ular o'z o'ljalari bilan birga bo'lsa kerak, deb o'yladi. Missis Ueldonni qayoqqa olib ketishdiki? Uni nima qilmoqchi ekan? Bu tashvishlar Dikka sira tinchlik bermadi va hatto o'z boshiga tushgan falokatlarini xayolidan chiqazib yuborishga majbur edi.

Katta anjir daraxti tagida dam olgani joylashgan karvonda eng kamida sakkiz yuz kishi bor edi. Bulardan besh yuztachasi erkak, ayol qullar, ikki yuztacha yerlik soldatlar, yuztacha hammollar, nazoratchi xavildorlar va quldorning agentlari edi.

Nazoratchilar arablar yoki portugaliyaliklardan edi. Ularning qullarga qilgan rahmsiz muomalalarini ko'z oldiga keltirish ham qiyin. Ular bechora qullarni har qanday arzimagan sabablar bilan ham, hech qanday sababsiz ham o'lguncha urar edilar. Kasallarini hamda qiynoqqa chidamaydigan qullarni esa pichoq sanchib yoki otib o'ldirardilar, chunki bunday qullarni xaridorlar olmas edi. Karvonda urish-o'ldirish yo'li bilan intizom o'rnatilar edi.

Ana shunday qattiq muomala tufayli karvon manzilga yetkunga qadar qullarning yarmidan ko'pi yo'lda o'lib ketar edi. Shuning uchun ham Afrikaning ichkarigi viloyatlaridan dengiz qirg'o'g'iga olib chiqadigan karvon yo'llarida o'lgan qullarning suyaklari to'lib yotar edi.

Qul savdogarlariga agent bo'lib qullar karvonini boshlab yuruvchi yevropalik, portugaliyalik odamlarning axloqsizligini tushunish qiyin emas. Bular o'z mamlakatidan quvilgan jinoyatchilar, razillar, katorgadan qochgan odamlardir. Gerris bilan Negoro ham ana shunday insongarchilikdan chiqqan ablahlardan edi. Ular Xoze-Antonio Alvets degan katta qul savdogariga xizmat qilar edilar. Kameron bu qul savdogari haqida ko'pgina qiziq ma'lumotlarini bergan edi.

Qul savdogarlari qullarga soqchilik qiladigan soldatlarni aksari yerliklardan terib olar edilar. Ammo odamlarni ovlab band etish faqat qul savdogarlarininggina kasbi emasdi. Yerlik negr qabila boshliqlari ham shu maqsadda doim bir-birlari bilan qattiq urushlar olib borar edilar. Zo'r chiqqan taraf asir olingan qullarni — erkak, ayol va bolalarni bir necha metr surp, bir hovuch o'q-dori, miltiq, qizil yoki pushti rang munchoqqa, ocharchilik yillarida esa, bir hovuch makkajo'xoriga o'sha qul savdogarlariga sotib yuboradilar deydi Livingston...

Alvets karvonini kuzatib boruvchi soqchi soldatlar Afrikadagi eng oddiy yollanma askariy qo'shinalarga o'xshar edi. Bular uzun chaqmoq miltiq bilan qurollangan yarim yalang'och banditlarning o'zginasi edi. Qul savdogarining agentlari bunday soqchilarni eplay olmas edilar, chunki bu banditlar buyruqqa bo'ysunavermas, yo'lga chiqish va dam olish uchun to'xtash vaqtini ular o'zlari tayinlar va biron agent qaysarlik qiladigan bo'lsa, karvonni tashlab ketamiz deb qo'rqitib, uni yon berishga majbur qilar edilar.

Karvonning og'ir yuklarini erkak, ayol qullar yelkalaridan ko'tarib borar edilar. Shunga qaramasdan qul savdogarlari, «pagazis» deb ataladigan maxsus hammollardan ham bir qanchasini yollar edilar. Qimmatbaho yuklar va ayniqsa fil suyaklarini ana shularga yuklar edilar. Goho shunday katta fil suyaklari uchrab qolardiki, ularning har birini ikkitadan hammolga yuklashga to'g'ri kelar edi. Qirg'oq bo'yidagi faktoriyalardan¹ fil suyagi Xartum, Zanzabar va Natal bozorlariga yuborilar edi. Hammollarga mehnat haqi uchun manzilga yetib borgandan keyin bir necha metr oddiy chit, bir hovuch (Afrikada chaqa baravarida yuradigan chig'anoq), o'q-dori, goho marvarid, ba'zida esa qul

¹ Faktoriya — uzoq joylardagi savdo kontorasi.



savdogarining boshqa beradigan buyumi bo'lmasa yoki bozorda bahosi past bo'lsa, bitta qul berilar edi.

Alvets karvonidagi besh yuz qul ichida yoshi ulg'ayganlari juda kam edi. Odatda hujum paytida qirq yoshdan oshgan erkaklarni yonayotgan qishloq xarobalari ichida ayovsiz o'ldirib yuborar edilar, chunki qullar bozorida faqat yosh, sog'lom qullar bilan bolalargagina yaxshi xaridor topilar edi. Bunday qonli qirg'indan keyin, yengilgan tarafning o'ndan bir qism odamlarigina tirik qolar edi. Markaziy Afrikaning butun-butun viloyatlari huvillab qolib, sahroga aylanayotganining sababi ham shu.

Bu inson podasi naqadar dahshatli ko'rinishda edi! Qullarning kiyim-bosh — daraxt po'stlog'idan to'qilgan «mbuzu» deb ataladigan qiyqim-siyqimlardan iborat edi. Kaltak zarbidan yara-chaqa bo'lib ketgan xotinlar qiynoqdan oyoqlari qonab, oriqlab ketgan bolalarini o'z yuklari ustiga o'tqazib, yoki qo'llarida ko'tarib borar edilar; kishan ustiga yana bo'yinlariga zum qolipi kiygizilgan odamlarga qarash dahshatli edi.

Ovozi o'chgan chala o'lik va Livingston aytgandek, bu «qora yog'ochdan qilingan skeletlar»ga hatto yirtqich hayvonlarning ham rahmi kelar edi. Ammo arab nazoratchilariga bu dahshatli manzara sira ta'sir qilmasdi, portugaliyalik nazoratchilar bo'lsa, Kameron aytgandek, arablardan ham beshbattar rahmsizroq edilar¹.

Yo'lda ham, to'xtalgan manzilda ham asirlar ustidan qattiq nazorat qilinardi. Dik Send bunday sharoitda qochishni xayolga ham keltirib bo'lmashligini tushunar edi. U missis Ueldondan juda xavotirda edi. Hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas: yosh ayol bilan uning o'g'lini o'g'irlashda Negoro, albatta ishtirok qilgan. «Pilgrim»da falokatga uchraganlarni bir-biridan ajratishda portugaliyalikning nima maqsadi borligini Dik Send hamon bilmas edi. Ammo Negoro har qanday jinoyat qilishdan tortinmaydigan odam edi; missis Ueldonning qanday qo'rqinchli xatarlar ichida qolganini o'ylaganida o'smirning yuragi orqasiga tortib ketar edi.

«O'sha mahalda bu ikki mal'unni ham otib tashlamaganimga hayronman!» deb o'yladi Dik.

O'smirning miyasiga hadeb qo'rqinchli fikrlar kelaverar edi. Missis Ueldon bilan kichkina Jek hech qanday himoyachisiz qoldilar. Benedikt tog'a esa ular uchun homiy bo'la olmaydi. U o'zini-o'zi eplay olsa ham katta gap. Uchovini ham allaqachon Angolaning birorta uzoq joyiga jo'natgan bo'lsalar kerak. Lekin kasal bolani yo'lda kim ko'tarib boradi?

¹ Kameron o'zining «Olam ichida» degan kitobida quyidagilarni aytadi: «Alvets talab etgan ellikta ayolni tutib keltirish uchun o'nta qishloq batamom yo'q qilindi... Bu o'nta qishloqning har birida bir yuzdan tortib ikki yuzgacha odam, ya'ni hammasi bo'lib bir yarim minggacha odam bo'lgan ekan! Juda ozgina odam qochib qutulibdi... Portugaliya bayrog'i ostida yashirinuvchi va o'zlarini Portugaliya fuqarosi deb hisoblovchi odamlarning qanday dahshatli jinoyatlar qilayotganini Lissabon hukumati, albatta bilsa kerak».

Jyul Vern izohi: Kameronning bu aytganlari Portugaliyada katta noroziliklar tug'dirdi.

«Onasi ko'taradi-da, onasi! — dedi Dik o'z-o'ziga. — Ona bechora, Jekni qo'liga olib, o'zi holdan toyib yiqilib qolguncha uni ko'tarib boradi... Sho'rlik qul ayollar qanday azoblar ko'rsa, u ham shularni ko'radi. U ham o'sha qul ayollar singari, yo'lda o'lib ketadi... Qani endi, men bu jallodlar bilan yuzma-yuz kelolsam!»

Ammo Dikning o'zi asir edi. Uning o'zi ham xavildorlar Afrikaning ichkari tomoniga haydab ketayotgan qullar podasining boshida borar edi. Bechora missis Ueldonga faqat Gerkulesgina yordam etishi mumkin.

Dik Sendning ham butun bor-yo'q umidi o'shanda edi. Dik, Gerkules ozodlikda, u o'z sheriklarini va missis Ueldonni qutqarish uchun hamma chorani ko'rsa kerak, deb o'ylar edi. Gerkules asirlarning ketidan kelayotgan bo'lsa kerak va yaqinda missis Ueldonga yordam berishi haqida unga xabar berish yo'lini ham o'ylab qo'ygan bo'lsa kerak, Gerkules avval uni, ya'ni Dik Sendni qutqazib olib, keyin ikkovimiz bir bo'lib missis Ueldonni qutqazib olamiz, deb o'ylagan bo'lsa ham ehtimol!

Dik tunda Gerkulesning qullar lageriga kirib kelayotganini ko'z oldiga keltira boshladi. U qorovullarni chalg'itib va boshqa qullar singari qop-qora bo'lganidan foydalanib, asta borib ularga aralashib ketadi. U Dikning oldiga emaklab keladi, uni bo'shatib, o'zi bilan birga o'rmonga ergashtirib ketadi... Ana endi ular ikkovi ham ozod!.. Eh, o'shanda ular missis Ueldonni qutqazish uchun nima choralar ko'rishmaydi deysiz!..

Yomon ahvolga tushib qolgan o'smirimiz ana shunday umidlarni qilar edi. U sira ham umidsizlanmasdi, uning g'ayratga to'lgan tabiati qattiq kurashmasdan turib taslim bo'lgisi kelmasdi. Kurashni boshlab yuborish uchun Dik Send har qanday imkoniyatdan foydalanishga tayyor edi.

Dastavval qullar karvonining qayerga ketayotganini bilib olish kerak edi. Agar karvon

Angolaning savdo punktlariga borayotgan bo'lsa, unda bir necha kunlik yo'l yurish qoladi. Basharti, karvon Markaziy Afrikaning ichkarigi viloyatlari-ga ketayotgan bo'lsa, hali yuzlab mil yo'l yurish kerak edi. Eng katta qul bozori Katta ko'llar yaqinidagi Nyangve shaharchasida edi. Nyangve shaharchasi Afrika qit'asining qoq o'rtasidan o'tgan meridian chizig'i ustiga joylashgan. Biroq Kuanza qirg'og'idagi lagerdan Nyangvegacha juda uzoq: safar bir necha oyga cho'zilishi mumkin edi.

Shuning uchun ham Dik karvonning qayerga ketayotgani haqida ko'p o'ylanardi, chunki Nyangve qochib qutulib bo'lmaydigan joy edi. Basharti, missis Ueldon, Dik, Gerkules va boshqa negrlar asirlikdan qutulib, erkinlikka chiqa olsalar-da, baribir yo'lda, Katta ko'llar bilan dengiz qirg'og'i o'rtasidagi biror joyda halok bo'lar edilar.

Ammo Dik Send tezda bu to'g'rida xotirjam bo'ldi, chunki karvon xo'jayinlari arabcha bilan qandaydir Afrika shevasi aralash tushunib bo'lmaydigan tilda gaplashsalar ham, lekin Dik ularning qandaydir bir mahalliy qul bozori to'g'risida ko'p gapirayotganlarini fahmladi. Ular ko'p gapirayotgan Kazonde Angoladagi qullar savdosining markazi ekanligini Dik yaxshi bilar edi. Kazondeda hamma asirlarning masalasi hal qilinadi, deb o'yladi Dik. Uning mo'ljali to'g'ri edi.

Dik Send geografiyani yaxshi o'qigani uchun Angolaning Loanda portidan Kazondegacha to'rt yuz mildan ortiq emasligini bilardi. Demak, Kuanza bo'yidagi lagerdan o'sha qul bozarigacha bo'lgan yo'l ikki yuz ellik mildan oshmas edi. Oddiy sharoitda bu masofani o'n-o'n ikki kunda bosish mumkin. Ammo qullar karvoni uzoq yurib kelib charchaganligi sababidan, Dikning hisobicha, Kazondega yetib olish uchun kamida uch hafta vaqt kerak bo'lar edi.

Dik o'z taxminlarini keksa Tom va uning sherik-

lari bilan o'rtoqlashish ishtiyoqida edi. Ular karvonning sira qochib qutulib bo'lmaydigan Markaziy Afrika ichkarisiga haydalmayotganini eshitishsa, juda xursand bo'lishar edi. Ammo bu xushxabarni ularga qanday qilib bildirsa bo'larkin?

To'rtta asir negr lagerning o'ng qanotida edi. Ular juft-juft qilinib — Akteon bilan Ostin va Tom bilan Bat kishanlangan edilar. Ular yoniga maxsus xavildor bilan o'ntacha soqchi qo'yilgan edi.

Kishansiz Dik o'zidan ellik qadamcha narida o'tirgan o'rtoqlari oldiga yaqinroq bormoqchi bo'ldi. U asta ularga yaqinlasha boshladi.

Keksa Tom Dikning maqsadini fahmlagan bo'lsa kerak, sheriklarining qulog'iga bir nima deb shivirlagan edi, hammalari gaplarini to'xtatib, diqqat bilan Dikni kuzata boshlashdi. Ular turgan joylaridan qo'zg'ala olmas edilar, ammo Dikning harakatlari kuzatib turish uchun ularga hech narsa xalaqit bermasdi.

Bir ozdan keyin Dik bilintirmay yarim yo'lga yetdi. Shu yerdan u Tomga karvon ketayotgan shaharning nomini va necha kun yo'l yurilishini aytishi mumkin edi. Ammo uning o'rtoqlari bilan gaplashgisi kelar va yo'lda o'zlarini qanday tutishlari kerakligi to'g'risida maslahatlashib olmoqchi edi. Shuning uchun asta-asta ular oldiga boraverdi. Uning yuragi qattiq dukillardi, chunki o'rtoqlariga yetishiga bir necha qadamgina qolgandi... Ammo xavildor uning niyatini tushunganday birdan baqirib, uning yo'lini to'sishga otildi. Xavildorning ovozini eshitib qolgan soldatlar chopib Dikning oldiga kelib, uni itarib tashladilar. Keyin Tom bilan uning sheriklarini lagerning orqa tomoniga haydab ketishdi.

Dik Sendning g'azabi qaynab ketdi-yu, xavildorga tashlandi. Dik uning miltig'ini tortib olmoqchi bo'lgan edi, lekin uddasidan chiqa olmaganidan keyin, miltiqning stvolini lojasidan ajratib oldi. Biroq soldatlar ko'plashib unga hujum qilishdi va

yerga yiqitishdi. Agar karvon boshliqlaridan biri, qovog'i soliq novcha bir arab bu ishga aralashmaganda, quturgan soldatlar Dikni tilkalab tashlar edilar. Bu arab Gerris Negoraga aytgan Ibn Homis degan karvonboshining xuddi o'zi edi.

Arab Dik tushunmaydigan bir necha og'iz so'z aytishi bilan, soldatlar indamay tarqalib ketishdi.

Qullarga bir-biri bilan gaplashish man etilgan bo'lsa kerak. Ammo soqchilarga Dikni o'ldirmaslik to'g'risida qat'iy buyruq berilgan edi. Bunday buyruqni Gerris bilan Negorodan boshqa kim berardi?

Shu paytda qattiq karnay ovozi eshitilib qoldi va uning ketidan nog'ora chalindi. Dam olish vaqti tamom bo'ldi. Lagerdagilar o'rinlaridan tura boshladilar. Bir minut ham o'tr-o'tmas boshliqlar, soldatlar, hammollar va qullar hammasi o'rnidan turdi. Qullar yuklarini ko'tarib safga tizildilar. Eng oldinda qo'lga chipor bayroq ushlagan xavildor turar edi.

Keyin qo'zg'alish uchun signal berildi.

Sekin aytilgan ashula ovozi ham eshitildi. Ammo ashulani zolimlar emas, mazlumlar aytar edi. Bu ashulada kelajakda yaxshi hayot borligiga soddagina ishonish hamda:

«Sizlar meni qulikka haydayotirsizlar, chunki zo'rsizlar. Lekin men o'lib ketaman. O'lganimdan keyin arvohim kelib sizlarni o'ldirajak!» deb jallodlarni qo'rqitish ham bor edi.

S a k k i z i n c h i b o b

DIK SENDNING XOTIRA DAFTARCHASIDAN

Yomg'ir to'xtagan bo'lsa ham, osmonning qovog'i soliq edi. Markaziy Afrikada aprelda «mazika» deb ataladigan ikkinchi yog'ingarchilik davri boshlanadi. Bu davrda yomg'ir aksari kechasi yog'adi. Ikki va ba'zan esa uch hafta yog'adi.

Qullar karvoni uchun bu qo'shimcha mashaqqat va og'ir sinov edi.

Karvon havo aynigan bulutli kun ertalab Kuanza daryosi bo'yidagi dam olish joyidan to'ppa-to'g'ri sharqqa qarab jo'nab ketdi.

Ellikta soldat karvonning oldida, yuztachasi ikki yonidan va yana elliktasi karvonning ketidan qo'riqlab borar edi. Odamlar kishanlanmagan bo'lganda ham, bunday ahvolda qochib ketish qiyin edi. Asirlar safi bir-biri bilan aralash quralash bo'lib ketdi. Ayollar, o'smirlar, erkaklar — hammasi aralash yurar edi. Nazoratchilar esa ayamay qamchi bilan urib, ularni haydab borar edilar. Qullar orasida qo'lida emizikli chaqalogi bo'lgan ayollar ham bor edi. Ba'zi bir ayollar esa, ko'tarib yurolmaganlaridan, qip-yalang'och yosh bolalarini qo'lidan sudramoqdan beri qilib, yetaklab borar edilar.

Dik Sendning kechagina yonini olgan karvonboshi Ibn Homis, o'ziga topshirilgan bu karvonni diqqat bilan kuzatib borar edi. U goh karvonning orqasiga, goh oldiga o'tib olar edi. Ibn Homis hamda uning yordamchilari qullarning azob chekishi bilan ishlari bo'lmasa-da, qo'shimcha ovqat talab qiluvchi soldatlar va tez-tez dam olishni talab qilayotgan hammollar bilan hisoblashmasalar bo'lmasdi. Shu to'g'ridan ko'pincha janjallar chiqib turar edi. Xavildorlar o'z alamlarini bechora qullardan olar edilar. Soldatlarning ming'irlashi, hammollarning shikoyati, xavildorlarning urish-so'kish va do'q qilgan ovozlari, savalangan qullarning oh-vohi yo'l bo'yi tinmas edi. Karvonning ketida kelayotganlar oldinda ketayotganlarning to'kilgan qonlarini bosib borar edilar.

Shunday qilib, Dik do'stlari bilan gaplasha olmadi, chunki ularni karvonning oldingi qatorida alohida soqchilar olib borar edi. U bechoralar juft-juft bo'lib ketma-ket borardilar, ularning bo'yintu-ruqlari kalla qimirlatishga ham qo'ymas edi.

Nazoratchilr boshqa qullarning orqasiga qancha

qamchi tushirsalar, ularning orqasiga ham shuncha qamchi tushirar edilar.

Bat otasi bilan bir juft bo'lib oldinda borar edi. U bo'yinturuq Tomning bo'ynini og'ritmasin deb, juda ehtiyot bo'lib qadam bosardi. Har zamon-har zamonda — xavildor gapini eshitmaydigan payt to'g'ri kelib qolganda cholga har xil gaplarni shivirlab, unga taskin berar edi. Dadasining charchaganini fahmlab qolsa, qadamini sekinlashtirar edi. Bechora yigit orqasiga qayrilib, dadasiga qaray olmasdi ham. Tom o'z o'g'lini ko'rib borgani uchun xursand edi, lekin uning xursandchiligi ko'p vaqt burnidan chiqar edi, chunki nazoratchi uning ko'z oldila Batning orqasiga qamchi bilan urib qonli izlar qoldirardi, bu esa unga o'zini urgandan ham battar ta'sir qilardi.

Ular ketidan bir necha qadam orqada Akteon bilan Ostin kelar edi. Ular ham Tom bilan Bat singari kishanlangan va shunday kaltak yemoqda edilar. Ular Gerkulesday bo'lolmaganlari uchun achinar edilar, chunki u bunday yovvoyi joylarda qanday xavf-xatarga uchrasa ham har holda ozod va o'zini himoya qila olardi.

Asir bo'lib tushgan hammon keksa Tom o'rtoqlariga achchiq haqiqatni bayon qildi. O'zlarining Afrikada ekanliklarini eshitganlaridan keyin va ularni asir olgan odamlar benihoya shafqatsiz ekanini hamda Gerris bilan Negro qul savdogarlariga sherik, xoin kishilar ekanini bilganlaridan keyin, Bat, Okteon va Ostinlarning eslari ketay deb qoldi.

Nan kampirga ham xuddi boshqa qullarga qilganday muomala qilar edilar. U karvon o'rtasidagi qul ayollar bilan birga borar edi. Uni ikki go'dagi — bir emizikli va biri endigina yo'lga kirgan uch yoshli bolasi bor yoshgina bir ayol bilan bir juft qilib kishanlab qo'ygan edilar. Uning uch yoshli bolasini Nan kampir o'z himoyasiga oldi. Bechora onaning kampirga tashakkur aytishga ham majoli

yo'q edi. U kampirga ko'z yoshlarini oqizib bir qadam qo'ydi, xolos. Bola kattalar ketidan chopib yetolmas va agar Nan uni qo'lga ko'tarib olmasa, uzoq yo'lda o'lib qolishi ham turgan gap edi. Bu bola kampir uchun og'ir bir yuk edi va tezda holdan toyib ko'tara olmay qolaman deb qo'rqardi. Kichkina negr bolani ko'tarib ketayotib, kampir Jek to'g'risida ham o'ylanardi. U: «Bola onasining qo'lida ketayotgandir», deb xayol qilar edi. Bechora onasi-ey, uning holi nima kechdi ekan!.. Jek kasal bo'lganida anchagina ozib qolgan bo'lsa ham, lekin nozikkina missis Ueldon uchun bola har holda og'ir yuk edi. Hozir missis Ueldon qayerda ekan-a? Unga nima bo'ldi ekan? Kampir u bilan yana ko'rishga olarmikan?

Dik Send eng keyinda borar edi. U uzoqqa cho'zilgan karvonning oldida borayotgan Tomni ham, Nan kampirni ham, boshqalarni ham ko'rolmasdi.

Dik yo'l yurib ketayotib, og'ir xayollarga tolar-di, faqat nazoratchi qullarni qamchi bilan urib hayqirgan paytlardagina o'ziga kelardi.

Dik o'zini o'ylamas, yo'l azobi to'g'risida ham o'ylamasdi. Negoro unga tayyorlab qo'yganligi ehtimol bo'lgan qiynoqlar to'g'risida ham o'ylamasdi. Uning butun o'y-xayoli missis Ueldonni qanday qilib qutqazishda edi.

Dik ko'zini yerdan uzmasdi. U, missis Ueldonning biror izini toparmikanman, deb har bir toptalgan o'tga va har bir singan daraxt shoxchasiga diqqat bilan qarardi.

Dik Kuanzadan Kazondega boradigan boshqa yo'l yo'qligini bilar edi. Missis Ueldon albatta Kazondega yuborilgan bo'lsa kerak, demak, u xuddi shu yo'ldan o'tgan bo'lishi kerak. O'smir undan biror xabar topish uchun jonini berishga ham tayyor edi.

Dik Send bilan uning o'rtoqlari Kazondega ana shu yo'sinda yo'l bosib borardilar.

Ularning o'z tashvishi o'ziga yetarli bo'lsa ham, o'zlari qattiq azob chekayotgan bo'lsalar ham atroflaridagi sho'rlik qullarning benihoya qiynalayotganlarini ko'rib titrar va nazoratchilarning rahmsizligidan qattiq g'azablanar edilar. Ammo ularning qiynalayotgan qullarga yordam berishga ham, nazoratchilarga qarshilik ko'rsatishga ham qurblari yetmas edi.

Kuanza daryosidan sharq tomonga qarab yigirma mildan ortiqroq qalin o'rmon cho'zilib ketgan. Qirg'oqdagi o'rmonlarga qaraganda bu yerlarda daraxtlar siyrakroq: ehtimol, yosh daraxtlarni fil-lar bosib-sindirib yuborgandir yoki behisob ko'p hasharotlar yeb qo'ygandir.

Ertalab yo'l yurish unchalik qiyin bo'lmadi. Har holda chakalakzordan ko'ra, siyrak o'rmonda yurish osonroq edi. Lekin goho yo'l juda qalin o'tlar orasidan o'tardi. Bu o'tlar ichida karvon butunlay ko'milib ketardi. Bambuk singari baland bo'yli qamishzor ichidan, yo'g'onligi bir dyuym keladigan qalin o'tlar orasida adashmasdan yurish uchun bu yerlarni kishi juda yaxshi bilgan bo'lishi kerak edi.

Erta saharda yo'lga chiqqan karvon hech to'xtamasdan tush paytigacha yo'l yurdi. Karvon tush paytida bir soat dam olgani to'xtadi. Dam olish vaqtida yuklarini yechib xavildorlar qullarga bir hovuch-bir hovuchdan maniok¹ unidan ulashdilar. Agar soldatlar yo'l ustidagi biror qishloqni talashga ulgurolmagan bo'lsalar, bu bemaza nunushtaga ikki-uchtadan batat² yoki bir bo'lak go'sht ham qo'shib berilar edi.

Ammo qisqa tunda dam olib ulgurmagan, issiqda yurib hansirab qolgan qullarning aksarisi taom-

¹ *Maniok* — tropik o'silik bo'lib, zaharli oq sut chiqaradigan o'simliklar oilasidan. Ildizini qaynatib yoki qovurib yeyiladi. Xom ildizi zaharli bo'ladi. Maniokning quritilgan ildizidan un tortiladi. Bu ekvatorial Afrikada asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi.

² *Batat* — shirin kartoshka, ko'p yillik o'simlik, tanasi yer betida yoyilib o'sadi. Ildiz mevasini pishirib yeyiladi. Butun tropik Afrikada ko'p tarqalgan asosiy o'simlik.

ga butunlay qaramasdi. Karvon Kuanza daryosidan jo'nab ketganidan keyin bir hafta o'tishi bilanoq qullardan yigirmatachasi o'lib qoldi. Ularning jasadlari karvon ketidan poylab kelayotgan yirtqich hayvonlar uchun yem bo'ldi. Arslon va qoplonlar odam yeyish maqsadida karvon atrofida yumalashib yurardilar. Har kuni kechqurun kun botishi bilan ular karvonning yaqiniga kelib, shunday qattiq bo'kirar edilarki, hoziroq odamlarga hamla qilib qoladi, deb kutish mumkin edi.

Yirtqich hayvonlarning bo'kirishi kechasi ayniqsa qo'rqinchli bo'ladi. Bunday bo'kirish ovozlari eshitgan Dik Send bu o'rmonlarda Gerkules qanday xavf-xatarlarga duch kelishini o'ylab, juda tashvish tortardi. Shunga qaramasdan, agar qochish imkoniyati bo'lsa, Dik hecham o'ylab-netib turmasdan qochib ketgan bo'lardi.

Biz bu yerda Dik Sendning kundalik daftarchasidan parchalar keltiramiz. Buni u Kuanza daryosi bilan Kazonde o'rtasida yo'lda yozgan edi.

«25- va 26-aprel. Bo'yi sakkiz-to'qqiz fut keladigan chakalaklar ichidagi bir qishloq yonidan o'tdik. Yerlariga jo'xori bilan no'xat ekishibdi. Unda yashovchilardan ikkitasini asir olib, kishanga solishdi. O'sha qishloqlik o'n besh kishini o'ldirishdi.

27-aprel. Juda tez oqar, keng bir daryodan o'tdik. Ko'prigi lianalar bilan bir-biriga bog'lab, katta daraxtlardan qilingan edi. Ko'prikning ba'zi joylarida ustunlari yo'q. Bir qolipga kiygizilgan ikki ayol sirg'anib daryoga tushib ketdi. Bittasining qo'lida chaqalog'i bor edi. O'sha zamoni suv qaynab, qon aralash qip-qizil bo'lib ketdi. Ko'pri tagida timsohlar yotardi. Ehtiyot bo'lmasang, to'ppa-to'g'ri timsohlarning og'ziga tushib ketasan.

28-aprel. Karvon o'rmon ichidan yurib bordi. Bunda baland baugin daraxti juda ko'p. Bu daraxtlarni portugaliyaliklar «Temir daraxt» deb yuri-

tadilar. Qattiq yomg'ir yog'ayotir. Yer ho'l bo'lib ketdi. Yo'l yurish juda og'ir. Karvon o'rtasida borayotgan Nan kampirni ko'rib qoldim. O'zi oyoqlarini zo'rg'a sudrab borayotgan bo'lsa ham, kichkina negr bolani qo'lga ko'tarib olibdi. U bilan juft qilib kishanlangan qul ayol oqsab borayotir. Uning yelkasdagi qamchi izidan qon oqayotipti.

Kechalikka qo'nish uchun ko'm-ko'k va yumshoq bargli, guli oppoq katta baobab daraxti tagiga joylashdik.

Kechasi arslon va qoplonlar anchagacha atrofda bo'kirib yurdilar. Bir soldat miltiq otib bir qoplonni o'ldirdi. Bizning Gerkulesimizga nima bo'ldikan-a?

29- va 30-aprel. Afrika «qishi»ning dastlabki alomatlari ko'rindi. Qalin shudring tushdi. Yog'in-garchilik davri noyabr oyida boshlanib, aprel oyining oxirlarida tugadi. Tekis yerlarni haliyam suv bosib yotipti. Sharqdan esayotgan shamol botqoqlik bezgagini tarqatadi.

Missis Ueldon qayerda ekan? Benedikt tog'a-chi? Ulardan hech darak yo'q. Ammo ularni Kazondedan boshqa hech yoqqa yubormasliklari kerak-ku! Ular xuddi o'sha karvon yo'li bilan bizdan oldinroq jo'nab ketishgan chiqar. Juda ham tashvishlanyapman. Bu yomon joylarda kichkina Jek yana bezgak bo'lib qolgan bo'lsa-ya. O'zi tirikmikin-a?..

1—6-may. Bir necha kun botqoqlikdan yurib bordik. Ko'p joylarda suv to'planib ko'l bo'lib qolgan. Hamma yoq suv, goh joylarda suv beldan keladi... Badanga minglab zuluklar yopishadi. Shunday bo'lsa ham, yuraverish kerak. Suvdan chiqib turgan ba'zi bir do'nglar ustida papirus o'simligi o'sib yotipti. Botqoqlik ichida karam bargiga o'xshash katta bargli qandadir suv o'simliklari bor. Odamlar uning ildiziga qoqinib, ko'plar yiqilib ketadi. Dam olish uchun aksari tuzuk bir joy ham topilmaydi. Butun atrofni ko'z ilg'aydigan joygacha suv bosgan. Qorong'ida yo'l yurishga

to'g'ri keladi. Ertaga karvondagi qullarning yana anchasi yo'l-yo'lda qolib ketadi. Qachon tugar ekan bu azoblar? Odamlar yiqilganlari zamon, shoshilib o'rinlaridan turadilar. Nima uchun?.. Bir oz suv ichida yota qolsa-ku shu azoblardan qutuladi-ya!.. Missis Ueldon bilan uning o'g'liga nima bo'ldi ekan? Men ularni tashlab keta olmayman. Men hamma qiyinchiliklarga chidayman. Bu mening burchim!

Odamning yuragini ezib yuboruvchi qichqiriqlar eshitilib qoldi!

Soldatlar mumli daraxt shoxlarini sindirib olib, o't yoqdilar. Qorong'i atrofni mash'allar xiragina yoritdi.

Boyagi tovushlarning sababi — timsohlar karvonga hujum qilipti. Bu vahimali jonivorlarning o'n ikkita yoki o'n beshtachasi qorong'ida qayoqdandir birdan paydo bo'lib qolib, bir necha bola bilan bir necha ayolni suvga tortib ketiptilar.

Bir timsohning sirtidagi suyak tangachasi oyog'imga tegib, terisini shilib ketdi! Timsoh qolipni sindirib, yonimdagi bir o'smir qulni olib ketdi. Bechora bola jon achchig'ida baqirib yubordi! Uning oh-vohida naqadar dahshat, naqadar azob bor edi! Uning ovozi haliyam qulog'imdan ketmaydi...

7- va 8-may. O'tgan kechadagi qurbonlarni hisoblab ko'rishsa, yigirmaga yetibdi. Ertalab men Tom bilan uning sheriklarini qidirdim. Xayriyat, hammasi tirik ekan! Ammo tirik bo'lishdan nima foyda? Hamma azob-uqubatlardan birato'la qutulgan yaxshiroq emasmidi?

Tom karvonning eng oldidagi qatorida ketyapti. Yo'lning qayrilish joyida Tomning qolipi orqaga ko'z tashlashga imkon berdi. Ko'zimiz ko'zimizga tushdi.

Nan kampir ko'zga ko'rinmayapti-ya? Kechasi halok bo'lmadimikan-a?

Nihoyat, suv bosgan tekislikdan o'tib ketdik.

Yigirma to'rt soat ichida yurdik. Endi karvon bir adir ustiga kelganda to'xtadi. Oftob issig'ida qurib, bir oz ovqat ham yeb oldik. Shunday og'ir yo'l yurib kelgandan keyin nonushtaning bemazaligini qarang-a! Bir necha dona maks, bir hovuch maniok uni — bo'lgan-turgani shu! Suv iflos va loyqa. Yerda yotgan bu odamlarning qancha-qanchasi joyidan turishga majoli qolmasa-ya, hali?

Missis Ueldon bilan Jekni bunday azob chektirishmasa kerak, deyman! Yo'q, ularni Kazondega boshqa yo'l bilan olib ketishgan bo'lsa kerak. Sho'rlik ona bunday azoblarga sira chiday olmas!

Karvonda bir necha kishi shamol chechagi bilan og'rib qoldi. Kasallar yurolmaydi, ularni nima qilisharkin? Nahotki shu yerda tashlab ketishsa?

9-may. Ertalab yo'lga tushdik. Hech kim bu yerda qolmadi. Xavildorlar charchaganlarni va kasallarni ham savalab turg'izishdi. Qullar — mol, pul. Ularning qimirlashga sal joni bo'lsa bas, xavildorlar yurishga majbur qilaveradi.

Atrofimizdagi bechoralarning hammasi qoq suyak bo'lib qolgan. Ularning qattiqroq ingrashga ham quvvatlari yetmaydi.

Axiri, Nan kampirni ko'rdim. Unga qarasang yuraging ezilib ezilib ketadi! Qo'lidagi negr bola yo'q. Bolaning onasi ham ko'rinmaydi. Nan kampir yakka o'zi ketyapti. Demak, endi qolipsiz osonroq yura oladi. Amo kishanzanjiri hamon belini qisib turibdi. Osilib qolgan zanjirni yelkasiga tashlab olibdi.

Men asta yurib oldiga keldim. Nima balo? Meni tanimayaptimi? Shuncha o'zgarib ketibmanmi?

— Nan, — deb chaqirdim uni men.

— Dik, sizmisiz? Men... men... yaqinda o'laman...

— Yo'g'-ey, unaqa demang! Bo'sh kelmang, Nan! — dedim. U shunday holdan toygan va azoblangan ediki, unga qarashga yuragim betlamadi.

— Bilaman: baribir o'laman. Aziz bekam missis Ueldon bilan... kichkina Jekimni endi hech qachon ko'rolmayman!.. Menga yordam qiling!

Men eski-tuskiga o'ralib olgan va sovuq yegan-day titrayotgan bechora kampirni suyab olmoqchi bo'ldim. Hamrohi o'lgandan keyin o'zida qolgan kishanni Nanga yengilroq bo'lsin deb, u bilan birgalashib kiyishga ham rozi edim.

Shu payt meni birov bir chetga qattiq itarib yubordi-da, Nanni qamchi bilan urib haydab qullar orasiga qo'shib qo'ydi. Men o'sha odamga hamla qilay deb turgan edim, qayerdandir Ibn Homis paydo bo'lib qoldi. U bir og'iz ham so'z aytmadan, yonimizdan karvon o'tib bo'lguncha meni ushlab turdi. Karvon ketidagi eski joyimga turib olganimdan keyin u og'iz ochib:

— Negoro! — dedi.

Negoro! Demak, Negoroning buyrug'i bilan bechora o'rtoqlarimga qaraganda menga boshqacha muomala qilinayotgan ekan-da?

Meni nima qilmoqchi ekan bu portugaliyalik?

10-may. Bugun yonayotgan ikkita qishloq yonidan o'tib ketdik. Uylar lovillab yonyapti. Yonmay qolgan daraxtlarda o'liklar osilib yotibdi. Aholi qochib ketgan. Dalalar sahroga aylangan. Qishloqlarga hujum bo'lib, ikki yuz odam halok bo'libdi. Qul savdogarlari atigi o'n ikkita asir olishibdi...

Kun kech bo'lyapti. Karvon katta daraxt tagida dam olgani to'xtadi. O'rmon yoqasini chakalak singari qalin o't bosgan.

O'tgan kechasi bir necha kishi bo'yinlaridagi qoliplarini sindirib qochib ketibdi. Ularni ushlab olib, toza azoblashdi. Xavildorlar bilan soldatlar bugun juda qattiq poyloqchilik qilayotirlar.

Qorong'i kecha. Har yoqdan asrlonlarning bo'kirishi, qashqirlarning uvlashi eshitiladi. Uzoqdan gippopotamlarning shov-shuvi kelib turibdi.

O'sha yoqda biron ko'l yoki daryo bo'lsa kerak. Qattiq charchaganimga qaramay, uxlay olmadim. Qalin o't ichi qimirlayotganday tuyuldi. Birorta yirtqich hayvon borgan o'xshaydi. Qo'rqmasdan karvonga hujum qilarmikan-a?

Diqqat bilan quloq soldim. Hech narsa eshitil-madi. Yo'q-a! Qamishzor orasidan qandaydir bir hayvon kelyapti. Qurolim yo'q. Shunday bo'lsa ham olishib ko'raman! Hech bo'lmasa yordamga chaqiraman. Mening hayotim missis Ueldon bilan o'rtoqlarim uchun kerak hali!

Qorong'ilikka tikilib turdim. Bugun oydin kecha emas. Tun qop-qorong'i. Ana, papirus o'simligi orasidan ikkita cho'g' ko'rindi — bu qoplon yoki qashqirning ko'zlari bo'lsa kerak. Bu cho'g'lar bir yo'qolib, bir paydo bo'lib turdi.

O'tlar shitirlayapti. Hayvon menga hamla qilmoqchi! Baqirmoqchi, shovqin ko'tarmoqchi bo'ldim. Xayriyatki, shunday qilmabman.

Ko'zlarimga ishongim kelmadi! Dingo ekan! Dingo yonimda turibdi-ya! Yana Dingo! Qanday qilib topdi ekan meni? Sezgirligini qarang-a! Yo'q, bu vafodor do'stimning sezgirligini hech nima bilan tenglashtira olmayman... Dingo qo'llarimni yaladi. Voy azamat-ey, yagona hamrohim sensan! Demak, ular seni o'ldirolmabdi-da!

Men Dingtoni erkalatdim. U suyunganidan akil-lab yubray dedi, men uni tinchitdim. Uning bu yerdaligini hech kim bilmasligi kerak. Karvon izidan ergashib kelaversin. Kim bilsin, ehtimol... Nima uchun Dingo bo'yinini hadeb qo'linga ishqalayaptikan-a? U go'yo: «Qaragin! Qarasang-chi!» deyayotganday bo'ladi. Bo'yinini siypab qarasam, bo'yinbog'ida bir narsa bor ekan... Bilsam, bu narsa sirli «S» bilan «V» harflari kesib yozilgan tunuka taxtachaning teshigidan o'tkazilgan bir bo'lak qamish ekan...

Avaylab qamishni chiqazib oldim. Uni sindir-dim! Ichini qarasam, xat bor ekan!

Qorong'i bo'lganidan xatni o'qiy olmadim. Demak, tong otishini kutish kerak. Dingoni olib qolmoqchi bo'ldim-u, lekin u yana qamish orasiga kirib ketmoqchi bo'lib intildi. O'z burchini ado qilganini tushunyapti.

Uni qo'yib yubordim. U hech ovoz chiqarmay, bir sakrab o't orasiga kirib ketdi. Iti tushkur-ey, ish-qilib, arslon yoki qashqirlarga yo'liqib qolmasin-da!

Dingo o'zini yuborgan odam oldiga jo'nagan bo'lsa kerak.

Hamon o'qib bo'lmayotgan bu xat ichimni timdalab turardi.

Uni kim yozgan ekan? Missis Ueldonmi? Yo Gerkulesmi?

Bu vafodor Dingo ularni qanday qilib topdi ekan? Biz uni o'lgan deb o'ylovdik-ku!

Bu xatchada nima yozilgan ekan? Qul savdogarlaridan qochish uchun yo'l-yo'riqlarmi yoki qadrdon do'stlarimdan eson-omonlik xabarimikin?

Nimaiki bo'lsa bo'lsin, har holda, bu hodisa meni ancha quvontirib yubordi. Ehtimol, qayg'u-hasratlar endi tamom bo'lgan bo'lsa?

Qani endi, tezroq tong ota qolsa!

Astoydil diqqat qilib ufqqa tikilaman. Undagi yangi ko'tarilib kelayotgan tong nurlarini izlayman.

Ko'zlarimga hech uyqu kelmaydi. Yiroqlardan boyagicha yirtqich hayvonlarning bo'kirgani eshitiladi. Bechora Dingo ularning panjasiga tushmay, qutulib ketoldimikan-a?

Nihoyat, tong ota boshladi. Tropik mamlakatlarda tong qorong'isi bo'lmasdan, osmon birdaniga yorishib ketadi. Yorug' tushishi bilan xatni hech kimga ko'rsatmasdan o'qish uchun g'ujanak bo'lib yotib oldim.

O'qib ko'rmoqchiman...

Hali endi tong ham yorishdi! Xatni o'qib chiqdim. Xatni Gerkules yozgan ekan.

Bir parcha qog'ozga qalam bilan bir necha satr yozib yuboripti.

«Missis Ueldon bilan kichkina Jekni kitandada ko'tarib ketyaptilar. Gerris bilan Negoro ular bilan birga ketyapti. Janob Benedikt tog'a ham ular bilan birga. Ular karvondan uch-to'rt kunlik oldinda ketyaptilar. Ular bilan gaplashishning iloji bo'lmasdi. Men Dingoni topib oldim. Dingoni kimdir otip-ti, yaralapti, hozir endi tuzalib qoldi. Bo'shashmang, parvo qilmang, Dik. Butun o'y-xayolim ham-mangizda, sizlarga foydam tegar degan umidda qochgan edim.

Gerkules».

Demak, missis Ueldon bilan uning o'g'li eson-omon ekanlar. Ularning bizlar bilan birga bo'lmanlari qaytaga yaxshi bo'ldi, bo'lmasa bu azob-uqubatli yo'l yurishlarga chiday olmasdilar. Kitanda zambilga o'xshagan narsa, uni ikkita uzun xoda orasiga to'qiladi... Bunday zambilni ikki kishi yelkasida ko'tarib yuradi. Zambilga dokadan pashshaxona ham quradilar.

Shunday qilib, Missis Ueldon bilan Jekni zambilga solib olib ketishayotgan ekan. Gerris bilan Negoroga ularning nima keragi bor ekan? U iflos-lar Kazondaga ketishayotgan bo'lsa kerak. Albatta shunday bo'lishi kerak. U yoqqa borgach, ularni o'zim topib olaman! Dingo menga qanday xush-xabar keltirdi-ya! Endi so'nggi kunlarda tortgan jabr-jafolarimni esimdan chiqazsam ham bo'ladi.

11—15-may. Karvon hamon oldinga bormoqda. Asirlarning holi kun sari yomonlashmoqda... Aksarisining ketida qon izlari qolmoqda. Hisobimcha, Kazondegacha kamida o'n to'xtam yo'l bor. Manzilga yetgunimizcha yana qancha odamning oyog'i cho'zilarkin? Ammo men u yoqqa tirik yetib olishim lozim! Yetib olishim shart! Albatta yetib olaman!

Karvonda shunday sho'rlik bechoralar borki, ularning butun badani qonli jarohat bilan qoplangan. Kishanlari yalang'och etlarini yeydi. Qanday dahshat-al!

Sho'rlik bir ona kuni kecha ochlikdan o'lib qolgan bolasini qo'lida ko'tarib ketyapti. Uning bolasidan hech ajralgisi kelmaydi.

Bosib o'tgan yo'limiz murdalar bilan to'lmoqda. Shamol chechagi yana avj olib ketdi.

Bir daraxt yonidan o'tib ketayotsam, uning tagida daraxtlarga bog'langan murdalar uyilib yotibdi. Bular qandaydir ayb qilganlari uchun ochlikdan o'lsin deb daraxtga bog'lab ketilgan qullar edi.

16—24-may. Darmonim qurayozdi, lekin bo'sh kelmoqchi emasman. Men yetib olishim kerak! Yomg'ir ham to'xtadi. Jazirama oftobda yurish kun sayin og'irlashyapti. Nazoratchilar «ha bo'l» deb shoshiltirayotirlar, yo'l esa tikka balandlikka ko'tarilib ketyapti.

Kecha o'tlari baland va qalin o'sgan yerlardan yurib bordik, o'tlarning poyalari yuzimni rosa tirnadi, tikanli urug'lari esa yirtiq kiyimdan o'tib, badanni achityapti.

Xayriyatki, etiklarim pishiq ekan, hali chidash bersa kerak.

Xavildorlar kasallarni va holdan ketganlarni karvondan tashlab ketyaptilar, chunki oziq-ovqat yetmay qolish xavfi bor. Agar soldatlar bilan ham-mollarning hissasidan kamaytirilsa, to'polon ko'tarishlari mumkin. Shuning uchun karvon xo'jayinlari asirlarning ulushidan kamaytirishadi.

— Bizga nima, batta bo'lsin, bir-birini yeb qo'ymaydimi, — derdi karvonboshi qullar to'g'risida.

Taxliti baquvvat ko'ringan ba'zi qullar birdaniga yiqilib o'lib qolyapti. Bu haqda Livingstonning yozganlari esimga tushdi. «Bu bechoralar, — deb yozgan edi u, — to'satdan, yuragim sanchyapti deb qoladilar. Qo'llari bilan ko'kraklarini ushlab,

yiqilib o'lib qoladilar. Menimcha, ular yuraklari yorilib o'layotgan bo'lsalar kerak! Necha marta sinab ko'rishimcha, bur hodisa ilgari ozod yurib, keyin birdaniga qulikka tushib qolgan kishilarda bo'ladi, chunki bunday odamlar bu xil og'irchiliklarga odatlanmaganliklaridan toqat qilolmaydilar».

Bugun xavildorlar toyib karvon orqasidan ham sudralib yurolmay qolgan qullardan yigirmata-chasini bolta bilan chopib tashladilar. Ibn Homis qirg'ingarchilikni ko'ra-bila turib, hech nima demadi. Qanday dahshatli manzara edi u!

Miyasi pachoqlangan Nan kampir eng oldin yiqildi... Men uning o'ligiga qoqilib ketdim. Uni o'z qo'lim bilan ko'molmadim.

«Piligrim» kemasida falokatga yo'liqqan yo'lovchilardan eng birinchi qurbon bo'ldi u.

Bechora Nan!..

Har kun kechasi Dingoni poylayman. Ammo azamat it endi kelmay ketdi. Biron baloga yo'liqdimikan-a? Yoki Gerkulesning o'ziga bir balo bo'ldimikan-a? Yo'q... aslo. Bunga hech ishongim kelmaydi. Gerkulesning menga bildiradigan yangi xabari bo'lmasa kerak. Bundan tashqari, u juda ehtiyotkor. Bekordan-bekorga Dingoni xatarga qo'ymaydi...»

T o' q q i z i n c h i b o b

KAZONDE

26-may kuni karvon Kazondaga yetib keldi. Qullarning yarmisi yo'lda halok bo'ldi. Shunga qaramay, qul savdogarlari ancha foyda qiladilar, chunki qulga xaridor ko'p bo'lganidan, Afrika bozorlarida qullarning narxi baland edi.

O'sha vaqtlarda Angolada qul savdosi juda avj olgan edi. San-Paula de Loanda va Benguelladagi portugaliyalik hokimiyat idoralarining bu qul

savdosini to'xtatish qo'lidan kelmas edi, chunki qul karvonlari qit'aning ichkarisidagi odam yurolmaydigan yovvoyi viloyatlarga jo'nab ketar edi.

Sohil bo'yidagi baraklar qora badan asirlar bilan liq to'la edi. Afrika qirg'oqlarini qo'riqlab yurgan soqchi kemalarga bir amallab chap berib o'tib olgan qul tashuvchi kemalar Ispaniyaning mustamlakalariga yuborish uchun deb tayinlangan «qora badan mollarning» hammasini ham olib keta olmas edi.

Kuanza daryosining mansabidan to'rt yuz oltmish kilometr ichkarida bo'lgan Kazonde shaharchasi Angoladagi eng katta negr bozori hisoblanaidi. Qullarni odatda shaharning eng o'rtasidagi maydonda oldi-sotdi qilinadi. Bu yerda «mol ko'rgazmasi» ham bor. Katta ko'llar tomonga jo'naydigan karvonlar ham xuddi shu yerdan yo'lga chiqadi.

Markaziy Afrikaning boshqa shaharlari singari Kazonde shari ham ikki qismga bo'linadi. Bozor qismida yerlik, arab va portugal savdogarlarning uylari hamma qullar baraki joylashgan; ikkinchi qismida shu yerning xoni turadi. Bu xon johil bir piyanista odam bo'lib, qamchi zarbi bilan hukm surar hamda asosan qul savdogarlaridan keladigan boj-xiroj hisobiga kun kechirardi.

Kazonde shahrining hamma bozori Xoze-Antonio Alvets degan kishiga qarashli edi. Negro bilan Gerris uning agenti edilar. Alvetsning bosh savdo idorasi Kazondeda bo'lib, Vixe bilan Kassango shaharchalarida uning savdo bo'limlari bor edi. Shu aytib o'tilgan voqealardan bir necha yillar keyin Kameron Alvetsning savdo bo'limida bo'lgan va uni tasvirlab yozgan edi.

Kazonde savdo kvartali joylashgan katta ko'chaning ikki tomonidan «tembe» deb ataladigan tomi yassi bir qavatli uylar tizilib ketgan edi; har bir hovlining to'rt burchak qilib aylantirib olingan

loy devori ichi molxona xizmatini o'tardi. Katta ko'chaning oxirida qullar turadigan baraklar o'rtasida katta maydon bor. Katta-katta anjir daraxtlari uylardan ancha baland bo'lib o'sib yotar-di; ko'cha yuzlarida chappa qilib tikka qo'yilgan supurgiga o'xshash xurmo daraxtlari o'sgan. Afrika shaharlarining birdan-bir axlat tozalovchisi bo'lgan parrandalar ko'cha changi ichida donlab yurishadi. Bozor maydoni manzarasi ana shunday edi.

Bozor maydoni yaqinidaga Kongo daryosining tarmoqlaridan biri bo'lgan Luxi daryosi o'tadi.

Kazonde bozor kvartali qatorida joylashgan xon «saroyi» bir kvadrat milga cho'zilgan kichkina xunuk va xaroba kulbalardan iborat edi. Ba'zi bir kulbalarni qamish panjaralar bilan o'rab olingan, ba'zi birlari esa yosh anjir daraxti bilan to'silgan. Ba'zi birlarining hech qanday ihotasi yo'q. Papirus o'simligidan qilingan chetan g'ov ichidagi o'ttizat-tacha uy alohida turibdi. Unda xonning qullari yashar ekan. Undan sal nariroqda xon xotinlarining uylari ko'rinadi. Ularning orqasida boshqa uylarga o'xshash faqirona, lekin sal qattiqroq qilib solingan kulbalardan iborat xon «saroyi» bor. Bo'lgan-turgani shu edi.

Kazondening xoni — Muani-Lunga ellik yosh-larga kirgan edi.

Undan burun o'tgan xonlar davrida tanazzulga yuz tutgan davlat uning hukmronlik davrida batamom xarob bo'ldi. Muani-Lunganing hozir atigi to'rt mingga yaqin soldati bor edi, holbuki, portugalialik qul savdogarlarning yollangan askarlari yigirma mingcha edi. Endi xon qadimgi zamonlardagi singari xudo yo'lida har kuni yigirma besh-o'ttizta qulni qurbon qila olmas edi.

O'rta yoshlardagi bu kishi ichkilikka juda berilib ketganligi orqasida aqldan ozgan zaif, johil va tentak bir kekxa bo'lib qolgandi. Muani-Lunga o'lgundek injiq odam edi, u hamma qullarini, askar

boshliqlarini hamda vazirlarini mayib qilib qo'ygandi: bittasining burnini kestirgan, ikkinchisining quloq'ini kestirgan, uchinchisining qo'l yoki oyog'ini kestirgandi. Fuqarolari uning tezroq o'lib ketishini istar edilar.

Butun Kazondeda faqat Xoze-Antonio Alvetsgina Muani-Lunganing o'lishini istamas edi. Qul savdogari butun viloyatini o'z qo'llariga kirgizib olmoq uchun bu mas-alast odam bilan o'zini do'st tutardi. Xon o'lganidan keyin taxtga uning eng birinchi xotini qirolicha Muani o'tirishi kerak edi. Alvets xalq xonning xotiniga itoat qilmasa kerak va Oukusu degan hukmdorlardan biri bo'lgan qo'shni xon bu to'polondan foydalanib, Muani-Lunganing qabilasiga hujum etishi ehtimol, deb xavotir olar edi. Yosh, g'ayratli bo'lgan Oukusu xoni uning raqibi bo'lgan katta qul savdogari Tipo-Tipo degan arab bilan juda qalin edi.

Xoze-Antonio Alvets Afrikadagi bu mamlakatning xo'jayini edi. U Muani-Lungani aldab-suldab va kamchiliklardan foydalanib, uni butunlay o'ziga bo'ysundirib olgan edi.

Yoshi ulg'ayib qolgan Alvets oq badan kishilardan emas edi. Uning portugalcha nomi uydirma bir laqab edi. Bu laqabni ham savdogarchilik mulohazalari bilan qo'ygan edi. Alvets asl negr bo'lib, uning haqiqiy nomi Kendele bo'lgan. U Kuanze daryosi bo'yidagi Dongo degan joyda tug'ilgan va boshqa negr savdogarlari qo'lida oddiy bir agent bo'lib ishlab yurib, ana shundan boshlab o'z martabasini oshirgan.

1874-yil oxirida leytenant Kameron Kilvibo degan joyda ana o'sha Alvetsni uchratgan edi. Kameron o'sha qul savdogarining boshchiligida ke layotgan karvonga qo'shilib, to Vixegacha borib, yetti yuz mildan oshiq yo'l bosgan.

Qullar karvoni endi atigi ikki yuz ellik kishidan iborat edi. Oyoqlarini zo'rg'a sudrab bosayotgan yarim tirik, yarim o'lik asirlarni poda singari

Kazonde ko'chalaridan haydab o'tib molxona qilishga ham yaramaydigan baraklarga qamab qo'ydi-lar. Baraklarda yarmarka bo'ladigan kunni kuta-yotgan bir yarim mingcha qullar bor edi. Yarmarka ikki kundan keyin ochilishi kerak.

Yangi karvon kelgandan keyin baraklar to'lib ketib, qimirlashga ham iloj qolmadi. Yangi kelgan-larning bo'yinturuqlarini olib tashlashgan bo'lsa-lar-da, lekin kishanlarini yechib qo'yishmadi.

Hammollar bozor maydoniga kelib, to'xtab yuk-larini yerga qo'yishdi, ular bir necha metr surpdan yoki chitdan iborat bo'lgan o'z xizmat haqlarini ol-gach, o'z xizmatlariga muhtoj bo'lgan boshqa kar-vonlarni qidirib ketadilar.

Barakda Tom bilan uning sheriklari besh haf-tadan beri o'zlariga ozor berib kelgan qoliplardan qutuldilar. Bat, nihoyat, otasining quchog'iga otil-di. Bechora hamrohlar bir-birlariga qo'llarini berib ko'rishdilar. Ular bir necha og'iz gaplashganlari-dan keyin jim bo'lib qolishdi. Axir ular nima to'g'risida ham gapirishsinlar? Zorlanishsinmi, qayg'urishsinmi? Oq'ir ishga ko'nikib qolgan yosh, baquvvat Bat, Akteon va Ostinlar charchashni bil-masdilar. Biroq keksa Tom butunlay holdan toygan edi. Agar karvon yana bir-ikki kun yo'l yursa, be-chora Nan kampirning o'ligi singari Tomning o'ligi ham yitriqich hayvonlarga yem bo'lardi...

Ularning to'rttalasini ham tor bir hujraga qa-mab, ustidan qulflat qo'yishdi.

To'rt asir bor-yo'g'ini yeyishib bo'lib, bosh qul savdogarlarini kelishini kutishdi. Ular sodda odamlar bo'lib, amerika grajdanlari ekanimizni bil-gach, Alvets bizlarni qo'yib yuboradi, deb o'yladi-lar.

Bir nazoratchini yoniga soqchi qilib qo'yib, Dik Sendni maydonda yolg'iz qoldirishdi.

Dik Kazondaga yetib olganiga shukur qildi, chunki u missis Ueldon bilan kichkina Jek hamda Benedikt tog'a allaqachon bu yerga yetib kelishgan

bo'lsa kerak, deb o'ylar edi. U karvon ketayotgan mahalda hamma uylardan, ko'chalardagi odamlar orasidan va hatto maydondan ham hamrohlarini qidirdi.

Ammo missis Ueldon hech qaerda ko'rinmadi...

«Nahotki, Kazondeda bo'lmasa? — deb so'radi Dik o'z-o'zidan. — Bo'lmasam qayerda bo'ladi? Yo'g'-e, Gerkules yanglishmasa kerak deyman! Gerris bilan Negoroning niyatini bilmayman, lekin ularni shu yerga olib kelishlariga ishonaman. Biroq ular ham ko'rinmayapti-kul...»

Dik Send qattiq tashvishga tushib qoldi. Missis Ueldonni yashirin saqlayotgan bo'lsalar kerak, shuning uchun Dik ularni ko'rolmayotir. Ammo Gerris bilan Negoro qayerda ekan? Ular, ayniqsa, Negoro butunlay o'z ixtiyorlarida bo'lgan yosh matros bilan uchrashishni kechiktirmasliklari kerak edi-ku. Yo'q, ular o'z tantanalaridan huzur qilib Dikni masxara qilish, unga azob berish va nihoyat undan o'ch olish uchun darrov yetib kelishlari kerak edi. Nima uchun ular ko'rinmayapti? Nahotki, ular Kazondeda bo'lmasa? Unday bo'lsa, demak, missis Ueldon ham Kazondeda emas, Markaziy Afrikaning boshqa bir joyida bo'lsa kerak?

Dikka Gerkulesning xatini olib kelganidan beri Dingo ham ko'rinmay ketdi. Demak, Dikning javob xatni Gerkulesga yetkazish imkoni ham yo'q. Dik o'zining bu javob xatida Gerkulesdan missis Ueldonning payidan bo'lishini va uni nazardan qochirmaslikni iltimos qilgan edi.

Dingo bir marta karvon ichiga kirib keldi, endi Gerkules uni yana yuborsa bo'lmasmidi? Yoki vafoi it topshiriqni bajarayotganida halok bo'ldimikan-a? Yo bo'lmasa missis Ueldonni nariroqqa — yaylov tog'lar orasiga olib ketishgan bo'lib, Gerkules bilan Dingo uning izidan ketishdimikan-a?

Bu xayollar o'smirning miyasini chulg'ab olgan edi.

Basharti, missis Ueldon ham, uning o'g'irlab olib qochganlar ham shaharda bo'lmasa, unda nima qilish kerak bo'ladi?

Dik missis Ueldonni Kazondeda uchrataman deb juda ishongan edi, shuning uchun bu shubhalar uni juda xafa qilib qo'ydi.

«Yaxshi ko'rgan odamlaringga foydang tegmasa, — deb o'yladi u, — yashashdan nima foyda? Bunday rasvo yashagandan ko'ra o'lgan ming marta yaxshiroq...»

Ammo Dikning o'zi to'g'risida bunday deb o'ylashi xato edi. Boshidan kechirgan qattiq azob-uqubatlar bolani ulg'aytirib qo'ygandi. Dik singari azamat kishilardagi umidsizlik vaqtinchalik gap edi.

Keng maydonda birdan qattiq ovozlari va tantanali marsh sadolari eshitilib qoldi. Chang bosgan yerda umidsizlanib o'tirgan Dik Send sakrab o'rnidan turdi. Har bir yangi hodisa Dik qidirgan odamlarning iziga tushishi uchun yordam etishi mumkin. Bir minutchada davom etgan umidsizlik yo'q bo'ldi-ketdi, Dik yana kurashga tayyor edi.

— Alvets kelyapti, Alvets! — deb qichqirar edilar maydonga yopirilib, chopib kelayotgan soldatlar bilan yerliklar.

Nihoyat, ko'plab bechoralarning taqdirini o'z qo'lga olgan kishi paydo bo'ldi. «Ehtimol, Gerris va Negoro u bilan birgadir» deb o'yladi Dik. O'n besh yoshli kapitan ko'zlarini katta ochib, burun teshiklarini kerib qaddini rostlab kutib turardi. Agar bu ikki xiyonatchi yaqin kelsa, Dik Send ularning ko'zlariga jasorat bilan tikiladi: «Pilgrim» kapitani oshpaz Negorodan qo'rqmayaan-jak!

Katta ko'chaning boshida eskib, aynib ketgan matodan qilingan pashshaxonali bir zambil ko'ringdi. Bu zambildan bir qari negr chiqib keldi.

Qul savdogari Xoze-Antonio Alvats ana shu edi.

Bir necha xizmatkorlar uning oldiga chopib kelib ta'zim qilishdi. Alvetsning ketidan zambildan Vixe mayori (hukmdori)ning o'g'li, Alvetsning oshnasi portugaliyalik Koimbra chiqdi. Leytenant Kameronning aytishicha, Alvetsning oshnasi butun Afrikada eng yaramas ablahlardan edi. Bu odam lo'qqi ko'z, bo'rtiq, sariq yuzli, taralmagan qalin jingalak sochli, baquvvat bir kimsa edi. Iflos kiyingan bu odamning basharasi ko'ngilni aynitadigan darajada jirkanch edi. Yirtiq-yamoq ko'ylak, o'tdan to'qilan yubka va poxoldan to'qilgan keng shlyapa kiygan bu badbashara odam yalmog'iz kampirga o'xshar edi. Koimbra Alvetsning sirdosh oshnasi, tinch yashovchi aholi ustiga qilinadigan bosqinlarning tashkilotchisi va Alvetsga xizmat qiluvch bosmachilarga munosib boshliq edi.

Qul savdogarining o'zi esa qalin oshnasidan bir oz savlatliroq edi.

Alvets yonidagi odamlar orasida Gerris bilan Negoroni ko'rmaganidan Dik Sendning hafsalasi pir bo'ldi.

Shu paytda karvon boshi Ibn Homis Alvets va Koimbra bilan qo'l berib ko'rishdi. Katta xo'jayinlar uni safarning yaxshi tugalishi bilan qutladilar. Ammo karvondagi qullarning yarmi halok bo'ldi degan xabarni eshitgan Alvets bir oz xo'mrayib qo'ydi. Umuman olganda ish yomon bo'lgan emas edi: baraklardagi «qora badan mollar» bilan birga ichki bozorga yetarli miqdorda Alvetsda anchagina boshqa qullar ham bir edi. U qullar evaziga qancha fil suya-gi bilan mis olishi mumkinligini xayolida hisoblab ko'rganidan keyin kayfi ham joyiga kelib qoldi.

Qul savdogari nazoratchilarga tashakkur bildirdi va darrov hamollarga ish haqi to'lashni buyurdi.

Xoze-Antonio Alvets bilan Koimbra portugaliya afrikan shevasida gaplashar edilar. Bu tilga Dik bir yoqda tursin, hattoki Lissabon shahrida tug'ilib o'sgan kishining tushunishi ham gumon edi. Ammo Dik bu eng katta «xalqaro» savdogarlar u bilan

sheriklari to'g'risida gaplashayotganliklarini fahmladi. O'smirning taxmini to'g'ri chiqdi: xavildorlardan biri Ibn Homisning ishorasi bilan Tom, Ostin, Bat va Akteonlar qamab qo'yilgan hujra tomon jo'nadi.

To'rtta amerikalik negrni Alvetsning oldiga olib kelishdi.

Dik Send asta pisib ularga yaqinroq keldi.

Amerikalik negrlarning baquvvat odamlar ekanini ko'rgan Alvets jilmayib qo'ydi. Bir necha kun dam oldirib, yaxshi ovqat berib boqilsa, bular asli holiga qaytishi mumkin edi. U Tomga ko'z qirinigina tashlab qo'ydi: Tomning keksaligi uning qiyamatini pastga urar edi. Ammo qolgan uchtasini yaxshi bahoga sotish mumkin edi.

Qul savdogari amerikalik Gerrisdan o'rgangan bir qancha inglizcha so'zlarni yodiga keltirib, o'zining yangi qullarini omon-eson yetib kelganlik bilan kesatib qutladi.

Tom Alvets tomonga bir qadam tashladi-da, unga o'zi bilan o'rtoqlarini ko'rsatib:

— Bizlar ozod odamlarmiz... Qo'shma Shtatlarning grajdanlarimiz! — dedi.

Alvets buni tushundi shekilli, kulimsiraganday bo'lib bosh silkidi:

— Ha, ha... amerikaliklar-a!.. Xush kelibsizlar!.. Marhamat, — deb javob berdi.

— Marhamat! — deb takrorladi Koimbra uning ketidan.

Shu so'zlarni aytgandan keyin u Ostinning oldiga keldida, xuddi yarmarka bozorida ot tanlayotgan kishi singari uning qo'l, ko'krak hamda yelkalarini siypalab ko'ra boshladi. Ammo Koimbra hamma tishlari butunmi deb Ostinning og'zini ochib ko'rmoqchi bo'lgan edi. Ostin uni mushti bilan shunaqangi bir soldiki, u mayor o'g'li bo'lib bunaqangi kaltakni umrida yemagan bo'lsa kerak.

Alvetsning sirdoshi o'n qadam nariga borib tushdi. Qul savdogari Koimbraning atigi olti tishidan ikkitasi sinib tushganini ko'rib, qotib-qotib kuldi.

Bir necha soldat kelib Ostinga yopirildi. Agar Alvets soldatlarni to'xtatib qolmaganida, bu ishi uchun Ostinning holi xarob bo'lardi: qul savdogari qimmatbaho «molni» soldatlar mayib qilib qo'yishini istamas edi.

U g'azabi kelgan Koimbrani bosib qo'ydi. Koimbra zo'rg'a o'rnidan turib qul savdogari yonidagi joyiga borib, Ostinga mushtini do'laytirib qo'ydi.

Shu paytda xavildorlar Dik Sendni Alvetsning oldiga itarib yubordilar. Qul savdogari bu yigitning kimligini, uning qanday qilib Angolaga kelib qolganini hamda Ibn Homis karvoniga qanday qilib asir tushib qolganini bilar edi shekilli. U Dikka xo'mrayib bir qaradi-da, inglizchalab:

— Aha, kichkina yanki¹-ku, — dedi.

— Ha, yankiman! — deb javob qaytardi Dik Send. — Xo'sh, yo'ldoshlarim bilan meni nima qilmoqchi bo'lasiz?

— Yanki, yanki! Kichkina yanki, — deb takrorladi Alvets.

U Dikning savoliga yo tushunmadi, yo bo'lmasa unga javob qaytarishni istamadi. Dik o'z savolini takrorladi. U qul savdogarining javob qaytarishga tobi yo'qligini ko'rib va Koimbrani yevropalik deb bilib, savolini unga berdi. Biroq Koimbra mushtini ko'rsatdi-da, ichkilikdan shishinqiragan basharasi-ni teskari o'girib oldi.

Shu paytda Alvets Ibn Xomis bilan shoshib-pishib gaplashmoqqa boshladi. Ular Dik bilan uning sheriklari to'g'risida gaplashayotgan bo'lsalar kerak. «Kim bilsin, — deb o'yladi Dik, — Alvetsning niyati qanaqa ekan? U bechoralar bilan bir ko'rishib, yana gaplasha olarmikinman?»

— Do'stlarim, menga quloq solinglar, — dedi u sekin, go'yo o'z-o'zi bilan gaplashganday qilib, — Gerkules menga Dingodan xat yuboribdi. Do'stimiz

karvon ketidan kelayotgan ekan. Missis Ueldon bilan Jekni va Benedikt tog'ani Gerris bilan Negoro olib ketib qolipti. Qayerga deysizmi? Bilmadim. Ehtimol ular Kazondeda bo'lsalar kerak. Sabr qilinglar, bo'sh kelmanglar, eng muhimi, paytini poylab qochinglar!

— Nan-chi, u nima bo'ladi? — deb so'radi kekxa Tom.

— Nan o'lib qoldi.

— Birinchi qurbon...

— Ham eng so'nggi qurbon, — deb javob qaytardi Dik Send. — Bizning qo'limizdan...

Shu onda birov o'zining og'ir qo'lini yigitning yelkasiga qo'yib, Dikka tanish bir ovoz bilan:

— Aha, yanglishmasam, mening yosh do'stim siz bo'lsangiz kerak-a? Sizni ko'rganim uchun juda xursandman! — dedi.

Dik Send shartta orqasiga aylanib qaradi. Uning ro'parasida Gerris turar edi.

— Missis Ueldon qayoqda? — deb qichqirdi Dik.

— Ey, bechora ona! — deb javob qaytardi Gerris yolg'ondaka qayg'urib, — shuncha qiyinchiliklarga chidarmidi...

— O'lib qoldimi? — deb hayqirib yubordi Dik. — O'g'li-chi?

— Bechora bola, — deb xuddi boyagiday ovoz bilan javob qaytardi Gerris, — qattiq azoblarga chiday olmadi...

Dikning dunyoda eng yaxshi ko'rgan kishilari o'libdi... Shu paytda yigitchaning qanday holga tushganini ko'z oldiga keltirish qiyin bo'lmasa kerak. Qasos olish payida g'azab bilan Gerrisga tashlandi va uning belidagi pichog'ini sug'urib oldi-da, dastasigacha Gerrisning ko'krigiga sanchdi.

— La'nati! — deb qichqirdi Gerris yerga yiqilayotib.

Bu uning so'nggi so'zi bo'ldi. Odamlar uning oldiga chopib kelganda, u o'lib qolgan edi.

¹ Yanki — AQShda yashovchi amerikaliklarning laqabi.

YaRMAKA

Dik bu ishni shunday tez qildiki, yaqin o'rtada turganlardan hech kim bunga aralasholmay qoldi. Ammo shu ondayoq bir necha yerliklar Dikka yopishdilar. Agar shu paytda Negoro kelib qolmaganda edi, ular Dikni albatta o'ldirishardi.

Portugaliyalikning imosi bilan yerliklar Dikni qo'yib yubordilar. Keyin ular Gerrisning o'ligini ko'tarib olib ketishdi. Alvets bilan Koimbra Dik Sendni shu yerning o'zidayoq o'ldirishmoqchi edi, biroq Negoro, bir oz vaqt kechiktirib o'ldirsalarining hech nima qilmaydi, deb ularning qulog'iga shivirlab qo'ydi. Shundan keyin xavildorlarga yigitni olib ketib, uni yaxshi saqlash to'g'risida buyruq berildi.

Kichkina otryad dengiz qirg'og'idan ketganidan beri Dik Send Negoroni ko'rgani yo'q edi. «Pilgrim»ning halokatga uchrashiga birdan-bir sababchi bo'lgan iflos odam shu ekanini u juda yaxshi bilar edi. Dik Kerrisdan ham ko'ra, Negoroni ko'rgani ko'zi yo'q edi. Ammo u ilgari kema oshpazidan nafrat bilan yuz o'girdi va hatto unga bir og'iz ham gapirmadi.

Gerris, missis Ueldon bilan uning o'g'li o'ldi, deb aytgan edi. Endi Dikni hech narsa qiziqitirmasdi. Hatto o'z taqdiri to'g'risida ham o'ylamasdi. Xavildorlar uni sudrab olib ketishdi. Qayoqqa? Dik uchun bu baribir edi...

Yigitni kishanlab, derazasi yo'q torgina bir xujraga qamab qo'ydilar. Bu hujra Alvetsning fitna ko'targani yoki boshqa ayb qilgani uchun o'lim jazosiga hukm qilingan qullari qamab qo'yiladigan bir kishilik qamoqxona edi. Dikni bu yerda qalin-qalin devorlar yorug' dunyodan ajratib qo'ydi. Ammo u buni parvoyiga ham keltirmas edi. U o'zining eng yaxshi ko'rgan kishilari o'lib ketgani uchun qasos oldi va endi hech qanday o'limdan tap tortmas edi.

Negoroning Dikni o'ldirmoqchi bo'lgan yerliklar qo'lidan nima uchun ajratib olganini bilish uncha qiyin emas: o'ldirish oldidan uni qattiq azoblamoqchi edi! O'n besh yoshli kapitan kema oshpazining ixtiyorida edi. Endi qo'lga tushmagan Gerkulesgina qolgandi, u ham qo'lga tushsa, Negoro qonib o'ch olgan bo'lar edi!

Ikki kundan keyin, 28-may kuni katta yarmarka ochildi. Bu yarmarkaga Afrikaning ichkarisidagi hamma mustamlakalardan qul savdogarlari va Angolaga qo'shni viloyatlardan ko'pdan-ko'p yerlik xalqlar yig'ildi. Bu yarmarka faqat qullar bozorigina bo'lmasdan, shu bilan birga unda unumdor Afrika yerlaridan kelgan turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlari ham sotilar edi.

Erta sahardan boshlab bozor maydonida zo'r harakat boshlandi. Xoze-Antonio Alvetsning qullaridan tashqari, bu maydonda to'rt-besh mingcha odam bor edi. Tom bilan uning sheriklari ham Alvetsning qullari orasida edi.

Alvets bu yarmarkaning eng kattasi hisoblanar edi. U o'z oshnasi Koimbra bilan birga bozorda aylanib yurib, ichkarigi viloyatlardan kelgan qul savdogarlariga o'zining qullarini taklif qilar edi. Xaridorlar orasida yerliklar, Katta ko'llar viloyatining bosh shahri Ujixidan kelgan metislar¹ va bir necha arab savdogarlari ham bor edi.

Yevropadagi eng katta bozorda ham, hatto bir yilda bir marta bo'ladigan yarmarka bozorida ham, Afrika bozoridagidek shovqin-suron bo'lmaydi. Yerliklar uchun yarmarka katta bayram hisoblana-di. Shuning uchun ular bu bayram sharafiga juda yasanib-tusanib ko'chaga chiqadilar. Yerlik erkak-ayollar, ayniqsa sochlarini juda yaxshilab bezatadilar. Ba'zi erkaklar sochlarini o'rib, chamber qilib qo'yadilar. Ba'zi birlari esa sochlarini mayda qilib o'rib, kalamush quyrug'iday oldinga osiltirib

¹ Metislar — turli irqalar qoni aralashib duhyoga kelgan kishilar.

qo'yadi va boshlariga qizil pardan qilingan jig'a taqadilar. Boshqa birlari esa sochlarini mayda-mayda tugun qilib, mahkam tursin uchun sozlab suvab, moylab qo'yar edilar.

O'z sochlariga yoki ulama sochlariga suyakdan yasalgan har xil to'g'nag'ich va bezaklar taqilgan bo'ladi. Ba'zi bir oliftaroqlari bu bezaklarga qanoatlanmasdan, sochlariga har xil munchoqlar taqib, bu murakkab naqshlar o'rtasiga kema suyak sopli pichoq tiqib qo'yishadi.

Xotin-qizlar sochlarini ikki kokil, besh kokil yoki qirq kokil qilib, turli-tuman shaklga solib, chambar qilib qo'yadilar. Faqat bir necha yosh va xush chehra ayollargina sochlarini orqalariga tarab qo'ygan yoki peshana sochlarini qirqqan edilar. Hamma ayollar ham sochlarini sermoy qilib suvab, ustidan sarv daraxtining yarqiroq mumidan surkagan edilar. Shunday qilib, uzoqdan qaraganda bu oliftalar xuddi boshlariga cherepitsa yopinganday ko'rinar edi.

Yerliklarning bayramda qiladigan yasan-tusani soch bezashdangina iborat ekan, deb o'ylash to'g'ri emas. Agar quloqqa asl yog'ochdan qilingan tayoqchalarni, yupqa mis baldoqlarni, jo'xoripoyadan to'qilgan tasmlarni yoxud nos qovoqlarni taqib yurmasa, odamga quloq degan narsaning nima hojati bor? Buning orqasida quloq yelkagacha cho'zilib tushsa ham mayli.

Afrikalik yovvoyilar cho'ntak nimalagini bilmaydilar, shuning uchun ular madaniy xalqlar cho'ntagiga solib yuradigan mayda-chuyda buyumlarini, chunonchi: pichoq, trubka va boshqa shunga o'xshash narsalarni quloqlariga taqib yurar edilar.

Bo'yin, bilak, boldir va to'piqlarga kelsak, yovvoyilarning fikricha, ularni tabiat faqat har xil munchoqlar, bilakuzuklar, mis yoki jez isirq'alar va boldoqlar taqish uchun yaratgan ekan.

Odamning badanini berkitib turadigan terisi

ham daraxtlar, qushlar, oy rasmi yoki Livingston aytgandek, qadimgi misr rasmlariga o'xshash egri-bugri chiziqlardan iborat bezaklarning rasmini solish uchun xizmat qiladi.

Erkaklarning kiyimi songacha yoki tizzagacha tushib turadigan jo'ngina kiyik teri fartuk yoki o'tlardan to'qilgan yubkadan iborat. Xotin-qizlarning kiyimi ham ko'm-ko'k o'tlardan to'qilgan yubkadan iborat bo'ladi, lekin ularning yubkasiga har xil munchoqlar tikiladi va mayda marvaridli kamar bilan sonlariga tortib boylangan bo'ladi. Ba'zi ayollar yubka o'rniga o'tdan to'qilgan lamba, ya'ni havo rangga, qora rangga yoki sariq rangga bo'yalgan fartuk kiyadilar.

Ammo boyroq yerliklarga shunday yasanadilar. Hammollar bilan qullar esa tag'in ham yomon kiyinadilar, boshqacha aytganda, deyarli yalang'och yuradilar.

Bu yerda og'ir yuklarni ayollar ko'taradi. Ular yarmarkaga katta savatlarni orqalarida ko'tarib kekadilar. Ular bozor maydonidan o'zlariga joy olib, savatdagi mollarni bo'shatadilar-da, savatlarini qiyshaytirib qo'yib, ichiga o'zlari kirib o'tirib oladilar.

Bu ajoyib serunum yerlardagi mahsulotlarning hamma turlari yarmarkaga chiqarilgan edi. Bunda: mo'l hosil olinadigan guruch, sakkiz oyda uch марта pishadigan va bir dona urug', ikki yuz dona hosil qiladigan jo'xori, eng achchiq murch, maniok uni, xurmo moyi va boshqalar sotiladi. Keng bir maydonga yuzlab echki, cho'chqa, yungsiz zotli qo'ylar, tirik va so'yilgan qushlar, baliqlar jamlangan edi. Har xil kulollik idish-asboblari yarqiroq bo'yog'i bilan ko'zlarni qamashtiradi. Muzdek ichimliklar sotib yuruvchi bolalarning ovozi kishining qulog'ini kar qilay deydi. Ular banandan qilingan vino, pomoe deb ataladigan meva ichimligi, malafu deb ataladigan hind yong'og'i bilan asaldan qilinadigan pivoga o'xshagan ichimlik sotib yurardilar.

Ammo Kazonde bozoridagi eng yaxshi mollar — fil suyagi bilan har xil gazlama edi. Gazlamalar ichida: Massachuzetse shaharidagi Salama fabrikalarida ishlangan oqartilmagan oddiy chit, to‘q havo rang, katakli va qizil jiyakli mato; o‘t rang, qizil va sariq shoyilar bor edi.

Kazondaga fil suyagini Markaziy Afrikaning hamma mustamlakalaridan olib kelishadi va bu yerdan ular Xartum, Zanzibar hamda Natal shaharlariga ketadi.

Yevropa bozorlarining va qisman Angliya bozorlarining talabini qondirish uchun har yili talab qilinayotgan besh yuz ming kilogramm fil suyagini topish uchun qancha fil o‘ldirish kerakligini ko‘z oldiga keltirish qiyin. Angliya sanoatini qondirish uchungina har yili qirq ming filni o‘ldirish kerak¹.

Filning ikkita kurak tishi o‘rta hisob bilan yigirma sakkiz qadoq keladi, ammo bir yuz oltmish qadoq va undan ham og‘irroq keladiganlari ham bo‘ladi.

Sotuvchi-oluvchilar orani nima bilan ochiq qilisharkan? Ularning pullari qanaqa ekan? ma’lumki, qul savdogarlari uchun qullar — qimmat o‘lchovi hisoblanadi. Yerliklar orasida esa, Venetsiyada ishlab chiqariladigan kachkolo nomli oppoq munchoq, bubulu deb ataladigan qora munchoq va sikundereche deb ataladigan pushti rang munchoqlar pul o‘rniga yuradi. O‘n qator qilib tizilgan munchoq fundo deb aytiladi. Fundo — butun bir xazina hisoblanadi. Livingston, Kameron va Stenli Afrikaning ichkarisiga sayohat qilganlarida bunday puldan ko‘p ola ketar edilar.

Har xil rangli oyna munchoqlardan tashqari Afrika bozorlarida, ayniqsa sharqiy sohilda viunga

¹ Sheffildagi (Angliya) bir pichoq fabrikasi har yili 170 000 kilogramm fil suyagi ishlatadi (*Muallif izohi*).

Janubiy Afrikada yevropaliklar fillarni va boshqa hayvonlarni vahshiyona ov qilib yuborganliklari orqasida bu qit’ada hayvonlar ancha kamayib ketgan. Shunga qaramasdan, boshqa qit’alarga nisbatan Afrikada hali ham yovvoyi hayvonlar juda ko‘p.

deb aytiladigan chig‘anoq ham pul o‘rnida yuradi. Bunisi mayda chaqa o‘rniga yuradi. Odamxo‘r qabilalar uchun odam tishlari bir qadar qimmatga ega ekan. Yarmarkada bo‘yniga odam tishlaridan tizma munchoq osib yuruvchi yerliklarni ham ko‘rish mumkin. Ular o‘sha tishlarning egasini o‘zlari yegan bo‘lsalar kerak. Ammo keyingi yillarda bu xil pullar iste’moldan chiqa boshladi.

Yarmarka kunida bozor maydoni ana shu taxlitda edi. Tush paytida savdo shunday qizishib ketdiki, undagi shov-shuvlar odamni garang qilar edi. Molini xaridorlarga o‘tkazolmay turgan savdogarlarning alamini so‘z bilan tasvirlash qiyin, moliga necha baravar oshiq so‘raganlari uchun xaridorlarning qattiq g‘azabi kelganini ham aytib tugatish qiyin. Bunday alamzada odamlar orasida har qayerda yoqalashishlar boshlanar, lekin ularni ajratadigan odam topilmas edi.

Tush paytidan keyin Alvets, sotilmoqchi bo‘lingan qullarni bozorga olib chiqilsin, deb buyruq berdi. Shundan keyin maydondagi olomon yana bir-ikki mingga ko‘paydi. Bu bechoralarning ko‘plari necha oylab barakda yotgan edilar. Uzoq dam olish va to‘yib ovqat yeyish natijasida bu «mollarning» ko‘rinishi yaxshilanib, qiymati oshgandi. Yangi kelganlari esa, juda zaif va oriq edilar. Agar Alvets bularni ham bir-ikki oy barakda saqlaganida, anchagina qimmatroqqa sotgan bo‘lar edi. Ammo qullarning bozori chaqqon bo‘lganidan, qul savdogari o‘zida bo‘lgan hamma «molni» bozorga chiqaradigan bo‘ldi.

Bu hol Tom bilan uning sheriklari uchun juda yomon bo‘ldi. Xavildorlar ularni ham maydondagi boshqa qullar yoniga haydab kelishdi.

To‘rttalasi ham ilgarigicha kishanda edi. Ularning ko‘z qarashlaridan juda g‘azablanganliklarini ko‘rish mumkin edi.

— Dik Send bu yerda yo‘q-ku! — dedi Bat, butun maydonga ko‘z yugurtirib chiqib.



— Bu ma'lum narsa. Ular Dikni qul qilib sotolmaydilar-da, — deb javob qaytardi Akteon.

— Ammo ular Dikni o'ldiradilar, albatta o'ldiradilar! — dedi Tom. — Bizlar-chi... ham-mamiz bir odamga sotilsak yaxshi bo'lar edi... Ishqilib, bir-birimizdan ajralishmaylik!

— Oh, otajonim-ey, sizdan ajralishimni o'ylasam, devona bo'laman... Siz... qarisiz... qul bo'lib qolasiz... — deb yig'ladi Bat.

— Yo'q, o'g'lim, — dedi Tom. — Ular bizni ajratmasalar kerak. Balki bizlar bir balo qilib...

— Gerkules ham bizlar bilan bo'lganida edi! — dedi Akteon.

Ammo pahlavondan hech qanday darak yo'q edi. Dikka xat yuborgandan beri undan hech dom-darak bo'lmadi. Gerkulesga havas qilsa arzirmikan-a? Albatta! Hatto u o'lgan bo'lsa ham yaxshiroq! Chunki u o'zini himoya qilib, ozod kishi sifatida o'lgan bo'ladi. Chunki u qullik kishanining bergan azoblarini ham bilmaydi!

Shu paytda savdo boshlanib ketdi. Alvetsning



agentlari bir olomon erkak, ayol va bolalarni bozor-ga olib chiqishdi. Eri xotinidan, otasi o'g'lidan yoki onasi qizidan ajralgani bilan ularning ishi yo'q edi. Bu odamlar uchun qullar uy hayvoni kabi bir narsa edi, xolos...

Tom bilan uning sheriklarini bir xaridor oldidan ikkinchisi oldiga olib o'tib yurdilar. Oldinda bora-yotgan agent ana shu qullar uchun Alvets tomonidan belgilangan bahoni baqirib aytib turdi. Arab savdogarlari bilan markaziy viloyatlardan kelgan metislar «molning» yaqiniga kelib uni yaxshilab ko'r-ar edilar. Ular Tomning yosh sheriklari Zambezi yoki Lualaba daryosi bo'yidan haydab kelingan negrlarga o'xshamaganini ko'rib juda hayron bo'ldilar. Ular bo'y va jismoniy jihatdan ancha ustun turar edilar. Shuning uchun ularning narxi baland bo'lib, ot jalloblar singari ularning mushak etlarini siypalab ko'r-ar, har tomonini aylantirib qarar va og'iz ichlarini tekshirib ko'r-ar edilar. Ular qullarning chopqirligini tekshirib ko'rish uchun yo'lga tayoq uloqtirib, uning ketidan chopishga buyurardilar.

Har bir qulni shu xilda tekshirib sinovdan o'tkazardilar. Hech kim bunday xo'rlikdan ozod qilinmasdi. Bechora qullar, bunday muomalaga ham beparvo qarasalar kerak, deb o'ylash, albatta, xato bo'ladi! Insonlik sha'nini masxara qilganlari uchun ularga alam qilar va uyat ko'rinar edi, faqat bolalargina o'zlarining masxara qilinayotganliklarini tushunmas edilar.

Qullarni haqorat qilar va qattiq urar edilar. Koimbra bilan Alvetsning agentlari mast bo'lib olib, qullarga hayvondan beshbattar muomala qilardilar. Ehtimol, ularni fil suyagi, surp va marjon baravariga sotib olgan yangi xo'jayinnikida qullarning holi yana og'irroq bo'lar...

Qul savdogarlari erini xotinidan va onasini bolasidan ajratib yuborgan mahalda, ularga xayrlashish uchun ham erk bermas edilar. Bechora qullar esa yarmarkadan keyin bir-birlarini umrbod ko'rmaydigan bo'lib ajralishib ketar edilar.

Qul savdosida shart shundayki, erkak qullar bilan savdo qiluvchilar ayol qullarni sotib olmaydilar. Qul ayollarga, aksari, ko'p xotin olish rasm bo'lgan Sharq musulmonlari orasida xaridori ko'p bo'ladi. Shuning uchun ayol qullarni Afrikaning shimoliga jo'natadilar. Erkak qullarni esa Ispaniyaning mustamlakasi bo'lgan Maskat bilan Madagaskardagi og'ir ishlarda ishlatadilar. Shuning uchun erkak qullarni g'arbiy yoki sharqiy qirg'oqqa olib ketadilar, er bilan xotinning ajralishi manzarasi juda ayanchli bo'ladi, chunki bu ajralish abadiy bo'lib, ular o'lguncha bir-birlari bilan ko'risha olmaydilar.

Tom bilan uning sheriklarining aytganlari bo'ldi; ularning hammasini bir odamga sotishdi. Bu to'rt negrga xaridor ko'p edi. Ujijidan kelgan bir necha savdogar ular tufayli bir-birlari bilan urishib qolishdi. Xoze-Antonio Alvets xursand bo'lganidan qo'llarini ishqalar edi. Amerikaliklarning bahosi osha boshladi. Kazonde bozorida shu mahalgacha ko'rilmagan bunday xizmatkorlar uchun xaridorlar

bir-birlari bilan yoqalashay deb qolishdi. Alvets, albatta, ularni qanaqa qilib qo'lga tushirganini xaridorlarga aytmasdi, Tom bilan uning sheriklari esa yerlik tilni bilmaganlari uchun hech narsa deymas edilar.

Axiri ularni bir boy arab savdogari sotib oldi. Yangi xo'jayin bir necha kundan keyin ularni avval Tanganayka ko'liga va undan Zanzibar tomonlarga jo'natmoqchi edi.

Ular u yoqqa eson-omon yetib borarmikan? Ular Afrikaning eng xatarli va eng yomon yo'llaridan yurib, bir yarim ming mil yo'l bosishlari kerak ediya.

Keksa Tomning darmoni yetarmikan bunga? Yoki u ham Nan kampir singari, yo'lda holdan to'yib o'lib qolarmikan-a?..

Har holda bu to'rttala sherik bir-birlaridan ajralishmadi! Shuning uchun ularga solingan og'ir kishanlar ham yengillashganday bo'lib ketdi.

Yangi arab xo'jayin sotib olgan qullarni alohida barakka joylashtirishni buyurdi. U Zanzibar bozorida katta foyda olishi mumkin bo'lgan bu «molarni» yaxshi saqlash g'amida edi.

Tom, Bat, Ostin va Akteonlarni o'sha zahotiyoyq maydondan olib chiqib ketishdi. Shuning uchun ular Kazonde yarmarkasining qanday falokat bilan tugaganini na ko'roldilar va na eshitoldilar.

O' n b i r i n c h i b o b

XON SHAROBI

Soat to'rtlarda katta ko'chaning boshida nog'ora, do'mbira va boshqa afrika muzika asboblarning ovozi eshitilib qoldi. Bu payt bozorning eng qizigan payti edi. Ertalabdan beri davom etgan tortishish, yoqalashish va baqirishlardan keyin to'polonchi savdogarlarning ovozlari hali ham

o'chmagan, ular hali ham charchamagan edilar. Hali ko'p qullar sotilmagan edi.

Xaridorlar arzon uchrab qolgan molni talashilgandagi singari qul sotib olish uchun bir-birlaridan qolishmay, tortishib savdolashar edilar.

Ammo mashshoqlarning tartibsiz muzikasi eshiltiganidan keyin hamma savdo to'xtatildi, baqiroqlar dam oladigan bo'ldi.

Kazonde xoni Muani-Lunga janoblari yarmarka-ga tashrif buyurdilar. Xotinlari, «davlat amaldorlari», soldatlari va qullari ham uning ketidan kelar edilar. Alvets bilan boshqa qul savdogarlar ham shoshib-pishib Muani-Lunga huzuriga chiqishdi. Ular har xil so'zlar bilan uni maqtardilar, chunki bu o'taketgan mayparastning maqtovni yaxshi ko'rishini bilardilar.

Bozor maydonining o'rtasiga kelganda xon tushgan zambil to'xtadi, o'nlarcha qullar yordami bilan xon janoblari yerga tushdilar.

Muani-Lunga hali ellikka ham bormagan bo'lsa-da, uni saksonga kirgan deb bemalol aytish mumkin edi. Uning boshida uchiga yo'lbars tirnoqlari bilan oq yung qo'yilgan tojga o'xshash alomati bor edi. Bu esa Kazonde xonlarining nasldan-naslga qoladigan tojlari edi. Xon sonlarini marvarid qo'yib tikilgan ikkita kiyik teri yubka bilan berkitib olgandi. Uning ko'kragiga har xil bezakli rasmlar tushirilgan bo'lib, bu bezaklar xon nasli qadim zamonlardan beri hukmron bo'lib kelayotganini ko'rsatardi. Agar bu to'g'ri bo'lsa, Muani-Lunganing xon nasli ko'p asrlardan beri hukm surib kelgan bo'ladi. Xonning bilaklari bilan boldirlarida behisob ko'p halqalar jaranglab turardi. Xon oyog'iga xizmatkorlar ham kiymaydigan sariq astarli qadim zamon etigi kiygan edi. Alvets bu etikni unga bundan yigirma yil burun in'om qilgan edi. Xon chap qo'lga kumush cho'qmorli hasa va o'ng qo'lga marvarid qadalgan dastakli pashsha tuzoq ushlagan edi. Xonning qo'lida gadoylar cho-

poni singari qirq yamoq, har xil rangli eski zontik bor edi, bo'yniga bir vaqtlar yo'qolib qolganda Benedikt tog'ani hayajonga solgan lupani osib olgan, entomolog ko'zoynagini esa burni ustiga taqib olgan edi. Bu buyumlarni Batni tintiganda, uning cho'ntagidan topib olishgan edi. Alvets esa ularni Muani-Lunga janoblariga tortiq qilgan edi.

Yuz mil atrofdagi viloyatlarni zapti ostida tutuvchi negrlar xoni ana shu taxlitdagi bir zot edi.

Taxtga o'tirayotganida Muani-Lunga o'zini «xudoning o'g'liman» deb e'lon qilgan ekan. U bunga ishonmagan fuqarolarini xudoning o'zidan borib so'rab kelsinlar deb, xudo oldiga jo'nataverardi. Bundan tashqari u, men xudo zotidan bo'lganim uchun bandalarning ehtiyojlaridan ancha balandda turaman, ovqatni men yaxshi ko'rganim uchungina yeyman, ichkilikni menga rohat bergani uchungina ichaman, deb aytar edi. Shuni ham aytish kerakki, u janoblariday ichkilikxo'r kishi olamda topilmasdi. Vazirlik vazifasini bajaruvchi o'taketgan mayxo'rlar ham uning oldida ip esha olmasdilar. Xon janoblarining badaniga spirt singib ketgan bo'lishiga qaramasdan, o'tkir pivodan, meva vinosi va, ayniqsa, Alvets tomonidan doim keltirilib turiladigan arzon yamay arog'idan bosh ko'tarmas edi.

Muani-Lunganing haramida har xil vaziyat va har xil yoshdagi xotinlari ko'p edi. Xotinlarining ko'pi u bilan birga bozor maydoniga chiqqan edi. Qirq yoshlar chamasidagi Muana degan katta xotini qirolicha deb yuritilar edi. U o'tdan to'qilib marvarid qadalgan katak-katak chipor ro'mol o'ragan va yubka kiygan edi. U bo'yni bilan oyoq-qo'llariga siqqanicha har xil munchoqlar taqib olgan edi. Qavat-qavat qilib o'rilgan sochlari kichkinagina maymunsimon basharasini chulg'ab olgan bo'lsa ham, uning xunuk qiyofasiga husn kirgiza olmas edi. Janob oliyning boshqa xotinlari unchalik yasanmagan bo'lsalar ham, undan bir oz yoshroq

edilar. Ular katta xotinning ketidan va xon oyimning imosi bilan o'z burchlarini bajarishga... jonli kursi bo'lishga tayyor turar edilar. Agar xon o'tirmoqchi bo'lsa, ularning biri yerga yotib unga kursi bo'ladi, boshqasi xonning oyog'i tagiga yotib, uning uchun g'alati bir qora gilam bo'ladi!

Muani-Lunganing xotinlari ketidan vazirlari, askar boshilari va jodugarlari ham zo'rg'a oyoqqa bosib kelmoqda edi. Bu yovvoyilarga qaragan kishi, dastlab ularning har birida biror a'zo yetishmaganini ko'radi. Biri — quloqsiz, biri — burunsiz, biri — qo'lsiz va biri ko'r edi. Bu amaldorlar ichida hamma a'zolari joyida bo'lgan bitta ham odam yo'q. Buning sababi shunda ediki, Kazonde davlati qonunida faqat ikki xil jazo bo'lib, bulardan biri o'lim jazosi, ikkinchisi biror a'zoni kesib tashlash jazosi edi. Jazoning qaysi birini berish Muani-Lunganing ixtiyorida edi.

Xonga yaqin odamlar ozgina ayb qilib qo'ysalar ham mayib qilib qo'yilar edi.

Kilolo deb ataladigan viloyat boshliqlarining birdan-bir kiyimlari qizil kamzul edi. Ular boshlariga yovvoyi ot — zebra terisidan tikilgan qalpoq kiyib yuradilar va qo'llarida mansablarini bildiradigan uzun qamish tayoqlari bo'ladi.

Soldatlarning hujum etish va o'zlarini himoya qilish qurollari: kamalak, uchli pichoq, nayza hamda xurmo daraxtidan o'yib yasalgan har xil cho'qmorlardan iborat edi. Soldatlarning kiyimi uchun Muani-Lunga bir tiyin ham sarf qilmas edi.

Marosimning eng ketida jodugarlar bilan mashshoqlar borardi.

Mgannga deb ataladigan bu jodugarlar tabiblik ham qilar edilar. Afrika yovvoyilari bu jodugarlarning avrashlarida karomat bor deb ishonar edilar. Jodugarlarning aksarisi saroy amaldorlari singari mayib qilingan edilar. Zolim xon dori-darmonlari o'z kasaliga davo bo'lmagani uchun jodugar-tabiblarni ham o'shanday jazolar edi.

Erkak va ayol mashshoqlar: chig'anoq asboblarga urib, do'mbiralari qattiq chalib, katta-kichik oshqovoqlardan qilingan ikki qator asboblarga puflab allaqanday ovozlari chiqarar edilar. Umuman aytganda, ovozlari kishini kar qilgudek edi.

Bu marosim ustida bayroqlar «hilpirab» borar edi.

Jangchilar Muani-Lunga yenggan qo'shni qabila boshliqlarining oqarib qolgan bosh suyaklarini nayzaga sanchib ko'tarib kelar edilar.

Maydondagilar xonni gulduros ovozlari bilan qutlab qarshiladilar. Karvon soqchilari osmonga qarata o'q uzdilar, lekin odamlarning hayqirig'i ostida miltiq ovozlari ko'milib ketdi. Xavildorlar xon oldida mukka tushishdi.

Alvets oldinga chiqdi-da, xonga Kazondeda «orombaxsh o't» deb ataladigan bir o'ram tamaki taqdim qildi. Bu narsa xonga ayni muddao bo'ldi, chunki xon ertalabdan beri diqqat bo'lganidan, o'zini ovutadigan biror narsaga muhtoj edi.

Alvetsdan keyin Koimbra, Ibn Homis va boshqa qul savdogarlari Kazondening qudratli hukmdoriga o'zlarining sadoqatli ekanliklarini bildirdilar.

«Marhabo!» deyishdi xonga arablar, qo'llarini peshanalariga, og'izlariga va ko'kraklariga qo'yib. Ujijidan kelgan metislar esa chapak chalib, ikki bukilib ta'zim qildilar.

Muani-Lunga esa yerga yiqilib yotgan xushomadgo'ylarga qaramasdi ham. U katta-katta qadam tashlab sotish uchun maydonga chiqazilgan qullarni tomosha qilib, aylanib chiqdi. Agar qul savdogarlari bironta qulni xon olib qo'ymasin deb cho'chib turgan bo'lsa, qullar esa bu vahshiy hayvonning qo'liga tushmasaydik deb kapalaklari uchar edi.

Negoro Alvetsning oldidan bir qadam ham jilmasdi. U Alvets bilan birga xon huzurida bo'ldi. Ular yerlik tilda gaplashishdi, lekin buni gap deb

aytish ham qiyin edi, chunki xon faqat bir zaylda g'oldirar edi. Tugay deb qolgan araq zapasini ko'paytirib qo'yish to'g'risida Alvetsdan iltimos qilgandagina Muani-Lunganing tili chiqay deb qoldi.

— Lunga xon — Kazonde yarmarkasining aziz mehmonidir! — deb xitob qildi Alvets.

— Ichgim kelyapti! — deb javob qildi xon.

— Xon janoblari yarmarka daromadidan ulushlarini oladilar, — deb qo'shimcha qildi Alvets.

— Ichgim kelyapti! — deb ming'illadi yana Muani-Lunga.

— Oshnamiz Negoro uzoq safardan keyin Kazonde xonini ko'rishga intizor edi!...

— Ichkilik berasizlarmi, yo'qmi? — deb baqirdi mayparast xon.

— Xon janoblarining meva vinosi yoki asal vinosiga toblari qalay? — deb mug'ambirona so'radi Alvets uning nima ichishini bila turib.

— Yo'q, yo'q... — deb baqirdi xon. — Yonadigan suv ichaman! Yonar suvning har bir tomchisi uchun Alvets do'stinga men...

— Bir tomchidan oq badanlar qonidan! — deb qo'ydi Negoro. U Alvetsga bir narsa to'g'risida imo qilgan edi Alvets bosh irg'ab ma'qulladi.

— Oq badan kishining qoni deysizmi? Uni o'ldirish kerakmi? — deb qayta so'radi Muani-Lunga Negoroning taklifini eshitgach, joni kirib.

— Bir oq badan kishi Alvetsning agentini o'ldirib qo'ydi, — deb davom etdi Negoro.

— Gerrisni o'ldirdi. Biz undan o'ch olishimiz kerak, — deb qo'shimcha qildi Alvets.

— Unday bo'lsa uni Zair daryosining bosh tomonidagi Massongo xoniga yuborish kerak. Assua xonning jangchilari uni tilka-tilka qilib, pishirmay ham yeb qo'yadilar. Ular hali odam go'shtini yeyishni tashlaganlaricha yo'q, — dedi Muani-Lunga.

Bu gap to'g'ri edi. Markaziy Afrikaning ba'zi

bir qabilalarida hozir ham odam go'shti yeyish odati bor edi. Livingston o'zining safar xotiralari-da, Lualaba daryosi bo'yida yashovchi man'ema qabilasi urushda o'lgan dushmanlarini yeyish bir yoqda tursin, hatto yeyish uchun qullar sotib oladi, deydi. Kameron ham moeke-bugga degan odamxo'r qabilani uchratgan, Stenli esa oukusu qabilasining odam yeganini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Ammo Dik Sendni o'ldirish uchun xon o'ylab chiqargan jazo naqadar dahshatli bo'lmasin, lekin bu Negoroga yoqmadi, chunki bu qurbonni qo'lidan boy berishni istamasdi.

— Bu oq badan do'stimiz Gerrisni Kazonde shahrida o'ldirib qo'ydi, — dedi u.

— Shuning uchun u albatta Kazonde shahrida o'ldirilishi kerak! — deb qo'shimcha qildi Alvets.

— Uni qayerda o'ldirsang ham o'ldiraver, Alvets. Lekin shartimizni esingdan chiqarma: oq badanning har bir tomchi qoni uchun bir tomchidan yonar suv berasan! — deb javob qildi Muani-Lunga.

— Yonar suvni beramiz! — dedi Alvets. — Yonar suv deb uni bejiz aytmaydilar, ko'rasan, lovillab ketadi! Xoze-Antonio Alvets bugun Muani-Lunga xonni sharob bilan siylaydi!

Mayxo'r buni eshitgach, suyunganidan qo'lini Alvetsning qo'lga qarsillatib urdi. U shodligidan terisiga sig'masdi. Xonning xotinlari bilan boshqa odamlari ham xondan beshbattar suyunishdi. Ular hech qachon «yonar suvning» yonganini ko'rma-gan edilar va uni lovillab turganida ichish mumkin deb o'ylar edilar.

Sho'rlik Dik Send! Uni qanday dahshat bilan jazolashmoqchi-ya. Mast bo'lgandan keyin, madaniy kishilar ham o'z insongarchilik qiyofasini yo'qotib qo'ygandan keyin, mast yovvoyilar nima ishlar qilishini ko'z oldingizga keltirishingiz mumkin.

Oq badan odamni qiynab o'ldirish yigitda qas-di bo'lgan Negoro uchungina emas, balki Alvets,

Koimbra va boshqa qul savdogarlarga ham juda yoqdi.

Birdaniga kech kirdi, qosh qoraymasdanoq qop-qorong'i tun bo'ldi-qoldi.

Alvetsning miyasiga chindan ham xon janoblari yangi nav spirt ichimligi taqdim etish fikri kelib qoldi. Keyingu vaqtlarda Muani-Lunga yonar suv o'z nomiga munosib kishining ichini kuydirmas ekan deb o'ylana boshladi. Ehtimol, lovillab yonayotgan aroq xonning qaldirab qolgan tilini rostdan ham kuydirib qo'ysa...

Shunday qilib, kechki marosimda avval sharob ichish va keyin oq badan odamni jazolash nomeri bo'lishi kerak edi.

Dik Send o'zi o'tirgan qamoqxonadan o'lish uchungina tashqariga chiqishi lozim edi. Qullarning sotilganlarini ham, sotilmaganlarini ham — hammasini barakka haydashdi. Keng bozor maydonida xon bilan uning yaqinlari, qul savdogarlari hamda, basharti, ortib qolsa, xon sharobidan tatib ko'rish orzusida bo'lgan xavildorlar bilan soldatlarga qoldi. Xoze-Antonio Alvets Negoroning maslahati bilan sharob ziyofati uchun hamma kerakli narsani tayyorladi. Qul savdogarining amri bilan maydonning o'rtasiga ikki yuz litr suv sig'adigan katta mis qozon olib kelishdi. Uning ichiga bir necha chelak eng past, lekin juda kuchli spirt quyildi. Ichimlikning quvvatini yanada oshirmoq uchun unga murch va boshqa dorivorlar solindi.

Ichkilik marosimiga qatnashuvchilar xonni o'rab olishdi. Muani-Lunga gandraklay-gandraklay qozon yoniga bordi. Sharob uni magnit singari o'ziga tortardi, shu sababdan u o'zini qozonga tashlashga ham tayyor edi.

Alvets uni to'xtatib, yonayotgan mash'alni uning qo'liga berdi-da, ayyorona kulib:

— Yondiring! — deb qichqirdi.

Muani-Lunga yonayotgan mash'alni spirt ichiga tiqdi.

Birdaniga qozon ustidan havo rang alanga otilib chiqdi-yu, hammaning ko'zi to'rtta bo'ldi.

Ichimlikni yanada o'tkirroq qilmoq uchun, Alvets unga bir hovuch dengiz tuzidan qo'shdi. Havo rang alanga shu'lasini tushib turgan qozon atrofida odamlar allaqanday arvohga o'xshab ko'rinar edi. Yerliklar spirt hididan mast bo'lib, hayqiriq ko'tarishdi va Kazonde xoni atrofida qo'l ushlab quturgan hayvonday, aylanib chopib yura boshladilar.

Alvets qo'liga uzun dastali cho'mich olib, qozondagi ichimlikni aralashtira boshladi.

Muani-Lunga qozonga yaqin bordi, cho'michni qul savdogaridan tortib oldi-da, yonayotgan sharobdan suzib ichmoqchi bo'ldi.

Kazonde xoni shunday qattiq baqirib yubordiki! Janob oliyning spirt singib ketgan badani xuddi kerosin sepgandek yonib ketdi. Olovning issig'i unchalik bo'lmasa-da, lekin yongani yongan edi.

Kutilmagan bu hodisadan keyin yerliklar o'yinlarini bas qilishdi.

Muani-Lunganing vazirlaridan biri olovni o'chiraman deb o'z xoni yoniga otiladi. Ammo xondan battar piyanista bo'lganidan u ham o'sha onda yonib ketdi.

Muani-Lunganing boshqa odamlari ham shu singari yonib ketishi ehtimol edi.

Alvets bilan Negro yonib ketayotgan xonga yordam berishdan o'jiz edilar. Xonning xotinlari kapalaklari uchib qochib qolishdi. Koimbra ham o'zining darrov yonib ketishini fahmlab, hammadan oldin qochib qoldi...

Xon bilan vazir og'riqqa toqat qilolmasdan yerga yiqilishdi.

Yog'li badanga spirt singib ketgan bo'lsa, olov ko'k alanga berib yonadi, uni esa suv bilan o'chirib bo'lmaydi. Spirt singib ketgan a'zolarining yonishini o'chirish uchun hech qanday iloj yo'q...

Bin necha minutdan keyin Muani-Lunga bilan

uning vaziri o'ldi, lekin ularning jasadida hali ham yonmoqda edi.

Birpasdan keyin sharob qozoni oldida yonmay qolgan bir necha suyak bilan bir hovuch kulgina yotar edi.

Kazonde xoni bilan uning vaziridan qolgan narsa shugina edi...

O' n i k k i n c h i b o b

XONNI KO'MISH MAROSIMI

Ertasiga, 29-may kuni Kazonde shahri g'alati bir tus oldi. Kapalagi uchib ketgan yerliklar ko'chalarga chiqishga ham qo'r qar edilar. Muani-Lunga bilan vazirning falokati ularni dahshatga solib qo'ydi. O'zini xudo naslidan deb bilgan xonning o'z vaziri bilan bu qadar dahshatli o'limga uchraganini ular hech qachon ko'rgan emasdilar. Ulardan ba'zilari, ayniqsa keksalari, ilgarilari oddiy odamlarni gulxanda pishirib yeyishgan edi. Odam go'shtini pishirish juda qiyin bo'lganidan, bunga ko'p ovora bo'lish kerakligi ularning esida bor edi. Bu yerda esa xon bilan vazir xuddi tutan-tiriq singari birpasda yonib ketdi. Bu juda ajoyib bir ish edi.

Xoze-Antonio Alvets ham o'z uyiga kirib yashirindi. U bo'lgan voqea uchun meni aybdor qilishlari ehtimol deb qo'r qar edi. Negoro unga xonning o'lishi sababini tushuntirdi va ehtiyot bo'lishga maslahat berdi.

Basharti, Muani-Lunganing o'limiga Alvets aybdor deb topishsa, uning ahvoli chatoq bo'lar edi. Ammo Negoroning miyasiga ajoyib bir fikr kelib qoldi. Uning maslahati bilan Alvetsning xizmatkorlari: Kazonde xonining bunday g'aroyib vafoti — ulug' iloh Manitu uni alohida hurmat qilgani bo'ldi, iloh hammaga ham shunday marhamat

qilavermaydi, degan mishmishlarni tarqata boshladilar. Xurofotchi yerliklar bu hiylaga darrov ishona qoldilar. Xon bilan vazirni kul qilgan olovni muqaddas olov deb e'lon qilindi. Endi xudo naslidan bo'lgan Muani-Lunga xonni o'ziga yarasha marosim bilan ko'mish qolgandi, xolos.

O'ziga xos marosimdan iborat bu g'alati janoza Negoroga Dik Senddan o'ch olish uchun imkoniyat berdi.

Agar Markaziy Afrikani o'z ko'zi bilan ko'rib, tekshirib yuruvchi sayyohlar va shu jumladan, Kamerun guvohlik qilmaganda edi, Muani-Lunga singari negr xonlarining janoza marosimida qancha-qancha qon to'kilayotganiga hech kim ham ishonmasdi...

Xon taxtiga qirolicha Muana o'tirishi lozim edi. U taxtga o'tirishga o'zinig haqli ekanini ko'rsatish uchun janozaga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida darrov buyruq bera boshladi. U bunday buyruqlar berishi bilan oliy huquqqa ega bo'lganligini hammaga bildirgan bo'ldi va shunday qilib boshqalarning, ayniqsa Oukusu xonining taxtini olib qo'yishga to'sqinlik qilgan bo'ldi. Muana o'zini davlatning malikasi deb hisoblab, marhum xonning boshqa xotinlarini og'ir ahvoldan ozod qilishga qaror berdi. Xonning eng oldingi va eng ulkan xotini o'zini hech tinch qo'ymaydigan yosh kundoshlaridan endi qutuladigan bo'ldi. Badjahl malikaga bu ish juda yoqar edi. Shuning uchun u: hamma rasm va odatlarga muvofiq, marhum xonning janozasi ertaga kechqurun bo'ladi, deb xalqqa e'lon etishni buyurdi.

Yangi malikaning buyrug'iga na o'rdadan va na xalq o'rtasidan hech kim qarshi chiqmadi. Alvets bilan boshqa qul savdogari uchun Muananing taxtga o'tirishidan hech qanday xavf yo'q edi. Ular laganbardorlik va har xil tortiqlar bilan uni qo'lga olish oson deb o'ylar edilar.

Taxtga kim o'tirishi masalasi tez tinchlik yo'li bilan hal bo'ldi. Marhum xonning haramidagina bir

oz to'polon bo'ldi, chunki buning ham o'ziga yarasha sababi bor edi.

O'sha kunning o'zidayoq janozaga tayyorgarlik boshlandi. Kazondening katta ko'chasi oxiridan Kuanga daryosining sersuv bir tarmog'i o'qday tezlik bilan oqib o'tar edi. Muana o'sha daryo tarmog'ining tagidan go'r kovlashni buyurdi. Buning uchun daryo oqimini vaqtincha bir yoqqa surish kerak edi. Yerliklar daryoni to'sish uchun to'g'on qilishga kirishdilar. Daryo ilgarigi joyidan oqsin uchun janoza marosimidan keyin bu to'g'on olib tashlanishi kerak edi.

Negoro Dik Sendni xonning go'ri ustida xudo yo'lida qurbon etuvchilar qatoriga kirgizishga qaror berdi, Missis Ueldon bilan Jekning o'lgan xabarini eshitgandan keyin Dikning qanday g'azabi kelganini portugaliyalik ko'rgan edi. Agar Dik ozod bo'lganda ablah va qo'rqqoq Negoro uning oldiga kelishga ham qo'rqar edi. Ammo qo'l-oyog'i bog'langan noiloj asir Negoro uchun xavfsiz edi.

Negoro mal'un va ablah bir odam edi. U dushmani azob chekayotganini bilsa ham, buni o'z ko'zi bilan ko'rishni xohlar edi.

Kunduz kuni u xavildor ziyraklik bilan saqlayotgan Dik Sendning hujrasiga bordi. Oyoq-qo'li bog'langan yigit yerda yotar edi. Keyingi yigirma to'rt soat ichida unga mutlaqo ovqat berishmadi. Ko'p azob-uqubatlarni boshidan kechirib zaiflashib qolgan, badaniga botib ketgan arqonlardan tinkasi qurigan Dik Send bu azoblarning hammasidan bira-to'la qutulish uchun o'ziga o'lim tilar edi.

U Negoroni ko'rishi bilan o'ziga keldi. Dik xoinga tashlanib, uni bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'lib, arqonlarni yechishga urinib ko'rdi. Lekin bu yo'g'on arqonlarni Gerkules ham uzolmasdi.

U endi kurash tugamagan, lekin boshqacha tus olganini tushunib qoldi. Dik bosqlik bilan tikka Negoroning ko'ziga qaradi. U portugaliyalik nima

desa desin, unga hech bir javob qaytarmaslikka ahd qildi.

— Men sobiq kapitanimni eng oxirgi marta ziyorat qilib, unga bu yerda ham «Piligrim» kemasida qilganiday qo'mondonlik qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishi munosabati bilan ta'ziya bildirgani kelgan edim, — dedi Negoro.

Dik Send javob qaytarmagani sababdan Negoro gapini yana davom qildirdi:

— Ajabo, kapitan, nahotki, sobiq oshpazingizni tanimasangiz-a? Men bir nima buyurasiz deb shoshib-pishib kelgan edim-ku? Nonushtaga nima ovqat tayyorlashni buyurasiz?

Shunday deb Negoro yerda cho'zilib yotgan Dikni qattiq bir tepdi.

— Aytmoqchi, sizga yana bir savolim bor, kapitan, qanday qilib siz Janubiy Amerikaga ketayotib, Angolaga kelib qoldingiz-a? Shuni tushuntirib bersangiz.

Dik Send mo'ljalining to'g'riligini va xiyonatchi oshpaz kompasni jo'rttaga buzganini o'zi ham bilardi. Negoroning masxara qilib savol berishi bunga to'g'ridan-to'g'ri iqrar bo'lgani edi.

Dik javob qaytarmadi. Bu esa Negoroning g'azabini yana kuchaytirib yubordi.

— Iqrar bo'ling, kapitan, — deb davom qildirdi Negoro, — xayriyat, sizning baxtingizga «Piligrim» kemasida tajribali haqiqiy dengizchi bor ekan! Kishi o'ylasa qo'rqib ketadi: agar u aralashmaganida, bizlarni allaqayoqlarga olib ketib qolar edingiz! «Piligrim»ni suv osti toshlariga olib borib urgan bo'lardingiz, hammamiz halok bo'lardik! Ana o'sha dengizchining sharofati bilan yo'lovchilar mehmondo'st yerga kelib, o'zlariga yaxshi nazar bilan qarovchi odamlar orasiga kirib qolishdi. Bu dengizchiga iltifotsiz qarashingiz qo'pol xato ekanini ana endi o'zingiz ham ko'rib turibsiz, yigitcha!

Negoro o'zini xotirjam ko'rsatishga bor kuchi

bilan harakat qilardi. Gapini aytib bo'lganidan keyin Dikning ustiga engashib, uning ko'ziga qaradi. Portugaliyalikning chehrasida rahmsizlik alomati paydo bo'ldi. U xuddi Dikni tishlayman deb turganday ko'rinar edi. Axir u jahlini bosolmadi.

— Har narsa o'z navbati bilan! — deb qichqirdi Negoro quturib. — Bugun kapitan menman! Men xo'jayinman! Baxt-tolesiz dengizchi, sening hayoting mening qo'limda!

— Bu bilan sen meni qo'rqita olmaysan. Men o'limdan qo'rqmayman, — deb sovuqqina javob qaytardi Dik Send.

— Xo'p, hali ko'ramiz! — deb baqirdi Negoro. — Bitta-yarimtaga suyanyapsanmi deyman-a? Alvets bilan ikkimiz xudo bo'lgan Kazondeda-ya? Beaql! Yo sen Tom bilan boshqa negr sheriklaring shu yerda deb o'ylayapsanmi? Bekor aytasan! Ular allaqachon sotilib ketgan, Zanzibar yo'lida ketyapti... Ularning sen bilan ishi yo'q, ular o'z jonlarini saqlash bilan ovora!

— Ammo Gerkules ozodlikda, — dedi Dik.

— Gerkules? — deb takrorladi Negoro yer tepinib. — Arslon va qoplonlar uni allaqachon yeb qo'ygan. O'sha yirtqich hayvonlar tufayli undan o'ch olmay qolganimga hali-hali achinaman.

— Agar Gerkules o'lgan bo'lsa, — deb javob qaytardi Dik Send, — Dingo tirik. Senday odamning ishini bir yoqlik qilish uchun Dingoday it kifoya qiladi. Men seni ko'rib-bilib turibman, Negoro, sen qo'rqoq odamsan! Dingo seni axiri qidirib topadi. U bilan uchrashgan kuning — umringning oxirgi kuni bo'ladi...

— Ablah! — deb baqirdi quturgan Negoro. — He, ablah! Dingoni o'z qo'lim bilan otib tashladim! Missis Ueldon bilan uning o'g'li singari, Dingo ham allaqachon o'lgan. «Piligrim»da falokatga uchragan odamlar ham o'sha la'nati it singari o'lib ketadi!..

— Shu jumladan sen ham, — deb javob qaytardi Dik. — Ammo sen oldinroq o'lasan!

Yigitning bosiq ovozi va dadil qarashlari Negoroning toqatini toq qildi. U batamom es-hushini yo'qotib, bechora asirni g'ippa bo'g'ib o'ldirishga tayyor edi. Negoro Dikka tashlandi ham, uni bir silkitib, bo'g'ziga yopishdi ham... biroq shunda o'zini ushlab qoldi. «Dikni hozir o'ldirish — uni qiynoqlardan qutqazib qolish bo'ladi».

Keyin u asirni qo'yib yubordi-da, asirdan ko'z uzma, deb xavildorga buyurib, o'zi barakdan tez chiqib ketdi.

Bu manzaradan Dik xafa bo'lish bir yoqda tursin, aksincha, xursand bo'ldi. Unga birdan kuch-quvvat kirdi. Dik Send Negoro ketgandan keyin qarasa, qo'l-oyoqlarini bemalol qimirlatadigan bo'lib qolibdi. Negoro uni g'azabi bilan silkitganda, ehtimol, arqonni o'zi bo'shashtirib qo'ygandir. Yigit endi qo'lini osongina bo'shatib olsa bo'lardi. Qo'lini bo'shatib olsa, ahvoli bir oz yengillashardi. Boshqa hech qanday umidi yo'q edi, chunki hamma yog'i mahkam berk bu hujradagi soqchi undan ko'zini uzmas edi. Biroq hayotda ozgina qulaylik bo'lishi ham katta bir baxtday ko'ringan paytlar bo'ladi.

Albatta, Dik qutulaman deb sira umid qilmasdi. Unga faqat chetdan yordam berilishi ehtimol edi. Ammo unga kim ham yordam bersin? Hech kim! Buning ustiga Dik o'limiga rozi edi. U o'zidan oldinroq o'lib ketganlar haqida o'ylardi. Gerrisning aytganini Negoro ham tasdiqladi: demak, missis Ueldon bilan Jek o'lgan ekan. Ehtimol, Gerkules ham halok bo'lgandir, chunki u ham har qadamda o'lim xavfi ostida edi. Tom bilan uning sheriklari qullikka sotildi. Ular hozir yiroqda, Dik ulardan umrbod ajralgan. Biror kutilmagan hodisa bo'lib qolishi ehtimol deyish ham behuda gap edi. Lekin Dik Send o'limdan qo'rqmasdi.

Vaqt o'tyapti. Kech kirdi. Tomning tirqishidan

tushayotgan kunduzgi yorug'lik asta-sekin so'ndi. Bozor maydoni ham tinchidi, lekin kechagi to's-to'polonga qaraganda bugun maydonda umuman tinchlik bo'ldi. Dik yotgan tor xujradagi shu'lalar qoraydi va keyin butunlay qop-qorong'i bo'ldi. Kazonde shahri jimib qoldi.

Dik Send ikki soatcha uxlab oldi, kayfi joyiga kelib uyg'ondi. Dik urinib-surinib bir qo'lini arqondan bo'shatib oldi-da, qo'lini bir buklab, bir yozib, rohat qildi.

Vaqt yarim kechadan o'tgan bo'lsa kerak. Xavildor qattiq uyquda edi, chunki kechqurun u bir shisha aroqni bir tomchi ham qoldirmay ichib olgan edi. Hozir tushida ham aroq ko'rayotgan bo'lsa kerak, shishaning bo'ynini qo'llari bilan mahkam qisib ushlab yotibdi.

Dik Sendning miyasiga soqchining miltig'ini olish kerak, qochishga to'g'ri kelib qolsa, kerak bo'lib qoladi, degan fikr keldi. Ammo shu paytda hujra eshigining orqasida, yerdan qandaydir shitirlagan bir ovoz eshitilib qoldi. Dik bo'shatilgan qo'lga tayanib, xavildorning uyg'onishidan xavotir olib, eshik yoniga emaklab bordi.

Dik Send yanglishmadi. Eshik orqasidagi shitirlash tobora yashxiroq eshitar edi. Birov eshik tagini kovlayotganday tuyuldi. Kim ekan-a? Odammikan yo hayvonmikan?

— Zora Gerkules bo'lsa! — deb shivirladi Dik.

U xavildorga ko'z tashladi. Xavildor esa dong qotib uxlab yotibdi. Dik bo'sag'a ustidagi yoriqqa og'zini qo'yib, asta shivirlab: «Gerkules!» deb chaqirdi. Unga javoban g'inshib, vovillagan ovoz eshitildi.

«Bu Gerkules emas, Dingo ekan! — deb o'yladi Dik. — Aqlli it meni qamoqxonadan ham qidirib topibdi-ya! U Gerkulesdan yana xat olib kelmadimikan-a? Dingo tirik bo'lsa, demak, Negro aldagan chiqadi! Demak, u...»

Shu paytda eshik tagidan uzayib it panjasi

ichkari kirdi. Dik uni ushlab ko'rib, Dingoniki ekanini bildi. Agar Dingo xat olib kelgan bo'lsa, bo'yinbog'ida bo'ladi. Nima qilish kerak? Eshik tagidagi teshikni Dingoning boshi sig'adigan qilib ochib bo'lasmikan-a? Har holda bir urinib ko'rish kerak.

Dik Send tirnoqlari bilan yerni endi kovlayman deb turgan paytda maydondagi itlar vovillay boshladi, demak, bu yerdagi itlar begona it borligini bilib qolishgan, Dingo qochib ketdi. Bir necha marta o'q uzilgani eshitildi. Xavildor uyqu aralash qimirlab qoldi. Dik Send qochish niyatidan voz kechib, o'z joyiga borib yotdi. Bir necha soatdan keyin — bu soatlar unga juda uzoq tuyuldi — tong yorishib qoldi. Umrining eng oxirgi kuni kelib yetdi.

Malika Muananing bosh vaziri o'sha kuni er-tadan kechgacha yerliklarga bosh bo'lib to'g'on qurdirdi. Uni o'z vaqtida tamomlash kerak edi, yo'qsa, hamma ishlovchilar mayib qilinishi ehtimol edi, chunki yangi hukmdor hamma narsada o'zining marhum eridan o'rnak olib ish tutar edi.

Daryoning oqimi boshqa yoqqa surilgandan keyin, uning o'rniga uzunligi ellik fut, eni bilan chuqurligi o'n fut keladigan katta chuqur kovlandi.

Kechqurun bu chuqurga Muan-Lunganing ayol qullarini solib to'ldira boshlashdi... Odatda bu sho'rliklarni tiriklay yerga ko'mishardi, lekin Muani-Lunganing g'alati o'limi munosabati bilan bu marosimni o'zgartirib, ularni marhumning o'ligi bilan birga suvga cho'ktirishga qaror berildi¹.

Rasm va odat o'lgan kishilarga eng yaxshi kiyimini kiyintirib ko'mishni talab qilardi. Ammo Muani-Lunga xondan bir necha kuygan suyak-

¹ Afrika qabila boshlig'ini ulug'lab ko'mish uchun allaqancha qurbonlar beriladi. Kameroning aytishicha, Kassonga xonining otasini ko'mish marosimida yuzdan ortiq kishi qurbon qilingan ekan (*Muallif izohi*).

largina qolgani sababdan boshqacha ish qilishga to'g'ri keldi. Tol novdasidan o'rib, xonga o'xshash odam gavdasi qilindi. O'sha gavda ichiga Muani-Lunganing qolgan-qutgan suyaklarini joylashtirib, keyin unga xonning eng yaxshi kiyimlarini kiyintirishdi. Benedikt tog'aning ko'zoynagi ham esdan chiqarilmadi. Bu marosim ham kulgili, ham dahshatli edi.

Tantanali janoza marosimi kechasi mash'allar yorug'ida o'tkazilishi lozim edi. Malikaning buyrug'iga muvofiq, janozaga butun Kazonde aholisi qatnashishi kerak edi.

Kechqurun uzun janoza marosimi bozor maydonidan to xonning go'rigacha cho'zilib ketdi. Janoza marosimi bo'layotgan katta ko'chada raqs-o'yinlar, qichqirish, baqirishlar, jodugarlarning uvillashlari, cholg'u asboblari hamda pilta miltiqdan otilgan o'q ovozlari tinimsiz guvillab turdi.

Xoze-Antonio Alvets, Koimbra, Negoro, arab qul savdogarlari va ularning xavildorlari bu marosimda ishtirok qilishdi. Malika Muana kelgindilarga janoza tamom bo'lguncha yarmarkadan ketmaslikni buyurdi. Hamma savdogarlar itoat qilib Kazondeda qolishdi, chunki ular endigina hukmronlik qila boshlagan bu ayolning buyrug'ini bajarmaslikning oqibati yomon bo'lishini bilar edilar.

Xonning «o'ligini» marosimning eng ketidan olib bormoqda edilar. Yasama jasad solingan zambil atrofida xonning ikkinchi darajadagi xotinlari bor edi. Ularning ba'zilar o'z eri — hukmdorini «narigi dunyoga» uzatib qo'yishi kerak edi. Malika Muana tobut ketidan borardi. Marosimning keti daryoga yetib olguncha qorong'i tushib qoldi, ammo behisob ko'p mum mash'allarning qip-qizil shu'lasini hamma yoqni yoritib turar edi.

Suvi quritilgan soyning tagidagi chuqur ravshan ko'rinib turardi. Uning ichi qora balanlarga to'la edi. Qoziqlardagi kishanlarga bog'lab

qo'yilgan bu odamlar hali tirik edi. Ular qimir-lashardi. Bu yerda ellikta yosh ayol qullar o'z ajalini kutib yotibdilar.

Ularning ba'zi birlari o'z qismatiga rozi bo'lib yotar, qay birlari esa faryod chekar edi.

Malika xonning xotinlari orasidan o'sha ayol qullar bilan birga ko'miladiganlarni tanladi.

Xonning ikkinchi darajali xotinlaridan birini tiz cho'kib, yerga bukilishga majbur etishdi. U xonning tirik chog'ida bo'lgani singari, yotib unga «kursi» bo'lar ekan. Yana ikkitasini chuqurning tagiga tashlashdi — ular xonning oyoq tagidagi «gilami» bo'larmish.

Chuqurning narigi boshida, yasama jasadning ro'parasidagi qizilga bo'yalgan ustunga bir oq badan odamni arqon bilan bog'lab qo'yishdi.

Bu — Dik Send edi. Uning beligacha yalang'och bo'lgan badanida Negoroning buyrug'i bilan urilgan qamchi izlari ko'rinib turar edi. Dik qutulish umidi yo'qligini ko'rib, xotirjamlik bilan o'z ajalini kutar edi.

Malika Muananing ishorasi bilan Kazonde jallodi xon xotinlaridan birini bo'g'izladi. Bu qonli fojia-ning boshlanishini bildiradigan ishora edi. Birpasda ellikta ayol qullarni rahmsiz ravishda o'ldirishdi. Chuqur qonga to'ldi. Qurbonlarning faryodlari olomonning oh-vohlariga aralashib ketdi.

Hayajon bosilgandan keyin malika Muana yana ishora qildi, bir necha yerliklar to'g'onni ocha boshladi. Bu dahshatli tomoshani uzoqqa cho'zish uchun to'g'onni butunlay ochmay, daryoning eski oqimiga suvni jildiratib oqizishdi.

Avval chuqur tagida yotgan ayol qullarni suv bosdi. Ulardan tirik qolganlari jon achchig'ida tipirchilar edi. Dik Send suv tizzasiga chiqqandan keyin arqonlarini uzmoqchi bo'lib bor kuchi bilan oxirgi marta urinib ko'rdi.

Suv borgan sari ko'tarilaverid. Qul ayollar ketma-ket suv tagida qolib ketdi.

Bir necha minutdan keyin Kazonde xonining sharafiga qurbon etilgan o'nlarcha odamlar yotgan soy ichidagi chuqur suv tagida qolib ketdi.

O' n u c h i n c h i b o b

QO'RG'ON ICHIDA

Missis Ueldon bilan kichkina Jek o'lgan, deb Gerris bilan Negoro yolg'on aytgan edilar. Ona-bola bilan Benedikt tog'a eson-omon Kazondeda edilar.

Qirsumolilar gumbazi bosib olingandan keyin ularni yerli soldatlar soqchiligida Kuanza daryosi bo'yidan Kazondega yuborishgandi. U otryadni Gerris bilan Negoro boshlab kelgandi.

Missis Ueldon bilan kichkina Jekni usti yopiq zambilga joylashtirishdi. Nima uchun Negoro to'satdan bunday g'amxo'rlik qilib qoldi ekan? Missis Ueldon bunga sira tushunmasdi.

Kuanzadan Kazondega juda tez yurib borishdi va asirlar hech charchashmadi. Benedikt tog'a juda yurag'on odam ekan. Uning har yoqqa tentirab yurishiga hech kim xalaqit bermaganidan xursand edi.

Kichkina otryad Ibn Homisning karvonidan sakkiz kun oldin Kazondega yetib keldi. Missis Ueldon bilan uning o'g'li va Benedikt tog'ani Alvet'sning qo'rg'oniga joylashtirishdi.

Jek ancha sog'ayib qoldi. Sozlik joylarda bolani aksari bezgak tutardi, otryad u yerlardan o'tib ketganidan beri bezgagi tutmay qo'ydi, kichkina Jek sog'ayib ketdi.

Qullar karvoni bilan piyoda yurib borishga ona-bola aslo chiday olmasdi. Ammo kitanda sayohat qilganlari sababli ikkisi ham sog'-salomat edi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, yo'lda ularga birmuncha jonkuyarlik ham qilishdi.

Missis Ueldon o'zining hamrohlari to'g'risida hech nima bilolmadi. U Gerkulesning qayiqdan

irg'ib tushib o'rmonga qochib ketganini ko'rди-yu, keyin unga nima bo'lganidan xabari bo'lmadi. Missis Ueldon Gerris bilan Negoro borida Dik Sendga rahm qilishmasdi, lekin ular yo'g'ida yovvoyilar oq badan odamga yomon muomala qilishmas, deb o'zini yupatar edi. Ammo u, Tom, Nan, Bat, Ostin, Akteonlarning ishlari chatoq, chunki ular negr, shu sababdan ularga hech kim parvo, iltifot qilib o'tirmaydi, deb o'ylar edi. Missis Ueldon bu baxtsiz bechoralar uchun juda tashvish tortar edi.

Missis Ueldon Ibn Homisning karvoni Kazondega kelganidan ham xabarsiz edi.

Yarmarka ochilgan kundagi shovqin-suronlarni missis Ueldon eshitgan bo'lsa ham, ammo buning sababini tushuntirishmadi. Missis Ueldon Tom bilan uning sheriklari Ujijidan kelgan qul savdogarlariga sotilib ketganidan ham bexabar edi, ularning yaqinda Kazondedan jo'nab ketishlarini ham bilmas edi. U Gerrisning o'ldirilganini ham, Muani-Lunga xonning o'limini ham, uning tantanali janoza marosimini ham va bunda Dikning qurbon etilishini ham eshitmagan edi. Sho'rlik ayol batamom qul savdogarlari bilan Negoroning ixtiyorida edi. U o'lib qutulishini ham o'ylay olmasdi, chunki yonida kichkina o'g'li bor edi.

Missis Ueldon o'zini nima qilishmoqchi bo'layotganlaridan ham bexabar edi. Gerris bilan Negoro butun safar mahalida bu haqda unga hech narsa deyishmagan edi. Kazondega kelgandan keyin ular missis Ueldon yoniga kelmadilar, unga esa qo'rg'ondan chiqmaslikka buyruq berdilar.

Katta go'dak Benedikt tog'aning missis Ueldonga hech qanday yordami tegmasligi to'g'risida gapirib o'tirishning ham hojati yo'q, chunki bu narsa o'z-o'zidan ma'lum.

Muhtaram olim o'zining Afrikada ekanini bilganidan keyin, bu qanday qilib bunday bo'ldi, deb so'ramadi ham. U faqat qattiq xafa bo'ldi, xolos.

Haqiqatan ham Amerika qit'asida setse pashshasi bilan urishqoq qirchumolilarni eng oldin men topdim deb o'ylab yursa, bu jonivorlar ko'pdan-ko'p olimlar tomonidan undan ilgari topilib tasvirlangan eng oddiy afrika hasharotlarining o'zginasi ekan. Uning, bu kashfiyotim bilan butun dunyoga dong'im ketadi, deb yurishi ham puchga chiqdi. Endi naturalist Benedikt afrika hasharotlaridan olib kelibdi, deb kim taajjublansin?..

Ammo xafagarchilik sal-pal bosilgandan keyin Benedikt tog'a o'z-o'ziga: Bu «fir'avnlar mamlakati» — u Afrikani shunday deb atardi — entomolog uchun cheksiz bir boylik-ku; «Inkilar yurtidan»¹ ko'ra qaytaga bu yer yaxshi, — der edi.

— Qanday baxt, qanday baxt-a, — derdi u o'z-o'ziga hamda uning gapiga quloq solmagan missis Ueldonga, — bu yerlar yungi o'sgan, uzun-uzun oyoqli, qanoti uchli va kattakon og'izli vizillovchi qo'ng'izlarning vatani emasmi, axir? Vizillovchilarning eng ajoyibi, bukri sirtli qo'ng'izdir. Bu qit'a qizil badanvizillovchilarning, igna oyoqli polvon gvineya hamda gabon qo'ng'izlarining vatani bo'ladi; tuxumchalarini chag'anoq qutichasiga soladigan chipor antidiy asalarilarining vatanidir; qadimgi misrliklarning tangri deb atagan muqaddas go'ngqo'ng'izlarning vatanidir. Bu yer hozir butun Yevropaga tarqalgan «toshbosh» obulhavl kapalagining vatanidir; senegaliyaliklar uning chaqishidan qattiq qo'rqadigan «bigot pashshasi»ning vatanidir. Hech so'zsiz, bu yerda ajoyib kashfiyotlar qilish mumkin va agar bu marhamatli odamlar menga yo'l qo'yishsa, albatta yangi kashfiyotlar qilaman!

Bu «marhamatli odamlar»ning kimligini o'quvchilar yaxshi bilsalar kerak. Ammo Benedikt tog'a-ning ulardan zorlanishga hech qanda vaji yo'q edi.

¹ Ya'ni Janubiy Amerika, *inkilar* — Janubiy Amerikaning yerlik xalqi, ispanlar bu mamlakatni istilo qilguncha shu xalq hukmronlik qilgan.

Gerris bilan Negoro bu entomolog olinga ancha yo'l qo'yib kelar edilar, holbuki Dik Send dengiz qirg'og'idan Kuanza daryosiga kelguncha uning tentirashlariga yo'l qo'ymagandi. Shuning uchun ham soddadil olim qul savdogarlaridan juda xursan edi.

Agarda alam qilarlik bir kamchilik bo'lmagani-da Benedikt tog'a o'zini dunyodagi eng baxtli entomolog deb hisoblashga tayyor edi. Bu kamchilik shundan iborat ediki, uning hasharotlar qutisi avvalgiday orqasida osig'li yurgan bo'lsa ham, lekin burnidagi ko'zoynagi bilan ko'kragiga osib yuradigan lupasi yo'qolib qolgan edi. Na ko'zoynagi, na lupasi bo'lmagan entomologiya olimi ham olimmi? Har holda Benedikt tog'a endi bu asboblarga hech qachon ega bo'lolmaydi, chunki ular Muani-Lunga xonning o'ligi bilan birga daryo tagiga ko'milib ketdi.

Endi bechora olim topilgan hasharotlarning tuzilishini tekshirib ko'rish uchun ularni burni tagiga keltirib qarar edi. Benedikt tog'a juda qiyinalib qoldi. U ko'zoynak uchun har qancha pul berishga ham rozi edi-yu, baxtiga qarshi, Kazondeda bunaqa narsani hech qanday pulga ham topib bo'lmasdi.

Benedikt tog'aga Xoze-Antonio Alvets qo'rg'onning hamma joylarini bemalol tomosha qilib yurishga huquq berildi, chunki unda qochib ketish niyati yo'qligini bilar edilar. Shu bilan birga, qo'rg'onning atrofida baland panjara devor bo'lib, olim undan baribir oshib o'tolmasdi. Bu panjara devor salkam milga cho'zilgan edi. Qo'rg'onning ichi daraxtzor, chakalakzor edi, bir necha anhorlar oqib yotardi, baraklar, kapalaklar va uylar bor edi. Qisqasi, hasharotlar qidirish uchun juda bop joy edi. Shu sababdan Benedikt tog'a bu ishga astoydil kirishib ketdi. U o'zi topgan olti oyoqli hasharotlariga diqqat bilan tikilavergandan ko'zlaridan ajralay dedi. Uning hasharotlari yoniga anchagina yangilari qo'shildi, bundan tashqari Afrika hasharotlari haqi-

da katta bir asar yozish uchun taxminiy plan ham chizib qo'ydi. Agar u birorta yangi hasharot topib, unga o'z nomini qo'ya olsa, dunyoda Benedikt tog'adan baxtli kishi bo'lmasdi.

Kichkina Jekka ham qo'rg'onda bemalol aylanib yurishga ruxsat etildi. Ammo Jek o'z tengqurlari bilan o'ynashga qiziqmas edi. U sira onasining yonidan nari ketmasdi. Missis Ueldon bolaga gap bo'lmasin deb uning o'zini hech yolg'iz qo'ymas edi.

Jek otasini ko'p eslardi. U onasidan Nan kampir, keksa Tom, do'sti Gerkules, Bat, Akteon va Ostinlarni surishtirar edi. U, Dingo meni tashlab ketdi, deb xafa bo'lardi. Lekin Jek ayniqsa Dik Sendni ko'p yo'qlar edi. Uning savollariga javob qaytarish o'rniga missis Ueldon uni bag'riga bosib o'par va bolasi oldida yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyar edi.

Kuanzadan Kazondaga kelgan mahalda ham, Alvetsning qo'rg'onida ham missis Ueldonga hech kim qo'pol muomala qilmadi. Qul savdogarlari unga nisbatan bo'lgan munosabatlarini o'zgartirmaslikka qaror bergan bo'lsalar kerak.

Qo'rg'onda qul savdogarlariga xizmat qiladigan qullargina turar edi. Boshqa qullar esa «sotiladigan mol» o'rnida bozordagi baraklarda turar edilar va o'sha yerdan ularni xaridorlar olib ketar edi. Omborlar ham qo'rg'on ichida edi. Ularda gazlama bilan fil suyaklari oshib-toshib yotardi. Alvets gazlamalarni Afrikaning ichkarigi viloyatlarida qullarga ayribosh qilardi, fil suyaklarini esa sotish uchun Yevropaga jo'natar edi.

Demak, qo'rg'onda ko'p kishi turmas edi. Missis Ueldon bilan Benedikt tog'aga alohida uy berishdi. Ular birga ovqat qilishar edi. Ularni go'sht, sabzavot, manioka uni, sorgo¹ mevalar bilan to'ydirib boqishardi.

¹ *Sorgo* — g'allasimon ekinlardan, tariqqa o'xshaydi. Tropik Afrikada ko'p ekiladi va ovqat qilib yeyiladi.

Missis Ueldonga xizmat qilish uchun Halima degan maxsus qul xizmatkor berishdi. Bu qiz missis Ueldonni yaxshi ko'rib qolib, qo'lidan kelganicha xizmat qildi. Missis Ueldon Alvetsning boshqa qullari bilan hech to'qnash kelmasdi.

Qo'rg'onning katta uyida turuvchi qul savdogarlarining o'zini missis Ueldon har zamonda ko'rar edi. Negoro boshqa joyda turardi. Kazondaga kelganidan beri missis Ueldon uni bir marta ham ko'rmadi, Negoroning ko'rinmay ketishiga missis Ueldon boshda ajablandi, keyinchalik esa hatto tashvish ham qila boshladi.

«Nima qilmoqchi ekan u?» — deb so'rar edi missis Ueldon o'z-o'zidan. — Nimani kutyaptikan-a? Bizlarni Kazondaga nima uchun olib keldi ekan?»

Ibn Homisning karvoni Kazondaga kelganga qadar sakkiz kun ana shunday tashvish bilan o'tdi.

O'zining hasrati va g'am-g'ussalari ustiga missis Ueldon aksari eri qanday tashvish tortayotgani to'g'risida ham o'ylar edi. Jems Ueldon, hech shubhasiz, qattiq tashvishda qolgan bo'lsa kerak. U xotining «Piligrim» kemasida sayohat qilishini xayoliga ham keltirmagandir. Jems Ueldon uni «Okean kemalari shirkati»ning birorta paroxodiga tushib keladi, deb o'ylar edi. Bu paroxodlar tayinlangan vaqtda San-Fransisko portiga doim kelib turar edi. Biroq missis Ueldondan ham, Jekdan ham, Benedikt tog'adan ham hech darak yo'q edi.

«Piligrim»ning ham San-Fransiskoga qaytib keladigan vaqti bo'lib qoldi. Jems Ueldon kapitan Guldani hech qanday darak bo'lmaganligi sababli, bu kema yo'q bo'lib ketdi, deb o'ylagan bo'lsa kerak.

Hali bu ham hech gap emas edi, falokatning kattasi oldinda turibdi: Jems Ueldon Oklend muxbirlarining, missis Ueldon «Piligrim» kemasiga tushib Yangi Zelandiyadan jo'nab ketdi, degan xabarini eshitgan kuni qattiq tashvishga tushadi. Buni eshitgach, mister Ueldon nima qilarkan? Xotinim bilan o'g'lim bedarak yo'qolib

ketdi deb, xotirjam bo'lib qolavermaydi, albatta. Lekin ularni qayerdan qidirsin? Albatta, Tinch okean orollaridan, ehtimol, Janubiy Amerika sohilidan qidirar. Hamma joydan qidirsam ham, lekin bu yerdan qidirmaydi. Xotini bilan o'g'lining Afrikaga borib qolganini u hech qachon xayoliga ham keltirmaydi!

Missis Ueldon shunday o'ylarga borar edi. U bechoraning qo'lidan nima ham kelardi? Qochib ketsinmi? Qanday qilib? Uning har bir harakatini kuzatib turar edilar. Hatto o'ng kelib qochgan mahallida ham ming o'lim xavflarini kechirib, odam bolasi oyoq bosmagan qalin o'rmonlardan ikki yuz mildan ortiq yo'l yurishi kerak edi.

Agarda ozodlikka chiqish uchun boshqa chora bo'lmasa, missis Ueldon shunday qilishga ham tayyor edi. Ammo biron chora ko'rishdan oldin, Negoroning niyatini bilmoqchi edi.

Vaqt kelib missis Ueldon bu odamning niyatlarini bildi ham.

Muani-Lunga xon ko'milgandan uch kun keyin, ya'ni 6-iyun kuni Negoro qo'rg'onga keldi. U to'ppa-to'g'ri missis Ueldon turgan joyga qarab jo'nadi.

Missis Ueldon o'zi yolg'iz edi. Benedikt tog'a o'zining navbatdagi ilmiy ishi bilan aylanishga chiqib ketgan ekan. Kichkina Jek esa qo'rg'on ichida Halimaning nazoratida o'ynab yurar edi.

Negoro eshikni taqillatmasdanoq to'g'ri uyga kirib kelaverdi.

— Missis Ueldon, — dedi u esonlashmasdan, — Tom bilan uning sheriklari Ujijidan kelgan qul savdogariga sotib yuborildi.

Missis Ueldon hech narsa demasdan ko'z yoshlarini artidi.

— Nan kampir yo'lda o'ldi. Dik Send halok bo'ldi...

— Nan o'ldimi?! Dik ham-a?! — deb baqirib yubordi missis Ueldon.

— Ha, shunday, — dedi Negoro. — Gerrisni

o'ldirgani uchun qonunga muvofiq sizning o'n besh yoshli kapitaningiz xun to'lashi lozim edi. Siz, missis Ueldon, Kazondeda yolg'izsiz. Yolg'iz bo'lishingiz ustiga, «Piligrim» kemasining sobiq oshpazi ixtiyoridasiz. Tushunyapsizmi?

Afsuski, Negoroning gaplari haqiqat edi. Tom bilan uning o'g'li Bat, Akteon va Ostinlar kuni kecha qul savdogarlari bilan Kazondedan Ujijiga jo'nab ketishdi. Missis Ueldon Kazondeda, Alvets qo'rg'onida ekanidan ularning xabari yo'q edi. Bilganlarida ham u bilan xayrlashish uchun ularga baribir ruxsat etishmasdi. Bu vaqtda ular Katta ko'llar tomoniga jo'nab ketgan edilar. Ular necha yuz millab yo'l yurishlari kerak edi. Ko'p odamlar bo' yo'llarni omon-eson bosib o'tolmay, yo'lda halok bo'lib ketadi.

— Xo'sh, meni nima qilmoqchisiz? — deb shivirladi missis Ueldon Negoroga qaramasdan turib.

— Missis Ueldon, — deb gapini shart kesdi portugaliyalik, — «Piligrim» kemasida tortgan xo'rliklarim uchun sizdan o'ch olsam ham bo'lardi. Ammo men Dik Sendning o'limi bilan qanoatlanmoqchiman, xolos! Endi men yana savdo ishiga kirishmoqchiman. Sizning to'g'ringizda mening niyatim shunday.

Missis Ueldon indamasdan unga tikildi.

— Siz, — deb gapini davom qildirdi Negoro, — o'g'lingiz, pashshalar ketidan quvlab yuruvchi mana bu tentagingiz — ma'lum bir qimmatga ega-sizlar. Ana shu qimmatni men ishga solmoqchiman. Qisqasi shuki, men sizlarni sotmoqchiman!

— Men ozod odamman! — dedi qat'iy qilib missis Ueldon.

— Agar men istasam, qul bo'lasiz-qolasiz!

— Oq badan ayolni sotib olishga kim jur'at qilarkan?

— Qancha so'rasam sizga shuncha beradigan xaridor bor.

Missis Ueldon bir lahza boshini egdi. U bu dahshatli mamlakatda har qanday ishlar bo'lishi mumkinligini bilardi.

— Siz mening gaplarimni tushundingizmi? — deb so'radi Negoro.

— Kim ekan u? — deb so'radi missis Ueldon.

— Meni kim sotib oladi deb so'rayapsizmi? — deb masharaomiz kulib javob qaytardi Negoro.

— Nomi nima ekan uning? — deb yana so'radi missis Ueldon.

— Uning nomi... Jems Ueldon. Sizni eringiz!

— Mening erim-a? — deb baqirib yubordi missis Ueldon quloqlariga o'zi ishonmasdan.

— Ha, missis Ueldon, xuddi o'shaning o'zi. Sizning eringiz! Men unga xotini bilan o'g'lini shunday qaytarmoqchi emasman, xotini bilan o'g'lini sotaman, tentak tog'asini esa ularga qo'shimcha qilib bepul beraman.

Missis Ueldon Negoroning gapida biror hiyla yo'qmikan, deb o'yladi. Yo'q, u o'z niyatini aytayotgan bo'lsa kerak. Negoro singari yaramas odamlar o'ziga ko'p foyda keladigan ish bo'lganidagina to'g'ri gapiradi. Ammo bu ish haqiqatan ham katta foyda beradigan ish edi.

— Bu ishni qachon bir yoqlik qilmoqchisiz? — deb so'radi missis Ueldon.

— Mumkin qadar tezroq.

— Qayerda?

— Shu yerda, mister Ueldon o'zining xotini bilan o'g'lini qutqazib olish uchun Kazondaga kelishdan qo'rqmasa kerak deyman?

— Albatta-ya. Lekin unga kim xabar qiladi?

— Men o'zim. Eringiz bilan uchrashish uchun San-Fransiskogo o'zim boraman. Yo'lga pulim yetadi.

— «Pilgrim»dan o'g'irlagan pulingiz-da?

— Ha, o'sha pullar... yana ozroq boshqa pulim ham bor, — dedi Negoro uyalmasdan. — Shuni ham bilingki, men sizlarni tezroq sotish ustiga qimmat-

roqqa ham sotmoqchiman. Sizning eringiz yuz ming dollarini ayamasa kerak deb o'ylayman?

— Shuncha puli bo'lsa ayamaydi-ya, — deb sovuqqina javob qaytardi missis Ueldon. — Siz eringizga: meni Markaziy Afrikada asirlikda yotibdi deb aytmoqchimisiz?

— Ha, shunday deyman.

— Biror dalil ko'rsatmasangiz u sizga ishonmaydi. Sizning gapingiz bilan Kazondaga kelarmidi?

— Agar siz hol-ahvolni tushuntirib, meni unga o'zingizni yovvoyilardan qutqazuvchi sodiq xizmatkoringiz, deb yozib bersangiz, albatta keladi.

— O'lganda ham bundaqangi xat yozmasman! — deb gapini cho'rt kesdi missis Ueldon.

— Yozmayman deysizmi?

— Hech qachon yozmayman!

Missis Ueldon erining Markaziy Afrikaga kelishi qanday xavf-xatarlar bilan bog'liq ekanini yaxshi bilar edi.

Negoroning va'dasiga ishonib bo'lmaydi, chunki u pulni olgandan keyin, mister Ueldonni Kazondedan ketkazmay qo'yishi mumkin edi. Ana shu fikrlarga asoslanib, missis Ueldon sira o'ylab-netib turmasdan Negoroning taklifini rad qildi. Ammo u sho'rlik bu yerda yolg'iz o'zi emas, balki bolasi ham borligini esidan chiqazgan edi.

— Har holda siz bu xatni yozasiz! — dedi Negoro.

— Yo'q! — deb uzil-kesil javob qaytardi missis Ueldon.

— Hazir bo'ling! — deb o'shqirdi portugalialik. — Siz bu yerda yolg'iz emassiz! O'zingiz kabi o'g'lingiz ham mening ixtiyorimda! Nima qilsam ham xatni yozishga sizni majbur qilaman.

Missis Ueldon meni hech qo'rqita olmaysiz, deb aytmoqchi edi-yu, lekin yuragi qattiq sanchayotganidan indamadi.

— Missis Ueldon, — deb gapini tamomladi

Negoro, — siz mening taklifimni yaxshilab o'ylab ko'ring. Bir haftadan keyin sizdan Jems Ueldon nomiga yozilgan xatni olgani kelaman. O'jarlik qilsangiz, o'zingizdan ko'ring!

Shu so'zlarni aytib, Negoro uydan tez chiqib ketdi. U o'z jahlini bosmoqchi edi. Ammo missis Ueldonni o'ziga bo'ysundirish uchun uning har qanday yomonlikdan ham toymasligi ko'rinib turar edi.

O' n t o' r t i n c h i b o b

DOKTOR LIVINGSTON HAQIDA DARAKLAR

Missis Ueldon yolg'iz qolgandan keyin, birinchi galda, Negoroning javob olish uchun bir haftadan keyingina kelishi to'g'risida o'yladi.

Yaxshilab o'ylab olish uchun bu muhlat yetarli edi. Negoroning har qanday va'dasiga ham ishonib bo'lmasdi. Shuning uchun uning o'zini qiziqtiradigan boshqa bir yo'l topish kerak.

Negoro uchun missis Ueldon «qimmatbaho mato» bo'lgani sababdan u juda bo'lmaganda yaqin kunlar ichida uni har qanday xavf-xatarlardan saqlashi kerak edi. Ana shu vaqt ichida missis Ueldon San-Fransiskoga qaytishi uchun Jems Ueldonning Kazondaga kelishi shart bo'lmaydigan bir yo'l qidirib topish ustida astoydil o'ylab ko'rish mumkin bo'ladi.

Missis Ueldon, eri Jems Ueldon uning xatini olishi bilan hech qanday xavf-xatarlarga qaramasdan, Afrikaga uchib kelajagiga hech shubha qilmas edi. Ammo «tovon» pulini to'lagandan keyin xotini, o'g'li va Benedikt tog'a bilan Kazondedan bemalol chiqib keta oladimi-yo'qmi, — bunga kim kafil bo'la oladi?

Malika Muana sal o'jarlik qilsa, ular hammasi bu yerda qolib ketadilar!

Undan ko'ra, «oldi-sotdi» ishlari biron dengiz

qirg'og'ida bo'lgani yaxshi emasmi? Bu narsa missis Ueldonni Afrikaning ichkarisidagi xatarli viloyatlarga kelishdan qutqazar va eri «tovon» to'laganidan keyin, bu ablahning qo'lidan qutulib ketish ham mumkin bo'lar edi.

Missis Ueldon xuddi shu masala ustida o'ylab ketdi. Negoroning taklifini ana shuning uchun rad qildi. Negoro yo'lga tayyorgarlik ko'rish uchun o'ziga ham birmuncha vaqt kerak bo'lganidan, o'ylab olish uchun unga ham bir haftalik muhlat berganini missis Ueldon tushundi.

— Nahotki u meni Jekdan ajratmoqchi bo'lsay? — deb shivirladi missis Ueldon.

Xuddi shu payt uyga chopganicha Jek kirib keldi. Onasi, go'yo Negoro bolasini uning qo'lidan tortib olishga tayyor turganday, Jekni qo'lga olib, bag'riga bosdi.

— Oyi, xafamisan? — deb so'radi bola.

— Yo'q, o'g'lim, yo'q! — deb javob qaytardi missis Ueldon. — Men dadangni o'ylayapman. Dadangni sog'indingmi?

— Juda sog'indim, oyi! Dadam bu yerga kelmikan?

— Yo'q... yo'q! Bu yerga kela ko'rmasin!

— Bo'lmasam, o'zimiz boramizmi?

— Ha, Jek!

— Dik ham boradimi? Gerkules-chi? Tom bobo ham boradimi?

— Ha... ha...

Missis Ueldon ko'z yoshlarini yashirish uchun boshini egdi.

— Dadamdan xat keldimi, oyi? — deb so'radi Jek.

— Yo'q, jonim.

— Bo'lmasa o'zing xat yozmoqchimisan?

— Balki... yozarman... — dedi onasi.

Jek onasining yuragini ezayotganini bilmas edi. Bu so'roqni to'xtatish uchun onasi uni cho'pillatib o'pdi.

Shuni ham aytish kerakki, missis Ueldonda kutilmaganda bir umid tug'ilib qoldi. Agar bu umid yuzaga chiqsa, bu ishga erini ham aralash-tirmasdan, Negoroning roziligiga ham qaramasdan, ozodlikka chiqish mumkin edi. Bu umid birovdan ittifoqo eshitib qolingani gaplardan keyin paydo bo'ldi.

Negoro bergan muddat tugashiga bir kun qoldi deganda Alvets ujijilik bir metis savdogar bilan missis Ueldon turgan uy yonidagi bog'da suhbatlashib qoldi. Ular qul savdosi to'g'risidagina gaplashdilar. Ular o'z ishlari haqida gaplashib turib, kelgusi ahvollariga achinishdilar.

Xoze-Antonio Alvets, ko'pgina sayyohlarning Afrikaning ichki viloyatlarida olib borgan ilmiy tekshirish ishlari va geografiya sohasidagi kashfiyotlari qul savdosiga qattiq zarar yetkazyapti, dedi. Uning suhbatdoshi bu fikrni to'la ravishda ma'qulladi va sayyohlar bilan olimlarning barisini o'qqa tutish kerak, deb qo'shimcha qildi.

Ko'p olimlarni shunday qarshi olishdi ham. Ammo suhbatdoshlar shunga xafa edilarki, bitta sayyoh o'ldirilsa, darrov uning o'rniga boshqa bir necha sayyohlar qolar edi. Keyin Alvetsning aytishicha, bu odamlar o'z vatanlariga borib bu yerdagi dahshatli qul savdosi to'g'risida juda mubolag'ali gaplar tarqatardilar va usiz ham sharmandasi chiqayotgan bu ishga katta zarar yetkazardilar.

Metis savdogar uning gapini ma'qullab, ayniqsa Nyangve, Ujiji va Zanzibar bozorlarida omad qochdi dedi; chunki bu joylarga ketma-ket Spik, Grant, Livingston hamda Stenli degan sayyohlar kelib turdilar. Bir olomon yov-al Afrikaning ichkari viloyatlariga tez orada butun Angliya bilan Amerika ko'chib kelmasa edi!

Alvets hamrohining fikriga qo'shilib, bu jihatdan G'arbiy Afrika yaxshi ekan, dedi. U yoqqa bu shaytonlar hali juda kam bormoqdalar. Ammo bu

ofat G'arbiy Afrikaga ham tarqalmoqda. Kazondeda hozircha tinch bo'lsa-da, lekin Alvetsning savdo bo'limlari bor bo'lgan Kassango bilan Vixe bevosita xavf ostida qoldi, dedi.

Qul savdogarlarining xavotir olishlari ham to'g'ri edi. Ma'lumki, mana shu aytilgan voqealardan bir necha yil keyinroq janubda Kameron va shimolda Stenli G'arbiy Afrikaning kam tekshirilgan bu viloyatlariga haqiqatan ham yetib borishdi. Kameron bilan Stenli bu yerdagi qul savdogarlarining ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan shafqatsizliklarini hamda bu razil kasbga yo'l qo'yadigan ba'zi bir yevropalik amaldorlarning sotqinliklarini butun dunyo oldida fosh qildilar.

Alvets bilan ujijilik metis Stenli Kameronning kimligini hali bilmas edilar. Ammo ular doktor Livingstonni yaxsha bilar edilar. Ularning Livingston to'g'risida aytganlari missis Ueldonni juda hovliqtirib qo'ydi va u Negoroning talabiga bo'sh kelmaslikka qaror berdi: chunki Livingston soqchilari bilan yaqin kunlarda Kazondaga kelib qolishi ehtimol edi.

Bu sayyoh Afrikada juda e'tiborli kishi edi. Angolaning hukumat amaldorlari unga har tomonlama yordam qilar edilar. Shuning uchun ham missis Ueldon agar Livingston bizni o'z himoyasi ostiga olsa, Negoro bilan Alvetsning qarshi turishiga qaramasdan, o'zim ham, yo'ldoshlarim ham ozodlikka chiqar edik, deb umid qildi.

Devid Livingston 1813-yil 13-martda chakana choyfurush oilasida tug'ildi. Uning vatani Angliyaning Lenari viloyatidagi Bleyntayr qishlog'i edi. Livingston vrach va missioner nomini olib, Londondagi missionerlar jamiyatida bir oz ishlaganidan keyin, 1840-yilda Kapshtadt shahriga keldi. U Janubiy Afrikaga ketayotgan missionerlar to'dasining boshlig'i Moffatga qo'shilishi lozim edi.

Livingston bechuan degan qabila yashaydigan

viloyatga jo'nab ketdi. U bu viloyatni tekshirgan eng birinchi oq badan kishi edi. Keyin Livingston Kurumanga qaytib kelib, Moffatning qiziga uylandi-da, 1843-yilda Mabotsa vodiysida missionerlar jamiyatini uyushtirdi.

To'rt yildan keyin Livingston Kurumandan ikki yuz yigirma mil naridagi Bechuanalende viloyatidagi Kolobeng degan joyga ko'chib bordi.

Yana ikki yildan keyin, ya'ni 1849-yilda, Livingston, xotini, uch bolasi, Osuell bilan Merrey degan ikkita o'rtog'i bilan Kolobengdan safarga chiqdi. O'sha yilning 1-avgustida Ngami ko'lini kashf etib, Suga daryosi oqimi bilan Kolobengga qaytib keldi.

Bu sayohat vaqtida yovvoyilar unga dushman ko'zi bilan qaraganidan, Livingston Ngami ko'lining naryog'idagi o'lkani tekshira olmagan edi. O'sha o'lkaga boraman deb ikkinchi marta urinishi ham foydasiz bo'ldi. Ammo uchinchi urinishi muvaffaqiyatli chiqdi. Shundan keyin u shimol tomonga yangi sayohat qildi. Bu sayohatga Livingstonning butun oilasi va Osuell degan o'rtog'i ham qatnashdi. Sayyohlar Zambezi daryosining Xobe degan tarmog'i oqimi bilan yurib borib, makolollar qabilasiga kelishdi. Yo'l juda ham og'ir edi. Ovqat bilan suv yetishmaganidan Livingstonning bolalari o'lib ketishiga sal qoldi. Shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, u 1851-yil iyun oyining oxirida Zambezi daryosiga qaytib keldi.

Shundan keyin Livingston bola-chaqasini vatanga, Angliyaga jo'natish uchun Kapshtadtga qaytib keldi.

Dovyurak sayyoh qit'aning ichkarisiga yangi xatarli sayohat qilmoqchi edi, shuning uchun oilasini bunday xavf-xatarliklarga duchor qilishni istamadi.

Bu safar sayohatchining yo'li Kapshtadtдан San-Paola de Loandaga, ya'ni Afrikani janubdan g'arbga kesib o'tar edi.

Livingston bir necha yerliklarni olib, 1852-yil 3-iyunda yo'lga chiqdi. U Kurumandan g'arbga tomon, Kalaxari sahrosi bo'ylab jo'nadi. 31-dekabrda Litubarubaga yetib keldi. Bechuan qabilasining yerlarini golland mustamlakachilarining avlodlaridan bo'lgan burlar butunlay vayron qilib tashlabdi, chunki Kaplend inglizlar bosib olmasdan ilgari o'sha burlarga qarashli edi.

Livingston 1853-yil 15-yanvarda Litubarubadan safarga chiqdi. U bamanguat qabilasi yerlarining markaziga yetib bordi, 23-may kuni Linyantga yetib keldi. Bu yerdagi makolol qabilasining yosh xoni Sekeletu uni juda izzat-hurmat bilan kutib oldi.

Bu yerda Livingstonni qattiq bezgak tutib qoldi. Ammo sayyoh kasal bo'lishiga qaramasdan, bu o'lkaning turmush va axloq tomonlarini tekshirdi. U, qul savdosi Afrikani butunlay xonavayron qilibdi, degan xulosaga keldi.

Bir oydan keyin, Xobe daryosi bo'yidan yurib, bu daryoning Zambeziga quyiladigan joyiga keldi, so'ngra Nalela Katonga Libonta shaharchalarida bo'ldi va axiri Zambezi bilan Liba daryolarining qo'shiladigan joyiga yetib keldi. Bu yerda Livingston, Liba daryosining yuqori oqimi bilan borib, Portugaliya mustamlakasining g'arbiy chekkasiga sayohat qilmoqchi bo'ldi. Shundan keyin u o'sha sayohatga yaxshilab tayyorgarlik ko'rish uchun to'qqiz hafta deganda yana Linyantiga qaytib keldi.

1853-yil 11-noyabr kuni Livingston yigirma yettita makolollardan iborat otryad bilan Linyantidan safarga jo'nadi. 27-dekabrda u Liba daryosining mansabiga yetdi. Bu yerdan daryoning oqimiga qarshi yurib, balonda degan qabila yashaydigan yerga, ya'ni sharq tomondan kelayotgan Iakondo daryosining Libaga quyiladigan joyiga yetib keldi.

Livingston bu viloyatga kelgan eng birinchi oq badan kishi edi.

1854-yil 14-yanvar kuni Livingston balonda qabilasining eng qudratli Shinte degan xonining

saroyiga keldi. Bu yerda yaxshi kutib olinganligiga qaramasdan, hormas-tolmas sayyoh bir necha kundan keyin Liba daryosining narigi tomoniga o'tib, o'sha oyning 26-kunida Katema xonning yeriga yetib keldi. Bu yerda ham uni yaxshi kutib oldilar. Ammo Livingston otryadi yana yo'lga chiqib, 20-fevral kuni Dilolo ko'lining labiga kelib yetdi.

Bu yerda ishlar chappasiga keta boshladi. Yo'l yurib bo'lmas darajada yomonlashib ketdi, yerliklar dushman kayfiyatda edilar, o'z otryadidagi yerliklar ham fitna qo'zg'ay boshladilar. Sayyoh o'lim xavfi ostida qoldi. G'ayratsizroq odam bo'lganida bu qiyinchiliklarga toqat qilolmasdi. Ammo doktor Livingston bu qiyinchiliklarga chidadi, 4-aprelda u Kuango daryosiga yetib oldi. Sersuv bu daryo Portugaliya yerlarining chegarasidan shimolga oqib borib, Zair (ya'ni Kongo) daryosiga quyiladi.

Olti kundan keyin Livingston Kasangoga yetib borib, 31-mayda san-Paola de Loandaga keldi. Afrikani birinchi marta janubdan g'arbga kesib o'tgan va ikki yil davom qilgan bu sayoxat ana shu xilda tugadi.

Shu yilning 24-sentabrida Livingston San-Paola de Loandadan jo'nab ketdi. U, Dik Send bilan uning hamrohlarini xunuk qarshilagan Kuanza daryosining o'ng yoqasidan yurib, uning Lomba daryosiga qo'shiladigan joyiga yetib bordi. Yo'lda u bir qancha qul karvonlarini uchratib, ikkinchi martaba Kasangoga bordi. Livingston 20-fevralda bu yerdan yo'lga chiqib, Kuango daryosini kechib o'tdi va so'ngra Zambezi daryosi bo'yiga chiqdi. 8-iyun kuni u yana Dilolo ko'li bo'yiga keldi, 1855-yil 3-noyabrda yana sayohatga jo'nash uchun Zambezi daryosining oqimi bilan Linyantiga qaytib keldi.

Uning bu yangi sayohati tarixda birinchi marta Markaziy Afrikani g'arbdan sharqqa kesib chiqishga mo'ljallangan edi.

Devid Livingston mashhur Viktoriya shalolasiga borib kelganidan keyin, Zambezidan shimoli-sharq tomonga qarab jo'nab ketdi. Qisqacha qilib aytganda, bu sayohatga u quyidagi joylardan o'tdi: Bakot viloyati orqali yurib, qudratli mahalliy xon Semalembueni ziyorat qildi; Kafuz daryosini kechdi, yana Zambezi daryosiga keldi. Mburuma xonni ziyorat qildi, Zumbo degan qadimgi portugal shaharining xarobalarini borib ko'rdi, 1856-yil 17-yanvarda o'sha mahalda portugaliyaliklar bilan urushayotgan Mpend xonni ziyorat qildi va nihoyat, 2-mart kuni Zambezi daryosi bo'yidagi Tete degan joyga keldi.

22-aprelda Livingston bir zamonlar o'zining boyligi bilan shuhrat topgan bu qishloqdan Zambezining etak tomoniga jo'nab ketdi va 20-may kuni, ya'ni Kapshtadtdan safarga chiqqaniga to'rt yil bo'ldi deganda Kelimanega yetib keldi.

12-iyulda u kemaga o'tirib, Morisga jo'nadi va o'n olti yil sayohat qilib yurganidan keyin Angliyaga qaytib keldi.

Bu yerda mashhur sayyohni tantana bilan kutib olishdi, Parij Geografiya jamiyati unga mukofot berdi, London Geografiya jamiyati uni katta medal bilan mukofotladi. Uning o'rnida har qanday kishi bo'lganda ham, endi dam olib yotadigan vaqt keldi degan bo'lardi, ammo Livingston boshqacha fikrda edi. 1858-yil 1-martda u yana Afrikaga jo'nab ketdi va may oyida Mozambik qirg'og'iga kelib tushdi. U Zambezi havzasini tekshirishga kirishmoqchi edi.

Livingstonning bu sayohatida Charlz degan ukasi, kapitan Bedindfild, Tornton, Beyns va doktor Kirk bilan doktor Meller ham birga bo'ldilar.

Ammo ularning bir nechasiga o'z vatanlariga qaytish nasib bo'lmadi.

«Ma-Robert» degan kichkina paroxod sayohatchilarni ulug' daryoning oqimiga qarshi olib ketdi. Ular 8-sentabrda Tetega yetib kelishdi. Sayohatning dastlabki yillarida quyidagi voqealar

bo'lib o'tdi: 1859-yilning yanvar oyida Zambezi-ning janubiy qismi bilan uning chap tarmog'i bo'lgan Shire daryosi tekshirildi; shu yilning aprel oyida Shirua ko'liga sayohat qilindi; Manganya viloyati tekshirildi va Nyassa ko'li kashf etildi; 10-sentabrda Viktoriya shalolasiga jo'naldi; 1861-yilning mart oyida «Pioner» paroxodida sayohat qilib, Rovuma daryosi tekshirildi; o'sha yilning sentyabr oyida Nyassa ko'liga qaytib kelindi; 1862-yilning 30-yanvarida «Ledi Nyassa» nomli ikkinchi paroxod keldi, bu paroxodda missis Livingston kelgan edi, lekin missis Livingston 27-aprelda erining qo'lida vafot etdi.

O'sha yilning may oyida Livingston Rovuma daryosini ikkinchi marta tekshirishga harakat qilib ko'rdi; noyabr oyining oxirida Zambeziga kelib, Shire daryosining oqimiga qarshi chiqib bordi. 1863-yilning aprel oyida Tornton degan yo'ldoshi vafot etdi. Livingston kasaldan juda darmonsiz bo'lib qolgan ukasi Charlz bilan doktor Kirkni Yevropaga qaytarib yubordi, o'zi esa bu ko'lning gidrogeografiya tasvirini tamomlash uchun 10-noyabrda uchinchi marta Nyassa ko'liga keldi. Uch oydan keyin u yana Zambezi mansabiga qaytib kelib, undan 1864-yil 10-iyulda, ya'ni besh yillik safardan keyin Londonga qaytib keldi. U yerda u «Zambezi va uning tarmoqlari» degan asarini bostirib chiqazdi.

Livingston 1866-yil 28-yanvarda yana Zanzibarga kelib, o'zining to'rtinchi sayohatini boshladi.

Zanzibarda Livingston qul savdosining mamalakatga qanday katta zarar yetkazayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib ishondi. 8-avgustda u Nyassa ko'li bo'yidagi Mokalaoze shaharchasiga keldi. Bu safar uning soqchilari bir necha nafar sipohiylar¹

¹ Sipohiylar — Hindistondagi ingliz qo'shinining yollanma soldatlari.

bilan negrlardan iborat edi. Olti hafta o'tgandan keyin soqchilarining aksari qochib ketdi va Zanzibarga qaytib kelib, Livingston o'ldi, degan yolg'on xabar tarqatdilar.

Ammo dovyurak sayyoh shunda ham bo'sh kelmadi: u hech narsaga parvo qilmasdan, Nyassa bilan Tanganayka ko'llari orasidagi yerlarni tekshirib chiqishga qaror berdi. Livingston bir necha yerliklar bilan 10-dekabr kuni Loangva daryosini kechib o'tib, 1867-yil 2-aprelda Lemmba ko'lini kashf etdi. Shu yerda Livingston kasal bo'lib qoldi. U bir oy bo'yi o'lim to'shagida yotdi. Biroq kasalidan tuzalib ketmasdanoq, 30-avgustda Maero ko'liga kelib, uning shimoliy qirg'og'ini tekshirib chiqdi; u 21-noyabrda Kazembe shahriga keldi. Livingston bu yerda qirq kun dam olib, Maero ko'liga ikki marta borib keldi.

Livingston Kazembedan shimol tomonga jo'naydi. U Tanganayka ko'li bo'yidagi Ujiji degan kichkina shaharchaga bormoqchi edi. Ammo daryolar toshib, yo'l to'siladi. Livingstonning yo'ldoshlari uni tashlab ketadi va u Kazembega qaytib keladi. U yerdan janub tomonga jo'nab, olti haftadan keyin, 6-iyunda u Bangveolo ko'liga yetib keladi. Bu yerda ikki oy turadi. 9-avgustda Tanganayka ko'liga borish uchun yana yo'lga chiqadi.

Bu shunday azob-uqubatli sayohat bo'ladiki, asti qo'ying! 1869-yil yanvar oyida bu qahramon sayyoh juda darmonsiz bo'lib qolganligidan, uni qo'lda ko'tarib yuradilar. Axiri kelib, fevral oyida Tanganayka ko'lini ko'radi. Ujijida Livingston, Kalkuttadan unga sharqiy jamiyat yuborgan posilkani oladi.

Endi Livingstonning ko'nglida Tanganayka ko'lidan shimolga yurib borib, Nil daryosining boshini topishdan iborat yagona maqsad qoladi. 21-sentabrda u Lualaba daryosining yoqasidagi Bambara degan joyda bo'ldi. Keyinchalik Stenli-

ning aniqlashicha, Lualaba daryosi Kongo daryosining pastki oqimi ekan. Mamogela degan joyda Livingston yana holdan toyib, sakson kun kasal bo'lib yotdi. Bu paytda uning uchtagina xizmatkori qolgan edi. Axiri u 1871-yil 21-iyulda qaytib, Tanganaykaga jo'naydi. 23-oktabrda Ujijiga yetib keladi. Kasallik va chekkan azoblaridan u qoq suyak bo'lib qolgan edi.

Uzoq vaqtgacha Livingstondan hech qanday darak bo'lmadi. Yevropada uni o'lgan deb hisoblashgan bo'lsa kerak. Shuning uchun u hech qanday yordamga umid qilmas edi.

Livingston Ujijiga qaytib kelgach, o'n bir kun o'tgandan keyin ko'ldan chorak mil narida miltiq ovozlari eshitildi. Livingston o'z chaylasidan tashqariga chiqdi. Qandaydir bir oq badan kishi uning oldiga kelib:

— Siz doktor Livingston bo'lasiz-a? — deb so'radi.

— Ha, — deb javob qaytardi sayyoh.

Ular qattiq qo'l qisishib ko'rishdilar.

— Sizni topganim uchun juda xursandman.

— Sizni ko'rganimga men ham juda xursandman, — dedi Livingston.

Bu kelgan kishi amerikalik Stenli edi. U «Nyu-York Gerald» gazetasining muxbiri ekan, gazeta muharriri uni Devid Livingstonni qidirish uchun Afrikaga yuboribdi.

Stenli Bombeyda kemaga o'tirib, Zanzibar qirg'og'iga jo'nab ketadi. Bu yerdan to'ppa-to'g'ri Ujijiga yo'l oladi.

Livingston bilan Stenli qayiqqa o'tirib Magala burniga kelib, astoydil tekshirgandan keyin, Lualaba daryosining bir tarmog'i Tanganayka ko'liga quyilar ekan, degan fikrga kelishdi. (Bir necha yildan keyin Kameron bilan Stenli bu fikrning to'g'riligiga ishonishdi.) 12-dekabrda ular Ujijiga qaytib kelishdi.

Stenli vataniga jo'nashga qaror berdi.

Livingston bilan ikkovi sakkiz kun suvda yurgandan keyin, 27-dekabrda Urimbaga va 23-fevralda Kuixaraga yetib kelishdi.

12-mart — xayrlashish kuni edi.

— Siz mardona ish qildingiz, — dedi Livingston Stenliga, — bu ishni har kim ham bajaravermaydi. Sizdan cheksiz minnatdorman.

— Sizni vataningizda sog'-salomat ko'rishga ishonaman, — deb javob qaytardi Stenli uning qo'lini qattiq qisib: — Xayr!

— Oq yo'l, — dedi Livingston.

Stenli jo'nab ketdi va 1872-yil 12-iyun kuni Fransiyaning Marsel shahriga yetib keldi.

Livingston tekshirishlarini davom qildiraverdi. U Kuixarada besh oy dam olib, 2-avgustda Tanganaykaning janubiy qirg'og'iga jo'nadi. Bu safar uni Suzi, Shuma va Amoda degan uchta qora badan xizmatkori, Stenli uning ixtiyoriga qoldirib ketgan qirq oltita yerliklar va Yakov Uenrayt degan kishi kuzatib bordi.

Bir oydan keyin karvon Mura degan joyga yetib keldi. Yo'lda doim qattiq qurg'oqchilikdan keyin chaqmoq chaqib, momaqaldiroq guldurab turdi va keyin yog'ingarchilik boshlandi. Yuk ortilgan hayvonlarni setse pashshasi chaqaverib, halok qildi. Yerlik aholi sayohatchilarga dushman ko'zi bilan qarar edi. Shunga qaramasdan Livingstonning karvoni 1873-yil 23-yanvarda Chitunkuz degan joyga yetib keldi. Sayyoh — Bangveolo ko'lining sharq tomonidan o'tib, 27-aprel kuni Chitambo qishlog'iga keldi.

Bu yerda bir necha qul savdogarlari Livingstonni ko'rdilar. Ular bu to'g'rida Alvets bilan uning ujijilik hamrohiga xabar qildilar. Livingstonning Tanganayka ko'lining janubini tekshirib bo'lgandan keyin g'arb tomonga, Kazonde va keyin Angolaga jo'nashi ehtimol deyishga hamma asoslar bor edi.

Missis Ueldon ulug' sayyoh yaqinda kelib qoladi,

deyishga to'la ravishda haqli edi, chunki uni Bangveolo ko'lining janubida ko'rib edik, deganlariga endi ikki oy bo'lgan edi.

Ammo, 13-iyun kuni, ya'ni Negoro o'ziga yuz ming dollar daromad beradigan xatni olaman deb kelishidan bir kun oldin, Kazondega Alvets va boshqa qul savdogarlari uchun zo'r shodlik xabari kelib qoldi.

1873-yil 1-may sahar paytida doktor Devid Livingston vafot etgan edi!

Afsuski, bu xabar chin edi. Livingstonning karvoni Chitambo qishlog'igacha yetib kelgan edi. Sayyohni zambilda olib kelishibdi. 30-aprelga o'tar kechasi u qattiq og'riqdan ingrab, keyin hushidan ketdi.

Livingston bir soatdan keyin o'ziga kelib, Suzi degan xizmatkorini chaqirib, unga dori-darmon olib kelishni buyuribdi. Keyin u asta shivirlab:

— Yaxshi! Keta ber endi! — debdi.

Ertalab soat to'rtlarda Suzi bilan soqchilardan yana besh kishi sayyohning chaylasiga kirishibdi.

Devid Livingston karavoti yonida tiz cho'kib o'tirgan ekan. Suzi uning betini ushlab ko'rsa, muzdek ekan. Devid Livingston o'lgan edi.

Sayyohning sodiq xizmatkorlari uning jasadini dengiz qirg'og'iga olib kelishdi. Ular uzoq hamda og'ir yo'l yurishga to'g'ri kelishiga qaramasdan, o'n oydan keyin uning jasadini Zanzibarga olib kelishadi.

1874-yil 12-aprel kuni Livingston Angliyaning boshqa ulug' odamlari qatori Vestminster abbatligidagi go'ristonga dafn etildi.

O' n b e s h i n c h i b o b

QO'NG'IZGA ERGASHIB

Suvga cho'kayotgan odam somon parchaga ham yopishadi. O'limga hukm qilingan kishining jindaklari bo'lsa-da qutulish umidi bo'ladi.

Missis Ueldon ham xuddi shunday ahvolda edi. Doktor Livingstonning Bangveolo ko'li bo'yidagi kichkina bir negrlar qishlog'ida vafot etgani to'g'risidagi xabarni Alvetsning og'zidan o'z qulog'i bilan eshitganidan keyin bechora ayolning qayg'u-hasratini tasavvur qilish ham qiyin edi. U o'zining birdaniga yolg'iz, baxtsiz bir ahvolda qolganini fahmladi. Uni madaniy odam bilan bog'lab tugan ip to'satdan uzilib qoldi. Qutqazib oladigan ilinji qo'ldan ketdi, bor umidi kesildi... Tom bilan uning sheriklaini Kazondedan Katta ko'llar tomoniga xaydab ketishdi. Gerkulesdan avvalgiday hech qanday darak yo'q. Missis Ueldon o'ziga hech kim yordamga kelmasligini bilar edi. Ishning yaxshilik bilan bitishini ta'minlydigan tuzatishlar kirgizib, Negoroning taklifini qabul etishga to'g'ri kelardi.

14-iyunda, ya'ni tayinlangan kunda, Negoro javob olish uchun missis Ueldon oldiga keldi.

Portugaliyalik o'zini ishbilarmon kishiday tutardi. Dastlab u haqni tayinlangan miqdordan bir tiyin ham kamaytirmayman, dedi. Ammo missis Ueldon ham xiylagina ishbilarmonlik ko'rsatdi. U quyidagicha javob qaytardi:

— Agar ish bitsin desangiz, to'g'ri kelmaydigan shartlarni qo'ymasligingiz kerak. Men siz talab qilgan tovonga roziman, lekin erimning bu mamlakatga kelmasligini shart qilib qo'yaman. O'lsam ham erimning bu yerga kelishiga rozi bo'lmayman.

Bir oz ikkilanib turgandan keyin Negoro missis Ueldonning shartlarini qabul qildi. Bu shart-

lar quyidagicha edi; Jems Ueldon Afrikaning ichkarisiga xatarli safar qilmaydi. Jems Ueldon qul savdogalarining kemalari qatnab turadigan Angolaning janubidagi kichkinagina Mosamedish portiga kelishi kerak. Negoro bu portni yaxshi biladi. U mister Ueldonni o'sha yerga olib keladi. Alvetsning agentlari missis Ueldon bilan Jekni va Benedikt tog'ani belgilangan vaqtda o'sha Mosamedish portiga olib borishadi. Mister Ueldon «tovon»ni to'lagandan keyin asirlar ozod qilinadi, mister Ueldon bilan «halol do'stlik» vazifasini bajargan Negoro esa ularning ko'ziga ko'rinmay g'oyib bo'ladi.

Mosamedish bilan Kazonde o'rtasidagi masofani bosib o'tishdan missis Ueldon xavotir olmas edi. Agar bu olti yuz millik yo'l xuddi Kuanzadan Kazondega kelgandagi singari o'tilsa, ular faqat charchaydi, xolos. Shu bilan birga «tovon»dan o'z hissasini oladigan Alvets ham asirlarni u yerga eson-omon yetkazib berishga harakat qiladi.

Missis Ueldon Negoro bilan hamma to'g'rida bir qarorga kelgach, eriga xat yozib berdi. Negoro o'zini missis Ueldonning bir amallab asirlikdan qochib ketgan sodiq xizmatkori qilib ko'rsatishi lozim edi. Albatta, Jems Ueldon xatni olgan zamoni Negoro bilan Mosamedishga jo'naydi.

Negoro xatni olib, ertasiga yigirmata negr soqchi bilan shimol tomonga qarab jo'nab ketdi. Nega u shimol yoqqa ketdiykan? Yoki u Kongo daryosining etak tomoniga qatnaydigan birorta kemaga o'tirib jo'namoqchi bo'ldimikan-a? U ilgari portugaliyalilar qo'liga tushgani sababidan, portugal shaharlari orqali yurmaslikka ahd qilganmikan? Shunday bo'lishi ham mumkin. Nima bo'lsayam u Alvetsga shunday deb tushuntirib ketdi.

Endi missis Ueldonga Negoroning qaytib kelishini sabr qilib kutishdan boshqa iloj qolmadi.

Uning San-Fransiskoga borib kelishi uchun uchto'rt oy vaqt kerak bo'lardi.

Missis Ueldon Alvetsning qo'rg'onidan ketishni o'ylamas edi. Bu yerda o'zi, o'g'li va Benedikt tog'a anchagina xavfsiz yashay oladilar. Jonkuyar Halimaning g'amxo'rliqi uning asirlik holatini ancha yengillashtirardi. Undan keyin, qul savdogari asirlarni o'z qo'rg'onidan chiqarib yubormasligi ham bor. Alvets «tovon»dan ko'p daromad olishni o'ylab, asirlarni qattiq nazorat qilib turishni buyurdi. U bu masalaga shunchalik katta ahamiyat berdiki, hatto Vixe bilan Kassangodagi qo'rg'onlariga borishni ham bir yoqqa yig'ishtirib qo'ydi. Tinch yashovchi qishloqlarga bosqinchilik qilish uchun yuborilayotgan yangi to'daga uning o'rniga Koimbra bosh bo'lib ketdi.

Negoro safarga jo'nashi oldidan missis Ueldon to'g'risida Alvetsga ancha o'git-nasihatlar qildi. U missis Ueldonni juda hushyor bo'lib saqlashni maslahat berdi, chunki Gerkulesga nima bo'lgani hali hozircha ma'lum emas edi. Basharti, pahlavon negr xatarli o'rmonlarda halok bo'lmagan bo'lsa, u hech shak-shubhasiz, asirlarni Alvetning qo'ldan qutqazib olishga harakat qilib ko'radi.

Qul savdogari katta daromadni qo'ldan boy bermaslik uchun nima qilish kerakligini juda yaxshi tushunib oldi. U o'zimga qanday ehtiyot bo'lsam, missis Ueldonni ham xuddi shunday ehtiyot qilib asrayman, dedi.

Asirlikda kun o'tkazish doim bir xilda va juda ko'ngilsiz edi. Qo'rg'ondagi hayot oddiy negr shahridagi hayotdan hech bir farq qilmas edi. Alvets o'z qo'rg'onida Kazonde aholisining urfodatlariga qattiq amal qilar edi. Shahardagi ayollar nima ish qilsa, qo'rg'ondagi ayollar ham shu ishlarni bajarar edi. Ular no'xat bilan manioka ekadilar, qo'l tegirmonda jo'xori maydalaydilar, zaytun daraxtiga o'xshash mpafu daraxtining mevasidan yog' chiqazadilar, ovqat pishiradilar, banan mevasi

bilan asaldan pivo va o'tkir vino tayyorlaydilar, ip eshadilar, yigiradilar, to'qiydilar, uy hayvonlari bilan parrandalarni boqadilar — qisqasi, ro'zg'orning hamma ishlarini qiladilar.

Erkaklar esa tamaki yoki af'yun chekish bilan ovora. Gohida ular, hafsala kelganda fil oviga chiqadilar yoki tinch yashovchi aholiga bosqinchilik qilishga boradilar.

Missis Ueldon Alvetsning qo'rg'onini aylanib yurganda, ba'zan yerlik ayollarning ishlayotgan joyiga kelib, ularning doim bir xil harakat qilayotgan qo'llarini tomosha qilib turardi. Negr ayollar unga xo'mrayib qaraydilar. Ular missis Ueldonni asir ekanini bilsalar ham, oq badan bo'lgani uchun baribir yomon ko'rar edilar. Faqat Halimagina boshqacha edi. Missis Ueldon yerlik tilning bir qancha so'zlarini o'rganib, Halima bilan bir oz gaplashadigan bo'lib qoldi.

Odatda kichkina Jek onasi bilan qo'rg'onda tomosha qilib yurar edi. Qo'rg'onning bog'ida ancha qiziq narsalar bor edi: baland-baland baobab daraxtlari uchida xuddi qora kamzul, oq shim kiygan beso'naqay qari kal chinovniklarga o'xshash gerdaygan laylaklarning novdadan o'rib to'qilgan uyalari ko'rinib turardi. Daraxtlarning shoxlarida qip-qizil ko'krakli, malla-bo'z patli kichkinagina qushchalar o'tiribdi. Bular qush uyasi to'quvchi «ustalar» edi. Yerda esa tul qolgan yakka qushlar sakrab-sakrab, yerda qolgan donlar bilan hasharotlarni cho'qib yuribdilar. Kalao degan baqiroq qushlar doim qattiq-qattiq chirillashgani chirillashgan. Yerliklar «Rous» deb ataydigan qizil dumli, ochiq kul rang to'ti vaysagani vaysagan. O'zi pashsha qushga o'xshash, lekin qizil tumshuqli drugo degan qushlar bir shoxdan ikkinchisiga pirillab uchib yurardilar. Hamma joyda kapalaklar uchib yuradi, ayniqsa qo'rg'onga qarashli yerlardan oqib o'tayotgan ariqlar bo'yidagi chakalakzor orasida kapalaklar ko'p edi. Ammo kapalaklar — Benedikt tog'a-

ning ishi edi. Jek ulardan zerikib qoldi. Bolasi tushmagur, qo'rg'ondan tashqari chiqish havasida edi. U xushchaqchaq do'sti Dik Sendni sog'ingan edi. Ular ikkovi «Piligrim»ning ustunlariga chiqib o'ynardilar-a! Dik hozir shu yerda bo'lsa, Jek u bilan eng baland baobab daraxtining tepasiga chiqa olardi!

Benedikt tog'aning esa atrofida hasharotlar bo'lsa bas, ishi joyida bo'lar edi. U qo'rg'on bog'idan bitta zig'irday asalari bilan kakku qushga o'xshab o'z tuxumchalarini boshqa qushlarning uyasiga qo'yib ketadigan tekinxo'r arini topib oldi. Hasharotshunos olim ko'zoynagi bilan katta qilib ko'rsatadigan oynasi bo'lmasa ham qo'lidan kelgan-cha ularni tekshirib chiqdi.

Qo'rg'onda, ayniqsa ariqlar bo'yida chivindan ko'pi yo'q edi. Bir buni bechora Benedikt tog'ani rosa chivin taladi. O'zini bu jirkanch hasharotlarga chaqdirib, shunchalik moxov qildirgani uchun uni missis Ueldon koyiganda, u badanini qashib-qashib, qonini chiqarib:

— Nima qilay, jiyanim Ueldon, ularning odati shunaqa-da. Buning uchun ulardan xafa bo'lish yaramaydi! — dedi.

Kunlardan bir kuni, 17-iyulda Benedikt tog'a dunyodagi eng baxtli entomologlardan bo'lib qolishiga sal qoldi.

Natijasi hech bir kutilmagan voqeani tug'dirgan bu hodisani birma-bir aytib bermasak bo'lmaydi.

Ertalab soat o'n birlar chamasi edi. Issiq oftobdan qochib qo'rg'ondagilar hammasi uy-uyiga kirib ketgandi. Kazonde ko'chalarida hech bir odam zoti ko'rinmasdi.

Missis Ueldon qattiq uxlab yotgan Jek yonida mudrab o'tiribdi.

Bu issiq mamlakatning olovday kuydirayotgan oftobi hatto Benedikt tog'ani ham navbatdagi sayr tomoshasiga chiqarmay qo'ydi. To'g'risini aytganda, u o'zini bu ishdan zo'rg'a tiyib qoldi,

chunki oftobning qizg'in paytida behisob ko'p hasharotlarning g'ong'illashiga toqat qilib bo'lmadi.

Shunday qilib, Benedikt tog'a o'z kulbasiga kirib joyida yotib edi. U endi mudray boshlagan ediki, allaqanday g'ong'illagan ovozni eshitib qoldi.

— Hasharot-ku! Oltioyoqlilardan-ku! — deb baqirib yubordi Benedikt tog'a.

Uyqusi birpasda qochib ketdi. Cho'zilib yotgan Benedikt tog'a darrov tikka turdi.

Shubhasiz, allaqanday hasharot g'ong'illayotgan edi.

Benedikt tog'a uzoqni ko'rolmasdi, biroq uning qulog'i shunday o'tkir ediki, ovoziga qarab, qanday hasharot g'ong'illayotganini bilar edi. Ammo u bunday g'ong'illashni sira eshitmagan edi.

«Bu qanaqangi oltioyoq bo'ldi ekan-a?» deb so'radi u o'z-o'zidan.

Undan keyin u bu ovozning qaerdan chiqayotganini toparmikanman, deb ko'z yugurtira boshladi. Benedikt tog'a entomolog bo'lganidan uning kulbasiga uchib kirib, g'ong'illagan hasharotning alohida bir yangi jonivor ekanini payqadi.

Benedikt tog'a bo'sag'ada turib, hasharotning qayerda g'ong'illayotganini diqqat bilan tinglay boshladi. Oftob nuri kam kirganidan, uning kulbasi qorong'iroq edi. Olim ko'p qidirganidan keyin, g'ong'illayotgan bir qora narsani payqadi. Ammo bu qora narsa olimdan anchagina uzoqda uchayotganidan, uni yaxshilab ko'rolmadi.

Benedikt tog'a nafasini ichiga yutib, jim bo'ldi. Bu hasharot uni qattiq chaqib olganda ham u jim turaverardi, chunki uning qochib ketishidan qo'rqardi.

Olimning jim turganidan xotirjam bo'lgan hasharot gir aylanib uchib yurgandan keyin, uning boshiga kelib qo'ndi. Benedikt tog'a shodligidan kulib yubordi. U yengil bir hasharotning soch oralarida yurganini sezib turar edi. U qo'lini

ko'tarib uni tutib olmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin o'zini tiyib, to'g'ri ish qildi.

«Yo'g'-e, — deb o'yladi Benedikt tog'a, — men uni ushlay olmay qolishim mumkin. Bu ham mayli-yu, uni mayib qilib qo'ysam, ish chatoq bo'ladi. Shoshmay-chi, pastroqqa tushib qolar axir. Chopib yurishini qarang-a! Oyoqchalari bilan miyamga bosyapti-ya! Bu jonivor anchagina katta hasharotga o'xshaydi. Zoraki burnimning uchiga kelib qolsa! Bir ko'zimni qisardim-da uning qay bir turkumga, qay bir oilaga, qay bir kenja oilaga, qay bir to'daga qarashli ekanini darrov bilib olardim-a!»

Benedikt tog'aning xayoli shunday edi. Ammo kichkina hasharot uning cho'zinchoq boshidan to cho'ziq burnigacha bo'lgan uzoq yo'lni yurishni xohlaydimi-yo'qmi — kim biladi deysiz? Hammadan yomoni oftobda uchib yurgan o'z og'aynilariga qo'shilish uchun uchib chiqib ketsa ishni pachava qiladi-da!

Benedikt tog'a ana shundan xavotir olib, qo'rqib ketdi. Entomolog hech qachon bunchalik hovliqqan emas edi. Hozirgacha olimlarga noma'lum bo'lgan oltioyoqli afrika hasharoti uning qoq miyasida o'tiribdi. Bu hasharot uning ko'ziga ikki-uch santimetrcha yaqinlashsagina uni ajrata olishi mumkin.

Jonivor olimning yovvoyi chakalakzorga o'xshash sochlari orasidan yurib kelib, peshanasidan qanshariga qarab pastga tusha boshladi. Benedikt tog'a zo'rg'a toqat qilib turibdi: tog'tepasida turgan bu hasharot tog' etagiga tusharmikan-a?

«Men bo'lganimda-ku, albatta tushardim-a!» deb o'yladi entomolog.

Benedikt tog'aning o'rnida boshqa odam bo'lganida bu xira hasharotni o'ldirish yoki haydab yuborish uchun allaqachon kafti bilan peshanasiga qarsillatib urgan bo'lardi. Bu hasharotning qitiqlashiga chidab turgan, uning chaqib

olishini to'zim bilan kutib turgan olimni baayni qahramon desa bo'ladi. Ko'kragini tulki kemi-rayotganda chidab turgan spartalik bilan laxcha cho'g'ni qo'lida ushlab turgan rumolik Benedikt tog'adan ham chidamli emas edilar. Bu entomolog olim o'sha ikki qahramonning naslidan bo'lsa kerak!

Hasharot esa olimning peshanasidan yurib kelib, qansharida dam oldi... Benedikt tog'a qattiq haya-jonga tushdi: hasharot yuqoriga chiqarmikan yoki burniga tusharmikan-a?

Hasharot pastga tusha boshladi. Benedikt tog'a uning oyoq bosishlarini sezib turdi. Jonivor chapga ham, o'ngga ham qayrilmadi. Lekin u hozir olimga juda zarur bo'lgan ko'zoynakning burun ustidagi izida bir oz to'xtalib turdi-da, keyin qoq burun uchiga kelib to'xtadi.

Hasharot yaxshi joyni topdi. Endi Benedikt tog'a ikki ko'zini baravar tikib, katta qilib ko'rsatadigan oynadan qaraganday, uni bemalol tomosha qiladi.

— Barakalla, — deb baqirib yubordi Benedikt tog'a, — bukri qo'ng'iz ekan-ku!

Tog'asi tushmagur qo'pol xato qildi: baqirmaslik kerak edi, buni ichida aytganida bo'lardi. Ammo biz bunday desak, entomologlar orasida eng havaskori bo'lgan Benedikt tog'adan juda ko'p narsa talab qilgan bo'lmaymiz-a? Burningiz uchida vizillovchilar naslidan bo'lgan keng qanotli bukri qo'ng'iz o'tirgan bo'lsa, shodligingizdan baqirib yubormasdan chidab tura olarmidingiz? Afrikaning faqat janubiy qismidagina bo'ladigan va eng yaxshi hasharotlar saqlanadigan muzeyxonalarda ham bo'lmaydigan, siyrak uchraydigan qo'ng'iz turganda-ya! Sevinchdan baqirib yubormay bo'ladimi, axir?

Balo ustiga qazo deganday, Benedikt tog'a baqirdigina emas, aksirib ham yubordi. Baqirib qo'ng'izni qo'rqitib yuborsa, aksirgandan keyin

burni silkinib ketdi... Benedikt tog'a qo'ng'izni ushlayman deb, tezda hovuchini yumdi-yu, ammo o'z burnini ushlab oldi, xolos! Qo'ng'iz uchib ketdi!

— Voy, la'nati-ey! — deb baqirib yubordi olim.

Olim darrov o'zini qo'lga olib, juda sovuqqonlik bilan astoydil ishga kirishdi.

Bukri qo'ng'izning faqat sakrab-sakrabgina ucha olishini Benedikt tog'a yaxshi bilar edi. Benedikt tog'a tiz cho'kdi-da, polda o'rmalab yura boshladi. Tezda u burnidan o'n dyuymcha naridagi quyosh shu'lasida g'izillab ketayotgan bir qora nuqtani ko'rib qoldi.

— Darrov ushlab olsam ezilib qolishi mumkin, — dedi o'z-o'ziga Benedikt tog'a. — Yo'g'-e! Bunday qilish yaramaydi! Ketidan boarveray-chi. Tabiiy sharoitda uning yurish-turishlarini tekshirib ko'ray-chi! Bir tomosha qilay-chi uni! Uni qachon bo'lsa ham ushlab olaveraman-ku.

Benedikt tog'a to'g'ri ish qilyaptimikan? Bu savolga javob berish ham qiyin: har holda Benedikt tog'a burnini yerga tekkizay-tekkizay deb, qo'ng'iz ketidan emaklab ketaverdi. Birpasdan keyin olim o'z kulbasidan tashqariga chiqib, qo'rg'onning panjarasi tomon yo'l oldi. Yana birpasdan keyin panjaraga yetdi.

Endi qo'ng'iz nima qilar ekan? O'ziga oshiq bo'lib ketidan quvlab yurgan olimni panjaraning berigi yonida qoldirib, o'zi narigi yoqqa oshib o'tib ketarmikan? Yo'q, bukri qo'ng'izning bundaqa odati yo'q; vizillovchi qo'ng'izlarning odatini Benedikt tog'a yaxshi bilar edi.

U panjaradan o'rmalab tez ketayotgan qora nuqtani ko'zdan qochirmay, kaltakesak singari uning ketidan sudralganicha ketaverdi.

Keng qilib kovlangan ko'rsichqon ini qo'ng'izning yo'lini to'sdi. Qo'ng'iz indamay teshik ichiga kirib ketdi. U endi qo'ldan ketdi deb Benedikt tog'aning kapalagi uchdi. Ammo u teshikning ikki futdan ham kengroq ekanini ko'rib hayron bo'ldi.

Bu g'alati yer osti yo'lidan olimday ozg'in kishining o'tib ketishi qiyin emas. Benedikt tog'a quvlashga berilib ketib, qo'rg'onning panjara devori ostida ekanligini sezmay qoldi. Bu teshik qo'rg'onidan tashqariga olib chiqadigan g'alati yo'l ekan. Yarim minutdan keyin Benedikt tog'a qo'rg'onidan ozodlikka chiqdi. Ammo butun eshush o'sha ajoyib hasharotda bo'lgan olim bunga hech e'tibor qilmadi.

Biroq bukri qo'ng'iz bu quvlashdan bezor bo'ldi shekilli, oxiri, qanotlarini yozib, pirillay boshladi. Benedikt tog'aning kapalagi uchib ketdi. U hasharotni ushlayman deb endi kaftini uzatgan edi, qo'ng'iz birdan vizillab uchib ketdi...

Bu Benedikt tog'aga juda alam qildi. Lekin qo'ng'iz uzoqqa uchmasligi kerak edi. Olim o'rnidan sakrab turdi-da, u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab, qo'lini oldinga uzatganicha uning ketidan chopdi.

Hasharot uning tepasida vizillar edi. Zig'irdek qop-qora nuqta kalabin tog'aning ko'ziga bir ko'rinar, bir yana yo'qolar edi. Benedikt tog'a, «charchaganidan keyin mening boshimga kelib qo'nadi», deb o'ylab turgan joyida qotib qoldi.

Ammo olimning baxtiga qarshi Kazondening shimol tomoniga qurilgan Alvetsning qo'rg'oni yonidan bir necha millarga cho'zilib ketadigan katta o'rmon boshlanar edi. Basharti, qo'ng'iz o'rmon ichiga kirib, shoxdan-shoxga qo'nib yuradigan bo'lsa, eng nodir hasharotdan ajralib qolishga to'g'ri kelardi.

Afsuski, aytgani keldi: bukri qo'ng'iz, osmonda vizillab-vizillab, yana yerga tushdi. Birdan Benedikt tog'aning ishi o'ngidan keldi: u hasharotning qayerga tushganini bilib, o'zini o'sha joyga ot-di. Ammo qo'ng'iz endi uchib ketmadi — sakrab-sakrab yerdan ketaverdi.

Tinkasi o'larday qurigan olim, qon chiqayotgan tizzalari va tirnalib ketgan qo'llarining achi-

shib og'irishiga ham qaramay, qo'ng'iz ketidan qolmay boraverdi. U goh o'ng tomonga, goh chap tomonga tashlanar, goh yerga yiqilar, goh qora nuqtani tutaman deb qo'lini cho'zganicha tikka turar edi.

Ammo hamma urinishlari behuda ketar edi. Qo'li doim bo'shliqni ushlar edi. Hasharot esa bemalol qochib ketaverar edi. Axiri, vizillovchi bukri qo'ng'iz daraxtlar yoniga kelganidan keyin olimga bir tegib ketib, osmonga ko'tarildi-da, alam qilsin deganday, vizillaganicha uchib ketdi.

— La'nati-ey! — deb yana bir karra baqirdi Benedikt tog'a. — Qochib ketdi-ya! Insofsiz mal'un-ey! Men kolleksiyamda unga atab eng yaxshi joy ajratib qo'yuvdim-al Baribir qo'ymayman, ushlab olmaguncha quvlay beraman!

Xafa bo'lgan entomolog shu ko'zi bilan ko'm-ko'k barglar orasidan qo'ng'iz qidirish foydasiz bir ish ekanligini esdan chiqarib qo'ygan edi. Lekin u hech ham o'zini tuta olmas va muvaffaqiyatsizligiga iqror bo'lmas edi. Omadi yurishmaganiga o'zi aybdor edi! Undan ko'ra u «tabiiy sharoitda uning yurish-turishini tekshirib» yurmasdan, bu vizillovchi hasharotni o'sha mahalda ushlab olganida qanday yaxshi bo'lardi-ya!

Benedikt tog'a dovdirab qoldi. U qo'ng'izni quvaman deb Alvetsning qo'rg'onidan chiqib ketganidan va endi ozodlikda ekanligidan o'zi butunlay bexabar edi. Uchib ketgan qo'ng'iz o'rmon ichida — yaqin joyda bo'lsa kerak.

Nima qilib bo'lsa ham, Benedikt tog'a uni ushlashi kerak!

Endi u o'zining nima qilayotganini bilmasdan, qalin o'rmon ichida chopib borardi. Hamma yoqda uning ko'ziga nodir hasharot ko'rinardi. U goh qo'llarini yuqori ko'tarar, goh yerga yotib emaklab yurar edi. U bema'ni quvlash orqasida qaerga kelib qolganini va qaytish uchun yo'l topa olish, topa olmasligini sira o'ylamas edi...

Ana shu tarzda Benedikt tog'a o'rmon ichiga bir milcha ichkari kirib ketdi.

Birdaniga daraxt orqasidan allaqanday bir azamat odam chiqib keldi. U odam bir qo'li bilan Benedikt tog'aning yoqasidan, ikkinchi qo'li bilan oyoqlaridan ushlab ko'tarib oldida, hash-pash deguncha, uni o'rmonning qalin joyiga olib kirib ketdi.

Bechora Benedikt tog'a! Shu kuni u butun dunyodagi entomologlarning eng baxtlisi bo'lish imkoniyatini qo'ldan boy berib qo'ydi-yal!

O' n o l t i n c h i b o b

MGANNGA

Benedikt tog'aning tushki ovqatga kelmadan missis Ueldon tashvishda qoldi. Qayerga ketdi ekan bu qari go'dak? Uning qo'rg'ondan qochib ketishini missis Ueldon xayoliga ham keltirmas edi. Tog'asining fe'lini u juda yaxshi bilar edi. Agar unga: tunuka qutichangdagi hasharotlaringni bersang, ozodlikka chiqasan, deb taklif qilishsa, ozodlikni boshimga uramanmi, deb aytgan bo'lar edi. Ammo uning Afrikada topgan jamiki hasharotlari solingan qutichasi o'z joyida turibdi. Benedikt tog'a hasharotlarini o'z xohishi bilan tashlab ketibdi deyish mutlaqo bo'lmagan gap edi.

Lekin, shunday bo'lsa ham Alvetsning qo'rg'onida Benedikt tog'a yo'q edi!

17-iyun kuni missis Ueldon kechgacha hamma joyni qidirdi. Unga Jek bilan Halima ham yordamlashdi, Benedikt tog'a hech qayerdan topilmadi.

Missis Ueldon Benedikt tog'ani qul savdogarlarining buyrug'i bilan qo'rg'ondan olib ketishgandir, deb ham o'yladi. Alvets nechun bunday qildikan? Benedikt tog'ani nima qilmoqchikan-a? Yoki uni bozor maydonidagi biror barakka olib kirib qo'ydimikan? Bu juda g'alati ish bo'ladi-ku,

chunki Negoro bilan kelishilgan shartnomaga muvofiq, asir Benedikt tog'ani Alvets, Mosamedishga olib borib, yuz ming dollarga Jems Ueldonga topshirishi kerak edi-ku.

Agarda missis Ueldon Benedikt tog'aning yo'qolgani to'g'risidagi xabarini eshitgan Alvets juda achchig'langanini bilganida, tog'aning yo'qolishiga uning sababchi emasligiga ishonar edi. Agar Benedikt tog'a qo'rg'ondan o'z ixtiyori bilan qochib ketgan bo'lsa, nima uchun bu niyatini jiyaniga aytmadi?

Alvets bilan uning odamlari ko'p tekshirishlardan keyin, qo'rg'ondan o'rmonga chiqadigan yer osti yo'li borligini aniqlashdi. Qul savdogari «pashsha ovchisi» xuddi shu teshikdan chiqib ketgan, degan xulosaga keldi.

Alvets Benedikt tog'aning qochib ketishi uning hisobiga o'tkazilib, daromadning kamayishini xayoliga keltirgach, g'azabidan quturayozdi.

«Bu jinni o'zi yarim chaqaga arzimasa ham, men uning uchun qancha jaranglagan pul to'lashim kerak-a! Ishqilib, bir qo'limga tushsaydi!» deb o'ylardi Alvets.

Qo'rg'onni ham, o'rmon ichini ham sinchiklab qidirilsa-da, qochqinning hech qanday izini topisha olmadi. Shunday qilib, missis Ueldon tog'asidan mahrum bo'ldi, Alvets esa ancha puldan ajraldi. Albatta, Benedikt tog'aning qo'rg'ondan tashqarida yashovchi biror kishi bilan til biriktirib ish qilishi mumkin emas edi; shuning uchun u, ittifoqo, yer osti yo'lini uchratib qolganu yo'ldoshlari boryo'qligini o'ylamasdanoq qochib ketavergan, degan fikrga kelishga to'g'ri keldi.

Missis Ueldon shunday bo'lgandir deb o'ylashga majbur bo'ldi. Ammo u o'z qilmishi uchun o'zi javob bera olmaydigan bechora olimdan xafa bo'lishni xayoliga ham keltirmas edi.

«Voy bechora-ey! Uning holi nima kecharkin?» deb so'radi u o'z-o'zidan.



Albatta, yer osti yo'li o'sha kundayoq ko'mib tashlandi va qolgan asirlar ustidan nazorat yana kuchaytirildi.

Shunday qilib, missis Ueldon bilan uning o'g'lining kun kechirishlari yanada ko'ngilsizroq bo'lib qoldi.

Bu yerlarda «mazika» deb ataladigan yog'ingarchilik davri aprel oyining oxirlarida o'tgan bo'lsa ham, lekin 19-iyunda yana yog'ingarchilik boshlandi. Butun osmonni qora bulut qoplab, yomg'ir quygani quygan edi. Markaziy Afrikada yilning bu mavsumida bunday hodisa juda siyrak uchraydi.

Missis Ueldon uchun ham yomg'ir zarardan boshqa narsa emas edi, chunki yomg'ir uning qo'rg'onda har kuni sayr qilib yurishiga halal beradi. Yerlik xalq uchun bu yomg'ir katta bir ofat edi. Pastqam yerlarda pishib, o'rib olishga tayyor turgan ekinlar toshqin ostida qolib ketdi. To'satdan ekindan mahrum bo'lgan aholi ocharchilikka mahkum bo'lmoqda edi. Malika Muana bilan uning vazirlari bu balodan qutulish chorasini topolmay gangib qolishdi.

Ular jodugarlarini yordamga chaqirishga qaror qilishdi. Ammo avrash va duo o'qish bilan kasallarni davolashdan boshqaga kuchi yetmaydigan jodugarlarni chaqirishmadi. Bunday katta falokatdan faqat «mgannga» deb ataladigan usta jodugarlarga qutqazishi mumkin edi. Bunday jodugarlarning yomg'ir yog'dirishga ham, bulutlarni haydab yuborishga ham qurlari yetardi.

Ammo mganngalar ham yordam berisholmadi. Ularning uvlab ashula aytishlari, afsun o'qishlari, darang-durang qilishlari, qo'ng'iroq chalishlari va hatto tumorlari ham hech qanday yordam bermadi. Har qanday raqs-o'yinlar va katta saroy amaldorlarining aftiga tufflashlar ham hech ta'sir qilmadi... Yomg'ir bulutlarini olib kelgan jinlarni sira haydab bo'lmadi.

Ahvol kun sari yomonlashaverdi. Malika Muana Shimoliy Angoladagi mashhur sehgarni chaqirishni buyurdi. Bu mganngani juda ham qudratli, juda ham karomatli deb aytishar edi. U Kazandega hech qachon kelgani yo'q edi va shuning uchun ham hamma unga ishondi. U eng o'tkir jodugar bo'lib, yog'ingarchilikni to'xtatishga ham juda usta edi.

25-iyun ertalab ulug' mgannga dabdaba bilan Kazondega kirib keldi. Aralash-quralash qo'ng'iroq chalib, uning kelgani xabar qilindi. U to'ppa-to'g'ri bozor maydoniga qarab jo'nadi. O'sha on uni yerliklar olomoni qurshab oldi. O'sha kuni osmondagi bulutlar bir oz siyrak bo'lib, shamol ham o'zgaray deb turar edi. Bunday yaxshi alomatlar bilan mgannganing kelishi bir kunga to'g'ri kelganidan hamma uni yaxshi ko'rib qoldi.

Mgannganing tashqi ko'rinishi juda bahaybat bo'lib, hammani hayratda qoldirdi. Bu — bo'yi kamida olti fut keladigan, o'zi sof qonli negr edi. Uning ko'kragi keng, juda baquvvat, o'zini juda mag'rur tutar edi.

Bu yangi mgannganing bahaybat qiyofasi hammani o'ziga jalb qiladi.

Odatda jodugarlar uch-to'rtta bo'lib yuradilar. Ular qishloqma-qishloq yurganlarida o'zlari bilan ko'pgina yordamchilar hamda xizmatkorlarni olib yuradilar. Bu mgannga esa yolg'iz keldi. Uning ko'kragiga suvalgan oq loyga yo'l-yo'l bezaklar solingandi. Belidan pastiga o'tdan to'qilgan yubka kiygandi. Bo'yniga qushlarning bosh suyagi tizilgan munchoq taqqandi, boshiga ham teridan qilingan va parlar qadalgan qalpoq kiygandi. Sonlariga ko'p qo'ng'iroqchalar taqilgan kamar bog'lagandi. Bu qo'ng'iroqchalar u har bir harakat qilganida qattiq ovoz chiqarardi. Bu ajoyib afrikalik sehgarning yasan-tusani ana shunday edi.

Xudoga yolvorganda ishlatiladigan hamma buyumlar, chunonchi, chig'anoqlar, tumorlar, yog'ochga o'yib yasalgan sanamlar, tasbehlar va

hatto tezak kesaklari — hammasi katta bir savatga solingan edi.

Odamlar tezda yangi mgannganing yana bir g'alati xususiyatini fahmlab qoldilar. U soqov edi. Ammo soqovligi yovvoyilarning unga bo'lgan hurmatini yanada oshirib yubordi. U hech bir ma'nosi bo'lmagan allaqanday ming'illaganga o'xshash g'alati ovoz chiqazar edi. Bu esa, yerliklarning fikricha, uning afsun o'qigani emish.

Mgannga avval qandaydir tantanali raqs qilib butun bozor maydonini aylanib chiqdi. Uning qo'ng'iroqlari jaranglagani jaranglagan edi. Yerliklar olomoni, xuddi boshliqlar ketidan ergashib yuradigan maymunlar singari mgannga nima harakat qilsa, o'shanday harakat qilib, uning ketidan ergashib yurdi. Mgannga birdan bozor maydonidan Kazondening katta ko'chasiga qayrilib, xon saroyiga tomon yura boshladi.

Malika Muana yangi sehgarning kelayotganidan xabardor edi, butun saroy ahli bilan shoshib-pishib uning yo'liga chiqdi.

Mgannga yergacha engashib unga ta'zim qildi-da, keyin qaddi-qomatini rostlab, tikka turib oldi. U tez harakat qilayotgan bulutlarga tomon qo'llarini cho'zdi. Sehrgar qora bulutlarni malikaga ko'rsatdi-da, ularning g'arb tomonga ketayotganini, keyin to'la doira yasab aylanganidan so'ng, Kazondening sharq tomonidan qaytib kelishini unga imo-ishoralar bilan tushuntirdi. Bulutlarning bunday aylanib yurishini to'xtatishga hech kim qodir emasligini bildirdi.

Birdan sehgargar Kazondening qudratli malikasi-ning qo'lidan ushlab oldi. Butun xalq va saroy ahli hayron qoldi. Bir necha saroy xodimlari bu qo'pol muomalaga yo'l qo'ymaslikka urinib edilar, pahlavon mgannga ularning eng yaqin kelgan birisining yoqasidan olib bir silkib edi, u o'n besh qadamcha nariga borib tushdi.

Sehgarning bu qiligi malikaga yoqqanday

bo'ldi. U chehrasini bir buzib qo'ydi — bu esa uning jilmayishini bildirar edi. Ammo mgannga malika-ning bu xayrixohligiga e'tibor qilmasdan, Muanani chetga sudradi. Xalq ular ketidan yopirildi.

Mgannga to'ppa-to'g'ri Alvets qo'rg'oniga qarab yo'l tutdi. Birpasda darvoza oldiga yetib keldi. Darvoza berk ekan. Mgannga bir chiranib itargan edi — eshiklar ilmog'idan bo'shab qulab tushdi. Hayron bo'lgan malika u bilan birga qo'rg'on ichiga kirdi.

Qul savdogarlari, uning soldatlari va qullari, darvozaning ochilishiga sabr qilmasdan, uni sindirib kirgan bu muttaham jodugarga tashlanmoqchi edilar-u, lekin uning yonida kelayotgan malikani ko'rib qolib, ta'zim qilib turgan joylarida qotib qolishdi.

Alvets, bu nima degan gap, deb malikadan so'ramoqchi bo'lgan edi, lekin mgannga unga og'iz ochishga imkon bermadi. U olomonni nariroqqa surdi-da, o'rtaga tushib ilgarigidan ham ko'ra qizg'inlik bilan yana o'zining sehrli qiliqlarini qila boshladi. U bulutlarga mushtini ko'rsatib do'q qilar va ularga qarab afsun o'qir edi. Keyin u bulutlarni zo'rg'a koyib to'xtatib turganini ko'rsatib, og'zini bo'rttirib, go'yo bir puflashda hamma bulutlarni tarqatib yuboraman deganday qilib, osmonga qarab bor kuchi bilan puflab yubordi.

Yo'q-borga ishonuvchi Muana bu epchil artistning — uni boshqa nima desa bo'lardi — hamma harakatlarini takrorlar edi. Saroy ahli bilan shahar xalqi esa, unga ergashib, ular ham o'sha qiliqlarni qilar, allaqanday ovozlari chiqazib ashula aytar, bo'kirar va jinnilik qilar edilar.

Natijada nima bo'ldi: bulutlar tarqalib, havo ochilib ketdimi? Soqov mgannganing afsun o'qishlari ta'sir qildimi? Hech-da. Aksincha, malika bilan xalq: endi jinlar yengilib, qo'rqqanidan tumtaraqay qochdi, deb o'ylab turgan paytlarida osmon besh-

battar qovog'ini solintirdi va katta-katta yomg'ir tomchilari tusha boshladi.

Odamlarning kayfi birpasda o'zgardi. Undan o'zimizning jodugarlarimiz tuzuk ekan deb, hamma mganngaga xo'mrayib qaray boshladi. Malika qovog'ini soldi, demak, sehrgar kamida ikki qulog'idan ajralishi turgan gap edi. Olomon astasekin unga yaqinlasha boshladi. Musht do'laytirganlar ham ko'rinib qoldi. Yana birpas shunday tursa, mgannga musht tagida qolib ketardi, lekin shu paytda bir hodisa yuz berib, hammaning alami boshqa tomonga ko'chdi.

Hammadan besh qarich baland bo'lgan mgannga birdaniga qo'lini qo'rg'on tomonga uzatib, nimanidir imo qilib ko'rsatdi. Ishora haybatligidan hamma o'sha yoqqa burilib qaradi.

Missis Ueldon bilan Jek bu g'avg'oni eshitib, tashqariga chiqishgan ekan. Mgannga chap qo'li bilan ularni, o'ng qo'li bilan osmonni ko'rsatar edi.

Ofatning sababi o'shalar ekan-da! Oq badan ayol bilan uning o'g'li ekan-a! Hamma balo-qazolar o'shalardan ekan! Bulutlarni o'shalar chaqirtirgan ekan! Kazondeda ocharchilikni o'shalar tug'dirgan ekan!

Mgannga hech nima demasa ham, hamma uni tushundi.

Malika Muana jahl bilan qo'lini missis Ueldon tomonga uzatdi. Olomon to's-to'polon qilib, bechora ayol tomonga tashlandi.

Missis Ueldon endi ajali yetganiga ishondi. U Jekni bag'riga bosib, quturgan xalq oldida haykal singari qotib qolgan edi.

Mgannga unga qarab kelaverdi. Yovvoyilar mgannga ofatning sababini topdi, endi buning chorasini ham ko'rsa kerak, deb unga yo'l berishdi. Asirlarni o'z jonidan qimmat ko'rgan Alvets ham nima qilarini bilmasdi, unga qarab qadam bosdi.

Mgannga kichkina Jekni onasining qo'lidani yulib olib, go'yo jinlarning rahmini keltirish uchun

uni yerga urib o'ldirmoqchi bo'lganday, osmonga ko'tardi.

Buni ko'rgan missis Ueldon faryod qilib, hushidan ketib yerga yiqildi.

Bu choq mgannga malikaga bir nima ishora qildi, malika ham buni aftidan tushundi, shundan so'ng mgannga bechora ayolni yerdan ko'tarib olib, o'g'li bilan birga nariga olib ketdi. Hayratda qolgan olomon ta'zim qilib, unga yo'l berdi.

Alvetsning joni chiqay deb qoldi. Bir asiridan mahrum bo'lib, yana ikkitasini o'z ko'zi oldida berib yuborib, «to'lov» pulidan quruq qolsinmi? Hech-da, butun Kazonde to'fon ostida qolib ketadigan bo'lganda ham, bunga aslo rozi bo'lmaydi!

U bu o'g'rilikka to'sqinlik qilmoqchi edi, biroq xalq g'azabi unga ko'chdi. Malika Alvetsni qamoqqa olishga buyurdi. Qul savdogari esa qarshilik ko'rsatishning oqibati yomon bo'lajagini bilib, jim bo'lib qoldi. Ammo u malika Muananing yo'q-borga ishonuvchi odamlarini ich-ichidan toza so'kdi!

Yovvoyilar chindan ham ofat tug'diruvchi bu oq badan odamlar bilan birga bulutlar ham ketsa kerak, deb ishonar edilar. Ular mgannga begona odamlarning qonini to'kish bilan jinlarni yuvoshlantirib, xalqni ofatga solgan bulutlarni Kazondedan haydab yuborarkan, deb ishongan edilar.

Mgannga esa ikki echki bolasini kattakon og'zida bemalol tishlab ketayotgan arslon singari, o'z qurbonlarini ikki qo'ltig'iga qistirib ketaverdi. Kichkina Jek qo'rqqanidan titrardi. Missis Ueldon esa hali ham behush edi. Quturgan olomon sehrGAR ketidan bir qadam ham qolmay ergashib boraverdi.

Mgannga qo'rg'ondan tashqariga chiqdi, keyin Kazondeni kesib o'tib o'rmon ichiga kirdi-da, boyagicha katta-katta qadam tashlab, uch mildan ortiqroq yo'l bosdi. Yovvoyilar asta-sekin orqada qola boshladilar. Axiri ular mgannga yolg'iz o'zi qol-

moqchi ekan, deb o'ylashdi-da, qolganlari ham orqaga qaytib ketishdi.

Mgannga esa yurib-yurib shimol tomonga qarab tez oqayotgan bir daryo labiga kelib to'xtadi. Bu yerda u torgina qo'ltiq ichiga odam ko'rmaydigan qilib chakalakzor orasiga yashirib qo'yilgan bir qayiqni sudrab chiqdi.

Soqov mgannga yuklarini qayiq ichiga joylashtirdi-da, qayiqni qirg'oqdan asta itarib yubordi. Suv qayiqni tez oqizib ketganidan keyin u baland ovoz bilan:

— Kapitani, marhamat, missis Ueldon bilan Jek kelishdi! Endi oq yo'l bo'lsin! Ana endi osmondagi hamma bulutlar bu ahmoqlarning boshiga do'l berib yog'aversin! — dedi.

O' n y e t t i n c h i b o b

DARYO OQIMI BILAN

Bu so'zlarni Gerkules aytdi. Jodugar qiyofasiga kirib olgan pahlavon, kapitan deb Dik Sendga gapirmoqda. Yigit qayiq ichida yotardi. U hali juda darmonsiz edi. Yangi keluvchilarni ko'rish uchun Benedikt tog'aning yordami bilan yotgan joyidan turib o'tirdi. Dingo olimning oyoq tomonida o'tirardi.

Missis Ueldon bir oz o'ziga kelib, ohistagina:

— Dik, senmisan? Sen-a?.. — dedi.

Yigit o'rnidan turmoqchi edi, ammo missis Ueldon uni o'z quchoig'iga oldi. Kichkina Jek ham chopib kelib Dik Sendni quchoqlab o'pa boshladi.

— Voy akam-ey, voy Dik aka, akajonim-ey! — deb takrorlardir bola. Keyin u Gerkulesga qarab: — Men seni tanimabman-a! — dedi.

— Toza tomosha bo'ldi-da! — deb kuldi Gerkules.

Shundan keyin u ko'kragidagi loylarini tozalay boshladi.

— Juda xunuksan-kul — dedi kichkina Jek.

— Bo'lmasam-chi. Shayton bo'laman-u, chiroyli bo'lamanmi?

— Gerkules! Do'stim! — deb qo'lini uzatdi dovyurak negrga missis Ueldon.

— U meni ham qutqazdi. Lekin bu to'g'rida gapirgisi kelmaydi, — dedi Dik Send.

— Bu to'g'rida gapirish hali erta! — deb javob qaytardi Gerkules. — Agar sizning qayerdaligin-gizni janob Benedikt aytmaganida, missis Ueldon, biz hech narsa qilolmasdik.

Benedikt tog'a qo'ng'iz quvlab o'rmon ichida yurganida, unga Gerkules hujum qilgan edi. Agar u bo'lmaganida qul savdogari missis Ueldonni qayer-da qamoqda saqlayotganini Dik bilan Gerkules bil-magan va jodugar qiyofasiga kirib Kazondega bo-rish fikri Gerkulesning xayoliga ham kelmagan bo'lar edi.

Qayiq suv oqimi bilan suzib ketaverdi. Gerkules Kuanze daryosi bo'yidagi lagerdan qochib ket-ganidan beri boshidan nima voqealar o'tgan bo'lsa hammasini missis Ueldonga gapirib berdi. U missis Ueldon bilan Jek tushgan zambil ketidan ergashib boraveribdi. Keyin yarador Dingoni topib olibdi-da, undan Dikka xat yuboribdi. Dingo bilan ikkovi Kazondega yetib olibdi. Benedikt tog'ani o'rmonda tasodifiy uchratib qolganidan keyin, Gerkules qo'rg'onga kirmoqchi bo'lgan ekan, biroq soqchilar yaxshi qo'riqlagani sababdan, kira olmabdi. Shundan keyin u asirlarni qutqazish uchun boshqacha yo'l o'ylab topibdi.

Bu voqea shunday bo'libdi: Gerkules qo'rg'onda nimalar bo'layotganini kuzatib va ichkariga kirish uchun qulay fursatni poylab o'rmonda yurgan ma-halda, uning yonidan bir mgannga o'tib qolibdi. Bu Kazonde aholisi toqatsizlik bilan kutayotgan haligi shimoliy jodugarning o'zginasi edi. U ko'p o'ylab-netib turmasdan, mganngaga hujum qilibdi, usti-dan kiyim-boshi bilan bezaklarini yechibdi-da,

ularni darrov kiyib olibdi. Keyin uni lian o'simligi bilan daraxtga hech kim yecholmaydigan qilib mahkam bog'lab qo'yib, uning oldida turib, o'zini xuddi unga o'xshatib yasantiribdi. Gerkules bu ish-ni bir necha soatda bajaribdi. Endi yovvoyilarning yo'q-bor narsalarga darrov ishonaverishlari nati-jasida yomg'irni haydaydigan sehgargalik ishlari ham juda ustalik bilan bajarildi.

Missis Ueldon Gerkulesning Dik Send to'g'risida hech narsa aytmaganiga e'tibor qildi.

— Sen-chi, Dik? — deb so'radi u.

— Men, missis Ueldon, sizga hech narsani aytib berolmayman, — deb javob qaytardi Dik. — Mening butun xayolim siz bilan Jekda edi!.. Ustunga bog'langan lianlarni uzishga harakat qildim-u, lekin uddasidan chiqolmadim. Suv meni ko'mib, boshimdan oshib ketdi... Hushdan ket-dim... Bir vaqt o'zimga kelib ko'zimni ochsam, pa-pirus o'simligi orasida yotibman. Gerkules esa jon kuydirib meni parvarish qilmoqda ekan...

— Bunda ajab qolarlik hech narsa yo'q! — dedi Gerkules. — Men jodugar tabib bo'lib olgandim.

— Gerkules, — dedi missis Ueldon, — siz Dikni qanday qutqazganingizni gapirib berishingiz kerak.

— Uni men qutqazibmanmi? — dedi azamat Gerkules. — Eski havzaga oqib tushayotgan suv to'lqini Dik bog'langan ustunni qulatib yuborib, oqizib kelmadimikan? Men uni suvdan ushlab oldim, xolos. Qorong'ida o'linga hukm qilingan odamlar orasiga kirib olish qiyin ishmi? Keyin us-tun yoniga suzib borib, unga bog'langan kapitan bi-lan birga ustunni sug'urib olish og'ir ishmi? Bu ish hech gap emas. Buni har kimam qila olardi. Mana, masalan, janob Benediktni olaylik... yoki Dingoni! Haqiqatan ham, Dingo qilmadimikan bu ishni?

O'z nomini eshitgan Dingo dumini likillatib, vovillab qo'ydi.

Jek Dingoning katta boshini quchoqlab, u bilan gapirisha boshladi.

— Dingo, Dik akamni sen qutqazdingmi? — deb so‘radi-da, «yo‘q» deb aytgin deganday qilib boshini chayqattirdi.

— Dingo «yo‘q» deyapti-ku, — dedi Jek. — Gerkules ko‘ryapsanmi, qutqazgan u emas ekan-ku. Aytsang-chi, Dingo, kapitan Dikni Gerkules qutqazdimi, a?

Jek tushmagur bu safar itni «ha» deganday qilib, boshini egishga majbur qildi.

— Dingo «ha» deyapti! Demak, qutqazgan o‘zing ekansan-ku! — dedi Jek Gerkulesga qarab.

— Voy, Dingo, seni qara-yu, — deb javob qaytardi Gerkules, — uyat emasmi, a! Aytmayman deb va‘da bergan eding-ku!

Darhaqiqat, o‘z jonini ayamay Dik Sendni qutqazib olgan shu Gerkules edi! Ammo kamtarligi orqasida buni aytgisi kelmas edi. Lekin u bu harakatini qahramonona bir ish deb hisoblamasdi, uning o‘rnida har bir kishi ham xuddi shunday qilardi, der edi.

Shu suhbatdan keyin Gerkulesning bechora hamrohlari — Tom, uning o‘g‘li Bat, Akteon va Ostinlar to‘g‘risida gap boshlandi. Hozir u bechoralarni Katta Ko‘llar tomoniga haydab ketayotirlar. Gerkules ularni qul karvoni ichida ko‘rgan ekan. U karvon ketidan bir oz ergashib boribdi-da, lekin ular bilan aloqa bog‘lay olmabdi. Bechoralarni haydab olib ketdilar!.. Ularning ishi chatoq edi...

Haligina xoxolab kulayotgan bechora Gerkulesning ko‘zlaridan yoshlar dumalab tushdi. U ko‘z yoshlarini boshqalardan yashirishga urinmasdi ham.

— Yig‘lamang, do‘stim, — dedi missis Ueldon. — Menimcha, siz hali o‘rtoqlaringiz bilan ko‘rishasiz!

Missis Ueldon Alvetsning qo‘rg‘onida bo‘lgan voqealarni Dik Sendga birma-bir gapirib berdi.

— Ehtimol, Kazondeda qolganimiz xavfsizroq bo‘lardi, — dedi u eng oxiri.

— Bo‘lmasa, men chakki ish qilibman-da? — dedi Gerkules xafa bo‘lganday.

— Hech-da, Gerkules! — deb e‘tiroz bildirdi Dik Send. — U ablahlar mister Ueldonni qo‘lga tushirmoqchi bo‘ladilar. Bizlar Negoro Mosamedishga qaytib kelganiga qadar hammamiz birga qirg‘oqqa yetib olishimiz kerak. U yerda bizlarni portugal hukumat odamlari o‘z panohiga oladi. Alvets o‘zining yuz ming dollarini olay deb kelgandan keyin...

— Boshiga yuz ming tayoq yeydi, u qari ablah! — deb Dikning so‘zini bo‘ldi Gerkules. — Buni o‘zim qilaman!

Missis Ueldonning Kazondaga qaytib borishi to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Demak, qanday bo‘lmasin, u yoqqa Negorodan oldinroq yetib olish kerak bo‘ladi. Buning uchun Dik Send bor chorani ko‘rishga qaror berdi.

Yosh kapitan o‘zining, daryo oqimi bilan dengiz qirg‘og‘iga chiqib olish kerak, degan maqsadiga endi erishadigan bo‘ldi.

Daryo shimol tomonga qarab oqyapti. Uni Kongo daryosiga quyiladi, deb o‘ylash ham mumkin edi. Bu holda Dik Send bilan uning hamrohlari San-Paolo de Loandaga chiqish o‘rniga, Kongo daryosining etak tomoniga kelib qolardilar. Bundan ular xavotirda emasdilar, chunki ular San-Paolo de Loandadagi singari, Gvineya mustamlakalarida ham yordam olishlari mumkin.

Dik bu safar suv o‘simliklaridan to‘qilgan suvda suzuvchi orolchada sayohat qilmoqchi bo‘ldi.¹ Ammo Gerkules sargardon bo‘lib yurgan mahalida bir qayiqqa duch kelib qoldi. Bu ish juda soz bo‘ldi. Gerkules topgan qayiq yerliklar daryoda suzib yuradigan torgina oddiy qayiqlardan emasdi. Bu ko‘p yuk ko‘taradigan va uzunligi o‘n metr, eni bir

¹ Kamerun Afrika daryolarida bunday orolchalarni ko‘p ko‘rgan edi (*Muallif izohi*).

metrdan kengroq keladigan katta bir qayiq edi. Missis Ueldon bilan uning hamrohlari bu qayiqqa yaxshilab joylashib olishdi. Qayiqni daryo tez oqizib ketayotganidan, quyruqqa bitta eshkakchi qo'yilsa kifoya edi.

Boshda Dik yerliklarga ko'rinmaslik uchun faqat kechasi suzishga qaror berdi. Biroq yigirma to'rt soatdan faqat o'n ikki soatgina suzib borilsa, sayohat ikki baravar uzoqqa cho'zilib ketardi. Shunda Dikning miyasiga: qayiqning ustini o't bilan niqoblab qo'ysa bo'ladi-ku, degan qiziq bir fikr keldi. Buning uchun kemandi ikki chetiga ikkita uzun xoda qo'yildi. Xodalar ustidan to suvgacha o'tlar bilan chirmaldi. Niqoblangan qayiq suvda suzib borayotgan kichkina orolchaga o'xshab qoldi. Endi qayiq kunduz kuni ham suzsa bo'laveradi, chunki unga hech kim e'tibor qilmaydi. Niqoblangan qayiqqa qushlar ham aldanar edi. Qizil tumshuqli, qora parli baliqchi qushlar bilan oq ham ko'k to'rg'oqlar donlagani qayiq bostirmasi ustiga qo'nardilar.

Ko'k niqob qayiqni ko'zdan yashirishi bilan birga, yo'lovchilarni jazirama oftobdan ham saqlaydi. Bunday sharoitda suzib borish sayohatchilarni hech zeriktirmasdi-yu, lekin bir oz xatarli edi.

Dengizgacha yo'l uzoq edi. Butun yo'l davomida doim besh kishilik ovqat topib turishga to'g'ri keladi. Qirg'oqqa chiqib ov qilish kerak bo'ladi, chunki baliq bilangina kun kechirib bo'lmaydi. Dik Sendning ixtiyorida Gerkulesdagi bittagina miltiq bo'lib, uning ham o'qlari oz bo'lganidan, har bir o'q hisobli edi.

Qayiq har soatda kam deganda ikki mildan yo'l bosar edi. Shunday ekan, Dik Sendning hisobicha, qayiq har kuni ellik milcha yo'l yurishi kerak. Ammo tez suzib borish uchun quyruqchi doim hushyor bo'lishi kerak, chunki daryoda uchraydigan to'siqlarni, chunonchi, suv osti toshlari sayoz joy va daraxtlarni o'z vaqtida aylanib o'tmasa

bo'lmaydi. Shu bilan birga, daryoning bunday tez oqishi oldinda girdob yoki shalola bo'lishi ehtimol, degan fikrni tug'diradi, chunki Afrika daryolarida bu narsalar juda ko'p uchraydi.

Missis Ueldon bilan Jekni ko'rish quvonchidan g'ayratga kirgan Dik Send qo'mondonlik vazifasini o'zi qo'lga olib, qayiq burniga joylashdi. U o'tlar orasidagi teshiklardan qarab, qayiq uchun yo'l tanlar va quyruq eshkagini eshayotgan Gerkulesga yo'l-yo'riqlar berar edi.

Missis Ueldon qayiq o'rtasida quruq barglardan qilingan to'shak ustida yotardi. Benedikt tog'a qovog'ini solib va qo'llarini ko'kragiga chalishtirib, qayiq chekkasida o'tirardi. Goh vaqtda u yo'q ko'zoynagini to'g'rileyman deb, beixtiyor qo'lini qanshariga olib borardi. U Kazondeda qolib ketgan qimmatli hasharotlari bilan hasharotlar to'g'risidagi fikrlari yozilgan yon daftarchasi esiga tushganda, yuragi ezilgudek bo'lardi. Yovvoyilar o'zlariga qanday boylik qolganini tushunarmikanlar? Ko'zi Gerkulesga tushdi deguncha yuzlarini allaqanday qilib burishtirib qo'yardi, chunki u qo'ng'iz quvlashga xalaqit bergani uchun uni juda yomon ko'rib qolgan edi.

Kichkina Jek g'alva qilish yaramasligini bilardi-yu, lekin qayiq ichida yurishni hech kim taqiqlamaganidan Dingoga taqlid qilib u yoqdan-bu yoqqa emaklab yurgani yurgan edi.

Sayohatning dastlabki ikki kuni ichida yo'lovchilar Gerkulesning safarga chiqishdan oldin g'amlab qo'ygan oziq-ovqati bilan tirikchilik qilishdi. Dik Send bir necha soat dam olish uchun qayiqni kechalarigina to'xtatardi. Ammo qirg'oqqa tushmasdi, chunki Dik yana xavf-xatarga uchrashdan qochardi. U faqat oziq-ovqat zarur bo'lgandagina quruqlikka chiqishga qaror berdi.

Hozircha, noma'lum daryo oqimi bilan suzishda hech qanday voqea ro'y bermadi. Daryoning kengligi o'rta hisob bilan yuz ellik futdan oshmasdi.

Daryo ustida oqim bilan bir necha orolchalar suzib ketyapti. Ular qayiq bilan bir xil tezlikda suzib ketayotganidan, Dik Send ularga tegib ketishdan xotirjam edi.

Qirg'oqda hech kim ko'rinmaydi. Kazonde viloyatining bu yerlarida aholi deyarli yashamas edi. Qayiq ikki qator bo'lib o'sib yotgan yara o'simligi, quzg'un qilichi, piyozgul, limon daraxti, xinagul, chodirsimon daraxt, aloe daraxti, qirqquloq va papirus o'simliklari orasidan suzib borar edi.

Daryoning ikki labi qalin o'rmon edi. Mum daraxtlari, qattiq bargli akas daraxtlari, «temir daraxt» deb ataladigan bauginiyalar va anjir daraxtlari suv ustiga shox yozib o'sib yotardilar.

Balandligi yuz futlab keladigan bu daraxtlar bir-birlariga chirmashib ketib, daryo ustida oftob nurlari o'tmaydigan qubba tashkil qilgan. Goh joylarda lian o'simligi daryoning bir labidan ikkinchi labiga oshib o'tib, osma ko'prik hosil qilgan.

27-iyun kuni sayyohlar shunday ko'prikdan bir to'da maymunlar o'tib ketayotganini ko'rdilar. U jonivorlar, ko'prik sinsa suvga tushib ketmaylik deb, bir-birlarining dumlariga yopishib olgandilar. Bu tomoshani ko'rgan Jek juda suyunib ketdi.

Shu kuni kechqurun qayiq birdan to'xtab qoldi.

— Nima gap o'zi? — deb so'radi doim quyruqda turuvchi Gerkules.

— Yo'l to'silibdi. Daraxtlar to'sib qopti, — dedi Dik Send.

— Buzib tashlamaymizmi, Dik? — deb so'radi Gerkules.

— Ha, bolta bilan chopib tashlashga to'g'ri keladi. Bu to'siq mahkam bo'lsa kerak, chunki bir necha orolchalar baravar itarishiga qaramasdan, qimirlamay turibdi.

— Bo'lmasa, ishga kirishaylik, kapitan, — dedi Gerkules qayiqning quyruq tomonidan turib.

Yo'lni kigizga o'xshash pishiq «tika-tika» nomli

suv o'simligi to'sib qolgan ekan. Chirmashib ko'prik hosil etgan bunday o'simlik ustidan bemalol o'tsa bo'ladi. Bu to'siq ustida juda chiroyli nilufarlar o'sib yotardi.

Qorong'i tusha boshlagani uchun Gerkules qayiqdan bemalol tashqariga chiqsa bo'lardi. U boltani epchillik bilan ishga solib, ikki soat ichida to'siqning o'rtasidan yorib, yo'l ochdi. To'siq suvga qulab tushdi. Daryo oqimi uning ikki bo'lagini asta ikki qirg'oqqa surib ketdi.

Qayiq yana oqim bilan oldinga suzib ketganda, qorong'i tushib qolgan edi.

Bu to'g'rida gapirish arzirmikin? Qari go'dak Benedikt tog'a boshda Gerkules to'siqni olib tashlay olmaydi, qayiq turgan joyda qolib ketadi, deb o'ylovdi. Olim uchun daryoda suzib yurish juda ko'ngilsiz edi. Alvetsning qo'rg'onini, o'zining kulbasini va tunuka qutisidagi jonajon hasharotlarini eslasa juda alami kelar edi. Sho'r peshanaligi uchun hamma unga achinardi. Haqiqatan ham, uning bitta ham hasharoti bo'lmasa-ya?

Bir vaqtlari Benedikt tog'a «shogirdim» deb atagan Gerkules, haligi to'siqdan topib olgan alaqanday bir jirkanch hasharotni unga uzatganida olim quvonchidan yuragi yorilayozdi. Shunisi qiziqki, Gerkules o'z tortig'ini olimga uzatayotganida nima uchundir, allanarsadan xijolatdek edi.

Benedikt tog'a hasharotni avaylabgina boshmaldog'i bilan ko'rsatkich barmog'i orasiga olib, ko'zining takkinasiga olib keldi. Albatta u bu paytda, koshki hozir ko'zoynagim bilan lupam shu yerda bo'lsa, deb o'yladi.

Birdan u baqirib yubordi:

— Gerkules! Gerkules! Sen hamma ayblaringni yuvding. Jiyanim Ueldon! Dik! Menga qaranglar! Bu hech qayerda topilmaydigan g'alati afrika hasharoti ekan. Endi bitta-yarimta odam bu olti-oyoqli jonivorni mendan olaman deb ko'rsin-chi!

Jonimni bersam beraman-u, ammo buni qo'ldan bermayman!

— Demak, rostdan bu qimmatli hasharot ekan-da? — dedi missis Ueldon.

— Hali ishonmayapsizlarmi deyman-a! — deb baqirib yubordi Benedikt tog'a. — Na qattiq qanotli-lar, na to'rqanotlilar va na parda-qanotlilar turkumi-ga kirmaydigan hasharot, o-ho, qimmatli bo'lganda tag'in qanday deng-a!.. Bu hasharot olimlarga ma'lum bo'lgan o'n turkumning hech qaysi biriga kirmaydi... Ba'zi bir nodonlar hech o'ylab-netib tur-masdan uni o'rgimchaksimonlardan deb aytishi ehtimol!.. O'rgimchakka o'xshash hasharot-a! Agar bu hasharotning oyog'i sakkizta bo'lsa o'rgimchak bo'lardi, uning oyog'i oltitagina bo'lganidan, u hasharot bo'lib qoladi! Voy, do'stlarim-ey, men uchun hech bir kutilmagan baxt-a! Ana endi mening nomim ham fanga kiradigan bo'ldi! Bu hasharotga «Benedikt oltioyoqlisi» deb nom beraman.

Bu hodisa olimga shu qadar ta'sir qildiki, hasharoti bilan ovora bo'lganidan, butun tortgan azob-uqubatlarini esidan chiqarib va kelgusida bo'ladigan qiyinchiliklarni sira o'ylamay qo'ydi... Missis Ueldon bilan Dik Send uni yangi hasharoti bilan chin ko'ngildan tabrik qildilar.

Qorong'i kechada qayiq daryo oqimi bilan suzib ketaverdi. Faqat gippopotamlar bilan daryo labida shitirlayotgan timsohlarga tungi jimlikni buzar edi.

Daraxtlar tepasidan to'lin oy chiqdi. Uning mayin nuri o't orasidagi teshiklardan kirib, qayiq ichini yoritardi.

Birdan o'ng qirg'oqdan xuddi allaqancha suv na-soslari ishlayotgandagidek g'alati ovozlari eshitila boshladi. Bilsalar, bir to'da fillar daryoga suv ich-gani kelgan ekan. Ular kattakon xartumlarini bir ko'tarar, bir yana suvga tushirar edilar. Bu kat-takon hayvonlar go'yo daryodan suvni ichib bitira-diganday tuyulardi.

O' n s a k k i z i n c h i b o b

TURLI VOQEALAR

Qayiq daryo oqimi bilan yana sakkiz kun suzib bordi. Bu kunlarda hech qanday qiziq voqealar bo'lmadi. Daryo uzoq vaqt juda go'zal o'rmonlar orasidan o'tib bordi. Keyin o'rmon tugadi, uning o'rniga daryoning har ikki tomonida cheksiz chakalakzorlar boshlandi.

Bu yerlarda ham odamlar yashamaydiganga o'xshaydi. Albatta, Dik Send uchun bu hol qaytaga yaxshi edi. Odamlar o'rniga o'simliklar orasida kiyiklar juda ko'p edi. Kechasi bu yuvosh max-luqlar g'oyib bo'lib, ular o'rniga arslonlar bilan yo'lbarslar paydo bo'lardi. Lekin sayyohlar shu ma-halgacha na daryo yirtqichlariga va na o'rmon yirtqichlariga ro'para kelmadilar.

Dik har kungi tushki ovqatdan keyin qayiqni goh o'ng qirg'oqda, goh chap qirg'oqda to'xtatib, quruqlikka chiqar edi.

Sayyohlar oziq-ovqat g'amlab olishi kerak edi. Bunday yovvoyi yerlarda yerlik xalq yeydigan me-va ham, manioka ham, no'xat ham va jo'xori ham yo'q edi. Bu o'simliklar bu yerlarda o'ssa ham, lekin yovvoyi holda bo'lib, ularni yeb bo'lmasdi. Miltiq ovozini yerliklar eshitib qolishiga qaramas-dan Dik Send ov qilishga majbur edi.

Sayyohlar anjir yog'ochi ichiga chuqur yasab, unga qo'yilgan tayoqni pirillatib aylantirib o't chiqarar edilar. Ular buni yovvoyilardan o'rgangan edilar. Keyin bu gulxanda birato'la bir necha kun-ga yetadigan qilib kiyik go'shtini pishirar edilar.

4-iyul kuni Dik kama deb ataladigan kiyikni bir otishda qulatdi. Kama kiyigining kallasi uzunchoq, kalta shoxchalari orqaga qayrilgan bo'ladi. Oldindan qaraganda kamaning kallasi lotincha «V» harfiga o'xshaydi. Sayyohlar kamaning go'shtini yegach, juda shirin ekan, deb maqtashdi.

Har kuni kechasi dam olish va ov qilish uchun ko'p to'xtashgani sababli, 8-iyulgacha qayiq atigi yuz milcha yo'l bosdi. Ammo Markaziy Afrika sharoitida yuz mil hazilakam yo'l emas. Dik uzundan-uzoq ko'ringan bu daryo bizni qayoqqa olib borarkan, deb o'ylay boshladi. Shu mahalgacha unga bir necha mayda tarmoqlargina kelib qo'shildi. Daryoning kengayayotgani ham sezilmaydi.

Boshda daryo to'ppa-to'g'ri shimol tomonga oqayotgan bo'lsa, endi shimoli-g'arb tomonga burildi.

Daryo ham sayyohlarni oziq-ovqat bilan ta'min qilib turdi. Ular qarmoq o'rniga uzun lian o'simligining novdasi uchiga tikanak qadab suvga tashladilar. Shunday qilib, yo'lovchilar sanjika degan yumshoq etli maya baliq va qotirib qo'yilsa uzoq saqlanadigan uzaka degan baliq hamda seld balig'iga o'xshash mayda dagala balig'ini tutardilar.

9-iyul kuni mard Dik Send yana bir imtihondan o'tdi. Yigit qirg'oqda o'zi yolg'iz edi. U qalin o'tlar orasida shoxlari ko'rinayotgan bir kama kiyigini otaman deb mo'ljallab yotib edi, u otib yuborishi bilan undan o'ttiz qadamcha narida, qayerdandir ikkinchi bir ovchi paydo bo'lib qoldi. U ham o'sha kiyikning payidan ekan. Turishiga qaraganda u kiyikni tutmoqchi edi.

Bu — bo'yi kamida besh fut keladigan mas-say arsloni edi. U bir sakrab Dik Send otib yiqitgan kiyik yoniga borib qoldi. Yirtqich hayvonning og'ir panjasi ostida qolgan bechora maxluq tipirchilar edi.

Dik Sendning miltig'ida o'qi yo'q edi. U miltig'ini o'qlab olguncha, arslon uni ko'rib qoldi.

Dik Send, bunday hollarda qimir etmay jim turishdan yaxshisi yo'qligini bilib, qotib turardi. U gochmadi ham, miltig'ini o'qlamadi ham.

Arslon qon aralash mushuk ko'zlari bilan Dikni

kuzatar edi. Yirtqich ikki g'animatdan birini: panjasi ostida yotgan kiyikni yoki oldida qotib turgan odamni tanlasammikan deb xayol surib turganday edi.

Shu holda ikki minut vaqt o'tdi. Arslon Dikka qarar, Dik arslonga qarar, Dik hatto ko'zini pirpiratmas ham edi.

Nihoyat, arslon birini tanladi. U xuddi sichqon tutgan mushuk singari, o'takasi yorilgan kiyikni tishlab changalzor ichiga kirib ketdi.

Dik Send ehtiyotdan yana birpas jim turib keyin hamrohlari oldiga keldi. U hatto hozir qanday xatardan qutulganini hech kimga aytmadi ham. U faqat, agar sayyohlar daryoda suzmasdan, yirtqich hayvonlar to'lib yotgan o'rmon va tekislikdan yurib borganida, hech kim tirik qolmas ekan, deb o'yladi.

Daryo bo'ylarida odam yo'qqa o'xshaydi. Lekin hamma joyda ham shunday emas. Goh sayyohlar qishloq nishonalarini ham ko'rar edilar. Sutli o'simliklar orasidagi xarobalarni ko'rgan tajribali sayyoh bu yerda bir vaqtlar qishloq bo'lganini va katta anjir daraxti — yerliklarning muqaddas sanami ekanligini darrov fahmlab olardi. Afrikadagi ko'p qabilalarning odatiga ko'ra, oqsoqollari o'lgandan keyin butun qishloq boshqa joyga ko'chib ketar ekan.

Ehtimol, bu yerdagilarda ham Markaziy Afrikaning boshqa viloyatlaridagi singari uy qilmasdan, yerto'lada yashovchi qabilalar bo'lsa kerak. Bu yovvoyilar eng kam taraqqiy qilgan odamlardir. Ular yovvoyi hayvonlar sungari, inlaridan kechalarigina chiqadilar va yirtqich hayvonlar bilan uchrashgandagi singari, ularga duch kelish ham xatarli.

Dik Send bu yerdagi yerliklarning odamxo'r ekanliklariga hech shubhalanmasdi. Yovvoyilarining xuddi Dik ov qilib yurgan mahalda daryo qirg'og'iga kelib qolishlari ehtimol edi. Shuning

uchun ham u qirg'oqqa kam chiqar va har safar qirg'oqqa chiqqanida, biron xavf-xatar sezilishi bilan o'zining qaytib kelishini kutmasdanoq, darrov qirg'oqdan suzib ketish to'g'risida Gerkulesdan va'da olib, so'ng nari ketar edi. Gerkules va'da berardi-yu, lekin Dik Send qaytib kelguncha qattiq tashvish tortar edi. U o'z tashvishini missis Ueldondan arang yashirardi.

10-iyul kuni kechqurun Dik bilan Gerkules juda xatarli voqeani boshidan kechirishdi. Uzoqda, daryoning o'ng tomonida bir qator qoziqli imoratlar ko'rindi. O'sha joyda daryo kengayib, qo'ltiq hosil qilgandi. Bu qo'ltiq ichidagi suvdan chiqib turgan qoziqlar ustida o'ttiztacha kulba ko'rinib turibdi. Daryo qayiqni to'ppa-to'g'ri o'sha qoziqlarga tomon oqizib ketyapti. Chapga qayrilishga imkon yo'q, chunki u yoqda do'mbayib suv osti toshlari chiqib turardi.

Bu qishloqda odamlar yashar ekan. Mungli ashula ovozlari eshitiladi. Ayrim kulbalarda olov ko'rinmoqda.

Ba'zida yovvoyilar qoziqlar orasiga baliq to'ri tortadilar. Basharti, bu yerda ham shunday qilingan bo'lsa, sayyohlarning ishi chatoq bo'ladi, chunki qayiq to'rlarga o'ralib qoladi va qayiqni to'rdan bo'shatib olguncha butun qishloq oyoqqa turardi.

Dik Send qayiq burnida o'tirib, shivirlab komanda berib turardi. Kechasi oydin bo'lib, qayiqni yurgizishga yordam bersa ham, lekin qayiqni yaqqol ko'rsatib turardi.

Xatarli payt yaqinlashib qoldi. Daryo o'rtasida gi so'ri ustida ikkita yerlik o'tiribdi. Daryo oqimi bilan ketayotgan qayiq o'shalarining takkinasidan o'tib ketishi kerak edi. Yerliklar qayiqni ko'rmay qolmasdilar. Ular shovqin-suron ko'tarib, butun qishloqni uyg'otsa nima bo'ladi?

Qoziqlar qoqilgan joy bilan qayiq o'rtasida yuz futcha masofa qoldi, shunda yerliklar shoshib qo-

lishdi. Ulardan biri o'rnidan sakrab turdi-da, daryoda oqib kelayotgan «suzuvchi orolni» sherigiga ko'rsatdi, chunki u ularning endigina lian o'simli-gi boylab qo'rgan to'rlarini tilka-pora qilib tashlashi ehtimol edi.

Shu ondayoq ikkovi shoshib-pishib to'rlarini tortib ola boshladi. Shu bilan birga, ular hay-haylab sheriklarini yordamga chaqirishdi.

Yovvoyilardan bir nechasi kulbalaridan chopib chiqishdida, so'ri ustiga chiqib to'rlarini yig'ib ola boshladilar.

Qayiqdan Dik Sendning shivirlab bergan buyruqlaridan tashqari hech qanday ovoz chiqmas edi. Hech qanday harakat ham yo'q edi. Faqat Gerkulesgina quyruq eshkagini qimirlatib turardi, xolos. Kichkina Jek, vovillamasin deb Dingoning og'zini qo'llari bilan berkitib olgandi. Qoziqlarga sekingina to'lqin urib turardi. So'ri ustida esa yovvoyilar to's-to'polon qilishar, qattiq-qattiq baqirishar edilar. Agar ular qayiq qoziqlar orasiga kirganga qadar to'rlarini yig'ishtirib olishsa, ish joyida bo'ladi. Bordi-yu, ulgurmasalar, qayiq to'rga ilinib qoladi va undagi yo'lovchilar o'lim xavfi ostida qoladi. Dik Send qayiqni to'xtatolmasdi ham, boshqa yoqqa burolmasdi ham, chunki bir tomonda qoziqlar va ikkinchi tomonda suv osti toshlari yotardi. Shuning uchun qayiq bu joyda oldinga qarab tez oqib ketmoqda edi.

Yerliklar eng oxirgi kuchlarini sarf qilib, to'rlarini suvdan tortib olgan paytda, qayiq qoziqlar orasiga kirdi. Ishning bunday o'ng kelishidan Dik umidini uzgan edi. Ammo shu paytda qayiqning o't bostirmasi bir qoziqning uchiga ilinib qolib, o'ng tomondagi o'tlar suvga tushib ketdi.

Yovvoyilardan biri qattiq baqirib yubordi. U qayiq ichida nima borligini ko'rib qoldimikan? O'sha baqirishi bilan sheriklariga xabar berganmikan? Ehtimol, shunday bo'lsa kerak.

Nima bo'lsa bo'lsin, ishqilib, sayyohlar qutu-

lib ketishdi. Daryo oqimi ularni oldinga surib ketdi, tezda qishloqdagi olovlar ham ko'rinmay qoldi.

— Chap qirg'oqdan yuring! — deb komanda berdi Dik Send ehtiyotdan. — Suv osti toshlari endi yo'q!

— Xo'p, chap qirg'oqdan yuramiz! — dedi-da, Gerkules qayiqni chapga burib yubordi.

Dik Send quyruq tomonga kelib, oydinga yarqirayotgan daryo ustiga tikila boshladi. Ammo hech qanday shubhali narsa ko'rmadi. Ularning orqasidan quvlovchi qayiq yo'q edi. Yovvoyilarning qayig'i bo'lmasa kerak.

Yovvoyilar ertalab qirg'oqda ham, daryo ustida ham ko'rinmadi. Shunday bo'lsa ham Dik Send ehtiyotdan qayiqni chap qirg'oq bo'yidan haydab bordi.

11-iyul kuni sayyohlar atrofning juda o'zgarganini ko'rdilar. Daryoning ikki tomoni xuddi Livingston tekshirib chiqqan Kalaxari sahrosi singari qup-quruq cho'l edi. Daryoning yuqori oqimidagi serunum yerlarga qaraganda qoq yalang'och bu cho'l juda ko'ngilsiz edi.

Havo rang yo'lday cho'zilib ketgan daryo sira tugamas edi.

Bunday unumsiz cho'lda besh kishilik rizq topish oson ish emas edi. Bor narsadan hech nima qolmagandi. Baliq ovidan ham uncha foyda chiqmadi. Boshqa yoqdan ham hech qanday natija bo'lmasdi. Cho'lda o't bo'lmaganidan keyin va shu singari, o't yeydigan hayvonlar ham bo'lmaydi. Bunday hayvonlar bo'lmaganidan keyin, yirtqich hayvonlar ham bo'lmaydi.

Shu sababdan kechalari arslonlarning bo'kirishi ham eshitilmas edi. Kechalari baqalarning qurilashigina eshitilardi.

Daryoning ikki tomonidagi tekis, o'rmonsiz va oftobda kuygan keng cho'l, sharq va g'arb tomondagi ufqda ko'rinayotgan adirlargacha cho'

zilib ketgan. Bu tekislikda faqat sut o'simligi o'sar ekan. Ammo bu o'simlik kassava o'simligi deb ataladigan unsimon modda beradigan xili emas, balki yeyishga yaroqsiz moy beradigan sut o'simligi ekan.

Oziq-ovqat masalasi Dik Sendni tashvishga solib qo'ydi. Ammo Gerkules bir narsani uning esiga soldi: yerliklar qirqquloq o'simligining yosh novdasi bilan papirus o'simligining mag'zini ovqatga ishlatishar ekan. Missis Ueldon tushgan zambil ketidan kelayotgan mahalda Gerkules ham o'shalarni yeb qorin to'yg'azgan. Xayriyatki, qirqquloq bilan papirus o'simligi daryo bo'yida serob ekan. Papirus o'simligining shirin mag'zi sayoyhlarga yoqib qoldi, xususan Jekka juda yoqdi.

Ammo bu ovqat to'q tutmas edi, agar Benedikt tog'a yordam qilmaganida, sayoyhlarning holi xarob bo'lardi.

Nomini abadiy qoldiradigan «Benedikt oltioyoqlisi» degan hasharot topilganidan beri Benedikt tog'aning kayfi joyida edi. U hasharotini yaxshi joyga, ya'ni shlyapasining tepasiga qadab qo'ydi. Olim qayiq to'xtagan joylarda o'zining tekshirish ishlarini davom qildirar edi. Bir mahal qalin o'tlar orasini axtarayotib, bitta qushni cho'chitib yubordi.

Dik Send bu qushni otib olmoqchi bo'lganda, olim:

— Dik, otmang! Otmang! Baribir bunga besh kishining qorni to'ymaydi, — deb qichqirib yubordi.

— Hech bo'lmasa Jekning qorni to'yar, — deb asta uchayotgan qushni yana mo'ljalga oldi Dik.

— Yo'q! Yo'q! Shoshmang! — deb xitob qildi Benedikt tog'a. — Otmang. Bu «iskabtopar» qushcha qayerda asal borligini ko'rsatib beradi.

Dik miltig'ini pastga tushirdi, chunki qushdan

ko'ra bir necha qadoq asal yaxshiroq bo'lar edi. Qush esa mening ketimdan yuringlar degandek qilib, bir uchib ketar, bir yerga qo'nar edi. Dik bilan Benedikt tog'a uning ketidan ergashdilar. Uzoq yurishga to'g'ri kelmadi: sut o'simliklari orasida kovak to'nka bor ekan, uning atrofida asalarilar g'o'ng'illab yurardilar.

Benedikt tog'a bu pufakqanotlilarni ularning «mehnat qilib topgan molidan» mahrum qilgisi kelmas edi. Ammo Dikning fikri boshqacha edi. U bir quchoq poxolga o't qo'ydi-da, asalarilarni uyasidan haydab chiqarib, ancha asal yig'ib oldi. Keyin «iskabtopar» qushga asalarining tuxumchalaridan iborat o'z hissasini berib, Benedikt tog'a bilan ikkovi qayiqqa qaytib kelishdi.

Asalni xursandchilik bilan kutib olishdi, lekin Dik olib kelgan asal ko'pga yetmas edi. Tezda sayyohlar yana ochlikdan qiynala boshladilar. 12-iyul kuni qirg'oqda to'xtagandan keyin sayyohlar hamma yoqni chigirtka bosganini ko'rdilar. Milliard-milliard bo'lgan bu hasharotlar joy yetishmaganligidan o'tlar bilan butalar ustida ikki, goh joylarda uch qavat bo'lib o'tiribdilar. Benedikt tog'a yerliklarning chigirtka yeyishini eslatib qo'ydi. Sayyohlar bu «jannat taomidan» anchagina g'amlab olishdi. Pastgina yoqilgan olovda qovurilgan chigirtkani hatto qorni to'q odam ham maza qilib yeyishi mumkin edi. Benedikt tog'a tortinib bo'lsa ham, lekin chigirtkadan anchagina yedi.

Sayyohlar bu bitmas-tuganmas jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarning tugashini sabrsizlik bilan kutardilar. Har holda, tezoqar daryoda sayohat qilish o'rmonlarda Gerrisning «gatsiyenda»sini qidirib tentirab yurgandan ko'ra, kishini kamroq toliqtirar edi. Ammo kunduzgi jazirama issiq, tungi nam tuman hamda kechalari chivinlarning chaqishi ularni holdan toydirgan edi.

Manzilga yetishga ham oz qolgan bo'lishi kerak

edi. Ammo Dik bu sayohatning qachon tamom bo'lishini bilmas edi.

Suvda sayohat yana qancha cho'zilarkin? Necha haftayu necha oyga? Buni aytib bo'lmas edi.

Basharti, bu daryo chindan ham Zair yoki Kongo daryosi bo'lsa, sayyohlar uning oqimi bilan suzib borib, to'g'ri portugal qishloqlaridan chiqar edilar, chunki ular daryoning xuddi etak tomonida edilar. Dik Send shunday bo'ladi, deb umid qilardi.

15, 16, 17 va 18-iyul kunlari qayiq keng daryoning kumush sathida suzib bordi. Daryoning bo'ylari endi ilgarigidek qoq yerlar emas edi. Ammo Dik Send hamon hushyorlikni qo'ldan bermasdi. Qayiq ilgarigidek o't bilan niqoblangan edi. Daryoda qayiq emas, kichkina bir orolcha suzib ketayotgandek edi.

Yana bir necha kun yo'l yurilsa, «Piligrim» yo'lovchilari balo-qazolardan qutular edilar.

Shu davr ichida har bir sayyoh zo'r fidokorlik va qahramonlik ko'rsatdi: Dik Send bunda o'zinig tutgan o'rni juda katta ekanligini e'tirof etmasada, ammo do'stlari buni tan olar edilar.

Ammo 19-iyulga o'tar kechasi bir voqea bo'ldi, bu hodisa sayyohlarning hayoti uchun juda xavfli edi.

Qoq yarim kechadan keyin soat uchlarda Dik qandaydir guvillagan bir ovoz eshitdi. Bu ovoznig nimaligini bilolmay tashvishlandi.

Kechasi tinch. Shamol asari yo'q. Missis Ueldon, kichkina Jek va Benedikt tog'alar qayiqda dong qotib uxlab yotishibdi.

— To'liq ovozi-ku! — dedi Gerkules.

Quvonchidan pahlavonning ko'zlari yaltirab ketdi.

— Yo'g'-a. Bu dengiz emas, — dedi Dik Send bosh chayqab.

— Bo'lmasa nima? — deb so'radi Gerkules.

— Tong otsa bilamiz. Hozircha ehtiyot bo'laylik! Gerkules qayiq quyrug'idan joy egalladi. Dik

Send qayiq burnida qoldi. U bu ovozni diqqat bilan tinglar edi.

Tong otib ham turmadi, bir zumda kun yorishib ketdi. Daryoning pastki tomonida, bir kilometrcha narida, havoda qandaydir bulut paydo bo'ldi. Lekin u suvning bug'i emas edi. Dik Send buning nima ekanini quyoshning dastlabki nurlari tushishi bilan oq, daryoning bir qirg'og'idan ikkinchisiga egilib tushgan juda chiroyli kamalakni ko'rgandan keyin bildi.

— Qirg'oqqa! — deb baqirdi Dik Send, bor ovozi bilan. — Shalola bor ekan! Bulutlar suv sachrashidan hosil bo'libdi! Qirg'oqqa, Gerkules!

Dik Sendnig aytgani to'g'ri chiqdi. Tekisgina oqib kelayotgan daryo birdaniga yuz futcha pastga tushib ketdi. O'qday pastga otilib tushayotgan daryo suvi qattiq ovoz chiqazadi. Yana yarim milcha yo'l yurilsa, qayiq chuqur jahannamga tushib ketgan bo'lar edi.

O' n t o' q q i z i n c h i b o b

«S» VA «V»

Gerkules eshkakni qattiq-qattiq eshib, qayiqni chap qirg'oqqa burdi. Xayriyat, daryoning havzasi shalolagacha tekis bo'lganidan, oqim hali hozircha tezlashgani yo'q edi.

Chap qirg'oq qalin o'rmon ekan. O'rmon ichidagi qalin barglar tufayli pastga sira oftob nuri tushmaydi. Odamxo'rlar yashaydigan bu o'rmonni ko'rib Dik Sendnig quti uchdi. Qayiq suzolmagani uchun sayyohlar endi qirg'oq yoqalab yurishlari kerak bo'ladi. Shaloladan o'tib olguncha qayiqni yerda sudrab borish ham mumkin emas, chunki buning uchun odam ko'p bo'lishi kerak.

Daryo etagidagi portugal qishloqlariga bugunmi-erta yetib olamiz deb umid qilib kelayotgan, azob tortgan odamlarga bu naqadar qattiq zarba edi.

Qayiq daryoning chap labiga yaqinlashgan sari, Dingo besaranjom bo'la boshladi.

Dik Send itdan ko'zini olmasdi, chunki uning bezovtalanishi biror xavf borligini bildirar edi. O'rmonda yovvoyilar bormikin yo yirtqich hayvonlarga yo'liqarmikim, deb so'rardi Dik Send o'z-o'zidan. Ammo u Dingo boshqa narsaga bezovta bo'layotganini tezda tushunib qoldi.

— Dingo yig'layotganga o'xshaydi-ya! — deb qichqirdi kichkina Jek.

Bola aqlli itnig boshidan quchoqlab oldi.

Shu choq Dingo Jekning qo'lidan chiqib, sakrab suvga tushdi-da, qayiq qirg'oqqa chiqqunga qadar o'rmon ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Dik Send bilan missis Ueldon nima deyishlarini bilmay, bir-birlariga qarab qoldilar. Bir necha minutdan keyin qayiqning tumshug'i daryo chetdiagi o'simliklarga kelib urildi. Odam kelayotganini ko'rib cho'chigan ko'kto'rg'oqlar bilan oppoq karkaralar qiy-chuv qilib uchib ketdilar.

Gerkules qayiqni suv ustidan chiqib turgan terisimon bargli mangfera daraxtiga mahkam bog'lab qo'ydi.

O'rmon ichida so'qmoq yo'llar yo'q. Ammo ko'p joylarda o'tlarning bosilgani bu yerlardan yaqin o'rtada odamlar yoki yirtqich hayvonlar o'tganini bildirar edi.

O'qlangan miltiq ko'targan Dik Send bilan qo'lga bolta ushlagan Gerkules eng oldinda borar edilar. Ular o'n qadam ham yurmasdan Dingo ko'rib qoldilar. Aqlli it tumshug'ini yerga qilib, vovillay-vovillay, qandaydir bir iz ketidan chopib ketdi. Dingo qiliqlariga tushunib bo'lmas edi.

— Hoy! — dedi Dik Send. — Missis Ueldon, siz Jekni yetaklab oling! Benedikt tog'a, zinhor orqada qolmang, Gerkules, tayyor bo'ling!

Dingo, go'yo tezroq yuringlar degandek qilib, bir orqasiga aylanib qarar, bir xovliqib vovillar edi. Keyin u bir kekxa anjir daraxti tagida to'xtalib qoldi.

Anjir tagida bir yoqqa qiyshayib qolgan eski hujra bor edi. Dingo hujra eshigi yoniga kelib, g'in-shib vovilladi.

— Hoy, kim bor bu yerda? — deb baqirdi Dik Send.

Javob bo'lmaganidan keyin, ichkariga kirdi.

Missis Ueldon bilan boshqalar ham uning ketidan ichkariga kirishdi.

Hujra ichida suyaklar sochilib yotardi.

— Biror odam o'lgan ekan, — dedi missis Ueldon.

— O'sha odamni Dingo bilar ekan! — deb unga qo'shildi Dik Send. — U odam Dingoning egasi bo'lsa kerak. Iye, buni qaranglar, buni qaranglar!.. — dedi-da, u hujraning bir devori xizmatini qilib turgan anjir daraxtini ko'rsatdi.

Po'stlog'i shilingan daraxtga qizil bilan yozilgan ikkita katta harf ko'rinib turardi.

Dingo bu harflarni sayyohlarga ko'rsatmoqchidek bo'lib panjalarini daraxtga tirab turardi.

— «S» bilan «V»! — deb baqirib yubordi Dik Send. — Dingoning tanigan harflari. Xuddi uning bo'yinbog'idagi harflarning o'ziginasi-ya!

Dik birdan jim bo'lib qoldi. U yerga engashdi-da, burchakda zanglab yotgan mis qutichani oldi.

Dik uni ochgan edi, undan bir qog'oz parchasi chiqdi. Dik unda yozilgan xatni o'qib berdi:

«Bu yerda, Zair daryosi bo'yida, dengiz qirg'og'idan 120 mil joyda, yo'l boshlovchi Negoro meni qattiq yarador qilib, bor-yo'g'imni talab ketdi. 1871-yil 3-dekabr.

S. Vernon».

Bu xatdan hamma sir ma'lum bo'ldi. Markaziy Afrikani tekshirish uchun safarga chiqqan Samuel Vernon, yo'l boshlovchi qilib Negoroni oladi. Sayyohning yonidagi ko'p pul ablah portugaliyalikni qiziqtiradi. U bu pulni qo'lga kiritmoqchi bo'ladi. Samuel Vernon Kongo daryosiga yetib olib,

shu hujrada tunaydi. Negoro, uni qattiq yarador qilib, bor-yo'g'ini talab, portugal qishloqlariga qochib ketadi. Biroq u yerda uni qul savdogari Alvetsning agenti bo'lgani uchun qamoqqa olishadi. Keyin uni San-Paolo de Loandada sud qizlib, mustamlakalarning birida umrbod og'ir surgunga hukm etishadi. Undan keyin nima bo'lgani bizga ma'lum: Negoro bir amallab katorgadan qochib, Yangi Zelandiyaga boradi va unda «Pilgrim» kemasiga oshpaz bo'lib xizmatga kiradi.

Negoro uni o'ldirib qochib ketganidan keyin bu hujrada nima hodisalar bo'lgan ekan? Buni aniqlash qiyin emas edi. Bechora Vernon o'lishdan oldin, o'zini o'ldiruvchini fosh qiladigan xat yozib qoldiradi. U bu xatni Negoro o'g'irlab qochgan pullardan bo'shagan mis qutichasiga solib qo'yadi. Keyin u bor kuchini sarf qilib, ism-familiyasining bosh harflarini o'z qoni bilan daraxtga yozadi. Dingo bu harflar oldida uzoq vaqt o'tirgan bo'lsa kerak, bu harflarni yaxshi tanib oladi. Keyin u egasining o'lib qolganini fahmlab, dengiz bo'yiga jo'naydi. U yerda Dingoni «Valdek» kemasining kapitani topib oladi. «Pilgrim» kemasida Dingo yana Negoro bilan uchrashadi.

Dik Send shunday deb o'ylagan edi, chindan ham shunday bo'lsa kerak.

Bu vaqt ichida sayyohning suyaklari Afrikada ko'milmay ham yotadi, vafodor itidan boshqa hammaning esidan chiqib ketadi.

Dik, sho'rlik sayyohning suyaklarini ko'mmoqchi bo'lib turganida, Dingo qattiq vovillab xujradan chopib chiqib ketdi. Shu on tashqaridan dod degan ovoz eshitilib qoldi. Ehtimol, Dingo bittayarimta odamga tashlangan bo'lsa kerak.

Gergules uning ketidan chopdi. Sayyohlar tashqariga otilib chiqsalar, yerda bir odam yotibdi. Dingo uning bo'g'ziga yopishibdi, odam esa qo'llari bilan uni o'zidan itarmoqda.

Bu odam Negoro edi.

U Amerikaga jo'nayotgan paroxodga tushmoq uchun Kongo daryosining etak tomoniga kelayotgan ekan. Negoro soqchilarini nariroqda qoldirib, unga ishongan Vernonni o'ldirgan joyiga kelgan edi.

Shunday qilib, Negoroning bu yerga kelishi sababsiz emas edi. Sayyohlar anjir daraxti tagidagi yangi kovlangan chuqurni ochib qarashsa, undan bir hovuch fransuz tilla puli chiqdi.

Negoro Samuel Vernonni o'ldirganidan keyin, bir vaqti kelib olib ketarman deb, Vernondan o'g'irlagan pullarni yerga ko'mib ketgan ekan. Portugaliyalik endi kelib o'z jinoyatining natijasida qo'lga kiritgani puldan foydalanay degan paytda, Dingo uning bo'g'ziga yopishadi.

Negoro it bilan olishayotgan vaqtda belidagi pichog'ini chiqarib olib, Dingoning ko'kragiga sanchadi. Xuddi o'sha paytda Gerkules chopib kelib:

— Ha, ablah! Qo'linga tushding-ku! Seni endi o'z qo'lim bilan bo'g'ib o'ldiraman! — deb unga oxirgi gapini aytib qoldi.

Ammo Gerkules kechikdi; hamma yog'i qonga belangan Dingo bor kuchi bilan yopishib, o'tkir tishlari bilan Negoroning bo'g'zidan tomirini uzib tashladi. Keyin vafodor it zo'rg'a sudralib Samuel Vernon o'lgan joyga bordi-da, o'sha yerda jon berdi.

Gerkules go'r kovlab, sayyoh Samuel Vernonning suyaklarini dafn qildi va hamma motam tutib, Dingoni ham o'sha go'rga ko'mdi.

Sayyohlar Negorodan qutulishdi, ammo uni Kazondedan uzatib keluvchilar yaqin orada bo'lishi kerak edi. Negoro qaytib kelmagani sababdan ular uning ketidan albatta qidirib kelajaklar. Bu esa sayyohlar uchun juda xavfli edi.

Dik Send bilan missis Ueldon nima qilish kerakligi to'g'risida maslahat qildilar. Bir minut vaqtni bekorga sarf qilmasdan, darrov biron qarorga kelish zarur edi.

Samuel Vernonning xatida aytilishicha, sayyoh-

lar suzib kelgan daryo Zair yoki Kongo ekan va dengiz qirg'og'i bu yerdan bir yuz yigirma mil narida ekan. Afsuski, bu yerdagi katta shaloladan hech qanday qayiqda suzib borib bo'lmasdi. Bu Ntamo degan shalola bo'lsa kerak.

Shuning uchun ikki-uch kilometr piyoda yurib borib, shaloladan o'tgandan keyin, u yerda sol yasab yana suzib ketish kerak edi.

— Endi, daryoning o'ng qirg'og'idan yurib boramizmi yo chap qirg'og'idan yurib boramizmi — shu masalani hal qilib olishimiz kerak, — dedi Dik Send. — Ikkala sohil ham xavfli, missis Ueldon, chunki bu yerdagi yerliklar odamxo'r bo'ladi. Menimcha, har holda narigi qirg'oqqa o'tib olganimiz yaxshiroq, chunki u yoqda Negoroning soqchilaridan xalos bo'lamiz.

— Xo'p bo'lmasa, o'ng qirg'oqqa o'tib olaylik, — dedi missis Ueldon.

— Ammo bu yoqda yo'l bormikan? — deb davom qildi Dik Send. — Negoro daryoning chap qirg'og'idan yurib kelgan — demak, daryo etagiga tushish uchun qulayroq ekan. Aytgandek, men hozir buni tekshirib ko'raman. Hammamiz o'ng qirg'oqqa o'tishdan oldin, men o'zim bir xabar olib kelay-chi.

Dik Send shu ondayoq buni amalga oshirgani jo'nadi.

Fransuz sayyohining hujrasi turgan joyda daryoning kengligi to'rt yuz futdan oshmas edi. Qayiq haydashga usta bo'lgan Dik daryodan bemalol o'tishi mumkin. Missis Ueldon, Jek, Benedikt tog'a Dik Send qaytib kelguncha Gerkulesning himoyasida — chap qirg'oqda qolishlari kerak edi.

Dik qayiqqa o'tirib endi jo'nay degan paytda, missis Ueldon unga shunday savol berdi:

— Daryo shalolaga oqizib ketishidan qo'rq-maysanmi, Dik!

— Yo'q, missis Ueldon. Men undan to'rt yuz fut yuqoriroqdan suzib o'taman.

— U qirg'oqda-chi..

— Biron xavf-xatar borligini sezsam, qirg'oqqa chiqmayman-qo'yaman.

— Miltig'ingni ham olib ol.

— Xo'p. Lekin mendan xavotir olmanglar.

— Har holda, ajralishmaganimiz yaxshiroq bo'lardi-da, Dik, — deb qo'shib qo'ydi missis Ueldon, go'yo biron falokat borligini sezgan-day.

— Yo'q, missis Ueldon... Yolg'iz o'zim borishim kerak, — dedi qat'iy qilib Dik Send. — Hammamizning xavfsiz bo'lishimiz uchun shunday qilinsa yaxshiroq bo'ladi. Bir soatdan kechikmasdan qaytib kelaman. Hushyor bo'ling-a, Gerkules!

Dik Send shu so'zlarni aytib, qayig'ini suvga itarib yubordi.

Papirus o'simligi orasiga kirib olgan missis Ueldon bilan Gerkules undan ko'zlarini uzmas edilar.

Dik Send tezda daryo o'rtasiga yetdi. U yerda oqim kuchliroq edi. O'sha joydan to'rt yuz fut narida daryo suvi guvillab pastga tushar va g'arbdan esgan shamol sachragan suv tomchilarini Dik o'tayotgan joygacha keltirib to'kar edi.

Agar o'tgan kechasi Dik uxlab qolganda edi, qayiq albatta shalolaga tushib ketar va shalola beshovlarinnig jasadini daryo bo'yia uloqtirib tashlar edi. Buni esiga keltirgan Dik seskanib tushdi.

Ammo hozir bunday xavf yo'q edi: qayiq daryo-ni to'g'ri kesib o'tdi.

Chorak soatdan keyin Dik o'ng qirg'oqqa yetdi. Ammo u yerga qadam qo'yishga ham ulgurmasdan qattiq ovoz eshitildi va o'ntacha yovvoyi qayiqqa hujum qilib qoldi.

Bular haligi so'ri qishloqlik odamxo'rlar edi. Ular sakkiz kundan beri daryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab sayyohlarning ketidan poylab kelishardi. Ular yolg'ondaka «orolcha»da odamlar borligini ko'rib qolib, qayiq ketidan quvishibdi. Yovvoyilar

daryoda suzishga shalola to'sqinlik qilganini bilib, bu odamlarni baribir qo'lga tushiramiz, deb o'ylashgan ekan.

Dik Send qutulish uchun chora yo'qligini tushundi. Ammo u, o'zimni qurbon qilib bo'lsa ham, yo'ldoshlarimni qutqazish yo'li yo'qmikan, deb o'z-o'ziga savol berdi. U hech pinagini buzmasdan qayiq burnida xotirjam turar edi. U miltiq o'qtalib, yovvoyilarni o'ziga yaqin yo'latmas edi.

Yovvoyilar qayiqning o'tdan qilingan niqobini tortib olib tashlashdi. Ular qayiqda ko'p odam bor deb o'ylashgan bo'lsa kerak, faqat birgina odam borligini ko'rib, qattiq baqirib yuborishdi. Birdan yovvoyilardan bittasi daryoning chap qirg'og'iga tomon qo'lini uzatib, missis Ueldon bilan Gerkulesni ko'rsatdi.

U bechoralar esa bo'layotgan voqeani ko'rib, papirus o'simligi orasidan tashqariga chiqishgan edi.

Endi Dik Send o'zini unutib, qanday qilib o'rtoqlarini qutqazish to'g'risida o'ylar edi.

Yovvoyilar qayiqning quyruq tomoniga chiqib olishdi-da, uni qirg'oqdan itarib yuborishdi. Dikning qo'lidagi miltiq ularni hujum qilishdan to'xtatib turar edi. Yovvoyilardan biri quyruq eshkagini mohirlik bilan ishlatib, qayiqni daryoning oqimiga ko'ndalang haydadi.

— Qochinglar! Missis Ueldon, qochinglar! — deb qichqirdi Dik Send.

Ammo na missis Ueldon, na Gerkules joyidan qimirlashmadi. Ular turgan joylarida qotib qolgan edilar.

Qochsinlarmi? Nimaga endi? Yarim soat ham o'tar-o'tmas, yovvoyilar baribir quvlab yetib oladilar...

Dik Send buni tushundi. Ammo u o'zini yaxshi ko'rgan odamini qutqazish yo'lini topdi. U bir lahza ham ikkilanib turmadi. Miltig'idan mo'ljalga olib, paqillatib o'q uzdi. O'q tegib yorilib ketgan quyruq eshkagi o'rtasidan sinib ketdi.

O'takasi yorilayozgan yovvoyilar jon holatda baqirisha boshladilar, o'z mayliga qolgan qayiq to'ppa-to'g'ri shalolaga qarab oqib keta boshladi. Qayiq tez suzib ketdi, hademay, u tubsiz jarga otilib tushib ketadi, chunki shalolaga yetishga atigi yuz futcha qolgan edi.

Missis Ueldon bilan Gerkules voqeani tushunishdi. Dik Send o'z yo'ldoshlarini o'limdan qutqazib qolish uchun yovvoyilar bilan birga o'zini ham halok qilmoqchi.

Missis Ueldon bilan Jek Dik Sendga xayrlashuv salomi yuborishdi. Gerkules noilojligidan Dik Send tomonga qo'l uzatar edi...

Xuddi o'sha paytda yovvoyilar o'zlarini suvga tashlab so'l qirg'oqqa chiqib qutulmoqchi bo'lishdi.

Dik Send ajal oldida ham esankirab qolmadi. Qayiqning to'ng'irilib qolishi unda o'limdan qutulish umidini tug'dirdi.

Shaloladan tushayotgna paytda uning uchun ikki xil xavf bor, birinchi xavf juda tez urayotgan shamolda nafasi bo'g'ilib qolishi bo'lsa, ikkinchi xavf og'iz-burniga suv kirib ketishi edi. To'ng'irilgan qayiq uni ikkala xavfdan ham saqlab qolishi mumkin edi. Ana shuning uchun ham unda qutulish umidi bor edi!

Dik Send bularning hammasini ko'z ochib-yumguncha o'ylab oldi. U qayiq tagiga sho'ng'ib kirdida, qayiq ichiga o'tirish uchun ko'ndalang qoqilgan taxtaga yopishib, boshini suvdan chiqazib oldi. Bir ondan keyin qayiq shalolaga yetib keldi va o'qdek otilib pastga tushib ketdi. Qayiq shalola tagidagi girdobga tushib, uning tagida bir aylandida, yana qalqib suv betiga chiqdi.

Usta suzuvchi Dik Send endi ajaldan qutulish yo'lini o'zining qo'l kuchlariga bog'liq ekanini tushunardi... Suv oqimi bilan chorak soat olishgandan keyin Dik daryoning chap qirg'og'iga chiqib oldi; missis Ueldon, Jek va Gerkules yugurishib uning oldiga keldilar.

Yovvoyilar quturib qaynayotgan suv ichida yo'q bo'lib ketdi: hech qanday himoyasiz qolgan yovvoyilar girdob tagiga tushmasdanoq xalok bo'lishgandi. Quturgan suv oqimi ularning o'ligini daryo chetidagi qirrali toshlarga keltirib urdi.

Y i g i r m a n c h i b o b

XOTIMA

Ikki kundan keyin, ya'ni 20-iyul kuni missis Ueldon bilan hamrohlari Kongo daryosining mansabidagi Boma shahriga ketayotgan karvonni uchratdilar. Bular qul savdoganlari emas, balki Yevropaga fil suyagi olib ketayotgan portugaliyalik savdogarlar edi. Ular sayyohlarni juda yaxshi kutib olishdi. Shuning uchun ular qolgan yo'lni qiynalmasdan bosib o'tdilar.

Bu karvonga duch kelishgani ularning baxti bo'ldi. Dik Send, daryo mansabiga solda yetib olamiz, deb noo'rin orzu qilgan edi. Sayyoh Stenli Ntamo shalolasidan Iellaga borguncha yetmish ikkita shalola borligini aniqlagan. Bu joyda hech qanday qayiq ham o'tib keta olmas edi.

11-avgust kuni missis Ueldon, Jek, Dik Send, Gerkules va Benedikt tog'alar Boma shahriga yetib keldilar. Bu yerda ularni juda yaxshi kutib oldilar. Bu yerda ular Panamaga jo'naydigan Amerika paroxodiga to'g'ri keldilar. Missis Ueldon bilan uning hamrohlari shu paroxodga tushib, eson-omon Amerikaga yetib keldilar.

O'sha kuniyoq San-Fransiskoga yuborilgan telegramma Jems Ueldonga xotini bilan o'g'lining to'satdan qaytib kelganidan xabar berdi.

Nihoyat, 25-avgust kuni sayyohlar Kaliforniya-ni bosh shahri San-Fransiskoga yetib kelishdi. Tom va uning o'rtoqlari ham ular bilan birga bo'lsa koshki edi!..

Endi Dik Send bilan Gerkulesnig kelajak taqdiri to'g'risida nima desa bo'larkin? Dik Send Ueldonlarga o'g'il bo'ldi, Gerkules esa oilannig eng yaqin do'sti edi.

Jems Ueldon Dik bilan Gerkulesdan cheksiz minnatdor edi.

Negoroning San-Fransiskoga kela olmagan juda yaxshi bo'ldi-da. Albatta, xotini bilan o'g'lini qutqazib olish uchun mister Ueldon butun mol-mulkini ham ayammasdi. U Markaziy Afrikaga uchib borar edi. Kim bilsin, u yoqdan omon-eson qaytib kelarmidi, yo'qmi?

Benedikt tog'a to'g'risida ham bir necha og'iz so'z aytib o'taylik. U San-Fransiskoga kelgan kuni Jems Ueldon bilan shoshib-pishib ko'rishdi-da, o'z hujrasiga kirib ketdi. Benedikt tog'a «Benedikt oltioyoqlisi» haqida katta bir asar yozishga shoshilar edi. Uningcha, bu asar entomologiya fanida o'zgarish yasashi lozim edi.

Hasharotlar bilan to'lgan hujrasida u dastlab ko'zoynagi bilan lupasini qidirib topdi... Ammo u sayohatdan olib kelgan birdan-bir afrika hasharotini astoydil tekshirganidan keyin alamidan dodlab yubordi!

«Benedikt oltioyoqlisi» degani hech oltioyoqli emas ekan! Bu oddiy bir o'rgimchak ekan! Uning sakkiz oyog'i o'rniga olti oyog'i bo'lishining sababi shuki, Gerkules uni ushlayotgan paytda ehtiyotsizlik qilganidan oldingi ikki oyog'ini uzib qo'ygan ekan. Shunday qilib, «Benedikt oltioyoqlisi»ning fan uchun hech qanday qimmatini yo'q edi. Bunday o'rgimchaklar har qayerda to'lib yotibdi. Buning ustiga, u mayib edi!

Benedikt tog'a bu alamga chiday olmasdan, qattiq kasal bo'lib qoldi. Xayriyatki, uni davolab tuza-tishdi.

Uch yildan keyin kichkina Jek sakkiz yoshga to'ldi. U o'qiy boshladi. Dik Send o'z mashg'ulotlari orasida bir amallab vaqt topar va uning dars tayyorlashiga yordam berardi. San-Fransiskoga qaytib ke-

lishi bilan xijolatda qolgan Dik Send juda berilib o'qishga kirishdi, chunki birinchi marta o'ziga ishonib topshirilgan kemani bilimi yetishmasligi sababdan halok qilgani unga juda alam qilar edi.

— Ha, — derdi u o'z-o'ziga, — agarda men haqiqiy dengizchi bilimiga ega bo'lganimda, bunchalik yomon hodisalarga duchor bo'lmasdim!

Dik Send shunday deb o'ylar edi. O'n sakkiz yoshida dengizchilik maktabini tamomlab, kapitan unvonini olishi va Jems Ueldonning kemalaridan biriga kapitan bo'lishi ajablanarli ish emas edi.

Yosh bo'lsa ham hamma uni hurmat qilar edi. U ham botirligi, dadilligi, bardoshi va qat'iyligi bilan shunga loyiq edi.

Dik Send o'zining bo'sh vaqtlarida kekxa Tom, Bat, Akteon va Ostinlarni o'yarladi. Ularning baxtsizligi uchun o'zini aybdor deb hisoblar edi.

Missis Ueldon ham sobiq yo'ldoshlarining og'ir ahvolda qolishlariga juda achinar edi. Ularni qidirib topish uchun missis Ueldon bilan Dik Send yeru osmonni to'ntarib yuborishga tayyor edilar. Pirovardida, Jems Ueldonning savdogarlar bilan aloqasi yaxshi bo'lishi orqasida, Tom bilan uning sheriklari Madagaskar orolidan topildi. U yerda ham quldorlik tezda bekor qilindi.

Dik Send ularni qutqazib olish uchun o'zining bor-yo'g'ini sarf etishga tayyor bo'lsa-da, lekin Jems Ueldonni bunga ko'ndirib bo'lmadi.

Uning agentlaridan biri ularni qutqazib olib keldi. 1877-yil 15-noyabr kuni to'rtta qora badan odam Jems Ueldonning eshigini taqillatdilar. Bular Tom, Bat, Akteon va Ostinlar edi. Shuncha balolardan zo'rg'a qutulib kelgan bu bechoralar uchun yana bir yangi xatar bor edi, chunki ularni do'stlari o'z quchog'ida qisib o'ldirishlari ehtimol edi.

To'rt negr kelgan kuni Jems Ueldon uyida katta ziyofat bo'lgani o'z-o'zidan ma'lum. Hammadan ham missis Ueldonning, «o'n besh yoshli kapitan» Dik Send sharafiga, deb qadah ko'tarishi zo'r olqishlarga sazovor bo'ldi.

**JYUL VERN VA UNING «O'N BESH YO'SHLI KAPITAN»
NOMLI ROMANI**

1828—1905-yillarida yashagan fransuz yozuvchisi Jyul Vern o'zining ilmiy-fantastik va sarguzasht romanlari bilan shuhrat qozongan.

Jyul Vernning «Havo sharida besh hafta» nomli birinchi romani 1863-yilda bosilib chiqdi. Shundan beri qariyb yarim asr davomida yozuvchi har yili goh bitta, goh ikkitadan yangi asar yaratdi. Bu asarlarning ko'p qismi uning «Ajoyib va g'aroyib sayohatlar» nomli oltmish besh jild romanlar turkumini tashkil etdi. Jyul Vern romanlarida mazmundagi jozibadorlik har vaqt dunyoni o'rganishga yordam beradigan juda ko'p va turli-tuman ma'lumotlar bilan chambarchas chatishib ketadi. Bu ma'lumotlar zo'rma-zo'raki emas, balki voqealarning davomida muallif tilidan aytilgan hikoyadek ravon ketaveradi. Yozuvchi o'z romanlarida geografiyadan tortib astronomiyagacha, matematikadan tortib zoologiyagacha — har bir fan ma'lumotlaridan juda mohirlik bilan foydalanadi.

Jyul Vern romanining jasur qahramonlari qayerlarda bo'lmaganlar-ku, nimalarni ko'rmaganlar!

Bu qahramonlar o'zlarining ajoyib sayohatlari vaqtida hamma dengiz va okeanlarni kezib chiqadilar, tog' cho'qqilariga ko'tariladilar, dengizlarning sirli chuqurliklariga tushadilar, Jyul Vernning qahramonlari, hatto sayyohlar Shimoliy va Janubiy qutblarni topmasdan va tekshirmasdan ancha burun u yerlarga yetib borgan edilar.

Fantaziyasi boy yozuvchi Yer sayyorasi doirasi bilan cheklanib qolmasdan, o'z qahramonlarini kosmik fazolarga olib chiqadi, ularni Oyga va benihoya uzoq yulduzlar olamiga uchishga majbur qiladi.

Jyul Vern o'z romanlarida XIX asrdagi ilg'or olimlarning kashfiyot va nazariyalaridan ustalik bilan foydalandi.

Yozuvchi fan va texnikaning kelgusidagi rivojlanish yo'li va imkoniyatlarini nazarga olib, aksari ko'p yillar keyin keladigan ishlarni oldindan ko'rdi va kelgusining texnikasini tasvirlab berdi.

Hali suv osti kemalari bo'lmagan bir davrda dovyurak kapitan Nemo o'zining ajoyib suv osti kemasi «Nautilus»da suv ostida 80000 kilometr yo'l bosadi.

Samolyotsozlik sohasida endigina tajriba ishlari qilinib turgan yillarda Jyul Vernning qahramonlari «aeronef» degan ajoyib mashina yordami bilan osmonni zabt etdilar. Bu asbob qisman hozirgi zamon vertolyotiga o'xshab ketadi.

Ular samolyot bilan avtomobilning xususiyatlariga ega bo'lgan, yo'l tanlamaydigan mashina yasashga ham ulgurdilar.

Kashfiyotchi olimlar elektr quvvatidan foydalanish usullarini topish yo'lida astoydil ishlayotgan vaqtlarida, Jyul Vern romanlarida elektr quvvati yoritish va isitish uchungina emas, balki harakatga keltiruvchi kuch sifatida ham foydalani-ladi.

Yozuvchining zamondoshlariga asossiz va quruq xayol bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lgan narsalarning ko'pi keyinchalik amalga oshdi, hatto romanist-yozuvchi xayol qilganidan ham xiyla taraqqiy etib ketdi.

O'z asarlarini insoniyatga qarshi safsatalar bilan to'ldirib yuborgan hozirgi burjua fantastik romanlaridan Jyul Vern asarlarining farqi shuki, u odamlarda jonli ijodiy fikr uyg'otdi, fanning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga, fanning xurofot

va jaholat ustidan g'alaba qilishi muqarrar ekanligiga ishonch tug'dirdi.

Jyul Vern o'zining boshqa romanlarida dunyoning hamma qit'alaridagi qahramonlarining sarguzashtlarini tasvir etadi, lekin haqiqatdan chetga chiqmaydi. Bunda yozuvchining sevgan fani — geografiya birinchi o'rinda turadi¹.

Jyul Vern romanlarini o'qigan kitobxonlar turli mamlakatlarning tabiiy sharoitlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari bilan tanishadilar.

Jyul Vernning zo'r yozuvchilik faoliyati hamda fan va texnikaning barcha sohalaridan keng bilim egasi bo'lishi zamondoshlarini shu qadar hayratga solib qo'ygan ediki, matbuotda yozuvchi to'g'risida har xil afsonalar to'qiy boshladilar. Hech qanday Jyul Vern degan odam yo'q, bunchalik ko'p va turli-tuman kitoblarni yozish bir kishining qo'lidan kelmaydi.

Jyul Vern nomi ostida butun bir naturalist yozuvchilar va sayohatchilar jamiyati ish ko'rayotgan bo'lsa kerak, degan mishmishlar tarqaldi.

Ko'p kishilar, Jyul Vern ko'p yillar uzoq joylarni sayohat qilgan, romanlarida u o'z sarguzashtlarini yozayotgan bo'lsa kerak, deb qattiq ishonardilar. Ba'zi bir kishilar esa, Jyul Vern yaqin o'tmishda «Sen-Mishel» degan kemada dengiz va okeanlarni aylanib chiqqan jasur kapitan bo'lgan edi, deb da'vo qildilar va hokazo.

Ammo jurnalistlarning behuda safsatalariga javob berib o'tirish uchun yozuvchining vaqti yo'q edi. Jyul Vern bir necha yillik ijodiy ishlarni oldindan o'ylab qo'yadigan kishi edi.

U texnika va tabiiyot-geografiya sohasidagi hamma yangiliklarni astoydil kuzatar, o'zining ju-

¹ Jyul Vern romanlardan tashqari geografiyadan ilmiy-ommabop asarlar ham yozgan. «Yerni kashf etish» degan uch tomli asar shular jumlasidandir.

da katta kartotekasini eng so'nggi ixtirolar va ilmiy kashfiyotlar bilan muttasil to'ldirib borar edi.

Jyul Vern turli-tuman geografiya xaritalari osig'liq ish kabinetida yozuv stoli oldida uzoq vaqtlar ishlab o'tirgani o'tirgan edi.

Jyul Vernning qahramonlari sayohat qilishar, bulutlarning ust-ustlariga chiqib ketishar, Yerning markaziga tushib ketishar edi, Jyul Vern esa Parijdan uch soatlik yo'ldagi bir uyezd shaharchasi — Am'endagi uyidan chiqmay o'tirar edi. Lekin yozuvchi dam olish uchun ba'zi-ba'zidagina «Sen-Mishel» nomli yelkanli kemada oz-moz sayohat qilib qaytar edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida, Jyul Vern o'z romanlarini yozayotgan bir davrda kapitalistik mamlakatlar yangi bozorlar va yangi xom ashyo manbalarini qo'lga kirgizish uchun, mustamlakalardagi mulklarini kengaytirish uchun kurashni qizitib yuborgan edilar. Mehnatkashlar bilan kapitalistlar o'rtasida, oz sonli hukmron millatlar bilan mustamlaka va qaram mamlakatlardagi qul qilingan xalqlar o'rtasida qarama-qarshiliklar kuchayib ketdi.

Moliya va sanoat sohiblari qo'lga kiritgan boyliklariga qanoat qilmasdan, yangi bosqinchilik urushlariga tayyorgarlik ko'ra boshladilar.

Jyul Vern siyosatdan uzoq turadigan hamda ijtimoiy hayotning kundalik masalalaridan o'zini chetga oladigan kishi emas edi. Holbuki, chet el tanqidchilari odatda mashhur yozuvchini o'z romanlari bilan kitobxonlarni haqiqiy hayotdan chetga olib chiqib ketadigan allaqanday tentaknamo bir xayolparast qilib ko'rsatishga urinib kelganlar. Haqiqatda esa Jyul Vern asarlari orasida zamonasidagi siyosiy voqealar bilan birmuncha bog'liq bo'lmagan bironta ham asar bo'lmasa kerak.

Mustamlakachilar iskanjasi ostida ingrab yotgan mazlum xalqlarga nisbatan Jyul Vernning

mehr-muhabbatli juda baland edi. Yozuvchi xalqlar o'rtasida tinchlikni buzuvchi hamda adolatsiz, bosqinchilik urushi chiqaruvchi davlatlar to'g'risida g'azab bilan gapiradi.

To'g'ri, Jyul Vern o'z zamonasidagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni aniq va ravshan tushunib yeta olmagan edi; hamma ijtimoiy falokatlar, qonli urushlar va xalqlarni ezish manbai yozuvchiga tuyulganidek, ayrim davlat arboblari va hukumatlarning shunchaki yovuz niyati emas, balki mavjud tuzumning hukmronligi ekanligini tushuna olmadi.

Bir qancha romanlarida qahramonlarining janubiy kengliklardagi sarguzashtlarini tasvirlar ekan, Jyul Vern mustamlaka mamlakatlardagi yerlik xalqlarning naqadar ayanch bir ahvolda ekanliklarini o'zining yosh kitobxonlarga ko'rsatib o'tishni hech qachon unutmaydi. Jyul Vernning ko'p romanlarida uning butun ijodi davomida jaranglab turuvchi asosiy ijtimoiy mavzu — shu behisob xalqlarning qullikda yashashi to'g'risidagi mavzudur.

«O'n besh yoshli kapitan» shunday romanlardan biridir; adib bu romanda irqiy zulmga keskin ravishda qarshi chiqadi. Bu kitob o'zining jozibadorligi, syujetining qiziqqligi, asosiy qahramonlari — yosh kapitan Dik Send va negr Gerkuleslardagi jasorat va olijanoblik xislatlari kitobning birinchi sahifalaridan boshlaboq kitobxonlarni o'ziga maftun qiladi. Bu qahramonlar har qanday qiyinchiliklar oldida to'xtalib qolmay, har qadamda jon fido qilishga tayyor turib, o'zlarini ham, himoyasiz qolgan sheriklarini ham — missis Ueldon va uning kichkina o'g'li Jek, ajoyib parishonxayol olim Benedikt tog'ani ham muqarrar bo'lib qolgan o'lim xavfidan qutqazib olishning hech iloji yo'qdek ko'ringan paytlarda ham favqulodda ziyraklik va mardlik ko'rsatadilar.

Odatda, Jyul Vern asarlarida qahramonlardagi favqulodda sarguzashtlar, ularning dastlabki

niyatlarini amalga oshirishga halal beruvchi tasodiflar va to'sqinliklar tufayli vujudga keladi. Yarim yil mobaynidagina (voqea 1873-yil fevralidan iyul oxirigacha davom etdi) qahramonlar ochiq dengizda va ekvatorial Afrika ichkarisida o'nlab ajoyib sarguzashtlarni boshdan kechiradilar.

Bu joylarga ular o'z ixtiyorlaridan tashqari, o'taketgan jinoyatchi-qulfurush, niyati buzuq Negoroning aldovi bilan kelib qoladilar.

Romanning markazida tarbiya uyida o'sgan, yoshlik chog'idan muhtojlik va yo'qchilik jabrini tortgan, jasur Dik Send obrazi turadi.

Sharoitning taqozosi bilan o'n besh yoshli yigitcha kema kapitani bo'lib qoladi.

Yosh kapitanning kemachilik sohasidagi nazariy bilimi yetarli bo'lmasa-da, u dengizdagi qiyin safar vaqtida o'z amaliy hunarini juda mohirona ishlatib, o'ziga ishonib topshirilgan kema komandasini va yo'lovchilarni bir necha marta halokatdan qutqazib qoladi.

Xatarlar va to'sqinliklar ichida Dik Sendning irodasi chiniqadi va xarakteri mustahkamlashadi.

O'z sheriklari bilan Afrika changalzor-o'rmonlari ichida kezib yurar ekan, u har qadamda sabot va matonat ko'rsatadi; sheriklarining boshiga kulfat tushganida Dik Send, o'zi ham shu mahalda qil ustida turganiga qaramasdan, avvalo, ularni qutqazish payidan bo'ladi.

Dik Sendning xarakteridagi eng yaxshi xislatlar — g'ayrat, iroda kuchi, jasorat, sabot va matonat, adolat va olijanoblik xislatlari uni Jyul Vernning eng sevgan va sodda qahramonlaridan biri qilib qo'rganligi bejiz emas.

Jyul Vernning boshqa romanlaridagi kabi «O'n besh yoshli kapitan»ida ham biz juda ko'p va turli-tuman ilmiy ma'lumotlarni uchratamizki, bular hikoyaning umumiy jozibadorlik kuchini hech bir kamaytirmaydi. Masalan, entomologiya sohasidan qiziq ma'lumotlar, dengizchilik ishi-

dan, kit ovlash kasbidan ma'lumotlar, tropik Afrikaning o'simliklari va hayvonot dunyosining chiroyli tasviri va jumladan, qirchumolilarning hayoti haqida Benedikt tog'aning leksiyasi va hokazolar.

Bu romanning eng muhim vazifalaridan biri (juda ham qadim zamondagi emas, balki XIX asrning yetmishinchi yillaridagi!) dahshatli qul savdosi to'g'risida, bosib olgan joylariga o'zlari bilan birga o'lim va qullik keltiruvchi oq «sivilizatorlar»ning negr qabilalarini qirib yuborayotganliklari to'g'risida kitobxonlarga haqqoniy bir tushuncha berishdan iboratdir.

Jyul Vern o'z g'azab va nafratini yashirmay, qul savdogarlarining dahshatli yovuzliklarini tasvirlabgina qolmasdan, balki yevropaliklar tomonidan bu boy qit'ani topish va mustamlaka qilish tarixiga, XV asrdan boshlab to shu roman yozilgan 1878-yillargacha bo'lgan davrga oid epizodlarni ham yo'l-yo'lakay tasvirlaydi.

«O'n besh yoshli kapitan» romanida Livingston, Kameron, Stenli va shu kabi boshqa tekshiruvchi-sayyohlarning Janubiy Afrikaga qilgan sayohatlari tarixiga anchagina joy berilgan. 1873-yilning 1-mayida Bangveolo ko'li qirg'oqlarida vafot etgan Livingstonning fojiali qismati romandagi voqealarning borishi bilan bevosita bog'langan.

Shafqatsiz ablah qul savdogarlari — portugalialik Negoro va Koimbra, o'z xalqiga xiyonat qilgan negr Alvets, amerikalik Gerris va arab Ibn Homislarning yovuz basharalari muallif tomonidan o'ylab chiqarilgan narsalar emas. Afrikadagi qul oldi-sotdisining o'zi Jyul Vern kabi yozuvchining ham juda joy xayolidan oshib tushadigan voqeadir.

Afrikan mustamlaka qilish kabi vahshiyona usulni fashistlarning odam qirish usullarigagina tenglashtirish mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, qul savdogari Alvetsning siymosi uydirma obraz emas. O'n minglab odamlarning qirilib ketishiga

sababchi bo'lgan Alvets haqiqatda o'tgan odam. Bu ablah to'g'risida ma'lumotni Jyul Vern sayyoh Kameronning «Yer yuzi» nomli kitobidan olganligini o'zi ko'rsatib o'tadi...

Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan»i bosilib chiqqanidan beri yuz yildan ko'proq, 125 yil vaqt o'tdi.

Jyul Vernning XIX asrdagi mustamlaka xalqlarining og'ir ahvolini haqqoniy ravishda tasvirlab bergan «O'n besh yoshli kapitan» romani kitobxonlarimizda imperialistik tuzumga nisbatan nafrat tuyg'usini, hozir o'z qonuniy huquqlari uchun kurash olib borayotgan xalqlarni hurmatlash tuyg'usini tarbiyalashga yordam qiladi.

Tarjimon

**«O'N BESH YO'SHLI KAPITAN» ROMANIDA
UCHRAYDIGAN BA'ZI QIYIN SO'ZLAR**

Bak — kema palubasining tumshuq tomoni yoki o'sha yerdagi hujralar.
Bakbort — kemandagi so'l tomoni, borti.
Ballast — kema muvozanatini saqlash uchun ortiladigan yuk.
Bizan-machta — keyingi machta.
Biteng — langar arqoni bog'lab qo'yiladigan ustun.
Bramsel — pastdan sanaganda uchinchi yelkan.
Bram-stenga — stenganing davomi.
Bom-bramsel — pastdan sanaganda to'rtinchi yelkan.
Bom-bram — stenga machtaning to'rtinchi qismi.
Bom-bram-rey — machta pastdan to'rtinchi rey.
Botsman — kemandagi navbatchi boshliqning yordamchisi.
Bushprit — kemandagi tumshuq tomonidagi machta.
Vant — yelkanlarni mahkamlash uchun xizmat qiladigan arqonlar.
Vimbovka — shpilni aylantiradigan yog'och dasta.
Garpun — yirik baliqlarni ov qilishda otiladigan metall ov asbobi bir uchiga arqon bog'lab qo'yilgan bo'ladi.
Garden — yelkanni tortib bog'lab qo'yish va yuk ko'tarish uchun xizmat qiladigan asbob.
Grot-machta — kemandagi tumshuq tomonidan sanaganda ikkinchi machta.
Grot — pastki katta yelkan.
Kabeltov — dengiz uzunlik o'lchovi, 185,2 metr ga teng.
Kambuz — kema oshxonasi.
Kayuta — kemandagi hujra.
Kayut-kompaniya — kemandagi katta, umumiy kayuta.
Kliver — fok machta oldiga ko'tariladigan uchburchak yelkan.
Kubrik — kema komandasi kayutalarga joylashtirilmagan paytda komanda yashaydigan hujra.
Lag — kema tezligini o'lchaydigan asbob.
Lin — bir dyuymdan ingichka bo'lgan arqon.
Lotsman — kemalarni dengizdan portga yoki portdan dengizga boshlab olib chiqadigan matros.
Le — qadim fransuz uzunlik o'lchovi, 4,5 km ga teng.
Lyuk — kemandagi past qismiga kiriladigan teshik.

Marsel — machta pastdan ikkinchi yelkan.
Machta — yelkan ko'tariladigan ustun.
Mil — uzunlik o'lchovi, 1852 metr.
Navigatsiya — kema boshqarish to'g'risidagi fan.
Naktouz — kompas yashigi.
Paluba — kema sahni.
Paketbot — qadimgi pochta kemasi.
Pert — rey ostidagi arg'imchoqlar; matroslar bular ustiga chiqib yelkanlarni mahkamlaydilar.
Pyartners — palubadagi machta o'rnatiladigan teshik.
Rey yoki reya — machta ko'ndalang qoqilgan yog'och.
Rif¹ — suv osti toshlari.
Rif² — yelkanning bir qismi, yelkanning yig'ilgandan keyingi kichraygan ko'rinishi.
Rongaut — yelkan ko'tarish uchun kerak bo'lgan narsalarning hammasi (machta, reylar, arqonlar va hokazo).
Rostr — qayiqni kemaga o'rnatib qo'yiladigan joy.
Rumb — kompasdagi 32 bo'limdan biri.
Staksel — kemandagi burun tomonida ko'tariladigan ikkinchi uchburchak yelkan.
Stenga — machtaning yuqori qismi; u machtaning pastki asosiga ulangan bo'ladi.
Takelaj — kemandagi butun asbob-uskunalar.
Tryum — kemandagi ichkarisi, pastki qavati.
Topsel — uchburchak yelkan; o'tkir burchagi pastga qaratilib, to'rtburchak yelkan ustiga ko'tariladi.
Fok — oldingi machta pastki katta yelkan.
Fok-machta — kemandagi oldingi machtasi.
Fut — uzunlik o'lchovi, 30,5 santimetr.
Xronometr — kemandagi qayerdaligini aniqlashga xizmat qiluvchi aniq soat.
Shkot — yelkanning past tomonini tortishga xizmat qiladigan asbob.
Shxuna-brig — ikki yoki uch machtali kichik kema.
Shpil — yelkan ko'taradigan chig'ir.
Shtil — dengizda shamol esmay qolgan vaqt.
Shtirbort — kemandagi o'ng tomoni, borti.
Shturval — rul.
Yunga — kemada dengizchilikka o'rgatiladigan yosh matros.
Yut — kemandagi quyruq tomoni.
Yard — uch fut yoki 0,9144 metr.

JAHON SARGUZASHT ADABIYOTI

JYUL VERN

O'N BESH YOSHLI KAPITAN

Roman

Toshkent
«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
2003

Muharrir: *B. Eshpo'latov*
Badiiy muharrir: *M. Samoylov*
Texnik muharrir: *D. Gabduraxmanova*
Komputerda sahifalovchi *T. Ogay*
Musahhihlar: *Yu. Bizaatova, Sh. Xurramova*

Bosishga ruxsat etildi: 05.05.2003. Bichimi 84x108 ¹/₁₆
Ofset bosma. «Shkolnaya» garniturası. Shartli bosma tobog'
22,0. Nashr bosma tobog'i 20,0. Adadi 5.000 nusxa. Buyurtm
№ 3444. Bahosi kelishuv asosida.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.